

026 2

15

4-94

MUXAMEDOVA D.G., SALOMOVA G.SH

# PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI



026 2

15

14-94

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MUXAMEDOVA D.G., SALOMOVA G.SH

**PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR  
MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH  
METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI**

**DARSLIK**

Bilim sohasi: 200000 – ijtimoiy soha, iqtisod, huquq  
Ta'lif sohasi: 210000 – sotsiologiya va psixologiya  
Ta'lif yo'naliishi: - Psixologiya (amaliy psixologiya)



UO'K: 575(075.9)

KBK: 51.204.0.88

**Muxamedova D.G., Salomova G.Sh**

**Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari** [Matn]: darslik / Muxamedova D.G., Salomova G.Sh. -Toshkent: «Zebo print, 2021. - 400 b.

**Mualliflar:**

**Muxamedova D.G** – psixologiya fanlari doktori, professor;

**Salomova G.Sh** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Darslik Oliy ta'lim muassasasi Psixologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Darslikdan, Psixologiyada miqdoriylar tahlil metodlari va Psixologik ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash metodlari modullari o'rinni olgan. Har bir mavzu nazorat savolari va pedagogik texnologiya metodlari, tayanch tushunchalar bilan mustahkamlangan. Mavzular diagramma va jadvallar ko'rinishidagi ma'lumotlar berib boriladi. "Psixologik tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari" fanini o'rganishda talabalarga ma'lumotlarni an'anaviy usulda tahlil qilish bilan birga ularni kompyuter dasturlarida qayta ishlashga doir bilimlari boyitiladi.

Учебник предназначен для студентов факультета психологии высших учебных заведений. Учебник состоит из модулей Методы количественного анализа в психологии и Методы компьютерной обработки психологических данных. Каждая тема подкреплена контрольными вопросами и методиками педагогической технологии, основными понятиями. В учебнике по тематике курса информации представляются в виде диаграмм, рисунков и таблиц. При изучении курса «Методы и технологии обработки данных психологического исследования» студентам дается знания о традиционных методах анализа данных, а также их обработки в соответствующих компьютерных программах.

**Taqrizchilar:**

**Barotov SH.R** – Psixologiya fanlari doktori, professor;

**Shamsiyev O'B** – Psixologiya fanlari doktori, dosent.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 6 oktabrdagi 522-113-soni buyrug'iiga asosan 5210200-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun asosiy darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

XXI asrning eng dolzARB va zamonaviy sohalaridan biri bu ma'lumotlAR bilan ishlash, ularni qayta ishslash va ularga matematik statistik ishlov berish kabi masalalar bilan bog'liqdir. Har bir fanning ishonchligi va mavqeyi unga tegishli bo'lgan ma'lumotlarning matematik metodlar bilan qanchalik darajada isbotlanishiga bog'liq. Psixologiyada, tadqiqotchi tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar orqali, ilmiy farazlarini matematik-statistik usullarda tekshirish inkoniga ega.

Har bir ilmiy izlanish so'ngida qo'Iga kiritilgan ma'lumotlarni jadvallar, grafik diagrammalardan foydalanish orqali taqdim etish, tadqiqot natijalarini taqdim etish uslublari nihoyatda muhim.

Taqdim etilayotgan ushbu darslikda psixologik tadqiqotlarda olingan ma'lumotlarni qayta ishslash metodlari va texnologiyalari haqida batassil tushunchalar berilgan. Ma'lumotlarni dastlabki statistik tahlillar asosida qayta ishslash, tadqiqot guruhlari xarakteristikasini belgilash, ular xarakteristikasiga ko'ra o'chov mezonlarini va o'chov shkalalarini tanlash darslikda keltirilgan. Shuningdek, ma'lumotlarni empirik tahlil qilish usullari misollarda ko'rsatilgan.

Darslikning birinchi bobida ma'lumotlarni «qog'oz-qalam» an'anaviy usulida ishslash yo'l-yo'rqliari ko'rsatilgan. Matematik-statistik mezonlarning qo'llanilish tarixi, ularning psixologik fanlarda qo'llash ahamiyatlari berilgan. Psixologik ma'lumotlarni tahlil qilishda kritik qiymatlar jadvallari bilan ishslash, mos keladigan mezonni tanlay bilish va kerakli qiymatni jadvaldan topib olish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berilgan.

Darslikning ikkinchi bobida, psixologik tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarni SPSS-23 va Microsoft EXCEL-2017 dasturlarida tahlil qilish va tegishli mezonlarni belgilash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarni grafiklarda taqdim etish, ma'lumotlarga mos grafiklar tanlash bo'yicha mavzularda misollar keltirilgan.

Mavzu tayanch iboralar, mavzuga doir savollar bilan mustahkamlangan. Har bir mavzu yuzasidan misollar va ularning bajarilish tartibi keltirilgan.

Mazkur darslik, psixologiya mutaxassisligi yo'nalishi ikkinchi kurs talabalariga uchinchi va to'rtinchi jarayon davomida «Psixologik tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishslash metodlari va texnologiyalari» fani bo'yicha tuzilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Shuningdek,

darslikdan kurs ishi, bitiruv ishi va psixologik ilmiy maqolalarning tahliliy qismlarini yozishda qo'llash mumkin.

Darslik so'ngida kritik qiymatlar jadvallari berilgan. Unga ko'ra, talabalar qo'llanilgan mezon asosida kerakli qiymatlarni jadvaldan osongina topib olishlari mumkin.

# I MODUL. PSIXOLOGIYADA MIQDORIY TAHLIL METODLARI.

## 1– mavzu: MATEMATIK STATISTIKANING ASOSIY TUSHUNCHALAR.

**Tayanch tushunchalar:** alomatlar, bosh ko'plik, belgilar, validlik, variantlar, dixotomik shkala, deskriptiv statistika, diskret shkalalar, gnesologiya, intensiv kattaliklar, individual ko'rsatkichlar, induktiv statistika, introvert, intellekt darajasi, kattaliklar, kazual qonuniyat, kvantifikatsiya, korrelyatsiya, kuzatuvlar, kuzatilgan qiymatlar, korrelyatsiya, ranglar korrelyatsiyasi, rang, reprezentativlik, ma'lumotlar tahlili, miqdoriy o'zgaruvchilar, nazorat guruhi, normal taqsimot, noperametrik, ob'ekt, ob'ektivlik, parametrik, psixogenetik, psixofizika, pertsepsiya, reduktsiya, sub'ektivizm, stoxastik qonuniyat, stimul, sub'ektivlik, statistik faraz, tavsiflovchi statistika, tanlanma, testologiya, chastota, o'zgaruvchilar, shkala, o'lchov shkalalari, o'zgaruvilar, ekstrovert, eksperiment guruhi, ehtimollar nazariyasi, eksperiment, ekstensiv, empirik, element.

### 1.1. Psixologiyada o'lchov an'analarining tarixi.

Har qanday ilmiy an'ana sifatida tadqiqot jarayoni falsafiy va tabiiy fanlarning texnik tizimiga tayanadi. Bu tizim, harakatlana turib, o'zi ob'ekt bo'ladi va bu vaziyatda tadqiqotchining sub'ektivizmidan kelib chiqish tendentsiyasiga chek qo'yiladi. Tadqiqot metodlari uch yo'nalishda rivojlanadi. Birinchi yo'nalish: o'lchanayotgan sifatning o'zgaruvchilar tomon soddalashib borishini (**reduktsiyasini**) bildiradi. Ikkinci yo'nalish: o'lchanayotgan ob'ekt va asl o'zgaruvchilar o'rtasidagi muvozanatning saqlanishidir. Uchinchi yo'nalish: o'zgaruvchilarning faktorli tahlili davomida asl sifatlarining paydo bo'lishidir<sup>1</sup>.

G. Fexnerning g'oyalari uning «Psixofizika elementlari, (1860)» deb nomlangan ishida psixologik tadqiqotlarning boshlanishiga asos bo'ldi va o'lchov an'analarining yo'nalishini belgiladi. Psixologik tadqiqotlarda individ psixikasini o'rganish uchun Fexner yo'nalishi bilan bir vaqtda matematik yondashuv ham rivojlanib bordi. Psixologiya shu davrdan boshlab kazual (sababiy) qonuniyatni emas, balki stoxastik

<sup>1</sup> Кэмпбелл Дж. Модели экспериментов в социальной психологии и прикладных исследованиях. – М.: Прогресс. 1980. С 243.

(ehtimoliy) qonuniyatni o'rganuvchi miqdoriy fan sifatida rivojlana boshladi. Statistik yondashuv esa, psixologiyaning aniq fan sifatida o'zgarib borishini belgiladi. R. Kettelning bu borada aytgan fikrlari yodimizga tushadi: Ya'ni, «Psixologiya eksperimental o'lchovlarga asoslanmasa agar, fizika fanlaridek, aniq va mustahkam fan bo'lomaydi»<sup>2</sup>. O'lchov an'analari mazkur fanning shakllanishi bilan bog'liq bo'lsada, u XX asr boshlarigacha, ya'ni G.Gelmgolts o'lchovning reprezentativ nazariyasiga asosiy g'oyalari bilan ta'sir etmagunga qadar jiddiy o'rganilmagan. O. Gelder esa, ekstensiv kattaliklarning aksiomatik o'lchovlarini rivojlantirdi. Shundan boshlab, matematika psixologik tadqiqotlarda, asosan testologiyada keng qo'llanildi<sup>3</sup>.

Noparametrik metodlar tarixi J. Arbetnot 1710 y., tadqiqotlaridan o'g'il bolalar va qiz bolalar tug'ilishining farazi tekshirilishida belgilar mezonidan foydalanishi bilan boshlandi. XIX asrda esa, G. Fexner va F. Galton ranglar korelyatsiyasi koefitsientlari va ranglarni qo'llay boshlashdi. Ch. Spirmanning (1904) ranglar korrelyatsiyasi, psixologiya ahlini e'tiborini tortdi. A.N. Kolmogorov, (1933 yil), N. V. Smirnov (1935), F. Uilkokson (1945), S. Sigel (1956) va boshqa tadqiqotchilar esa, matematik statistikaning mustaqil yo'nalishi sifatida noparametrik statistikani yaratishdi<sup>4</sup>.

Parametrik o'lchovlarning yaralishiga F. Galton sababchi bo'lган. Uning tadqiqotlarida bevosita o'lchov metodlarining qo'llanganligini guvohi bo'lamiz. 1869 yilda F. Galtonning «Tug'ma geniy» degan kitobi chiqdiki, unga ko'ra shaxs qobiliyatlarining o'lchovi statistik tahlillar asosida olib borildi. O'z shogirdi K. Pirson bilan psixogenetik tadqiqotlar olib borar ekan, F.Galton inson qobiliyatining tug'ma ekanligini istbotlash maqsadida, bir qator laboratoriya sharoitida tadqiqotlar olib bordi va hozirgi kunda ijtimoiy sabablarga ko'ra, yo'qolib ketgan «yevgenika» yo'nalishiga asos soldi. Uningcha, insonning nuqsonlari ham tug'ma bo'lib, bu normal taqsimotning o'zgarishiga olib keladi. Ammo bu g'oyalalar katta tanqidlarga uchradi va hanuzgacha fan olami F.Galtonning mazkur g'oyalalarini tanqid ostiga olib kelmoqda.

<sup>2</sup> Ярошевский М.Г. История Психологии. М.Мысл. 1985.(268 с).

<sup>3</sup> Ярошевский М.Г. История Психологии. М.Мысл. 1985.(269 с).

<sup>4</sup> Бусыгина Н. П. Методология качественных исследований в психологии : учеб. пособие. М.: ИНФРА-М, 2013. С. 25–26.

Shuningdek, psixologik tadqiqotlarda «Gauss-Laplass taqsimoti» ham nihoyatda mashhur hisoblanadi. Ya’ni normal taqsimot qonuniyatini yaratishda «qo’shgan qiyshiq» shaklning o’zgarishi matematik asoslanadi.

F.Galtonning psixologiya fani rivoji uchun qo’shgan hissasi shundaki, u, psixologiyada metodik vositalarni ishlab chiqdi va ular orasida eng istiqbollisi, empirik o’zgaruvchilar o’tasidagi korrelyatsion hisoblashlar sanaladi. Keyinchalik mazkur hisoblashlar K.Pirson tomonidan mukammallashtirildi va faktorli tahlil rivojlanishiga asos bo’ldi.

Shuningdek, ijtimoiy psixologiyaning ob’ektiv, empirik yo’naliishlari rivojlanishida F.Olportning xizmati kattadir. Uning ijtimoiy o’lchov metodlari muammosiga qo’shgan asosiy hissasi shundaki, u sinaluvchilarining shaxsiy sifatlarini ularning hatti-harakatlarida namoyon bo’lishini bog’lashga harakat qildi.

Shunday qilib, 1930 yilning boshlariga kelib, ijtimoiy o’lchov nazariyasi mualliflari empirik ma’lumotlarni yig’ishda eklektik amaliyotdan empirik amaliyotga ya’ni to‘g’ridan-to‘g’ri sub’ektivistik ko’rsatkichlarni standart o’lchash an’analariga o’tishiga hissa qo’shdilar. Ammo mazkur yondashuvning zaifligi, chala ishlanganligi uning yaxshigina tanqid ob’ekti bo’lishiga olib keldi. Bu yerda muammo shundan iborat ediki, psixologik ma’lumotlarning kvantifikatsiyasi, eksperiment va o’lchovning tashqi validligi, eksperimental tanlanmaning reprezentativligini ta’minlash muammolarini yechish metodlarini izlash darkor edi. O’lchov shkalalarini tuzish (E. Bogardus, F. Ollport, L. Terstoun, R. Likert va boshqalar ishlari) ijtimoiy o’lchov muammolariga jiddiy yondashishni talab qildi. Shuningdek, psixologiyada o’lchov metodlarining rivojlanishida L. Terstoun tomonidan «just taqqoslashlar metodi» takomillashtirilishi asosiy rol o’ynadi. 1929 yilda L. Terstoun E. Chevv bilan birgalikda «bir xil tuyulgan intervallar» metodini soddalashtirdilar va «intervallarning pertseptiv tengligi» metrikasini ishlab chiqdilar. Bu xodisa an’anaviytus oldi va psixologiyada o’lchov jarayonining rivojlanishida muhim qadam edi.

Statistik parametr hisoblangan dispersiyani aniqlash usullari ilk marotaba 1929 yilda amerikalik statist R. Fisher tomonidan ishlab chiqildi<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> Гусев А.Н. Дисперсионный анализ в экспериментальной психологии. М. 2000 (3 с).

## **1.2. Falsafa va psixologiya fanlarida sifat va miqdor tushunchalarining o'zaro aloqadorligi.**

O'lhash uslubini gnoseologik asoslash o'r ganilayotgan ob'ekt (hodisa) sifat va miqdor ta'riflari nisbatining ilmiy anglanishi bilan uzviy bog'liq. Ushbu uslub yordamida faqat miqdor ta'riflari qayd etilsa ham, bu ta'riflar o'r ganilayotgan ob'ektning sifat jihatidan aniqlanganligi bilan bog'liq. Aynan sifat jihatidan aniqlanganlik tufayli o'lchanishi kerak bo'lgan miqdor ta'riflarini ajratib olish mumkin. O'r ganilayotgan ob'ekt sifat va miqdor jihatlarining birligi ushbu jihatlarning nisbatan mustaqilligini, shu bilan birga ularning chuqur o'zaro bog'liqligini anglatadi. Miqdoriy ta'riflarning nisbatan mustaqilligi ularni o'lhash jarayonida o'r ganish, o'lchov natijalarini esa ob'ektning sifat xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida foydalish imkonini beradi.

Eksperimental tadqiqotlarda bir qator metodlarning qo'llanilishi psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi mavqeyini mustahkamladi. S.L. Rubenshteynning fikricha (1946), «Bir necha o'n yilliklar ichida psixologiyada qo'llaniladigan amaliy eksperimental material anchagina ko'paydi va fanda qo'llaniladigan metodlar yanada mukammallashdi va aniqroq ko'rinishga ega bo'ldi. Fanning ko'rinishi birmuncha jiddiy tus oldi. Nafaqat yangi, balki kuchli eksperimental metodlarning qo'llanilishi psixologik muammolar oldiga yana qator yangi, zamonaviy muammolarni qo'ydiki, ularni hal qilish muammoysi qiyinchilik tug'dirmaydi».

Yana shuni ta'kidlash lozimki, eksperimentga asoslangan miqdoriy metodlar bilan bir vaqtida tavsiflovchi (sifatli) metodikalar rivojlanib bordi.

XIX-XX asrlarda g'arb psixologiya olamida psixologik tadqiqot metodlari individual mavqega ega bo'lib, falsafiy fanlardan ajralib chiqib, stoxastik metodlar asosida kazual holatlarga baho berish usullari takomillashtirildi. Uning tuzilishi tarkibida psixologik tadqiqotlarning ichki va tashqi validligi ta'minlandi.

## **1.3. Psixologiya fanida miqdordan sifatga o'zaro o'tish.**

Psixologiya fanida miqdordan sifatga o'zaro o'tish muammoalri sifat va miqdor belgilarini tahlil qilish orqali o'r ganiladi.

**Sifat belgilari:** Ob'ekt ega bo'lgan va ega bo'lmasagan belgilar. Ularni bevosita o'lhash mumkin emas (masalan, soch rangi, ixtisoslik, malaka, millat, hududiy mansablik, ma'lumot va h.k.).

**Miqdor belgilari:** 1) diskret belgilar (muayyan sonlar qatoridan ayrim qiymatlarnigina qabul qilish mumkin, masalan, yashalgan yillar soni, bir necha marta o'q uzilganda nishonga urishlar va xatolar soni va h.k.); 2) uzlusiz belgilar.

Muayyan oraliqda qanday qiymatlarni qabul qilish mumkin? Masalan, mexanizmlarning ishlash vaqtini va h.k.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi dialektikaning ikkinchi qonuni hisoblanadi. Sifat borliqqa mutanosib bo'lib, muayyan xususiyatlarning, narsa va xodisalar bog'liqligining barqaror tizimidir. Miqdor esa narsa va xodisalarning o'lchanadigan parametrлari (raqam, qiymat, ko'lam, og'irlilik, o'lcham va h.k.). Meyor – miqdor va sifat birligidir. Muayyan miqdoriy o'zgarishlar ta'sirida sifat ham o'zgarib boradi, ammo sifat cheksiz o'zgarolmaydi. Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tishiga bir necha misollar keltirish mumkin: aytaylik, oriq kishi har kuni 50 grammdan vazn orttira boradi. Bora-bora uning semiz odamga aylanishi tayin. Ammo 50 grammdan vazn orttirishning qaysi lahzasidan boshlab, uni semizlar safiga qo'shish mumkin. Yoki aksincha maxsus parxez tutgan semiz kishi kuniga shuncha vazn yo'qotsa, qaysi lahma uning niyatiga yetganini (kerakli vaznga erishganini) belgilaydi.

Narsa va ob'ektlarga muntazam ta'sir etib turgan miqdoriy ta'sirlar, o'sha narsalarning tarkibiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ammo butunlay tarkibiy o'zgarish lahzasini aniqlash mushkul.

Sifat o'zgarishlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin: to'satdan, lahzalik, bilinmay, evalyutsion o'zgarishlar.

Sifat – narsalarning ichki xususiyatidir. Miqdor esa, narsalarning tashqi xususiyatidir. Ular meyorda to'qnashadilar.

#### 1.4. Hozirgi zamон fанида va psixologiyada o'lchov tushunchasi.

Har bir ob'ekt, jism, massa o'z o'lchov birligiga egadir va har bir xodisa o'rganish uchun dastlab o'lchanadi. Psixologiyada har bir ma'lumotlarga va olingen natijalarga mos o'lchov shkalalari tanlanadi. Psixologiyada o'lchov tushunchasi psixik xodisalarning miqdorini o'lhash imkoniyati mavjudligini bildiradi. Psixologik qonuniyatlarning yaratilishi, rivojlanishi va mustahkamlanishi undagi o'lchov

metodlarining qo'llanilish jarayonlariga va xarakteristikasiga bog'liqdir. Psixologik xususiyatlar o'rtaida miqdoriy bog'liqliklarni baholash va belgilash o'chov metodlari orqali amalga oshadi.

Bu yerda o'chov, psixologiyani tavsiflovchi fan darajasidan ma'lumotlarga asoslangan va oldindan faraz va taxminlarni ilgari surishga qodir fan sifatida belgilaydi. O'chov, barcha mavjud bo'lgan voqeа-xodisalar, jarayonlarda ma'lum bo'ladi yoki biron narsaga ta'sir o'tkazadi degan g'oya asosida baholanadi.

Psixologiya fanida o'chash turli psixodiagnostik metodikalar va ular uchun yaratilgan texnik qurilma (jihozlar) yordamida amalga oshiriladi. Qiyoslash namunasi sifatida esa, metodika mualliflari yoki tadqiqotchi psixologlar (psixologlar guruhi) tomonidan aniqlangan me'yordan foydalilanadi.

O'chash aniqligi muammosi ham empirik bilish uslubi sifatida shu kabi o'chashning gnoseologik asoslariga oid hisoblanadi. O'chash aniqligi o'chash jarayonidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Ana shunday ob'ektiv omillar qatoriga qyidagilar kiradi:

✓ o'rganilayotgan ob'ektda u yoki bu turg'un miqdor ta'riflarini ajratib olish imkoniyati murakkab, ba'zan esa buning umuman iloji bo'lmaydi;

✓ o'chash vositalari imkoniyatlari (ularning mukammallik darajasi) va o'chash jarayoni kechayotgan sharoitlar. Qator hollarda kattalikning aniq qiymatini topishning umuman imkon yo'q.

Psixologiyada o'chash ob'ekting murakkabligi, aksariyat hollarda uning yashirinligi (ba'zida tekshiriluvchining o'zi ham bilmasligi, anglamasligi mumkin) ob'ektiv qiyinchiliklarga olib keladi.

O'chashning sub'ektiv omillari qatoriga o'chash usulini tanlash, ushbu jarayonni tashkil qilish va sub'ektning bilish imkoniyatlari – eksperiment o'tkazuvchi malakasi, uning olingan natijalarini to'g'ri va savodli izohlab berish mahorati kiradi. Bu borada psixologlarning metodikalarni bilishi, qo'llay olishi va to'g'ri sharhlay olishi katta ahamiyatga ega.

O'chashning muayyan tuzilmasi o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

1) bilish sub'ekti, muayyan bilish maqsadlarida o'chashni amalga oshiradi;

2) o' Ichash vositalari, ular orasida inson tomonidan yasalgan asbob-uskunalar, shuningdek tabiiy buyum va jarayonlar ham bo'lishi mumkin;

3) o' Ichash ob'ekti, ya'ni o' Ichaganadigan kattalik yoki qiyoslash amaliyotini qo'llash mumkin bo'lgan xossa;

4) o' Ichash usuli yoki uslubi bo'lib, o' Ichash asboblari yordamida bajariladigan amaliy harakatlar, operatsiyalar yig'indisidan iborat bo'lib, o'z ichiga shuningdek muayyan mantiqiy va hisoblash amaliyotlarini ham oladi;

5) o' Ichash natijasi, nomlangan kattalikdan iborat bo'lib, tegishli nomlar yoki belgilar yordamida ifodalanadi.

O' Ichash aniqligi muammosi ham empirik bilish uslubi sifatida shu kabi o' Ichashning gnoseologik asoslariga oid hisoblanadi. O' Ichash aniqligi o' Ichash jarayonidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar nisbatiga bog'liq bo'ladi.

"Data Analizing", "Data predicting" kabi ma'lumotlarni tahlil qilivchi zamonaviy sohalar shiddat bilan hayotimizga kirib kelmoqdaki, bu bevosita psixologik tadqiqotlarda ham o'z aksini topmoqda.

Olingen ma'lumotlar bilan ishslash, psixologik tadqiqotlarda zamonaviy kompyuter dasturiy operatsiyalari orqali natijalarni tahlil qilish kundan-kun rivojlanib bormoqda. Misol uchun, SPSSning avlodlari taqdim etayotgan xizmatlari psixolog tadqiqotchilarning ishlarini ancha yengillashtirmoqda. SPSS dasturi «Statistical package for social sciences» ya'ni ijtimoiy fanlar uchun statistik paket psixologik ma'lumotlarning dastlabki tasniflovchi statistik qiymatlarini hisoblab berish, korrelyatsion tahlillar o'tkazish, farazlarning ahamiyatini statistik baholash, ma'lumotlarni vizuallashtirish, grafiklar taqdim qilish va boshqa ko'plab operatsiyalarni mukammal bajaradi.

Shuningdek, Microsoft Excel va STATISTICA, ANOVA (analize of variance - dispersiyani tahlil qilish) kabi dasturlar dastlabki deskriptiv tahlillarni amalga oshirish, korrelyatsion, regression amallarni bajaradi. Dasturlar «qog'oz va qalam» usulidan ko'ra, vaqtin tejashi va ko'pfunktionalligi bilan mukammaldir.

Psixologiyada o' Ichovni amalga oshirishda, miqdoriy o'zgarishlar xodisalarning sisat o'zgarishiga yoki aksincha ta'sir ko'rsatishini inobatga oladilar. O' Ichovning amalga oshishi va shakllanishi quyidagi uch aspekt orqali kechadi:

a) o'zgaruvchilarning miqdori yoki o'zgaruvchilar intervali (to'g'ri javoblar soni va qiziqishlar oraliq'i);

b) ayrim xodisalar chastotasi (xodisalarning qanchalik ko'p takrorlanishi ularning kuchliligini anglatadi);

c) xodisalarning intensivligi, kuchi va qiymati.

Psixologiyada o'lchov ikkita asosiy yo'nalishda qo'llanilishi kuzatiladi. Birinchisi psixofizik xodisalar, ikkinchisi psixometrik xodisalar. Birinchisida eksperimental sharoitlarda jismoniy stimullarni ko'rsatish va qo'llashga urinishlar sonining hisoblanishi (turli vazn ob'ektlari, ovoz va yorug'lklarning intensivligi). Psixometrik yo'nalishlar hulq-atvor va kechinmalarni baholaydigan psixologik modelli vaziyatda namunalarning psixologik testlar va tadqiqotlarda qo'llanilishi.

Psixologiyada o'lchovning uch jarayonda qo'llanilishi kuzatiladi:

Birinchisi – u yoki bu xususiyanlarning yaqqol shakllanganligiga qarab, psixolog, insonlarning hatti-harakatini baholaydi. Bu yerda psixolog hulq-atvorning xususiyatlarini o'lchash barobarida sinaluvchilarining xarakterini baholaydi. Tadqiqotchi u yoki bu psixologik holatning mavjudligini, shaxs tiplarini, bir shaxsning ikkinchisidan farqini o'lchov asosida baholaydi. Psixologik o'lchov sinaluvchilarining bahosi bo'ladi.

Ikkinchisi – psixolog o'lchovni sinaluvchiga yuklatilgan vazifasi tariqasida qo'llash jarayonida ikkinchisi tashqi ob'ektlarni, boshqa odamlarni, tashqi olamning stimuli va predmetini, o'z holatini klassifikatsiyalashi, ranglashtirishi, baholashi mumkin. Bu holat ko'pincha stimullarning o'lchovi sifatida baholanishi mumkin. Bu yerda stimul deb tor doiradagi psixologik yoki hulq-atvoriy holatlar emas, balki kengroq ma'noda tushiniladi. Stimul ostida barcha shkalalash-tiriladigan ob'ektlar tushiniladi.

Uchinchidan, stimul va sinaluvchilar xususiyatlari bir o'lchov o'qi asosida baholanadilar. Ya'ni inson hatti-harakati va unga ta'sir etuvchi omillar birgalikda, aloqadorlikda va bog'liqlikda o'rganiladi.

### 1.5. Matematik statistika

Tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishlash uchun eng avvalo matematik statistik tahlillardan foydalananadi.

**Matematik statistika** – kuzatuv va tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning ommaviy tasodifiy xodisalarini ehtimoliy modellarini

qurish maqsadida tahlil qilish, sharhlash va qayd qilish metodlarini ishlab chiquvchi matematikaning bir bo'limidir<sup>6</sup>.

Matematik statistikada farazlarni tekshiruvchi umumiy nazariya va konkret farazlarni tekshirishga qaratilgan metodlarning katta miqdori mavjuddir. Zamonaviy matematik-statistik tahlillarda davomiy statistik tahlillarini rivojlanishida vengriyalik matematik Abraham Vald o'zining fundamental hissasini qo'shdi.

Statistikaning ma'lumotlarni dastlabki tavsiflash va induktiv statistik metodlari mavjud bo'lib, ular olingan ma'lumotlarning elementar va empirik tahlillari asosida olib boradi. U yoki bu matematik metodlar yordamida shaxs xulq-atvori shkalalar tarkibida baholanadi. Ushbu metodlar orqali qo'lga kiritiladigan natijalar ustida matematik-statistik tahlillar olib boriladi. Natijada xomaki ballar matematik-statistik ishlov berilgach, tahlil qilishga va qo'llashga yaroqli hisoblanadi.

Matematik statistik usullarning qo'llanilishi yuzasidan quyidagi amaliy misollarni ko'rib chiqamiz: misol uchun, mакtab o'quvchilarining ekstroversiya, introversiya, neyrotizm va intellekt kabi parametrilari aniqlandi. Psixologni ushbu xususiyatlar o'zaro bir-biri bilan qanchalik bog'liqligi qiziqtirdi. Introvertlarning ekstrovertlarga nisbatan anchayin aqlli ekanligi to'g'rimi? Bu holatni tekshirmoqchi bo'lgan psixolog introvert va ekstrovertlarni ikki guruhga ajratdi. Va introvertlar guruhini eksperimental guruh etib belgilaydi. Chunki uning aqlliilik to'g'risidagi taxmini aynan o'sha guruhga tegishli edi. Ekstrovertlar guruhini «eksperiment guruhi» ning ma'lumotlarini taqqoslaysidigan «nazorat guruhi» etib belgilandi. Har bir guruh natijalarida o'rta arifmetik qiymat mavjuddir. Ana shu ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslanish asosida guruhlarning intellekt darajasi qaysi birida dominantlik qilishi aniqlanadi. Yoki aksincha, eng yuqori IQ (intellekt) ko'rsatkichi va eng past IQ ko'rsatkichlari ikki guruh qilib olinadi va ular tarkibidagi ekstrovert va introvertlar hisoblanadi.

Matematik statistika qiziqarli ba'zida esa, ajoyib yangiliklar yaratishga imkon beradi. Matematik statistika quyidagi jarayonlarda qo'llaniladi:

<sup>6</sup> Вероятностные разделы математики / Под ред. Ю. Д. Максимова. — Спб.: «Иван Фёдоров», 2001. — С. 400. — 592 с. — ISBN 5-81940-050-X

- tadqiqot natijalarini umumlashtirish;
- olingan ma'lumotlar o'rtasida bog'liqlik topish;
- kishilar guruhi o'rtasida tafovutlarni aniqlash;
- metodikalar va metodlar to'g'riligini isbotlash;
- statistik bashoratlar qilish;
- farazlarni tasdiqlash yoki rad etish;
- printsipli yangi bilimlarni topish;
- samarali tadqiqotni rejalashtirish;
- yangi metodikalar ishlab chiqish.

Psixologik tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar, natijalar statistik tavsiflanadi.

### 1.6. Tavsiflovchi statistika va induktiv statistika.

**Tavsiflovchi statistika** – olingan ma'lumotlarni sharhlash va tasniflash, shuningdek, vizuallashtirish (tanlangan xususiyatlar hisobi, grafiklar, diagrammalar) uchun olib boriladigan empirik metodlar majmuidir. Shuningdek, unda olingan ma'lumotlar ehtimoliy xususiyati ko'rib chiqilmaydi. **Tavsiflovchi** statistikaning ayrim afzalliklari shundaki, unda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining imkoniyati kattadir. Unga klasterli tahlil, guruhlarga ajratilgan va bir-biriga o'xshaydigan ob'ektlar va tekislikda ob'ektlarning umumiyligi jihatlarini taqoslashga, baholashga imkon beruvchi ko'p qirrali shkalalar kiradi.

Tavsiflovchi statistika, statistikaning bir bo'limi bo'lib, olingan ma'lumotlarning umumiyligi tavsiflash va taqdim etish uchun qo'llaniladi. Tavsiflovchi statistika quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Ma'lumotlar yig'ish;
2. Ma'lumotlarni toifalash;
3. Ma'lumotlarni umumlashtirish;
4. Ma'lumotlarni taqdim etish.

O'rganilayotgan ma'lumotlarning yanada kengroq xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun induktiv statistika qo'llaniladi.

Tavsiflovchi statistika doirasida quyidagi texnik jarayonlarni amalga oshirish mumkin:

- a) ma'lumotlarni grafik usulda taqdim etish;
- b) ma'lumotlarni jadval ko'rinishida taqdim etish;
- c) dispersiya, dispersiyaning kvadrat ildizi, mediana kabi umumlashtiruvchi statistikalarning qo'llanilishi.

**Induktiv statistika** – matematik ehtimollar nazariyasiga asoslangan texnika bo‘lib, bosh ko‘plik va uning reprezentativligini belgilaydi.

Induktiv statistikaning vazifasi, ikki tanlamaning har biri bosh ko‘plikka qanchalik yaqinligini isbotlashdan iborat, hamda biror tanlanmada olingan natijani, shu tanlanma olingan natijalariga joriy qilish mumkinligini tekshirishdan iborat. Boshqacha qilib, aytganda induktiv statistika (induktsiya – juz‘iy xodisalardan umumiyligi chiqarish, ayrim faktlardan umumiyligi xulosaga kelish) yo‘li bilan ko‘sonli ob’ektlarga kichik guruhlarga kuzatish yoki eksperiment yo‘li bilan aniqlangan yoki bu holatni umumlashtirish mumkinlagini aniqlash imkonini beradi.

### **1.7. Bosh ko‘plik tanlanma va reprezentativlik tushinchalari.**

Bosh ko‘plik – tadqiqotchini qiziqtirgan barcha sifatlar, xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Psixolog-tadqiqotchi hamisha katta sonli guruh ichidan ma’lum bir guruhnini tanlab oladi. Statistikada bu guruh bosh ko‘plik deb aytildi. Bosh ko‘plik, psixolog ko‘p sonli va turli tuman kishilar orasidan tanlab olgan va ma’lum bir xususiyatlari o‘rganilayotgan kishilar guruhidir. Nazariy jihatdan bosh ko‘plikning chegarasi va sanog‘i yo‘qday tuyuladi. Ammo amaliy jihatdan bunday emas, hamisha psixologik tadqiqotning vazifasidan va o‘rganilayotgan xususiyatlarning xarakteristikasidan kelib chiqib, bosh ko‘plik chegaralarini belgilash mumkin. Bosh ko‘plik o‘zgaruvchilari “N” bilan belgilanadi.

Tanlanma deb, tadqiqot o‘tkazish uchun bosh ko‘plikdan ajratib olingan har bir guruhchalar elementlari – sinaluvchilar, respondentlar, ishtiroychilarga aytildi. Bunda psixolog tomonidan o‘rganilayotgan tanlanmaning alohida elementi respondent, sinaluvchi deb yuritiladi. Tanlanma ko‘lami «n» deb belgilanadi. Tanlanmada n soni ikkidan kam bo‘lmasligi lozim. Statistikada kichik ( $n < 30$ ), o‘rtacha ( $30 < n < 100$ ) va katta ( $n > 100$ ) tanlanma farqlanadi. Bosh ko‘plik va tanlanmaga misol keltirsak, u holda tasavvur qilamiz, psixolog-tadqiqotchi OTM talabalarining mantiqiy tafakkurini o‘rganmoqchi va o‘zining rivojlantirish dasturini ishlab chiqmoqchi. Uning tadqiqotdan olgan natijalarini respublikaning barcha talabalariga joriy qilinishi mumkin. Buning uchun psixolog, respublikadagi barcha talabalarining mantiqiy tafakkurini o‘rganishi kerakmikan? Albatta buning imkonini yo‘q. Tadqiqotchi faqat ma’lum bir guruh sinaluvchilarining xususiyatlarini

o'rgana oladi. Bu yerda ma'lum bir oliy ta'lim muassasasi talabalar guruhi – bu bosh ko'plik. Psixolog tadqiqot ob'ekti qilib tanlab olgan oliygoҳ talabalari (chegaralangan miqdordagi ishtirokchilar) tanlanma bo'la oladi. Tanlanmaning reprezentativligi esa, tadqiqotchi psixolog oldida turgan asosiy masalalardan biridir.

Tanlanmaning reprezentativligi deb, tadqiqot uchun ajratib olingan tanlanmaning umumiҳ belgilari, sifatlari, xaraktistikasi bosh ko'plik sifatlarini namoyon qilishiga aytildi. Misol uchun, tadqiqotchi-psixolog 5-son o'rta umumta'lim maktab yuqori sinf o'quvchilarining addiktiv hulq-atvorini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazmoqchi. Buning uchun u, 5-son mактабning 6,9,8 sinflarining har biridan istalgan miqdorda umumiҳ soni 30 kishini tanladi. Biz bu yerda psixologning tanlanmasi reprezentativ deb aytga olamizmi? Albatta yo'q! Tanlanma reprezentativ bo'lishi uchun psixolog 5,6,7,8 va 9 sinflardan har biridan teng miqdorda o'quvchilarni tadqiqotga jalb qilishi kerak. Shundagina uning tanlanmasi reprezentativlikning barcha talablariga javob beradi. Har bir tanlanma reprezentativ bo'lishi kerak va bosh ko'plikning xususiyatlarini (nisbatan kam miqdorda) o'zida aks etishi lozim.

Tanlanmalar xususiyatiga ko'ra, bog'liq va bog'liq bo'lmagan tanlanmalarga bo'linadi. Bog'liq tanlanmalarga, tadqiqotdan oldin ma'lum bir sifatlar o'rganilishi oldindan belgilanishiga aytildi. O'rganilayotgan xususiyatlar biron bir korrektcion jarayon joriy qilinishidan oldin va keyin belgilab olinadi. Misol uchun, mактаб o'quvchilarining emotsiонал barqarorligi o'rganiladi va kuzatilgan emotsiонал beqarorlik (yig'lash, jahъ qilish, aggressiya, aniq maqsadga yo'nalmaganlik) korrektsiya qilinadi. Psixolog tadqiqotchi o'quvchilar bilan bir qator rivojlantiruvchi trening mashqlar o'tkazadi. Tadqiqotdan so'нг o'quvchilar emotsiонал barqarorligi qayta tekshiriladi va trening dasturining samaradorligi tekshiriladi. Ikki marta o'rganilgan o'quvchilar guruhi bog'liq yoki just tanlanma deyiladi.

Bog'liq bo'lmagan tanlanmalarga uning elementlari tasodifiy tarzda olingan bo'lsa, tanlanma mustaqil, bog'liq bo'ladi. Agar tanlanmada ma'lum bir belgining ahamiyati mavjud bo'lsa, u holda bu elementlar, ma'lum bir belgining alomatlari deb yuritiladi. Bog'liq bo'lmagan tanlanmalar ikki va undan ortiq mustaqil guruhlarning xususiyatlari taqqoslanganda aytildi.

## **1.8. O'Ichov shkalalari, o'zgaruvchilar va ularning turlari.**

Har bir aniqlanadigan sifatlar va alomatlar ma'lum bir shkalalarda o'chanadi va baholanadi. Shkala o'ichov vositalari bo'lib, inglizcha "scale" tarozi degan ma'noni bildirib, ularning to'g'ri tanlanishi tadqiqotning keyingi istiqbolini belgilaydi.

Psixologik jarayon, xususiyat, ob'ekt va hodisalarini shkalalashtirish deganda muayyan qoidalar asosida ularni sonlarga tenglashtirish tushuniladi. Bunda sonlarning o'zaro nisbati bu xodisalar o'rtasidagi nisbatni aks ettirishi kerak bo'ladi. Sonlar u yoki bu xususiyatning modeli vazifasini bajaradi. Shu yo'l bilan shkalalashtirish, psixologiyani dalillarni tasvirlovchi fandan ayrim dalillarni oldindan aytish imkonini beradigan fanga aylantiradi. O'ichov bu – ayrim qoidalarga binoan, ob'ekt va xodisalarga raqamli shakl berilishidir. Tadqiqot xususiyatiga qarab turli o'ichov shkalalarining turlarini qo'llash mumkin.

S. Stivens tomonidan o'ichov shkalalarining to'rt tipi belgilangan:

- 1) nominativ shkala, nomlanishlar shkalasi;
- 2) ordinal yoki tartib shkalasi;
- 3) intervallar shkalasi;
- 4) nisbatlar shkalasi.

Nominativ shkala – bu (lot.) nomen – nom, ot degan ma'noni bildiradi. Bu shkala o'z nomlanishiga muvofiq klasifikatsiyalanadi. Bu shkala nomlanishlar shkalasi deb ham yuritiladi. Nomlanishlar shkalasi miqdoriy holatlarni o'chamaydi.

U faqat bir ob'ektni boshqasidan, bir sub'ektni boshqasidan ajratishda qo'llaniladi. Nomlanishlar shkalasi ob'ekt va sub'ektlarni klassifikatsilash usulidir va ularni jadvalning ma'lum katakchalariga joylashtirish uchun qo'llaniladi. Misol uchun, sport komandalarini yoki bir-biri bilan intellektual, aqliy, jismoniy jihatlardan bellashayotgan guruhlarni birini ikkinchisidan ajratish uchun harflar, timsollar bilan toifalaydi.

Nomlanishlar shkalasining eng sodda ko'rinishi bu dixotomik shkaladir. Bu shkalada o'ichangan belgi alternativ deb aytildi. Mazkur shkalada faqat ikkita variant bo'ladi. Ikkitadan ortiq alternativ bo'lmaydi. Misol uchun: ayollar-erkaklar; chap qo'lda yozuvchilar-o'ng qo'lda yozuvchilar va h.k. Tadqiqotchi, guruhda qizlar va yigitlarning noverbal qobiliyatini aniqlamoqchi bo'lsa, qizlarni "1", yigitlarni "2"

shartli raqamlari bilan belgilaydi. Ular to'plagan ballarni shartli, raqamli belgilar asosida alohida guruhlashтиrди.

Nomlanishlar shkalasining eng murakkab ko'rinishlaridan biri, bu uch yoki undan ko'p katakchalarni klassifikatsiyalashdir. Misol uchun, bir necha guruhlarni nomlar bilan klassifikatsiyalash va h.k.

Har qanday o'lchovni boshlashdan oldin, dastlab barcha ob'ektlar, xodisalar nomlanadi. Shundan so'ng, o'lchashning miqdoriy sifatlarini baholashga imkon tug'iladi. Har bir guruhlashтиrilgan ob'ektlarni raqamli, harfli belgilaganimizdan so'ng, ushbu guruhlар ko'rsatgan natijalarni o'lchovchi shkalalarni qo'llash mumkin. Nomlanishlar shkalasi, eng zaif shkala hisoblanadi.

**Tartib shkalasida** – sinaluvchilar ko'rsatgan natijalar tartib bilan joylashtiriladi. Unda ko'rsatkichlar "baland", "past" mezonlari asosida baholanadi. Masalan, eng yuqori ball olgan o'quvchilar natijalari sanoq boshidan belgilanadi. Guruhda 15 kishi bo'lsa, tartib shkalasi 1 dan boshlanib, 15 da yakunlanadi. Tartib shkalasiga ranglar shkalasini kiritish mumkin. Ranglar shkalasi<sup>7</sup> bu olingen natjalarga qarab, qiymatlarning yuqoridan pastga yoki aksincha baholanish tartibidir. Tartib shkalasida olingen natijalar o'tasidagi oraliq qiymatlar aniq emas. Misol uchun: A nomzod -15 ball, B nomzod – 23 ball, C nomzod – 42 ball to'pladi. Ko'rib turganimizdek, ballar oralig'ida qat'iy miqdoriy qonuniyat mavjudligi yo'q, ammo aniq ketma-ketlik mavjud. Tartib shkalasi miqdoriy shkaladir. Misol uchun, xodimning yoki rahbarning professional xususiyatlarining ekspert baholari (mutaxassis tomonidan berilgan baho) va o'ziga bergen baholari ketma-ketlik tartibida joylashtiriladi. Yoki misol uchun, sinaluvchi hayotiy qadriyatlarining zarurligiga qarab baholashi kerak bo'lsa, u, uning uchun nisbatan dolzarb bo'lgan qadriyatlarni tartib bilan baholaydi.

**Intervallar shkalasida** "katta" va «kichik» printsiplari muntazam birliliklarning aniq miqdorini nazarda tutadi. Intervallar shkalasi umuman olganda, ancha kam qo'llanilib, uning uchun tabiiy hisob boshi yo'qligi bilan ta'riflanadi. Lekin, bu shkala aynan psixologiyada keng qo'llaniladi. Psixologiyada bir necha metodikalar natijalari intervallarda beriladi. Misol uchun longevityud metodikada ma'lum bir fenomen, xodisa yoki psixolog e'tiboriga molik narsa uzoq yillar (20-40 yil) mobaynida o'rganiladi va tadqiq qilinadi. Har besh yil oralig'ida kuzatiladigan ob'ektning xususiyatlari qayd qilib boriladi. Bunda

<sup>7</sup> Ranglashtirish tartiblari to'g'risida keyingi mavzuda batafsil ma'lumot berilgan.

natijalar intervallar shkalasida baholanadi. Albatta bunda o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlari miqdoriy va sifat jihatdan muayyan o'zgarishlarga yuz tutadi. Aynan ana shu o'zgarishlar tadqiqotchi-psixologlarni qiziqtiradi va muayyan yillar intervalida o'zgarishlarga yuz tutgan sifatlar xarakterlanadi.

Shuningdek, Vesklerning intellekt testida sinaluvchilar qo'lga kiritgan ballar har 10 ball intervalida klassifikatsiyalanganligi barchaga ma'lum.

1 daraja – 69 va past

2 daraja – 79-70

3 daraja – 89-90

4 daraja – 90-109

5 daraja – 110-119

6 daraja – 120-129

7 daraja – 130 va yuqori.

Ammo mazkur shkalaning kamchiliklari ham mavjud. Ko'rsatichlarning boshlang'ich va tugash qiymati aniq emas. Bu muammo nafaqat mazkur metodikada, balki ko'pgina interval shkalalarida kuzatilishi mumkin. Aksariyat hollarda, intervallar shkalasida o'l-changan qiymatlar normal taqsimlanishning sigma printsiplari asosida quriladi<sup>8</sup>.

**Nisbatlar shkalasi** – eng kuchli shkala. U bir o'lchanayotgan ob'ekt etalon, birlik sifatida qabul qilingan boshqasidan necha marotaba katta (kichik) ligini o'lhash imkonini beradi. Nisbatlar shkalalari uchun hisobning tabiiy boshi (nol) mavjud. Shkalalar orasida nisbatlar shkalasida nol absolyut qiymatga ega. Psixologik tadqiqotlarda nol o'rganilayotgan xususiyatning umuman mavjud emasligini bildiradi. Nisbatlar shkalasi bilan deyarli barcha fizik kattaliklar – chiziqli o'lchamlar, maydonlar, hajmlar, tok kuchi, quvvat va shu kabilar o'lchanadi. Nisbatlar shkalasida ob'ekt va sub'ektlarning o'lchanadigan xususiyatlari proporsionalligiga qarab klassifikatsiyalanadi. Shkalada ob'ektlar bir-biriga proporsional bo'lgan raqamlar bilan belgilanadi. Nisbatlar shkalasi natural sonlar shkalasiga analogik hisoblanadi. Bu shkalada sonlar ustida barcha arifmetik amallarni bajarish mumkin. Masalan, guruhdagi shaxslararo nizolarni sanash mumkin. Agar A guruhda nizolar 16 ta, B guruhda 5 ta nizo bo'lgan bo'lsa, u holda aytish

<sup>8</sup> Normal taqsimlanish qonuniyati beshinchi va oltinchi mavzularda berilgan.

mumkinki, birinchi guruhda ikkinchisiga nisbatan 3,2 marta ko'p nizo sodir bo'lgan.

Psiyologik o'lchov usullari turli asoslarga ko'ra tasniflanishi mumkin:

- 1) "xomaki" ma'lumotlarni yig'ish tartibi;
- 2) o'lchov predmeti;
- 3) ishlataladigan shkala turi;
- 4) o'lchanadigan ma'lumot turi;
- 5) o'ichash modellari;
- 6) "o'lchovlar" soni (bir o'lchovli va ko'p o'lchovli);
- 7) ma'lumotlarni yig'ish uslubining kuchliligi (yoki kuchsiz);
- 8) sinaluvchining javob turi;
- 9) javoblar qanday: deterministik yoki ehtimollik.

Boshlang'ich ma'lumotlarni u yoki bu tipida qanday o'zgartirishlar qo'llash mumkin? Boshqa so'z bilan aytganda, qanday holatda ma'lumotlarni bir shkaladan boshqasiga tegishli tartibda o'tkazish mumkin? Bu muammo o'lchovlar nazariyasida adekvatlilik muammosi nomini oldi.

Adekvatlilik muammosini hal qilish uchun shkalalar va ularda yo'l qo'yish mumkin bo'lgan o'zgartirishlar o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Chunki boshlang'ich ozgaruvchilarga ishlov berayotganda istalgan operatsiyani bajarish mumkin emas. Masalan, o'lchovning amalga oshirilishi tartib shkalasida bo'lgan bo'lsa, olingen qiyamatlar ustida o'rtacha arifmetik qiyamatni aniqlab bo'lmaydi. Umumiy xulosa quyidagicha – doim nisbatan kuchli shkaladan zaif shkalaga o'tish mumkin, ammo buning aksini bajarishning iloji yo'q. Masalan, nisbatlar shkalasida olingen o'lchamlar asosida tartib shkalasida balli baholar qurish mumkin, ammo teskari operatsiya qilib bo'lmaydi.

Shkalalarni va shunga mos ravishda o'ichash natijalarini ikki guruhga ajratish mumkin: 1. **Metrik bo'lмаган shkalalar** – nominativ va tartibili shkalalar. Ular ustida matematik amallarni (qo'shish, ayirish) bajarib bo'lmaydi (buning ma'nosi yo'q). 2. **Metrik shkalalar** – interval (oraliqli) va nisbiy shkalalar. Ular bilan matematik amallar bajarish mumkin.

## O'lchanayotgan shkalalarining klassifikatsiyasi.

<b>Tartibli shkala</b>	O'lchanayotgan belgilar “ko‘p-kam”, “yuqori-past”, “kuchli-kuchsiz” tamoyillari asosida klassifikatsiyalanadi	Idan 5 gacha bo‘lgan maktab baholari; pastdan yuqoriga qarab baholangan darajalar; qadriyat va afzallikning tartibga solingan ketma-ketligi (rang bo‘yicha).
<b>Interval (Oraliqli) shkala</b>	Har bir o'lchanayotgan belgi qiymati boshqalaridan bir xil masofada turadi. Boshlang‘ich nuqta (nol qiyamat) shartli. Bu shkala bilan ishlaganda o'lchanayotgan xususiyat yoki predmetga o'chov ob'ektlari yoki xususiyatlar soniga teng miqdordagi birliliklar ajratiladi.	Ch. Osgudning Semantik differensial; Veksler IQ; Kettelning 16 omilli so‘rovnomasni va boshqa test shkalalari. Bu shkalalar natijalarning teng intervalga egaligini isbotlash uchun maxsus ravishda kiritiladi.
<b>Nisbiy shkala</b>	Oraliq shkalaning barcha xususiyatlariga ega. Bu shkala o‘zgarmas nolga (boshlang‘ich nuqtaga) ega. Nol – xususiyatning to‘liq yo‘qligini anglatadi. Bu shkala ximiya, fizika, psixofizika, psixofiziologiyada qo‘llaniladi.	Kishi bo‘yi, massasi (og‘irligi), reaksiya tezligi, jismoniy kuchi ko‘rsatkichi, chidamliligi.

Psixologiyada o'lchanadigan belgilari va psixologik xodisalar – alomatlar va o‘zgaruvchilar deyiladi. Bunday alomatlarga topshiriqni bajarish vaqtli, bezovtalik darjasasi, intellekt ko‘rsatkichlari, agressiya darajalari, muloqotchilik, sotsiometrik mavqe va h.k. kiradi.

Alomatlar va belgilari o‘zaro aloqadorlikda qo‘llanilishi mumkin. Ular umumiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ba’zan ularning o‘rnida

ko'rsatkichlar va darajalar ishlataladi. Misol uchun, verbal intellekt ko'rsatkichi, qat'iylik darajalari va h.k. ko'rsatkichlar va darajalar tushunchasi, o'rganilayotgan alomat miqdoriy o'chanishi mumkin. Chunki ularga «past», «baland», «o'rtacha» degan sifatlar xos. Misol uchun, intellektning yuqori darajasi, bezovtalikning past darajalari.

Psixologik tadqiqotlarda, sinaluvchilardan olinadigan individual natijalar ba'zan «kuzatuvlar», «kuzatilgan qiymatlar», «variantlar», «o'zgaruvchilar» yoki «individual ko'rsatkichlar» deb ham yuritiladi.

Psixologik o'zgaruvchilar tasodifiy qiymatlar hisoblanadi. Chunki oldindan ular qanday ahamiyatga ega bo'lishi ma'lum emas<sup>9</sup>.

Tadqiqotlarda to'g'ri tanlangan metodlar yordamida qo'lga kiritilgan ballar, natijalar, ma'lumotlar statistik nuqtayi nazardan o'zgaruvchilar bo'ladi.

Tadqiqot metodikasini tanlashdan avval eksperimentator nimani o'tganayotgani, olingen natijaning amaliy vazifasi talablariga mos kela olishini tasavvur qila olishi kerak bo'ladi. Birinchi navbatda bu metodning validligi, ishonchliligi va ob'ektivligini isbotlash uchun zarur bo'ladi. Metodikaning validligi deganda, uning tadqiqot predmetiga adekvalligi (mosligi) tushuniladi. Miqdoriy validlik ushbu metodika natijalari bilan tashqi o'chovlarning o'zaro aloqasini aniqlashda namoyon bo'ladi. Masalan, ta'limning muvaffaqiyati – o'quvchining intellektual taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham tashqi o'chov sifatida uning o'zlashtirishini olish mumkin. Aytaylik, talabalarning aqliy rivojlanishini o'rganganda, ularning ijtimoiy xususiyatlari va o'zlashtirish bahosi o'rtaida ijobiy aloqa mavjud bo'lsa, qo'llanilgan metodika validlikka ega bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Psixologik tadqiqotlarda dastlabki o'chovlar qachondan boshlab qo'llanilgan?
2. Ijtimoiy farazlarni va taxminlarni qanday tekshirish mumkin?
3. Psixologiyada o'chov an'analarining tarixi.
4. Psixologik tadqiqotlarda narsa va xodisalar qanday o'chanadi?
5. Falsafa va psixologiya fanlarida sifat va miqdor tushunchalarining o'zaro aloqadorligini qanday izohlash mumkin?
6. Xozirgi zamon fanida va psixologiyada o'chov tushunchasi.

<sup>9</sup> Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. – СПб.: Речь., 2000 (10 с).

7. Psixofizik ma'lumotlarning to'g'riligi qanday tekshiriladi?
8. Shaxs xususiyatlarining aloqadorligi va bog'liqligi nima?
9. Dispersiyani aniqlash usullari qachon va kim tomonidan ishlab chiqilgan?
10. Sifat va miqdor tushunchasining o'zaro bog'liqligini qanday izohlash mumkin?
11. O'lchash uslubini gnesologik asoslash nima?
12. Eklektika nima?
13. Kvantifikatsiya deganda nimani tushunasiz?
14. Psixologiyada o'lchov necha jarayonda qo'llaniladi?
15. O'lchov deganda nimani tushunasiz?
16. Psixologiyada dastlabki tadqiqotlar qaysi olimlar nomlari bilan bog'liq?
17. Matematik statistika nima?
18. Qvantifikatsiya nima?
19. Ekstensiv rivojlanish nima?
20. Tavsiflovchi statistika nima?
21. Tanlanmaning reprezentativligi qanday belgilanadi?

#### **Keltirilgan ta'rifni atamasi bilan juftlang.**

<b>No</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>No</b>	<b>Atama</b>
1	ob'ekt va sub'ektlarni klassifikatsilash usulidir va ularni jadvalning ma'lum katakchalariga joylashtirish uchun qo'llaniladi.	A	<b>Tartibli shkala</b>
2	Idan 5 gacha bo'lgan maktab baholari; pastdan yuqoriga qarab baholangan darajalar	B	<b>Nomlanishlar shkalasi</b>
3	Har bir o'lchanayotgan belgi qiymati boshqalaridan bir xil masofada turadi. Boshlang'ich nuqta (nol qiymat) shartli.	C	<b>Nisbiy shkala</b>
4	Kishi bo'yи, massasi (og'irligi), reaksiya tezligi, jismoniy kuchi ko'rsatkichi, chidamliligi	D	<b>Interval shkala</b>
<b>Javobi:</b>	1 –	2 –	3 –
			4 –

## **navzu: MA'LUMOTLARNI TAVSIFFLASH VA ULARNING ENG SODDA TAHLIL METODLARI.**

**Tayanch tushunchalar:** *variasjon qator, variatsion kenglik, ivlik koeffisienti, Veksler metodikasi, gender guruhlar, detsillar, imma, dinamik qator, dispersiya, intellekt darqasi, kvartillar, mediana, moda, normal taqsimlanish, ranjirovka, to'plamari, standart og'ish, standart xato, farqlar, o'rtacha qiymat, o'rta etik qiymat,*

### **2.1. Variatsion qator tushunchasi.**

Statistikaning muhim vazifalaridan biri faqatgina umumlashishi ko'rsatkichlarni (o'rtachalarni) hisoblash bilan cheklanmasdan, to'plam birliklarining o'rtachadan tafovutini, farqini, chetlanishini o'rganishdir. Bu amalni statistika, variatsiya ko'rsatkichlari nida bajaradi. "Variatsiya" so'zi lotincha "variatio" so'zidan chiqqan bo'lib, o'zgarish, farq, tebranishni bildiradi. Ammo har y farq ham variatsiya bo'lavermaydi. Statistikada variatsiya da, o'zaro qarama-qarshi omillar ta'sirida bo'lgan, bir turli dan tashkil topgan miqdoriy o'zgarishlar tushuniladi. O'rganigan belgining tasodifiy va surunkali (sistematik) variatsiyalari hi mumkin. Tasodifiy variatsiyani boshqarib bo'lmaydi. Surunkali siyaga qisman bo'lsada, ta'sir o'tkazish mumkin. Surunkali tsiyani tahlil qilish asosida o'rganilayotgan belgida o'zgarishni ta'sir qiluvchi omillarga qanchalik bog'liqligini baholash mumkin. Ian, ajratilgan to'plam birliklari variatsiyasining kuchi va terini o'rganishda, ular miqdoriy, ayrim vaqtarda sifat tomonidan halik turdosh ekanligini va shu vaqtning o'zida aniqlangan o'rtacha uchun xarakterli ekanligini statistik baholash mumkin. Shunday o'rtalashtirilgan birliliklar ( $x_i$ ) o'rtachadan har xil farqda likda, yaqinlikda) bo'ladi va ular variatsiyaning turli itkichlari orqali baholanadi<sup>10</sup>.

Variatsion qator statistik qatorning qonuniyatlar asosida o'zgilarni qayd etadi. Ma'lumotlarni guruhlashtirishning asosiy ni statistik qator yoki qiymatlarning miqdoriy belgilari aniqlaydi. ■ xususiyatlar o'rganilishiga qarab, statistik qatorlarni attributiv, tsion, dinamik qatorlar, regressiyalar, ranglashtirilgan

**belgilar qatori, to'plangan chastotalarga ajratish mumkin.** Psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan qatorlar variatsion qator, regressiya qatorlari va belgilarning ranglashtirilgan qatoridir. Variatsion qator deb, sonlarning ikkitalik qatorining takrorlanishi o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi qatorga aytildi.

## 2.2. Variatsion qatorni tartiblash.

Variatsion qatorni tartiblash usuli tasodifiy sonlarning tarkorlanish chastotasini tartib bilan belgilashni bildiradi.

Misol uchun (Mazkur misol O. Yu. Ermolayevning "Математическая статистика для психологов" darsligidan ayrim modifikatsiyalar bilan olingan), psixolog 25 o'smirda Xeka va Xesaning nevrozni aniqlash metodikasini o'tkazdi. Olingan xomaki ballar quyidagicha statistik qatorlarda joylashtirilishi mumkin: 6, 7, 10, 12, 20, 5, 7, 13, 10, 6, 10, 8, 13, 7, 9, 12, 11, 12, 8, 9, 10, 12, 11, 8, 9 ko'rib turganimizdek, ayrim raqamlar qatorda bir necha marotaba kelmoqdaki, bu qatorni ixchamlashtirish va olingan ma'lumotlarni sharhlashda qulaylik yaratish uchun ularni quyidagicha shaklga keltiramiz:

Variantlar:  $x_i$ , 6, 7, 8, 20, 5, 9, 10, 11, 12, 13

Variantlar chastotasi:  $f_i$  2, 3, 3, 1, 1, 3, 4, 2, 4, 2

Bu variatsian qator deyiladi. Ya'ni har bir raqamlar qatorda necha bor takrorlanishini belgilaydi. Variatsion qatorning quyida berilishi chastotalarni yoki tarozilarni bildiradi. Ular lotincha " $f$ " harfini bildiradi va "/" indeks variatsion qatordagi o'zgaruvchilarning raqamini anglatadi. Variatsion qatorning umumiy soni tanlanmaning ko'lami bildiradi. Ya'ni:

$$n = \sum f_i = 2+3+3+1+1+3+4+2+4+2=25$$

$\sum$  - belgisi yig'indi (summa) ni bildiradi.

Chastotalarni foizlarda ham izohlash mumkin. Bunda chastotalarning umumiy miqdori va tanlanma ko'lami 100% deb belgilanadi. Har bir alohida chastota foizi va o'chovi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$(2.1) \quad n\% = \frac{f_1}{n} \cdot 100\%$$

Chastotalarning foizli ko'rinishidan tanlanmalar bir biridan ko'lami bilan katta farq qilgan hollarda foydalanish o'rinnlidir. Misol uchun, turli yoshdagi shaxslarning agressivlik darajasi o'rganilganda va tanlanmalar

ko'lami 1000, 300, 100 kishidan iborat bo'lganda bu formuladan foydalinish o'rnilidir. Chunki tanlanma ko'lamidagi tafovutlar sezilarli bo'lib, umumiyligi o'rta chalar foizlar asosida taqqoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida berilgan variatsion qatorni boshqacha qilib, tartib bilan ifodalash ham mumkin. Bu ranjirovka qilingan variatsion qator deb aytildi.

Variantlar:  $x_1$ , 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 20

Variantlar chastotasi:  $f_1$  1, 2, 3, 3, 3, 4, 2, 4, 2, 1

Bu qator variatsiya qonuniyatiga ko'proq mos keladi va interpretatsiya qilishda ko'proq afzalliklarga ega. Variatsion qator chastotalarini qo'shib yoki to'plab borish ham mumkin. To'plangan chastotalar qiymatlarning ketma-ketlikda birinchi chastotadan oxirgi chastotagacha bo'lgan qiymatlarning yig'ilgan summasi bo'ladi. Bunday to'planma chastotalar kumulyatsiyasi deyiladi.

Variantlar:  $x_1$  5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 20

Variantlar chastotasi:  $f_1$  1, 2, 3, 3, 3, 4, 2, 4, 2, 1

Chastotalar kumulyatsiyasi: 1, 3, 6, 9, 12, 16, 18, 22, 24, 25

Ya'ni birinchi chastota o'zgarishsiz pastga tushiriladi. Bizning holatimizda u 1 raqamidir, ko'rib turganimizdek, kumulyativ qatorda ikkinchi raqamda 3 soni turibdi. Bu birinchi va ikkinchi chastota summasidir. Ya'ni  $1+2=3$ ; uchinchi o'rinda 6 raqami turibdi. Bu raqam uchinchi va to'rtinchi chastotalarning yig'indisidir.  $3+3=6$ , to'rtinchi qatorda 9 bu  $6+3=9$  va h.k., va shu tartibda chastotalar qo'shilib boradi. Oxirgi olingen summa ishtirokchilar soniga teng bo'lishi kerak. Ya'ni 25 ga, bu bizning kumulyatsiya hisobini to'g'ri olib borganimizni bildiradi.

**Diskret variatsion qator** – oshib borish tartibiga ko'ra, joylashirilgan variantlar bo'lib, qiymatlar va ularning takrorlanish chastotasini qayd qilib boradi. Diskret qator sanoq yoki chekli sonlardan iboratdir. Misol uchun to'pchani otganda, nechanchi marotabada aniq mo'ljalga tegish ehtimolining mavjudligini diskret tasodifiy qiymatlarda hisoblash mumkin.

### 2.3. Limit, ranjirovka, mediana, moda va kvartillar.

Variatsion kenglik ( $R$ ) yoki limit deganda belgining eng kichik va eng katta hadlari orasidagi farq, tafovut tushiniladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$R = X_{\max} - X_{\min}$$

bu yerda:  $R$ - variatsion kenglik;  $X_{\max}$  – belgining eng katta darajasi;  $X_{\min}$  – belgining eng kichik darajasi.

Variatsion kenglik ayrim kamchiliklarga ega: birinchidan, ikki chetki hadga asoslangan, ular tasodifiy bo'lishi mumkin; ikkinchidan – hadlar o'rtacha bilan taqqoslanmaydi. Shu sabablar orqali, bu ko'rsatkichdan qatorning hadlari bir-biridan unchalik katta farq qilmaydigan sharoitlarda foydalanish mumkin.

Qatordagi raqamlar qanchalik kuchli bir biridan farq qilsa, limitning ham ko'rsatkichi shunchalik yuqori bo'ladi. Yoki aksincha elementlar bir-biridan farq qilmasa, limitning ko'rsatkichi ham shunchalik kichkina bo'ladi. Misol uchun,

$$X = 10 \ 12 \ 16 \ 17 \ 20 \ 24 \ 27 \ 28 \ 29 \ 30 \ 32 \ 40 \ 42 \ 47 \ 50 \text{ bunda}$$

$$R=40. \text{ Ya'ni } 50-10=40.$$

Psixologiyada ma'lumotlarga statistik ishlov berishning eng dastlabki urinishlaridan biri bu natijalarni ranjirovka qilishdir. Ranjirovka juda oddiy, shuning bilan birga juda qulay statistik usullardan biridir. Ushbu usuldan tanlamalarning xususiyatlarini (kattakichik, uzun-qisqa, kam-ko'p, baland-past) topishda foydalaniadi. Ranjirovka usullari nafaqat psixologik metodlar orqali qo'lga kiritilgan natijalarni saralashda, balki jamiyatning barcha sohasida narsa va xodisalarning sisatlarini baholashda qo'l keladi. Ranjirovka, tartib shkalasining usulidir. Ranglar shkalasida ob'ektlar toifalari (guruuhlari) tartiblashtiriladi. Shuning uchun belgililar qiymatini ixtiyoriy ravishda o'zgartirish mumkin emas – ob'ektlar darajasi saqlanib qolishi shart (bir ob'ektlarning boshqasidan keyin kelishi). Demak, ranglar (daraja) shkalasi uchun har qanday monoton (bir xil) o'zgarishga yo'l qo'yiladi.

Misol uchun, sinsda o'quvchilarning ma'lum bir baholash asosida olgan ballariga qarab, yuqorida pastga, pastdan yuqoriga ranjirovka qilish mumkin. Ranjirovka metodi nihoyatda jo'n va oddiy tuyulsa-da, uni amalga oshirishda diqqat va e'tibor talab qilinadi. Fetiskinning 9 nafar talabada qo'llanilgan, shaxs o'z-o'zinib baholashning verbal

diagnostikasi metodikasining natijalarini ranjirovka qiladigan bo'lsak, u holda, quyidagi 2.1-jadvalga asoslanamiz:

**2.1-jadval**  
**Tadqiqot natijalarining ranjirovkasi**

Natijalar	Ranglar
23	3
12	9
45	2
18	6
76	1
19	5
20	4
14	7
13	8

Ko'rib turganimizdek, eng yuqori ballarga past ranglar berilish boshlangan va eng past ballar yuqori ranglar bilan belgilangan. Bu holat teskari usul bilan belgilanishi ham mumkin edi. Ya'ni yuqori ballar yuqori ranglar bilan, past ballar past ranglar bilan belgilansa, ranjirovkamiz yanada mantiqiy tus olardi.

Ranjirovka metodlarida yana bir muhim xususiyatni inobatga olish darkor. Ya'ni hamma vaqt ham to'plangan ballar, ko'rsatilgan natijalar bir xillik qonuniyatiga amal qilmaydi. Ayrim talabalar metodikada bir xil natijalar ko'rsatishi ham mumkin ediku, unda ranjirovka qilish tartibi quyidagicha amalga oshar edi. Misol uchun, o'ziga ishonechni aniqlaydigan metodika orqali talabalar quyidagi natijalarga erishdilar:

**2.2-jadval**

**Tadqiqot natijalarining ranjirovkasi**

Natijalar	Ranglar	
23	2	2
12	9	9
24	1	1
18	5,5	(6)
21	3	3
18	5,5	(5)

20	4	4
14	7	7
13	8	8

Ko'rib turganimizdek, 18 raqami ikki marta kuzatilgani bois, biz unga ketma-ketlikni buzmagan holda shartli rang berdik.

### 2.3-jadval Tadqiqot natijalarining ranjirovkasi

T/r	Natijalar	Ranglar	
1.	23	2	2
			$(6+7+8)/3=$
2.	13	7	7
3.	24	1	1
			$(6+7+8)/3=$
4.	13	7	7
5.	12	9	9
6.	18	4	4
7.	20	3	3
8.	14	5	5
			$(6+7+8)/3=$
9.	13	7	7
	jamii	45	

Ko'rib turganimizdek, 13 raqami uch marta takrorlangani bois, unga shartli rang berdik va keyingi raqamlarga to'xtab qolgan sondan ketma-ketlikni buzmagan holda rangladik. Uch marta takrorlangani uchun yig'indini uchg'a bo'ldik. Ranjirovkaning to'g'ri berilganini isbotlash maqsadida, quyidagi formulani qo'llasak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

(2.2)

$$R = \frac{N(N+1)}{2}$$

Bu yerda N-ishtirokchilar soni bo'lib, bizning holatimizda u 9 ga teng.

$$R = \frac{9 \cdot 10}{2} = 45$$

Demak, formula orqali aniqlagan qiymatimiz, ranjirovkaning umumiy summasiga (45) teng bo'lgani uchun ranjirovka to'g'ri amalga oshirilgan deb hisoblaymiz.

**Mediana deb**, variatsion qatorning variatsiyalar sonini teng bo'lgan ikki qismga ajratgan variantaga aytildi va *Md* bilan belgilanadi. Variantlar sonining juft yoki toqiga qarab, mediana quyidagicha aniqlanadi.

1, 9, 6, 8, 12, 3 mazkur qator juft bo'lganligi bois, mediana bu yerda ikkita, Ya'ni 6 va 8. Ikkita medianalar uchun alohida usul mavjud:

$$Md = \frac{6+8}{2} = 7$$

Agar qator raqamlari soni toq bo'lsa, u holda mediana quyidagicha topilali:

5, 6, 2, 9, 10, 12, 18, 8, 7 bu qatorda mediana o'zidan kichik va katta bo'lgan sonlar teng o'rtasida joylangan bo'ladi. Ya'ni: 8 medianadir. Bu yerda 8 sonidan oldin va keyin to'rttadan son to'g'ri keladi.

**O'rta arifmetik qiymat** sonli qiymatlarning  $X_1, X_2, X_3$  sonli belgilarning o'rtacha qiymati bo'lib,  $\bar{X}$  belgisi bilan belgilanadi va quyidagi formula asosida topiladi:

$$(2.3) \quad \bar{X} = \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n} = \frac{1}{n} (\sum_{i=1}^n X_i)$$

Bu yerda  $x_{1,2}$  qiymatlar n indekslaridir.

Agar alohida qiymatlar takrorlansa, u holda o'rta arifmetikni quyidagicha topish mumkin:

$$(2.4) \quad \bar{X} = \frac{1}{n} (\sum_{i=1}^k X_i f_i)$$

$\bar{X}$  bu yerda o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat deb belgilanadi.  $f$  takrorlangan chastotalar hisoblanadi.  $\sum$  esa, sonlar summasi deb yuritiladi. Bu belgi asosida  $X_1$  ning barcha qiymatlari qo'shilishi kerak.

Summa belgisining ustidagi va ostidagi ishoralar summalash-tirishning chegaralarini belgilaydi va u summa indeksining oraliq belgilari joylashgan eng katta va eng kichik hadlarini bildiradi.

Masalan (2.4) formulada summalashtirish tanlanmaning birinchi elementidan boshlanadi va oxirgi elementida tugaydi. Shuning uchun

maxsus belgining ostida  $i=1$  joylashgan va summa belgisi  $\sum_{i=1}^n$  ning ustidagi n belgisi tanlanmaning barcha hadlarini o'zaro qo'shish kerakligini anglatadi.

Agar quyidagicha yozilgan bo'lsa:

$$\sum_{i=4}^6 X$$

Quyi indeks i 4 ga, yuqoridagi ko'rsatkich esa, 6 ga teng bo'lgani uchun biz  $X_4, X_5, X_6$  elementlarini qo'shamiz va bizning qator quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $X_4 + X_5 + X_6$  ij

Keyingi o'rnlarda biz, har safar  $X$  qiymatiga indeksni qo'ymaymiz va bizning elementlarni summalashtirish ishoramiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $\sum X$  bu ishora qatordagi barcha elementlarni qo'shish zarurligini anglatadi.

Jadvaldagagi barcha sonlarning o'rtacha qiymatini topish uchun quyidagi formula ishlataladi.

$$(2.5) \quad \bar{X} = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^p \sum_{i=1}^n (X_{ij})$$

Bu yerda  $X_{ij}$  – eksperiment natijasida olingan barcha o'zgaruvchilarni yoki jadvaldagagi barcha elementlarni anglatadi. Bunda indeks  $j$  1 dan to p ga qadar o'zgaradi va jadvaldagagi ustunlarni bildiradi.  $i$  esa n gacha o'zgarib, jadvaldagagi qatorlarni bildiradi.  $\bar{X}$  jadvaldagagi barcha elementlarning o'rtacha qiymatini anglatadi. N esa jadvalning barcha elementlari soni bo'lib jamini hisoblashda quyidagicha belgilanadi:  $N=p+n$ .

$X_{ij}$  elementlaring belgisi jadvalda kerakli sonni topish uchun niyoyatda muhim. Misol uchun  $X_{4,5}$  bo'lsa, u holda biz jadvalning to'rtinchi qatoridagi va beshinchchi ustunidagi element tanlanganini anglatadi. Ikkitalik summa  $\sum$  belgisi jadvaldagagi barcha qatorlarning ya'ni,  $i$  indeksdan tortib barcha qatordagi elementlar va  $j$  indeksigacha barcha ustundagi elementlar qo'shib boriladi (misollar O.Yu. Ermolaev "Математическая статистика для психологов" darsligidan olingan).

$\sum(X_{ij})$  Formulaning mazkur qismiga asosan, jadvaldagagi barcha ustunlar va qatorlar sonlarini qo'shib borishni quyidagicha izohlash mumkin: aytaylik, tadqiqotda ishtirot etgan 5-maktab o'quvchilarining tanlanmadagi ko'rinishini ifodalamoqchi bo'lsak, u holda, jadvalga qaraymiz:

2.4-jadval.  
Tadqiqot ishtirokchilarining klassifikatsiyasi

Sinflar	O'g'il bolalar	Qiz bolalar	$\sum i$
6	16	20	36
7	18	15	33
8	12	13	25
9	17	11	28
$\Sigma j$	53	79	132

Bu singari oddiy jadvallarni, o'rganilayotgan xususiyatlar o'lcovni nominal yoki tartib shkalada amalga oshirilganida qo'llash mumkin.

Moda deganda to'plamda belgining eng ko'p uchraydigan miqdoriga aytildi. Diskret qatorlarda modani aniqlash qiyin ish emas. Ularda eng ko'p uchraydigan varianti moda hisoblanadi. Tanlanmada moda hech qanaqangi hisoblashni talab qilmaydi. Ba'zan moda  $\bar{X}$  sifatida belgilanadi. Misol uchun quyidagi qatorda:

2 4 7 8 9 4 6 4 6

4 moda bo'lib hisoblanadi. Chunki u qatorda 3 marta takrorlangan. Shunisi e'tiborliki, biz moda deb, ko'p uchragan sonni aytamiz ya'ni 4 ni, uning chastotasini emas. Bu yerda to'rtning chastotasi 3 bo'lib, u moda sifatida inobatga olinmaydi. Modani topishning quyidagi usullari mavjud:

4 4 5 5 7 7 8 8 mazkur qatorda barcha sonlar ikki martadan takrorlangani bois, qatorimiz modasiz qator bo'lib hisoblanadi.

7 8 9 1 5 6 6 3 3 mazkur qatorda esa ikkita yonma-yon son takrorlanib kelgani uchun modaning o'rtacha arifmetik qiymatini topamiz. Bizning qatorimizda 6 va 3 chastotasi ikkiga teng. Ularning modasi quyidagicha topiladi:

$$\bar{X} = \frac{(6 + 3)}{2} = 4,5$$


Agar qatorda bir xil sonlar yonma-yon emas, balki qatorning turli joylarida kelsa, u holda qatorimiz bimodal ya'ni ikki modalik deb topiladi. Misol uchun,

2 2 2 4 5 6 5 4 7 8 8 5 4 4 4 Bunda moda 2 va 4 sonlari bo'ladi.

Agar moda ko'p sonli guruhlashgan ma'lumotlar orqali baholansa, unda u ko'p sonli chastotalar orqali topiladi va bunday guruh – modal guruh deb nomlanadi.

**Kvartillar.** Variatsion qatorlar tarkibini tafsillashida moda va medianadan tashqari kvartili, detsili va protsentil ham ishlashadi. To'rtdan bir qismiga va qator boshlanishini to'rtdan uch qismi masofasiga to'g'ri keladigan miqdorlar kvartili, o'ndan bir qismi – detsili, yuzdan bir qismi – protsentili deyiladi.

Kvartillar variatsion qatorni to'rtga bo'ladi. Kvartillar ikkita bo'lib, ular Q deb belgilanadi. Yuqori va quyi kvartillar 25% qiymatlar quyi kvartillardan oz va 75% qiymatlar yuqori kvartillardan ko'p bo'ladilar. Kvartillarni aniqlash uchun qator qiymatlarini mediana orqali teng ikkiga bo'lamiz hamda ular orasidan ham medianani topamiz. Misol uchun, qiymatlar 6 ta bo'lsa, u holda ikkinchi qiymat qatorning boshlang'ich kvartili va beshinchi qiymat qatorning quyi kvartili deb olinadi.



2.1-rasm. Qator qiymatlarining kvartillash tartibi.

Bu yerda ilgari ta'kidlaganimizdek, birinchi kvatil ikkinchi songa tushgan bo'lsa, ikkinchi quyi kvantil beshinchi raqamda turibdi. Yana shuni aytish kerakki, kvartillarni tanlaganda ikkala guruhning umumiy sonlari inobatga olinadi.

Agar variatsion qator 9 ta sondan iborat bo'lsa, u holda yuqori kvartil ikkinchi va uchinchi sonlarning o'rta arifmetik qiymati va quyi kvartili etib ettinchi va sakkizinchisi sonlarning o'rta arifmetik qiymati belgilanadi.

Kvartillar – bu katta sonli tanlanmalarning xususiyatini tasniflash orqali ma'lumotlar taqsimotini baholash uchun qo'llaniladi. Mediana tartib bilan terilgan qatorni teng ikkiga bo'lsa (o'zidan 50% kichik va 50% katta sonlar), kvartillar tizilgan qatorni to'rt qismiga bo'ladi.  $Q_1$  qiymati, mediana va  $Q_3$  qiymati 25 chi, 50 chi va 75 chi protsentillar hisoblanadi.

tartib qatorining  $Q_1 = \frac{n+1}{4}$  nchi raqami boshlang'ich;

tartib qatorining  $Q_3 = \frac{3(n+1)}{4}$  nchi raqami kvantilning quyi darajasi bo'ladi.


## 2.4. Natijalarni grafik usulda taqdim etish.

Psixologik eksperimentlarda natijalarni grafik usulda taqdim etishning, ularni jadvalga joylashtirishning juda ko'p usullari mavjud. Bu jarayon, olingen ma'lumotlarning ta'sirini va yaratilgan psixokorrektcion ishlarning ahamiyatini yanada oshiradi. To'g'ri tanlangan grafiklar, ranglar va shakllar psixologik tadqiqotlarning qanchalik o'rinni ekanligi ta'sirini kuchaytiradi.

Grafik usullardan foydalanishning asosiy maqsadi, yetkazilayotgan axborotlarni idrok qilinishini yengillashtirish va soddalashtirishdan iboratdir. Taqdimotlar grafiklar formatlari esa, bu jarayonni yengillashtirish kerak. Ayrim tadqiqotchilar ishlarning ilmiyligini ta'kidlash uchun taqdimotning murakkab usullaridan foydalanishadi. Bu esa o'z navbatida axborotni qabul qilish jarayonini qiyinlashtirib yuboradi. Aytaylik, psixolog-tadqiqotchi guruhlarda psixodiagnostik metodlar orqali aniqlangan muammolarni bartaraf qilish uchun psixokorretsiyon ishlar olib boradi, treninglar tashkil etadi. Treninglar samaradorligini ko'rsatish uchun esa, u grafik usullarga murojaat etadi. Chunki chiroyli taqdim etilmagan ma'lumotlar shunchaki raqamlar bo'lib ko'rindi. Diagrammalar, gistogrammalar va chiziqli diagrammalar trening dasturlarining naqadar ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi.

Grafik usullarni vaziyatlarga qarab qo'llanilishining bir necha usullarini taqdim etamiz.

Aylana grafiklarda 3-5 elementdan ko'p element bo'lsa, uning qabul qilinishi qiyinlashadi. Shuningdek, toifalar summasi 100% ga teng bo'lмаганда, aylana diagrammadan foydalanish qo'pol xato hisoblanadi. Bu vaziyatda to'g'ri qatorli diagrammadan foydalanish o'rinni.




2.2-rasm. Natijalarni qatorlar usulida taqdim etishga doir misol.

Grafik usullarni bajarish aksariyat hollarda Microsoft Excel dasturining “Вставка” undan keyin “Дизайн” menyulari orqali amalga oshadi. Vizuallashtirish operatsiyalarini Microsoft Word dasturining “Вставка” “Формы” menyularida amalga oshirish ham mumkin.

Taqdimotning yana bir muhim qoidasi borki, unga rioya qilish orqali natijalarni to‘g‘ri taqdim etish mumkin. Bu **mantiqiy ketma-ketlikdir**. Qatorli grafiklarda kattadan kichik qiymatga qarab, yoki aksincha tartibda ma’lumotlarni joylashtirish mumkin.

Taqdimot grafiklarida soyalar, 3D ta’sirlar, baland ranglar o‘quv-chining diqqatini asosiy ma’lumotlardan chalg‘itishi mumkin. Taqdimot usullarining asosiy printsiplari aniqlik, minimallik va soddalikdir. Aylana diagrammasini quyidagicha qo’llash mumkin:



**2.3-rasm. Aylana diagrammadan foydalanish misoli.**

Agar olingan natijalar asosida bir butun guruh ichida bir necha guruhechalar xususiyati, sisatlari oydinlashsa, unda aylanali diagrammalardan foydalanish o‘rinli bo‘ladi. Shu bilan birga tadqiqot ichidagi jins guruhlari, yosh guruhlari va turli ijtimoiy qatlamlarni tasniflashda bu usul asqotadi.


Psixologik tadqiqotlarda chastotalarni histogramma usulda taqdim etishning o‘ziga xos usullari mavjud<sup>11</sup>. Misol uchun: aytaylik, 5-umumta’lim mактабning 25 nafar (14-15 yoshlilar) o‘quvchilarning intellekt darajasi Veksler metodikasi orqali aniqlandi. O‘quvchilar olgan natijalarni keltiramiz (o‘quvchilar ro‘yxatining alifbo tartibida) 110 90 80 117 130 120 90 126 100 119 109 90 130 95 98 81 126 100 87 100 80 78 69 100 79

Bu yerda intervallar jadvali va histogramma tuzish lozim. Keltirilgan sonlardan maksimal va minimal qiymatni topish mushkul

<sup>11</sup>Кричевец А. Н., Шикин Е.В., Дьячков А.Г. Математика для психологов: Учебник. М., 2003. Мисоллар мазкур дарслидан бироз модификация асосида олинган (285-286 сс).

emas. Ular: 130 va 69. Shunday qilib, biz barcha sonlar 69 va 130 raqamlari oralig'ida joylashganini bilib oldik. Ushbu oraliqni Veksler testi talablari asosida 7 qismga bo'lamiz. Shundan so'ng barcha intervallarga joylashgan sonlarni toifalashtiramiz.

1. (69 va undan past) – 1 nafar
2. (70-79) – 2 nafar
3. (80-89) – 4 nafar
4. (90-109) – 8 nafar
5. (110-119) – 5 nafar    6. (120-129) – 3 nafar    7. (130 va undan baland) – 2 nafar



#### 2.4-rasm. Talabalarning intellek darajasini ko'rsatuvchi chastotali histogramma

Koordinatsiyaning vertikal o'qida ya'ni y o'qida o'zgaruvchilarning takrorlanish chastotasi joylashadi. Ya'ni ma'lum bir sifatlar kuzatilish soniga qarab joylashgan chastotalar " $f$ " belgilanadi. Misol uchun intellektning 130 balini to'plagan talabalar soni (chastotasi) ikkita bo'lgani uchun, u ikkinchi chiziqda joylashgan. Boshqa ballar ham xuddi shu tartibda joylashgan. Histogramma grafigi intervallar shkalasida o'lchangan qiymatlarni namoyon etadi. Oldingi mavzuda biz. Veksler testining intervallar shkalasida o'lchanishini aytib o'tgan edik.

Psixologik tadqiqotda histogrammadan foydalanish imkoniyati juda muhim. Histogrammalarda biron bir holatning, belgining raqamlar orqali takrorlanish chastotalari beriladi.



**2.5-rasm. Natijalarni taqqoslash.**

Ma'lumotlarni taqqoslash, guruhlarning ta'sir etishdan oldingi va keyingi holatini belgilash uchun ham o'ziga xos grafikdan foydalanish mumkin.

Sodda va aniq ko'ringan har bir ma'lumot inson ongiga oson ta'sir etish orqali o'zining maqsadiga tez erishadi. Yuqoridagi grafik ostida keltirilgan bir necha 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar shaxs xususiyatlari, imkoniyatlari, tiplari, intellekt darajalari kabi sifatlar nomlanishi mumkin. Grafiklarda faqat kerakli axborotlar keltirilishi lozim. Ortiqcha elementlardan imkon qadar kamroq foydalangan lozim.

Aksariyat xollarda psixologik ma'lumotlarni taqdim etganda, raqamlar bilan ishslashga to'g'ri keladi. Bunda raqamlarning aniq formatini tanlash kerak bo'ladi. Misol uchun yuzdan bir (1,98) kabi sonlar soddalashtirilishi, butun qilib olinishi kerak. Katta sonlar esa shartli ravishda qisqartirilishi va ular keyinchalik izohlanishi lozim. Misol uchun 50,000 000 – 50; 34,000-34 va h.k.

Shuningdek har bir jadval va rasmlar to'liq nomlanishi va raqam berilishi zarur. Nomlanishsiz va sonlarsiz grafik usullar, jadvallar chala ishlangan bo'ladi. Shuningdek, har bir rasm va jadval so'ngida ma'lumotlar oydinlashtirilishi kerak.

Yana bir muhim qoidalardan biri bu, har bir tadqiqotda beriladigan jadvallar ikki yoki uch xil ko'rinishda bo'lishi lozim. Turli-tuman grafiklarni qalashtirib tashlash, ma'lumotlarni qabul qilishda murakkablik tug'diradi. Har bir tadqiqot o'zining betakrorligi bilan afzal.

### Nazorat savollari:

1. Gistogrammaning vertikal qismida qanday qiymatlar joylashgan bo'ladi?
2. Aylanali diagrammalar orqali qanday ma'lumotlarni taqdim etish mumkin?
3. Chiziqli grafiklar qaysi turdag'i ma'lumotlarni tasniflaydi?

4. Variatsion kenlik qanday topiladi?
5. Kvartillar qatorda qanday joylashadi?
6. Taqdimotlarni qaysi dasturiy operatsmyalar orqali amalga oshirish mumkin?

**1. Natijalar taqdimotining grafik usullarini ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.**

1) O'lchanayongan ob'ektning ulushini ifodalaydi; 2) holatning takrorlanish chastotasini ko'rsatadi; 3) narsa va xodisalarning belgisini tasniflaydi; 4) koordinatalar o'qida joylashadi; 5) ikki va undan ortiq sifatlar bir butun xodisaning bo'laklari sifatida belgilanadi; 6) ierarxiya asosida joylashtiriladi;

Belgilarni turi	Javob raqamlar
Gistogramma	
Aylana diagrammasi	

### 3-Mavzu: MARKAZGA INTILISH VA MARKAZDAN QOCHISH TENDENTSIYALARINI ANIQLASH

**Tayanch tushunchalar:** *assimetriya, Bessel korrektsiyasi, Gauss taqsimoti, indeks, koeffitsent, Manni-Uitni mezoni, matematik taxmin, sigma, standart normal taqsimot, tasodifiy kattaliklar, ekstsess, t mezon, F-Fisher mezoni*

#### 3.1. Normal taqsimlanish qonuni to'g'risida umumiy tushuncha.

Normal taqsimotni hech qanday bo'rttirishlarsiz falsafiy qonuniyat deb ayta olamiz. Atrof muhitning turli ob'ektlari va jarayonlarini kuzatsak, u holda ba'zi narsalarning kam, ba'zilarining normada ekanligini guvohi bo'lamiz. Bunga hayotdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Bu masalan, odamlarning bo'yи, vazni, intelektual darajasi, ijtimoiy sifatlari, jismoniy imkoniyatlari va h.k. kiradi. Shuningdek mazkur sifatlarni namoyon qilishda norma, normadan og'ish holatlari mavjud. Bu holatlар tadqiqiy metodlar yordamida o'rganiladi va normal taqsimot qonuniyati asosida tekshiriladi. Agar sinchiklab o'rgangan bo'lsangiz, u holda kishilar o'z intellektual, aqliy va boshqa qobiliyatlarini namoyon etganda, normadan og'ish holatlari va o'ta geniallik ham kam uchraydi. O'rtacha intellektual salohiyatga ega kishilar esa, ko'pehilikni tashkil etadi. Kuzatishlarda o'rtacha sifatlarning ko'p bora takrorlanish chastotasi, ularning grafikda salmoqli baland ko'rinishini ta'minlaydi. Ikki chetki hadlarning (past va baland ko'rsatkichlarning) chastotasi grafikning ikki chetida, o'ngda (yuqori ko'rsatkichlar) va chapgi qismida (past ko'rsatkichlar) joylashadi<sup>12</sup>. Normal taqsimot qonuniyati ehtimoliy taqsimlanish qonuniyatini aks etadi.

Ehtimollarning normal taqsimlanishini yoki Gauss taqsimotini (normal taqsimot qonuniyati asoschisi, nemis matematigi Gauss nomi bilan nomланади) nafaqat psixologik tadqiqotlarda, balki aniq va tabiy fanlar sohalarining empirik jarayonlarida keng qo'llaniladi.

Psixologik tadqiqotlarda olingen empirik ma'lumotlar tanlanmada o'rtachaga (arifmetik, mediana, moda) nisbatan normal taqsimlanishga tekshiruvdan o'tadi.


Belgilar taqsimoti deb, uning turli qiymatlarida takrorlanadiganlar tushuniladi. Psixologik tadqiqotlarda bu normal taqsimlanish deya

<sup>12</sup> Oldingi mavzuning 2.4 rasmida Veksler intellekt testi natijalari histogramma berilgan. Unda normal taqsimot qonuniyati bo'yicha shakl yasash mumkin.

itiladi. **Normal taqsimot** – bu ba’zi tasodifiy hadlarning qiymatlari vaqtning o’zida harakatda bo’lgan bir necha omillar bilan qlanuvchi o’zgarishlar modelidir. Bunday omillarning soni ulkan, mo har birining ta’sir etish samarasi juda oz. Bu singari o’zaro qadorlik xususiyati psixik xodisalar uchun juda xarakterli bo’lgani un tadqiqotchi-psixolog o’z tadqiqotida normal taqsimlanish nuniyatini aniqlaydi. Ammo hamma vaqt ham u aniqlanilmaydi. ning uchun har bir holatda taqsimot shakli tekshirilishi kerak. simot xususiyati, ma’lumotlarni matematik-statistik qayta ishslash todlarida aniq bir metodni tanlash imkoniyati bilan aniqlanadi.

Normal taqsimot, unda belgining chetki hadlari juda kam uchrashi o’rtachaga yaqin qiymatlар ko’p uchrashi bilan xarakterlanadi. iday taqsimot normal deb atalishiga sabab, u tabiiy ilmiy qiqotlarda tez-tez uchrab turgani va har bir umumiylashtirish paydo bo’lishi norma sanalgani bo’lgan.

Normal taqsimot grafigi har bir tadqiqotchi-psixolog uchun tanish ligan «qo’ng’iroqsimon qiyshiq chiziq» ko’rinishida bo’ladi. Tadqiqotchi qo’llagan o’lchov shkalalari tomonidan cheklangan har qanday matlar normal taqsimot parametrlari bo’la oladi. Matematik minlar nazariyasida qiymatlар  $-\infty$  dan  $+\infty$  gacha bo’lgan diapazoni har qanday songa teng bo’lishi mumkin. Dispersiya esa har qanday usfisiy bo’lmagan songa teng bo’lishi mumkin. Shuning uchun normal simotning turli tuman ko’rinishlari va ularni namoyon etadigan shiq chiziqlar ko’rinishlari mavjuddir (biroq, ular bir xildagi qo’ng’iroqsimon shaklga ega bo’lgan).



**3.1-rasm. Normal taqsimlanish modeli.**

Bu yerda  $\mu$  parametri – matematik taxminin (o'rtacha qiymat), moda taqsimoti, mediana.  $\sigma$ - o'rtacha kvadratik og'ishdir.

Normal taqsimot uchun quyidagilar xos:

- a) uchta o'rtachalarning barchasi mos tushadi;
- b) chastota va qiymatlarning egri taqsimoti o'rtachaga nisbatan butunlay simmitrikdir.

Taxminan 32% hollarda o'rtacha kvadratik xatolikdan mos ravishda o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati 68% ehtimoliylik bilan o'rtacha qiymat qo'shuv/ayiruv o'rtacha kvadratik xatolik intervalida joylashadi.

Faqat 0,5% hollarda ikki marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolikdan katta. Mos ravishda, o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati 95% ehtimoliylik bilan o'rtacha qiymat qo'shuv/ayiruv ikki marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolik intervalida joylashadi;

Faqat 0,3% hollarda uch marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolikdan katta. Mos ravishda, o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymati 99,7% ehtimoliylik bilan o'rtacha qiymat qo'shuv/ayiruv uch marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolik intervalida joylashadi;

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'lchanining tasodifiy xatosi uch marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolikdan katta bo'lish ehtimoli juda kichik. Shuning uchun o'lchanayotgan kattalik "haqiqiy" qiymati diapazoni sifatida odatda o'rtacha arifmetik qiymat qo'shuv/ayiruv uch marotaba kattalashtirilgan o'rtacha kvadratik xatolik tanlab olinadi («uch sigma qoidasi»).

Taqsimot parametrlari – bu uning raqamli xarakteristikasi bo'lib, o'rtachada belgilarning qiymatlari qay tartibda joylashganini belgilaydi. Ushbu qiymatlari qanchalik o'zgaruvchan va unda qiymatlarning muayyan belgilari namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Nisbatan amaliy ahamiyatga ega deb, biz dispersiya, asimmetriya va ekstsess ko'rsatkichlarini aytu olamiz. Real psixologik tadqiqotlarda biz parametrlar asosida emas, balki ularga yaqin qiymatlari, ya'ni parametrlar bahosi asosida operatsiyalar bajaramiz. Bu tadqiq qilinadigan tanlanmalarning cheklanganligi bilan izohlanadi. Matematik-statistik tahlillarni belgilashdan oldin barcha qo'llaniladigan parametrlar asosida ma'lumotlar xususiyatini aniqlash zarur. Normal taqsimot yoki shunga yaqinroq qiymatlarga ega parametrlar uchun

parametrik statistik metodlarini qo'llasa bo'ladi. Parametrik statistik metodlar noperametrik metodlarga qaraganda ancha kuchlidir. Ammo noperametrik statistik metodlarning kuchli jihat shundaki, ular taqsimot shaklidan qat'iy nazar statistik farazni tekshirishga imkon beradi.

Agar psixologik ko'rsatkichlarning taqsimlanish xarakteri Gauss qiyshiq chiziqlarida tasniflanganidek, normal yoki unga yaqinroq bo'lsa, u holda matematik-statistikaning parametrik metodlarini qo'llashimiz mumkin. Ular oddiy, sodda ishonchli bo'lgan qiyosiy tahlil, tanlanmalar o'rtaqidagi tafovutlarning ishonchliliginini t mezonida aniqlash, F-Fisher mezoni, Pirson korrelyatsiya koeffitsenti mezonlari va boshq.

Agar psixologik ko'rsatkichlarning taqsimlanishi normaldan uzoq bo'lsa, u holda biz noperametrik metodlarni qo'llashga majbur bo'lamiz. Ular: kichkina tanlanmalar uchun tafovutlar ishonchligi hisobi Q-Rozengaum mezoni, Manni-Uitni mezoni, Spirmenning ranglar korrelyatsiyasi mezoni, omilli, ko'pomilli, klasterli tahlil metodlari va boshq.

### **3.2 Moda, mediana va o'rtacha qiymat orasidagi o'zaro bog'liqlik.**

O'rtacha qiymat statistik parametr bo'lib, barcha sohalarda eng ko'p qo'llaniladigan o'lcovdir. O'rtacha qiymat o'zluksiz shkalalar belgilari uchun hisoblanadi. Markaziy tendentsiya meyorlari – bu natijalar ularning atrofida to'planadigan, yig'iladigan qiymatlardir. Bu qiymatlarni barcha tanlanma ko'rsatkichlarini umumlashtiruvchi qiymatlarni bo'lib, birinchidan bizga, ushbu ko'rsatkichlar asosida butun boshli tanlanma haqida axborot bersa, ikkinchidan turli tanlanmalarni turli qismlarini o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Markaziy tendentsiya meyorlariga biz yuqorida xususiyatlarini ta'riflagan – moda, mediana, o'rta arifmetik, o'rta garmonik qiymatlarni kiradi. Psixologik tadqiqotlarda, odadta birinchi uchtasi qo'llaniladi.

### **3.3. Dispersiya va standart og'ish.**

Tanlanmaning yana bir dispersiya deb nomlanuvchi raqamli xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Dispersiya o'zida tasodifiy hadlarning (o'zgaruvchilarning) o'lcov meyorini ifodalovchi statistik parametrdir. Dispersiya bu o'zgaruvchilarning o'rta qiymatlardan o'rta arifmetik

qiymati og'ishi kvadratidir. Uni tanlanmadan topish formulasi quyidagicha:

$$(3.1) \quad S^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^{n-1} (X_i - \bar{X})^2$$

$n$  – tanlanma ko'lami (ishtirokchilar soni)

$i$  – summa indeksi

$\bar{X}$  – o'rtacha, (2.3) formulasi orqali aniqlanadigan qiymat.

6 nafar talabaning noverbal pertseptiv qobiliyatini aniqlashga qaratilgan (G.Ya. Rozen) metodika orqali maxsus qibiliyatlar o'rganildi. Olingen natijalardan dispersiyani quyidagicha aniqlash mumkin:

18 16 24 8 10 14 bu natijalar tanlanmaga tegishli bo'lib, bosh qo'plik bo'lolmaydi. Ya'ni barcha talabalar emas, ma'lum bir maqsadda tanlab olingen talabalar to'plami natijalari.

Dastlab, o'rtachani 2.3 formulasi asosida topamiz.

$$18 + 16 + 24 + 8 + 10 + 14 = 90$$

Tanlanmamiz ko'lami 6 kishini tashkil etgani bois, topilgan summani 6 ga bo'lamiz.

$$90:6=15$$

$$\bar{X} = 15, \text{ tanlangan o'rtacha } 15 \text{ ga teng.}$$

Tanlangan o'rtacha – markaziy qiymat bo'lib, uning atrofida tanlanmaning qiymatlari taqsimlangan bo'ladi. Agar tanlanmadagi qiymatlari tanlangan o'rtachaning atrofida yig'ilgan bo'lsa, u holda dispersiya kichik bo'ladi; aks holda dispersiya katta bo'ladi.

Dispersiyani topishning ikkinchi amalini quyidagicha bajaramiz. Olingen har bir natijadan topilgan o'rtachani ayiramiz.

$$X_1 - \bar{X} = 18 - 15 = 3$$

$$X_2 - \bar{X} = 16 - 15 = 1$$

$$X_3 - \bar{X} = 24 - 15 = 9$$

$$X_4 - \bar{X} = 8 - 15 = -7$$

$$X_5 - \bar{X} = 10 - 15 = -5$$

$$X_6 - \bar{X} = 14 - 15 = -1$$

Olingen natijalarning to'g'rilingini tekshirish oson. Buning uchun barcha natijalarni qo'shib chiqish lozim. Natija nol qiymatga teng bo'ladi. Bu o'rtacha qiymatning aniqlanishiga bog'liq. Chunki manfiy qiymatlari (o'rtacha qiymatdan eng kichik qiymatgacha joylashish

masofasi) musbat qiymatlar (o'rtacha qiymatdan eng katta qiymatgacha bo'lgan masofada) bilan konpensatsiyalanadi.

Jami olingen natijamiz nol qiymatga teng bo'lGANI uchun dispersiya ham nolga teng bo'lishi kerak. Ammo biz qiymatlarning tarqalish tendentsiyasini bilmochimiz. Buning uchun har bir natijani kvadratga oshiramiz. Kvadratga oshirilgan qiymat va ularning yig'indisi xech qachon nolga teng bo'lmaydi.

$$(X_1 - \bar{X})^2 = 3^2 = 9$$

$$(X_2 - \bar{X})^2 = 1^2 = 1$$

$$(X_3 - \bar{X})^2 = 9^2 = 81$$

$$(X_4 - \bar{X})^2 = -7^2 = 49$$

$$(X_5 - \bar{X})^2 = -5^2 = 25$$

$$(X_6 - \bar{X})^2 = -1^2 = 1$$

Tanlanmaning har bir qiymati uchun farq kvadratini topdik.

Keyingi amalimiz formulaning quyidagi qismi bilan ishlash bo'lib, uni amalga oshirish tartibi:

$$\sum (X_i - \bar{X})^2$$

Bu yerda  $\sum$  belgisi barcha kvadratga oshirilgan ayirmalarning yig'indisini anglatadi.

$$9+1+81+49+25+1=166$$

Keyingi ishimiz 3.1 formulaning keyingi qismi bilan ishlash bo'lib, uning tartibi quyidagicha:

$$\sum_{n-1}^{(X_i - \bar{X})^2}$$

$$166:5 = 33,2$$

Dispersiyani topishning an'anaviy usuli bo'yicha barcha ayirmalar yig'indisi ishtiroychilar soni  $n$  ga bo'linishi kerak edi. Ammo keyingi yangicha usullarga binoan, yig'indi  $n-1$  ga bo'linishi kerak. Bu usul dispersiyaning yanada aniqroq bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu usul **Bessel korrektsiyasi** deb nomlanadi<sup>13</sup>.

Keyingi ishimiz dispersiyani standart og'ishdan ajratib olish bo'ladi.

E'tibor bergan bo'sangiz, formulada daraja ko'rsatkichi mavjud. Shuning uchun dispersiya hisoblanayotgan hadlarning kvadrat birligida hisoblanadi. Ba'zan bu qiymat bilan operatsiya bajarish murakkab

<sup>13</sup> <http://datapigtechnologies.com/blog/index.php/understanding-standart-deviation-2..>. Гусев А.Н. Дисперсионный анализ в экспериментальной психологии. М. 2000 (20 с.). Лапкова О.С., Зыкова Н.Ю., Хлоповских Ю. Г., Методы Математической Обработки Данных Психологического-педагогического исследования. Учебное пособие для нузов. ВГУ., 2008 (18 с.).

hisoblanadi. Bunday holatda dispersyaning kvadrat ildiziga teng bo‘lgan standart og‘ishdan foylalaniladi. Aynan shuning uchun tanlanmaning dispersiyasi  $S^2$  bilan belgilanadi. Standart og‘ish esa,  $S$  bilan ifodalanadi.

$$(3.2) \quad S = \sqrt{\frac{1}{n-1} \sum (X_i - \bar{X})^2}$$

Standart og‘ishni topish formulasi dispersiya formulasi singari amalga oshiriladi. Ammo oxirgi natija ya’ni dispersyaning qiymati standart og‘ishda ildizdan chiqariladi. Ya’ni:

$$S = \sqrt{33,2} = 5,76$$

Standart og‘ish 5,76 ga; dispersiya 33,2 ga teng. Bu ko‘rsatkichlar tanlama tarkibidagi dispersiya va standart og‘ishning ko‘rsatkichlari bo‘lib, bosh ko‘plikdagi ushbu ko‘rsatkichlarni topish usuli keyingi o‘rinlarda beriladi.

**Bosh ko‘plik dispersiyasini hisoblash** tartibi ham xuddi tanlanma dispersiyasini hisoblash kabi amalga oshiriladi. Ammo unda yig‘indi Bessel korrektsiyasi singari  $n-1$  ga bo‘linmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri  $n$  ga bo‘linadi. Uning formulasi esa quyidagicha:

$$(3.3) \quad \sigma^2 = \frac{\sum (x_i - \mu)^2}{n}$$

Bosh ko‘plik dispersiyasi  $\sigma^2$  (sigma kvadrat) bilan belgilansa, ko‘plik o‘rtachasi  $\mu$  (myu) bilan ifodalanadi.

Dispersiyani sharhlash murakkab bo‘lgani uchun u, standart og‘ishni aniqlashning oraliq qiymati deb yuritiladi. Tanlanma dispersiyasi bosh ko‘plik dispersiyasining faqatgina baholanish qiymatini namoyon etadi va bunga muvofiq bo‘lish uchun tanlanmaning o‘rtachasi aralashib ketgan bo‘ladi. Bessel korrektsiyasi esa, bu noaniqlikka oydinlik kiritadi.

### 3.4. Variativlik koeffitsenti va standart xatoni hisoblash.

Tarqalmaning oldingi baholaridan farqli o‘laroq, variatsiya koeffitsenti nisbiy baho hisoblanadi. U dastlabki natijalarning qiymatlari asosida emas, balki foizlarda hisoblanadi. Variatsiya koeffitsenti CV (coefficient of variance) deb yuritiladi. Variatsiya koeffitsenti deb, o‘rta arifmetikka bo‘linuvchi va 100% ga ko‘paytiriluvchi standart og‘ishga

aytiladi. CV o'rtacha qiymatga nisbatan ma'lumotlarning tarqalishini hisoblaydi.

(3.4)

$$CV = \frac{S}{\bar{X}} * 100\%$$

S – standart og'ish;  $\bar{X}$  – tanlanmaning o'rtachasi.

Variatsiya koeffitsenti elementlari turli o'lchov birliklarida ifodalangan ikki tanlanmani taqqoslash imkonini beradi. Variatsiya koeffitsenti o'zgaruvchining tebranishini xarakterlaydi. U bosh ko'plikning tipikligi (notipikligi), bir xilligi (har xilligi), ko'pligi uchun javob beradi.

Agar CV 10% dan kichik bo'lsa, variatsiya zaif, ko'plik bir xil, o'rtacha tipikligini bildiradi. 10% dan 30% gacha variatsiya (belgining o'zgaruvchanligi, tebranishini) me'yorda, ko'plik bir xil, o'rtacha tipik. Mabodo variatsiya koeffitsenti 30% dan oshsa, u holda variatsiya ahamiyatli, ko'plik bir xil emas va u notipik xarakteristikaga ega. Variatsiyaning ko'rsatkichi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik o'rtacha atrofida qiymatlar tarqalib ketgan va bosh ko'plikning bir xilligi shunchalik kam kuzatiladi. Biron bir guruhg'a xos xususiyatning (yoshi, ma'lum bir qobiliyatlar) tipik yoki notipikligi ham variatsiya koeffitsenti orqali aniqlanadi.

Statistik parametrlarning biri sifatida o'rtacha xatoni baholashimiz mumkin. O'rtacha xato (o'rtacha og'ish) – bu tanlanmaning har bir qiymati va kattaligi o'rtasidagi o'rta arifmetik farqlaridir (absolyut qiymat bo'yicha). O'rtacha xato yoki og'ish quyidagicha hisoblanadi:

(3.5)

$$Md = \frac{\sum d}{N}$$

d – bu yerda ( $X - \bar{X}$ );  $\bar{X}$  = tanlanma o'rtachasi; X – tanlanmaning konkret qiymati;

$N$  = tanlanma ko'lami.

O'rtachadan konkret og'ishlarning ko'pchiligi natijalarining o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Ammo ularni absolyut qiymat bo'yicha olmasak, ularning yig'indisi nol qiymatga teng bo'ladi va barcha ma'lumot yo'qoladi. Md barcha ma'lumotlarning o'rtacha atrofida to'planishini bildiradi. Ammo ko'p hollarda tanlanmaning sisatlarini ta'riflash jarayonida tadqiqotchilar  $\bar{X}$  o'rtachaga emas, moda va medianaga murojaat qiladilar.

O'rtachaning standart xatosi – bosh ko'plikdan ajratib olinadigan tanlanma o'rtachasi xajmining nazariy standart og'ishidir.

O'rtachaning standart xatosi, bosh qo'plik tanlanmasining ko'lamiga ( $N$ ) ga asoslangan bo'ladi. Standart xatolik qiymati bosh ko'plik dispersiyasi  $\sigma^2$  va tanlanma hajmiga bog'liq. O'rtachaning standart xatosini topish uchun quyidagi formulaga murojaat qilamiz.

$$SD_{\bar{x}} = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

$\sigma$ - bosh ko'plik dispersiyasi;

$n$ -tanlanma hajmi.

Bosh ko'plik dispersiyasi aniq bo'lmasa, o'rtacha standart xatolik qiymati quyidagicha topiladi:

$$SE_{\bar{x}} = \frac{s}{\sqrt{n}}$$

SE-tasodisiy qiyamatning standart xatosi.

O'rtachaning standart og'ishi bosh ko'plik o'rtachasidan tanlanma o'rtachasining og'ish darajasini izohlaydi.

#### Nazorat savollari:

1. Gauss taqsimoti nimani anglatadi?
2. Markazga intilish tendentsiyasi qanday parametrlerda namoyon bo'ladi?
3. Dispersiyaning tanlanmadagi ahamiyati nimadani iborat?
4. Standart og'ish formulani dispersiya formulasidan qanday farq qiladi?
5. Bosh ko'plik dispersiyasi qanday belgilanadi?
6. 8, 6, 7, 10, 18, 30, 32 sonlari orasidan dispersiya va standart og'ishni toping.
7. Normal taqsimot deb nimaga aytildi?
8. Variativlik koeffitsenti qanday usullar orqali aniqlanadi?
9. Summa belgisi ostidagi indekslar nimalarni bildiradi?
10. Bosh qo'plik dispersiyasidagi o'rtacha qanday belgi bilan ifodalanadi?
11. Variatsiya koeffitsenti nimani anglatadi?
12. 3, 10, 6, 7, 9, 4, 6, 4 quyidagi statistik qatorning medianasini toping.
13. Tanlanmaning dispersiyasidagi  $n-1$  korrektsiyasi haqida gapiring.
14. Nima uchun o'zgaruvchilardan o'rtachaning ayirmasi kvadratga oshiriladi?
15. Variatsiya so'zi qanday ma'noni bildiradi.
16. Normal taqsimlanish xususiyatlarini aytинг.

**Keltirilgan formulalarni atamasi bilan juftlang.**

Nº	Ta'rif	Nº	Atama
1	$S = \sqrt{\frac{1}{n-1} \sum (X_i - \bar{X})^2}$	A	O'rtacha xato yoki o'rtacha og'ish
2	$\sigma^2 = \frac{\sum (x_i - \mu)^2}{n}$	B	Standart o'g'ish
3	$S^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1} (X_i - \bar{X})^2$	C	Tanlanma dispersiyasi
4	$Md = \frac{\sum d}{N}$	D	Bosh ko'plik dispersiyasi
Javobi:	1 –	2 –	3 –
			4 –

## **4-mavzu: NORMAL TAQSIMLANISH PARAMETRLARINI BAHOLASHNING STATISTIK METODLARI.**

**Tayanch tushunchalar:** *boksplot, diskret tasodifiy qiymat, interval qator, kvartillararo tarqalmalar, matematik taxminlar, simmetriya, tarqalma, tanlanmadagi ortiqchalar, taqsimotning empirik funksiyasi, tasodifiy qiymatlar, shartli moment,*

### **4.1. Boksplot tuzish.**

Boksplot – inglizcha so‘z bo‘lib, (box quti, plot- qurish, yasash, ko‘pincha box whisker plot deb ham yuritiladi. Ya’ni muylovli quti) – tavsiflovchi statistikada qo‘llaniladigan grafik, ehtimollarning bir maromda taqsimlanishini ixcham namoyon qiladi. Uni muylovli yoki dumachali quti, tebranish (razmax) diagrammasi deb yuritish ham mumkin.

Diagrammaning bunday ko‘rinishi medianani (agar kerak bo‘lsa, o‘rtachani), yuqori va quyi kvartillarni, tanlanmaning maksimal va minimal qiyatlarini, ortiqchani ixchamgina ko‘rinishini t aklif etadi. Bu singari qutilarni parametrlarini, taqsimotini taqqoslash uchun yonma-yon chizish mumkin. Ularni vertikal va gorizontal joylashtirish mumkin. Qutining turli qismlari o‘rtasidagi masosa tarqalish darajasini (dispersiya), natijalar asimmetriyasini belgilashga va ortiqchalarni aniqlashga yordam beradi.

Boksplot 1970 yilda Jon Tyuki tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik uning ayrim kamchiliklari aytildi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, boksplot bir yoki bir necha ma’lumotlar to‘plamining grafik ko‘rinishini o‘rganishning tez usulidir. Bu quti histogrammalarga qaraganda sodda ko‘rinishi mumkin. Ammo uning ba’zi afzalliklari bor. U kam joyni egallagani bois, bir qancha guruhlarning ma’lumotlar to‘plamini va taqsimotini qiylash uchun juda soydal. Shuningdek, boksplot tuzish uchun juda qulay va ixchamdir.

Boksplotlar orqali quyidagi kuzatuvlarni amalga oshirish mumkin:


- Asosiy qiyatlarini aniqlash, misol uchun: o‘rtacha ko‘rsatkich, 25 protsentil medianasi va h.k.;

- Tanlanmada ortiqchalar mayjudmi va ularning ahamiyati nimadan iborat;

- Ma’lumotlar simmetrikmi;

- Ma’lumotlar qanchalik zinch joylashgan;

- Ma'lumotlar aralashganmi, agar "ha" bo'lsa, unda qaysi yo'nalishda aralashgan.  
 Boksplotning ko'rinishini quyidagi 4.1-rasmida taqdim etamiz.



**4.1-rasm. Boksplot tuzilishi.**

Qutining ikki chetki qismidan chiqib turgan ikki chiziqlar quticha muylovleri deb yuritiladi va ular tarqalmaning (yuqori va quyi kvartillar tashqarisida) darajasini, ya'ni dispersiyani belgilaydi. Muylovlar bilan birta chiziqda turgan ortiqchalar (выброс) ba'zan nuqtalar bilan belgilanadi.

Yuqori va quyi kvartillar oralig'ida joylashgan qiymatlar IQR bilan belgilanadi. Bu qutining tarkibidagi qiymatlar hisoblanadi va kvartillararo tebranishlar (interquartiles range) deb yuritiladi.

Shunday qilib, boshqa statistik usullardan farqli ravishda, bokplot orqali tebranishlar diagrammasini tuzish markaziy tendentsiyaning (mediana) va tebranishlarning (IQR) mustahkam bahosi qo'llaniladi. Yuqori «muylov» qutidan cho'zilib, 1,5 IQR chegarasidan tashqarida bo'lgan eng maksimal qiymatgacha etadi. Pastki «muylov» esa qutidan cho'zilib, 1,5 IQR chegaralaridan tashqaridagi minimal qiymatgacha etadi. «Muylovlardan» tashqarida standart hisoblanmagan kuzatuvlar, ya'ni ortiqchalar joylashgan bo'ladi. Ammo ularni diqqat bilan tahlil qilmasdan turib, olib tashlashga shosilmaslik kerak. Negaki mazkur

ortiqchalar o'rganilayotgan bosh ko'plik uchun ~~normal~~ ~~normal~~ ~~normal~~ mumkin.

Bokspolt diagrammalarini va boshqa grafik qutilarni SPSS dausurida yaratish mumkin.

Taqsimot grafigini tuzishda diskret tasodifiy qiymatlar ~~zhamiyatini~~ bilish lozim. Diskret tasodifiy qiymatlar (DTQ) ma'lum bir sinov korp marotaba takrorlanish oqibatida kutiladigan o'rta taxminiy qiymatlardir. Tasodifiy qiymatlar orasidan uzlucksiz (diskret) qiymatlarni ~~zjratish~~ mumkin. Diskret deb, ma'lum bir ehtiymollar bilan chegaraiangan tasodifiy qiymatlarga aytildi. DTQ «p» bilan belgilanadi. Diskret qiymatlarga cheksiz bo'lmagan, sanoqli qiymatlar kiradi. Misol uchun oilada farzandalar soni, nard o'yini toshchalaridagi sonlar (1-6), tanlanmadagi o'zgaruvchilar soni va h.k.

#### 4.2. Taqsimlanish asimmetriyasini va ektsessni hisoblash.

Asimmetriya va ekstsess momentlar orqali ifodalanadi. Momentlar tushunchasi mexanikadan olingan bo'lib, taqsimot qatorini ta'riflovchi muhim ko'rsatkich (parametr)lar hisoblanadi. To'plam uchun uch turli momentlar mavjud:

1) oddiy momentlar; 2) markaziy momentlar; 3) shartli momentlar.

Oddiy moment - bu koordinat boshlang'ich nuqtasiga tegishli momentdir.

Markaziy moment - bu K-tartibli momentni arifmetik o'rtachaga nisbatan qarashdir.

Markaziy moment deb K-tartibli momentni arifmetik o'rtachaga nisbatan olishga aytildi.

Shartli momentlar biror ixtiyoriy nuqtaga (shartli o'rtachaga) nisbatan aniqlanadi. Hisoblash jarayonini soddalashtirish uchun teng oraliqli variatsion qatorlarda ayrim haddlarni va shartli o'rtachani oraliq kengligi marotaba qisqartirib yuborish tavsiya etiladi<sup>14</sup>.

Asimmetriya - grekcha «asymmetria» - o'zaro o'lchamsiz so'zidan olingan bo'lib, o'zaro o'lchamlik buzilishi yoki yo'q bo'lishi degan lug'aviy mazmunga ega. Asimmetrik taqsimot u yoki bu yoqqa og'ishma, qiyshaygan shaklda to'plam birliklarining taqsimlanishidir.

<sup>14</sup> Statistika. Darslik. i.f.d. prof. X.A. Shodiev tahriri ostida chop etilgan Toshkent Moliya Instituti. 2004 yil.

Taqsimot asimmetriya me'yorini, ya'ni uning nosimmetrik darajasini qanday o'lhash mumkin? degan savol tug'iladi.

Ma'lumki, taqsimot ordinatasida moda arifmetik o'rtacha miqdor nuqtasidan u yoki bu tomondagi nuqta bilan ifodalanadi. Demak, moda bilan arifmetik o'rtacha orasidagi farqdan taqsimot asimmetriyasining darajasini o'lhashda foydalanish mumkin. Lekin  $\bar{x} - \mu_0$  ayirmaning berilgan qiymatida dispersiya katta bo'lsa assimmetriya ko'zga ilinarilinmas tashlanadi ya'ni og'ishma daraja kichik bo'ladi, aksincha dispersiya kichik bo'lsa nosimmetriklik yaqqol ko'rinishi, uning darajasi katta bo'ladi. Shuning uchun asimmetriya me'yori qilib arifmetik o'rtacha bilan moda orasidagi  $\bar{x} - \mu_0$  farqni emas, balki bu ayirmaning kvadratik o'rtacha tafovutga nisbatini olish mumkin<sup>15</sup>.

Asimetriya va ekstsess taqsimlanish ko'rsatkichlari bo'lib, taqsimlanish simmetriyasi va shaklini xarakterlaydi. Estsess – markaziy nuqta atrosidagi kuzatuv darajasining ko'rsatkichidir. Normal taqsimot uchun ekstsess nol qiymatga teng bo'ladi.



O'ng tomonga qiyshangan

Chap tomonga qiyshaygan

#### 4.2-rasm. Asimetriya ko'rsatkichlari chizmasi

Taqsimot ahamiyatli musbat assimmetriya bilan o'ng tomonga va ahamiyatli mansiy assimmetriya bilan chap tomonga qiyshaygan bo'ladi.

Ekstsess koeffitsenti, e'timollar nazariyasida o'tkir cho'qqililik koeffitsentini bildirib, tasodifiy qiymatlarning o'tkir uchlari o'lchovidir.

Asimetriya va ekstsessning hisoblanishi  $X$  tasodifiy qiymat taqsimotining  $M(X)=1$  ga nisbatan simmetrikligini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun tasodifiy qiymatning taqsimot qonunini xarakterlovchi uchinchi markaziy moment topiladi. Agar u nolga  $\mu=0$

<sup>15</sup> Statistika. Darslik. i.f.d. prof. X.A. Shodiev tahriri ostida chop etilgan Toshkent Moliya Instituti. 2004 yil.

teng bo'lsa, unda tasodifiy qiymat  $X$  matematik taxminlar  $M(X)$  ga nisbatan simmetrik bo'ladi. Chunki  $\mu_3$  tasodiy qiymat o'chovini kubda egallaydi va undan asimmetriya – o'chamsiz qiymat ko'effitsentiga oshiriladi.

(4.1)

$$As \frac{\mu_3}{\sigma^3}$$

Bu yerda  $\sigma^3$ - standart og'ishning kubi,  $\mu_3$  – esa, uchinchi darajali markaziy empirik moment. Birlashmagan statistik ko'pliklar uchun u quyidagicha hisoblanadi:

(4.2)

$$M_3 = \frac{(x_1 \bar{x})^3}{n}$$

Shakllantirilgan variatsion qator uchun moment quyidagicha topiladi:

(4.3)

$$M_3 = \frac{(x_1 \bar{x})^3 \cdot n_i}{\sum f}$$

$n_i$  diskret qator variantlari yoki interval qator o'rtachalari.

Agar olingan qiymatlar 0,25 dan kichik bo'lsa ( $A < 0,25$ ), u holda asimmetriya ahamiyatsiz bo'ladi. Agar 0,25 dan katta bo'lsa ( $A > 0,25$ ) meyorda va agar asimmetriya 0,50 dan katta yoki teng bo'lsa ( $A \geq 0,50$ ) u ahamiyatlbo'ladi. Diskret tasodifiy qiymatlar uchun esa:

(4.4)

$$\mu_3 = \sum (x_i - M(X))^3 p_i$$

Bu yerda  $p_i$  – diskret tasodifiy qiymatlar.


Ekstsess va asimmetriyaning kritik hadlarini topish quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

(4.5)

$$A_{kp} = 3 * \sqrt{\frac{6 * (n-1)}{(n+1)(n+3)}}$$

$$E_{kp} = 5 * \sqrt{\frac{24 * (n-2)(n-3)}{(n+1)^2 (n+3)(n+5)}}$$

$$A_s = 0$$




**4.3-rasm. Normal taqsimotning simmetrik va asimmetrik ko‘rinishi**

Shunday qilib, asimetriya shaklning qiyshayishi uchun javob beradi va simmetrik buzilish «qiyshiq» shaklimizning yon tomonlariga to‘g‘ri keladi.

Qiyshayish shakl cho‘qqisidan pastga qarab yo chap tomonlama yoki o‘ng tomonlama yonboshiga cho‘ziladi. Berilgan shakllardan qaysi biri simmetrik yoinki qaysilarasi asimetrik ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Asimetriya, taqsimotning nosimmetrik ekanligini bildiradi. Normal taqsimot esa, simmetrik bo‘lib, unda asimetriya ko‘rsatkichi nolga teng.

Taqsimotning normal bo‘lishi ekstsess koeffitsientiga bog‘liq, ekstsess (kurtosis- ing.,) bo‘rtiqlik degan ma’noni bildiradi.



**4.4-rasm. Ekstsess ko‘rsatkichlari chizmasi**

Kuzatuvda qayd etilishicha, musbat ekstsess, normal taqsimotga qaraganda ancha o‘tkir cho‘qqili va salmoqli ko‘rinishga ega bo‘lib,

dumlari uzunroqdir. Manfiy ekstsess esa, nisbatan kalta va dumlari qisqaligi bilan farqlanadi.


(4.6)

$$E s \frac{\mu_4}{\sigma^4} - 3$$

To'rtinchı qatorning markaziy momenti ekstsessni aniqlash uchun qo'llaniladi. Ya'ni, ehtimollik zichligining tekislik cho'qqisini ifodalaydi  $f(x)$ . Ekstsess yuqoridagi formula yordamida aniqlanadi. 3 soni markaziy taqsimot qonunidan (normal taqsimot qonunidan) og'ishni solishtirish uchun ayiriladi. Normal taqsimot uchun tenglik tasdiqlanadi.

$$\frac{\mu_4}{\sigma^4} = 3$$

Shunday qilib, normal taqsimot uchun  $E s = 0$  bo'ladi. Agar ekstsess musbat bo'ssa  $E s > 0$ , unda grafikda o'tkir cho'qqili shakl hosil bo'ladi. Agar ekstsess manfiy  $E s < 0$  bo'ssa, unda maxsus shakl tekisga yaqin bo'ladi. Quyida ekstsessning noldan farqli va nolga teng ko'rinishlari batafsil namoyish etilgan.



**4.5-rasm. Ekstsessning normal taqsimotda ko'rinishlari.**

Asimetriyadan farqli ravishda ekstsess normal taqsimot shaklining balandligini, cho'qqisi belgilaydi. Ekstsess qiymati noldan kichik bo'lganida tekis bo'ladi. Ekstsess noldan katta bo'lganida normal taqsimot shaklining cho'qqisi bo'rtiq bo'ladi. Ekstsess nolga teng bo'lganida qo'ng'iroqsimon qiyshiq chiziqlar normal shaklda bo'ladi.

Har qanday normal taqsimot o'z markaziga nisbatan qat'iy simmetrikdir.

Agar biz amaliy ishlarda, parametrik mezonlarni qo'llamoqchi bo'lsak, unda empirik taqsimotni normal taqsimot qonuniyatiga mosligini tekshirishimiz kerak bo'ladi. Belgining taqsimotni normallikka tekshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

- 1) O'rta arifmetik qiymatni topish;
- 2) Standart og'ishni hisoblash;
- 3) Ekstsess va asimetriya ko'rsatkichlarini hisoblash.

#### **Nazorat savollari:**

1. Asimetriya va ekstsessni aniqlaydigan momentlar necha turga bo'linadi?
2. Musbat ekstsessda «qo'ng'iroqsimon qiyshiq» ning ko'rinishi qay tartibda bo'ladi?
3. Mansiy ekstsessda «qo'ng'iroqsimon qiyshiq» ning ko'rinishi qay tartibda bo'ladi?
4. Asimetriya taqsimot grafik shaklining ko'rinishida qanday ahmiyatga ega?
5. Normal taqsimot nima?
6. Taqsimotning empirik funktsiyasi nima?
7. Normal taqsimotning ikki yon tomonga qiyshayishi sababi nima,
8. Asimetriya nima?
9. Boksplot qachon va kim tomonidan ishlab chiqilgan?
10. Boksplot «muylovlari» nimani anglatadi?
11. Diskret tasodifiy qiymatlar nima?
12. Boksplot orqali qanday kuzatuvlarni amalga oshirish mumkin?
13. Mediana va o'rta arifmetik qiymat bir-biridan qanday farq qiladi?
14. Bimodal guruh deb qanday guruhga aytildi?
15.  $Q_1$  va  $Q_3$  kvartillar qatordagi qaysi raqamlarda belgilanadi?

**Keltirilgan ta'rifi atamasi bilan juftlang.**

<b>Nº</b>	<b>Ta'rif</b>	<b>Nº</b>	<b>Atama</b>
1	tasodifiy qiyatlar (DTQ) ma'lum bir sinov ko'p marotaba takrorlanish oqibatida kutiladigan o'rta taxminiy qiyatlardir.	A	Asimmetriya
2	- inglizcha so'z bo'lib, - tavsiflovchi statistikada qo'llaniladigan grafik, chtimollarning bir maromda taqsimlanishini ixcham namoyon qiladi.	B	Markaziy moment
3	yunoncha - o'zaro o'lchamsiz so'zidan olingan bo'lib, o'zaro o'lchamlik buzilishi yoki yo'q bo'lishi degan lug'aviy mazmunga ega. Asimetrik taqsimot u yoki bu yoqqa og'ishma, qiyshaygan shaklda to'plam birliklarining taqsimlanishidir.	C	Bokspolt
4	koeffitsenti, e'timollar nazariyasida o'tkir cho'qqililik koeffitsentini bildirib, tasodifiy qiyatlarning o'tkir uchlari o'levojidir.	D	Diskret
5	- bu K-tartibli momentni arifmetik o'rtachaga nisbatan qarashdir.	E	Eksess
<b>Javob:</b>	1 –	2 –	3 –
			4 –
			5 –

## 5-mavzu. NORMAL TAQSIMLANISH NAZARIYASINING AMALIY JIHATLARI

Tayanch tushunchalar: *alternativ faraz, bir omilli disperszion tahlil, ikki omilli dispersion tahlil, ishonch chegarasi, kritik qiymat, nolinch faraz, standart taqsimot, empirik qiymat, erkinlik darajasi.*

### 5.1. Standart normal taqsimlanish tushunchasi.

Normal taqsimot, nazariyada ikki parametrdan matematik taxmin va dispersiyadan tashkil topadi. Tanlanmaning qiyimatlarini tahlil qilganimizda o'rta arifmetik va tanlanma dispersiyasiga ega bo'lamiz. Shunday bo'lsa-da, normal taqsimot aniq ma'lumotlarning aniq miyosli xususiyatlariga ega. Namunaviy taqsimot esa, universal bo'lmog'i va o'chov birliklariga bog'liq bo'lmashi kerak. Bu taqsimot standart normal taqsimot deb ataladi. U oddiy normal taqsimotdan shunisi bilan farq qiladiki, uning matematik taxmini doimo 0 ga va dispersiyasi 1-ga teng. Ehtimollar nazariyasini qo'llash uchun, mavjud bo'lgan o'zgaruvchilarni sonini ko'paytiramiz va ularni standart normal taqsimotga tenglashtiramiz. Bu uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$(5.1) \quad z = \frac{x-m}{\sigma}$$

$z - x$  o'rnidagi qo'llaniladigan yangi o'zgaruvchi;  $m$  – matematik taxmin;  $\sigma$  – o'rta kvadratik og'ish. Tanlanmani tahlil qilishda quyidagi formulaga murojaat qilamiz:

$$(5.2) \quad z = \frac{x-\bar{x}}{s}$$


yangi o'zgaruvchining  $z$  o'rta arifmetik qiymati va dispersiyasi shunga mos ravishda 0 va 1 ga teng. Buni oddiy matematik usullar bilan aniqlash oson. Statistik tahlillarda "z-o'yenka".  $z$ -baho degan iboraga ko'zimiz tushadi. Bu aynan o'sha meyorga keltirilgan natijalardir.  $z$ -baho ni to'g'ridan-to'g'ri ehtimollar nazariyasi bilan bog'lashimiz mumkin. Chunki uning miyosi standart normal taqsimotga mos tushadi. Endi standart normal taqsimotning ko'rinishini shakllantirsak, avvalo Gauss taqsimotni funktsiyasini esga tushiramiz:

$$(5.3) \quad \varphi = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-m)^2}{2\sigma^2}}$$

$(x-m)/\sigma$  o'rniغا  $z$  harfini qo'yamiz,  $\sigma$  o'rniغا birni belgilaymiz va standart normal taqsimot ko'rinishiga ega bo'lamiz.

(5.4)

$$\varphi = \frac{1}{\sigma \sqrt{2\pi}} e^{-\frac{z^2}{2}}$$



### 5.1-rasm. Standart normal taqsimot ko'rinishi

Markaz uddi kutganimizdek, 0 nuqtada joylashgan. Uddi shu joyda normal taqsimot eng yuqori nuqtaga erishadi va o'rtachasining tasodifiy qiymatini qabul qiladi ( $x-m=0$ ). Bu nuqtaning zichligi 0,3989 ga teng. Ya'ni  $e^{-\frac{0^2}{2}} = 1$  bo'lsa,  $2\pi$  ildiz ostidan chiqarib 1 ga bo'lamiz.

Grafikdan ko'rinishib turibdiki, o'rtachadan kam og'ishgan qiyamatlar boshqa qiyamatlarga nisbatan ko'p uchraydi. O'rtachadan ko'p og'ishgan qiyamatlar kamdan-kam uchraydi. Abtsissalar o'qi shkalasi o'rta kvadratik og'ishlarda o'lchangani uchun o'lchov birliklarini qo'llamaslikka imkon beradi. Bu esa, normal taqsimotning universal qurilishini shakllantirish uchun qulay. Meyoriy ma'lumotlarning normal taqsimoti normal taqsimotning boshqa xususiyatlarini ham yaxshi namoyon etadi. Normal taqsimotning ordinatalar o'qiga nisbatan simmetrik ekanligi kerakli ehtimollarni hisoblashga imkon beradi. Shunday qilib, o'rtacha arifmetikdan  $\pm 1\sigma$  tarkibida barcha qiyatlarning katta qismi mayjud.  $\pm 2\sigma$  chegaralarida barcha qiyatlarning deyarli katta qismi va  $\pm 3\sigma$  chegaralarida kam qiyatlardan joylashgan.

Shuni aytish kerakki, qiyatlarni  $N(0,1)$  miqiyosiga meyorlash-tirish formulasi tasodifiy kattalikni tasniflashni korrektsiya qiladi. Tasodifiy qiyomat, bu shunchaki kuzatilgan qiyomat emas (misol uchun biron narsaning o'lchami), balki o'rtakvadratik og'ishlarda o'lchanadigan o'rta arifmetikdan og'ishdir. Shuning uchun ehtimollik nisbati quyidagi ko'rinishga ega. Misol uchun  $z$  tasodifiy qiymati (0 bo'lgan)

o'rta chadan 2 (o'rta kvadratik og'ish) dan ortiq bo'limgan miqdorda og'ishining ehtimoli qancha? Bunga javob doim bir xil. Ya'ni, 95%. Biz uchinchi mavzuda  $\pm 2$  sigma da o'rta arifmetik qiymat jami 95% normal taqsimlangan ma'lumotlarni tashkil etishini aytib o'tgan edik. Bundan shunday xulosa qilish mumkin: chegaralardan tashqarida og'ish ehtimoli juda kichik, ya'ni atigi 5% ni tashkil qiladi. Ba'zan aksincha anchagina 5% ni tashkil etadi. Bu quyilgan vazifalarning mohiyatiga bog'liq.

Xullas, standart normal taqsimot parametrlari  $M(\text{matematik taxmin})=0$  va dispersiya= $1$  ga teng bo'lishi kerak. U bizga normal taqsimlanish qonuniyatini tasodifiy qiymatlar o'chamlari – standart og'ish universal birliklariga bog'lash uchun kerak<sup>16</sup>.

## 5.2. Bosh ko'plik o'rta chasi uchun ishonchlilik chegaralari.

Birinchi mavzuda tanlanma bosh ko'plikning barcha parametrlarini o'zida aks etishini va baholashini aytib o'tgan edik. Bu uning reprezentativligini ta'minlaydi. Albatta bosh ko'plik parametrlari baholanar ekan, uning ishonchligi ta'minlanishi kerak. Bunday xususiyatni standart xatolik ta'minlaydi. Standart xato qanchalik kichik bo'lsa, tanlangan taqsimotning dispersiyasi shunchalik kichik bo'ladi. Baholashga eng qulay yondashuv, bosh ko'plik parametrlari ifodalangan qiymatlar intervali asosida bo'ladi. Qiymatlarning bunday chegarasi ishonch intervali yoki ishonch chegaralari deb aytildi. Ishonch chegarasi bosh ko'plikning barcha parametrlari uchun qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha ular o'rtacha va nisbiy qiymatlari uchun aniqlanadi. Ishonch chegaralari ahamiyatini aniqlashdan oldin tanlangan taqsimotlar mohiyatini belgilaymiz.


Bosh ko'plik xususiyatlari, o'rta chalarini tanlanma orqali baholanadi.

Agar bosh ko'plikning boshlang'ich qiymatlari normal bo'lsa, u holda tanlab olingen o'rta chalarning tanlangan taqsimoti normal bo'ladi. Agar bosh ko'plik o'rtacha qiymat va standart og'ish qiymatlariga ega bo'lsa, unda o'rta chalarning tanlab olingen taqsimoti o'rtacha qiymatga ( $E(\bar{X})=\mu$ ) va standart xatolik ( $SE_{\bar{X}}=\sigma/\sqrt{n}$ ) qiymatiga ega bo'ladi. Normal taqsimotning nazariyasidan ma'lumki, bu mulohazalar faqat

normal bo'lmagan taqsimot uchun ishtirokchilar soni 30 dan kam bo'lmaganda o'rinnlidir.

Agar biz  $N$  bosh ko'plikdan  $n$  tanlanmani ajratib olsak, tanlanma uchun o'rtacha  $\bar{X}$  ni aniqlasak, unda  $\bar{X}$  ni bosh ko'plikning o'rtachasini  $\mu$  uchun qo'llay olamizmi? Bu qiymat bosh ko'plik uchun qanchalik ishonchli? Ushbu vaziyatni taqsimot grafigi orqali oydinlashtiramiz.

95% tanlangan taqsimot  $f(\bar{x})$



5.2-rasm. Tanlangan o'rtachalarining tanlangan taqsimoti

Rasmda tanlangan o'rtachalarining tanlangan taqsimoti ko'rsatilgan.  $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  qiymatlari bosh ko'plik o'rtachasiga nisbatan simmetrik joylashgandir. Chetki hadlardan chetlangan qo'ng'iroqsimon standart ostidagi maydon tanlangan taqsimotning 95% ini tashkil etadi.  $\bar{X}_1$  gacha va  $\bar{X}_2$  gacha bo'lган maydon 2,5 % dan 5% ni tashkil etadi. Shuni yuz olamizki, bizning boshlang'ich bosh ko'pligimizdan tanlab olingan a qiyamlarning o'rtachalari 95% ehtimollik bilan  $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  oraliqlarida joylashgan o'rtacha qiyamlarga ega bo'ladi<sup>17</sup>.

$\bar{X}_1$  o'rtacha qiymat o'rtacha xatolik bilan ( $\bar{X}_{1-\mu}$ )  $SE_{\bar{X}}$  bosh ko'plik o'rtachasi  $\mu$  dan bir masofa pastda joylashgan.  $\bar{X}_2$  o'rtacha qiymat ja bun bir masofa yuqorida joylashgan.

$\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  oraliqlaridagi interval taqsimotning 95% ini tashkil etsa, normal taqsimot jadvalidan  $\bar{X}_1$  ning qiymati 1,96 standart xatolikka teng.

$$\bar{X}_1 = \mu - 1,96 SE_{\bar{X}}$$

$$\bar{X}_2 = \mu + 1,96 SE_{\bar{X}}$$

Shuning uchun  $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  orasidagi masofa quyidagicha yoziladi:

<sup>17</sup> [edu.alnam.ru/doveritelniye-intervally/](http://edu.alnam.ru/doveritelniye-intervally/).

$$\mu \pm 1,96 SE_{\bar{X}}$$

Odatda biz, bosh ko'plik uchun bitta tanlanma qabul qilamiz; tanlanmaning o'rtacha qiymatini  $x$  ni hisoblaymiz va uni tanlanma ajratib olingen bosh ko'plikning o'rtacha qiymati  $\mu$  uchun qo'llaymiz.  $\bar{X}$  ning yagona qiymati  $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  oralig'iga tushganiga 95% ishonchimiz komil. Agar haqiqatdan ham,  $\bar{X}$  ning qiymati  $\bar{X}_1$  va  $\bar{X}_2$  oralig'iga tushgan bo'lsa, u holda,  $\mu$  quyidagi chegaralarda joylashadi:

$$x \pm 1,96 SE_{\bar{X}}$$

Biz bunga 95% ishonchimiz komil. Bosh ko'plikning ishonch chegaralari 95% ehtimollilik bilan  $x \pm 1,96 SE_{\bar{X}}$  bo'la oladi. Agar misol uchun,  $\bar{X}$  qiymati  $\bar{X}_1$  ga teng bo'lsa, unda  $\mu$  qiymati  $\bar{X}_1$  nuqtasidan o'ngroqda joylashgan bo'ladi. Agar  $\bar{X}$  qiymati  $\bar{X}_1$  dan kichik bo'lsa, unda  $\mu$  qiymati ishonch chegarasida joylashmaydi. Demak biz, yuqorida noto'g'ri xulosa qilib, 5% tanlangan ko'plikni tanlaganmiz. Tanlangan taqsimotning 95%i bilan cheklanish kifoya. Bu yerda chegaraning istalgan o'lchami va ishonchlilikning istalgan darajasi qo'llanilishi mumkin. Ishonchlilik bosh ko'plik qiymati, belgilangan chegara ichida joylashgani ishonchli bo'lishi mumkin. Ishonch chegaralarining eng ko'p uchraydigan foizi 90%, 95%, 99% deb sanaladi. Biz qaysi qiymatni tanlashimizdan qat'iy nazar, ishonch chegarasi o'shanday qolaveradi. Yagona farq, standartlashtirilgan normal o'zgaruvchi  $z$  qiymatida sodir bo'ladi. Demak, bosh ko'plik o'rtachasi uchun umumiy ishonch chegarasi quyidagicha:

$$(5.5) \quad x \pm z_{\alpha/2} SE_{\bar{X}}$$

Bu yerda  $z_{\alpha/2}$  – standartlashtirilgan normal o'zgaruvchi bo'lib, undan yuqori  $(\alpha/2)^{*}100\%$  qiymatlar yotadi. Bu  $(\alpha - 1)^{*}100\%$  chegarasini beradi.

Misol uchun biz, 95% ehtimollik bilan ishonch chegarasini topmoqchi bo'lsak, unda  $\alpha = 0,05$  va ishonch chegarasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$x \pm z_{0,025} SE_{\bar{X}}$$

Agar bosh ko'plikning standart og'ish qiymati ma'lum bo'lsa, tanlangan o'rtachalar taqsimotining standart xatosi quyidagi formulada topiladi:

$$SE_{\bar{X}} = \sigma / \sqrt{n}$$

va bosh ko'plik o'rtachasi uchun  $(1-\alpha)^{*}100\%$  ishonch chegarasi quyidagicha belgilanadi:

$$x \pm z_{\frac{\alpha}{2}} \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

### 5.3. Parametrik va nparametrik mezonlar to‘g‘risida umumiy tushuncha

Parametrik va nparametrik mezonlar statistik mezonlar bo‘lib, ularning tadqiqot natijalarida ma’lum bog‘liqlikni topish uchun to‘g‘ri tanlanishi tadqiqotning muvaffaqiyatini belgilaydi. Statistik mezonlar – bu, tadqiqot farazining qabul qilinishi yoki rad etilishiga imkon beruvchi sonlar hisobining matematik metodidir. Mezon kritik va empirik qiymatga ega. Mezonlarning empirik ahamiyati – bu, mezonlarni hisoblash qonuniyatiga binoan, qo‘lga kiritiladigan sonlardir. *Empirik qiymatlar ma’lum usullar, formulalar orqali aniqlanadi.* Mezonning kritik qiymatlari – o‘zgaruvchilarning soni (masalan, tanlanmaning ishtirokchilari) asosida belgilangan bo‘ladi. *Kritik qiymat barcha statistik darsliklarning, o‘quv qo’llanmalarining ilovasida, ma’lum shartlar asosida beriladi.* Empirik qiymat  $X_{emp}$ , kritik qiymat  $X_{kr}$  etib belgilanadi. Ko‘p hollarda, aynan bir xil empirik qiymatlar, tanlanmaning kuzatuv soniga ( $n$ ) yoki erkinlik darajasi miqdoriga (yunoncha nyu harfi yoki  $df$  ing, degree of freedom-erkinlik bosqichi) ko‘ra, ahamiyatli yoki ahamiyatsiz etib belgilanishi mumkin.

Empirik va kritik qiymatlarning o‘zaro aloqasi asosida nol faraz ( $H_0$ ) qabul qilinishi yoki rad etilishi kuzatiladi. Kritik qiymatlardan ahamiyatsizlik va ahamiyatlilik yoki noaniqlik va ahamiyatlilik chegaralarida joylashgani uchun shunday nom olgan. Empirik qiymatlardan kritik qiymatdan oshib ketsa,  $X_{emp} > X_{kr}$  bo‘lgan taqdirda, statistik mezonlar statistik farazlarni ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini tasdiqlaydi. Statistik farazlar – nolinchi ( $H_0$ ) va muqobil yoki alternativ ( $H_1$ ) farazlarga bo‘linadi.

Nol farazi – biron bir farqning mavjud emasligi to‘g‘risidagi faraz. Unda nol qiymati bo‘lgani uchun  $H_0$  deb belgilanadi. Nol gipotezasi, tadqiqotchi biron bir belgining mavjudligini isbotlashi uchun rad qilishi mumkin bo‘lgan faraz.

Alternativ faraz – bu ahamiyatli farqning mavjudligi to‘g‘risidagi faraz. Alternativ faraz, tadqiqotchi isbotlamoqchi bo‘lgan faraz. Shuning uchun ba’zan u, eksperimental faraz deb nomlanadi.

Masalan, tadqiqotchi, ikki guruuhning noverbal hulq-atvorini qiyolamoqchi bo‘lsa, guruhlarning tafovutlarini aniqlaydi. Birinchi guruh

ijtimoiy fanlar vakillari bo'lsa, ikkinchi guruh aniq fanlar bilan mashg'ul kishilar guruhi bo'lsin. Psixologning fikricha, ijtimoiy fanlar vakillari aniq fanlar vakillariga nisbatan noverbal pertseptiv qobiliyati yaxshiroq rivojlangan. Buning uchun u, guruhlar o'ttasida tafovut mavjudligi to'g'risidagi  $H_1$  farazini qabul qilib, guruhlar o'ttasida hech qanaqangi farq yo'qligi to'g'risida  $H_0$  ni rad qilishi kerak. Ijtimoiy fan vakillarini eksperiment guruhi va aniq fanlar vakillarini nazorat guruhi deb tanlaydi. Eksperiment guruhining ma'lum bir metodika yuzasidan olgan ballarini nazorat guruhi ballari orqali tekshiradi. Agar eksperiment guruhi rostdan ham yuqori ball to'plagan va bu statistic ahamiyatli bo'lsa, unda psixologning farq mavjudligi to'g'risidagi  $H_1$  farazi tasdiqlanadi. Farq mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  faraz rad etiladi.

Psixologik tadqiqotlarda aksariyat hollarda, psixolog  $H_1$  farazni qabul qilishga intiladi. Ammo ba'zan  $H_0$  ning qabul qilinishi ahamiyatli tadqiqot hisoblanadi. Misol uchun, shaxsning individual, kommunikativ sifatlari hech qanaqangi ijtimoiy sabablarga bog'liq emasligi isbotlanishi  $H_0$  farazning qabul qilinishi bilan bog'liq bo'ladi. O'z navbatida bu ham muhim psixologik tadqiqot hisoblanadi. Ammo baribir, tadqiqochilar uchun  $H_1$  farazlar belgilanishi va isbotlanishi ilmiy yangiliklar qilish, fanni qo'shimcha va ba'zan o'ta muhim ma'lumotlar bilan boyitish uchun zarur.

Farazlar o'zaro bir-biridan quyidagicha farq qildi:

Yo'naltirilgan nolinchi faraz:  $X_1 X_2$  dan oshmaydi.

Yo'naltirilgan alternativ faraz:  $X_1 X_2$  dan oshadi.

Yo'naltirilmagan nolinchi faraz:  $X_1 X_2$  dan farq qilmaydi.

Yo'naltirilmagan alternativ faraz:  $X_1 X_2$  dan farq qildi.

Farazlar yordamida psixolog, tadqiqot yo'nalishini belgilaydi. Tadqiqot oxirida esa, qanday ma'lumotga ega bo'lganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Farazlar tadqiqot mohiyatini aniq va lo'nda belgilaydi. Har bir mezonning tavsifida, u tekshirishga qodir bo'lgan farazlar shakli beriladi.

Mezonlar ikkiga bo'linadi. Ular parametrik mezonlar va nonparametrik mezonlar. Har ikkalasi ham ayrim yutuq va kamchiliklarga ega.

**Parametrik mezonlar** – hisoblash formulasiga taqsimlanish parametrlarini ya'ni, o'rtacha va dispersiyani kirituvchi mezonlardir (t-Styudent mezoni, F-Fisher mezoni va boshq.).

Parametrik mezonlar ikki tanlanmalarning o'rtacha qiymatlarini va dispersiya tafovutlarini to'g'ridan to'g'ri farqlashga imkon beradi. Bu mezonlar, normal taqsimotda belgining bir holatdan ikkinchisiga o'tishda o'zgarish tendentsiyasini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon bir omilli dispersion tahlilda amalga oshadi. Ushbu mezonlar yordamida bir yoki bir qancha omillar va ularning o'zgaruvchilarga ta'sirining aloqadorligini baholash mumkin. Bu jarayon ikki omilli dispersion tahlilda amalga oshadi. Parametrik mezonlarning kamchiliklari shundan iboratki, ularda matematik hisoblarning murakkabligi va ayrim shartlarga rioya qilish zarurati mavjud. Ular:

- belgining qiymatlari intervallar shkalasida o'lchanishi kerak;
- belgining taqsimoti normal bo'lishi kerak;
- dispersion tahlilda dispersiyalar teng bo'lishi lozim.

Agar bu qoidalarga amal qilinsa, unda parametrik mezonlar noperametrik mezonlardan ko'ra kuchliroqdir.

*Noparametrik mezonlar* – mazkur mezonlarning hisoblash formulalariiga taqsimot parametrlarini kiritmay, balki ranglar va chastotali operatsiyalarga asoslangan bo'ladi (**Q** Rozenbaum mezoni, **T** Vilkokson mezoni va boshq.).

Noparametrik mezonlar tanlanmalarda belgining o'rtacha tendentsiyasini va variativlik oraliqlarida belgining farqlarini aniqlashga imkon beradi. Noparametrik mezonlar dispersiyalar tengligini, belgining normal taqsimotini nazorat qilmaydi. Ushbu mezonlarning matematik hisobi oson va ko'p vaqt talab qilmaydi.

Taqsimotning ayrim tasodifiy xususiyatlari tufayli statistik farazlarning tekshirilishida ba'zi vaziyatlarni noto'g'ri talqin qilish xavfi mavjud. Xato xulosalar chiqarilishi ehtimolini tekshirish uchun statistik farazlarga nisbatan ahamiyatlilik darajasi qo'llaniladi. Ahamiyatlilik darajasi – matematik statistik tushuncha bo'lib, xatolik xavfini aniqlaydigan kattalikdir.

Xatolik quyidagi holatdan iborat:  $H_0$  farazi rad qilinsa-yu, ammoy u to'g'ri bo'lsa birinchi turdag'i xatolikka yo'l quyiladi. Bu xatolikka yo'l qo'yilish ehtimoli  $\alpha$  deb belgilanadi. To'g'ri qabul qilingan qaror ehtimoli  $1 - \alpha$  deb yuritiladi.  $\alpha$  qanchalik kam uchrasha, to'g'ri qabul qilingan qaror ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.

Psixolog,  $H_0$  ni, ya'ni tafovut mavjud emasligi to'g'risidagi farazni qabul qilsa va bu faraz xato bo'lsa, unda u, ikkinchi turdag'i xatolikka

yo'l qo'yadi. Ikkinci turdag'i xatolik  $\beta$  deb belgilanadi. Bu xatoliklar empirik qiymat noaniqlik hududiga tushganda yo'l qo'yiladi.

Psixologik tadqiqotlarda qiymatning ahamiyatli darajasida,  $\sigma=0,05$  qabul qilinadi. Ya'ni: bosh ko'plikda nol farazi to'g'ri bo'lsa, u holda tanlanmadan olingan natijalar 5% dan ortiq holatda takroriy tanlanmalarda qaytarilishi mumkin. Psixologiyada, statistik ahamiyatlilikning quyi bosqichi sifatida 5% nchi daraja qabul qilingan. U  $p<0,05$  (p-ing. probability – ehtimoliylik, ya'ni uning qiymatlari ehtimoliylik printsipiga buysunadi) sifatida belgilanadi. Ahamiyatlilikning yetarli darajasi sifatida – 1% nchi daraja ( $p<0,01$ ) va yuqori 0,1% nchi darajasi ( $p<0,001$ ) tariqasida qabul qilingan. Shuning uchun ham, kritik qiymatlar jadvallarida statistik ahamiyatlilik darajasi  $p<0,05$  va  $p<0,01$ , ba'zan  $p<0,001$  ga mos mezonlar qiymatlari beriladi. Tadqiqotlarimizda qiymatimiz statistik ahamiyatlilikning  $p<0,05$  darajasiga yetmaganga qadar, biz nolinchи farazni rad etolmaymiz. 0,05 ning mantig'i juda oddiy. Statistikada, tadqiqotchi alternativ farazni qabul qilmoqchi bo'lsa 100 tadan 5 ta holatda xatolikka «ruxsat beriladi». Ammo oltinchi xato yo'l qo'yilsa, empirik qiymat ahamiyatsizlik hududiga tushib qoladi. Ya'ni  $H_0$  faraz qabul qilinadi. Eng ideal ahamiyatlilik, «kuchli korrelyatsiya», «kuchli ahamiyatlilik» va h.k. 0,001 hisoblanadi. Bu yerda xato deganda matematik yo'l qo'yilgan xato tushunilmaydi (vaholanki, matematik xato umuman yo'l qo'yilmasligi kerak!). O'rgani layotgan xususiyatlarning alternativ farazga mos kelishidagi hatoliklar tushuniladi. Masalan, psixolog depressiya kuzatilgan kishilarda yolg'izlik, tashlab ketilganlik tuyg'usi bo'lishini taxmin qiladi. Depressiya va yolg'izlik shkalalarida qiymatlar bir-biriga har safar mos tushmagani bitta hatolik bilan o'chanadi. Ammo 1 ta xatolik darrov qiymatni 0,05 dan 0,06 olib kelmaydi. Oddiy matematika darslaridan bilamizki, 5 dan 6 ga qadar sonlar oralig'ida cheksiz sonlar mavjud. Har bir 0,05% dan og'gan qiymat statistik ahamiyatsiz hisoblanadi.

Nol farazini rad etishning ma'lum bir qoidalari mavjud. Agar empirik qiymatlar kritik qiymatlarga teng bo'lsa,  $p<0,01$  va undan oshsa, biz  $H_0$  ni rad etib,  $H_1$  qabul qilamiz. Ammo **G** mezonlar belgisi, **T**-Vilkokson mezoni, **U** Manni-Uitni mezonlari bundan mustasno. Ular uchun teskari aloqadorlik qo'llaniladi (keyingi mavzularda batafsil beriladi).

Statistik ahamiyatlilik darajasi – mezonlarning kritik ahamiyatligidir. Mezonlarning kritik qiymatlari jadvali shu yo'sinda tanlan-

ganki, yo'naltirilgan farazlarga bir tomonlama (tafovutni bir tomondan o'rganadi) va yo'naltirilmagan farazlar uchun ikki tomonlama (tafovutni ikki yoqlama o'rganadi) mezonlar mos tushadi. Keltirilgan qiymatlar ularga qo'yilgan talablarni ado etadi. Tadqiqotchi shuni unutmashligi kerakki, uning farazlari mezonlarning shakli va mantig'iga to'g'ri kelishi juda muhim.

Mezonning muhim xarakteristikasi sifatida uning kuchliligi e'tirof etiladi. Mezon kuchliligi – bu uning, agar mavjud bo'lsa tafovutlarni aniqlash imkoniyati, agar u noto'g'ri bo'lsa tafovut mavjud emasligi to'g'risida nolinchi farazni rad etishida ma'lum bo'ladi.

### 5.1-Jadval

#### Vazifalar toifasi va ularni yechish metodlari

Topshiriqlar	Shart-sharoitlar	Metodlar
1. Tadqiq qilinayotgan belgi darajasida tafavutlarni aniqlash	a) sinaluvchilar 2 tanlanmasi  b) sinaluvchilar 3 yoki undan ko'p tanlanmasi	$Q$ Rozenbaum mezoni $U$ Manni-Uitni mezoni $\varphi$ mezon (Fisherning burchakli o'zgarishi)  $S$ Djonkir mezoni $N$ Kruskal-Uollis mezoni
2.O'rganilayotgan belgining siljish qiymatlari bahosi	a) aynan bitta tanlanmada 2 marotaba o'Ichov o'tkazish  b) aynan bitta tanlanmada 3 va undan ortiq o'Ichovlar	$T$ -Vilkokson mezoni $G$ belgilari mezoni $t$ -Styudent mezoni $\varphi$ mezon (Fisherning burchakli o'zgarishi)  $\chi^2$ Fridman mezoni $L$ Peydj tendentsiyalari mezoni $t$ -Styudent mezoni
3. Belgining taqsimoti tafovutlarni aniqlash	a) empirik taqsimotning nazariy taqsimot bilan taqqoslashda  b) ikki empirik taqsimotning solishtirishda	$\chi^2$ Pirson mezoni $\lambda$ Kolmogorov-Smirnov mezoni $t$ -Styudent mezoni  $\chi^2$ Pirson mezoni $\lambda$ Kolmogorov-Smirnov mezoni $\varphi$ mezon (Fisherning burchakli o'zgarishi)

4.O'zgarishlarning aloqadorlik darajasini aniqlash	a) ikki sifatning	$\varphi$ Pirsonning korrelyatsiya koeffitsenti $\tau$ Kendall korrelyatsiya koeffitsienti R biserial korrelyatsiya koeffitsient $\eta$ Pirson korrelyatsion munosabatlari $p$ Spirmenning ranglar korrelyatsiyasi $r$ Pirson korrelyatsiya koeffitsienti $t_{og}$ richiziqli va egri chiziqli regressiyasi
	b) 3 va undan ortiq belgilar	$r_s$ Spirmenning ranglar korrelyatsiya koeffitsenti $r$ Pirsonning korrelyatsiya koeffitsenti Ko'pmartalik va chastotali korrelyatsiya Chiziqli, egrichiziqli va ko'pqirrali regressiya Omili va Klastrlı tahlil
Nazorat qilinadigan shartlar ta'siri ostida belgining o'zgarish tahlili	a) bir omil ta'siri ostida	S Djonkir mezoni L Peydja tendentsiyalarini mezoni Bir omilli dispersion tahlil
	b) bir vaqtning o'zida ikki omil ta'siri ostida	Ikki omillik dispersion tahlil

Mazkur jadval bilan ishlash tartibi quyidagicha:

- 1) Jadvalning birinchi ustuni bo'yicha, tadqiqotda turgan vazifa tanlanadi;
- 2) Jadvalning ikkinchi ustuni bo'yicha vazifani bajarish topshiriqni bajarish sharti aniqlanadi, masalan, nechta tanlanma o'rganildi yoki o'rganilayotgan tanlanma necha guruhga ajratildi;
- 3) mos keluvchi statistik metod tanlanadi. Bir necha metodlarni tanlash va ularni taqqoslash mumkin.

Ko'p hollarda, aynan bir xil empirik qiymatlar, tanlanmaning kuzatuv soniga (**n**) yoki erkinlik darajasi miqdoriga (**v** yoki  $df$ ) ko'ra, ahamiyatlari yoki ahamiyatsiz etib belgilanishi mumkin. Erkinlik darajasi **v** soni variatsion qator sonidan o'zi hosil bo'lgan shartlar sonining ayirmasiga teng. Ushbu shartlar soni deb, tanlanma hajmi (**n**), o'rtacha va dispersiyaga aytildi. Agar biz kuzatuvni nomlanishlar shkalasi asosida klassifikatsiyalagan bo'lsak va kuzatuv natijalarini klassifikatsiyaning har bir katakchasi hisoblasak, unda biz chastotali variatsion qatorga ega bo'lamiz. Uning shakllanishida yagona holat – bu tanlanma hajmidir. Aytaylik, bizda 3 ta guruh bor. Ularning tasnifi: chet tilida yaxshi so'zlashadi; chet tilida ayrim so'zlarni biladi; umuman chet tilida so'zlasha olmaydi. Tanlanma 40 kishidan iborat. Agar birinchi guruhda 15 kishi, ikkinchisida ham 15 kishi bo'lsa, u holda, uchinchi guruhga 10 kishini qolishi kerak. Biz bu holatda, tanlanma xajmini tanlashda cheklanganmiz. Agar biz necha kishi chet tilida umuman so'zlasha olmasligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yo'qtgan taqdirda ham, bu ma'lumotni tez aniqlab olamiz. Chunki biz birinchi va ikkinchi guruhlarda 15 nafardan kishi borligini bilamiz. Biz uchinchi guruh ishtirokchilar miqdorini tanlashda erkin emasmiz. Erkinlik, klassifikatsiyaning birinchi ikkita kataklariga tegishli bo'ladi:

$$df=c-1=3-1=2$$

biz turlicha sonli tanlanmalarda ham huddi shunday, oxirgidan tashqari barcha guruhlar miqdorini tanlashda erkinmiz. Erkinligimiz, oxirgi qiymatga kelib tugaydi. Masalan, 10 guruhdan faqat 9 da, 20 guruhdan 19 da erkin bo'la olar edik. Erkinlik darajasini qiymatini topgach, u orqali har bir mezonning kritik qiymatini statistik jadvallardan topa olamiz.

#### 5.4. Empirik taqsimlanishning ehtimollar nazariyasi bilan bog'liqligi.

Empirik taqsimot tasodifiy diskret qiymatlarning joylashishi, taqsimlanishi printsipliga bog'liq. Tasodifiy qiymat deb, tadqiqot natijasida oldindan bashorat qilinmagan va tasodifiy omillarga bog'liq bo'lgan bitta va faqat bitta sonli qiymatni qabul qiladigan qiymatga aytildi. Ehtimollik, tanlangan kenglikka tegishli jarayonni aniqlovchi tizim sifatida ko'rildi. Tanlangan kenglik tushunchasi fundamental hisoblanadi. Biz hech qachon ayrim turdag'i tanlangan kenglikka tegishli bo'lmagan ehtimoliy mulohazalar qila olmaymiz. Ehtimoliy mulo-

hazalar tanlangan kengliklar haqidagi mulohazalarning xuddi o'zi. Ehtimolilikni shakllantirish tanlangan kenglik xodisasiga nisbatan amalga oshiriladi. Keyingi betlarda biz xodisalarni X, Y, Z yoki A, B, C...; deb belgilaymiz. Ehtimoliy A xodisasini P(A) deb belgilaymiz.

A, P(A) ehtimoliy xodisasi, nuqtalar munosabatining umumiy A xodisasiga olib keluvchi umumiy nuqtalar soni tanlangan kenglikda teng ehtimolga ega. Aytaylik, A qutidagi «Oq shar – xodisasi» tanlangan kenglik esa, ko'psonli 9 sharlar bo'lsin (6 ta oq, 3 qora). Qancha nuqtalar A xodisasiga olib keladi. Turgan gapki javob 6. Demak, A xodisasining ehtimoli («Oq shar») quydagiga teng:

$$P(A) = \frac{A \text{ ning sodir bo'lish soni}}{\text{nuqtalarning umumiy soni}} = \frac{6}{9} = \frac{2}{3}.$$

Agar bizning misolimizda, B «Qora shar» xodisasini ko'rsatsa, P(B) xodisasini topish kerak. P(A) va P(B) xodisasini qo'shish lozim. Agar C xodisasi «Qizil shar» bo'lsa, unda P(C) nimaga teng? D xodisasi «Shar yoki qora yoki oq» bo'lsa, unda P(D) xodisasi nimaga teng? E «Shar qanchalik oq bo'lsa, shunchalik qora» xodisasidir P(E) ni toping.

Tasavvur qilamiz, bizda yana bitta savat bor. Unda 4 ta oq va nomalum miqdorda qora shar bor. Tasodifan tanlaganda oq sharning tushish ehtimoli qanday? Ehtimollar nazariyasiga ko'ra, bu savolga javob berishning iloji yo'q. Ehtimollikni, agar tanlangan kenglikning barcha xodisalari ma'lum bo'lsa, aniqlash mumkin. Bu misolda esa, ular nomalum.

Alternativ javob mavjud, uning yordamida ehtimollik xodisasini aniqlashimiz mumkin. Tanlangan kenglikda har bir sodir bo'ladigan elementar xodisalar *kichik harflar bilan*  $a_1, a_2, a_3$ , deb belgilanadi. Yoki mos ravishda X xodisasi uchun  $x_1, x_2, x_3$  elementar xodisalar belgilanadi. Barcha turli xodisalar va ularning sodir bo'lish ehtimoli ko'paytmasining yig'indisi albatta va albatta 1 ga teng<sup>18</sup>. Mazkur qoidanining formulasi quydagicha belgilanadi.

$$(5.7) \quad \sum_{i=1}^n p_i x_i = 1$$

ya'ni,  $- p_i$  har bir xodisaning sodir bo'lish ehtimoli;  $x_i$  tasodifiy qiymat.

Yana bir misol, 10 tug'ilgan chaqaloqdan nechta o'g'il bola ekanligi ehtimoli nechaga teng. Bu qiymat  $y=0, y=1, y=2, y=3, y=9$

<sup>18</sup> Гласс Дж., Степли Дж. Статистические методы в педагогике и психологии. Пер. с англ. Л. И. Хайрусовой под ред. Ю. Н. Адлера. - М.: Прогресс. 1976. 495с (181 с).

yoki hatto  $y = 10$  bo'lishi mumkin. Bu yerda 10 diskret qiymat hisoblanadi. Ya'ni sonlar miqdori uzlusiz emas, balki aniq sanoq sonlardir.

Diskret sonlardan hosil bo'ladigan xodisalar va ularning sodir bo'lishiga yana misol keltirsak: biz bilamizki, o'yin toshchalari qirrasida ochkolar soni 1dan 6 gacha bo'lgan sonlar. Har safar toshlar tashlanganda, ma'lum bir istalgan qiymatning tushish ehtimoli nechaga teng. Buni tekshirish mumkin.  $\frac{1}{6} = 1,66$ . Demak, ma'lum bir sonning tushish ehtimoli 16% ga teng. Quyidagi 5.1-jadvalda toshlardagi ochkolar tushish xodisasining empirik taqsimoti va sodir bo'lish ehtimoli beriladi.

**5.2-jadval.**

X	$x_1$	$x_2$	$x_3$	....	$x_n$
	$p_1$	$p_2$	$p_3$	....	$p_n$

Taqsimotlar qatori yuqoridagi qoida asosida belgilanadi. Yana bir qoidani ko'rib chiqsak, X tasodifiy qiymati  $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$  qiymatlaridan birini olishi aniq ekan, mazkur xodisa bir guruhni hosil qiladi va ularning yig'indisi 5.1 formulada belgilanganidek, 1 ga teng bo'ladi.

$$p_1 + p_2 + p_3 + \dots + p_n = 1.$$

O'yin toshchalarida sonlarning tushish ehtimoli taqsimoti 5.2 jadvalda ko'rsatiladi.

**5.3-jadval.**

X	1	2	3	4	5	6
	$\frac{1}{6}$	$\frac{1}{6}$	$\frac{1}{6}$	$\frac{1}{6}$	$\frac{1}{6}$	$\frac{1}{6}$

$$p = \frac{1+1+1+1+1+1}{6} = \frac{6}{6} = 1.$$

Yana bir misol keltirsak, deylik berilgan ehtimoliy qiymatlar va sodir bo'lgan xodisalar qiymati quyidagicha:

**5.4-jadval.**

B	-5	2,5	10
	0,5	$p_2$	0,1

$p_2$  ni topamiz.

B tasodifiy qiymati berilgan qatorning uchta qiymatini olishi mumkin ekan, ular xodisalar guruhini hosil qiladi va yig'indisi 1 ga teng bo'ladi.

$$0,5 + p_2 + 0,1 = 1 \quad p_2 + 0,6 = 1 \quad p_2 = 1 - 0,6 = 0,4.$$

Demak,  $p_2$  ning 2,5 qiymati xosil bo'lish hodisasi 0,4 ga teng.

$$p_2 = 0,4.$$

Yana bir bor amalimizni tekshiramiz,  $0,5 + 0,4 + 0,1 = 1$ .

Ko'p hollarda ehtimollarning taqsimlanish qonunini mustaqil amalga oshirishga to'g'ri keladi.

### Nazorat savollari:

1. Pirsonning  $\chi^2$  mezonini qaysi vaziyatlarda qo'llaniladi?
2. Farazning ahamiyatliliginini aniqlashda birinchi turdag'i xato qachon yo'l qo'yiladi?
3. G mezonlar belgisi, T-Vilkokson mezonini, U Manni-Uitni mezonlari boshqa mezonlardan qanday farq qiladi?
4. Parametrik mezonlar deb nimaga aytildi?
5. Standart normal taqsimot normal taqsimotdan farqi nimada?
6. Ishonch chegaralari qachon qo'llaniladi?
7. t-Styudent mezonini qanday vazifalarni bajarishda qo'llaniladi?
8. Yo'naltirilgan va yo'naltirilmagan farazlar qanday farq qiladi?
9. Empirik qiymat qanday topiladi?
10. Kritik qiymat deb nimaga aytildi.
11. z- bahosi qanday topiladi?
12. Statistik ahamiyatlilik deganda nimani tushunasiz?
13. Ikkinci turdag'i xatolik qachon ro'y beradi?
14. Ikki omilli dispersion tahlil qachon amalga oshiriladi?
15. Kolmogorova-Smirnova mezonini qachon qo'llaniladi?
16. Noparametrik mezonlar qachon qo'llaniladi?
17. Parametrik mezonlarning kamchiligi nimada?
18. Normal taqsimlanishda o'rta chadan og'ishlar necha foizni tashkil qiladi?

Quyidagi konseptual jadvalni toldiring.

Solishtirish belgilari	Parametrik mezonlar	Noparametrik mezonlar
Farazlar		
Maqsad		
Kritik qiymatlar		
Empirik qiymatlar		

## 6-mavzu: MA'LUMOTLARNI STATISTIK TAQQOSLASH METODLARINI TANLASHNING ASOSIY MEZONLARI.

**Tayanch tushunchalar:** *dispersiyaning gomogenligi, Kolmogorov-Smirnov mezonı, nazariy chastotalar, F-test, Fisher mezonı, empirik chastotalar, empirik chastotalarning kumulyatsiyasi,*

### 6.1. Variatsion qatorning normal taqsimlanishga mosligini aniqlash.

Variatsion qatorning muhim vazifalaridan biri, uning normal taqsimlanganlik qonuniyatini va uning xususiyatini aniqlashni o'zida aks ettirishdir. Normal taqsimlanish qonunini aniqlashning asosiy usuli – katta ko'pliklar uchun variatsion qatorni shakllantirish, o'zgaruvchi belgi intervalini aniqlashdan iborat.

Normal taqsimlanishning xususiyati to'g'risida gapirganimizda, variatsiyani aniqlaydigan umumiyligi holatlarni nazarda tutamiz. Bunda sifat jihatidan bir xil o'lchamlarni taqsimlash va ularni ketma-ketlikda joylashtirish lozim. Variatsion qatorni tahsil qilganda, nazariy va empirik takrorlanishlarning o'zaro mutanosibligi o'rganiladi. Nazariy taqsimlanish deganda, normal taqsimot grafigi nazarda tutiladi. Empirik taqsimot esa, ma'lum bir metodikalar, jarayonlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tegishli tartibda shakllantirish tushiniladi. Empirik taqsimot, variatsion qator chastotalarini belgining muvofiq qiymatlari bilan bog'laydigan formula bilan ifodalanadi.

**Topshiriq.** Misol uchun, 20-22 yoshdagи 40 nafar talabalarning empatiya darajasi o'rganilganda, ularning olgan natijalari quyidagicha tahsil qilinadi.


**Bajarilishi:** natijalarni statistik qatorga joylashtiramiz.

44, 48, 60, 62, 53, 60, 51, 48, 53, 48, 70,  
62, 53, 51, 51, 60, 62, 53, 53, 51, 66, 53, 60, 51, 66, 60, 53, 44, 60, 51, 53, 51,  
66, 62, 60, 51, 53, 53, 62, 70.

variatsion qatorni shakllantirsak,

$X_i$	44	48	51	53	60	62	66	70
$f$	2	3	8	10	7	5	3	2

Variatsion qatorga qarab, natijalar grafik usulini 6.1 rasmida ifodalaymiz:



**6.1-rasm. Talabalar empatiya darajasining grafik ko'srinishi.**

Variatsion qatoridan ko'rib turganimizdek, 53 soni 10 marta takrorlangani uchun, Moda ( $M$ ) = 53; Mediana  $Md = 53 + 60 = 113/2 = 56,5$ ;

O'rtacha qiymat esa, (2.4) formula yordamida topiladi:  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum (X_i f_i)$ . Ya'ni qiymatlarning barchasi takrorlanib kelgani uchun ularning takrorlanish chastotasi ( $f_i$ ) qiymatlarga ko'paytiriladi va ko'paytmalarning summasi topiladi:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= (44 * 2) + (48 * 3) + (51 * 8) + (53 * 10) + (60 * 7) + \\ &+ (62 * 5) + (66 * 3) + (70 * 2) = \frac{2240}{40} = 56 \\ \bar{X} &= 56;\end{aligned}$$

Variatsion qatorning dispersiyasini va standart og'ish qiymatini (3.1), (3.2) formulalar yordamida topamiz:

$$S^2 = \frac{1}{n-1} \sum (X_i - \bar{X})^2$$

dispersiya:  $S^2 = 44,5$ ;

$$S = \sqrt{\frac{1}{n-1} \sum (X_i - \bar{X})^2}$$

standart og'ish:  $S = \sqrt{44,5} = 6,6$ :

variatsiya koeffitsenti: (3.4) formulasi yordamida topiladi:

$$CV = \frac{S}{\bar{X}} * 100\%$$

$CV = \frac{6,6}{56} * 100\%$ . Variatsiya koeffitsenti:  $CV = 11,7\%$ ;

Taqsimotning normalligini tekshirish quyidagicha amalga oshadi:  
Asimmetriya koeffitsentini topish (5.1) formulada bajariladi:

$$A = \frac{M^3}{S^3}.$$

$M_3$  = uchinchi darajali shartli moment bo'lgani uchun, shartli momentni topamiz.

$$M_3 = \frac{(x_1 - \bar{x})^3 f_1}{\Sigma f}$$

A=0,34. E=-0,62

Har bir qiymat o'rtachadan 56 taga va o'rtacha hisoblaganda 6,6 taga farq qiladi.

O'rtacha qiymat moda va medianaga yaqin bo'lgani uchun taqsimotimiz normal taqsimotga yaqin.

Asimetriya koefitsenti noldan farqli bo'lgani uchun taqsimotimiz to'liq normal emas. Grafikdan ko'rib turganimizdek, qo'ng'iroqsimon qiyishi shaklimiz o'ng tomonga og'gan. Buning sababi shuki, asimmetriya noldan farqli musbat qiymatni ko'rsatdi (0,34).

Ammo asimetriya ko'rsatkichi noldan katta farq qilmagani bois, uni ahamiyatsiz deb ayta olamiz. Ekstsess esa, mansiy qiymatni ko'rsatgani uchun (-0,62) shaklimiz bo'rtiq emas, aksincha o'tmas cho'qqili ko'rinishga ega bo'ldi. Variatsiya koefitsenti CV<30% (CV= 11,7%) bo'lgani uchun, tadqiq qilinayotgan ko'plikni bir xil, tipik deb ayta olamiz.

## 6.2. Kolmogorov-Smirnov mezonı.

Mazkur mezon tanlanmani normal taqsimot qonuniyatiga amal qilishini tekshiradi. Ya'ni empirik taqsimotning farziy (gipotetik) taqsimotga mosligini o'rGANADI. Bu mezon yordamida, shuningdek, ikki empirik taqsimotni solishtirish imkoniyati mayjud.

Mezon, ikki to'plangan chastotalarning ajralish nuqtasini topishga, ularning nisbatan kattasini aniqlashga va bu tafovut statistik ahamiyatga ega ekanligini isbotlashga qaratilgan. Agar ikki taqsimot (empirik va nazariy) orasidagi tafovut ahamiyatli bo'lsa, qaysidir lahzada to'plangan chastotalar ayirmasi kritik qiymatlarga etadi va biz bu tafovutni ahamiyatli deb ayta olamiz. Kolmogorov-Smirnov mezonı formulasida ushbu ayirma berilgan. Empirik qiymatlar qancha ko'p bo'lsa, tafovut shuncha ahamiyatli bo'ladi.  $H_0$  faraz: ikki taqsimot o'rtaqidagi tafovut ahamiyatli emas.

Kolmogorov-Smirnov mezonini qo'llashdan oldin quyidagi qoidalarga rioya qilish darkor:

1. O'lechov intervallar va nisbatlar shkalasida amalga oshirilgan bo'lishi kerak;

2. Tanlanmalar tasodifiy va mustaqil bo'lishi lozim;

3. Ikki tanlanmaning umumiy miqdori  $N \geq 50$  bo'lishi kerak. Tanlanma xajmi ortib borgan sari mezonning aniqligi ta'minlanadi;

4. Empirik ma'lumotlar oshib yoki kamayib borish tartibiga ko'ra. joylashtirilishi kerak. Ya'ni ma'lumotlar aniq yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Agar ma'lumotlar tartib bilan joylashtirish printsipiga asoslanmagan bo'lsa, unda xi-kvadrat mezonidan foydalanish lozim.

Mezonning qo'llanilishiga quyidagi misolni keltirainiz:

**Topshiriq:** 14-15 yoshli maktab o'quvchilari orasida 8-9 sinflarda (143 nafar o'quvchi) o'quv motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan metodika o'tkazildi. Aksariyat sinflarda yettita motivatsiya orasidan (kommunikativ motiv, bilish motivlari, shakllantiruvchi motiv, tashqi motivlar ya'ni rag'bat va jazolash, yutuqqa intilish motivi va o'quvchi motivi) yutuqqa intilish motivi ustunlik qilishi kuzatildi 148 nafar talabandan 105 nafar o'quvchi tanladi. Psixolog, o'quvchilarda yettita motiv bo'yicha yutuqqa intilish motivi tanlanishi teng taqsimlanganligi bilan farq qildimi? degan farazni ilgari suradi.

**Bajarilishi:** tadqiq qilingan 8-9 sinflarda yutuqqa intilish motivining takrorlanish chastotasi 6.1- jadvalda berilgan:

#### 6.1-jadval

**O'quvchilar tomonidan yutuqqa intilish motiv tanlanishining empirik chastotasi (n=105)**

	I	II	III	IV	V	VI	VII
<b>B-empirik chastotalar</b>	10	13	14	16	16	17	19

Motivning taqsimlanishiga qarab, farazlarni shakllantiramiz.

$H_0$ : yutuqqa intilish motivining empirik taqsimlanishi normal taqsimlanishdan farq qilmaydi.

$H_1$ : yutuqqa intilish motivining empirik taqsimlanishi normal taqsimlanishdan farq qiladi.

Endi 6.2 jadvaliga nazariy chastotalarni joylashtirish orqali ishning bajarilish bosqichiga o'tamiz.

### 6.2-jadval

#### Empirik chastotalar va nazariy chastotalar taqsimoti (n=105)

Guruhlar	I	II	III	IV	V	VI	VII
B-empirik chastotalar	10	13	14	16	16	17	19
E-Ehtimoliy chastotalar	15	15	15	15	15	15	15

Empirik chastotalarda o'quvchilar real ko'rsatgan natijalar berilgan. Masalan, har bir guruhda yutuqqa intilish motivi shkalasi savollaridan ijobjiy natija ko'rsatgan o'quvchilar soni katakchalarga kichik ko'rsatkichdan katta ko'rsatkich sari joylashtirilgan. Xullas, sonlar empirik chastotalar bo'limiga oshib borish tartibi bilan joylashtirilgan. Ehtimoliy chastotalar katakchalariga esa, 105 nafar o'quvchi soni 7 ta motivga bo'lingan.  $105:7=15$ . Ehtimoliy tomondan chastotalar o'quvchilar soniga teng taqsimlangan.

Keyingi ikkinchi ishimizda empirik va ehtimoliy chastotalarning o'zaro aloqadorligini 6.3-jadvalda keltirilgan:

### 6.3-jadval

<i>fe</i>	15	30	45	60	75	90	105
<i>fb</i>	10	23	37	53	69	86	105
(fe-fb)	5	7	8	7	6	4	0

6.3 jadvalidagi *fe* belgisi o'sha qatordagi to'plangan chastotalar yig'indisini bildiradi. Birinchi katakka 15 yoziladi. Ikkinci katakka  $15+15=30$ , 30 ikkinchi katakka yoziladi.  $30+15=45$ . 45 uchinchi katakka joylashtiriladi. Shunday qilib, ehtimoliy chastotalar kumulyatsiyasi birinchi qatorda joylashtirib boriladi.

6.3-jadvalining *fb* ishorasi empirik chastotalarning kumulyatsiyasini bildiradi. Jadvalda ular quyidagicha ifodalangan: ehtimoliy chastotaning birinchi katakehasini o'zini yozamiz (10). Ikkinci katakehaga  $10+13=23$ . 23 soni ikkinchi katakka yoziladi. Uchinchi katakka  $23+14=37$ . 37 sonini uchinchi katakehaga joylashtiramiz. Shu zaylda katakchalarni to'ldirib boramiz.

6.3-jadvalning (*fe-fb*) belgisi esa, empirik va nazariy chastotalar farqlari (ayirmasi), alohida har bir ustundagi, absolyut qiymatini bildiradi.

Kolmogorov-Smirnov mezoni empirik qiymati, ba'zi adabiyotlarda  $\lambda$  (lyambda) deb yuritiladi. Ammo ba'zi adabiyotlarda esa,  $D_{emp}$  deb belgilanadi. Biz  $D_{emp}$  deb belgilashni lozim topdik. Uning qiymati quyidagi formula orqali topiladi:

$$(6.1) \quad D_{emp} = \frac{\max |f_e - f_b|}{n}$$

Uni topish uchun aniqlangan ( $f_e - f_b$ ) qiymatlari orasidan maksimal sonni topib olamiz. Bizning misolimizda u 8, va uni tanlanmaning hajmiga bo'lamiz ( $n=105$ ): ya'ni,  $8/105=0,076$ .

Demak empirik qiymatimiz 0,076 ga teng. Endi kritik qiymatlarni topamiz. Kritik qiymatlar  $p=0,05$  va  $p=0,01$  uchun darslikning ilova qismidan topiladi.

Barcha ehtimollar nazariyasi, statistika darsliklarining ilovasida mezonlarning kritik qiymatlari berilgan bo'ladi. Kolmogorov-Smirnov mezoni kritik hadlari *I-ilovaning №1 jadvalida* (darslik so'ngidagi ilovada) berilgan.

Kritik had, mazkur mezonda ishtirokchilar soni asosida beriladi. Ilavadan topilgan kritik qiymatlar, agar tanlanma ishtirokchilarining soni  $100 < n$ , bo'lsa, unda kritik hadlar quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$D_{kr} = \begin{cases} 1,36/\sqrt{n} \\ 1,63/\sqrt{n} \end{cases}$$

$D_{kr} 0,05$  uchun  $\frac{1,36}{\sqrt{105}}=0,13$ ;  $D_{kr} 0,01$  uchun esa.  $\frac{1,63}{\sqrt{105}}=0,15$  bo'ladi.

Ya'ni

$$D_{kr} = \begin{cases} 0,13 \text{ } p \leq 0,05 \\ 0,15 \text{ } p \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymatimiz ma'lum 0,076; Kritik qiymatlarimiz ham aniq. Keyingi ishimiz olingan empirik qiymatimizning statistik ahamiyatini belgilashdan iborat.

Misolimizda empirik qiymat kritik qiymatlardan kichik  $0,076 < 0,13 < 0,15$  bo'lGANI uchun u, ahamiyatsizlik hududiga tushdi. Shu sababli farazimizning ahamiyatsizligi to'g'risida  $H_0$  farazni qabul qilamiz va  $H_1$  farazni rad qilamiz. Ya'ni o'quvchilarni yutuqqa intilish motivini namoyon qilish boshqa motivlarni tanlashdan farq qilmaydi. O'quvchilarda yutuqqa intilish motivni yettita motiv bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi bilan farq qilmaydi.

Agar empirik qiymat 0,05 va 0,01 oralig'idagi noaniqlik hududiga tushsa, tadqiqotchi ikki turdag'i xatoning biriga yo'l qo'yari edi. U  $H_0$  ni

rad etsa, birinchi turdag'i xatolikka,  $H_1$  ni rad etganida esa, ikkinchi turdag'i xatoga yo'l qo'ygan bo'lardi.

### 6.3. Ikki dispersiyaning gomogenligini aniqlash.

F-test, Fisher mezoni ikki variatsion qatorning dispersiyasini taqqoslash uchun qo'llaniladi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(6.2.) \quad F = \frac{\sigma_1^2}{\sigma_2^2},$$

$\sigma_1^2$  - katta dispersiya,  $\sigma_2^2$  - kichik dispersiya.

$\sigma$  – “sigma” bosh ko'plik dispersiyasi uchun qo'llaniladi. Tanlanma dispersiyalari uchun esa sigma o'rniда dispersiya ishorasi qo'llaniladi.

«S»

$$F = \frac{S_1^2}{S_2^2}$$

$$\text{Bu yerda } S_1^2 = \left(\frac{1}{n_1-1}\right) \sum (x_i - \bar{x})^2; \quad S_2^2 = \left(\frac{1}{n_2-1}\right) \sum (y_j - \bar{y})^2$$

Agar hisoblab topilgan F mezoni qiymati muayyan ahamiyatililik darajasi bo'lган kritik qiymatdan, surat va maxraj uchun erkinlik darajasidan katta bo'lsa, unda dispersiyalar turlicha hisoblanadi. Erkinlik darajasi ham oddiy usulda topiladi:  $df_1=n_1-1$  (birinchi guruh, ya'ni dispersiyasi katta guruh uchun),  $df_2=n_2-1$  ikkinchi guruh uchun. Darslik ilovasida F mezoni kritik qiymatlari jadvali keltirilgan.  $df_1$  (jadvalning yuqori qatorida) va  $df_2$  (jadval chap ustunida) hadlari berilgan.

Umuman olganda, F mezoni (dispersion tahlil) normallikdan og'ishga juda barqaror hisoblanadi. Agar ekstsess 0 dan katta bo'lsa, unda F mezoni qiymati juda kichik bo'ladi. Bu holatda nolinch faraz noto'g'ri bo'lsa ham rad etilmaydi. Agar ekstsess 0 dan kichik bo'lsa, vaziyat boshqa tomonga o'zgarib ketadi. Taqsimotning asimmetriyasi esa, F mezoni uchun ahamiyatsiz ta'sir ko'rsatadi.

Turli guruhlarning dispersiyasi bir xil degan taxmin mavjud. Bu taxmin dispersiyaning gomogenligi haqidagi taxmin deb yuritiladi. Agar ikki guruh dispersiyasi bir-biridan farq qilsa, unda ularning yig'indisi tabiiy bo'lmaydi va umumiylar ichidagi dispersiya to'g'risida to'g'ri ma'lumot bermaydi (chunki bu vaziyatda umumiylar dispersiya mavjud bo'lmaydi). Dispersiyaning gomogenligi haqidagi taxmin xatosini topishda F mezoni kuchli mezon hisoblanadi.

F mezonida farazlarning qo'yilishi quyidagicha bo'ladi:  
 $H_0: \sigma_1^2 = \sigma_2^2$ . Ikki guruhning dispersiyasi teng.  $H_1: \sigma_1^2 \neq \sigma_2^2$ . Ikki guruhnining dispersiyasi teng emas.

**Topshiriq:** 12 ta sinaluvchilardan iborat ikki guruhda shaxs o'ziga bergan bahosining verbal diagnostikasi o'tkazildi. Olingan natijalar o'rta chasi bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Ammo psixologni ikkita guruh talabalarining o'ziga bergan bahosining ko'rsatkichlari gomogenligida farqning mavjudligi qiziqtiradi.

**Bajarilishi:** Fisher mezonida ikki guruh dispersiyalarini taqqoslash uchun quyidagi 6.3-jadvalda natijalar keltirilgan.

### 6.3-jadval.

Sinaluvchilar verbal bahosi natijalari tahlili ( $N=24$ ).

n	1-guruh	$(x_1 - \bar{x})^2$	Nº n	2-guruh	$(y - \bar{y})^2$
	45	102		34	702
	92	1362		68	56
	34	445		45	240
	40	228		70	90
	45	102		47	182
	44	123		60	0,25
	80	620		84	552
	87	1018		53	56
	45	102		49	132
	67	142		70	90
	43	147		67	42
	40	228		80	380
$\Sigma$	662	4618	$\Sigma$	727	2527
$\bar{x}$	55		y	60	

$$S_1^2 = \frac{4618}{12-1} = 420 \text{ birinchi guruh dispersiyasi};$$

$$S_2^2 = \frac{2527}{12-1} = 230 \text{ ikkinchi guruh dispersiyasi}.$$

Keyingi jarayonda esa, 6.2. formulasiga ko'ra ish olib boramiz:

$$F_{emp} = \frac{420}{230} = 1,82$$

Ilovaning № 9-jadvalidan F mezonining kritik qiymatlarini topamiz. Ikki guruhimiz xajmi bir xil bo'lgani uchun erkinlik bosqichi  $df = 12-1 = 11$  deb topildi.

$$F_{kr} = \begin{cases} 2,82 & p \leq 0,05 \\ 4,46 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

$F_{emp} < F_{kr}$  Empirik qiymatimiz kritik qiymatdan qichik bo'lgani uchun, ikki guruh dispersiyasi gomogenligida farq mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  faraz qabul qilinib,  $H_1$  faraz rad etildi. Ya'ni ikki guruh dispersiyasi gomogenligida farq mavjud emas.

F mezonini qo'llashda bir necha talablarga rioya qilish kerak:

1. Natijalar o'chovi intervallar va nisbatlar shkalasida amalga oshirilgan bo'lishi kerak.

2. Qiyoslanadigan tanlanmalar normal taqsimlangan bo'lishi kerak.

### Fisher mezoni – φ.

Fisher mezoni ko'pfunktsiyali statistik mezonlar qatoriga kiradi. Bunday mezonlarga, turli xajmdagi tanlanmalarni, turli hil vazifalarni, turli ma'lumotlarni tahlil qiluvchi mezonlarni kiritamiz. Ma'lumotlar, nomlanishlar shkalasidan boshlab turli shkalalarda o'chanishi mumkin.

Tanlanmalar bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan bo'lishi mumkin. Ko'pfunktsiyali mezonlar yordamida turli tanlanmalarni yoki bir belgining turli sharoitlarda namoyon bo'lishini solishtirish mumkin. Tanlanmaning eng quyi chegarasi – 5 ta kuzatuvdan boshlanishi mumkin. Ammo mezonni  $n=2$  bo'lgan taqdirda ham qo'llash mumkin (ba'zi talablar asosida, quyida mezonning cheklovlar bandida keltiriladi). Fisher mezonda tanlanmaning eng yuqori chegarasi istalgan hajmda bo'lishi mumkin. Bunda muayyan cheklovlar mavjud emas.

φ mezoni, tadqiqotchini qiziqtirgan belgining ikki tanlanmada qayd etilishida foiz ulushi farq qilishining ahamiyatini belgilaydi.

Fisher mezoni tanlangan qiymatlar ikki qatorida qaysidir alomat, yoki belgining uchrash chastotasini taqqoslash uchun mo'ljallangan. Mezon bog'liq va bog'liq bo'lmagan tanlanmalarda tafovutni aniqlaydi. Uning yordamida tanlanmaning bir belgisini turli sharoitlarda o'zgarishi aniqlanadi.

### Mezonning cheklovlar:

- ✓ Solishtirilayotgan ulushlarning birontasi nolga teng bo'lmasligi kerak.
- ✓ Mezonda o'rganilayotgan tanlanmaning yuqori chegarasi ko'rsatilmagan. Shuning uchun tanlanmada kuzatuvlar soni istalganha bo'lishi mumkin.

✓ Tanlanmalarning birida quyi chegara 2 kuzatuvni tashkil etishi mumkin. Lekin bunda tanlanma ishtirokchilari soniga qo'yiladigan talab quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Agar bir tanlanmada 2 kuzatuv bo'lsa, u holda ikkinchisida kuzatuvlar soni 30 tadan kam bo'lmasligi kerak.  $n_1=2 \rightarrow n_2 \geq 30$ ;
2. Agar bir tanlanmada atigi 3 kuzatuv bo'lsa, ikkinchisida kuzatuv 7 tadan kam bo'lmasligi kerak.  $n_1=2 \rightarrow n_2 \geq 7$ ;
3. Agar bir tanlanmada atigi 4 kuzatuv bo'lsa, ikkinchisida kuzatuv 5 tadan kam bo'lmasligi kerak.  $n_1=4 \rightarrow n_2 \geq 5$ ;
4.  $n_{1,2} \geq 5$ da istalgan kuzatuvlar bo'lishi mumkin.

**Topshiriq:** Psixolog ikki guruuhda psixologik adaptatsiya bahosini bilish uchun tadqiqot o'tkazdi. Birinchi guruh, eksperiment guruhi talabalari, ikkinchi guruh, nazorat guruhi talabalari edi. Eksperiment va nazorat guruhlari turlicha natija ko'rsatishdi. Muayyan muddat davomida qo'shimcha treninglar o'tkazilgan eksperiment guruuhining 30 ishtirokchisidan 19 nafari adaptatsiyaning yuqori shaklini namoyon qildi. Nazorat guruhi 32 talabalari orasidan psixologik adaptatsiyaning yuqori bahosini 13 nafar talaba namoyon etdi. Natijalardagi farqning ahamiyatini ishonchli deb bo'ladi? Tafovut ishonchliligini tekshirish ishning vazifasi qilib belgilandi.

**Bajarilishi:** Bu vazifaning bajarilishi uchun dastlab ishtirokchilarning foizini chiqarish kerak bo'ladi.

$$19:30 \times 100\% = 63,6 \text{ eksperiment guruhi talabalari uchun.}$$

$$13:32 \times 100\% = 40,6 \text{ nazorat guruhi uchun.}$$

Fisher mezoni uchun mo'ljallangan ilova №2-jadvalidan foiz ulushlariga mos keluvchi  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  qiymatlarini topamiz. Demak, 63,6% uchun mos qiymat  $\varphi_1 = 1,846$ ; 40,6% uchun esa,  $\varphi_2 = 1,382$  qiymati topildi.  $\varphi_{emp}$  qiymatini esa, quyidagi formula orqali topamiz:

$$(6.3) \quad \varphi_{emp} = (\varphi_1 - \varphi_2) \sqrt{\frac{n_1 \cdot n_2}{n_1 + n_2}}.$$

Bu yerda  $\varphi_1$  – ilova №2 jadvalidan olingan katta foiz ulushiga mos keluvchi qiymat;  $\varphi_2$  – ilova №2 jadvalidan olingan kichik foiz ulushiga mos keluvchi qiymat;  $n_1$  – birinchi guruhdagi kuzatuvlar soni;  $n_2$  – ikkinchi guruhdagi kuzatuvlar soni. Bizning misolimizda formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\begin{aligned} \varphi_{emp} &= (1,840 - 1,382) \sqrt{\frac{30+32}{30+32}} = 0,458 * \sqrt{15,48} \\ &= 3,93 * 0,458 = 1,80 \end{aligned}$$

Ilovaning 2(a)-jadvalidan  $\varphi_{emp} = 1,80$  ga mos ahamiyatlilik darajasini aniqlaymiz. 1-Ilovaning № 2(a) jadvali bilan ishlash tartibiga ko'ra, jadval ichidan  $\varphi_{emp}$ ning qiymati topiladi. Topilgan qiymat joylashgan qator va ustun belgilanadi.

Chap tomondag'i ustunda eng yuqori ahamiyat darjasasi 0,00 dan eng quyi ahamiyat darjasasi 0,10 gacha darajalar berilgan bo'ladi. Jadvalning yuqoridagi qatorida esa, ahamiyatlilik darjasasi minglik ulushiga mos keladi. Bizning 1,80 qiymatimiz, jadval ustunining 0,03 qiymati va yuqoridagi qatorning 6 qiymati kesishmalari nuqtasida joylashgan. Demak,  $\varphi_{emp} = 1,80$  empirik qiymatimiz  $0,03+0,006=0,036$  ga teng bo'ladi. Fisher mezoniga tegishli yana bir muhim qoida mavjud. Mezonda kritik hadlar tanlanma ishtirokchilar sonidan qat'iy nazar, 0,05 uchun 1,64; 0,01 uchun 2,31 qilib belgilangan.

$$\varphi_{kr} = \begin{cases} 1,64 & p \leq 0,05 \\ 2,31 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymatimiz  $\varphi_{emp} = 1,80$  ga teng. Ilova jadvalidan empirik qiymatning ahamiyatlilik darjasasi 0,036 ga teng ekanini bilamiz. Qiymat noaniqlik hududiga tushdi.

Statistik faraz termini bilan tafovut mavjudligini ko'rsatuvchi  $H_1$  farazini 5% da qabul qilamiz, ammo uni 1% ahamiyatllik darajasida rad etamiz. Boshqacha qilib aytganda, eksperiment guruhida nazorat guruhiga qaraganda 5% da ahamiyatli adaptatsiya bahosining yuqoridaligi kuzatildi. Ammo bu ahamiyatlilik 1% da amal qilmaydi. Fisher mezonida ikki tanlanmaning sifat ko'rsatkichlarini solishtirish asosida ahamiyatlilik darjasini belgilash mumkin.

**Topshiriq:** tadqiqotchi ikkita guruh o'quvchilarining intellekt darjasini o'rgandi. Birinchi guruh, matematika fanlariga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari bo'lsa, ikkinchi guruh oddiy maktab o'quvchilari edi. Birinchi guruhda, 28 o'quvchidan 18 kishi intellektning yuqori darjasini ko'rsatdi. Ikkinchi guruhda 30 o'quvchidan 11 nafar o'quvchi intellektning yuqori darjasini ko'rsatdi. Ko'rib turganimizdek, birinchi guruhda intellekt darjasasi yuqori. Ammo yaqqol ko'rigan natijalar statistik ahamiyatga egami? Ya'ni, birinchi guruhning intellektual ustunligini ahamiyatli deya olamizmi?

**Bajarilishi:** statistik ahamiyatni baholash uchun dastlab, fisher mezoni talabi asosida, samaradorlik foizini chiqaramiz.

18:28\*100% = 64 % birinchi guruh; 11:30\*100% = 36% ikkinchi guruh.

Bu yerda  $H_0$  quyidagicha bo'ladi: intellektning yuqori ko'rsatkichi bo'yicha, birinchi guruhning samarali natijasi ulushi ikkinchisidan farq qilmaydi.

$H_1$  quyidagicha shakllanadi: intellektning yuqori ko'rsatkichi bo'yicha, birinchi guruhning samarali natijasi ulushi ikkinchisidan farq qiladi.

#### 6.4-jadval.

Fisher mezonida ahamiyatlilikni baholashda foiz ulishi ko'rsatkichlari. (n=29)

Guruh	«yuqori samara» yuqori intellekt		«past samara» past intellekt			Jami
	Sinaluvchilar soni	%ulush i	Sinaluvchilar soni	%ulush i		
1 guruh	18	64	A	10	36	C 28
2 guruh	11	36	B	19	64	D 30
Jami	29			29		58

Jadvalning chap tomonidagi ustunda 1 va 2 guruhlar berilgan. Yuqoridagi qatorda esa, «yuqori samara» va «past samara» sifatlari belgilangan. Ammo qiyosiy tahlilda faqat samaradorlik foizi ulushini ko'rsatuvchi A va B ko'rsatkichlari ishtirot etadi. Keyingi jarayonda, ilovaning № 2 jadvali yordamida har bir guruhning foiz ulushlariga mos φ qiymatlarini topamiz.

$$\varphi_1 (64\%) = 1,855$$

$$\varphi_2 (36\%) = 1,287.$$

Endi empirik qiymatni topamiz.

$$\varphi_{emp} = (1,855 - 1,287) \sqrt{\frac{28+30}{28+30}} = 2,16$$

Keyingi ishimiz, 1-ilova, jadval № 2(a) dan  $\varphi_{emp} = 2,16$  ning ahamiyatlilik darajasini topamiz. Yani  $0,01 + 0,003 = 0,013$  demak,  $p=0,013$ .

Keyingi bosqichda fisher mezoni kritik qiymatlarini belgilaymiz.

$$\varphi_{kr} = \begin{cases} 1,64 & p \leq 0,05 \\ 2,31 & p \leq 0,01. \end{cases}$$

O'zgarmas kritik qiymatlarga ko'ra.  $\varphi_{kr} < \varphi_{emp} < \varphi_{kr}$  bo'lgani uchun empirik qiymatimiz yana noaniqlik hududiga tushdi. Empirik qiymatimiz arzimas xatolik bilan noaniqlik xududiga tushdi. Demak biz, 0,013 darajada  $H_1$  ni qabul qilamiz va guruuhlar ko'rsatgan natijada farq mavjud emasligini anglatuvchi  $H_0$  ni rad etamiz. Aksariyat hollarda

empirik qiymat noaniqlik xududiga tushganda, tadqiqotchi ikki turdag'i xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun, tadqiqotni kattaroq xajmdagi guruhlarda qayta o'tkazishi mumkin. Ammo mazkur holatda empirik qiymat 0,01 qiymatiga yaqin turgani uchun  $H_1$  ni qabul qildik.

### Nazorat savollari:

1. Variatsiya qatorning normal taqsimlanishga mosligi qanday aniqlanadi?
2. Normal taqsimlanish qonuniyatiga ko'ra qanday ko'rsatkichlar topiladi?
3. Uchinchi darajali shartli moment qanday hisoblanadi?
4. F mezonida statistik ahamiyatlilik tahlilini amalga oshirish uchun dastlab qanday talablarga rioya qilinadi?
5. Ko'pfunktsiyali mezonga qanday funktsiyalarini bajaradi?
6.  $\varphi$  mezonida tanlanmaning yuqori xajmi qancha bo'lishi kerak?
7.  $\varphi$  mezonida tanlanmaning quyi xajmi qancha bo'lishi kerak?
8. F mezonini qo'llashda qanday talablarga amal qilish kerak?
9. Dispersiya gomogenligi nima?
10. F mezonida erkinlik bosqichi qanday topiladi?
11. Kolmogorov-Smirnov mezonida tanlanma ko'lami qanday bo'lishi kerak?

### 12. Fisher mezonini qo'llashga berigan talablarni aniqlang.

Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini orqali ifodalang.

- A. Solishtirilayotgan ulushlarning birontasi nolga teng bo'lmasligi kerak.
- B. Mezonda o'rganilayotgan tanlanmaning yuqori chegarasi chegaralangan.
- C. Tanlanmalarning birida quyi chegara 3 kuzatuvni tashkil etishi mumkin.
- D. Bir tanlanmada 2 kuzatuv bo'lsa, ikkinchisida kuzatuvlari soni  $n_2 \geq 30$ ;
- E. Bir tanlanmada 3 kuzatuv bo'lsa, 2 chi kuzatuv  $n_2 \geq 7$ ;
- F. Bir tanlanmada 4 kuzatuv bo'lsa, 2 chi kuzatuv  $n_2 \geq 5$ ;
- G.  $n_{1,2} \geq 10$  da istalgan kuzatuvlari bo'lishi mumkin.

Javoblar:	<i>A</i>	<i>B</i>	<i>C</i>	<i>D</i>	<i>E</i>	<i>F</i>	<i>G</i>

## **7-mavzu: O'ZARO BOG'LIQ BO'L MAGAN IKKI TANLANMANI TAQQOSLASH UCHUN STYUDENT-T MEZONI.**

**Tayanch tushunchalar:** *dispersion tahlil, guruhlararo dispersiya, guruh ichidagi dispersiya, ko'pyoqlama t-mezon, ko'pfunktsiyali mezon, Styudent t-mezoni,*

### **7.1. Parametrik va noperametrik ma'lumotlarni taqqoslash mezonlarni.**

Mezonlarning parametrik deb nom olishiga sabab, ularni hisoblash formulasi tarkibida tanlanmaning o'rtachasi, dispersiyasi va boshqa ko'rsatkichlar mavjud. Psixologik tadqiqotlarda ikki parametrik mezonlardan foydalaniлади. Улар: икки танланманинг о'ртачасини hisoblaydigan Styudent t-mezioni va икки dispersiya farqlarini baholaydigan Fisherning F-mezioni.

**Parametrik va noperametrik ma'lumotlarni** solishtirishda mezonlarning xarakteristikasini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Parametrler namoyon bo'l shini o'rtachalar va dispersiyalarni solishtirish parametrik mezonlarga xos bo'lib, parametrik mezonlar o'lchovi intervallar va nisbatlar shkalasida olib borilishi kerak. Noperametrik mezonlarda esa, ma'lumotlarni ranglashtirish va tartib bilan joylashtirish orqali ularni statistik tahlil qilish mumkin. Parametrik mezonlarni qo'llash asosida tanlanmaning normallik qonuniga qanchalik buysunishini tekshirish, dispersiyalar tengligini aniqlash orqali solishtirish amalga oshiriladi. Biroq, ba'zan parametrik mezonda aniqlanadigan xarakteristika tartib shkalasida o'lchanadi. Bu holat, parametrik mezonning samaradorligini pasaytiradi. Chunki aksariyat matematik amallarni tartib shkalasida bajarish mumkin emas. Bu singari vaziyatlarda parametrik mezonlarning ortiqcha talablar quymaydigan noperametrik nusxasini qo'llash maqsadga muvofiq.

#### **7.1-jadval.**

#### **Parametrik va noperametrik mezonlar xususiyati**

Tanlanmalar soni	Ikki tanlanma		Ikkitadan ortiq tanlanma		
Tanlanmalar bog'liqligi	Bog'liq bo'l magan tanlanmalar	Bog'liq tanlanmalar	Bog'liq bo'l magan tanlanmalar	Bog'liq tanlanmalar	
O'lchov shkalalari	Metrik	Taqqoslashning parametrik metodlari			
		Bog'liq	Bog'liq	Dispersion	Qayta

		bo'Imagan tanlanmalar uchun t-Styudent mezoni	tanlanmalar uchun t-Styudent mezoni	tahlil, Fisher mezoni	o'zgarishlar bilan dispersion tahlil
<i>Taqqoslashning noperametrik metodlari</i>					
Tartib	U-Manni-Uitni mezonlar seriyasi	Belgilar mezoni T-Vilkokson	N-Kruskall Uollis	Fridman testi	

Shuni qayd etish kerakki, tadqiqiy jarayonlarda tartib shkalalariiga ko'proq murojaat qilinadi. Aksariyat hollarda, o'rtachalarni va dispersiyalarni solishtirish orqali parametrik mezonlardan qo'llaniladi.

## 7.2. Styudent t-mezonini qo'llash.

Styudent t-mezoni. Ikki normal taqsimlangan tanlanmaning  $\bar{X}$  va  $\bar{Y}$  o'rtacha qiymatlarini aniqlashga qaratilgan. Mezonning formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$(7.1) \quad t_{emp} = \frac{|\bar{X} - \bar{Y}|}{S_d}.$$

Bu yerda, standard og'ish quyidagicha topiladi:

$$(7.2) \quad S_d = \sqrt{S_x^2 + S_y^2}.$$

Avval bir xil xajmga ega bo'lgan tanlanmalarni o'rgansak, u holda  $n_1=n_2=n$  bo'lib, (7.2) formulasi quyidagicha tahlil qilinadi:

$$(7.3) \quad S_d = \sqrt{S_x^2 + S_y^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2 + \sum(y_i - \bar{y})^2}{(n-1)n}}.$$

Xajmi teng bo'Imagan tanlanmalarda esa, formula quyidagicha bo'ladi:

$$(7.4) \quad S_d = \sqrt{S_x^2 + S_y^2} = \sqrt{\frac{\sum(x_i - \bar{x})^2 + \sum(y_i - \bar{y})^2}{(n_1+n_2-2)} \frac{(n_1+n_2)}{(n_1 \cdot n_2)}}.$$

Ikki xil vaziyatda ham erkinlik bosqichi quyidagicha topiladi:

$$(7.5) \quad df = (n_1-1) + (n_2-1) = n_1 + n_2 - 2.$$

Bu yerda  $n_1$  va  $n_2$  lar birinchi va ikkinchi tanlanma kuzatuvlari soni ekanligi aniq, xajmi teng bo'lgan tanlanmalarda  $df=2$  n-2.

Styudent t-mezonini bog'liq bo'Imagan va xajmi turlicha bo'lgan tanlanmalarda qo'llanilishiga doir misol keltiramiz.

**Topshiriq:** tadqiqotchi tadqiqot va nazorat guruhlarida ijtimoiy kreativlikni aniqlash metodini o'tkazdi<sup>19</sup>. Eksperiment guruhini san'at kollejining 3 bosqich, 12 nafar talabasi ( $X$ ) va nazorat guruhini 14 nafar 3 bosqich litsey o'quvchilari ( $Y$ ) tashkil etdi. Psixolog san'atning istalgan sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarda ijtimoiy kreativlik yuqori bo'lishi mumkinligini tekshirmoqda.

**Bajarilishi:** berilgan topshiriqnı bajarish uchun, sinaluvchilar ko'rsatgan natijalarni 7.2. jadvalda keltiramiz.

## 7.2-jadval.

### 7.3 formula hisobi (N=26)

№	Guruhanlar		O'rta chadan og'ish		Og'ish kvadrati	
	x	y	$\sum(x_1 - \bar{x})$	$\sum(y_1 - \bar{y})$	$\sum(x_1 - \bar{x})^2$	$\sum(y_1 - \bar{y})^2$
1.	100	94	-9,6	11,8	92,16	139,2
2.	137	104	27,2	21,8	751	475
3.	98	45	-11,6	-37	135	1384
4.	150	85	40,4	2,8	1632,2	8
5.	103	100	-6,6	17,8	43,5	317
6.	96	67	-13,6	-15,2	185	231
7.	115	70	5,4	-12,2	29,2	149
8.	100	93	-9,6	10	92,2	100
9.	90	76	-19,6	-6,2	384,2	38,4
10.	96	100	-13,6	17,8	185	317
11.	112	74	2,4	-8,2	384,2	67,2
12.	118	81	8,4	-1,2	6	1,44
13.	-	90		7,8	70,5	61
14.	-	73		-9,2		84,6
$\Sigma$	<b>1315</b>	<b>1152</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>3605</b>	<b>3372</b>
$\bar{X}$	<b>109,6</b>	<b>82,2</b>				

Eksperimental guruhning o'rta chasi  $1315:12=109,6$ ; nazorat guruhning o'rta chasi  $1152:14=82,2$  deb topildi.

O'rta chalar o'rta sidagi absolyut qiymat tafovuti

$$(\bar{X} - \bar{Y}) = 109,6 - 82,2 = 27,3$$

Endi 7.4 formulasi asosida ish olib boramiz.

$$Sd = \sqrt{\frac{3605 + 3372}{(12+14-2)} \cdot \frac{12+14}{12 \cdot 14}} = \sqrt{45} = 6,7$$

<sup>19</sup>Фетискин И.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М. Изд-во Института Психотерапии. 2002. – 339 с (46 с).

Demak, Sd ifodamiz aniq, endi esa 7.1 formulasi asosida ishlaymiz.

$$t_{emp} = \frac{27,3}{6,7} = 4,07.$$


Erkinlik bosqichi qiymati esa quyidagicha:

$$df = 12 + 14 - 2 = 24.$$

Ilovaning 3-jadvalidan erkinlik bosqichi qiymati orqali kerakli kritik hadlarni topamiz.

$$t_{kr} = \begin{cases} 2,06 & p \leq 0,05 \\ 2,08 & p \leq 0,01 \\ 3,75 & p \leq 0,001 \end{cases}$$

Empirik qiymatimiz uchchala kritik haddan katta Shu sababdan u, ahamiyatlilik darajasiga tushdi. Holatni ahamiyatlilik o'qida quyidagicha namoyon etamiz.



Shunday qilib, empirik qiymat 0,001 darajadan ham yuqori bo'lgan ahamiyatlilik hududiga tushdi. Demak tadqiqotchi aniqlagan eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi tafovut statistik ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, san'at kollegi talabalarining litsey talabalariga nisbatan ijtimoiy kreativlik darajasi yuqori ekan.

Statistik terminda mazkur mulohaza quyidagicha izohlanadi. Tafovut mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  faraz rad etilib, 0,001 darajada tafovut mavjudligi to'g'risidagi alternativ faraz  $H_1$  qabul qilinadi.

Styudent mezonidan tashqari o'zaro bog'liq bo'limgan tanlanmalarda dispersion tahlillar amalga oshiriladi. Biz yuqorida Fisherning dispersiyalar gomogenligini aniqlash mezonini qo'llashga doir misol keltirgan edik. Shuningdek, ma'lumotlarni dispersion tahlil qilish usullari ham mavjud. Keyingi ishimizda bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun ularning qo'llanilish ahamiyatini o'rganamiz.

### 7.3. Dispersiyalar gomogenligini aniqlaganda, ikki tanlanmaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.

Dispersion tahlil zamirida yotgan mantiqiy asosni anglash orqali uning butun mohiyatini tushunish mumkin. Dispersion tahlil psixologdan ortiqcha matematik tayyorgarlikni talab qilmaydi.

Bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun bir omilli dispersion tahlil metodini qo'llash mumkin. Metodning asosiy mohiyati tanlanmalarning uch xil turdag'i dispersiyani tahlil qilishdan iboratdir.

❖ Umumiy bosh ko'plikning eksperimental ma'lumotlari asosida aniqlangan umumi dispersiya.

❖ Har bir tanlanmada xususiyatning variatsiyasini belgilaydigan guruh ichidagi dispersiya.

❖ Guruhiy o'rtachalar variatsiyasining guruhlararo dispersiyasi.

Aytaylik, bir necha bir xil hajmdagi tanlanma uchun bir necha dispersion tahlil amalga oshirildi. Dispersion tahlilda tanlanmalarning hajmi bir-biridan farq qilishi tahlil natijalariga ta'sir qilmaydi. Har bir tanlanmaning dispersiyasi bosh ko'plik dispersiyasi bahosiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchi-psixolog, dispersion tahlilni amalga oshirar ekan, tanlanma dispersiyasini bosh ko'plik dispersiyasiga mosligi farazini quyadi. Barcha tanlanmalar dispersiyasi bosh ko'plik dispersiya bilan bir xil bo'lsa, unda dispersiya barchasi uchun umumi bo'ladi. Umumi dispersiyaning ishonchliligini ta'minlash uchun alohida tanlanmalar dispersiyasining o'rtachasini topamiz.

$$(7.6). \quad \bar{S}^2 = \frac{S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_n^2}{k} = S^2$$

k-bu yerda omil darajalari soni.

Shunday qilib, barcha tanlangan dispersiyalarning o'rtachasi  $\bar{S}^2$   $\sigma^2$  ning mohiyatini izohlaydi. Sigma ( $\sigma$ ) bosh ko'plik dispersiyasi hisoblanadi. Fanda bu guruh ichidagi dispersiya deb nom olgan va u «wg» (ingl., within group – guruh ichkarisida) deb belgilanadi. Guruh ichidagi dispersiya kuzatilayotgan belgining nazorat qilinadigan omillar emas, balki tasodiy omillar ta'sir etadigan qismini aks etadi. Shuni qayd etish kerakki, dispersiyaning bu qiymati  $H_0$  farazning xato yoki to'g'ri ekanligiga bog'liq emas. Chunki  $S_{wg}^2$  gomogen bo'lgan dispersiyalar  $S_1^2 \dots S_k^2$  ning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida baholanadi. Endi  $H_0$  farazning to'g'ri bo'lishi vaziyatini tahlil qilamiz. Agar shunday bo'lsa,

$k$  tanlanmalarning  $n$  kuzatuvlari bo'yicha, bog'liq bo'Imagan  $k$  tanlanmalarni aynan bitta bosh ko'plikning tanlanmalari deb olish mumkin. U holda biz, bosh ko'plik dispersiyasini  $\sigma_t^2$  deb belgilaymiz. (t-ingl. "total"-umumiy degan ma'noni bildiradi). Biz umumiy dispersiyani, umumiy dispersiyaga nisbatan guruhiy o'rtachalarning o'zgarishi orqali baholaymiz. Yagona bosh ko'plikdan olingan o'rtachalarning variativligi (o'zgarishi) tanlanma soniga bo'lingan bosh ko'plik dispersiyasiga teng.

$$(7.7). \quad S_{\bar{x}}^2 = \frac{\sigma_t^2}{n}.$$

Bundan ma'lumki, dispersiyaning ikkinchi qiymati quyidagicha topiladi.

$$(7.8). \quad \sigma_{t2}^2 = S_{\bar{x}}^2 * n = S_{bg}^2.$$

Mazkur dispersiyaning ikkinchi bahosi guruhlararo dispersiya deb nomlanadi (ingl. bg - "between groups", guruhlar o'rtasida).

O'z navbatida  $S_{\bar{x}}^2$  quyidagicha hisoblanadi:

$$(7.9). \quad S_{\bar{x}}^2 = \frac{\sum_k (\bar{X}_t - \bar{X}_k)^2}{k-1}.$$

bu yerda  $\bar{X}_t$  – barcha kuzatuvlarning o'rta arifmetik qiymati;

$\bar{X}_k$  – alohida tanlangan o'rtacha;

$k$  – tanlanmalar soni.

Shunday qilib, umumiy dispersiya ikki marotaba baholanadi. Birinchi marta bir necha tanlangan dispersiyalarning o'rtachasi sifatida, ikkinchi marta o'rtachadan tanlangan o'rtachalarning standart og'ishi sifatida. Shunisi aniqki, birinchi dispersiya bahosi  $S_{wg}^2$  - nol farazning xato yoki to'g'riligiga bog'liq emas. Ikkinchi dispersiya esa,  $S_{bg}^2$  nol faraz to'g'ri bo'lsagina, bosh ko'plik uchun adekvat hisoblanadi.

Bunga quyidagiha misol keltiramiz: deylik, uchta guruhning ijtimoiy kreativlik darajasi o'rganildi. Har bir guruhda 10 nafardan sinaluvchi bor edi.

Tadqiqotchi tanlanmalarning barcha o'rtachalari teng degan  $H_0$  farazni ilgari sura oladimi? Ya'ni tanlanmalar o'rtachasi va dispersiyasi o'rtasida hech qanday tafovut yo'qligining statistik ahamiyatini isbotlashi mumkinmi?

7.3-jadvalda olingan natijalar bo'yicha tanlanmalar o'rtachasi va dispersiyasini tahlil qilamiz.

### 7.3-jadval.

**Dispersiyalar o'rtachasini solishtirish uchun  
tadqiqot natijalari (N=30).**

Nº	1 guruh	2 guruh	3 guruh
1.	100	94	98
2.	137	104	78
3.	98	45	88
4.	150	85	100
5.	103	100	120
6.	96	67	123
7.	115	70	98
8.	100	93	112
9.	90	76	100
10.	96	100	130
$\sum$	<b>1085</b>	<b>834</b>	<b>1047</b>
$\bar{X}_1$	<b>108,5</b>	<b>83,4</b>	<b>104,7</b>
$S^2_1$	<b>390</b>	<b>351</b>	<b>265</b>

Agar barcha o'rtachalar teng bo'lsa, bosh ko'plikdan olingan barcha tanlanmalar mos keladi.

Dastlab, guruh ichidagi dispersiyani topamiz:

$$S_{wg}^2 = \frac{390+351+265}{3} = 335.$$

Endi guruhlararo dispersiyani topamiz. Uning uchun dastlab, quyidagi amallarni bajaramiz.

$$\bar{X} = \frac{108,5 + 83,4 + 104,7}{3} = 98,8.$$

Demak, umumiy o'rtachamiz 98,8 ga teng. U holda,

$$S_{\bar{X}}^2 = \frac{(108,5-98,8)^2 + (83,4-98,8)^2 + (104,7-98,8)^2}{3-1} = 183.$$

$S_{\bar{X}}^2$  qiymatimiz ma'lum bo'ldi. Endigi ishimiz 7.8 formulasi asosida qiyatlarni joylashtiramiz,

$$S_{bg}^2 = 183 * 10 = 1830.$$

Va nihoyat, guruhlararo dispersiya qiymatiga ega bo'ldik.

Ikki dispersiya bir-biridan farq qiladi. Ya'ni 335 va 183. Dispersiyalar o'tasidagi farq katta bo'lgani uchun  $H_1$  farazini qabul qilamiz va  $H_0$  farazini rad etamiz. Ya'ni uchta guruh sinaluvchilarining ijtimoiy kreativligi o'rtasida statistik ahamiyatli tafovut mavjud. Bu tafovut, ma'lum bir rivojlantiruvchi dastur, treninglar yoki tashqi omillar ta'siri oqibatida bo'lishi mumkin.

## 7.4. Dispersiyasi har bil ammo tanlanma xajmlari bir xil bo'lgan o'rtacha qiymatlarni taqqoslash.

Dispersiyasi har bil ammo tanlanma xajmlari bir xil bo'lgan o'rtacha qiymatlarni taqqoslashi masalasi turganda, Student t-mezoni qo'l keligi mumkin. Ammo o'rtacha qiymatlar sonining oshishi bilan I turdag'i xatolikka yo'l qo'yish xavfi ortishi mumkin. Aytaylik, biz o'zaro 5 ta o'rtachani solishtirmoqchimiz. 2-tanlanmada sodir bo'lgan tasodifiy xatolik tufayli, uning o'rtachasining qiymati oshib ketdi. O'rtachalar orasidagi tafovutning ahamiyatini aniqlash uchun biz, barcha o'rtachalarни juftlab solishtiramiz.

$\bar{X}_1 - \bar{X}_2$ ,  $\bar{X}_1 - \bar{X}_3$ ,  $\bar{X}_1 - \bar{X}_4$ , va hokazo. Jami  $\frac{n(n-1)}{2}$  yoki 10 ta solishtiruv amalga oshiriladi. Ularning 5 ta holatidan, biz  $\bar{X}_2$  boshqalardan katta ekanligini aniqlaymiz. Tabiiyki, 50% holatda I turdag'i xatolikka yo'l qo'yamiz. Ya'ni, to'g'ri bo'lsa-da, nolinchi farazni rad etamiz va  $\bar{X}_2$  o'rtachadan yig'indi bo'yicha farq qiladi degan xulosaga kelamiz. Shunday qilib, solishtirilayotgan o'rtachalarning oshishi I turdag'i xatolikka sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tanlangan o'rtachalar asosida baholangan barcha ko'plikning gomogenligi faqat bitta tanlanmaga bog'liqligi kuzatiladi. Dispersion tahlilda esa, bu muammoni hal qilish uchun boshqacha yondashuv amalga oshiriladi. Unda o'rtachalar o'rtasidagi tafovutning ahamiyatini belgilashda barcha tanlangan o'rtachalar o'z hissasini qo'shadi. Qisqacha qilib, bu yondashuni shunday izohlash mumkin: dispersiyalarni bir bosh ko'plikdan olingan deb taomin qilish uchun ular o'rtachasi haddan ziyod katta emasmi? bu singari muammoni hal qilishda Fisher tomonidan taklif etilgan ko'pyoqlama t-mezon qo'l keladi. Ko'pyoqlama t-mezonning hisobi Studentning t-mezoniga o'xshab ketadi. Biroq, har bir tanlanmaning dispersiyasini hisoblash o'rniga, formulada *guruhi ichidagi dispersiyani* aniqlash metodi o'rinni olgan.

$$(7.10) \quad t = \frac{\bar{X}_i - \bar{X}_j}{\sqrt{\frac{\bar{s}_{wg}^2}{n_i} + \frac{\bar{s}_{wg}^2}{n_j}}},$$

Bu yerda  $n_i$  va  $n_j$  tanlanma hajmi (bizning holatimizda ular teng).

Barcha topilgan qiymatlarni formulaga joylashtirganimizdan keyin ikki yoqlama Student t-mezoni ilovasidan 0,05 ishonchlilik darajasi va erkinlik bosqichi uchun kritik hadni topamiz. Agar (7.10) orqali topgan

qiymatimiz ilovadan topilgan kritik haddan katta bo'lsa,  $H_1$  ni qabul qilamiz. Agar aksincha bo'lsa,  $H_0$  ni qabul qilamiz.

Dispersiyalari va tanlanma xajmlari turlicha bo'lgan guruhlarning o'rtacha qiymatlarini taqqlaslashda shuni bilishimiz kerakki, yuqorida tahlil qilingan misollar bir xil xajmli tanlanmalar uchun edi. Endigi ishimiz, turli xajmdagi tanlanmalarning o'rtachasini qiyoslash orqali farazlarni tekshirishdan iborat. Mazkur vaziyatda, eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish uchun faqat bitta formuladan foydalilanildi. Bu formula guruhlararo yig'indining kvadratlari bahosini aniqlaydi. Bu modifikatsiya faqat bitta parametrga tegishlidir. Bunda faqat  $n$  ko'paytiruvchining o'rniiga  $n_j$  belgisi qo'yiladi.

$$(7.11) \quad \sum d_{bg}^2 = \sum_{j=1}^k \bar{X}_j^2 * n_j - \frac{(\sum_{i=1}^N x_i)^2}{N}.$$

### Nazorat savollari:

1. Tanlanma dispersiyasi va bosh qo'plik dispersiyasi qanday farq qiladi.
2. Styudent t-mezonini qo'llashda qanday talablar bajarilishi kerak.
3. Ko'pfunksiyali mezonlarga qaysi mezonlar kiradi?
4. Parametrik va nonparametrik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
5. Dispersion tahlil qaysi mezonlarda bajariladi?
5. Parametrik mezonlar uchun qanday o'chov shkalasi qo'llaniladi?
6. Tanlanma xajmlari bir xil bo'lganda o'rtachalarni solishtirish qanday amalga oshadi?
7. Tanlanmalar soni har hil bo'lganda dispersion tahlil uchun qaysi formula qo'llaniladi?
8. Guruhlararo dispersiya formulasi qanday topiladi?

### 12. Parametrik mezon ta'riflari to'g'ri ko'rsatilgan qatorlarni ko'rsating.

1. U-Manni-Uitni mezoni qo'llaniladi;
2. Metrik shkalada o'chanadi;
3. Dispersion tahlil olib boriladi;
4. Qiymatlar ranjirovka qilinadi;
5. O'rtacha qiymat topiladi;
6. Nominal shkalada baholanadi;
7. Normallikka tekshiriladi.

Javob: \_\_\_\_\_


## 8-mavzu: O'ZARO BOG'LIQ BO'L MAGAN IKKI TANLANMA UCHUN MANNI-UITNI MEZONI.

**Tayanch tushunchalar:** *U-Manni-Uitni mezoni, Manni-Uitni-Vilkokson mezoni, ideal qator, inversiya, inversiyalar qatori, ranjirlangan qatorlar, o'zaro bog'liq bo'l magan tanlanmalar*

### 8.1. O'zaro bog'liq bo'l magan tanlanmalar uchun Manni-Uitni mezoni.

O'zaro bog'liq bo'l magan tanlanmalarning miqdoriy o'lchov shkalasida baholangan biron bir belgini taqqoslash, aniqlash uchun Manni-Uitni-U mezoni qo'llaniladi. Mezon noparametrik mezon turiga kiritiladi. Uning afzalligi shundaki, biz mazkur mezonda ishlaganimizda tanlanmaning normal taqsimlanishi to'g'risida taxmin qilinmaymiz. Shuningdek, bir xil dirpersiyalarni aniqlash zarrurali mavjud emas.

Manni – Uitni mezonida ma'lumotlар тартib shkalasida baholanib, ranjirovka qilingan bo'lishi kerak. *U*-mezonda bir tanlanma elementlari ikkinchi tanlanma elementlari bilan juft-juft taqqoslanadi. Mezon, hatto ishtiroychilar  $n_1 n_2 \geq 3$  yoki  $n_1=2$ ,  $n_2 \geq 5$  bo'lganida ham ular o'rtaсидаги tafovutni aniqlaydi. Mezonda ma'lumotlarni tahlil qilishning bir necha usullari mavjud. Metod ikki qatorning o'zaro kesishgan hududi yetarlicha kam ekanligini isbotlaydi. Birinchi qatorda joylashgan tanlanma yoki guruh natijalari yuqori baholangan bo'lishi kerak. Ikkinci qatorning natijalari esa, birinchiga qaraganda past baholangan bo'ladi. O'rtadagi kesishgan hudud qanchalik kichkina bo'lsa, tafovutlar shunchalik ishonchli sanaladi. Ba'zan bu farqlar ikki tanlanma joylashishining farqlari deb ham yuritiladi. *U*-mezoning empirik haddi qatorlar o'rtaсидаги mosliklarning qanchalik kattaligini aks etadi. Shuning uchun, bu mezonda empirik had qanchalik kichik bo'lsa, tafovutning ishonchliligi shuncha yuqori bo'ladi.



8.1-rasm. Ikkita tanlanmada qatorlarning o'zaro to'qnashuv chegaralarining nuqtalar bilan belgilanishi.

Berilgan rasmning *a* variantida ikki qatorning o'zaro to'qnashgan xududi kichkina masofani tashkil etadi. Ikkinci qator birinchi qatordan ancha pastda joylashgan. Ular o'rtasidagi tafovutni ahamiyatli deb aytish mumkin. Ammo xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Natijalarning statistik ahamiyati *U*-mezonida baholanadi. Rasmning *b* variantida ikkinchi qator birinchisiga yaqin joylashgan. Ular o'rtasidagi masofani kichkina deb bo'lmaydi. Ammo masofa etarlicha katta ham emas. U hali kritik hadga ega bo'lmasligi mumkin. Shunda tafovutni ahamiyatsiz deb baholashga to'g'ri keladi. Rasmning *c* variantida ikki qator bir-biriga yaqin joylashgan. Ular to'qnashgan masofa ham anchagina hududni egallagan<sup>20</sup>.

Har bir tanlanmada 60 nafardan ortiq bo'limgan ishtirokchilar bo'lishi kerak. Biroq, 20 nafar ishtirokchilarning natijalarini ranjirovka qilish biroz qiyinchilik tug'diradi. Psixolog bunday vaziyatlarda boshqa mezonlarni tanlashi mumkin.

## **8.2. Manni-Uitni mezonini qo'llash sohasi. Manni-Uitni mezoninini hisoblash jarayoni va formulasi.**

**Topshiriq:** Mezonning qo'llanilishiga doir quyidagicha misol keltiramiz: psixologiya yo'nalishi talabalari va jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining irodaviy potentsiali o'rGANildi. Tadqiqotchi bir tanlanmaning natijalari boshqasidan ustun deb taxmin qila oladimi?

### **8.1-Jadval.**

**Psixologiya yo'nalishi talabalari (n=13) va Jismoniy madaniyat talabalarining (n=11) shaxsiy irodaviy potentsiali darajasi natijalari**

<b>Psixologiya yo'nalishi talabalari</b>		<b>Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari</b>	
<b>№</b>	<b>Shaxsiy irodaviy potentsial darajalari</b>	<b>№</b>	<b>Shaxsiy irodaviy potentsial darajalari</b>
1.	24	1.	13
2.	18	2.	30
3.	17	3.	26
4.	20	4.	28

<sup>20</sup> Е.В. Сидоренко Методы математической обработки в психологии. 1999. СПб., «Печатный двор». 349 с (49 с).

5.	18	5.	20
6.	20	6.	22
7.	16	7.	20
8.	28	8.	18
9.	23	9.	19
10.	19	10.	20
11.	12	11.	21
12.		12.	17
13.		13.	14

U-mezonida tahlilni amalga oshirish uchun dastlab, natijalarini ranjirovka qilamiz.

Ranjirovkani tartib bilan bajarish uchun, dastlab barcha ishtirokchilar natijalarini bir qatorda joylashtiramiz. Ularning umumiy tartibda darajalaymiz (ranjirlash).

#### 8.2-Jadval.

**Psixologiya yo‘nalishi talabalari ( $n=11$ ) va Jismoniy madaniyat talabalarining ( $n=13$ ) shaxsiy irodaviy potentsiali darajasini ranjirlash**

Psixologiya yo‘nalishi talabalari			Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari		
Nº	Natijalar	Ranglar	Nº	Natijalar	Ranglar
1.	24	18	1.	13	2
2.	18	$(6+7+8)/3=7$	2.	30	24
3.	17	4,5	3.	26	20,5
4.	20	$(11+12+13+14)/4=12,5$	4.	27	22
5.	18	$(6+7+8)/3=7$	5.	25	19
6.	20	$(11+12+13+14)/4=12,5$	6.	22	16
7.	26	20,5	7.	20	$(11+12+13+14)/4=12,5$
8.	28	23	8.	18	$(6+7+8)/3=7$
9.	23	17	9.	19	9,5
10.	19	9,5	10.	20	$(11+12+13+14)/4=12,5$
11.	12	1	11.	21	15

1.			.		
1			12	17	4,5
2.			.		
1			13	14	3
3.			.		
$\Sigma$	225	132,5		272	167,5

Birinchi guruh rangi 132,5; ikkinchi guruh 167,5 bo'lsa,  $R=132,5+167,5=300$ . Ranglashtirish to'g'ri bajarilganini tekshirish uchun quyidagi formula asosida ishlaymiz:  $R \frac{N(N+1)}{2} = \frac{24+25}{2} = 300$ . Demak, qiymatlarga to'g'ri rang berilgan. O'rtacha qiymat birinchi guruh (psixologiya yo'nalishi talabalari) uchun  $\bar{X}=20,5$ ; ikkinchi guruh uchun (jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari)  $\bar{X}=21$  ni tashkil qiladi.

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining umumiy to'plagan bali psixologiya yo'nalishi talabalarining balidan yuqori chiqdi. Shuning uchun ham ikkinchi guruh natijalarining rangi 167,5 (yuqori) chiqdi. Ikkinci guruh to'plagan bali balandligi yaqqol ko'rinish turgan bo'lsa da, uning statistik ahamiyatini faqat mezonda tahlil qilish orqali bilish mumkin. Uning uchun esa, farazlarni shakllantiramiz.

$H_0$  faraz: jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining shaxsiy irodaviy potentsiali psixologiya yo'nalishi talabalarining irodaviy potentsialidan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining shaxsiy irodaviy potentsiali psixologiya yo'nalishi talabalarining irodaviy potentsialidan yuqorida.

Farazlarni tekshirish uchun  $U$ -mezonining formulasi asosida ishlaymiz.

$$(8.1) \quad U = (n_1 * n_2) + \frac{n_x(n_x + 1)}{2} - T.$$

Bu yerda  $n_1$  – birinchi guruh ishtirokchilar soni;  $n_2$  – ikkinchi guruh ishtirokchilar soni;  $T$  – ikki guruh ichida eng katta rang olgan guruh ranglar yig'indisi;  $n_x$  – eng katta rang olgan olgan guruh ishtirokchilari soni.


$$U_{emp} = (11 * 13) + \frac{13(13+1)}{2} - 167,5 = 66,5.$$

Demak, empirik qiymat  $U_{emp} = 66,5$  ga teng. Endi empirik qiymatni kritik qiymatlardan solishtiramiz. Kritik qiymatlarni biz, 1-ilova, jadval № 4 dan topib olamiz.  $n_1$  ( $n_1=11$ ) qiymatini kichik qiymat

deb topamiz va uni jadvalning yuqori qatoridan topamiz. Katta qiymatli n deb, n<sub>2</sub> ni topamiz va uni jadvalning chap ustunidan qidiramiz. Ikkala ko'rsatkich kesishgan nuqtada bizning kritik qiymatimiz joylashgan bo'ladi. Demak, 0,05 uchun 42 qiymati mos tushadi. 0,01 uchun 31 qiymati to'g'ri keladi. Shunday qilib,

$$U_{kr} \begin{cases} 42 & p \leq 0,05 \\ 31 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Biz bilamizki, U-mezonida ahamiyatlilikni belgilash boshqa mezonlardan farq qiladi. Ya'ni mezonda empirik qiymatning kritik qiymatdan yuqori bo'lishi uning ahamiyatsizlik hududiga tushishiga olib keladi.



Demak,  $U_{emp}=66,5$   $U_{emp} > U_{kr}$ . Xulosamizni grafik ko'rinishda ahamitlilik o'qida belgilaymiz.

Demak,  $H_0$  faraz qabul qilinadi. Ya'ni jismoniy madaniyat talabalarining irodaviy potentsiali psixologiya yo'nalishi talabalari potentsialidan farq qilmaydi.

Psixologik tadqiqotlarda Manni-Uitni mezoni bilan birga Manni-Uitni-Vilkokson mezoni ham keng qo'llaniladi. Bu mezon ham psixologiyada U-mezoni deb yuritiladi. Bu mezon ham bog'liq bo'lgagan tanlanmalarda qo'llaniladi. Vilkokson mezoniga Mann va Uitnilar o'zgartirish kiritishgani uchun u shunday deb nomlanadi. Mezonning qulayligi shundaki, kichkina tanlanmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ikki guruhlarda ham 20 tadan ishtirokchi bo'lsa kifoya. Shuning uchun ham kritik qiymatlar jadvalida 60 nafar respondent uchun mo'ljallangan hadlar berilgan. Bu mezon uchun dastlab olingan natijalarni guruhlarga ajratmagan holda, aralashtirib beramiz. Ular oshib borish tartibiga qarab joylashtiriladi. Manni-Uitni-Vilkokson mezoni uchun ma'lumotlarning natijalari emas, balki ularning joylashish tartibi muhim.

**Topshiriq:** eksperiment va nazorat guruhi talabalarining o'ziga bergen bahosi darajasi o'rganildi. Eksperiment guruhidagi oliyohga yuqori ball, ya'ni grant asosida qabul qilingan talabalar bo'lib, ular 9

kishidan iborat edi. Nazorat guruhida qo'shimcha imtiyoz asosida o'qishga kirgan 10 nafar talaba ishtirok etdi. Psixolog, o'z bilimi bilan o'qishga kirgan talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori degan taxminni qo'ya oladimi?

**Bajarilishi:** natijalarни белгилangan тартибда joylashtiramiz.

x x y y x y y x x x y y x x y y 25 26 28 31 32 44 43 45 47 52 52 53 55 56 57 59 63 69. 69.

Agar guruqlar alohida tartib bilan joylashtirilganda edi, qatorlar quvidagi ko‘rinishda bo‘lar edi.

XXXXXXXXXXXX YYYYYYYYYYYY.

Bu yerda guruhdagi talabalar ma'lum bir sifatiga ko'ra, ikkiga ajratilib ko'rsatiladi. Natijalarning alohida tartib bilan joylashtirilishi ideal tartib bo'lib hisoblanadi. Aytaylik ideal tartibni har safat ikkinchi guruhning oraga suqilib kirgan natijasi buzadi. Har bir buzilish qatorni ideallikdan yiroqlashtiradi. Bu buzilish inversiya deb ataladi. Psixolog guruh a'zolari o'zaro biron bir sifat asosida birlashadilar va bir xil natija ko'rsatadilar deb taxmin qiladi. Taxminini tekshirish uchun ikkita guruhda baravar sinov o'tkazadi. Har safar ideal guruhning qatorini ideal guruh qiymatiga teng bo'lgan nazorat guruhi qiymati buzadi. Ikkala guruhdagi buzilishlar – inversiyalar soni kattaligiga ko'ra, mezon hisobi yuritiladi va statistik ahamiyatlilik darajasi belgilanadi.

Inversiyalar joylashtirilishi va hisoblanishini jadvalda tasvirlash ancha qulay. Quyidagi 8.3 jadvalda mezonda ishlashni yanada yaqqolroq namoyon etamiz.

### 8.3-jadval.

#### Ikkita guruhning natijalari inversiyasi

(N=19)

No 1	No 2	No 3	No 4
Eksperiment guruh (X)	Nazorat guruh (Y)	X/Y inversiyasi	Y/X inversiyasi
25	-	0	-
26	-	0	-
-	28	-	2
-	31	-	2
-	32	-	2
44	-	3	-
-	43	-	3
-	45	-	3

47	-	5	-
52	-	5	-
52	-	5	-
53	-	5	-
-	55	-	7
-	56	-	7
57	-	7	-
59	-	7	-
-	60	-	9
-	62	-	9
-	63	-	9
Jami inversiyalar:		37	53

Jadvalda guruhlar natijasi ikki ustunda joylashtirilgan.  $X/Y$  va  $Y/X$  inversiyalarini aks etgan ikkita qo'shimcha ustun shakllantirildi. Bu ustunlarda  $X$  ustunning  $Y$  ustunga nisbatan inversiyalari  $X/Y$  ustunga joylashtirildi.  $Y$  ustunning  $X$  ustunga nisbatan inversiyalari  $Y/X$  ustuniga joylashtirildi.

$X/Y$  Inversiyalari quyidagicha hisoblanadi. Misol uchun birinchü ustunning ikkita qiymati 25 va 26 oldida  $Y$  ustunning hech qanday qiymati bo'limgani uchun  $X/Y$  ustunida 0 quyildi. Va bu no'l ikkala songa ham tegishli.  $X$  ustunidagi 44 soni oldidan  $Y$  ustunning uchta qiymati mavjud. Ular: 28, 31, 32. Shuning uchun  $X/Y$  ustunida, 44 qiymatining qarshisida 3 soni bir marta quyilgan. Birinchi ustunning 47, 52, 52, 53 qiymatlari oldida  $Y$  ustunning 5 ta soni mavjud. Ular: 28, 31, 32, 43, 45. Shu sababdan,  $X/Y$  ustunida 5 soni  $X$  ning har bir qiymati qarshisidan qo'yilgan. Shu zaylda inversiyalar joylashtirilgan.  $X/Y$  ustunidagi inversiyalar yig'indisi 37 ga teng.

$Y$  ustunidagi uchta qiymat oldidan ikkita  $X$  qiymati mavjud. Ular 25 va 26 sonlaridir. Shuning uchun  $Y/X$  ustunida 2 soni quyilgan. Ikki soni  $Y$  ustunning uchehalasiga ham tegishli bo'lgani uchun 3 marta 2 soni quyilgan.  $Y$  ustundagi 43, 45 qiymatlari oldidan  $X$  ustunning 25, 26, 44 qiymatlari mavjud bo'lgani uchun  $Y/X$  inversiyasi ustuniga 3 soni 2 marta qo'yilgan.  $Y/X$  ustunidagi inversiyalar 53 ga teng. Ko'rib turganimizdek, birinchi guruhnning inversiyasi ikkinchi guruhnikidan ancha kichik. Mezonning bu usulida kichkina inversiya  $U_{emp}$  qilib belgilanadi. Ya'ni,

$$U_{emp} = 37.$$

Endi kritik hadlarni topish uchun 1-ilova, jadval № 4 ga yuzlanamiz. 0,05 uchun 24; 0,01 uchun 16 kritik hadlari aniqlandi. 4-Jadvalda N1 va N2 guruuhlar uchun  $p=0,05$  va  $p=0,01$  ko'rsatkichlari uchun alohida qiymatlar berilgan. Jadval bilan ishslash uchun gorizontal joylashgan N1 qatoridan 9 ni ( $n_1=9$  bo'lgani uchun), vertical N2 ustunidan 10 ni topamiz ( $n_2=10$  bo'lgani uchun) va ikkalasi kesishgan katakdagi raqam  $p=0,05$  uchun kritik qiymat bo'ladi.  $P=0,01$  uchun ham mazkur usul bilan kritik had topamiz. Ular:

$$U_{emp} \begin{cases} 24 & p < 0,05 \\ 16 & p < 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymat kritik qiymatlardan katta bo'lgani bois, nöparametrik mezonlar bo'yicha xulosa chiqarish qoidasiga amal qilamiz.

### 8.3. Manni Uitni-U mezoni bo'yicha xulosa chiqarish.

$U_{emp}$  qiymati statistik ahamiyatsizligi aniqlandi. Shuning uchun  $H_0$  farazi qabul qilindi. Ya'ni grantga o'qishga kirgan talabaarning o'ziga bergen bahosi qo'shimcha imtiyoz asosida o'qishga kirgan talabalarning o'ziga beradigan bahosidan farq qilmas ekan. Demak, inversiyalar soni qanchalik kam bo'lsa, empirik qiymatning ahamiyatliligi shuncha yuqori bo'ladi.

#### Nazorat savollari:

1. Manni-Uitni mezoni boshqa nöparametrik mezonlardan qanday farq qiladi?
2. U-Mezonida empirik qiymat qiymat kritik hadlardan yuqori chiqsa, qaysi faraz qo'llaniladi?
3. Katta ranjirlangan guruh deb nimaga aytildi?
4. U-Mezonida empiri qiymatni topish necha usulda amalga oshiriladi?
5. U-Mezoni formulasidagi  $n_x$  nimani ifodalaydi?
6. Inversiya deb nimaga aytildi?
7. Nima uchun inversiya kichik bo'lgan guruhning inversiya yig'indisi empirik qiymat deb olinadi?

**To‘g‘ri javobni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlari orqali ifodalang.**

1. Psixologik tadqiqotlarda Manni-Uitni mezoni bilan birga Manni-Uitni- Vilkokson mezoni ham keng qo‘llaniladi.
2. Manni-Uitni mezoni psixologiyada T-mezoni deb yuritiladi.
3. Manni-Uitni mezoni uchun guruhlarda ham 10 tadan ishtirokchi bo‘lsa kifoya.
4. Manni-Uitni mezoni qiymatlarning dispersiyasi aniqlanadi.
5. Manni-Uitni mezoni uchun ma’lumotlarning natijalari emas, balki ularning joylashish tartibi muhim.

1.	2.	3.	4.	5.

## 9-mavzu: TAKRORIY O'LCHOVLARDA IKKI TANLANMANI TAQQOSLASH MEZONLARI.

**Tayanch tushunchalar:** *bog'liq bo'lмаган танланмалар, bog'liq bo'lған танланмалар, siljish, notipik siljishlar, inversiyalar, intensiv siljish, tipik siljishlar, t- mezoni, G-mezoni, W-mezoni.*

### 9.1. Takroriy o'lchovlar uchun Styudent t- mezonini hisoblash.

Biz oldingi mavzuda bog'liq bo'lмаган танланмалар uchun parametrik bo'lған Styudent t-mezonida ishflash printsipini o'rgangan edik. Styudent t- mezoninda takroriy o'lchovlarni amalga oshirish imkonи mayjud. Takroriy o'lchovlar aksariyat hollarda biron bir o'рганилагатган сифатнинг, xususiyatнинг, belgining ma'lum bir ta'sirlar ostida o'zgarish tendentsiyasini baholaydi. Psixologik tadqiqotlarda ta'sir etuvchi omillarga treninglar, rivojlantiruvchi metodlar kiradi. Takroriy o'lchovlarda Styudent t- mezonining nisbatan soddha formulasi qo'llaniladi. Mezonning hisoblanishi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$(9.1). \quad t = \frac{\bar{d}}{Sd}$$

Bu yerda,

$$(9.2). \quad \bar{d} = \frac{\sum d}{n} = \frac{\sum (x_i - y_i)}{n}$$

$\bar{d} = x - y$ , X ning aniq qiymatlaridan Y ning aniq qiymatlari ayirmasiga teng. d ayirmalarning о'rtachasini bildiradi.

Bu mezonda  $Sd$  – standart og'ish boshqacha usul bilan hisoblanadi:

$$(9.3). \quad Sd = \sqrt{\frac{\sum d^2 - \frac{\sum (\bar{d})^2}{n}}{n(n-1)}}.$$

Erkinlik bosqichi esa,  $df = n-1$  topiladi.

Endi esa, takroriy o'lchovlarda Styudent mezonini qo'llanishga bog'liq misolni ko'rib chiqamiz.

**Topshiriq:** aytaylik psixolog, maktab o'quvchilarida qo'shimcha ishlар olib borilgandan so'ng, mantiqiy testlarni yechish vaqtı kamayishini qayd etdi. O'quvchilar testni treningdan oldin va keyin yechish vaqtleri belgilandi. Psixolog, o'quvchilar guruhiга ta'sir etish natijasida o'quvchilarning mantiqiy testlarni bajarish vaqtı (minutlarda hisoblaganda) sezilardi darajada pasayadi deb, taxmin qila oladimi?

**Bajarilishi:** mazkur taxminni tekshirish uchun o'quvchilar treningdan oldin va keyin testni yechgan vaqtleri qayd etiladi va jadvalga kiritiladi.

### 9.1-Jadval.

#### 9.2 formulasidagi $\bar{d}$ hisoblash jarayoni ( $n=11$ )

Nº	Treningdan oldin (testni bajarish vaqt)	Treningdan keyin (testni bajarish vaqt)	$\bar{d}$	$d^2$
1	15	7	8	64
2	12	13	-1	1
3	11	5	6	36
4	10	10	0	0
5	15	12	3	9
6	13	9,5	3,5	12,25
7	17	13	4	16
8	12	5	7	49
9	10	4,9	5,1	26,01
10	15	3,9	11,1	123,21
11	14	4,1	9,9	98,01
Jami:	144	87,4	56,6	434,4

Ko'rib turganimizdek, intelektual ta'sir etuvchi treninglardan keyin ishtirokchilarning testni bajarish sur'ati oshganligi aniq. Ammo bu o'zgarish statistik darajada ahamiyatlimikan? Demak, farazlarni shakllantiramiz.

$H_0$  faraz: o'quvchilarning treningdan oldin va treningdan keyin testni echish vaqtida o'zgarish yo'q.

$H_1$  faraz: o'quvchilarning treningdan oldin va treningdan keyin testni echish vaqtida o'zgarish bor.

(9.2) formulasiga kerakli qiymatlarni kiritamiz:

$$\bar{d} = \frac{\sum \bar{d}}{n} = \frac{56,6}{11} = 5,1$$

Endi (9.3) formula asosida ishlaymiz:

$$Sd = \sqrt{\frac{434,48 - \frac{(56,6 * 56,6)}{11}}{11(11 - 1)}} = 1,3$$

Va nihoyat, (9.1) asosiy formulaga navbat yetdi,


$$t_{emp} = \frac{5,1}{1,3} = 4$$

Erkinlik bosqichi  $df=11-1=10$ , ilovaning 3-jadvalidan 10 erkinlik bosqichi uchun t kritik hadlarini topamiz.

$$t_{kr} \begin{cases} 2,23 \ p < 0,05 \\ 3,17 \ p < 0,01 \\ 4,59 \ p < 0,001 \end{cases}$$

Oldingi tajribamizdan bilamizki, Styudent mezonida ehtimoliy kritik qiymatlar 0,05; 0,01; va 0,001 daraja uchun beriladi.

Shunday qilib,  $t_{emp}$  empirik qiymatimiz katta ehtimoliylik bilan ahamiyatlilik darajasiga tushdi (qariib 0,001 foizda). Ahamiyatlilik o'qini shakllantiramiz,



Empirik qiymat ahamiyatlilik hududiga tushdi. Demak, o'quvchilarining treningdan oldin va treningdan keyin testni echish vaqtida o'zgarish mavjudligi ahamiyatini 0,01 darajada ma'qullaymiz.

Styudent t-mezonini qo'llashdan oldin quyidagi talablarga etibor berish kerak:

1. O'Ichov intervallar yoki nisbatlar shkalasida amalga oshirilishi kerak.
2. Tanlanmalar normal taqsimot qonuniga buysunishi kerak.

## 9.2. Juft o'zgaruvchilarini Vilkokson mezonida o'zaro taqqoslash.

Vilkokson mezon ni parametrik mezon bo'lib, juft va bog'liq bo'lmagan o'ichovlarda ikki tanlanma o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Styudent t-testining parametrik mezonlar uchun qo'llaniladigan nusxasi.

Mezon ikki tanlanma ishtirokchilarining xususiyatlarini turli sharoitlarda o'zgarishini qiyoslashga qaratilgan. Mezon nafaqat

o'zgarishlar yo'nalishini, balki bu o'zgarishlarning ahamiyatini, siljish darajasining intensivligini baholaydi.

Mezonda o'zgaruvchilar tartib shkalasida baholanishi kerak. Mazkur metodikadan siljish qiymatlari masofasi yetarlicha varyatsiyalanganda (o'zgarsa) foydalanilsa, maqsadga muvofiқ bo'ladi. Misol uchun, qiymatidan 10-15% ga siljigan qiymatlarni ranjirovka qilish qulay. Qiymatlar ahamiyatsiz siljiganda ham (+1;-1, 0) mezonnini qo'llasa bo'laveradi. Biroq, bir xil ranjirlangan qiymatlar mezonda o'z mohiyatini yo'qotishi mumkin.

Mezonning mohiyati shundan iboratki, unda biz siljishlarning u yoki bu tomonga yo'nalganligini absolyut qiymat asosida taqqoslaymiz. Buning uchun biz oldin barcha absolyut qiymatlarni ranjirlaymiz, undan keyin esa ranjirlangan summalarni qo'shamiz. Agar siljishlar musbat va manfiy tomonga tasodifiy ravishda tushib qolsa, u holda absolyut qiymatlar yig'indisi teng bo'ladi. Siljishlarning tipik xususiyati deb, siljishlarning u yoki bu tomonga yo'nalishining ustunligiga aytildi. Notipik xususiyati deb esa, ularning u yoki bu tomonga zaif yo'nalishiga aytildi.

Bu mezonda farazlar shunday qo'yiladi:

$H_0$  farazi: tipik siljishlarning intensivligi notipik siljishlarning intensivligidan oshmaydi.

$H_1$  farazi: tipik siljishlarning intensivligi notipik siljishlarning intensivligidan oshadi.

Mezonda nafaqt siljishlar soni muhim ahamiyatga ega, balki mazkur siljishlarning intensivligi (shiddat bilan yo'nalishi) ham yuqori baholanadi. Intensiv siljishga va siljishlar sonining ko'pligiga misol keltirsak, 6 qiymati treningdan so'ng 9 qiymatiga o'zgardi. Bu o'zgarishni intensiv (shiddatli) deb ayta olamiz. Chunki o'zgarish kattagina. Mazkur yo'nalishda (musbat tomonga yo'nalish) o'zgarishlar qatorda ko'p uchrasa, siljishlar tipikligini yoki ko'psonliliginibildiradi.

Mezonni qo'llashda ayrim cheklanishlar ham bor. Unda belgilanadigan ishtirokehilar soni eng kamida 5 eng ko'pi bilan 50 kishini tashkil etishi kerak. Bu esa, mezon ilovasi jadvalida yuqori chegaralar berilishini ko'zlaydi.

Shuningdek, mezonda nolinchi siljishlar qator safidan chiqariladi va n-ishtirokehilar soni nolinchi siljish hisobiga kamayadi. Ushbu cheklovlarни oldini olish mumkin. Uning uchun o'zgarmagan qiymatlarni ham inobatga oluvchi farazni shunday shakllantirish kerak:

«Qiymatlarning kamayish tendentsiyasi va ularning o‘zgarmaslik tendentsiyasi qiymatlarning oshish tendentsiyasidan ustunlik qiladi». Vilkokson mezoni adabiyotlarda W-mezoni deb yuritiladi. Ammo ba’zi adabiyotlarda, u T-mezoni deb nomlanishi ham mumkin. Bizda t-mezoni mavjudligi uchun va tajribamizdag‘i mezonlar xajmini rang-barang qilish maqsadida mezonni W-deb yuritamiz.

**Topshiriq:** mezonning qo‘llanilishiga doir misol keltiramiz. Manni-Utni mezonida psixologiya yo‘nalishi talabalarining shaxsiy irodaviy potentsiali darajasi tahlil qilingan edi. Yo‘nalish talabalari bilan irodani mustahkamlash treninglari olib borildi. Psixolog, talabalarning irodaviy potentsiali treninglar natijasida oshadi deb taxmin qila oladimi?

**Bajarilishi:** talabalar olgan natijalar treningdan oldin va keyin solishtirildi. Natijalar tahlili 9.2-jadvalda berilgan.

#### 9.2-Jadval

#### Shaxsiy irodaviy potentsiali darajasining treningdan oldin va keyin ko‘rsatkichlari (n=11)

№	Natijalarning tadqiqotdan oldin va keyin baholanishi		Farq	Farqning absolyut qiymati	Farqlarning ranjirovkasi
	Shaxsiy irodaviy potentsial ko‘rsatkichi (oldin)	Shaxsiy irodaviy potentsial ko‘rsatkichi (keyin)			
1.	24	30	-6	6	4,5
2.	18	27	-9	9	9
3.	17	16	1	1	1,5
4.	20	28	-8	8	7,5
5.	18	28	-10	10	10,5
6.	20	27	-7	7	6
7.	16	26	-10	10	10,5
8.	28	30	-2	2	3
9.	23	29	-6	6	4,5
10.	19	18	1	1	1,5
11.	12	20	-8	8	7,5
<b>Jami:</b>					<b>66</b>

Talabalarning ism sharifi alisbo tartibida joylashtirilgan ro‘yxat asosida ballarni kiritamiz. Talabalar treningdan oldin olgan ballaridan treningdan keyin olgan ballarini alohida ayiramiz. 9.2 jadvaldan ko‘rib turganimizdek, 9 ta holatda siljish manfiy (bizning holatimizda bu -

ijobiy o'zgarish sanaladi) tomonga o'zgargan. Faqat bitta holatda musbat tomonga siljish sodir bo'lgan. Bu vaziyatdan kelib chiqib, farazlarni shakllantiramiz.

$H_0$  faraz: shaxsiy irodaviy potentsial darajasining trening natijasida manfiy tomonga siljishi treningdan oldingi natijadan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: shaxsiy irodaviy potentsial darajasining trening natijasida manfiy tomonga siljishi treningdan oldingi natijadan farq qiladi.

Keyingi bosqichda barcha siljishlar, ularning ishorasidan qat'tiy nazar ranjirovka qilinadi. Ranglashtirish to'g'ri tartibda amalga oshishi uchun natijalar absolyut shaklga keltiriladi. Ya'ni manfiy ishoralardan xalos bo'llamiz. Eng kichik qiymatlarga kichik rang beriladi. Ranglar summasi 66 ga teng. Ranglashtirish tartibi to'g'ri amalga oshirilganini tekshiramiz.

$$R = \frac{11 * 12}{2} = 66$$

Endi tipik va notipik siljishlarni belgilaymiz. Bizning misolimizda manfiy ishorali qiymatlar tipik siljish hisoblanadi. Chunki ular jadvalda ko'p uchraydi. Musbat ishorali hadlar esa, notipik siljish hisoblanadi.  $W$  – mezonida notipik siljishlar empirik qiymat hisoblanadi. bizning misolimizda notipik siljishlar musbat siljishlar hisoblanadi va empirik qiymatni topish uchun quyidagi usulga e'tibor beramiz:

$$W = \sum R_r$$


bu yerda  $\sum R_r$  notipik siljishlar ranjirovasining umumiy yig'indisi bo'lib hisoblanadi. 9.2-jadvalning 3 va 10 qatorlarida notipik siljishlar ajratilib yozilgan.

$$W_{emp} = 1,5 + 1,5 = 3;$$

Ilova, 5-jadvalidan  $n=11$  uchun kritik hadlarni topamiz.

$$W_{kr} \begin{cases} 13 & p < 0,05 \\ 7 & p < 0,01 \end{cases}$$

Ahamiyatlilik o'qini chizamiz:



Ahamiyatlilik o'qi chap tomonga, kichkina qiymatlar tomonga yo'nalgan bo'ladi. Chunki empirik qiymat kritik qiymatlardan kichik

bo'lsa, ahamiyatli hisoblanadi. Ahamiyatsizlik o'qi esa, aksincha o'ng tomonga, katta hadlar tomonga qaratilgan bo'ladi.

$W_{emp} < W_{kr}$  bo'lgani uchun empirik qiymat ahamiyatlilik o'qiga tushdi. Demak,  $H_0$  farazni rad etib,  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Ya'ni, talabalarning shaxsiy irodaviy potentsial darajasining trening natijasida musbat tomonga siljishi treningdan oldingi natijadan farq qiladi. Bu holda treninglar natijasida o'zgargan ko'rsatkichlar vaqtincha bo'lishi mumkin.

### 9.3. Noparametrik takroriy o'Ichovlarni o'zaro taqqoslash uchun ishoratlar G-mezoni.

Noparametrik ma'lumotlarni tahlil qilish mezonlari ancha ko'p. Biz ulardan Manni-Uitni U-mezoni, Vilkokson W-mezonini o'rgandik va ularga doir misollar yechdik. Keyingi noparametrik mezon, G-mezonidir. Mazkur mezon ham Vilkokson W-mezoni kabi o'rganilayotgan sifatning u yoki bu tomonga siljishining statistik ahamiyatini belgilaydi. Ammo G-mezoni kichkina o'zgarishlarni ham inobatga olaveradi. Mezon ma'lum bir sifatning kuchayishini yoki zaiflashuvini; ko'payishini-kamayishini; oshishini yoki pasayishini statistik farazlar asosida belgilaydi.

Mezon, sifat o'zgarishlarida, biron bir xodisaga yaxshi munosabatning yomon munosabatga o'zgarishini, miqdoriy o'zgarishlarda esa, ma'lum bir topshiriqlarni yechishda vaqtning nisbatan kamayishi va ko'payishini inobatga oladi. Ammo G-mezoni faqat siljishlar sonini inobatga olsa, Vilkokson mezoni esa, siljishlar u yoki bu tomonga intensivligini belgilash orqali statistik farazlarni tekshiradi. Shuning uchun Vilkokson mezoni G-mezoniga qaraganda kuchliroq hisoblanadi.

Odatda psixolog, tadqiqotning o'zidayoq o'rganilayotgan sifatlarning yaxshi tomonga o'zgarganini, sinaluvchilarda aniq bir omillar asosida o'zgarishlar ro'y berganini his qiladi. Ammo bu o'zgarishlarning statistik ahamiyatini isbotlash uchun ularni mezon asosida tahlil qiladi.

Psixolog amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalardan asosiysi notipik va tipik siljishlarni kerakli tartibda baholashdan iborat. Tipik siljish – manfiy yoki musbat yo'nalishlarning ustunda eng ko'p uchragan qiymatidir. Kam uchragan yo'nalish siljishi notipik siljish

deyiladi. Mezonning mohiyati, tipik siljishni ustunligini belgilash uchun notipik siljish haddan ortiq ko'p uchramaganini aniqlashdan iborat. Shuning uchun siljishlarning notipik xususiyati mezonning empirik qiymati deb belgilanadi.  $G_{emp}$  qanchalik kichik bo'lsa, tipik yo'nalishdagi siljish shunchalik ishonchli sanaladi.

Shuni unutmaslik kerakki, metodda nolinchiligi siljishlar ham uchraydi. Nol siljishlar tadqiqotda xech qanday ahamiyatga ega bo'limgani bois, nol soniga teng ishtirokchilar soni tanlanmadan olib tashlanadi.

Tadqiqot materiallariga qarab, psixologik xulosaga kelish, tafovut ahamiyatlarini tekshirishga imkon beruvchi statistik metodlarini qo'llash orqaligina amalga oshadi. Qiymatlarga ko'ra, olingen natijalarining foizini chiqarish va bu foizlarga ko'ra, xulasalar berish ularning statistik ishonchli bo'lishiga imkon bermaydi. Shuning uchun biron bir ta'sirning statistik ahamiyatini belgilash uchun dastlab, natijalarining siljish tendentsiyalarini tahlil qilish zarur.

$G$  – mezoni kritik hadlarni topish ilovasida tanlanma ishtirokchilarining soni asosida ( $n$ ) qiymatlar berilgan bo'ladi.

Mezonda farazlar quyidagicha shakllantiriladi:

$H_0$  faraz: tipik yo'nalish ustunligi tasodisiy sanaladi.

$H_1$  faraz: tipik yo'nalish ustunligi tasodisiy sanalmaydi.

Bu empirik qiymat, kritik hadlardan kichik bo'lganidagina ahamiyatga erishishini bildiradi. Ahamiyatsizlik hududida notipik siljishlarning meyordan (kritik chegaradan) ortiq bo'lishi tipik siljishlarning ahamiyatini pasaytiradi. Psixologik tadqiqotlarda tanlanmaning normal taqsimotga mosligi tekshirilmasa,  $G$ -mezoniga va boshqa noperametrik mezonlarga murojaat qilinadi.

**Topshiriq:** aytaylik, psixolog maktab o'quvchilarida matematika fanidan 2 chorak va 3 chorak baholarida, yanvar-mart oylari davomida yangi metodda o'tkazilgan darslar oqibatida, o'zgarish mavjud deb taxmin qila oladimi?

**Bajarilishi:** statistik farazni shakllantirish uchun natijalarining rostdan ham bir-biridan farqlanishini ko'rsatishi kerak bo'ladi. Buning uchun ishni, 25 nafar o'quvchining matematikadan olgan natijalarini va ularning siljishini 9.3 jadvalga joylashtirishdan boshlaymiz. Dastlab ikkinchi chorak natijalari qayd etiladi. So'ngra uchinchi chorak bahalari yonma-yon ustunda joylashtiriladi. Matematika o'qitishning yangi metodikasi 8 sinf o'quvchilarida uch oy davomida o'tildi. Bu jarayonni tadqiqot davri deb olamiz. So'ng uchinchi ustunga siljishlarni kiritamiz.

### 9.3-jadval.

8-sinf o'quvchilarining matematika fanidan yangi metod joriy qilingunga qadar va keyin olgan baholarining siljish dinamikasi

Nº	tadqiqotdan oldin	tadqiqotdan keyin	siljish
1	5	4	1
2	4	5	-1
3	3	4	-1
4	3	4	-1
5	4	5	-1
6	5	5	0
7	3	5	-2
8	4	5	-1
9	3	4	-1
10	3	4	-1
11	3	4	-1
12	4	5	-1
13	5	5	0
14	4	5	-1
15	3	5	-2
16	4	5	-1
17	5	4	1
18	4	3	1
19	5	5	0
20	4	5	-1
21	4	5	-1
22	3	4	-1
23	4	5	-1
24	3	4	-1
25	4	5	-1

Tadqiqotdan oldin ustun qiymatlaridan tadqiqotdan keyin ustun qiymatlarini ayiramiz. Ayirmani siljish deb olamiz.

Siljish ustunlaridagi avval ijobjiy siljishlarni (ular mansiy ishoralarda belgilangan) keyin salbiy siljishlarni (musbat siljishlar) va o'zgarmas siljishlarni yig'indisini topamiz. Nolinchi siljishlarni inobatga olmaymiz.

Nolinchi siljishlar: 3 ta;

Ijobjiy siljishlar: 18 ta;

Salbiy siljishlar: 3 ta.

Nolinchi siljishlarni hisobdan chiqaramiz.

Ijobiy siljishlarni tipik siljish deb, salbiy siljishlarni notipik siljish deb belgilaymiz.

Ijobiy siljishlar, ya’ni tipik siljishlar sonining salmoqli ekanligini inobatga olib, farazlarni shakllantiramiz.

$H_0$  faraz: o‘quvchilarning matematikadan olgan baholarining ijobiy tomonga o‘zgarishi tasofiy xarakter kasb etadi.

$H_1$  faraz: o‘quvchilarning matematikadan olgan baholarining ijobiy tomonga o‘zgarishi tasofiy xarakter kasb etmaydi.

Tipik siljishlarning qiymati asosida ilovaning 6-jadvalidan 0,05 va 0,01 daraja uchun kritik hadlarni topamiz.

Notipik siljishlar qiymati asosida G-mezoning empirik qiymatini topamiz. Demak,  $G_{emp} = 3$  ga teng. Tipik va notipik siljishlar bir birini to‘ldiruvechi qiymatlari hisoblanadi. Tipik siljishlar soni 18 ga teng bo‘lgani uchun ilovaning 6-jadvalidan  $n=18$  uchun qiymat topamiz.

$$G_{kr} \begin{cases} 5 & p < 0,05 \\ 3 & p < 0,01 \end{cases}$$

Shunday qilib,  $G_{kr} > G_{emp} = G_{kr}$  bo‘lgani uchun, empirik qiymat ahamiyatlilik hududida 99% ishonchlilik bilan tushdi. Ya’ni 0,01 darajada taxmin isbotlandi.

Empirik qiymat, ahamiyatlilik hududiga tushgani uchun ahamiyatlilik tasdig‘ini topdi, o‘quvchilarning matematikadan olgan baholarining ijobiy tomonga o‘zgarishi tasodifiy xarakter kasb etmaydi.

### Nazorat savollari:

1. Noparametrik mezonlar qanday tanlanmalarda qo‘llaniladi?
2. Noparametrik mezonlarga qaysi mezonlar kiradi?
3. G-mezonida empirik qiymat kritik qiymatdan kichik bo‘lsa, qaysi faraz qabul qilinadi?
4. Vilkokson mezonini qo‘llashning qanday afzalliklari bor?
5. Styudent mezioni orqali bog‘liq bo‘lgan tanlanmalar bog‘liq bo‘ligan tanlanmalarda ishlash qanday amalga oshadi?
6. Inversiyalar nima?
7. Intensiv siljish qaysi mezonda ahamiyatlasi sanaladi?
8. Tadqiqot yoki trening dasturlari samaradorligi qanday baholanadi?
9. Styudent mezonida  $\bar{d}$  belgisi nimani anglatadi?

10. Manni-Uitni-Vilkokson mezonini Vilkokson mezonidan qanday farq qiladi?

11. Empirik qiymatning ahamiyatlilik o'qi chap yoki o'ng tomonlarda qaratilishi sababi nima?

**Statistik mezonlarga ta'lluqli ta'rifni tanlang.**

Nº	Mezon	Nº	Mosligi
1	G mezoni	A	Tipik va notipik siljishlar hisoblanadi.
2	Styudent-t	B	Kichkina o'zgarishlarni ham inobatga oladi.
3	Vilkokson-W	C	Parametrik mezon hisoblanadi.

**Javob:**

1	2	3

## 10-mavzu: NOPARAMETRIK MA'LUMOTLAR UCHUN $\chi^2$ ASSOTSIATIV MEZONI

**Tayanch tushunchalar:** alternativ ko'rsatkichlar, xi kvadrat mezoni, ikki tarmoqli jadval, ko'ptarmoqli jadval, P kattaligi, Pirson mezoni, teoretik chastotalar;

### 10.1. Xi kvadrat noperametrik mezonini qo'llash shart-sharoitlari.

Biz empirik chastotalarning normal taqsimot qonuniyatiga mosligini va normallikdan og'ish tendentsiyalarini oldingi mavzularda o'rgandik. Taqsimotning normallikka mosligini va mos kelmasligini tekshirishning bir necha usullari mavjud. Ular Pirsonning xi kvadrat mezoni va Kolmogorov-Smirnov mezonlaridir. Bu ikki metod ham yetarlicha murakkab bo'lgan hisoblashlar uchun, ma'lumotlarni izchil guruhlashni talab qiladi.

Xi kvadrat mezonida ishtirokchilar  $n > 30$  bo'lganida natija aniq bo'ladi.

Pirsonning xi kvadrat  $\chi^2$  mezoni quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1. Belgining empirik taqsimlanishini nazariy (gipotetik) normal taqsimlanish, to'g'ri taqsimlanish qonuniga tekshiradi.

2. Bir belgining ikki, uch yoki bir necha empirik taqsimotini solishtiradi.

$\chi^2$  mezoni empirik va nazariy taqsimotlarda belgining turli qiymatlari uchrash chastotasini bir xilda ekanligini o'rGANADI. Metodning afzalligi shundaki, belgilar taqsimoti istalgan o'Ichov shkalalarida baholangan bo'lishi mumkin. Ya'ni unda, belgilar nomlanishlar shkalasidan tortib, nisbatlar shkalasigacha baholanishi mumkin.

Mezon shunday shakllantirilganki, empirik va normal taqsimot yoki ikki empirik taqsimotning mos tushganida  $\chi^2_{emp}$  ning qiymati nolga teng bo'ladi. Solishtirilayotgan taqsimotlar o'rtasida farq qanchalik katta bo'lsa, xi kvadrat empirik qiymati shunchalik katta bo'ladi. Xi kvadrat formulasi berilgan.

$$(10.1) \quad \chi^2_{emp} = \sum_{j=1}^k \frac{(f_e - f_t)^2}{f_t}$$

Bu yerda  $f_e$  – empirik chastota;  $f_t$  – nazariy chastota;  $k$  – ustunlar yig'indisi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar turiga ko'ra, ikki empirik taqsimotning xi kvadratda solishtirish formulasi quyidagicha:

$$(10.2) \quad \chi^2_{emp} = \frac{1}{NM} \sum_{j=1}^k \frac{(Nx_j - M y_j)^2}{x_j + y_j}$$

Bu yerda, N va M birinchi va ikkinchi tanlanmaning qiymatlari, ular o'zaro farq qilishi yoki mos tushishi mumkin.

Xi kvadrat mezoni uchun ahamiyatlilik darajasi erkinlik bosqichi orqali aniqlanadi. U aksariyat hollarda  $df=k-1$  orqali topiladi va k har safar tanlanma natijalari bo'yicha aniqlanadi va tanlanma elementlarini namoyon qiladi. Agar mezonni hisoblashda jadval ishlataligan bo'lsa, unda erkinlik bosqichi quyidagicha topiladi:  $df=(k-1)(c-1)$ , bu yerda k-ustunlar soni; c-qatorlar sonini bildiradi.

Xi kvadrat mezonida farazlarning qo'yilishi tadqiqot oldiga quyilgan maqsadlar asosida belgilanadi va ular uch xil variantda beriladi.

*Birinchi varianti:*

$H_0$  faraz: olingen empirik natijalar nazariy natijalardan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: olingen empirik natijalar nazariy natijalardan farq qiladi.

*Ikkinchi varianti:*

$H_0$  faraz: birinchi empirik taqsimot ikkinchisidan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: birinchi empirik taqsimot ikkinchisidan farq qiladi.


*Uchinchi varianti:*

$H_0$  faraz: 1,2,3... empirik taqsimotlar o'zaro farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: 1,2,3... empirik taqsimotlar o'zaro farq qiladi.

Bu uch variant farazlarini xi kvadratda tekshirish imkonи mavjud.

Mezonni grafik usulda ko'rinishini quyida taqdim etamiz. Misol uchun 80 nafar maktab bitiruvchisidan 31 nafari oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirdi va 49 nafari o'qishga kirolmadi. Mazkur empirik taqsimotni normal taqsimot bilan solishtiramiz va uni 10.1. rasmda ifoda etamiz.



#### **10.1-rasm. Maktab bitiruvchilarining o'qishga kirishi va o'qishga kirolmasligining empirik va nazariy chastotasini solishtirish.**

Ordinatalar o'qida ta'lif muassasasining nisbiy chastotalari o'lehanadi. o'qida ta'lif muassasasiga qabul qilinish chastotasi belgilangan.

31/80 ya'ni, 0,39 oliv ta'limga kirish nisbiy chastotasi va 59/80 ya'ni, 0,73 oliv ta'limga kirolmaslik nisbiy chastotasi. Agar nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, 80 nafar o'quvchidan teng yarmisi oqishga kirolmagan va yarmisi oliv ta'limga qabul qilinganda edi, chastota 0,50 ni tashkil etardi. Ya'ni bitiruvchilarning 40 nafari OTM qabul qilinib va 40 nafari qabul qilinmagan bo'lar edi. 10.1 rasmdagi 40 raqamidan yo'naltirilgan shtrixli chiziq nazariy chastotani belgilaydi. Ustundagi har bir ishorali chiziqlar empirik chastotaning nazariy shtrixli chiziqdan qanchalik masofada uzoqda joylashganini yoki og'ganini ko'rsatib turibdi. Agar 10.1 rasmdagi empirik chastotalarni ehtimoliy chastotalar bilan solishtirsak, ular o'rtasidagi farq ahamiyatli chiqishi mumkin. Berilgan ko'rsatmalarga asosan, quyidagi boshqa bir misol orqali empirik va nazariy chastotalarni tahlil qilamiz.

#### **10.3. Xi kvadrat mezoninin hisoblash jarayoni va formulasi.**

**Topshiriq:** 160 nafar maktab bitiruvchilaridan 96 nafari aniq fanlar yo'nalishi bo'yicha, 64 nafar bitiruvchi ijtimoiy yo'nalish bo'yicha

liyogha xujjat topshirdi deb tasavvur qilamiz. Tadqiqotchini, «Maktab o'quvchilarning fizika-matematika yo'naliishida xujjat topshirishi gumanitar fanlarga qaraganda ahamiyatli qo'pchilikni tashkil qiladimi?» degan savol qiziqtirmoqda. Balki maktabda fizika-matematika fanlarini o'qitishda ustunlik mavjuddir. Yoki bu shunchaki tasodifmi? Tekshiramiz.

**Bajarilishi:** mazkur topshiriq empirik chastotalar taqsimotini normal taqsimot bilan solishtirish amaliyotiga qaratilgan. Bizning holatimizda ikkita variant (1-Aniq fanlar, 2-Ijtimoiy fanlar) mavjud bo'lGANI uchun ishtirokchilar sonini ikkiga bo'lamiz,

$$\frac{160}{2} = 80 \text{ nafar bitiruvchi.}$$

Ya'ni har bir yo'naliishga ehtimoliy jihatdan 80 nafardan talaba xujjat topshirishi kerak.

Endi nazariy va empirik chastotalarni 10.1-jadvalga joylashtirish orqali xi kvadratda solishtiramiz. Jadvalni (10.1) formula amallarini bajarishga moslashtiramiz.

### 10.1-Jadval

#### 10.1 Formulasi uchun ma'lumotlar tahlili

№1	№2	№3	№4	№5	№6
Yo'naliishlar	$f_e$	$f_t$	$(f_e - f_t)$	$(f_e - f_t)^2$	$\frac{(f_e - f_t)^2}{f_t}$
I. Aniq fanlar	97	80	17	289	3,7
Ijt. fanlar	60	80	-17	289	3,7
Jami	<b>160</b>	<b>160</b>	<b>0</b>		$\chi^2_{emp} 7,2$

Empirik chastotalar bilan nazariy chastotalar o'rtaсидаги mavjud afovutga qarab, farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: olingan empirik natijalar gipotetik natijalardan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: olingan empirik natijalar gipotetik natijalardan farq qiladi.

10.1-Jadvalning birinchi qatorida aniq fanlar, ikkinchi qatorida ijtimoiy fanlar kiradi. Jadvalning №2 va №3 ustunida empirik va nazariy chastotalar joylashgan. E'tibor bering №4 ustun jamisi hamisha olga teng bo'lishi kerak. Agar yig'indi nolga teng bo'lmasa, demak aysidir amalni bajarishda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Unda, avval xatoni topib, keyin boshqa jarayonlarga o'tish kerak

bo'ldi. To'rtinchi ustun, empirikdan nazariy chastotalarning ayirmanini ( $f_e - f_t$ ) ifodalaydi. Besinchi ustunda ayirma kvadratlari keltirildi. Oltinchi ustunda ayirma kvadratlari nazariy chastotz qiy'maga bo'linadi. Demak, empirik qiyamatimiz 7,2 ga teng.

Keyingi ishimiz xi kvadrat uchun ilova jadvalidan 0,05 va 0,01 uchun kritik hadlarni topishdan iborat. Agar yodingizda bo'ssa kritik hadlar erkinlik bosqichi asosida topiladi. Ya'ni  $df=k-1=2-1=1$ , k bu yerda qatorlar alternativasi bo'lib hisoblanadi.

$$\begin{cases} \chi^2 \leq 3,841p \leq 0,05 \\ \chi_{kr}^2 \leq 6,635 p \leq 0,01. \end{cases}$$

Empirik qiyamat ahamiyatlilik hududiga tushdi. 1% darajada  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Olingan empirik natijalar gipotetik natijalardan farq qiladi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, maktab bitiruvchilarning aniq fanlar yo'nalishini tanlashi tasodif emas.

Empirik qiyamat noaniqlik hududiga tushsa, ko'pincha metodni ko'proq ishtirokchilar bilan qayta o'tkazish mumkin. Shuningdek, empirik qiyamat noaniqlik hududiga tushsa, psixolog farazlarning istagan birini yoki  $H_1$  yoki  $H_0$  ni tanlashi mumkin. Bir necha alternativ empirik taqsimotlar o'zaro solishtirish amaliyotiga doir topshiriq va uning bajarilishini o'rganamiz.

**Topshiriq:** aytaylik, psixolog-o'qituvchini talabalarning "Psixologik tadqiqotlarda miqdoriy tahlil metodlari" faniniga qiziqishi bilan bog'liq ma'lumot teng taqsimlanganmi degan masala uylantirdi. O'qituvchi talabalarни mazkur fanni o'zlashtirishda quyidagi guruhlar asosida toifalashtirdi:

- 1 – fanga juda qiziqaman;
- 2 – fanga biroz qiziqaman;
- 3 – nimadir deyishim qiyin;
- 4 – unchalik qiziqmayman;
- 5 – umuman qiziqmayman.

**Bajarilishi:** bu topshiriqni bajarish uchun psixolog-o'qituvchi 55 nafar talabani "Psixologik tadqiqotlarda miqdoriy tahlil metodlari" faniga qanchalik qiziqasiz?" degan savolga yuqorida ko'rsatilgan javoblar intervali orqali toifalashtirdi. Beshta guruh, yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, alternativalar asosida javoblar belgilandi.

Olingan javoblar empirik chastotalar ko'rinishida jadvalga joylashtirishdan avval, 55 nafar talaba uchun zarur nazariy chastotani topamiz.

$$\frac{55}{5} = 11.$$

(10.1) formulasi asosida shakllantirilgan 10.2-jadvaliga ma'lumotlarni kiritamiz.

### 10.2-Jadval

#### 10.1 formulasi asosida ma'lumotlar tahlili

Nº1	Nº2	Nº3	Nº4	Nº5	Nº6
Javoblar varianti	$f_e$	$f_t$	$(f_e - f_t)$	$(f_e - f_t)^2$	$\frac{(f_e - f_t)^2}{f_t}$
1.	10	11	-1	1	0,09
2.	15	11	4	16	1,5
3.	17	11	6	36	3,2
4.	6	11	-5	25	2,2
5.	7	11	-4	16	1,5
Jami	55	55	0	94	$\chi^2_{emp} = 8,6$

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunlari qiymatlarining o'zaro tafovutini inobatga olib, farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: nazariy va alternativ empirik taqsimotlar o'zaro farq qilmaydi.


$H_1$  faraz: nazariy va alternativ empirik taqsimotlar o'zaro farq qildi.

Eslatib o'tamiz, jadvalning to'rtinchi ustunidagi raqamlar yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak.

Kritik hadlarni topish uchun erkinlik bosqichi formulasiga yuzlanamiz, bizda k-5 ga teng bo'lgani uchun  $df=k-1=5-1=4$ . Demak ilova jadvalidan 4 raqami uchun 0,05 va 0,01 daraja uchun hadlarni belgilaymiz.

$$\chi^2_{kr} \begin{cases} 9,488 p \leq 0,05 \\ 13,277 p \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymat  $\chi^2_{emp} = 8,6$  bo'lgani uchun, u qaysi hududga tushganini ahamiyatlik o'qida belgilanmasdan turib, bilish oson. Empirik qiymat yana noaniqlik hududiga tushdi.



Empirik qiymat noaniqlik hududiga tushdi. 0,05 darajada  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Ya'ni empirik taqsimotlar nazariy taqsimotdan farq qiladi. Psixolog, respondentlar tomonidan tanlangan alternativlar teng taqsimlanmagan deb, 5% ahamiyatlilik darajada taxmin qilishi mumkin.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek,  $\chi^2$ -kvadrat mezonida nafaqat empirik taqsimotni nazariy taqsimot bilan solishtirish mumkin. Balki ikki yoki bir necha eksperimental ma'lumotlarni o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkin. Amaliyotda ham ko'pincha eksperimental ma'lumotlarni solishtirishga to'g'ri keladi. Bu vaziyatda 10.1 formulasining modifikatsiyasiga murojaat qilinadi.

Ushbu topshiriqlarda ikki yoki bir necha bog'liq bo'lmagan tanlanmalarning bir xilligi tekshiriladi. Shu orqali ular o'rtasidagi tafovut mavjudligi haqidagi farazning ahamiyati aniqlanadi. Olingan ma'lumotlarni joylashtirishning bir necha usullari mavjud. Ular orasida eng qulayi to'rt qatorli jadval ko'rinishidir. Bu jadval, birinchi tanlanmada ikki xil qiymat, ikkinchi jadvalda ham ikki xil qiymat bo'lganida qo'llaniladi.

**Topshiriq:** aytaylik, psixologni ikki maktab o'quvchilarining sport bilan shug'ullanishida tafovut mavjudligi qiziqtirdi. Birinchi maktabdan 110 nafar yuqori sinif o'quvchilari orasidan 87 kishi sport bilan shug'ullanadi. Ikkinchi maktabning 98 yuqori sinif o'quvchidan 54 kishi sport bilan mashhg'ul. Ikki eksperimental taqsimotda tafovut mavjudmi?

**Bajarilishi:** ma'lumotlarni to'rt qatorli jadvalga joylashtiramiz. Jadvalning har bir katakehasi A, B, C, D harflari bilan belgilangan.

10.3-Jadval

Sport bilan shug'ullanishning empirik ko'rsatkichi	1-maktab	2-maktab
Sport bilan shug'ullanuvchilar soni	A 90	B 54

Sport bilan shug'ullanmaydigan soni	C 20	D 44
Jami:	110	98

Eksperimental taqsimotlarda sezilarli farq mavjudligi sabab, farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: empirik taqsimotlar o'zaro farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: empirik taqsimotlar o'zaro farq qiladi.

Bizning ixtiyorimizda to'rtta empirik chastotalar mavjud. Ular: 90, 20, 54, 44. Bu yerda formulani qo'llashimiz uchun har bir empirik chastotaga mos keluvchi nazariy chastota topamiz. Gipotetik chastotani oldingi misollarimizda aniqlanmizdek, oddiy yo'l bilan aniqlamay, balki boshqacha yo'l tutamiz. 10.3 jadvalidan ma'lumki, birinchi va ikkinchi maktab uchun, sport bilan umuman shug'ullanmaydigan soni  $20+44=64$  ni tashkil etadi. Bu kattalikka nisbatan P kattaligi hisoblanadi. P-belgining ulushi yoki chastotasi. Bu yerda belgi deb, sport bilan shug'ullanmaslikni olish mumkin. P kattaligi quyidagi (10.2.) formula asosida aniqlanadi.

$$(10.2.) \quad P = \frac{20+44}{110+98} = 0,31$$

P kattaligi jadvalning uchinchi qatori nazariy chastotasini topish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ular o'z navbatida  $f_{t1}$  va  $f_{t2}$  bilan belgilanadi. Bu chastotalar birinchi va ikkinchi maktabdan necha kishi sport bilan shug'ullanmasligi kerakligini belgilaydi. Ular quyidagicha beriladi:

Birinchi maktab uchun,  $f_{t1} * 0,31; 110=34,1$

Ikkinci maktab uchun  $f_{t2} * 0,31; 98=30,38$ .

Xullas, birinchi maktabdan 34,1 kishi sport bilan shug'ullanmasligi va ikkinchi maktabdan 30,38 kishi sport bilan shug'ullanmasligi kerak edi. Olingan nazariy chastotalarga qarab, biz sport bilan shug'ullanuvchilar sonining nazariy chastotasini belgilaymiz.

$f_{t3}$  birinchi maktab uchun  $110-34,1=75,9$ ;

$f_{t4}$  ikkinchi maktab uchun  $98-30,38=67,62$ .

Qo'lga kiritilgan barcha teoretik chastotalarni yangi 10.4-jadvaliga kiritamiz.

#### 10.4-Jadval

**Ma'lumotlar tahlili**

Sport bilan shug'ullanishning teoretik ko'rsatkichi	1-maktab	2-maktab
Sport bilan shug'ullanishi kerak bo'lganlar soni	$A f_{t3} = 75,9$	$B f_{t4} = 67,62$
Sport bilan shug'ullanmasligi kerak bo'lgagan soni	$C f_{t1} = 34,1$	$D f_{t2} = 30,38$
Jami:	110	98

Shuni ta'kidlab o'tamizki, jami ishtirokchilar soni mazkur jadvalda ham 10.3 jadvalida ko'rsatilgandek bo'lishi kerak. Ya'ni birinchi va ikkinchi maktab o'quvchilari teng bo'lishi shart.  $75,9+34,1=110$  va  $67,62+30,38=98$  ni tashkil etadi.

Yana bir muhim holatga e'tibor bering, 10.4 jadval birinchi katakchasi  $f_{t3}$  belgisi bilan belgilangan. Biz uchun odatiy bo'lib qolgan  $f_{t1}$  bilan belgilanishi ham mumkin edi. Ammo (10.1) formulasining qat'iy belgilangan tartibiga ko'ra, P kattaligi dastlab jadvalning uchinchi qatori uchun aniqlangani sababli unga  $f_{t1}$  belgilarini tayinladik. Va bu tartibdan chiqmadik.

Keyingi jarayonda empirik qiymatni topish uchun (10.1) formulasini asosida ishlash yuritamiz. Ya'ni 10.3 jadvalining empirik chastotalaridan 10.4-jadvalining nazariy chastotalarini ayiramiz.


$$\chi^2_{emp} = \frac{(20 - 34,1)^2}{34,1} + \frac{(44 - 30,38)^2}{30,38} + \frac{(90 - 75,9)^2}{75,9} + \frac{(54 - 67,62)^2}{67,62} = 17,3$$

Mazkur holat uchun erkinlik bosqichi quyidagiicha hisoblanadi:

$df=(k-1)*(c-1)=(2-1)*(2-1)=1$ . Chunki bizda ikki qator va ikki ustun mavjud edi. Ilovaning, 7-jadvaliga ko'ra kritik hadlar:

$$\chi^2_{kr} \begin{cases} 3,841 & p \leq 0,05 \\ 6,635 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Ahamiyatlilik o'qini shakllantiramiz.



Empirik qiymat 1% daraja bilan ahamiyatlik hududiga tushdi. Biz bunga asoslanib,  $H_0$  farazni rad etamiz va tafovut mavjudligi to‘g‘risidagi  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Shunday qilib, birinchi maktab o‘quvchilarining sportga jalb etilishi ikkinchi mактабга qaraganda yuqori ekan.

Shunga o‘xhash ammo boshqacha bir necha empirik taqsimotlarga ega boshqa bir topshiriqnı ko‘rib chiqamiz.

**Topshiriq:** ikkita maktabning 10-sinf o‘quvchilarida algebra fanining o‘qitilish sifatini o‘rganish uchun tadqiqot olib borildi (misol, «Ермолаев О.Ю., Математическая статистика для психологов» darsligidan olingan). Buning uchun har bir maktabdan 50 ta tasodifiy o‘quvchi tanlab olindi. Ular algebra fanidan nazorat ishi topshirdi. Ikkala maktab o‘quvchilarining algebra bo‘yicha bilimlarida ahamiyatli tafovut mavjud emasligi haqida faraz tekshirildi.

**Bajarilishi:** nazorat ishi natijalarini 10.5-jadvalda namoyon qilamiz.

10.5-Jadval

Maktablar	Baholar				Jami:
	2	3	4	5	
1-maktab	$O_{11}=3$	$O_{12}=19$	$O_{13}=18$	$O_{14}=10$	50
2-maktab	$O_{21}=9$	$O_{22}=24$	$O_{23}=12$	$O_{24}=5$	50
Jami:	$O_{11}+O_{21}=12$	$O_{12}+O_{22}=43$	$O_{13}+O_{23}=30$	$O_{14}+O_{24}=15$	100

Jadvaldagи  $O_{11}$  birinchi maktabning algebra fani nazorat ishidан «2», ya’ni qoniqarsiz baho olgan o‘quvchilar soni;  $O_{12}$  birinchi maktabning algebra fani nazorat ishidан «3» baho o‘quvchilar soni;  $O_{13}$  birinchi maktabning algebradan olgan «4» baho olgan o‘quvchilar soni va h.k.

10.5-jadvaldan, ikkinchi maktabda «qoniqarsiz» baho olgan o‘quvchilar soni birinchi maktab o‘quvchilariga nisbatan uch karra ko‘p ekanligi ko‘rinib turibdi. Natijalarga qarab turib, ikkinchi maktab o‘quvchilarini birinchiga nisbatan algebra fanidan yomonroq o‘qishini aytish mumkin. Ammo izchil statistik tadqiqotsiz mazkur xulosalarni aytishning iloji yo‘q. (10.2) formulasi yordamida ma‘lumotlarni tahlil qilamiz.

$$(10.2) \quad \chi^2_{emp} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^k \frac{(n_1 O_{2i} - n_2 O_{1i})^2}{O_{1i} + O_{2i}}$$

Bu yerda  $n_1$  – birinchi tanlanma ishtirokchilar soni,  $n_2$  – ikkinchi

tanlanma ishtirokchilari soni;  $O_{1i}$  va  $O_{2i}$  – birinchi va ikkinchi tanlanma chastotalar soni.

Jadvaldagagi natijalarni formulaga joylashtiramiz.

$$\chi^2_{emp} = \frac{1}{50 * 50} \left[ \frac{(50 * 9 - 50 * 3)^2}{3 + 9} + \frac{(50 * 24 - 50 * 19)^2}{19 + 24} \right. \\ \left. + \frac{(50 * 12 - 50 * 18)^2}{12 + 18} + \frac{(50 * 10 - 50 * 5)^2}{10 + 5} \right] = 6,45.$$


Erkinlik bosqichi quyidagicha topiladi:

$$df = (k-1) * (c-1) = (2-1) * (4-1) = 3.$$

Ilova jadvalidan kerakli hadlarni topamiz,

$$\chi^2_{kr} \begin{cases} 7,815 & p \leq 0,05 \\ 11,345 & p \leq 0,01. \end{cases}$$

Ahamiyatlilik o'qini shakllantiramiz,



Empirik qiymat ahamiyatsizlik hududiga tushgani uchun biz, tafovut mavjud emasligi haqidagi  $H_0$  farazni qabul qilamiz. Ya'ni, maktab o'quvchilari o'rtaqidagi algebra fanini o'zlashtirish darajasida hech qanday tafovut mavjud emas. Dastlab, biz jadvalga qarab, ikkinchi maktab o'quvchilari birinchi maktab o'quvchilariga qaraganda algebra fanini o'zlashtirishi past ekanligini taxmin qilgan edik. Ammo statistik tadqiqot taxminimizni oqlamadi.

Xi-kvadratda baholangan yana bir topshiriqni va uning bajarilishini o'raganamiz.

**Topshiriq:** psixolog ikki guruhda ishtirokchilarning shaxsiy ijodiy potentsialini o'rgandi. Birinchi guruhda ishtirokchilar soni 79, ikkinchi guruhda ishtirokchilar soni 96 ishtirokchidan iborat edi. Psixologning taxminicha, guruhlarning empirik chastotasi bir-biridan farq qiladi.

**Bajarilishi:** qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni 10.6-jadvalda ifodalashdan oldin, mazkur holatda qo'llaniladigan xi kvadrat mezonining navbatdagagi formulasini namoyon etamiz.

$$(10.3.) \quad \chi^2_{emp} = \frac{NN}{n_1 n_2} \left( \sum_{i=1}^k \frac{f_1 * f_1}{f_1 + f_2} - \frac{n_1 n_1}{N} \right)$$

Bu yerda  $f_1$  birinchi taqsimot chastotasi,  $f_2$  ikkinchi taqsimot chastotasisidir. N esa, birinchi va ikkinchi tanlanma umumiy sinaluvchilari soni. Bizning holatimizda  $u, n_1 + n_2 = 96 + 79 = 175$  ni tashkil etadi.

Endi ma'lumotlarni formula asosida jadvalga joylashtiramiz.

### 10.6-Jadval

#### 10.3 formulasida ishlash jarayoni ( $N=175$ ).

Natijalar	chastotalar		$f_1 * f_1$	$f_1 + f_2$	$\frac{f_1 * f_1}{f_1 + f_2}$
	$f_1$	$f_2$			
18-39	0	1	0	1	0
40-54	4	8	16	12	1,33
55-69	13	18	169	31	5,45
70-84	12	20	144	32	4,5
85-99	17	21	289	38	7,6
100-114	20	16	400	36	11,11
115-129	8	7	64	15	4,2
130-142	4	5	16	9	1,7
143-162	1	0	1	1	1
Jami:	79	96			37,1

$H_0$  faraz: empirik taqsimotlar o'zaro bir-biridan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: empirik taqsimotlar o'zaro bir-biridan farq qildi.

Jadvalning 6-ustunidagi qiymat (37,1) (10.3) formulasining bir qismini bajarish orqali kelib chiqdi. Formulaning keyingi qismlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni formulaga kiritamiz,

$$\chi_{emp}^2 = \frac{175 * 175}{79 * 96} \left( 37,1 - \frac{79 * 79}{175} \right) = 5,80$$

Kritik hadlarni topish uchun erkinlik bosqichi formulasiga murojaat qilamiz,  $df=(k-1)*(c-1)=(9-1)*(2-1)=8$ , ya'ni  $k=9$  – ballar intervali soni,  $c=2$  – ustunlar soni.

Yana ilova 7-jadvaldan kerakli hadlarni topamiz, ular:

$$\chi_{kr}^2 \begin{cases} 15,51 & p \leq 0,05 \\ 20,09 & p \leq 0,01. \end{cases}$$

Empirik qiymatning  $\chi_{emp}^2 = 5,80$  kritik qiymatlardan kichik bo'lgani uchun statistik ahamiyatsiz deb topildi. Empirik taqsimot chastotasi o'zaro bir-biridan farq qilmasligini anglatuvchi  $H_0$  farazni qabul qilamiz. Tafovut mavjudligi to'g'risidagi  $H_1$  farazni rad etamiz.

## Bir tanlanma ichidagi ko'rsatkichlarni solishtirish uchun xi kvadrat mezonini qo'llash.

Shuningdek, xi-kvadrat mezonidan bir tanlanma ichidagi tafovut va o'xshashliklarni aniqlash uchun foydalilanadi. Ammo bu tanlanma miqdor jihatdan yetarli bo'lmog'i kerak. Mezon bilan ishlashning mazkur turida qiyosiy tahlilni amalga oshirish uchun, ko'rsatkichlar guruhlashtiriladi. Guruhlar ikki yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. Xi-kvadrat mezoning bu turi ikki yoki undan ortiq belgilar o'rtasida aloqadorlikni aniqlaydigan korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash amaliyotiga o'xshaydi. Bu ikki metodning farqi shundaki, korrelyatsiyani aniqlash uchun tanlanmaning barcha taqqoslanayotgan belgilarining qiymatlarini bilish zarur. Xi-kvadrat mezonida esa, ularning darajasini bilish kifoya. Xi-kvadrat mezonida tanlanma ko'rsatkichlarni taqqoslaganda nolinchi faraz quyidagicha izohlanadi: qiyoslanayotgan sifatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi. Korrelyatsion munosabatlar terminida esa, belgilar o'rtasida korrelyatsiya mavjud emas. Korrelyatsiya noldan farq qiladi deb yuritiladi.

Mezonda alternativ faraz quyidagicha ifodalanadi: sifatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Korrelyatsion munosabatlar terminida esa, sifatlar o'rtasidagi aloqadorlik noldan farq qiladi, deb izohlanadi. Xi kvadrat mezonida belgilar o'rtasidagi ta'sirchanlik o'rganilar ekan, ko'ptarmoqli jadvallardan foydalilanadi. Empirik ma'lumotlar bu jadvallarda 2 va undan ortiq xajmda beriladi. Mezonda xususiyatlar solishtirilar ekan, quyidagi formuladan foydalilanadi:

$$(10.4.) \quad \chi^2_{emp} = \sum_{i=1}^k \frac{d_i^2}{f_i}$$

Bu erda  $d_i^2$  – empirik chastotadan nazariy chastotaning ayirmasi;

$f_i$  – hisoblab topilgan, ya'ni gipotetik chastota,

$$(10.5). \quad \chi^2_{emp} = N \left( \sum_{i=1}^k \sum_{j=1}^m \frac{c_{ij}^2}{c_i c_j} - 1 \right)$$

Bu yerda  $k$  – ko'ptarmoqli jadval qatorlar soni;

$m$  – ko'ptarmoqli jadval ustunlar soni;

$N$  – ko'ptarmoqli jadvalning barcha elementlari soni, u hamisha  $N = k * m$  ko'paytmasiga teng bo'ladi;  $C_{ij}$  – jadval elementlari;  $C_i$  – ko'ptarmoqli jadval qatorlari soni;  $C_j$  – ko'ptarmoqli jadval ustunlari soni;

Xi kvadrat mezonining bu turiga doir misol keltiramiz («Ермолаев О.Ю., Математическая статистика для психологов» darsligidan olingan).

**Topshiriq:** intellekt darajasi professional yutuqqa ta'sir ko'rsatadimi?

**Bajarilishi:** 90 kishining kasbda erishgan yutuqlari va intellekt darajasi baholandi. Ikki xususiyat bo'yicha, natijalar «yuqori», «o'rta» va «quyi» darajalarga ajratildi. Professional yutuq natijalari bo'yicha 20 kishi yuqori, 40 kishi o'rta va 30 kishi past natija ko'rsatdi. Birinchi guruh 22,2% ni, ikkinchi guruh 44,4% ni va uchinchi guruh 33,3% ni tashkil etdi. Intellekt ko'rsatkichini aniqlashda esa, har bir guruhdan (o'rtachadan yuqori, o'rtacha va o'rtachadan past) 30 nafardan ishtirokchi ajratildi. Barcha empirik ma'lumotlar 10.7-birlashtirilgan jadvalda joylashtirildi.

#### 10.7-jadval

Intellekt ko'rsatkichi	Professional natijaning baholanishi			Jami:
	O'rtadan past	O'rta	O'rtadan yuqori	
O'rtachadan past	20 A (10) (13,3)	5 B (13,3)	5 C (6,7)	30
O'rta	5 D (10) (13,3)	15 E (13,3)	10 F (6,7)	30
O'rtadan yuqori	5 G (10)	20 H (13,3)	5 J	30
Jami:	30	40	20	90

Natijalarni interpritatsiya qilganda qulaylik tug'ilishi uchun har bir katak A, B, C, D va h.k. harflar bilan belgilangan. 10.7-jadval quyidagicha tuzilgan: A harfi bilan belgilangan katakchada empirik chastotalar berilgan. Boshqacha qilib aytganda, professional yutug'i va intellekti past darajada bo'lgan sinaluvchilar soni joylashgan katak. Bunday sinaluvchilar soni 20 nafarni tashkil etdi. B harfi bilan belgilangan katakda, o'rtachadan past intellekt va o'rtacha professional yutuqqa erishgan ishtirokchilar chastotasi yoki soni joylashtirildi. Ular soni 5 tani ko'rsatdi. C harfi bilan belgilangan katakda, bir vaqtning o'zida yuqori intellekt va past professional yutuq egalari soni joylashtirildi. Ularning empirik chastotasi ham 5 ni tashkil etdi. E'tibor bering, past intellekt ko'rsatkichi empirik chastotasi  $20+5+5=30$  ni

tashkil etadi. Ma'lumotlarni jadvalga joylashtirish tartibi shu yo'sinda olib borildi.

Har bir katakchada qavs ichida esa, aynan o'sha katakdagi empirik chastotaga gipotetik chastota berilgan. Gipotetik chastotalarni topish usuli esa quyidagicha amalga oshirildi. Jadvalning har bir katakchasiga chastotalar foizi belgilandi:

$$\frac{30}{90} * 100\% = 33,3\%$$

$$\frac{40}{90} * 100\% = 44,4\%$$

$$\frac{20}{90} * 100\% = 22,2\%$$

Olingen chastotalar qiymatlari jadvalning har bir qiymati uchun nazariy chastotalarni hisoblash imkonini beradi.

Ushbu holatga mos ravishda A katakchasi uchun teoretik chastota shunday topiladi, 30 kishi o'rtachadan past intellektga ega, shuning uchun ushbu sondan 33,3%i professional yutuqning past natijasini ko'rsatgan bo'lishi kerak. Demak, ushbu nazariy qiymatni quyidagicha topamiz:

$$\frac{30 - 33,3\%}{100\%} = 9,99 \approx 10$$

D katakcha uchun ham nazariy chastota shu yo'sinda topiladi.

$$\frac{30 - 33,3\%}{100\%} = 9,99 \approx 10$$

Chunki intellekt darajasi o'rtacha bo'lgan va professional yutuqning o'rtachadan past darajasini ko'rsatgan kishilar chastotasi 33,3% tashkil etishi kerak.

G katakchasi ham mantiqiy tarzda shunday hisoblanadi. Ya'ni o'rtachadan yuqori intellekt egalari professional yutuqning o'rtachadan past darajasida joylashgan bo'lishlari kerak.

$$\frac{30 - 33,3\%}{100\%} = 9,99 \approx 10$$

Endi esa, B katakchani gipotetik chastotasini ko'rib chiqamiz. 30 kishi intellektning past darajasini ko'rsatishdi. Shuning uchun ham 44,4 % kishi professional yutuq darajasining o'rtacha sohasiga tushishlari kerak. Nazariy qiymatni quyidagicha topamiz:

$$\frac{30 - 44,4\%}{100\%} = 9,9 = 13,3$$

E katakchasi uchun ham gipotetik chastota shu yo'sinda topiladi. O'rtacha intellekt darajasi ko'rsatkichida turgan 30 kishi, professional yutuqning o'rtacha 44,4% chastotasini ko'rsatishlari kerak.

$$\frac{30 - 44,4\%}{100\%} = 9,9 = 13,3$$

H katakchasi uchun ham xuddi shunday amal takrorlanadi. 30 nafar o'rtachadan yuqori intellekt egalari professional yutuqning 44,4 % gipotetik chastotasini o'rtacha darajasini namoyon etishlari kerak.

$$\frac{30 - 33,3\%}{100\%} = 9,99 \approx 10$$

Va nihoyat C katakchasi qanday hisoblanganini ko'rib chiqamiz. 30 kishi intellektning past darajasini ko'rsatganlar. Shuning uchun ham shu sondan 22,2% i professional yutuqning o'rtachadan yuqori darajasiga tushishi kerak. Gipotetik chastota quyidagicha hisoblanadi:

$$\frac{30 - 22,2\%}{100\%} = 9,9 = 6,7$$

Qolgan ikkita katakcha uchun nazariy chastota xuddi shu tartibda hisoblanadi.

Jadvalning barcha ustunlari uchun nazariy chastota to'g'ri hisoblanganini tekshiramiz:

$$10+10+10=30; 13,3+13,3+13,3 \approx 40; 6,7+6,7+6,7 \approx 20$$

(10.1) formulasini qo'llashimiz uchun barcha amallarni bajardik.

$$\chi^2_{emp} = \frac{(20 - 10)^2}{10} + \frac{(13,3 - 13,3)^2}{13,3} + \frac{(6,7 - 6,7)^2}{6,7} + \frac{(10 - 10)^2}{10} + \frac{(15 - 13,3)^2}{13,3} + \frac{(10 - 6,7)^2}{6,7} + \frac{(5 - 10)^2}{10} + \frac{(20 - 13,3)^2}{13,3} + \frac{(5 - 6,7)^2}{6,7} = 26,5$$

Ikki empirik kuzatuv sharoitida teoretik chastotaning to'g'ri topilganini tekshirish yoki bir tanlanma ichida ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$f_t =$$

(mos qator uchun chastota yig'indisi) \* (mos ustun uchun chastotalar summasi)

(kuzatuvning umumiy soni)

Ushbu formulada hisobimizni tekshiramiz:

$$f_t = A \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{30}{90} = 10,0$$

$$f_t = B \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{40}{90} = 13,3$$

$$f_t = C \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{20}{90}}{30} = 6,7$$

$$f_t = D \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{30}{90}}{30} = 10,0$$

$$f_t = E \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{40}{90}}{30} = 13,3$$

$$f_t = F \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{20}{90}}{30} = 6,7$$

$$f_t = G \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{30}{90}}{30} = 10,0$$

$$f_t = H \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{40}{90}}{30} = 13,3$$

$$f_t = J \text{ katakcha uchun } 30 * \frac{\frac{20}{90}}{30} = 6,7$$

Erkinlik bosqichi soni tanish formula asosida topiladi,

$$df = (k-1) * (c-1) = (3-1) * (3-1) = 4.$$

Bu yerda  $k$  – qatorlar soni;  $c$  – ustunlar soni bo‘lib hisoblanadi. Illova 7-jadvalidan 0,05 va 0,01 darajalar uchun kerakli hadlar topiladi.

$$\chi^2_{kr} = \begin{cases} 9,49 & p \leq 0,05 \\ 13,28 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Xi-kvadratning empirik qiymati ahamiyatlilik hududiga tushdi. Biz intellekt darajasi professional yutuqqa ta’sir ko‘rsatadi degan  $H_1$  farazni qabul qilamiz.

**Bajarilishi:** Olingan natijalarni (10.5) formulasi orqali tahlil qilish mumkin. Bu xi kvadrat o‘zaro ta’sirchanlikni aniqlashning ikkinchi usuli sanaladi.

$$\begin{aligned} \chi^2_{emp} &= 90 \left\{ \frac{1}{30} \left( \frac{20^2}{30} + \frac{5^2}{40} + \frac{5^2}{20} \right) + \frac{1}{30} \left( \frac{5^2}{30} + \frac{15^2}{40} + \frac{10^2}{20} \right) \right. \\ &\quad \left. + \frac{1}{30} \left( \frac{5^2}{30} + \frac{20^2}{40} + \frac{5^2}{20} \right) - 1 \right\} = 90 \left\{ \frac{1}{2} + \frac{13}{24} + \frac{1}{4} - 1 \right\} \\ &= 26,5 \end{aligned}$$

Kutganimizdek, xi-kvadratning mazkur formulasi orqali birinchi usuldagidek qiymat hosil bo‘ldi. Xi-kvadratning ikkala usuli ham bir xil natija bersa-da, 10.5 formula biroz murakkab va chalkash hisoblanadi. (10.5) formulasida xatoga yo‘l qo‘yish oson. Shuning uchun xi-kvadratning birinchi usulidan foydalanish afzal. Shuni qayd etamizki, birinchi va ikkinchi usullarda ko‘ptarmoqli jadvallarning katta xajmli o‘lchamidan foydalanish mumkin. Qiyoqlanadigan belgilari 3x4, 4x4, 5x3, 5x6 va h.k. bo‘lishi mumkin.

#### **10.4. Xi kvadrat nöparametrik mezoni bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.**

Xi kvadratni qo'llashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. O'ichov turli shkalalarda amalga oshirilishi mumkin.
2. Tanlanmalar tasodifiy va bog'liq bo'limgan bo'lishi kerak.
3. Tanlanma ko'lami  $n \geq 20$  bo'lishi maqsadga muvofiq, tanlanma ko'lami qancha katta bo'lsa, natijalar shuncha ishonchli bo'ladi.
4. Har bir tanlangan interval uchun teoretik chastota 5 dan kichik bo'lmasligi kerak.
5. Barcha intervallar bo'yicha kuzatuvlar yig'indisi umumiy kuzatuv soniga teng bo'lishi kerak.
6. Xi kvadratning kritik qiymatlar jadvali erkinlik bosqichi uchun ishlab chiqilgan va har safar erkinlik bosqichi turlicha topiladi (ko'ptarmoqli jadval qatorlari va ustunlari asosida).
  - erkinlik bosqichi raqami  $df=c-1$  asosida topiladi. c – bu yerda solishtirilayotgan o'zgaruvchilarning elementlari, alternativlari, belgilari va h.k. larni bildiradi.
  - jadvallar uchun erkinlik darajasi qiymati quyidagi formula yordamida topiladi:  $df=(k-1)*(c-1)$ , k – qatorlar soni, c – ustunlar sonini bildiradi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Xi-kvadrat mezoni qanday holatlarda qo'llaniladi?
2. Xi kvadratni qo'llaganda qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Teoretik chastota nima?
4. Xi kvadrat mezonida o'zgaruvchilar jadvalda ifodalangan bo'lsa, erkinlik bosqichi qanday topiladi?
5. Ikki tarmoqli jadvalda dastlab nechanchi qatorning teoretik chastotasi topiladi?
6. R kattaligi qanday qiymat?
7. Xi kvadratda o'zgaruvchilar qanday shkalada baholangan bo'lishi kerak?
8. Ko'ptarmoqli jadval nima?
9. Xi kvadrat mezonida o'zgaruvchilar belgilaringin ta'sirchanligini o'rGANISH metodi korrelyatsiya metodidan qanday farq qiladi?
10. Xi kvadratda tanlanma ichida qanchagacha belgililar o'zaro solishtirilishi mumkin?

11. Mezonda ahamiyatlilik aniq topilishi uchun tanlanma ishtirokchilari qancha bo'lishi maqsadga muvofiq?
12. 11.4. formulasidagi  $\bar{d}$  nimani bildiradi?
13. Xi kvadrat mezonida ma'lumotlarni tahlil qilish uchun statistik parametrlar aniqlanishi shartmi?
14. Xi kvadrat mezonida ikki empirik kuzatuv sharoitida teoretik chastotaning to'g'ri topilganini tekshirish yoki bir tanlanma ichida ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun qanday formuladan foydalanish mumkin?
15. Nima uchun xi kvadrat mezonida teoretik chastotalar qiymati (hatto ishtirokchilar soniga nisbatan ishlatsa ham) butun qilib olinmaydi.
16. 10.5. formulasidagi  $C_i C_j$  belgilarini nimani bildiradi.

**Keltirilgan ko'rsatkichlar qiymatini topishda keraklisini tanlang.**

Nº	Ta'rif	Nº	Atama
1	Umumiylar soni tanlanma hajmiga bo'linadi.	A	Erkinlik bosqichi
2	Qiymatini topish uchun tanlanmadan 1 ayiriladi.	B	O'tracha had
3	Tipik va notipik siljishlar hisoblanadi.	C	xi-kvadrat
4	Empirik chastotalar bilan nazariy chastotalar aloqadorligi hisoblanadi.	D	G-ishoratlar
Javob	1 –	2 –	3 –
			4 –

## **2 MODUL. PSIXOLOG MA'LUMOTLARNI KOMPYUTERDA QAYTA ISHLASH DASTURLARI**

### **11-mavzu. BIR OMILLI DISPERSION TAHLIL MEZONI.**

**Tayanch tushunchalar:** *ANOVA, dispersion tahlil, Fisher mezoni, F-nunisosabat, F-statistika, j-guruh, umumiy dispersiya, individual qiyamatlar kvadrati miqdori, individual qiyamatlar summasi kvadrati.*

#### **11.1. Bir omilli dispersion tahlildan foydalanish tamoyillari.**

Dispersion tahlilda barcha o'rganilayotgan o'zgaruvchilarni bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilarga (omillarga) va bog'liq bo'ligan o'zgaruvchilarga (natija ko'rsatgan belgililar) ajratishning ikki pritsipial usuli mavjud.

Birinchi usulda biz sinaluvchilarga ma'lum bir ta'sir o'tkazamiz yoki tashqi tomondan qandaydir noma'lum ta'sirlarni qayd etamiz va aynan ana shu ta'sirlarni bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilar yoki omillar deb ataymiz. O'rganilayotgan o'zgaruvchilarni esa bog'liq bo'ligan natijaviy o'zgarishlar deb sanaymiz. Misol uchun, sinaluvchilarning yoshi yoki ma'lum bir axborotni etkazish usuli omil bo'la oladi. Berilgan topshiriqlarni bajarish samaradorligi, sifati natijaviy o'zgaruvchilar deyish mumkin.

Ikkinchi usul tanqidga nozikroq sanaladi. Misol uchun, shaxsning ikki tilni egallaganligi omili uning intellekti darajasini belgilashi mumkin deb taxmin qildik. Ammo mazkur taxmin darrov ikki xil turdag'i e'tirozni keltirib chiqaradi. Bunga intellekt darajasiga qat'iy yo'naltirilgan sa'y harakatlar sabab bo'lishi mumkin. Intellekt darajasining yuqori ko'rsatkichi ichki boshqa omil ta'siridan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Shaxsning ikki tilda so'zlashishi uning intellektiga ta'sir etgan bo'lishi mumkin. Yoki buning teskarisi ham bo'lishi mumkin. Shaxsning yuqori intellekti ko'rsatkichi uning ona tilidan o'zga tilni o'zlashtirishiga sabab bo'ldimi, balki shaxsning ikki tilda so'zlashish qobiliyati uning intellektini oshirgandir. Bu yerda omilni aniqlash hamda o'zgaruvchilarning qaysi biri sabab va qaysi oqibat ekanligi muhim ahamiyatga ega. Har bir tadqiqotchi, o'zgaruvchilarning qay biri omil va natija ekanligini his qilishi muhim. Psixologik tadqiqotlarda bahs va munozalarning sababi ham aynan shunda.

Chet el olimlari dispersion tahlilini ANOVA metodi deb yuritishadi. Ya'ni variatsiyalar analizi (ing. Analyses of variance – dispersiyalar tahlili) deb nomlanadi. Dispersion tahlilda dispersiyalar tengligi hisoblari G.Shaffe (1980) tomonidan asoslangan edi.

**F-munosabat bahosi.** Dispersion tahlilga yo'naltirilgan metod Fisher mezoni yoki F-munosabat deb aytildi. Bu ko'rsatkich, variyatsiyaga asoslangan guruhiy dispersiyani o'rtachaga nisbatan qiyoslashga yo'naltirilgan. Biz 7-mavzuda guruhiy dispersiya va guruhlararo dispersiyani taqqoslash orqali dispersiyalar gomogenligini aniqlash amaliyotini o'rgangan edik. Ammo F-munosabatni hisoblash uchun guruhlararo va guruh ichidagi dispersiya qiymati to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmaydi. Balki tegishli kvadratlarning miqdorini hisoblash va ularning har bir variyatsiya manbaiga tegishli erkinlik bosqichining nisbatini baholashga asoslangan boshqa qiymatlar qo'llaniladi.

Bir omilli dispersion tahlil topshiriqlarini noparametrik mezonlarda samarali yechish mumkin. Kruskal-Uollis mezoni bunga yaxshi misol bo'la oladi. Ammo dispersion tahlilning noparametrik mezonlardan afzalligi shundaki, unda sinaluvchilar soni cheksiz bo'lishi mumkin.

Biz bog'liq bo'Imagan tanlanmalar uchun F-mezonni qo'llaymiz. 7-mavzuda o'rganganimiz kabi eksperimental natijalarimizning uch xil turdagi dispersiyasini topamiz.

Umumiy dispersiya, barcha eksperimental ma'lumotlarning bosh ko'pligidan hisoblanadi.

Guruh ichidagi dispersiya, har bir tanlanmada alohida belgining variativligi belgilanadi.

Guruhlararo dispersiya guruh o'rtachalarining variativligi ifodalanadi.

## 11.2. Bir omilli dispersion tahlil mezonini hisoblash jarayoni va formulalari.

Dispersion tahlilining asosiy g'oyasi bo'yicha umumiy dispersiya ( $S_t^2$ ) guruh ichidagi dispersiya ( $S_{wg}^2$ ) va guruhlararo dispersiya ( $S_{bg}^2$ ) summasiga teng bo'lishi kerak.

Ushbu holatni quyidagi tenglama tarzida ifodalaymiz:

$$(11.1.) \quad \frac{\sum(x_{ij}-\bar{x})^2}{N-1} = \frac{\sum(x_{ij}-\bar{x}_j)^2}{N-p} + \frac{\sum n_j(x_j-\bar{x})^2}{p-1}$$

Bu yerda  $x_{ij}$  – tadqiqotdan olingan barcha o'zgaruvchilar qiymati bo'lib, indeks  $j$  1 dan p gacha o'zgarishi mumkin. «p» esa

solishtirilayotgan tanlanmalar soni ular uch va undan ortiq bo'lishi mumkin.  $i$  - indeksi esa, tanlanmadagi elementlar soni bo'lib, ular ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin.

$\bar{x}$  - barcha tahlil qilinayotgan ma'lumotlarning umumiy o'rtachasi;

$\bar{x}_j$  -  $j$  tanlanma o'rtachasi;

$N$  - tanlanmadagi barcha elementlar soni;

$p$  - tadqiqot tanlanmalari soni.

Tenglamani izchil tahlil qilamiz. Aytaylik, bizda tanlanmalarning p guruhi mavjud. Dispersion tahlilda har bir tanlanma bitta sonlarning ustuni yoki qatori sifatida beriladi. Unda tanlanmaning aniq bir elementiga ishora qilish uchun  $j$  indeks kiritiladi. Tabiiyki bu indeks,

$j = 1$  dan to  $j = p$  ga qadar o'zgaradi. Agar bizda 5 ta tanlanma mavjud bo'lsa, unda  $p=5$  bo'ladi va indeks  $j = 1$  dan  $j = 5$  gacha o'zgaradi.

Agar bizning oldimizda biron tanlanmaning aniq elementini (qiymatini) ko'rsatish masalasi turgan bo'lsa, buning uchun biz, tanlanmaning raqamini bilishimiz kerak bo'ladi. Misol uchun, 4, hamda ushbu tanlanmada qiymatning joylashishini bilishimiz kerak. Ushbu element tanlanmaning birinchi qatoridan tortib oxirgi qatorigacha joylashishi mumkin. Deylik, bizga kerak bo'lган element beshinchini qatorda joylashgan bo'lsa, u holda unga ishora quyidagicha ifodalanadi:  $x_{5,4}$ , ya'ni to'rtinchi tanlanmaning beshinchini qatori tanlangan. Umuman olganda, har bir tanlanmada (guruhdagi) uning elementlari soni turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun  $j$  guruhdagi elementlarni  $n_j$  orqali ifodalaymiz. Tadqiqot natijasida  $j$  guruhi belgisining qiymatlarini  $x_{ij}$  deb belgilaymiz. Bu yerda  $i=1,2, \dots, n$ ,  $j$  guruhidagi kuzatuvlarning tartib raqami.

Keyingi izohlarni 11.1-jadvali elementlari asosida olib boramiz. Bu yerda tanlanmalar ustunda emas, balki qatorlarda joylashtiriladi.

Oxirgi yakuniy qatorda barcha kuzatuvlar N deb belgilanadi. Olingan barcha qiymatlar yig'indisi G deb va tanlanmalar o'rtachasi  $\bar{X}$  bilan belgilanadi.  $\bar{X}$  qiymati yuqorida ko'rsatilgan G qiymatlarining N qiymatiga bo'lingan sonidir.

O'ng tomondagi chekka ustunda esa, barcha tanlanmalardagi o'rtachalar keltirilgan. Misol uchun,  $j$  tanlanmada (barcha  $j$  tanlanma uchun) o'rtacha qiymati quyidagi:  $\bar{X}_j = \left\| \frac{1}{n_j} * \sum x_{ij} \right\|$

## Tanlanma elementlarini joylashtirish

Nº	Belgining qiymati	Har bir guruhdagi ishtirokchi soni	Tanlanmadagi elementlar miqdori	Tanlanma o'rtachalari
1	$x_{11}, x_{21}, \dots, x_{n11}$	$n_1$	$\sum x_{i1} = T_1$	$= \left\  \frac{1}{n_1} \right\  * \sum x_{i1}$
...	...	...	...	...
j	$x_{1j}, x_{2j}, \dots, x_{nj}$	$n_j$	$\sum x_{ij} = T_1$	$\bar{X}_j$ $= \left\  \frac{1}{n_j} \right\  * \sum x_{ij}$
...	...	...	...	...
p	$x_{1p}, x_{2p}, \dots, x_{np}$	$n_p$	$\sum x_{ip} = T_1$	$\bar{X}_p$ $= \left\  \frac{1}{n_p} \right\  * \sum x_{ip}$
Jami:		$N = \sum n_1$	$\sum \sum x_{ij} = G$	$\bar{X}$ $= \left\  \frac{1}{N} \right\  * \sum \sum x_{ij}$

Bir omilli dispersion tahlil uchun yuqorida ifodalangan tenglamaga binoan, ikki dispersiyani aniqlash zarur. Ular: guruh ichidagi dispersiya va guruhlararo dispersiya. Umumiy dispersiya esa, ularning yig'indisiga teng.

Guruhlararo dispersiya o'r ganilayotgan omilning ta'siri sifatida ko'rildi. Guruh ichidagi dispersiya esa, tasodifiy had sifatida e'tirof etildi.

Shuni qayd etish kerakki, dispersion tahlilda dastlab qilinadigan ish dispersiyalar tahlili emas, balki og'ishlar kvadrati hisoblanadi (dispersiyani topish formulasini eslang). Ular (11.1) formulaning barcha dispersion tahlillar suratida o'r'in olganligini ko'rishimiz mumkin. Formulaning oxirgi qismida dispersiyani topish uchun o'rtachadan og'ishlar kvadrati kerakli summaga bo'linadi.

(11.1) formulasini soddarоq ko'rinishga keltiramiz,

$$Q_0 = Q_1 + Q_2,$$

Bu yerda  $Q_0$  – og'ish kvadratlarining umumiy miqdori;

$Q_1$  – guruhiy o'rtachalardan og'ish kvadratining miqdori;

$Q_2$  – umumiy o'rtachadan guruhiy o'rtachalar og'ish kvadratining miqdori.

Endi bu ifodalarni hisoblash formulasi ko'rinishida namoyon etamiz:

$$Q_0 = \sum \sum (x_{ij} - \bar{x})^2;$$

$$Q_1 = \sum \sum (x_{ij} - \bar{x}_j)^2;$$

$$Q_2 = \sum n_j (x_j - \bar{x})^2.$$

Kerakli dispersiyalarni qo'lga kiritish uchun har biri uchun alohida erkinlik bosqichlarini topish zarur.

Erkinlik darajasi  $df_0$  – umumiy dispersiya uchun erkinlik bosqichi belgisi ( $N - 1$ ),  $df_1$  – guruh ichidagi dispersiya uchun erkinlik bosqichi belgisi ( $N - p$ ),  $df_2$  – guruhlararo dispersiya uchun erkinlik bosqichi soni ( $P - 1$ ). Unda  $df_0 = df_1 + df_2 = (N - p) + (P - 1) = (N - 1)$  ko'rinishida bo'ladi. Dispersiyalar hisobi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$(11.3) \quad S_{wg}^2 = \frac{Q_1}{N-p} \text{ va } S_{bg}^2 = \frac{Q_2}{p-1}$$

Guruhlararo dispersiya guruh ichidagi tarqalmani ifodalaydi (belgining tasodifiy variatsiyasi). Bu qiymat shuningdek, qoldiq dispersiya deb yuritiladi.

Kerakli empirik qiymat quyidagicha usulda topiladi:

$$(11.3) \quad F = \frac{S_{bg}^2}{S_{wg}^2}$$

Bunda guruhlararo dispersiya hamisha suratda joylashgan bo'ladi.

Jadval orqali kritik qiymatlari topiladi. Agar  $F_{\text{emp}} > F_{kr}$  bolsa, u holda alternativ faraz qabul qilinadi.

Dispersion tahlil murakkab formulasini soddalashtirish uchun bir omilli dispersion tahlil uchun maxsus jadval yaratilgan.

### 11.2-Jadval

#### Dispersion tahlil

Dispersiya xususiyati	Kvadratlar miqdori	Erkinlik darajasi soni	Dispersiya bahosi
Guruhlararo dispersiya	$Q_2 = \sum n_j (\bar{X}_j - \bar{X})$	$p-1$	$S_{bg}^2 = \frac{Q_2}{(p-1)}$

Guruhi ichidagi dispersiya	$Q_1 = \sum \sum (x_{ij} - \bar{X}_j)^2$	N-p	$S_{wg}^2 = \frac{Q_1}{(N-p)}$
Jami:	$Q_0 = \sum \sum (x_{ij} - \bar{X})^2$	N-1	

Yuqoridagi mos belgilarni qo'llagan holda, keyingi formulani shakllantiramiz.

$$(11.3). \quad Q_0 = \sum \sum x_{ij} - \frac{G^2}{N},$$

$$(11.4). \quad Q_1 = Q_0 - Q_2 \text{ bo'lgani uchun}$$

$$Q_1 = \sum \sum x_{ij}^2 - \sum \frac{T_j^2}{n_j}$$

$$(11.5). \quad Q_2 = \sum \frac{T_j^2}{n_j} - \frac{G^2}{N}$$

E'tibor bering, individual qiymatlar kvadrati summasi ( $\sum \sum x_{ij}^2$ ) va individual qiymatlar summasining kvadrati ( $\sum \sum x_{ij}$ )<sup>2</sup> bir xil kattalik hisobi emas.

**Topshiriq:** Uchta turli 10 kishidan iborat guruhlarda shaxs irodaviy potentsiali o'r ganilgan edi. Birinchi guruhda muntazam irodani rivojlan- tiruvchi treninglar olib borilgan. Ya'ni metodika sinaluvchilardan turli shart-sharoitlarda olingan. Psixolog, ta'sir etuvchi mashqlar natijasida talabalarda irodaviy ko'rsatkichlar yuqori chiqishi taxminini ilgari surdi. Ammo har bir tanlanma sinaluvchilari natijasidagi turli farqlar, ishga ta'luqli bo'limgan boshqa omillarga bog'liq. Bular nazorat qilinmay-digan omillar deb baholanadi.

**Bajarilishi:** Natijalarini ANOVAda tahlil qiladigan bo'lsak, u holda metodika natijalarini omillar darajaralari asosida qayta nomlaymiz. Ya'ni natijalarini dispersion tahliliga mos ravishda tayyorlaymiz.

### 11.3-Jadval

#### Talabalarning irodaviy potentsiali ko'rsatkichi

№	1 guruh	2 guruh	3 guruh
	Yuqori ko'rsatkich	O'rta ko'rsatkich	Past ko'rsatkich
1.	22	14	6
2.	27	17	7
3.	20	18	9
4.	21	20	6
5.	24	19	10

<b>6.</b>	<b>23</b>	<b>14</b>	<b>11</b>
<b>7.</b>	<b>19</b>	<b>23</b>	<b>12</b>
<b>8.</b>	<b>21</b>	<b>20</b>	<b>9</b>
<b>9.</b>	<b>23</b>	<b>14</b>	<b>8</b>
<b>10.</b>	<b>18</b>	<b>13</b>	<b>7</b>
<b>Jami:</b>	<b>218</b>	<b>172</b>	<b>85</b>
<b><math>\bar{X}</math> - ustunlar o'rtachasi</b>	<b>21,8</b>	<b>17,2</b>	<b>8,5</b>
$\sum x_i^2$ ustundagi har bir qiymat kvadrati summasi	<b>4814</b>	<b>3060</b>	<b>761</b>

F-mezonda quyidagi farazlarni tekshirish mumkin:

$H_0$  faraz: Irodaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlar har bir guruh ichidagi tasodifiy farqlardan ko'ra yorqin ifodalanmaydi.

$H_1$  faraz: Irodaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlar har bir guruh ichidagi tasodifiy farqlardan ko'ra yorqin ifodalanadi.

Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish uchun bir omilli dispersion tahlilda amallarni bajarish izchillik va aniqlikni talab qiladi.

Bog'liq bo'limgan tanlamalar uchun bir omilli dispersion tahlil metodida hisoblash amallarini bajarish quyidagi tartibda kechadi:

1. Har bir ustunga tegishli qiymatlar miqdorini hisoblaymiz va jadvalning tegishli katakchasiga joylashtiramiz.

2. Har bir ustunga tegishli qiymatlarning o'rtachasini topamiz va tegishli katakka joylashtiramiz.

3. Yuqorida G deb belgilangan ishoraning qiymatlarini topish uchun tadqiqot ma'lumotlarini hisoblaymiz.

$$G = 218 + 172 + 85 = 475.$$

Barcha eksperimental ma'lumotlarning miqdori kvadratini topamiz.

$$G^2 = 475 * 475 = 225625 \quad (\sum \sum x_{ij})^2$$

4. Olingan qiymatni tadqiqotning barcha elementlariga bo'lamiz.

$$\frac{225625}{(10 \times 3)} = 7520$$

Yuqoridagi 11.1-jadvalda  $\sum x^2$  usulü asosida qiyymat keltirilipdir. Bu qiyymat keyingi formulalarda qo'shilishi kerak.

5. Har bir ustun uchun miqdordi qiyymatning kvadratini summonishni topamiz.

$$218^2 + 172^2 + 88^2 = 47824 + 29584 + 7225 = 84333$$

6. Ushbu qiyymatni alibunda guruh ishlarekchitarai soniga bo'lamiz.

$$\frac{84333}{10} = 8433,3$$

Yuqorida  $\sum x^2$  deb belgilangan qiyymat hossil bo'ldi.

7. (11.5) formulasini qo'shish uchun barcha qiyymatga egamiz.

$$Q_1 = 8433,3 - 7520 = 913,3$$

8. 11.2-jadval asosida  $Q_2$  uchun erkinlik darajasini topamiz.

$$p-1=5-1=2$$

9.  $S_{bg}^2$  qiyymatini topish uchun  $\frac{Q_2}{2}$  amallini qo'shaymiz.

$$S_{bg}^2 = \frac{913,3}{2} = 456,65$$

10. Formulaning  $(\sum \sum x_i^2)$  qiyymiga ko'ra, tarib bilan barcha eksperimental qiyymatlarni kvadratiga oshiramiz va umumiy miqdorini topamiz:

$$+22^2 + 20^2 + 21^2 + 24^2 + 23^2 + 19^2 + 21^2 + 23^2 + 18^2 = 62144 + \dots + 36640 + 761 = 26335 \quad +27^2$$

11. (11.3) formulasiga ko'ra  $Q_1$  kattaligini topamiz.

$$8635 - 7520 = 1115.$$

12.  $Q_1 = Q_0 - Q_2$  kattaligini topamiz.

$$1115 - 913,3 = 201,7.$$

13. 11.2 jadvalidan  $Q_1$  uchun erkinlik berajchishini topamiz.

$$201,7 - 19 = 182,7.$$

14.  $S_{wg}^2 = \frac{Q_1}{(n-p)}$  qiyymatini topamiz.  $S_{wg}^2 = \frac{182,7}{7} = 26,1$ .

15. Fisher mezonini formulasini qo'shishimiz uchun barcha hadlar hisoblandi.


$$F_{emp} = \frac{s_{bg}^2}{s_{wg}^2} = \frac{456,65}{26,1} =$$

61,13

16. Fisher mezoni ilovaning 9-jadvalidan 27 va 2 erkinlik bosqichlari uchun kerakli kritik qiymatlarni topamiz.

$$F_{kr} = \begin{cases} 3,35 & p \leq 0,05 \\ 5,49 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Ahamiyatlilik o'qini shakllantiramiz,



### 11.3. Bir omilli dispersion tahlil bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Empirik qiymat ahamiyatlilik hududiga tushganligi uchun 0,01 darajada  $H_1$  ni qabul qilib,  $H_0$  rad etamiz. Ya'ni ta'sir etuvchi boshqariladigan omillar talabalarning shaxsiy irodaviy potentsiali ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Dispersion tahlil metodini, biron bir omilning toifalari va o'zgaruvchilari muayan ta'sirlar ostida o'zgaruvchilarni tadqiq qilishda qo'llash mumkin.

Dispersion tahlilni amalga oshirishning dastlabki jarayonida olingan ma'lumotlarni individual qiymatlar sifatida jadval ustunlariga joylashtiriladi. Har bir ustun u yoki bu o'zgaruvchi belgisini ifodalaydi.

Shundan so'ng har bir ustun qiymatlarining summasini topamiz va umumiyligi summani kvadratga oshiramiz.

Metodning mohiyati shundan iboratki, har bir kvadratga oshirilgan summa umumiyligi tadqiqot summasi kvadrati bilan solishtiriladi.

Dispersion tahlilda farazlar quyidagicha qo'yildi.

$H_0$  faraz: faktor omillari o'rtaqidagi tafovut har bir guruh ichidagi tasodifiy tafovutdan katta farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: faktor omillari o'rtaqidagi tafovut har bir guruh ichidagi tasodifiy tafovutdan katta farq qiladi.

Bog'liq bo'limgan tanlanmalarda dispersion tahlilni amalga oshirishning ba'zi cheklovleri mavjud:

1. Bir omilli dispersion tahlilda uchtadan kam bo'limgan omil gradatsiyalari va har bir tanlanmada ikkitadan kam bo'limgan ishtirokchilar kerak bo'ladi.

2. Dispersion majmuuning har bir katakchasi dispersiyalar teng bo'lishi kerak. Dispersiyalar tengligini bajarish uchun hisoblash sxemasida bajariladi.

3. Belgilar normal taqsimlangan bo'lishi kerak.

Odatda normal taqsimlanish butun tadqiq qilinayotgan tanlanmagami yoki dispersion majmua joylashgan qismga tegishli ekanligi ko'rsatilmaydi.

#### Nazorat savollari:

1. Dispersion tahlil metodlari uchun zaruriy talablarga nimalar kiradi?

2. Guruhlararo dispersiya guruh ichidagi dispersiyadan qanday farq qiladi?

3. Guruh ichidagi dispersiya uchun erkinlik darajasi qanday topiladi.

4. Dispersion tahlilning noperametrik analogiga qaysi mezon kiradi?

5. Individual qiymatlar kvadrati summasi belgili formulasi qanday belgilanadi.

6. Topilgan uch xil dispersiyalardan omilli dispersiya qaysi dispersiya snaladi?

7. Dispersion tahlilda dastlab o'rtachalar bilan qanday amallar bajariladi?

8. 11.2 dispersion tahlil jadvalidagi G ishorasi nimani anglatadi?

9. Qoldiqli dispersiya qanday dispersiya?

10.  $\bar{X}_j$  Mazkur belgi qanday ishora?

#### Keltirilgan ta'riflarni atamasi bilan juftlang

No	Ta'rif	No	Atama
1	guruh o'rtachalarining variativligi ifodalanadi	A	Guruhlararo dispersiya
2	barcha eksperimental ma'lumotlarning bosh ko'pligidan hisoblanadi.	B	Guruh ichidagi dispersiya
3	har bir tanlanmada alohida belgining variativligi belgilanadi.	C	Umumiy dispersiya
Javob	1 –	2 –	3 –

## 12-mavzu: KRUSKAL-UOLLIS MEZONI.

**Tyanch tushunchalar:** Kruskal-Uollis H mezoni, ranglashtirilgan guruh, ranglar summasi, individual qiymatlar,

Kruskal-Uollis mezoni bir vaqtning o'zida biron bir belgining darajasi bo'yicha uch, to'rt va h.k. tanlanmalar bilan ishlashga mo'ljallangan. Mezon, bir guruhdan boshqasiga o'tganda belgining darajasi o'zgarishini aniqlaydi. Ammo bu o'zgarishlar yo'nalishini aniqlamaydi.

### 12.1. Kruskal-Uollis mezonidan foydalanish tamoyillari.

Kruskal-Uollis mezoni, bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun dispersion tahlilning noperametrik analogi sifatida qaraladi. Ba'zan uni «ranglar yig'indisi» mezoni deb ham yuritadilar<sup>21</sup>. Mazkur mezon, U-mezonining ikkita taqqoslanadigan tanlanmaga ko'p mantiqiy davomi hisoblanadi.

Mezonda barcha individual qiymatlar, umumiy tartibda ranglashtiriladi. So'ngra barcha individual qiymatlar o'z tanlanmalarini tarkibida qaytariladi va ranglar yig'indisi tanlanma ichidan turib, alohida aniqlanadi. Agar tanlanma tafovutlari tasodifiy bo'lsa, u holda biz, ranglar yig'indisi orqali ahamiyatlari farq topa olmaymiz. Chunki eng past va eng yuqori ranglar tanlanmalararo tarqaladi. Agar, bir tanlanmada yuqori ranglar, boshqa tanlanmada past ranglar va uchinchi tanlanmada o'rta ranglar mavjud bo'lsa, Kruskal-Uollis mezoni yordamida bu farqlar aniqlanadi.

Kruskal-Uollis mezonida farazlar quyidagicha qo'yiladi:

$H_0$  faraz: o'rganilayotgan belgi darajasi bo'yicha 1,2,3 va h.k. tanlanmalarda tasodifiy farqlar mavjud.

$H_1$  faraz: o'rganilayotgan belgi darajasi bo'yicha 1,2,3 va h.k. tanlanmalarda tasodifiy bo'limgan farqlar mavjud.

Mezon bilan ishlashning ba'zi bir chekllovlar mavjud.

1 va 3 ta tanlanma qiyatlari solishtirilganda, biri  $n=3$  bo'lsa, qolgan ikkitasi  $n=2$  bo'lishi kerak. Ammo ishtiroychilar sonining bu qadar cheklanishi ahamiyatlilikning past ( $p \leq 0,05$ ) darajasidagina isbotlanadi.

<sup>21</sup> Е.В. Сидоренко Методы математической обработки. СПб. Речь. 1999 349 с (С. 56).

Empirik qiymat yuqori ahamiyatlilik darajasida ( $p \leq 0,01$ ) bo'lishi uchun ishtirokchilar soni har bir tanlanmada 3 ta yoki kamida bir tanlanmada 4 ta va boshqalarida 2 ta kuzatuv bo'lishi kerak.

2. Kruskal-Uollis mezonida kritik qiymatlarni topish uchun 1-ilova, jadval № 8 da fagaqt 3 ta tanlanma uchun mo'ljallangan qiymatlar keltirilgan. Agar tadqiqotda 3 tadan ortiq tanlanma solishtirilsa, u holda xi kvadrat mezoni kritik hadlar jadvalidan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki Kruskal-Uollis mezoni  $\chi^2$  ga maksimal yaqinlashgan.  $\chi^2$  jadvalidan foydalanganda, erkinlik darajasining  $df=c-1$  formulasidan foydalanish kerak. Bu yerda  $c$  – taqqoslanayotgan tanlanmalarini bildiradi. Kruskal-Uollis mezonida ishlangan tadqiqotlarni misol tariqasida keltiramiz va unda farazlarni tekshiramiz.

## 12.2. Kruskal-Uollis mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.

**Topshiriq:** psixolog uchta guruhda shaxs interaktiv yo'nalishi diagnostikasini o'tkazdi. Guruh, talabalar ( $n=4$ ), o'qituvchilar ( $n=5$ ) va hamshiralardan ( $n=5$ ) iborat edi. Ushbu mezonda misolini ko'rsatish uchun uchchala guruh ishtirokchilari qisqartirib olindi. Natijalarni quyidagi 12.1-jadvalda namoyon etamiz.

**Bajarilishi:** tadqiqotchini, guruhlarda ishtirokchilarning interaktiv yo'nalishida mavjud farq tasodifiy emasligi qiziqtiradi.

### 12.1-Jadval

#### Shaxs interaktiv diagnostikasi ko'rsatkichlari ( $N=14$ )

Nº	1 guruh ( $n=4$ )	2 guruh ( $n=5$ )	3 guruh ( $n=5$ )
1.	20	17	18
2.	19	19	24
3.	20	20	22
4.	23	23	20
5.		14	21
Jami:			

Ballardagi farqlarga asoslanib, farazlarni shakllantiramiz,

$H_0$  faraz: shaxs interaktiv diagnostikasi ko'rsatkichlari bo'yicha uchta guruhda tafovut mavjud emas.

$H_1$  faraz: shaxs interaktiv diagnostikasi ko'rsatkichlari bo'yicha uchta guruhda tafovut mavjud.

Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Kruskall-Uollis mezonini formulasiga yuzlanamiz.

$$(12.1.) \quad H = \left[ \frac{12}{N(N+1)} \sum \frac{T_i^2}{n} \right] - 3(N+1)$$

Bu yerda  $N$  barcha guruhlarning umumiyligi ishtirokchilar soni;  $n$  – har bir guruhdagi ishtirokchilar soni;  $T$  – har bir guruh uchun ranglar kvadrati.

(12.1) formulaga asosan, olingan natijalarni rangjirovka qilamiz. Ranjirovkaning barcha guruhlarning umumiyligi tarzda o'tkazamiz.

## 12.2-Jadval

**Ma'lumotlar rangjirovkasi ( $N=14$ ).**

No	1 guruh (n=4)	Rang	2 guruh (n=5)	Rang	3 guruh (n=5)	Rang
1	20	7,5	17	2	18	3
2	19	4,5	19	4,5	24	14
3	20	7,5	20	7,5	22	11
4	23	12,5	23	12,5	20	7,5
5			14	1	21	10
<b>Jami:</b>		<b>32</b>		<b>27,5</b>		<b>45,5</b>

Umumiyligi ranglar summasi  $\Sigma R = 32 + 27,5 + 45,5 = 105$  ga teng bo'lsa, ranjirovkaning to'g'ri amalga oshirilganini tekshiramiz:

$$R = \frac{14 * 15}{2} = 105$$

Demak, ranjirovka to'g'ri tartibda bajarilgan ekan. (12.1) formularsi asosida jadval qiymatlarni joylashtiramiz.

$$H_{emp} = \left[ \frac{12}{14 * 15} * \left( \frac{32^2}{4} + \frac{27,5^2}{5} + \frac{45,5^2}{5} \right) \right] - 3(14 + 1) = 1,93$$

Empirik qiyamat 1,93 ga teng. Keyingi ishimiz kritik qiyamatlarni topamiz. Tanlanma soni 3 ta bo'lgani uchun  $H$  mezonidan kritik qiyamat topiladi. Tanlamalar xajmi:  $n_1=4$ ,  $n_2=5$ ,  $n_3=5$  bo'lgani sababli 0,05 darajada kritik qiyamat uchun ilova, 8-jadvaldan kerakli hadlarni topamiz.

$$H_{kr} \begin{cases} 5,6 \text{ p} \leq 0,05 \\ 7,7 \text{ p} \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiyamatimiz ahamiyatsizlik hududiga tushganligi sababli,  $H_0$  farazni qabul qilib,  $H_1$  farazni rad etamiz. Ya'ni, shaxs interaktiv diagnostikasi ko'rsatkichlari bo'yicha uchta guruhda tafovut mavjud emas.

Kruskal-Uollis mezonida 4 guruh ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bog'liq yana bir misolni ko'rib chiqamiz.

**Topshiriq:** Shaharning turli xil to'rtta maktabi 9-sinfi o'quvchilar guruhida intellekt darajasini aniqlashga qaratilgan «Qisqa yo'naltirilgan» test o'tkazildi (V.N. Buzin, E.F. Vanderlik). Tadqiqotchini turli maktablardan bo'lgan 9-sinf o'quvchilarining intellektual darajasida farq mavjudligi qiziqtiradi. Tanlanma  $n_1=8$ ,  $n_2=6$ ,  $n_3=6$ ,  $n_4=7$  dan iborat. Umumiy ishtiroychilar soni N=27 ni tashkil qiladi.

### 12.3-Jadval.

**Ma'lumotlat tahlili (N=27).**

Nº	1 guruh n=8	2 guruh n=6	3 guruh n=6	4 guruh n=7
1.	22	16	19	17
2.	18	17	20	23
3.	24	18	21	24
4.	21	18	18	22
5.	17	23	19	21
6.	25	22	17	24
7.	19			19
8.	20			

Jadval qiymatlari asosida farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: Maktab o'quvchilarining intellekti ko'rsatkichida farq mavjud emas.  $H_1$  faraz: Maktab o'quvchilarining intellekti ko'rsatkichida farq mavjud.

Keyingi jarayonda natijalarni ranjirovka qilish uchun ularni alohida jadvalga kiritamiz. Ranglashtirish tartibini odatdagidan boshqacha amalga oshiramiz.

### 12.4-jadval.

**Ma'lumotlarni ranjirovka qilish**

Ballar	Rang	Ballar	Rang
16	1	20	14,5
17	3,5	20	14,5
17	3,5	21	17
17	3,5	21	17
17	3,5	21	17
18	7,5	22	20
18	7,5	22	20
18	7,5	22	20

18	7,5	23	22,5
19	11,5	23	22,5
19	11,5	24	25
19	11,5	24	25
19	11,5	24	25
<b>Jami:</b>		<b>91</b>	<b>25</b>
			<b>27</b>
			<b>287</b>

Jami ranglar summasi  $R = 91 + 287 = 378$ ,

Ranjirovka to'g'ri bajarilganini tekshiramiz:  $R = \frac{27 + 28}{2} = 378$

Demak, ranglashtirish to'g'ri bajarilgan. Natijalarni ranglari bilan birga 12.5-jadvalga joylashtiramiz.

### 12.5-jadval

Olingen ma'lumotlar tahlili ( $N=27$ )

No	1 guruh n=8	Rang	2 guruh n=6	Rang	3 guruh n=6	Rang	4 guruh n=7	Rang
1	22	20	16	1	19	11,5	17	3,5
2	18	7,5	17	3,5	20	14,5	23	22,5
3	24	25	18	7,5	21	17	24	25
4	21	17	18	7,5	18	7,5	22	20
5	17	3,5	23	22,5	19	11,5	21	17
6	25	27	22	20	17	3,5	24	25
7	19	11,5					19	11,5
8	20	14,5						
<b>Jami</b>	<b>126</b>		<b>62</b>		<b>65,5</b>		<b>124,5</b>	

Endi esa, empirik qiymatni topish uchun natijalarni formulaga joylashtirish mumkin.

$$H_{emp} = \left[ \frac{12}{27 * (27 + 1)} * \left( \frac{126^2}{8} + \frac{62^2}{6} + \frac{65,5^2}{6} + \frac{124,5^2}{7} \right) \right] - 3(27 + 1) = 4,16$$

### 12.3. Kruskal-Uollis mezoni bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Biz yuqorida Kruskal-Uollis mezonining kritik hadlar jadvali faqat uchta guruh uchun mo'ljallanganini aytib o'tgan edik. Agar guruhlar

soni 3 dan oshsa, u holda  $\chi^2$  jadvali ilovasidan foydalanishimiz mumkin. Bu uchun erkinlik bosqichini topamiz. Ustunlar soni to'rtga teng bo'lgani uchun,

$$df = c - 1 = 4 - 1 = 3.$$

Endi esa, ilovaning 7-jadvalidan erkinlik darajasi 3 uchun kritik hadlarni topamiz.

$$\chi_{kr}^2 = \begin{cases} 7,815 & r \leq 0,05 \\ 11,345 & r \leq 0,01 \end{cases}$$

$$H_{emp} = 4,16, H_{emp} < \chi_{kr}^2$$

Javob:  $H_1$  farazi rad etiladi. Ya'ni Maktab o'quvchilarining intellekti ko'rsatkichida farq mayjud emas.

**H mezonini qo'llash uchun quyidagi talablarga rioya qilish kerak:**

1. O'Ichov intervallar, tartib va nisbatlar shkalasida amalga Ishgan bo'lishi mumkin.
2. Tanlanmalar bog'liq bo'limgan bo'lishi kerak.
3. Qiyoslanadigan tanlanmalar turli hajmda bo'lishi mumkin.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Qaysi holatda Kruskal-Uollis mezonidan foydalaniladi?
2. Kruskal-Uollis mezonida farazlar qanday qo'yiladi?
3. Qiyoslanayotgan guruhlar soni 3 dan ziyod bo'lsa, kritik qiymatlar qaysi usulda topiladi?
4. 11.1 formulasi, ya'ni H mezonida «T» nimani anglatadi?
5. Kruskal – Uollis mezonida tadqiqot natijalari alohida ranglashtiriladimi?
6. Qiymatlar umumiy ranglashtirilgandan keyin jadvalga qaytartibda joylashtiriladi?
7. Kruskal-Uollis mezonida kritik qiymat erkinlik bosqichi yordamida topiladimi yoki ishtirokchilar soni asosida topiladimi?

**Berilgan mezonlarni ta'riflari bo'yicha ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.**

- 1) dispersion tahlilga yo'naltirilgan; 2) erkinlik bosqichining nisbatini baholaydi; 3) ta'sir etuvchi omillarni baholaydi; 4) siljish darajasining intensivligini baholaydi; 5) absolyut qiymatlarni ranjirlanadi; 6) dispersiyani o'rtachaga nisbatan qiyoslashga yo'naltirilgan; 7) kvadratlar miqdorini hisoblash.

<b>Belgilar turi</b>	<b>Javob raqamlar</b>
Fisher mezoni	
Vilkokson mezoni	

## **13-Mavzu: KORRELATSION T AHLIL MEZONLARI. PIRSON KORRELYATSIYA MEZONI**

**Tayanch tushunchalar:** *argument, kovariatsiya, korrelyatsion o'zgarishlar, korrelyatsion aloqadorlik, korrelyatsiya koefitsenti, regressiya tenglamasi, Pirson korrelyatsiyasi, chiziqli korrelyatsiya, chiziqli bo'limgan korrelyatsiya, teskari korrelyatsiya, to'g'ri proporsional aloqadorlik, teskari proporsional aloqadorlik, ijobjiy korrelyatsiya, o'zgaruvchi qiymatlar, funksional bog'liqlik, funksional o'zgaruvchilar, erkin bo'limgan o'zgaruvchilar.*

### **13.1. Parametrik va noperametrik ma'lumotlarning korrelyatsion tahlil metodlari.**

Psixologik fanlarda eng ko'p olib boriladigan tadqiqot sohalaridan biri bu – korrelyatsion tahlillardir. Bunda bir necha o'zgaruvchilar o'rtaida mantiqiy aloqadorlik mavjudligini isbotlovchi mezonlar beriladi. Mezonlar tanlanmalar, ko'pliklar xarakteristikasiga qarab tanlanadi. Bir yoki bir necha o'rganilayotgan guruhlarda o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini tahlil qilish korrelyatsion tahlil deyiladi. Misol uchun, ma'lum bir guruhda bezovtalik ko'rsatkichlari yuqori chiqqan bo'lsa, o'ziga ishonch ko'rsatkichlari past darajada bo'lishi mumkin. Aytaylik, tadqiqotchi bir guruh maktab o'quvchilarda intellekt darajasini o'rgandi. Psixolog o'quvchilarning intellekti ularning ijtimoiy faoliyatiga yoki biron bir fanni o'zlashdirishiga ta'sir etishini aniqlamoqchi bo'lsa, korrelyatsion tahlil o'tkazadi.

Matematikada o'zgaruvchi kattaliklar o'rtaida bog'liqliknii baholash uchun F funktsiya tushunchasi qo'llaniladi. F funktsiyasi erkin X o'zgaruvchining har bir aniq qiymatiga mustaqil bo'limgan Y aniq qiymatlarini mosligini aniqlaydi. Olingan bog'liqlik Y – F(X) deb belgilanadi. Bu yerda X – argument bo'lib, Y esa, F(X) funktsiyasining unga mos keladigan qiymatidir. Y – X o'zgaruvchi qiymatlari o'rtaqidagi bu singari aniq bog'liqlik funksional bog'liqlik deyiladi.

Agar atrofni kuzatsak, barcha tabiiy voqe-a-xodisalar, holatlar o'zaro bog'liqlik printsipiiga amal qiladi. Misol uchun, kishining bo'y়i qancha baland bo'lsa, uning vazni shuncha ko'p bo'lishi mayor sanaladi. Yoki professional katta natijalarga erishgan kishilarning aqliy ko'rsatkichlari yoki o'ziga bergen baholari shuncha yuqori darajada bo'ladi. Biroq

ba'zi hollarda nomutanosibliklarga ko'zimiz tushadi. Bu psixologiya hamda tadqiqot ob'ekti inson va uning muhit bo'lgan fanlar uchun mujmal xodisalardan biridir. Tashqi va ichki ta'sir etuvchi omillar – ijtimoiy muhit, genetika, biologik, fiziologik, ekologik omillar bo'lishi mumkin. Korrelyatsion bog'liqlik bir xususiyatning o'zgarishi boshqa,unga bevosita bog'liq xususiyatlarning o'zgarishini taxmin qiladi.

O'zaro bog'liq xususiyatlar biri argument, boshqasi bog'liq o'zgaruvchi bo'ladi. Misol uchun, yuqori xavotir darajasi funktsiya (argument deb ham yuritish mumkin) yoki bog'liq o'zgaruvchi bo'lishi mumkin. Agar xavotir darajasi funktsiya bo'lsa, holda uning natijasida shaxsning o'z-o'ziga beradigan past bahosi bog'liq o'zgaruvchi bo'ladi. Yoinki erkin bo'lмаган o'zgaruvchi bo'lsa, u holda, yuqori xavotir darajasi shaxsning o'z-o'ziga bergen past bahosining natijasi bo'ladi. Har ikkala holatda ham, agar ular o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik kuzatilsa, birining o'zgarishi ikkinchisining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

O'zgaruvchilarning funktsional bog'liqligini guruhiy hamda yakka tartibdagi ob'ektlarda aniqlash va o'rganish murakkab emas. Biroq, bu operatsiyani korrelyatsion tahlillarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Korrelyatsiyani tanlanmalarning matematik-statistik tahlillar orqali qayta ishlashlar yordamida amalga oshirish mumkin. Korrelyatsion bog'liqlik – bu ehtimolliy o'zgarishlardir. Korrelyatsion aloqadorlik yoki korrelyatsion bog'liqlik sinonim sifatida ishlataladi.

Shuning bilan birga o'zgaruvchi xususiyatlarning o'zaro o'zgarishi bu ularning aloqadorligi natijasida emas, balki ikkala belgi psixolog tadqiqot jarayonida e'tiborga olmagan va ko'zda tutmagan uchinchi belgiga aloqadorlik evaziga o'zgarishi mumkin. Bog'liqlik bu, ta'sir ma'nosini ko'zda tutadi. Kelishilgan o'zgarishlar bir emas, balki bir necha yuzlab sabablarning natijasi bo'lishi mumkin. Korrelyatsion bog'liqlik sabab-oqibat natijalari sifatida ko'rilmaydi. Balki bu bog'liqlik ikkala yoki bir necha o'zgaruvechilar amal qiladigan noma'lum umumiylab asosida o'zgaradigan holatdir. Psixologiyada bir o'zgaruvchi xususiyatning sababi aniq bir o'zgaruvchi ekanligi yoki o'zgarishning sababi noaniq tashqi belgi ekanligi isbotlanmagan.

O'rganilgan belgilarni o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rinishlari turliche bo'lishi mumkin. Chunki o'zgarishlar bir tartibda amalga oshmay, balki chiziqli korrelyatsiya, chiziqli bo'lмаган korrelyatsiya, ijobjiy korrelyatsiya, teskari korrelyatsiyalarga bo'linadi. Korrelyatsiyaning chiziqli

bo'lishi, bir X o'zgaruvchining pasayishi yoki ortishi bilan ikkinchi Y o'zgaruvchi qiymatlari o'rtacha hisobda pasayishi yoki ortishiga bog'liq.

Chiziqli bo'limgan korrelyatsiya, bir qiymatning ortishi bilan ikkinchi qiymatning o'zgarish xarakteri chiziqli bo'lmay, boshqa qonuniyat asosida belgilanishiga bog'liq. X qiymatlarining o'sishida Y qiymatlarining o'rtacha hisobda o'sishi aniqlanganda korrelyatsiya ijobji deyiladi.

Teskari korrelyatsiya deb, X qiymatlarining o'sishi bilan o'rtacha hisobda Y qiymatlarining pasayish tendentsiyasi kuzatilganda aytildi. Bulardan tashqari o'zgaruvchilar o'rtasida biron-bir bog'liqlik kuzatilmasligi ehtimoli ham mavjud. Bu holatda korrelyatsion bog'liqlik mavjud emasligi qayd etiladi.

Korrelyatsion tahlil vazifalaridan biri o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik yo'nalishini (ijobjiy yoki teskari) va shakllarini (chiziqli va chiziqli bo'limgan) aniqlaydi. Shuningdek variatsiyalashgan belgilar o'rtasidagi zinchlikni o'rganadi. Va nihoyat olingen korrelyatsiya koefitsientining statistik ahamiyatini belgilaydi.

X va Y korrelyatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlikni matematikadagi tenglamalar va formulalar (tahliliy jihatdan), grafik usulda izohlash mumkin.

Korrelyatsion bog'liqlik grafikasini quyidagicha funktsiyalar tenglama bo'yicha belgilash mumkin:

$$\bar{Y}=F(X); \quad \bar{X}=F(Y)$$

Bu tenglama regressiya tenglamasi deb aytildi. Bu yerda  $\bar{Y}$  va  $\bar{X}$  lar X va Y o'zgaruvchilarning shartli o'rtacha arifmetik qiymatdir. X va Y o'zgaruvchilari turli shkalalarda baholanishi mumkin. Bu baholanish tegishli korrelyatsiya koefitsienti tanlanishini belgilaydi.

### 13.2. Pirson korrelyatsiya mezonidan foydalanish tamoyillari.

Korrelyatsiya termini mashhur ingliz tabiiy fanlar olimi K. Pirsonning ustozи F. Galton tomonidan 1886 yilda fanga kiritilgan edi. Korrelyatsiya – (ing. «co» – o'zaro, «relation» - bog'liqlik) o'zaro aloqadorlik degan ma'noni bildiradi. Ammo korrelyatsiyani to'g'ri amalga oshirish uchun hisob formulasini K. Pirson ishlab chiqdi.

Korrelyatsiya tahlillarini o'rganishni Pirson korrelyatsiya tahlilidan boshlaymiz. Koefitsentning o'zi X va Y bilan belgilanadigan xususiyatlar o'rtasidagi faqat chiziqli bog'liqlik mavjudligini aniqlaydi.

Agar o'zgaruvchilar o'rtasida chiziqli bog'liqlik kuzatilsa, unda Pirson korrelyatsiya koefitsientida bu bog'liqlikning zichligi aniqlanadi. Shuning uchun bu koefitsent Pirsonning chiziqli korrelyatsiyasi deb ataladi. Agar X va Y qiymatlari o'rtasida chiziqli korrelyatsiya kuzatilmagan taqdirda, Pirson ushu bog'liqlikning zichligini aniqlaydigan korrelyatsion munosabatlar metodini taklif qilgan. Pirson mezonida korrelatsion tahlil parametrik ma'lumotlar uchun qo'llaniladi.

Pirson chiziqli korrelyatsiyasi +1 dan oshmasligi kerak. Ammo 1 dan past bo'lishi mumkin. Bu ikki qiymat +1 dan -1 gacha korrelyatsiya koefitsenti uchun chegara hisoblanadi. Agar hisoblash natijasida natida +1 dan yuqori va -1 dan past chiqsa, u holda hisoblash jarayonida xatolikka yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Agar korrelyatsiya koefitsenti +1 ga yaqin qiymat bo'lsa, unda belgililar o'rtasida kuchli bog'liqlik borligi tasdiqlanadi. Shuning uchun o'zgaruvchi qiymat korrelyatsiyasida o'z-o'zidan korrelyatsiya koefitsenti qiymati +1 ga teng bo'ladi. Bunday aloqadorlik proportsional bog'liqlikn xarakterlaydi. Agarda X qiymati oshib borish tartibi asosida joylashgan bo'lsa-yu, Y ostida belgilangan o'zgaruvchilar qiymati kamayib borish tamoyiliga amal qilsa, unda o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik -1 ga teng bo'ladi. Korrelyatsiya koefitsentining bunday qiymati teskari proportsional bog'liqlikn ifodalaydi. Quyidagi 13.1-jadvalda korrelyatsiyalari qiymatlari va ularning sharhi keltirilgan.

### 13.1-jadval

#### Korrelyatsiya xususiyatlari

Qiymat	Sharhanishi
0,2 gacha	Juda zaif korrelyatsiya
0,5 gacha	Zaif korrelyatsiya
0,7 gacha	O'rtacha korrelyatsiya
0,9 gacha	Kuchli korrelyatsiya
0,9 dan yuqori	Juda kuchli korrelyatsiya

Korrelyatsiya koefitsentining ishorasi olingan bog'liqlikn sharlashda juda muhim. Yana bir marta eslatib o'tamiz, agar chiziqli korrelyatsiya koefitsentining qiymati «+» bo'lsa, unda korrelyatsionayotgan belgilarning birida oshish tendentsiyasi ikkinchi belgining (boshqa o'zgaruvchining) oshishini mos keladi. Boshqacha qilib ayt-

ganda, bir belgining oshishi mos ravishda ikkinchi belgining oshishiga olib keladi. Bu mutanosiblik to'g'ri proportional bog'liqlik deb aytildi.

Mabodo, korrelyatsion tahlil natijasida bir o'zgaruvchining qiymati «» ishorasini bersa, ya'ni bir o'zgaruvchi qiymatlarining oshishi ikkinchi o'zgaruvchi qiymatlarining pasayishi orqali kuzatilsa, bunday aloqadorlik teskari proportional bog'liqlik deyiladi. Bunga quyidagicha misol keltiramiz. Aytaylik, 17-18 yoshli yoshlarda ichki nazorat ko'rsatkichi yuqori chiqsa, tadqiq qilingan ikkinchi xususiyat – shaxsning antisotsial hulq-atvori ko'rsatkichlari past chiqadi. Demak, ichki nazorat ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lgan sari shaxsning antisotsial hulq ko'rinishlari kamayib boradi. Bunda ikki o'zgaruvchilarning biriga oshib boruvchi o'zgaruvchi deb nom berilish tartibi ixtiyoriy sanaladi. Bu X o'zgaruvchi bo'lishi bilan birga Y o'zgaruvchi bo'lishi ham mumkin. Agar tadqiqotchi, X o'zgaruvchi oshishini qayd etsa, tabiiy ravishda Y o'zgaruvchi kamayib borish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Bu qoidalarni korrelyatsion tahlillarni to'g'ri sharhlash uchun o'zlashtirish niyoyatda muhim. Korrelyatsiya koefitsienti hisobi quyidagi formula asosida baholanadi:

$$(13.1) \quad r_{xy} = \frac{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2} \sqrt{\sum_{j=1}^m (Y_j - \bar{Y})^2}}$$

$X_1 - X$  o'zgaruvchilari qiymatlari;  $Y_1 - Y$  o'zgaruvchilari qiymatlari;  
 $\bar{X}$  - X o'zgaruvchilari o'rtachasi;  $\bar{Y}$  - Y o'zgaruvchilari o'rtachasi.

Pirson korrelyatsiyasi hisobi bo'yicha X va Y o'zgaruvchilari normal taqsimlangan bo'lishi kerak. Pirson korrelyatsiya formulasida hisoblash jarayonida har bir X o'zgaruvchining x qiymatidan o'rtachani ayirish lozim bo'ladi. Bu jarayon noqulaylik tug'dirgani uchun, formulaning boshqa variantini qo'llash mumkin:

$$(13.2) \quad r_{xy} = \frac{\sum(x_i y_i) - \frac{\sum x_i \sum y_i}{n}}{\sqrt{s_x s_y}}$$

$$s_x = \sum x^2 - \frac{\sum (x_i)^2}{n}$$

$$s_y = \sum y^2 - \frac{(\sum y_i)^2}{n}$$

$$(13.3) \quad r_{xy} = \frac{n \cdot \sum(x_i y_i) - (\sum x_i)(\sum y_i)}{\sqrt{(n \cdot \sum x_i^2 - (\sum x_i)^2) \cdot (n \cdot \sum y_i^2 - (\sum y_i)^2)}}$$

(13.2) va (13.3) formulasiga ko'ra, har bir o'zgaruvchi summasini, har bir o'zgaruvchi kvadrati summasini va o'zgaruvchilarning bir-biriga ko'paytirish jarayonini hisoblab chiqish zarur. Shuni qayd etish kerakki, kvadratlar summasi – summa kvadratiga teng emas.

### 13.3. Pirson korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.

**Topshiriq:** 25 kishidan iborat talabalar guruhida «Noverbal pertseptiv kompetentlik diagnostikasi» va «Tolerantlik indeksi diagnostikasi» olindi. Psixolog, tadqiqot mohiyatiga ko'ra, kishining tolerantligi va noverbal pertseptsiyasi o'zaro bog'liq xususiyatdir degan taxminni qo'ya oladimi? **Bajarilishi:** Olingan qiymatlarni 13.2-jadvalga joylashtiramiz.

#### 13.2 jadval

#### Noverbal pertseptiv xususiyatlar va tolerantlik ko'rsatkichi

N <sub>o</sub>	Noverbal perseptsiya (X)	Tolerantlik (Y)	X*Y	X*X	Y*Y
1	10	25	250	100	625
2	28	85	2380	784	7225
3	22	60	1320	484	3600
4	30	83	2490	900	6889
5	10	22	220	100	484
6	22	70	1540	484	4900
7	21	80	1680	441	6400
8	28	90	2520	784	8100
9	22	93	2046	484	8649
10	7	30	210	49	900
11	16	43	688	256	1849
12	6	30	180	36	900
13	10	43	430	100	1849
14	28	80	2240	784	6400
15	14	90	1260	196	8100
16	22	77	1694	484	5929
17	14	65	910	196	4225
18	12	71	852	144	5041
19	25	70	1750	625	4900
20	10	62	620	100	3844
21	10	70	700	100	4900
22	12	77	924	144	5929
23	15	68	1020	225	4624
24	20	80	1600	400	6400
25	22	99	2178	484	9801
$\Sigma$	436	1663	31702	8884	122463

O'zgaruvchilar qiymatlari orasidagi bog'liqlikka asoslanib, statistik farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: Noverbal-pertseptiv kompetentlik va tolerantlik o'ttasida korrelyatsion aloqadorlik mavjud emas.

$H_1$  faraz: Noverbal-pertseptiv kompetentlik va tolerantlik o'ttasida korrelyatsion aloqadorlik mavjud.

X o'zgaruvchilar ustuniga noverbal-pertseptiv kompetentlik ko'rsatkichlari va Y o'zgaruvchilar ustuniga toleranlik ko'rsatkichlarini joylashtirdik. Korrelyatsiya koeffitsentining empirik qiymatini topish uchun (13.3) formulasini qo'llaymiz.

$$r_{emp} = \frac{25*31702 - 436*1663}{\sqrt{(25*8884 - 436*436)*(25*122463 - 1663*1663)}} = 0,69$$

Ilovaning 10-jadvali orqali Pirson korrelyatsiya koeffitsentining kritik hadlarini topamiz. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, Pirson korrelyatsiya mezoni uchun kritik hadlar absolyut qiymatlar ko'rinishida berilgan. 13.2; 13.3 formulalari orqali topilgan musbat ishorali ijobjiy korrelyatsiya uchun ham mansiy ishorali teskari korrelyatsiya uchun ham kritik hadlar mazkur ilova jadvalida ishoralarsiz beriladi. Ishoralar esa keyin X va Y orasidagi mutanosiblikni sharhlash davomida qo'yiladi.

Pirson korrelyatsiya koeffitsentining hisoblab topilgan  $r_{xyemp}$  qiymati uchun kritik hadlarni topish jarayonida erkinlik bosqichi quyidagicha topiladi:  $k=n-2$ . Bizning holatizda,  $n=25$  bo'lgani uchun,  $25-2=23$ , 23 soni uchun ilovadan topilgan kritik hadlar:

$$r_{kr} = \begin{cases} 0,39 & p \leq 0,05 \\ 0,50 & p \leq 0,01 \end{cases}$$



### 13.4. Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Empirik qiymat ahamiyatlilik o'qiga tushganligi sababli biz,  $H_1$  faraz: Noverbal-pertseptiv kompetentlik va tolerantlik o'ttasida kor-

relyatsion aloqadorlik mayjudligini tasdiqlovchi  $H_1$  farazni qabul qilib,  $H_0$  farazni rad etamiz. Ya’ni shaxsda o’zgalarni noverbal hatti-harakatini anglash qobiliyati oshgan sari uning tolerantligi ko’rsatkichlari ortib borar ekan.

Pirson korrelyatsiya koeffitsentini qo’llash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish darkor:

1. Qiyoslanadigan o’zgaruvchilar intervallar shkalasida yoki nisbatlar shkalasida bahaolangan bo’lishi kerak.
2. X va Y taqsimotlari normal taqsimotga yaqin bo’lishi kerak.
3. Qiyoslanadigan X va Y o’zgaruvchilarda variatsiyalangan belgilari soni teng bo’lishi kerak.
4. Pirson korrelyatsiya koeffitsentida baholanishi mo’ljallangan tanlanma ishtirokchilari  $n=5$  dan tortib,  $n=1000$  bo’lishi mumkin.
5. Ahamiyatlilik darajasi bahosi ilova jadvalidan  $k=n-2$  ga teng bo’lgan erkinlik bosqichi asosida topiladi.

#### Nazorat savollari:

1. Korrelyatsiya so’zi nimani anglatadi?
2. Dastlabki korrelyatsion tahlillar kim tomonidan olib borilgan?
3. Teskari korelyatsiya nimani ifodalaydi?
4. Ijobiy korrelyatsiya nima?
5. Qiyoslanayotgan o’zgaruvchilar o’rtasida korrelyatsiya mavjudligini anglatuvchi qiymatlarni aytинг.
6. Pirson korrelyatsiya koeffitsenti hisobi 13.3 formulasida  $\sum x_i^2 - (\sum x_i)^2$  belgilari o’rtasida qanday farq bor?
7. Pirson korrelyatsiya koeffitsentida kritik hadlar erkinlik bosqichining qanday amalida topiladi?
8. Chiziqli korrelyatsiya deb qanday korrelyatsion bog’liqlikka aytildi?
9. Agar korrelyatsion tahlilda empirik qiymat 1 dan yuqori bo’lgan qiymat chiqsa, bu nimani anglatadi?
10. Kovariatsiya qanday formula yordamida topiladi?
11. Pirson korrelyatsiyasida qiyoslanayotgan o’zgaruvchilar qaysi shkalalarda bahaolangan bo’lishi kerak?
12. Pirson korrelyatsiya koeffitsentining 13.2 formulasidagi  $S_x$  va  $S_y$  qanday usulda topiladi?
13. Pirson korrelyatsiya koeffitsentida X va Y taqsimotlari normal taqsimlangan bo’lishi shartmi?

**Korrelyatsion tahlilning ta’riflari ifodalangan:**  $Y F(X)$  bo‘liqlik (A), Chiziqli korrelyatsiya (B), ijobiy korrelyatsiya (C), teskari korrelyatsiya (D) belgilarni aniqlang va jadvalning “javob” qismiga yozing.

1. X ning oshishi Y oshishi	9. funktsional bog‘liqlik
2. manfiy ishorali qiymat	10. proprotsional bog‘liqlik
3. X ning o’sishi Y pasayishi	11. X ning pasayishi Y ortishi
4. kvadratlar summasi	12. argument va unga mos keladigan qiymati.
5. teskari proprotsional bog‘liqlik	13. +1 dan oshmaydi
6. summa kvadrati	14. musbat ishorali qiymat

## 14-Mavzu: SPIRMAN KORRELYATSIYASI MEZONI.

**Tayanch tushunchalar:** *Spirman ranglar korrelyatsiyasi, guruhiy qiymatlar ierarxiyasi, individual qiyatlar ierarxiyasi, individual va guruhiy qirralar, individual qiyofa,*

### 14.1. Spirman korrelyatsiyasi haqida umumiy tushuncha.

Noparametrik ma'lumotlar uchun Spirman ranglar korrelyatsiyasi ikki belgi yoki ikki belgining ierarxiyasi o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikning kuchini va yo'nalishini aniqlaydi.

Ranglar korrelyatsiyasini hisoblash uchun ranglashtirib bo'ladi dan ikki qator qiyatlarga ega bo'lish kerak. Bu singari qatorlarga quyidagi belgilarni kiradi:

1. Aynan bitta sinaluvchilar guruhda baholangan ikki xil kuzatuvalr;
2. Ikki xil guruhlarda o'rganilgan aynan bir xil belgilarni, kuzatuvalr;
3. Belgilarning ikki guruhiy ierarxiyasi;
4. Belgilarning alohida va guruhiy ierarxiyalari;

Siprmen korrelyatsiya tahvilini bajarish uchun dastlab, har bir belgi bo'yicha ko'rsatkichlar ranjirovka qilinadi. Tartibga ko'ra, kichkina qiyatga kichik rang beriladi.

Birinchi holatni o'rganib chiqamiz (ikki belgi). Bunda birinchi belgi bo'yicha turli sinaluvchilardan olingan individual qiyatlar ranjirovka qilinadi. Shundan so'ng ikkinchi belgi bo'yicha individual qiyatlar ranjirovka qilinadi. Agar ikki belgi ijobjiy bog'langan bo'lsa, bir belgi bo'yicha unda past rang olgan sinaluvchilar, ikkinchi belgi bo'yicha ham past rang oладилар. Shuningdek, bir belgi bo'yicha yuqori rang olgan sinaluvchilar boshqa belgi bo'yicha ham yuqori rang oладилар. Ranjirovka hisobi  $r_s$  yoki  $r_n$  hisoblash uchun ikki belgi bo'yicha olingan ranglarni ( $d$ ) ayirmasini hisoblaymiz. So'ngra  $d$  ko'rsatkichlari aniq bir usul bo'yicha o'zgartiriladi va 1 dan ayiriladi. Ranglar o'rtasidagi farq qancha kichik bo'lsa,  $r_s$  ning qiymati shuncha katta bo'ladi va shuncha +1 ga yaqinlashadi. Agar belgilarni o'rtasida korrelyatsiya bo'lmasa, unda ranglar aralashib ketadi va ular o'rtasida hech qanaqangi mutanosiblik kuzatilmaydi. Spirman korrelyatsiya mezoni formulasi shunday tuzilganki, bunday holatda  $r_s = 0$  qiyatga yaqin bo'ladi.

Agar korrelyatsiya salbiy bo'lsa, yuir belgi bo'yicha past ranglarga ikkinchi belgining yuqori ranglari mos keladi. Yoki aksincha bo'ladi.

Ranglar o'ttasida nomutanosiblik qanchalik kor'palishiga, ya'qin bo'lgaga shuncha yaqin bo'ladi.

Birinehi holatda farazlar quyidagiicha shakllantiriladi:

$H_0$  faraz: A va B o'zgaruvchilari o'ttasidagi korrelyatsiyasi nullus farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: A va B o'zgaruvchilari o'ttasidagi korrelyatsiyasi nullus ishonchli farq qiladi.

Ikkinci holatni ko'rib chiqamiz (ikki individual qisqa). Bu yerda har ikki sinaluvchidan olingen muayyan bir belgilari to'plami shakllantiriladi uchun ham bir xil bo'yicha individual qiymatlar ranglashtiriladi. Birinchi rang eng kichik qiymat bilan belgilanadi. Ikkinci rang nisbatan yuqori qiymat bilan belgilanadi. Misol uchun, Keneuning 16 omilli so'rvonomasi ko'rsatkichlarini ranglashtirish shakllantiriladi. Chunki har bir omil asosida turli xil qiymatlar olinadi: 0 dan 13 gacha, 0 dan 20 gacha, 0 dan 26 gacha. Biz barcha qiymatlarni yagona shakllaga keltirmagunimizcha ularning qaysi biri birinchi o'rinda turganimi aniqlay olmaymiz.

Agar ikki sinaluvchining individual ierarxiyasi ijobjiy bog'lungan bo'lsa, u holda ulardan biri past rang olgan belgi bo'yicha ikkinchi sinaluvchi ham o'sha belgi bo'yicha past rang oladi. Misol uchun, agar bir sinaluvchida E (dominantlik) omili bo'yicha past rang kuzatilgan bo'lsa, unda ikkinchi sinaluvchida ham u past rang ko'rsaigan bo'lishi kerak. Agar bir sinaluvchida emotsionallik omili bo'yicha yugor rang kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi sinaluvchida ham shu omil bo'yicha yugor rang kuzatiladi.

Uchinchi holatni o'rganamiz (ikki guruh qirrasi). Bu yerda ikki sinaluvchilar guruhidan aniq bir xil belgi asosida olingen o'racha qiymatlar ranglashtiriladi. Keyingi jarayonlari oldindi ikki holatdagi singari amalga oshadi.

Individual va guruhiy qirralar bo'yicha to'rtinchli holatni o'rganamiz. Bu yerda sinaluvchining individual qiymatlari va o'sha belgi to'plami bo'yicha o'racha guruhiy o'rachalar alohida ranglashtiriladi. Bu yerda guruhda olingen qiymatlarni sinaluvchining ishlivskisi amalga oshadi. Ya'ni sinaluvchi qirrasi guruh o'rachasi qirrasida ishlivsk etmaydi. Ranglar korrelyatsiyasi bir necha guruhiy va individual qirralarning bir-biriga mosligini o'rpanishga loqon beradi.

Ikkinci, uchinchi va to'rtinchli holatda faraz quyidagiicha qo'shiladi:

$H_0$  faraz: A va B ierarxiyalari o'rtasidagi korrelyatsiya noldan farq qilmaydi.


$H_1$  faraz: A va B ierarxiyalari o'rtasidagi korrelyatsiya noldan ishonchli farq qiladi.

Barcha to'rt holatda ham korrelyatsion aloqadorlik N ranglar miqdoriga bog'liq. Birinchi holatda bu miqdor n tanlanma ko'lamiga teng bo'ladi. Ikkinci holatda kuzatuvlar soni ierarxiya tashkil etuvchi belgilar soniga teng bo'ladi. Uchinchi va to'rtinchi holatlarda N sinaluvchilar soni emas solishtirilayotgan belgilar sonidir.

Agar «p» absolyut qiymati kritik hadlarga teng bo'lsa, yoki undan oshib ketsa, korrelyatsiya ishonchli sanaladi.

#### 14.2. Spirmen korrelyatsiyasi mezonidan foydalanish tamoyillari.

Ranglar korrelyatsiyasining grafik ko'rinishini 14.1 rasmida ifodalangan. Agar (a) rasmdagidek, ikki vertikal chiziq o'rtasidagi gorizontal chiziqlar to'g'ri bo'lsa, korrelyatsiya mayjudligini bildiradi. B rasmdagidek chiziqlar tartibsiz joylashgan bo'lsa, bu korrelyatsiya mavjud emasligini izohlaydi. C rasmdagidek, qatorlar o'rtasidagi chiziqlar nishablikka yo'naltirilgan bo'lsa, bu teskari korrelyatsiyani anglatadi.



14.1-rasm. Ranglar korrelyatsiyasining grafik ko'rinishi.

a) kuchli ijobiy korrelyatsiya, ( $p_s=+1$ ); b) nolinchi korrelyatsiya; c) yuqori teskari korrelyatsiya, ( $p=-1$ ).

Spirman ranglar korrelyatsiyasi koefitsenti formulasi quyidagicha:

$$(14.1). \quad p = 1 - \frac{6 \sum(d^2)}{n(n^2-1)}$$

Bu yerda  $n$  – ranjirlanagan belgilar (o'zgaruvchilar, sinaluvchilar)

$d$  – har bir ishtirokchi uchun ikki o'zgaruvchi ranglarining ayirmasi;

$\sum(d)^2$  – ranglar ayirmasi kvadratining miqdori.

### 14.3. Spirmen korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.

Formulani qo'llash uchun quyidagi misolga yuzlanamiz.

**Topshiriq:** psixologiya yo'nalishi talabalarining «Psixologiyada miqdoriy tahlil metodlari» fanidan olgan ballari va ularning mantiqiy tafakkuri aloqadorligi o'rGANildi. Mantiqiy tafakkur darajasini aniqlashga qaratilgan metodika natijalari va mazkur fandan olgan ballari tahlil qilindi. Psixolog, talabalarning «Psixologiyada miqdoriy tahlil metodlari» fanidan o'zlashtirish darajasi ularning mantiqiy tafakkuri darajasiga bog'liqligini taxmin qila oladimi?

**Bajarilishi:** natijalarni 14.1-jadvalga joylashtiramiz,

#### 14.1-jadval

**Talabalar fandan olgan ballari va mantiqiy tafakkur ko'rsatkichlari**

n=12

Nº	Ballar ko'rsatkichi (X)	Metod natijalari (Y)
1.	73	12
2.	64	14
3.	80	20
4.	62	8
5.	70	16
6.	79	20
7.	57	10
8.	60	6
9.	71	6
10.	67	12
11.	72	14
12.	79	18
Jami:	<b>834</b>	<b>156</b>
O'rtachalar:	<b>69,5</b>	<b>13</b>

Ko'rsatkichlarni ranjirovka qilishdan oldin farazlarni shakllantiramiz:

H<sub>0</sub> faraz: Talabalar «Psixologiyada miqdoriy tahlil metodlari» fanidan olgan ballari va mantiqiy tafakkur ko'rsatkichi o'rtasidagi korrelyatsiya noldan farq qilmaydi.

H<sub>1</sub> faraz: Talabalar «Psixologiyada miqdoriy tahlil metodlari» fanidan olgan ballari va mantiqiy tafakkur ko'rsatkichi o'rtasidagi korrelyatsiya noldan ishonchli farq qiladi.

Keyingi bosqichda ko'rsatkichlarni ranjirlaymiz. Buning uchun 14.2-jadval ustunlariga talabalarning olgan ballari va natijalarini kiritamiz. Eslatib o'tamiz, katta qiymatlar qarshisiga kichkina ranglar beriladi.

Ko'rsatkichlar va ranglar ustunidan tashqari 14.2-jadvalida ranglar ayirmasi ( $d$ ) ustuni beriladi. Jadvalning oxirgi ustunida ranglar ayirmasi kvadrati keltiriladi  $d^2$ .

#### 14.2-jadval

**Talabalar fandan olgan ballari va mantiqiy tafakkur  
ko'rsatkichlarini Spirmen korrelyatsiya koeffitsentida  $d^2$  ni  
hisoblash uchun solishtirish**

No Sinaluvchilar	A guruuh	Rang	B guruuh	Rang	d (RA-RB)	$d^2$
1	73	9	12	5,5	3,5	12,25
2	64	4	14	7,5	-3,5	12,25
3	80	12	20	11,5	0,5	0,25
4	62	3	8	3	0	0
5	70	6	16	9	-3	9
6	79	10,5	20	11,5	-1	1
7	57	1	10	4	-3	9
8	60	2	6	1,5	0,5	0,25
9	71	7	6	1,5	5,5	30,25
10	67	5	12	5,5	-0,5	0,25
11	72	8	14	7,5	0,5	0,25
12	79	10,5	18	10	0,5	0,25
<b>jami:</b>		<b>78</b>		<b>78</b>	<b>0</b>	<b>75</b>


$p_s$  uchun empirik qiymatni topamiz:

$$p = 1 - \frac{6 * 75}{12(12^2 - 1)} = 1 - \frac{450}{1716} = 0,73$$

Empirik qiymat +1 ga yaqinlashdi. Ilovanining 11-jadvalidan kritik qiymatlarni topamiz. Spirmen mezonida kritik qiymatlarni N=12 orqali, ya'ni ishtiroychilar soni asosida topamiz.

$$p_{kr} = \begin{cases} 0,68 & p \leq 0,05 \\ 0,73 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymat 0,01 darajada ahamiyatlilik hududiga tushdi.  
Natijani ahamiyatlilik o'qida namoyon etamiz.



Talabalarning fanni o'zlashtirish ballari va mantiqiy tafakkuri o'rtaida noldan farqli korrelyatsiya mavjudligini anglatuvchi  $H_1$  farazni 1% da qabul qilamiz va  $H_0$  farazni rad etamiz.

Spirman korrelyatsiya mezonida natijalarni tahlil qilish uchun quyidagi talablarga rioya qilamiz:

1. Har bir o'zgaruvchida 5 nafardan kam bo'limgan ishtirokchi bo'lishi kerak. Tanlanmaning yuqori chegarasi jadvalning kritik qiymatlari bilan izohlanadi. Yuqori chegara 40 tadan ko'p bo'lishi mumkin.

2. Spirman ranglar korrelyatsiyasida bir xil ranglarning ko'payib ketishi empirik qiymat kattalashib ketishiga olib keladi. Natija samarali bo'lishi uchun taqqoslanadigan ranglar turlicha bo'lishi kerak. Bunday holda bir xil ranglash tartibini o'zgartirgan ma'qul. Buning uchun quyidagi formulaga murojaat qilish mumkin:

$$(14.2). \quad T_a = \frac{\sum(a^3 - a)}{12}$$

$$T_b = \frac{\sum(b^3 - b)}{12}$$

Bu yerda  $a - A$  ranglar qatoridagi bir xil ranglar guruhi xajmi;

$b - B$  ranglar qatoridagi bir xil ranglar guruhi xajmi.

Agar qatorda bir xil ranglar guruhi bo'lsa, u holda Spirmen korrelyatsiya mezonining quyidagi modifikatsiyalangan varianti qo'llaniladi:

$$(14.3) \quad p = 1 - \frac{6\sum(d^2) + T_a + T_b}{n(n^2 - 1)}$$

14.3 formulasining qo'llanilishiga misol keltiramiz.

**Topshiriq:** individual qirralar o'rtaida korrelyatsiyani tahlil qilish uchun quyidagi misoga yuzlanamiz.

Ona va qizning Rokich metodikasi bo'yicha olingan hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi o'rtaida korrelyatsion bog'liqlikni tekshiramiz (Sidorenko E.V, misolidan ba'zi modifikatsiyalar bilan olingan).

**Bajarilishi:** korrelyatsion bog'liqlikning statistik ahamiyatini tekshirish uchun 14.3-jadvalga ma'lumotlarni joylashtiramiz.

**14.3-jadval.**

Hayotiy qadriyatlar	Ona qadriyatlarining rangi (A)	Qizi qadriyatlari rangi (B)	d	$d^2$
1. Faol harakatli hayot	15,5	15	0,5	0,25
2. Hayotiy donishmandlik	1	3	-2	4
3. Sog'lik	7	14	-7	49
4. Qiziqarli ish	8	11	-3	9
5. Go'zal tabiat va san'at	15,5	17	-1,5	2,25
6. Sevgi	11	11	0	0
7. Boy hayot	12	13	-1	1
8. Sodiq do'stlar	9	11	-2	4
9. Jamiyat e'tirofi	17	5	12	144
10. Bilim	5	1,5	3,5	12,25
11. Samarali hayot	2	1,5	0,5	0,25
12. Rivojlanish	6	8	-2	4
13. Hordiq	18	18	0	0
14. Erkinlik	4	6	-2	4
15. Baxtli oila	13	4	9	81
16. O'zgalar baxti	14	16	-2	4
17. Ijod	10	9	1	1
18. O'ziga ishonch	3	7	-4	16
Jami:	171	171	0	336

Farazlarni shakllantiramiz:

$H_0$  faraz: onaning hayotiy qadriyatlari va qizining hayotiy qadriyatlari o'rtasida korrelyatsiya noldan farq qilmaydi.

$H_1$  faraz: onaning hayotiy qadriyatlari va qizining hayotiy qadriyatlari o'rtasida korrelyatsiya noldan statistik ahamiyatli farq qiladi.

#### 14.4. Spirman korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.

Natijalarda bir xil ranglar bo'lgani uchun 14.3 formulasini qo'llaymiz. Birinchi A qatorda rangdirlangan bir guruhdan iborat. Uning tarkibida ikkita 15,5 dan rangjirovka qilingan. Demak, bir xil ranglar guruhida ikkita element mavjud. Demak,  $a=2$  ga teng.

$$T_a = \frac{(2^3 - 2)}{12} = 0,50$$

B guruhda esa, ikkita bir hil rangli guruhlar mavjud. Birinchisi bilim va samarali hayot  $b_1=2$ ; ikkinchi guruhda uchta qadriyat bir xil o'rinda turibdi. Ular qiziqarli ish, sodiq do'stlar va sevgi – 11 qiymatga ega. Demak,  $b_2=3$ .

$$T_b = \frac{(2^3 - 2) + (3^3 - 3)}{12} = 2,5$$
$$p_{emp} = 1 - \frac{6 \sum(d^2) + T_a + T_b}{n(n^2 - 1)}$$

Bu yerda  $n$  tanlanma elementlari sonini bildiradi. Bizning misolimizda esa, 18 ta qadriyat soni – belgilar soni deb belgilanadi.

$$p = 1 - \frac{6 * 336 + 0,50 + 2,5}{18(18^2 - 1)} = 1 - \frac{2019}{5814} = 0,34$$

Kritik qymatlarni 1-ilova jadval № 11 dan topainiz,

$$p_{kr} = \begin{cases} 0,47 & p \leq 0,05 \\ 0,60 & p \leq 0,01 \end{cases}$$

Empirik qiymat ahamiyatsizlik hududiga tushdi. Chunki  $p_{kr} > p_{emp}$  empirik qiymat kritik qymatlardan kichik qiymatga ega. Ya'ni  $H_0$  faraz qabul qilinib,  $H_1$  faraz rad etiladi. Ona va qizning hayotiy qadriyatlarida korrelyatsiya noldan farq qilmaydi.

#### Nazorat savollari:

1. Spirmen ranglar korrelyatsiyasida nechta holatni tahlil qilishga qaratilgan.
2. Qatorda bir hil ranjirlangan qiymatlar uchrasa, empirik qiymat kattalashib ketmaslik uchun qaysi formuladan foydalaniladi?
3. Individual va guruhiy qirralar o'rtasida korrelyatsion bog'liqliknini tahlil qilishda farazlar qanday qo'yiladi?
4. Spirmen korrelyatsiya koefitsentining kritik hadlari qanday topiladi?

5. Spirmen mezonda tanlanma elementlari xajmi qanday bo'ladi?
6. O'zgaruvchilar o'rtasida teskari korrelyatsiya bo'lsa, ularning bog'liqlik xarakteristikasini ifodalang.

**Konseptual jadval**

Solishtirish belgilari	Pirson korrelyatsiyasi	Spirman korrelyatsiyasi
Aloqadorlik		
Farazlar qo'yilishi		
Xulosa chiqarish		

## 15-mavzu: REGRESSION TAHLIL MEZONI.

**Tayanch tushunchalar:** Asimptotik taqsimot, determinatsiya koeffitsenti, prediktorlar, regressiya tenglamasi, regressiya modeli, regression chiziq, regression tahlil mezoni,

### 15.1. Regression tahlil mezoni haqida umumiy tushuncha.

O'zgaruvchi kattaliklar o'rtasidagi bog'liqlikni turli usullar bilan tahlil qilish mumkin. Oldingi mavzularda mazkur bog'liqliklarni korrelyatsiya koeffitsentlarining turli hil ko'rinishlari (chiziqli va chiziqli bo'limgan korrelyatsiya) va yo'nalishlari (ijobiy va teskari korrelyatsiya) orqali aniqlash yo'llarini ko'rib chiqqan edik. Shuningdek, bu bog'liqlikni boshqacha yo'l bilan aniqlash mumkin. Misol uchun, X argument va (kattalik) Y funktsiya o'rtasidagi bog'liqlik sifatida izohlash mumkin.

Mazkur vaziyatda vazifa  $Y=F(X)$  ko'rinishidagi bog'liqlikni yoki aksincha  $X=F(Y)$  ni aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunda bir yoki bir necha argumentlarning o'zgarishi bilan funktsianing o'zgarishi regressiya deb aytildi.


### 15.2. Regression tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari.

Regressiya tenglamalarining grafik ko'rinishi regressiya chiziqlari deb aytildi. Regressiya chiziqlari, bog'liq bo'lgan Y o'zgaruvchisi bo'ylab erkin X o'zgaruvechisini eng qulay usulda namoyon etadi. Ushbu bog'liq bo'limgan o'zgaruvechilar ko'plab bo'lishi mumkin va ular prediktorlar deb aytildi.

Regressiyani ikki regressiya tenglamasi orqali aniqlash mumkin:

$$(15.1). \quad Y=a_0+a_1*X, \quad (15.2). \quad X=b_0+b_1*Y$$

15.1 formulasidagi  $Y$  – bog'liq o'zgaruvchi,  $X$  – mustaqil o'zgaruvchi,  $a_0$  – erkin a'zo,  $a_1$  – regressiya koeffitsenti yoki koordinatsiya o'qlariga nisbatan regressiya chizig'ining egilishini aniqlaydigan burchak koeffitsenti. 15.2 formulasidagi  $X$  – bog'liq o'zgaruvchi,  $Y$  – mustaqil o'zgaruvchi;  $b_0$  – erkin a'zo,  $b_1$  – regressiya koeffitsenti yoki koordinatsiya o'qlariga nisbatan regressiya chizig'ining egilishini aniqlaydigan burchak koeffitsenti.



**15.1-rasm.** To'rtburchak tizimida Y ning X ga va X ning Y ga nisbatan regressiya chiziqlari.

Regressiya chiziqlari  $0 (\bar{x}, \bar{y})$  nuqtasida bir-biri bilan o'zaro korrelyatsion bog'langan X va Y o'zgaruvchilarning tegishli o'rtacha qiymatlari koordinatalari bilan kesishadi.  $0$  nuqtadan o'tuvechi AV chizig'i X va Y o'zgaruvchi kattaliklar orasidagi funktsional bog'liqlikka, X va Y o'rtasidagi korrelyatsiya koefitsenti  $r_{xy} = 1$  ga teng bo'lган taqdirda mos keladi. X va Y o'rtasida aloqadorlik qanchalik kuchli bo'lsa, regressiyaning ikkala chizig'i ham AV chizig'iga yaqin bo'lishi kuzatiladi. X va Y o'rtasida korrelyatsiya zaif bo'lsa, unda regressiya chiziqlari AV chizig'idan og'ishadi. Agar X va Y o'rtasida korrelyatsiya bo'lmasa, regressiya ikkala chiziqlari bir-biriga nisbatan to'g'ri burchak osti bo'ladi. Bu holda  $r_{xy} = 0$  ga teng bo'ladi.

X va Y (Y va X) orasidagi miqdoriy bog'lanish regression tahlil deb ataladi. Regression tahlilning asosiy vazifasi  $a_0, b_0; a_1, b_1$  koefitsentlarini topishdan hamda X Y o'zgaruvchilarini bog'laydigan 15.1, 15.2 formulasi orqali olingan tahliliy qiymatlarning ahamiyatlilik darajasini topishdan iboratdir.

$a_1$  va  $b_1$  regressiya koefitsenti, bir o'zgaruvchi qiymati o'zgarishi bilan o'rtacha hisobda ikkinchi o'zgaruvchi qiymati o'zgarishini

ko'rsatadi. 15.1 tenglamadagi regressiya koeffitsentini quyidagi formula asosida aniqlasa bo'ladi:

$$(15.3) \quad a1 = r_{xy} \frac{S_y}{S_x}$$

b koeffitsenti tenglamasi esa, quyidagi formula asosida topiladi,

$$(15.4) \quad b1 = r_{yx} \frac{S_x}{S_y}$$

Bu yerda  $r_{xy} = X$  va  $Y$  o'zgaruvchilarning korrelyatsiya koeffitsenti;  $S_x$  -  $X$  o'zgaruvchilari uchun hisoblangan o'rtacha og'ish qiymati;  $S_y$  -  $Y$  o'zgaruvchilari uchun hisoblangan o'rtacha og'ish qiymati.

Regressiya koeffitsentini shuningdek, o'rtakvadratik hisobni amalga oshirmsandan turib quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$(15.5). \quad a1 = r_{xy} \sqrt{\frac{\sum(y_1 - \bar{y})^2}{\sum(x_1 - \bar{x})^2}}$$

$$(15.6). \quad b1 = r_{xy} \sqrt{\frac{\sum(x_1 - \bar{x})^2}{\sum(y_1 - \bar{y})^2}}$$

Maboda tahlilda korrelyatsiya koeffitsenti aniq bo'lmasa, u holda regressiya koeffitsentini quyidagi formula yordamida topish mumkin:

$$(15.7). \quad a1 = \sqrt{\frac{\sum(x_1 - \bar{x})(y_1 - \bar{y})}{\sum(x_1 - \bar{x})^2}}$$

$$(15.8). \quad b1 = \sqrt{\frac{\sum(x_1 - \bar{x})(y_1 - \bar{y})}{\sum(y_1 - \bar{y})^2}}$$

(13.1) formulasini (15.7), (15.8) formulalarini bilan solishtirib, formulalar hisobida bir xil kattalik  $\sum(x_1 - \bar{x})(y_1 - \bar{y})$  mavjudligini guvohi bo'lamiz. Bu holat  $a1$ ,  $b1$  va  $r_{xy}$  bir-biri bilan bog'liqligini bildiradi. Shuningdek,  $a1$ ,  $b1$  qiymatlariiga ega bo'lib turib,  $r_{xy}$  qiymatini oson qo'lga kiritish mumkin.

$$(15.9). \quad r_{xy} = \sqrt{a1 * b1}$$

(15.9) formulasida ishlash oson. Chunki (15.3) formulasi yordamida topilgan  $a1$  koeffitsentini (15.4) formulasi yordamida topilgan  $b1$  koeffitsentiga ko'paytirib, quyidagi qo'rinishdagi formulaga ega bo'lamiz:

$$r_{xy} * \frac{S_y}{S_x} * r_{yx} * \frac{S_x}{S_y} = r_{xy} * r_{xy}$$

(15.9) formularsi juda muhim, chunki u,  $a1$   $b1$  regressiya koeffitsentining tanish bo'lgan qiymatlari asosida korrelyatsiya koeffit-

sentini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, (13.1.) va (15.9.) formulasi asosida korrelyatsiya koefitsentini tekshirish mumkin. Korrelyatsiya koefitsenti singari regressiya koefitsenti ham faqat chiziqli bog'liqlikni ifodalaydi va ijobjiy bog'liqlikda plus belgisi, teskari bog'liqlikla minus ishorasi quyiladi.

O'z navbatida regressiya tenglamasining  $a_0$  va  $b_1$  erkin a'zolarini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin. Regressiya tenglamasining erkin a'zolarini  $a_0$  ni topish formulası:

$$(15.10.) \quad a_0 = \frac{\sum y * \sum x - \sum x * \sum xy}{\sum x - \sum(x)^2}$$

$b_0$  – regressiya tenglamasi erkin a'zosini topish uchun esa,

$$(15.11.) \quad b_0 = \frac{\sum x * \sum y - \sum y * \sum xy}{\sum y - \sum(y)^2}$$

(15.7), (15.8), (15.10) va (15.11) formulalari asosida hisoblash murakkablik tug'diradi. Regressiya koefitsentini topishda ikki xil tenglama mavjud. Bir tizimni hisoblash uchun  $a_0$  va  $a_1$  qiymatlari topiladi. Ikkinchchi tizimni echish uchun  $b_0$   $b_1$  qiymatlari topiladi.  $a_0$  va  $a_1$  qiymatlarini topish uchun quyidagi tenglamalar tizimi quyidagicha:

$$(15.12) \quad \begin{cases} a_0 N + a_1 \sum x = \sum y \\ a_0 \sum x + a_1 \sum(x * x) = \sum yx \end{cases}$$

$b_0$  va  $b_1$  qiymatlarini topish uchun quyidagi tenglamalar tizimi quyidagicha:

$$(15.13) \quad \begin{cases} b_0 N + a_1 \sum y = \sum x \\ b_0 \sum x + b_1 \sum(y * y) = \sum yx \end{cases}$$

(15.12) va (15.13) tenglamalar sistemasida quyidagi belgilari qo'llanildi:

$N - X$  va  $Y$  o'zgaruvchilarining elementlari soni;

$\sum x - X$  o'zgaruvchisi barcha elementlar summasi;

$y - Y$  o'zgaruvchisi barcha elementlar summasi;

$\sum y * y - Y$  o'zgaruvchisi barcha elementlarining o'z – o'ziga ko'paytmasi;

$\sum x * x - X$  o'zgaruvchisi barcha elementlarining o'z – o'ziga ko'paytmasi;

$\sum y * x_1 - X$  va  $Y$  o'zgaruvchilarning bir biriga mos elementlarining ko'paytmasi.

### Nazorat savollari:

- Chiziqli regerssiya deb nimaga aytildi?
- Regressiya modelida  $X$  o'zgaruvchilar yana qanday nomlanadi?

3. Regressiya modelida bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar qanday belgilanadi?

4. Qachon 0 nuqtadan o'tuvchi AV chizig'i X va Y o'zgaruvchi kattaliklar orasidagi funksional bog'liqlikka teng bo'ladi?

5. X va Y o'rtasida korrelyatsiya zaif bo'lsa, unda regressiya chiziqlari AV chizig'inining qaysi tomonida joylashadi.

6. 15.2 formulasidagi b0 nimani anglatadi?

7. Determinatsiya koefitsentining regressiya modelidagi funksiyasi nima?

8. Regression tahlilning asosiy vazifasi nimadan iborat?

9. Y tasodifiy qiymatlari X omillariga bog'liqligi determinatsiya koefitsenti moduli qanday topiladi?

10. Agar X va Y o'rtasida korrelyatsiya bo'lmasa, regressiya ikkala chiziqlari bir-biriga nisbatan to'g'ri qanday holatda joylashgan bo'ladi?

11. X va Y (Y va X) orasidagi miqdoriy bog'lanish qanday tahlil deb ataladi?

12. Determinatsiya koefitsenti (aniqlik o'lchovi) har doim qanday interval oralig'ida bo'ladi?

13. Regressiya koefitsenti qanday bog'liqlikni ifodalaydi?

14. Regressiya tenglamalarining umumiy xususiyatiga baho berish uchun qanday koefitsent qo'llaniladi?

15. Determinatsiya koefitsenti nima?

16. Mos modellar uchun determinatsiya koefitsenti necha foizdan kam bo'lmasligi kerak?

17. Determinatsiya koefitsenti qanday belgilanadi?

18. Determinatsiya koefitsent qiymati 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, bu nimani bildiradi?

19. Ko'psonli korrelyatsiyalarning kvadrati deb nimaga aytaladi?

20.  $r_{xy} * \frac{S_y}{S_x}$  formulasidagi  $S_y$  nimani ifodalaydi?

21. Qaysi holatda determinatsiya koefitsentini kuchli deb aytma olamiz?

22. Bir yoki bir necha argumentlarning o'zgarishi bilan funksiyaning o'zgarishi nima deb aytildi.

Regressiya tenglamalarining grafik ko‘rinishi nima deb nomlanadi?

Nº	Ta’rif	Nº	Atama
1	$r_{xy} = \frac{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2 \sum_{j=1}^m (Y_j - \bar{Y})^2}}$	A	Spirman korrelyatsiyasi
2	X=b0+b1*Y	B	Regressiya tenglamasi
3	$p = 1 - \frac{6 \sum(d^2)}{n(n^2 - 1)}$	C	Pirson korrelyatsiyasi
Ja vob	A	B	C

## **16-mavzu: EXCEL VA SPSS DASTURLARIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH.**

**Tayanch tushunchalar:** belgilarni tizimi, diagrammalar ustasi, yacheyska, uskunalar paneli, funktsiyalar ustasi, mantiqiy funktsiyalar, nisbiy murojaat, fayl menyusi, matematik funktsiyalar, statistik funktsiyalar, elektron jadval, SPSS dastiri.

### **16.1. Windows uchun Excel dasturining elektron jadvali.**

Psixologik tadqiqotlar orqali qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tasvirlash, ularni taxlil qilish, hisob-kitob ishlarni olib borish uchun maxsus statistik dasturlar SPSS, Stadia, STATISTICA va Excel paketlaridir.

Biz bugungi mavzuda Windowsning Excel dasturida psixodiagnostik ma'lumotlarni qayta ishlash, statistik ishlav berish, natijalarni vizuallashtirish kabi operatsiyalarni o'rganamiz.

MS Excel Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, u Windows operatsion dasturi boshqaruvida ishlovchi hamda ma'lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va qayta ishlashda qo'llaniladi.

MS Excelda tayyorlangan har bir hujjat (ma'lumotli jadval) tadqiqotchi beradigan nomlanish va XLS kengaytmadan iborat fayl bo'ladi. Excel terminida mazkur fayl «Ish kitobi» (Workbook) deb yuritiladi. Barcha Excel faylida bittadan 255 tagacha fayl kiritilishi mumkin, ularning har biri Excelning ish varagi deb yuritiladi.

Excelda sonlar, matnlar, arifmetik ifodalar, hisoblar, o'zgaruvchilar, qator va ustunlarda joylashgan bo'ladi.

Excel elektron jadvali 16384 qator (row) va 256 ustun (column) dan iborat. Qatorlar Idan 16384gacha bo'lgan natural sonlar bilan tartiblangan, ustunlar esa lotin alifbosining bosh harflari (A, B, ..., Z, AA, AB, ...) bilan belgilangan. Qator va ustun kesishmasida elektron jadvalning asosiy tarkibiy elementi-yacheyska (cell) joylashgan. Har bir yacheykaga son, matn yoki formula tarzidagi ma'lumotlar kiritiladi. Ustun kengligiga va qator balandligiga ixtiyoriy tartibda o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Microsoft Excelda ma'lumotlar, axborotlar, o'zgaruvchilar jadval ko'rinishida ifodalanib, u yerda jadval yacheykalarining (katakchalarining) ayrim qismlariga dastlabki va boshlang'ich axborottar joylashtiriladi, boshqa qismlari esa turli xil ko'rinishdagi matematik

hisob-kitoblar va dastlabki qiymatlar ustida olib boriladigan qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tashkil etadigan qiymatlardir.

Exsel katakchalariga ya'ni yacheykalariga 3 xil ko'rinishdagi ma'lumotlarni joylashtirishning imkonii mavjud. Ular quyidagilar: a) matnli ma'lumotlar; b) raqamli ifodalar; c) formulalar.

Matnli ma'lumotlar tarkibida esa

1. Sarlavha;
2. Belgilar tizimi;
3. Eslatma va izohlar joylashgan bo'ladi.

Raqamli ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri jadval ichiga joylashtiriladigan sonlar ifodasidir.

## 16.2. Yacheyka.

Yacheykadagi miqdoriy kattaliklarni, yozuvlarni va formulalarni o'chirish uchun yacheykani harakatga keltirib, "**Delete**" tugmasini bosish kerak bo'ladi. Bir necha yacheykadagi ma'lumotlarni uchirish uchun esa, tozalanishi kerak bulgan yacheykalar ajratiladi, so'ng "**Delete**" tugmasi bosiladi.

Yacheykani harakatga keltirish deyilganda jadval kursorini kerakli jadval ichiga olib o'tish tushuniladi. Yacheykadagi ma'lumotlarni almashtirish uchun yacheykani faollashtirib, yangi ma'lumotlar kiritiladi. Bunda oldingi ma'lumotlar uchirib tashlanadi. Bularni bajarish natijasida yacheykaning oldingi qiymati bilan yangi yangi qiymati almashadi, lekin formatlash atributlari bu yacheykada saqlanib koladi.

Agar yacheykadagi ma'lumotlar kam bo'lsa, yangi ma'lumotlar kiritish yo'li bilan ham almashtirish mumkin. Ammo yacheykada joylashgan ma'lumotlar uzun matn yoki murakkab formula b5 va unga unchalik katta bo'lмаган о'зgartirishlar kiritilishi kerak bo'lsa, yacheyka ichidagi ma'lumotlar tahrirlanadi. Barcha ma'lumotlarni qayta kiritish talab qilinmaydi.

Yacheykadagi ma'lumotlarni tahrirlash quyidagi uch usulda olib boriladi:

- Sichqoncha ko'rsatkichi yacheykaga keltirib chap tugmasi ikki marta tezlikda bosiladi. Bu usul ma'lumotlarni to'g'ridan tug'ri tahrirlash imkonini beradi.
- F2 tugmasini bosish orqali. Bu ham yacheykadagi ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri tahrirlash imkonini beradi.

• Tahrirlash kerak bo'lgan yachevtani tahrirlashishiga ya'ni usuliga ko'rsatkichi yordamida kursori formulalar qatoriga keltegen tahrirlash. Bu ma'lumotlarni formulalar qatorida miflib tahrirlash jumladan bajaradi.

Ma'lumotlarni tahrirlashda yuqorida keltirilgan usulardan ikkinchi birini ishlatalish mumkin. Ayrim foydalanan usulda ma'lumotlarni to'g'risan to'g'ri tahrirlash usulidan, usuldar formulalar qatoridan turib shu usuldan foydalanoildilar.

Formulalar - joylashtirilgan raqamli ifodalalar ustida yangi sun'atlari bajaradigan hisoblanadi.

Formulalarni kiritsibdan oldin katakelchaga dastlab *“=”* belgini qo'yish lozim. Formula yachevkaga kirittilgandan keyin *“shu formula* asosida hisoblenadigan natijalar yana shu yachevkada hosil beriladi. Agar shu formulada foydalaniylgan sonlardan yo'inki belgilardan kiri o'zgartirilsa, Excel avtomatik yangi ma'lumotlar bo'yicha hisoblaishlarini amalga oshiradi va yangi natijalar taqdim etadi.

Elektron jadvalning asosiy ishlov berish ob'ekti *“hujjatlar* (dokumentlar) hisoblanadi. Excel hujjatlari (dokumentlari) ixtiyoriy ism beriladigan va XLS kengaytmasiga ega bo'lgan fayllardir. Excel da bunday fayllar «Ishchi kitob» deb ataladi. Har bir ishchi kitob ixtiyoriy sondagi elektron jadvallarni o'z ichiga olishi mumkin. Ularning har biri “ishchi varagi” deb ataladi. Har bir ishchi- varaq o'z nomiga ega bo'ladi. Ishchi kitobni hosil qilish uchun Microsoft Excel dasturini istiga tushirish zarur.

Bu barcha qilingan ishlar formulalar qatoridagi uchta tugma (piktogramma) paydo bo'lishiga olib keladi.

Yacheykalarни tahrirlash oddiy odadta amalga oshirilishi, matn jadval kursori matn kursoriga aylanadi va uni boshqarish tugmalari yordamida siljitim mumkin bo'ladi.

Ma'lumot tahrir kilingandan keyin oldingi holatga qaytish uchun, «Правка» - «Отменить» buyrug'ini yoki Ctrl+Z tugmalarini bosiladi. Shunda yacheykadagi boshlang'ich ma'lumotlar qayta tiklanadi. Ma'lumotlarni qayta tiklash boshqa amallarni bajarishda tezlikda qilinishi kerak. Aks xolda, boshqa ma'lumotlar kiritilib, boshqa buyruqlar bajarilsa, orqaga qaytish amalga oshmaydi.

Ba'zan bir yacheykadagi ma'lumotlarning nusxasini bosib yachevkaga yoki diapozonga o'tkazishi kerak bo'ladi. Ba'zan elektron jadvalda nusxalash buyrug'i orqali amalga oshirilishi.

Nusxa ko'chirish bir necha usulda amalga oshirilishi.

- Yacheypadagi ma'lumotlarni boshqa yacheykaga ko'chirish;
- Yacheykadan ma'lumotlarni diapozonga ko'chirish. Bunda belgilangan diapozonning har bir yacheykasida ko'chirilayotgan yacheyka ma'lumotlari hosil bo'ladi.

• diapozondan diapozonga ko'chirish. Diapozon o'lchamlari bir xilda bo'lishi kerak.

Yacheykadan nusxa ko'chirishda ichidagi ma'lumotlar va uzgaruvchilar bilan birga barcha formatlash atributlari ham kuchiriladi. Nusxalash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1. Nusxa ko'chirish uchun yacheyka yoki diapozonni ajratish va uni buferga ko'chirish.

2. Jadval kursonini nusxa joylashtirilishi kerak bo'lgan diapozonga o'tkazish va buferga ko'chirilgan ma'lumotlarni unga qo'yish.

Olingen nusxa tegishli yacheyka yoki diapozonga qo'yilgandan keyin **Excel** bu yacheypadagi ma'lumotlarni yo'qotadi. Shuning uchun agar yacheypadagi oldingi axborotlar zarur bulsa darhol «Правка-Отменить» buyrug'ini berish yoki Ctrl+Z tugmalarini bir vaqtida bosish kerak.

### 16.3. Uskunalar paneli.

Elektron jadvalning birinchi qatori – sarlavha qatoridir. U yerda dastur va hujjat nomi yoziladi.

Ikkinci qator – menuy qatori. Eng birinchi tugma – sistemali menuy bayroqchasi. U quyidagi buyruqlarga ega: «Восстановить», «Переместить». Uchinchi va to'rtinchi qatorlar – uskunalar qatoridir.

Keyin ishchi maydon boshlanadi. Jadvalning o'ng tomonida vertikal aylantirish yo'li bor. Formular satrida katakchaga (yacheykaga) kiritiladigan ma'lumot va formulalar teriladi. Bu satrning chap qismida ochiladigan ro'yxat – «Поле имени» mavjud, bunda jadvalning ajratilgan katakchasi adresi ko'rsatilib turiladi. Kul rang ramkaga olingen katakcha ajratilgan bo'lib hisoblanadi. «Поле имени» dan o'ng tomonidan vertikal chiziq bilan ajratilgan katta bo'Imagan soha joylashgan, unda ma'lumotlarni kiritish vaqtida kiritish jarayonini boshqaruvchi uchta tugma paydo bo'ladi. Ustunlar sarlavhasining (yoki satrlar sarlavxasining) yuqori qismida butun jadvalni ajratishga xizmat qiluvchi bo'sh tugma bor. Standart aylantirish yo'llaridagi qora to'rburchaklar yordamida jadvalni vertikal yoki gorizontal buyicha 2 va 4 ta ichki oynaga bulish mumkin. Varaq yorliqlari ko'rsatilgan satr esa

ishchi kitob chegarasida bir ishehi varaqdan ikkinchisiga o'tishga imkon beradi.

### **Gorizontal menyuda quyidagi buyruqlar mavjud:**

-Fayl menyusi.

-Fayllarni saqlash (сохранение).

Saqlash buyrug'i ini fayl menyusidan qidirish mumkin. Bu jarayonni tezlashtirish uchun «Стандартная» uskunalar oynasidagi disket tasviri bo'lgan tugmani bosish kerak. «Сохранить» buyrugini 1 chi marta tanlaganimizda muloqot rasmi paydo buladi. «Сохранить как».

### **«Открыть».**

Yaratilgan va saqlanilgan jadvalni ekranga chiqarish uchun «Файл-открыт» buyrug'i ni tanlashingiz kerak.

### **«Создать».**

«Файл» menyusida «Создать» buyrug'i tanlanadi. U yordamida yangi bo'sh kitobni ochish mumkin.

### **YANGI ISH KITOBI.**

Agar yangi ish kitobini ochish jarayonini tezlashtirish kerak bo'lsa, varaq tasvirlangan tugma qo'llaniladi.

### **«Закрыть».**

Agar bir necha oynalar bilan ishlash noqulay bulsa, unda 1 ta yoki bir necha ishehi kitoblarni yopish mumkin, yangisini ochishdan oldin, uning uchun menu «Файл-закрыт» buyrugi tanlanadi.

### **«Параметры» страницы**

Pechat qilishda eng oxirgi qiladigan ish ichki holat parametrlarini ko'rsatish kerak. Buning uchun siz Fayl menyusidan «Параметры страницы» buyrugini tanlaysiz.

Betlarni oldindan ko'rish.

Biz Fayl menyusidagi «Промотр» buyrug'i ni tanlaymiz, abzatsining boshida tasvirlangan rasm tugmani bosish orkali chaqiriladi.

### **«Правка» менюси.**

Elektron jadvalning yana asosiy menyualaridan biri bu Pravkadir. Endi biz Pravka xususida biroz to'xtalib o'tamiz. Oddiy redaktorlash Menyusi sanalgan Pravka, WINWORD da berilganlarda juda kam kam farq kiladi. Bu oxirgi buyruqningning bekor kilmishi (fugat bitinchi) va takroran uni bajarish, «вырезать», «копировать», «вставить», «стиль и заменить» operatsiyalarini to'la standart xolda bajariladi. Lekin bu qancha spetsifikatsion imkoniyatlar zam bor. «Заменить» buyrug'i

(pastga, balandga, o'ngga, chapga) yacheyska burchagida formula yoki sonlarni qora kvadratga olib cho'zish vazifasini bajaradi. «Заполнить по листам» buyrugi ajratilgan yacheykalarni boshqa ish kitoblari varaqlariga o'sha manzil bilan nusxalashga imkon beradi. «Очистить» buyrugi yacheykalar orasidan fakat berilganlarni, formatlarni va izoxlarni tozalashga ruxsat beradi yoki xammasini birdaniga tozalashi mumkin.

«Удалить» buyrug'i to'liq tushuntirishga unchalik muxtoj emas. Unda varaqlarni bekor kilish mumkin.

#### 16.4. Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish:

a) tekstlar kiritish; b) sonlarni kiritish; c) formulalar kiritish.

Tekstlarni kiritish uchun kerakli so'z klaviaturada terilib "ENTER" bosiladi. Sonlar ham tekstlar kabi kiritiladi faqat butun sonlar agar musbat bulsa ishorasiz, manfiy bulsa ishorasi yozilishi shart.

Aralash sonlar butun qismi vergul bilan ajratiladi. Masalan: A2 katakehasinga 3456 sonini kiritmoqchi bo'lsak kursorni shu katachaga keltirib 3456 soni yoziladi va "ENTER" bosiladi.

Kiritishni bekor kilish uchun Ctrl+Z tugmalarni bosish orqali amalga oshiriladi.

Katakchani nusxalash uchun:

- 1) nusxalanishi lozim bo'lgan katakchani ajratib olish, «Правка» menyusidan «Копировать» buyrug'ini tanlash;
- 2) katakchani ajratib olib, asboblar panelidagi «Копировать» tugmasini bosish kerak.

Nusxani katachaga joylash uchun:

- 1) Nusxa joylashishi kerak bo'lgan katakcha ajratib olinadi. («Правка» menyusidagi «Вставить» buyrug'i).
- 2) Katakcha ajratib olinib sichqonchaning o'ng tugmasi bosiladi va «Вставить» buyrug'i tanlanadi.

Formula qo'yish va ularni tahrirlash.

Operatorlar.

Barcha matematik funktsiyalar maxsus simvollar yordamida dasturlarda yoziladi, ular operatorlar deb yuritiladi. Quyidagi 16.1-jadvalda Excel operatorlarning ro'yxati berilgan.

## Excel dasturi funktsiyalari

Excel operatorlari: <b>Operator</b>	Funktsiya	Misol
Arifmetik	Operatorlari.	
+	Qo'shish	=A1+1
-	Ayirish	=4-S4
*	Ko'paytirish	=A3*X123
/	Bo'lish	=D3/Q6
%	Foiz	=10%
^	Darajaga ko'tarish	=2^4
Tenglik	Operatorlari	
=	Teng	
<	Kichik	
>	Katta	
<=	Kichik yoki teng	
>=	Katta yoki teng	

**Matnlarni qo'shish**

Matnni qo'shish operatori xujjat namunasini tuzish vaqtida, masalan sanani xar doim qo'lida kiritmaslik uchun qo'llaniladi,

Matli operatorni dastur to'g'ri tushunishi uchun, tekstning qatorini formula singari kiritib uni tenglik bilan belgilash kerak. Matli operator qavs ichiga olinadi. Agar shu ishlar bajarilsa, formula kiritishda #NAME? xato haqida ma'lumot chiqaradi. Bu xato Excel berilganlarga yo'l topolmayotganligini bildiradi.

Shunday kilib Excel avtomatik ravishda formulalar joyini o'zgartirishda yacheikalardagi adreslarni ham o'zgantiradi. Yuqorida ko'rsatilgan usul yordamida yacheikalarni formulalar bilan, chapga yoki o'ngga to'ldirishdan tashqari ularni yuqori yoki pastga ham to'ldirish mumkin. Buning uchun «Правка» menyusidan «Заполнить» buyrug'i tanlanadi. Yacheikalarni to'ldirishning tez usullaridan biri sichqonchani qo'llashdadir.

1). Formula yoki matn kiritilgan yacheyka tanlanadi.

2). Sichqoncha ko'rsatkichini ramkaning kichik qora kvadratining pastki o'ng burchagiga o'matiladi. Sichqonchaning ko'rsatkichi krest ko'rinishida bo'ladi.

3). Sichqonchaning chap tugmasini bosib, xoxlagan yacheykalarni tuldirguncha ramka cho'ziladi.

## 16.5. Formula tushunchasi.

Excelda tayyorlanadigan ma'lumotli jadvallar matn yoki sonlar bilan to'ldirilishini aytib o'tdik. Ba'zan yacheykalardagi qiymatlar ustida ayrim hisoblashlarni bajarish zaruriyati tug'iladi, bunday vaziyatda formulalardan foydalaniлади.

Excel yacheykasidagi formulaning dastlabki simvoli hamma vaqt «=» (tenglik) hisoblanadi. So'ngra, arifmetik operatsiya belgilari bilan o'zaro bog'langan arifmetik ifodalar teriladi. Masalan, H8 yacheykasida

$$=A5 + 4 * B6$$

formula yozilgan bo'lsa, H8 ning qiymati A5 va to'rtta B6 ning yig'indisidan iboratligidan dalolat beradi.

### Formulalardan foydalanish

Katakni belgilash u yoki bu axborotni qaerga joylashganligini ko'rsatishdan ko'ra kengrok tushuncha bo'lib, Excel ayni paytda ma'lum bir katakda saqlanayotgan ma'lumotlarning qiymatlari bo'yicha matematik amallar bajarishga ham imkoniyat beradi. Buni tushuntirish uchun quyidagi amallarni bajarib ko'ramiz.

1. B15 katagiga kursorni qo'yib sichqonchaning chap tugmasi bosiladi.

2. =B3-B13 deb teriladi va Enter bosiladi.

3. Klaviaturada «yuqoriga» ishorali tugma bosiladi.

B15 katagida 2-amalda tergan matn urniga nol (0) son qiymati. Excelning formula qatorida esa, =B3-B13 ifoda paydo buladi. “=” belgisi shu katakka matematik formula joylashtirilganligini bildiradi (har bir formula albatta shu belgi bilan boshlanishi shart) Keltirilgan misoldagi B15 katagidan formula qiymati B3 va B13 katagi qiymatlarining ayirmasidan hosil bo'lishini bildiradi. Hozircha bu ikki katak bo'shligi sababli hisob-kitob natijasi nolga (0) teng.

### Kataklarga nisbiy murojaat

Quyidagi amallarni bajaraylik,

1. B15 katagining o'ng qo'yи burchagidagi kvadratchaga cursor qo'yiladi.

2. Sichqonchaning chap tugmasi bosiladi va qo'yib yubormay o'ngga C15 katagigacha siljitiladi.

3. Sichqonchaning chap tugmasi qo'yib yuboriladi.

4. Kursor C15 katakka qo'yiladi.

Natijada, B15-615 kataklarida nol (0) soni va C15 katak uchun formulalar qatorida =63-C13 ifoda paydo bo'ladi.

Excel avtomatik tarzda B15 katagi qiymatini katakka nisbiy murojaat sifatida qabul kilib, formulani ustunlarning nomlariga qayta moslab ko'rsatilgan joylarga qo'yib chiqdi.

### **Formulada funktsiyalardan foydalanish**

Excel 400 dan ortiq ko'rilgan funktsiyalarga ega bo'lib, bu funktsiyalar qo'shish, ayirish kabi oddiy arifmetik amallardan ko'ra mo'rakkabroq operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan. Excel funktsiyalarini 10 asosiy guruhga bo'lib ko'rish mumkin. Excel funktsiyalaridan foydalanish uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. 12 katagini faol xolatga keltirish uchun kursor shu katakka qo'yiladi.

2. O'rtacha deb teriladi.

3. Kursor 115 katakka qo'yiladi.

4. Excel menyusidan «Вставка» tanlanadi.

5. Funktsiya punkti tanlanadi.

## **16.6. Diagrammalar va grafiklar.**

Uskunalar oynasida joylashgan tugmani bosib, biz belgilangan ob'ektlarga yaltiroq to'g'ri chiziqday, sichqoncha ko'rsatkichi esa kichik qora krest ko'rinishida bo'lishiga erishamiz. Uni ishchi varag'inining maydoniga joylashtirib, masalan jadvalning sal pastroqda va sichqoncha tugmasini quyib yuborganimizda diagramma masterining birinchi muloqoti ochiladi.

«Шар» tugmasi bosilsa, keyingi muloqotga o'tiladi. Unda master, diagrammaning bo'lajak tipini tanlashni tavsiya etadi. Qora fon bilan joriy variant belgilangan.

Bu yerda tanlangan diagramma turining har ko'rinishini ko'rish mumkin, keriklisi sichqoncha yordamida tanlanadi. «Шар» tugmasi bosiladi va Excel «Пример диаграммы» muloqoti maydonida tanlangan diagrammaning tashqi ko'rinishini namoyon etadi.

Muloqotning o'ng tomonida bir nechta maydonlar mavjud. OK tugmasi bosilib diagramma ishchi varag'ida paydo bo'ladi

Excel yordamida jadvaddagi ustun va qatorlarda aks etgan sonlar har tomonlama tushunarli va ko'rinarli bo'lishi uchun diagramma va grafiklar shaklida berishi mumkin. Buning uchun Excelning Diagramma ustasidan foydalaniлади.

1. Vositalar panelidagi Diagramma ustasi  tugmasi bosiladi.
2. Kursor ko'rinishi keladi.
3. D21 katagiga kursor qo'yiladi.
4. Sichqonchaning chap tugmasi bosiladi va ushlab turiladi.
5. Sichqonchani D21-C26 kataklari belgilanguncha qo'yи o'ngga qarab siljilindi.
6. Sichqoncha tugmasi qo'yib yuboriladi.

Ekranda «**Мастер диаграмм**» – «шаг 1 из 5» dialog oynasi paydo bo'ladi. Bu qadamda diagrammada aks etishi kerak bo'lgan ma'lumot katakchalari adresi ko'rsatilishi kerak.

7. Sichqoncha yordamida jadvaldan A7-B14 kataklari belgilanadi.
8. «Далее» tugmasi bosiladi.

Ekranda diagramma turini aniqlashtirishni so'rovchi Diagramma ustasi «**Мастер диаграмм**» ning 2 qadam dialog oynasi paydo bo'ladi.

9. «Гистограмма» tugmasi bosiladi.
10. «Далее» tugmasi bosiladi.

Ekranda qanday diagramma turini tanlanganiga qarab Diagramma ustasining keyingi dialog oynasi paydo bo'ladi.

### **16.7. Ma'lumotlar zahirasini tartiblash.**

Ms Excel dasturida tahlil uchun to'plangan ma'lumotlarni tartiblash imkonи mavjud. Buning uchun uskunalar paneli o'ng tomonidan «**Сортировка и фильтр**», «**Sort and Filter**» instrumenti ochiladi. Quyidagi 16.2 rasmida ma'lumotlar zahirasini tartiblash jarayoni ko'rsatilgan:



### 16.1-rasm. Ma'lumotlar zahirasini tartiblash uchun vositalar panelidan kerakli xizmatni chaqirish.

«Сортировка» panelida nafaqt qiymatlarni, balki matnli ma'lumotlarni ham alisbo tartibida tartiblash mumkin.

Jadvalli yoki qator va ustun ma'lumotlarini tartiblashda, ular alohida boshqa ma'lumotlardan mustaqil bo'lishi kerak.

Jadvaldagи tartiblanishi kerak bo'lgan ustun ajratiladi va «Sortirovka» dialogli oynasi aktivlashtiriladi. Shuningdek, mazkur operatsiyani «Sortirovka» menyusidan sozlash orqali ham qo'shimcha talablar asosida bajarish mumkin. Tartiblash operatsiyasida kichikdan katta qiymatlarga yoki kattadan kichik qiymatlarga tartiblash mumkin.

Agar tartiblash opretsiyasi bajarilgan bo'lsa, unda qiymatlar to'g'ri kiritilganini tekshirish mumkin. Kiritilgan oddiy xato ham katta jadvallarni tartiblashda muammo tug'dirishi mumkin.

Dasturda tartiblash funktsiyasi bilan birga ma'lumotlarni filtrash ham mumkin.

Excel dasturida filtratsiya operatsiyasi vaqtincha kerakli ma'lumotlarni ko'rsatib, keraksiz ma'lumotlarni yashiradi.

Filtratsiyani bajarish ketma-ketligi quyidagicha kechadi:

- Kerakli diapozon tanlab olinadi.
- Filtr operatsiyasi tanlanadi.



- Har bir ustun sarlavhasida belgi paydo bo'ladi.
- Matnli yoki raqamli filtrlar tanlanadi.
- Filtrlashning shartlari belgilanadi,

Misol uchun to'rt xil temperament tiplariga tegishli intellekt qiyamatlari keltirilgan bo'lsa, tadqiqotchi ularni birdan to'rtgacha kodlaydi. Kerakli paytda tadqiqotchi, filtrash operatsiyasi orqali to'rtta temperament tipidan birini ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Excel da statistik amallar funktsiyasi qanday bajariladi?
2. «Мастер функций» qanday ilova?
3. Matematik amallarni bajaradigan  $\wedge$  qanday funktsiyani bajaradi?
4. Summa ishorasi qanday belgilanadi?
5. Elektron jadvaldagi formula qay tartibda boshqa kataklarga suriladi?
6. Diagrammalarni qo'llash uchun qanday tartibda ish olib borish kerak?
7. O'zgaruvchilar qatoridan o'rtacha qiymat va summani topish uchun nima qilinadi?
8. Mantiqiy funktsiyalar qanday yozuv bilan ifodalanadi?
9. Elektron jadvaldan formula funktsiyasi qanday ochiladi?
10. Pi funktsiyasining qiymati nechaga teng?
11. Joy nom iva yacheyka manzili qanday topiladi?
12. Absolyut o'tkazish nima?
13. Kataklarga nisbiy murojaat qanday beriladi?
14. Sana va vaqt funktsiyalari qanday ishga tushiriladi?
15. Excel da qanchagacha funktsiyalar bajarish mumkin?

**B15-615** kataklarida nol (0) soni va C15 katak uchun formulalar qatorida =63-C13 ifoda paydo bo'lishi uchun qanday operatsiyalar birin ketinlikda bajariladi?

Vazifalar	Ketma ketlik raqamlar orqali ifodasi
Kursorni C15 katagiga qo'yamiz.	
Sichqonchaning chap tutmasini bosamiz va qo'yib yubormay o'ngga C15 katagigacha siljitimiz.	
Kursorni C15 katagiga qo'yamiz.	
Sichqonchaning chap tugmasini qo'yib yuboramiz.	

## 17 mavzu: SPSS DA MA'LUMOTLARNI TASHKIL QILISH

**Tayanch tushunchalar:** dixotomik shkala, ma'lumotlar manbayi, eksponent ishoralar, qatorli formatlar, sanoqli formatlar, vaqt va sana formatlari, o'zgaruvchilar turi, o'zgaruvchilarni ko'rish oynasi, o'zgaruvchilar oynasi,

### 17.1. O'lechov shkalalari va ma'lumot turlari.

Empirik tahlillarda ma'lumotlarni o'lechov shkalalari bo'yicha to'g'ri baholash juda zarur. Natijalarning sifati shkalalarning tegishli tartibda tanlanganiga bog'liq. SPSS dasturida ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi misolga qaraymiz:

#### 17.1-Jadval.

#### SPSS dasturida ma'lumotlarni tahlil qilish

Sinaluvchi haqida ma'lumot	Sinaluvchi ko'rsatkichlari
Jinsi	1=ayol 2=erkak
Oilaviy ahvoli	1=buydoq/turmushga chiqmagan 2=oilali 3=beva 4=ajrashgan
Sport bilan shug'ullanishi	1=shug'ullanmaydi 2=ba'zan shug'ulanadi 3=tez-tez shug'ullanadi 4=muntazam shug'ullanadi
Oylik maoshi	1=1000000-1500000 so'mgacha 2=1500000-2000000 so'mgacha 3=2000000-2500000 so'mgacha
Intellekt koeffitsenti	69-79; 79-89
Yoshi	15-25; 25-35; 35-45

Dastlab, «Jinsi» degan ustunni ko'rib chiqamiz. Ko'rib turganimizdek, 1 va 2 sinaluvchilarga raqamlar berilishi mutlaqo ixtiyoriy ravishda ro'y berdi. Xolbuki, biz, ikkala jins vakillariga istalgan raqamni berishimiz mumkin edi. Sinaluvchilarga jins nuqtayi nazardan kodlarning berilishi biron tartibga buysunmaydi. Sonlar o'rniga harflar berilishi ham mumkin. Shuning uchun mazkur raqamlar hech qanday empirik ahamiyatga ega emas. Bu holatda o'zgaruvchilar nominal

shkalada baholanadi. Oldingi mavzularda aytib o'tganimizdek, ikki toifaga ega nominal shkala – dixotomik shkala deyiladi. Bu shkala metrik bo'limgan shkalaga kiradi.

Xuddi shu vaziyat "Oilaviy ahvoli" o'zgaruvchilariga ham ta'lulidir. Oilaviy ahvol shkalalariga berilgan sonlar va oilaviy ahvoli kategoriyalari uchun empirik ahamiyat kasb etmaydi. Ammo jins o'zgaruvchilardan farqli ravishda bu o'zgaruvchilar dixotomik sanalmaydi. Uning toifalari ikkitaning o'rniga to'rttani tashkil etadi. Nominal shkalaga ta'lqli o'zgaruvchilarni tahlil qilish imkonи nihoyatda chegaralangan. Aniqroq qilib aytganda, bu singari o'zgaruvchilarda chastotali tahlillar olib borish mumkin. Shuning uchun oilaviy ahvoli ustuni o'zgaruvchilarining o'rtacha qiymatini topish biron ma'noga ega emas. Nominal shkalaga tegishli o'zgaruvchilar ko'pincha guruhlashtirish uchun kerak bo'ladi. Uning yordamida bosh tanlanma ushbu o'zgaruvchilar toifasi asosida bo'linadi. Qisman tanlanmalarda bir xil statistik hisoblar olib boriladi. Shundan so'ng natijalar solishtiriladi.

Keyingi misolni o'rgansak, "Sport bilan shug'ullanish" kategoriyasi kodli sonlariga empirik ma'lumotlar tegishli tartibda beriladi. «Sport bilan shug'ullanish» o'zgaruvchisi ahamiyatliliga ko'ra, pastdan yuqoriga qarab berilgan. Sport bilan ba'zan shug'ullangan kishi, sport bilan shug'ullanmagan kishidan bitta yuqorida turadi. Sport bilan tez-tez shug'ullangan kishi, ba'zan shug'ullangan kishidan esa bitta yuqorida joylashadi. Sport bilan umuman shug'ullanmaydigan va muntazam shug'ullangan o'rtasida farq yo'q deb bo'lmaydi. Shunday qilib, bu singari sonli ifodalar va o'zgaruvchilar kategoriyasi o'rtasida empirik ahamiyatlilik mavjud. Bu o'zgaruvchilar tartib shkalasida baholanadi.

Tartib shkalasining an'anaviy misollariga oylik ish haqi o'zgaruvchilar shkalasini kiritish mumkin.

Chastotali tahlildan tashqari tartib shkalasidagi o'zgaruvchilarda mediana kabi muayyan bir statistik ko'sratkichlar hisoblanadi. Ayrim hollarda o'rtachani aniqlash imkonи mavjud bo'ladi. Agar shkalalar o'rtasida bog'liqlik aniqlanishi kerak bo'lsa, u holda ranglar koeffitsenti korrelyatsiyasi o'tkazilishi maqsadga muvofiq.


O'zgaruvchilari tartib shkalasida baholangan turli tanlanmalar noperametrik mezonlarda hisoblanadi. Chunki noperametrik mezonlarning hisoblash formulalari ranglar bilan ishlaysdi.

Endi esa, "Intelekt koeffitsenti" ni ko'rib chiqamiz. Uning absolyut qiyatlari respondentlar o'rtasida tartibli munosabatlarni aks ettiradi. Misol uchun Sardorning ietelleksi 80, Farhodning intelleksi 120, Umidning intelleksi 160 ni ko'rsatdi. Bu yerda Umid Farhodga nisbatan qanchalik intelleksi baland bo'lsa, Farhod Sardorga qaraganda, shunchalik inteleksi yuqoridadir (aynan 40 intellekt birligiga). Ammo Umid Sardorga qaraganda ikki baravar intelleksi yuqorida.

Bunday bir xil interval oralig'ida turgan o'zgaruvchilar o'rtasida empirik ahamiyatlilik mavjud. Ular istalgan statistik tahlillarda qayta ishlanishi mumkin, mazkur o'zgaruvchilar intervallar shkalasida baholanadi. Chunki bu qatorning o'rtachasi qator xarakteristikasini to'laligicha namoyon etadi.

Va niyoyat biz, o'lchovning eng yuqori shkalasiga yetib keldik. Bu yerda ikki qiyamatning munosabati empirik xususiyatga ega hisoblanadi. Bu shkalaga misol «Yosh» kategoriyasini olish mumkin. Misol uchun, Alisherning yoshi 30 da bo'lsa, Maxmudning yoshi 60 da. Aytish kerakki, Maxmud Alisherdan ikki baravar katta hisoblanadi. Bu munosabatlar, nisbatlar yoki intervallar shkalasida baholanadi. Qoidaga binoan, intervallar shkalasidagi o'zgaruvchilar nisbatlar shkalasiga ham ta'lulqi bo'ladi.

SPSS bilan ishlash amaliyotida intervallar shkalasi va nisbatlar shkalasi o'rtasidagi farq katta emas. Shuning uchun ko'pincha tadqiqotchilar o'zgaruvchilarini intervallar shkalasida baholaydilar. SPSS dasturining foydalanuvchisi statistik shkalalarning ko'rinishini yaxshi ajrata bilmog'i lozim. Metodikani tanlagada ham shkalalarning munosib shakli qabul qilinishini nazorat qilishi kerak. Keyingi o'rnlarda misollar SPSS va Excel dasturlarining inglizcha variantida beriladi.



17.1-rasm. SPSS dasturida o'lchov shkalalarining ko'rinishi.

Rasmda ko'rilib turganidek, birinchi qatorda ko'pincha dixotomik yoki nominal shkalaga tegishli o'zgaruvchilar bo'ladi. "Ordinal" (tartib) va Intervallar va nisbatlar shkalasi o'zgaruvchilari "Scale" o'lchovida


baholanadi. “Nominal” shkalasi nomlanishlar shalasiga ta’luqli ma’lumotlarni baholaydi.

Biz yuqorida nominal shkalaga tegishli o‘zgaruvchilarning tahliliy imkoni kamligini aytib o’tgan edik. Ammo dixotomik shkalada ranglar korrelyatsiyasini o’tkazish mumkin. Misol uchun, ayollarning intelekt darajasi katta rang olgan bo‘lsa, u holda, ayollarni erkaklarga qaraganda intelektual salohiyati yuqoriroq deb baho beramiz. Biroq, nominal shkaladagi o‘zgaruvchilar dixotomik bo‘limasa, u holda ranglar korrelyatsiyasini o’tkazish befoyda.

### 17.2. Tahlil uchun ma’lumot manbalari.

SPSS da statistik tahlilni o’tkazish uchun ma’lumotlar manbayi, ma’lumotlar redaktorida “Data Editor” shakllantiriladi. Ma’lumotlar muhariri yoki redaktori ikki bo‘limga ega. Ular: “O‘zgaruvchilar xususiyati” ya’ni “Variable View” yoki «Переменные» va “O‘zgaruvchilar” – “Date View”; «Набор данных».

Mazkur qatlamlar o‘zida, tahlil uchun to‘plangan ma’lumotlar haqida axborotga ega bo‘lgan jadvalni namoyon etadi. “Variable View”; «Переменные» bo‘limida o‘zgaruvchilarning xususiyatlari tasniflangan bo‘ladi. Har bir qator o‘zgaruvchining xususiyatlarini aks ettiradi.



17.2-rasm. O‘zgaruvchilarni tahrirlash tugmasi.

Dasturda o‘zgaruvchilar nomi lotin alifbosida kiritilgan bo‘lishi kerak. Nomlanishlar yozilganda, harflar o‘rtasida probelga va boshqa alifboga yo‘l qo‘yilmaydi. Buning o‘rniga pastdan chiziq «\_» tortiladi. Shuningdek, qiymatlar belgisi «8» dan oshmasligi kerak. Dasturda #\\$ ishoralariga ruxsat beriladi. Har bir o‘zgaruvchi nomi harf bilan boshlanishi kerak. Oxirgi ishora «\_» bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar SPSS dasturi uchun ma’lumotlar manbayi uzoq vaqt davomida turli metodikalardan yig‘ilgan bo‘lsa, ular boshqa sayllarda ham saqlanishi mumkin. Misol uchun Excel da ma’lumotlar manbayida saqlanishi mumkin. kerakli payt SPSS dasturini ishga tushirib,

ma'lumotlarni kiritish uchun buyruq berganda dasturning o'zi tayyoz ma'lumot manbayini qaysi fayldan olishni so'raydi.




**17.3-rasm. Ma'lumotlarni SPSS dasturida tahlil qilish uchun Excel dasturida ma'lumotlar manbaini yaratish.**

Ma'lumotlar manbayi SPSS dasturida ham saqlanishi mumkin. Ma'lumotlar Excel dasturida saqlangach, istalgan vaqt SPSS dasturining buyrug'i orqali ularni chaqirib olish mumkin. Ustunlarda o'zgaruvchilar qiymatlari joylashgan. Shuningdek, 17.3 rasmdagi elektron jadvalda katta xajmdagi ma'lumotlar saqlangan bo'lib, SPSS ga ularni hammasini ham kiritish shart emas.

Elektron jadvaldan istalgan xajmdagi axborotlar kesimi SPSS ga jo'nalishi mumkin. Shuning uchun ham ma'lumotlar manbayini Excel da saqlash qulayroq. 17.3. Rasmida ko'rinish turganidek, sarlavhalar turli ranglar bilan bilan bo'yagan. Bu jadvalda bir necha metodikalar natijalari mavjudligini bildiradi. Misol uchun, pushti rang, yashil, to'q sariq sarlavhali katakehalar alohida metodika, sariq rangli kataklar sakkiz omilli metodika natijalaridir va h.k. Kerakli payt bitta yoki bir necha metodikalar o'zgaruvchilarini tahlil qilish mumkin.

Oldingi mavzumizda Excel dasturining ma'lumotlar zahirasini saqlash imkoniyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq bergen edik. Ya'ni bitta dastur kitobida (faylida) bir necha faylar «.Inc», «.IncB» va h.k. ko'rinishida saqlanadi. Mazkur fayllarda ma'lumotlarning grafik ko'rinishlari, statistik ma'lumotlari joy olgan.



#### **17.4-rasm. SPSS dasturida «ma'lumotlar manbayidan» ma'lumot olish uchun ma'lumotlar muharririni ochish.**

Chap tomondan yuqori qismidagi menu Fayl “File” buyrug‘i orqali kerakli ma'lumotlarni, oldindan to‘plangan ma'lumotlar manbayidan yuklab olish zarur.

#### **17.3. Ma'lumotlarni tashkil etish xususiyatlari.**

Yuqoridagi rasmda (17.4) ochilgan oyna jadval ko‘rinishidagi ma'lumotlar muharriri bo‘lib, o‘zgaruvchilar qiymatlari unga kiritaladi. Rasmdagi oynada hali biron fayl yuklanmagan. Redaktor sardavhasida “Untitled” (Nomlanmagan) degan yozuv bor. Demak, dastur oynasi endi ochilgan va hali unda biron operatsiya bajarilmaganligini (jumladan nomlanish jarayoni) ko‘rish mumkin. Ma'lumotlar redaktori jadvalining ustki qismida menu qatori va belgilari panelini ko‘rish mumkin.

Endigi navbatda biz, elektron jadvalni eslatuvchi ma'lumotlar redaktori yordamida ma'lumotlar faylini yaratamiz. Elektron jadval ichida katakhalar joylashgan. Jadvalning ustunlarida o‘zgaruvchilar qatori, ya’ni tadqiqotda ishtiroy etgan jami respondentlarning natijalarini joylashadi. Qatorlarda esa, har bir sinaluvchining alohida turli kuzatishlar natijasida olgan ballari kiritiladi. Metodning natijalarini tahlil qilganda bir o‘zgaruvchida bir alohida savolning javobi kiritilgan bo‘ladi. Jadvalning har bir yachevkasi har bir kuzatish uchun o‘zgaruvchining qiymatini saqlaydi. Demak, har bir yacheykada o‘zgaruvchining bir qiymati joylashgan bo‘ladi. **Ma'lumotlarning xususiyatlari.** Ishni

o'zgaruvchilarning xususiyatlarini qayd etishdan boshlaymiz. Ular quyidagicha xarakterlanadi: Ma'lumotlar redaktoridan «var» katak-chasini ikki marta bosamiz, oynaning pastki o'ng qismidagi “Variable view” (o'zgaruvchilarni ko'rish) yorlig'ini ham bosamiz. Shunda oyna “Data View” xonasidan, ya'ni o'zgaruvchilar to'plamidan o'zgaruvchilar xususiyatlari berilgan xonaga o'tadi.



### **17.5-rasm. Ma'lumotlar redaktorida o'zgaruvchilar oynasidan o'zgaruvchilarni ko'rish oynasiga o'tish.**

Rasmdan ko'rib turganimizdek, o'zgaruvchilarning nomini so'ragan katak birinchi o'rinda turibdi. O'zgaruvchiga nom berish uchun quyidagi ishlar qilinadi:

«Name» degan matn maydoniga o'zgaruvchining nomlanishi yoziladi. Bizning misolimizda biz dastlabki o'zgaruvchini jins deb nomlaymiz. Demak «Name» degan yozuvni ostiga «Jins» yozuvini kiritamiz. O'zgaruvchilarni nomlaganda, rivoja etilishi kerak bo'lgan bir qator talablar haqida aytib o'tgan edik. Quyida mumkin bo'lgan va mumkin bo'lman o'zgaruvchilar nomlanishiga misollar keltiramiz:

### Mumkin bo‘lgan nomlanishlar:

gender12

oylik

jins\_1\_2

var\_1


### Mumkin bo‘lmagan nomlanishlar:

I ga I	Nom harfdan boshlanmagan
Эксперимент	Nom boshqa alisbo timsolini aks etgan
State 92	Nom o‘rtasida probel bor
None!	Nom qabul qilinmagan «!» belgisini aks etgan

Nomlanish to‘g‘ri tartibda amalga oshmaguncha, dastur uni qabul qilmaydi.

Nomlanish jarayoni nihoyasiga etgandan so‘ng, «tab» klaviatura tugmasi bosilib, o‘zgaruvchilar nomlanishi kiritilgани tasdiqlanadi.

Ikkinchi ustundagi «Type» yozuvি joydashgan katakehaga kerakli belgini qo‘yish lozim bo‘ladi. Ammo bu avtomatik ravishda ro‘y beradi. Agar o‘zgaruvchilar turini o‘zgartirish kerak bo‘lsa, uch nuqta qo‘yilgan katakchani bosamiz. Define “Variable Type” deb nomlangan dialog oynasi chiqadi.



17.6-rasm. Sanoqli o‘zgaruvchilar uchun Variable Type dialog oynasi.

SPSS da o‘zgaruvchilarning quyidagi turi mayjud:

## “Variable Table” dialogli oynasining funktsiyalari xususiyatlari

Numeric (Sanoqli)	Q’llaniladigan raqamlar oldida minus yoki plus ishorasi va o’nik bo’luchchi bo’ladi. Minus belgisidan farqli ravishda plus ishorasi sondan oldin qo’yilmaydi. «Length» «Dlima» degan matn maydoniga o’nik bo’luchchi uchun holatni o’zida aks ettirgan, qiymatlarning maksimal miqdori beriladi. «Decimal» (o’nik razrad) degan matn maydoniga kasr qismining qiymatlari aks etadi.
Comma (vergul)	O’nik bo’luchchi sifatida raqamlar oldida minus yoki plus, nuqta ishorasi, razryadlar guruhi bo’luchchisi sifatida bir yoki bir necha vergullar qo’yiladi. Agar kiritish paytida vergullar qo’yilsa, ular avtomatik tarzda qo’yiladi. Bu o’zgaruvchining uzunligi, o’nik bo’luchchi va guruh razryadranı orasidagi vergullar bilan, belgilarning maksimal miqdoriga teng.
Dot (nuqta)	O’nik bo’luchchi sifatida raqamlar oldida minus yoki plus, vergul ishorasi, razryadlar guruhi bo’luchchisi sifatida bir yoki bir necha nuqtalar qo’yiladi. Agar kiritish paytida nuqtalar qo’yilsa, ular avtomatik tarzda qo’yiladi.
Scientific notation (Eksponent izohlar)	Malumotlarni kiritish paytida, eksponent izohlar bilan birga barcha qabul qilingan sanoq ishoralar qabul qilinadi.
Date (Sana)	Sana yoki vaqt uchun qabul qilingan barcha qiymatlarni qabul qilinadi.
Dollar (Dollar)	Qabul qilingan qiymatlarga dollar belgisi, nuqta, o’nik bo’luchchi sifatida nuqta va razryad guruhlari sifatida vergul kiradi. Agar dollar belgisi va vergullar tushirib qoldirilsa, ular avtomatik ravishda qo’yiladi.
Sresial currency (Maxsus valyuta)	Foydalanuvchi valyutaning o’z formatlarini kiritishi mumkin. «Length» maydonida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan barcha qiymatlarni birgalikda qiymatlarning maksimal miqdori qo’yiladi. Valyutaning belgisi bu yerda qo’yilmaydi. Ular avtomatik qo’yiladi.
String (Qator)	Timsollar qatori. Qabul qilingan qiymatlarga harflar, sonlar va maxsus timsollar kiradi. Uzun va qisqa o’zgaruvchilar qatori farqlanadi. Qisqa qatorli o’zgaruvchilar o’zida 8 tadan ko’p bo’lmagan ishoralarni kiritadi. SPSS da ko’pincha jarayonlarda uzun o’zgaruvchilar chegaralanadi yoki umuman yo’l qo’yilmaydi.

Ma’lumotlarni kiritishda quyidagi xususiyatlarga e’tibor berish kerak:

**Sanoqli formatlar:** sanoqli formatlarda o’nik bo’luchchi sifatida nuqta yoki vergul qabul qilingan. O’nik bo’luchchining turli Windows boshqaruv panelida «Язык и стандарты», «Regional Settings» dialog oynasida berilgan o’rnatuv asosida beriladi.

**Qatorli formatlar:** uzun qatorli o'zgaruvchilarda qiymatlar maksimal uzunlikka yetguncha probel bilan to'ldiriladi. Misol uchun 10 qiymatdan iborat uzun o'zgaruvchilar SPSS dasturining ichida saqlanadi.

**Vaqt va sana formatlari:** 27 ta turli sana va vaqtga tegishli ishoralar mavjud. Vaqt formatlarida soat, minut, sekundlarni bo'lувчи sifatida ikki nuqta, nuqta yoki probel qo'llanilishi mumkin.

**Maxsus valyuta:** valyutani aks ettiruvchi SSA, SSV, SSS, CCD va SSE belgilari "Edit" (Pravka) / "Option"...(Параметры) "Currency" (Балюта) xizmati yordami bilan beriladi.

#### **"Width" ustuni formati:**

Jins o'zgaruvchilari uchun ustunda tegishli xajmdagi format beriladi.

Ushbu formatni o'zgartirish uchun katakchadagi belgisiga murojaat qilinadi.

Bu vaziyatda kenglikning tanlangan qiymati «tab» klaviatura tugmasi yordamida tasdiqlanadi.

#### **"Decimals" o'nlik razryadlari:**

Jins o'zgaruvchisi qatorli formatga uning uchun o'nlik razryaddan 0 berilgan. Ushbu qiymatning oshishi yoki kamayishini katakchadagi belgisi orqali amalga oshirish mumkin. Kiritilgan qiymatni «tab» klaviatura tugmasi yordamida tasdiqlash mumkin.

#### **"Label" qiymatlar belgisi:**

Bu format o'zgaruvchilarning xususiyatini nisbatan kengroq ochib berishga mo'ljallangan. Qiymatlar belgisi 256 timsolgacha o'zida mujassam etadi. Bu formatda yozma va bosma harflar qabul qilinadi. Ular qaysi ko'rinishda kompyuterga kiritilgan bo'lsa, o'sha ko'rinishda dasturga kiritiladi.

### **17.4. Ma'lumotlarni kodlashtirish usullari.**

SPSS dasturida ma'lumotlar aksariyat hollarda raqamlar ko'rinishida kiritiladi. Kodlangan ma'lumotlar tanlanma ichida alohida guruhlar borligini bildiradi. Ko'pincha nominal shkalaga tegishli o'zgaruvchilar kodlashtirish jarayoniga yuz tutadi. Shuningdek, interval shkalada o'changan ma'lumotlarni ham kodlashtirish mumkin. Yoki, psixologiyada kishilar temperamentiga ko'ra 4 ga bo'linadi, test savollariga javoblar ham so'z birikmalari shaklida (ha, yo'q yoki to'g'ri keladi, qisman to'g'ri keladi, to'g'ri kelmaydi va shu kabilar) bo'lishi mumkin.

Bu ma'lumotlar matn shaklida bo'lgani uchun ular ustida statistik amallar bajarish mumkin emas. SPSS dasturi bu toifadagi ma'lumotlarni sonli ko'rinishga keltirish va ular ustida statistik amallar bajarish imkonini beradi. Albatta, boshqa dasturlarda ham jumla o'rniga uning kodini kiritish mumkin. Lekin tadqiqotchi har bir son qaysi o'zgaruvchining kodи ekanligini eslab qolishi qiyin, ayniqsa ma'lumotlar bazasiga minglab kuzatishlar kiritilgan bo'lsa.

SPSS dasturi qiymatlarning belgisi yoki uning ma'nosini ma'lumotlar fayliga kiritish, statistik tahlildan keyin ularning ma'nosini oson aniqlash imkonini beradi. Qiymatlar belgisining uzunligi 60 timsol bilan chegaralangan. Amalda 3 tadan 10 taga ha timsol yetarli bo'lishi aniqlangan.

Demak, qiymatlarning belgisini kiritish amalidan foydalanish SPSS dasturiga matn ko'rinishidagi o'zgaruvchilarни son sisatida kiritish va ular ustida statistik amallar bajarish imkonini berdi. Shu bilan birga dasturda shu qiymatning matn ko'rinishidagi nomini ham aks ettirish imkonи saqlanib qolnadi.

Qiymatlarning belgisini kiritishni ma'lumotlar bazasini shakllantirishdan oldin amalga oshirish tavsiya qilinadi. O'zgaruvchilarning kodlarini kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Kodlarning ahamiyati SPSS dasturida "O'zgaruvchilarни ko'rish" oynasining "Values" formatida kodlangan o'zgaruvchilarni izohlash mumkin.

Name	Type	Width	Dec	Label	Column	Missing	Align	Measure	Scale
1	String	2	0	1	1	1	Left	Unmeasured	Real
2	String	2	0	2	2	1	Left	Unmeasured	Real
3	String	2	0	3	3	1	Left	Unmeasured	Real
4	String	2	0	4	4	1	Left	Unmeasured	Real
5	String	2	0	5	5	1	Left	Unmeasured	Real
6	String	2	0	6	6	1	Left	Unmeasured	Real
7	String	2	0	7	7	1	Left	Unmeasured	Real
8	String	2	0	8	8	1	Left	Unmeasured	Real
9	String	2	0	9	9	1	Left	Unmeasured	Real
10	String	2	0	10	10	1	Left	Unmeasured	Real

17.7-rasm. Kodlangan o'zgaruvchilar xususiyatining «Values» formatida belgilanishi.

"Value Label" dialoglar oynasi chiqqanida kodlangan qiymatlar Value qatoriga, ularning ahamiyati esa Label qatoriga kiritiladi. Kodning ahamiyati kiritilishi bilan "Add" ya'ni, qo'shish tugmasi

faollashadi. Tugmani bosishimiz bilan oynachada kerakli izohni ko'rish mumkin.

### 17.5. Elektron jadvaldan ma'lumotlarni kiritish.

Biz yuqorida ma'lumotlar manbayi Excel elektron jadvalida saqlanishi mumkinligini aytib o'tgan va to'plangan ma'lumotlar manbayini ko'rinishini keltirgan edik.

Dastur tahlili uchun elektron jadvaldan ma'lumotlarning kerakli qismini yoki hammasini olish uchun SPSS dasturi mos xizmatini tanlashni 17.7 rasmda keltirdik.

Item	resort	idemotlik	tolqozlik	summonlik	Munisipal statik emotional diso		arziviylik	kremativlik	muzikalik
					Sum	spesifik			
1	4	12	8	29	12	30	26	15	11
2	2	29	28	55	18	20	10	11	12
3	1	9	22	29	7	4	8	5	7
4	2	29	30	63	19	20	17	8	15
5	1	19	19	22	10	10	6	7	6
6	2	29	22	50	9	20	11	11	10
7	2	29	21	51	10	29	12	14	17
8	2	29	18	50	11	20	17	6	9
9	9	29	22	53	17	21	8	9	10
10	8	9	16	30	8	8	5	7	9
11	1	10	16	43	5	20	12	11	5
12	1	15	6	30	4	8	4	11	5
13	2	29	10	43	9	10	9	11	5
14	2	29	28	50	18	14	19	10	8
15	9	17	14	50	12	8	8	11	14
16	1	15	22	57	9	18	6	6	11
17	1	14	14	54	17	9	10	18	17

17.8-rasm. Ma'lumotlarni SPSS dasturiga joylaganda o'zgaruvchilar oynasi.

Ma'lumotlar 17.3 rasmda tasvirlangan Excel dasturining ma'lumotlarning qisman olingan. Tadqiqotchi to'plagan ma'lumotlarining istalgan qismidan tadqiqot o'tkazishi mumkin.

Name	Type	Width	Decim.	Label	Values	Missing	Column	Mean	Measure	Role
1. item	Number	8	0		1,2,4,6,7	None	1	■ Center	at Numb.	■ Input
2. resort	Number	8	0		None	None	2	■ Center	■ Scale	■ Input
3. idemotlik	Number	8	0		None	None	3	■ Center	■ Scale	■ Input
4. tolqozlik	Number	8	0		None	None	4	■ Center	■ Scale	■ Input
5. summonlik	Number	8	0		None	None	5	■ Center	■ Scale	■ Input
6. Munisipal statik	Number	8	0		None	None	6	■ Center	■ Scale	■ Input
7. emotional diso	Number	8	0		None	None	7	■ Center	■ Scale	■ Input
8. sumonmlik	Number	8	0		None	None	8	■ Center	■ Scale	■ Input
9. kreativlik	Number	8	0		None	None	9	■ Center	■ Scale	■ Input
10. muzikalik	Number	8	0		None	None	10	■ Center	■ Scale	■ Input
11. nazarat	Number	8	0		None	None	11	■ Center	■ Scale	■ Input
12. arziviylik	Number	8	0		None	None	12	■ Center	■ Scale	■ Input

17.9-rasm. Ma'lumotlarni SPSS dasturiga joylaganda o'zgaruvchilarni ko'rish oynasi.

Ko'rib turganimizdek, ma'lumotlar *muharririda* ham joylashgan o'zgaruvchilar va *ishlada* ko'rish mumkin. Jins o'zgaruvchini nomdan olmas Qolgan o'zgaruvchilar esa, metrik shkalada *turildi*, vaziyada tartib shkalaşını ham tanishi *mumkin*. Xususiyatidan kelib chiqib, intervallar va niqslari *mos keladigan metrik shkala* tanlandi.

### 17.6. O'zgaruvchilarning boshqa xususiyatlari.

O'zgaruvchilarning standart atributlaridan (*misol uchun* *o'zgaruvchilarning* belgisi, o'lelav shkalasi va h.k.) tashqari foydalanuvchi kiritiladigan atributlarni ham joylash mumkin. O'zgaruvchilar foydalanuvchi atributiv xususiyatlari standart xususiyatler singari tashqi paketingin ma'lumotlar faylida saqlanadi. Shuning uchun savollariga javob beradigan o'zgaruvchining xususiyatlari yaratish mumkin (misol uchun, bироqlama tanlov, ko'pyoqlama tanlov, atkelu blankasining bo'sh joylarini to'ldirish) yoki o'zgaruvchilarni hisoblash uchun qo'llaniladigan formulalar.

O'zgaruvchilarning sozlanadigan xususiyatlarini yaratish uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. "Data" (Данные) → "New Custom Attribute" (Создаваемый новый атрибут)...

2. Tanlangan o'zgaruvchilar ro'yxatiga yangi xususiyat tayinlanadigan o'zgaruvchini tortib kelamiz.

3. Xususiyatning nomini kiritamiz. Xususiyatning nomi boshqa o'zgaruvchilar nomi uchun zaruriy bo'lgan talablar asosida kiritiladi.

4. Xususiyat uchun ixtiyoriy qiymat kiritamiz. Agar bir necha o'zgaruvchilar tanlangan bo'lsa, bu qiymat bareha o'zgaruvchilarga ta'luqli bo'ladi. Bu joylarni to'ldirishsiz qoldirish mumkin. Keyinchalik, barcha o'zgaruvchilar uchun «O'zgaruvchilarni ko'rishtirish» oyinasi qiymatlar kiritish mumkin.

• Ma'lumotlar muharririda xususiyatning aks etishi mumkin. Xususiyatlari sozlanadigan o'zgaruvchilar nomlari kvadrat qavslasini bo'ladi.

• O'zgaruvchilar nomlari dollar belpisi bilan boshilishi turadi va o'zgartirilmaydi.

▪ Bo'sh katak o'zgaruvchi uchun mazkur xususiyat mavjud emasligini bildiradi. Yacheykada ko'rsatilgan *Tekst Pusto* yozuvi mazkur o'zgaruvchi uchun xususiyat mavjud, lekin uning qiymati tayinlanmaganini bildiradi.

• Yacheykada ko'rsatilgan *Tekst Massiv* mazkur xususiyat massiv xususiyat ekanligini bildiradi. Ya'ni o'zida ko'p ma'lumotlarni saqlaganini ko'rsatadi. Qiymatlar ro'yxatini ko'rish uchun mazkur yacheyka tugmasi bosiladi.

O'zgaruvchilarning sozlangan sifatlarini chiqarish va tahrirlash uchun

"View" → "Customize Variable" "View" → Ya'ni «Вид» → "Настроить" «Вид» «Переменные»...

### **Nazorat savollari:**

1. O'zgaruvchilarni ko'rish oynasida qanday ma'lumotlar kiritiladi?
2. "Values" formatida o'zgaruvchilarning qanday xususiyati beriladi?
3. Qatorli formatlar nima?
4. Vaqt va sana formatlarida qanchagacha belgi kiritish mumkin?
5. Ma'lumotlar manbayini elektron jadvalda saqlashning afzalligi nimada?
6. Nominal shkalada qanday o'zgaruvchilar baholanadi?
7. "Decimals" o'nlik razryadida qanday xususiyat kiritiladi?
8. Tushirib qoldirilgan qiymatlar qaysi formatda belgilanadi?
9. SPSS dasturida qanday oshoralarни kiritish ruxsat etilgan?
10. Qaysi formatda o'zgaruvchilarga tegishli ma'lumotlarni o'z holicha, o'zgartirmasdan kiritish mumkin?
11. SPSS dasturining «O'zgaruvchilarni ko'rish» oynasining qaysi formatida o'zgaruvchilarning kodlari va ularning ahamiyati belgilanadi?
12. O'zgaruvchilarning xususiyatlarini SPSS dasturining qaysi formatida ko'rish mumkin?
13. Maxsus valyuta qaysi operatsiyalar bilan beriladi?
14. Jadval ustunlari katakchasiagi qiymatlarning joylashishini qaysi format belgilaydi?

SPSS dasturida ma'lumotlarni joylashtirish talablarining to'g'riligini aniqlang. Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'n" surʼulari orqali ifodalang.

A. Xususiyatlari sozlanadigan o'zgaruvchilar nomlari qanday bo'ladi.

B. O'zgaruvchilar nomlari dollar belgizi bilan boshlanishi qanday turadi va o'zgartirilmaydi.

C. Bo'sh katak o'zgaruvchi uchun mazkur xususiyat mavjud emasligini bildiradi.

D. Yacheykada ko'rsatilgan Tekst Massiv mazkur xususiyat mavjud emasligini bildiradi.

E. Yacheykada ko'rsatilgan Tekst Massiv mazkur xususiyat ekanligini bildiradi. Ya'ni o'zida ko'p ma'lumotlarni saqlaganini ko'rsatadi.

Javoblar:	A	B	C	D	E

## **18-mavzu: EXCEL DA TAQSIMLANISH KO'RSATGICHALARINI HISOBBLASH.**

**Tayanch tushunchalar:** «alfa» ahamiyatlilik darajasi, argument, birinchi kvartil, uchinchi kvartil, ijobiy asimmetrik taqsimot, ishonch chegarasi, markaziy tendentsiya, chastotalar poligoni, salbiy asimmetrik taqsimot, ekstriumlar, funktsiyalar sintaksisi,

### **18.1. Taqsimlash ko'rsatgichlari.**

Ms Excelda taqsimlanish qatorlari shakllarini tahlil qilish va ularning markaziy tendentsiyalarini (o'ttacha qiymati moda, ekstriumlarini (maksimal va minimal qiymat)) ko'rsatkichlarini hisoblash imkonи mavjud. Ularni hisoblash uchun statistik funktsiyalar va «Анализ данных» instrumenti qo'llaniladi. Taqsimlanish qatorlari, tadqiq qilinayotgan ko'plikning tarkibini; uning gomogenligini; o'zgaruvchilar qiymatlarining tebranishini va ularning o'zgarish chegaralarini o'rganish maqsadida quriladi. Taqsimlanish qatorlari asosida tuzilmaning nisbiy kattaligi va o'ttacha qiymatlari hisoblanadi. *Statistikada taqsimlanish qatorlari – bu raqamli ko'rsatkichlar qatori bo'lib, qiymatlari uzlusiz ketma-ketlikda taqsimlangan, bir mayjud belgi bo'yicha ko'plikning taqsimlanish birligini namoyish etadi.*

Taqsimlanish qatorlari ikki elementni o'z ichiga oladi: 1. ( $x$ ) variantlar belgisining alohida ehtimoliy qiymatlari; 2. chastotalar yoki o'lchovlar ( $f$ ) – takrorlanadigan qiymatlar soni.

Taqsimlanish qatorlari qurilish tartibi guruh taqsimlanishi bilan bir hil. Ammo ba'zida qatorlarning katta qiymatlari bo'lgani uchun ularni ilg'ash qiyn bo'ladi. bunday hollarda ranjirlash tartibidan foydalanish qo'l keladi.

Empirik tadqiqot o'tkazish jarayonida taqsimlanish qatorlari quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi: taqsimotning shakli ko'rsatkichlari; taqsimotning joylashish ko'rsatkichlari; taqsimotning gomogenligi ko'rsatkichlari.

Taqsimlanish shaklini namoyish qilish uchun ko'pincha grafikadan foydalaniladi. Bizga oldingi mavzulardan ayonki, taqsimlanish ko'rinishi qo'ng'iroqsimon qiyshiq shaklda tasvirlanadi. Har bir tadqiqot taqsimoti ana shu shaklga solishtiriladi. Demak, taqsimot normal va nosimmetrik ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Taqsimlanishning quyidagi asosiy ko'rsatkichlari mavjud:

- Minimal qiymat -  $X_{\min}$ ;
- Birinchi kvartil -  $Q_1$ ;
- Mediana;
- Uchinchi kvartil -  $Q_3$ ;
- Maksimal qiymat -  $X_{\max}$

Agar ma'lumotlar butunlay simmetrik joylashgan bo'lsa, u holda taqsomotning yuqoridagi beshta ko'rsatkichlari orasida quyidagi moslik kuzatiladi:

- Minimal qiymat -  $X_{\min}$  dan medianagacha bo'lgan masofa, medianadian maksimal qiymat -  $X_{\max}$  gacha bo'lgan masofaga teng.
- Minimal qiymat -  $X_{\min}$  dan  $Q_1$  gacha bo'lgan masofa,  $Q_3$  dan maksimal qiymat -  $X_{\max}$  gacha bo'lgan masofaga teng.
- $Q_1$  dan medianagacha bo'lgan masofa medianadan  $Q_3$  ga bo'lgan masofaga teng bo'ladi.


Agar taqsimotning ma'lumotlari nosimmetrik joylashgan bo'lsa, u holda quyidagi holat kuzatiladi:

- Agar taqsimot ijobjiy asimmetrik bo'lsa,  $X_{\min}$  dan medianagacha bo'lgan masofa, medianadian maksimal qiymat -  $X_{\max}$  gacha bo'lgan masofadan kichik bo'ladi.
- Agar taqsimot ijobjiy asimmetrik bo'lsa,  $Q_3$  dan  $X_{\max}$  gacha bo'lgan masofa,  $X_{\min}$  dan  $Q_1$  gacha bo'lgan masofaga nisbatan katta bo'ladi.
- Agar taqsimot salbiy asimmetrik bo'lsa,  $X_{\min}$  dan medianagacha bo'lgan masofa medianadan  $X_{\max}$  gacha bo'lgan masofadan katta bo'ladi.
- Agar taqsimot salbiy asimmetrik bo'lsa,  $Q_3$  dan  $X_{\min}$  gacha bo'lgan masofa  $X_{\max}$  dan  $Q_1$  qaraganda kichik bo'ladi.

Ms Excel dasturida taqsimotning bu beshta ko'rsatkichini topish uchun **«Квартили.Исқ»**, **“Quartile.Exc”** funktsiyasidan foydalanish mumkin. Bu funktsiya **«Мастер функции»** orqali chaqiriladi. Ammo kvartillash operatsiyasi interval qatorlarda qo'llaniladi. Diskret qatorlarni kvartillash uchun dastlab, bu qatorlarni **«Сортировка»** xizmatida tartiblash kerak bo'ladi.

**«Квартили.Исқ»**, **“Quartile.Exc”** funktsiyasida taqsimot ko'rsatkichlari 0,1,2,3,4 sonlari bilan belgilanadi. Formula sintaksida **«Массив»**, **“Array”**; **«част»**, **«quart»** yacheyleklari to'ldiriladi. **«Массив»** bo'sh bo'lsa, **“Quartile.Exc”** funktsiyasi **#ЧИСЛО!**; **#NUM!** belgisini chiqaradi.

Funktsiya dialog qismining «Массив» yoki “Array” yacheysiga tahlil qilinishi kerak bo‘lgan qiymatlar ustunini ajratish orqali joylashtiramiz. «Част» qismida butun son bo‘lmasa, funktsiya ishlamaydi. «Част»  $\leq 0$  yoki «chast»  $\geq 4$  bo‘lsa, «Квартили.Иск» funktsiyasi #ЧИСЛО!; #NUM! belgisini qaytaradi. «Част» argumenti 0,2,4 ga teng bo‘lsa, «Квартили.Иск» funktsiyasi “Min”, “Max”, “Mediana” funktsiyalari bilan bir xil qiymat chiqaradi. Misol uchun, quyidagi taqsimotning ko‘rsatkichlarini topamiz.



18.1-rasm. Taqsimlash ko‘rastkichlarini topishda ma’lumotlarni «Квартили.Иск» yoki “Quartile.Exc” funktsiyasi uchun tayyorlash.


«Квартили. Иск» yoki “Quartile.Exc” funktsiyasini chaqiramiz.



18.2-rasm. «Мастер функций» ni ishga tushirish


Uskunalar panelidan «Formula» bo‘limidan Funktsiyalar ustasi orqali Statistika bo‘limiga kiramiz. Bizning holatimizda «Квартили.

**Икк» yoki «Quartile.Exc» funktsiyasi** yaqinda qo'llanilgan funktsiyalarga kirgani uchun uni ochish qulay bo'ladi.




18.3-rasm. «Квартли.Иск» ni ishga tushirishning operatsiyasi

Oldin aytib o'tganimizdek, sonlar qatorida «chast»  $\leq 0$  bo'lgani uchun funktsiya #NUM! timsolini chiqardi. Shuning uchun minimal va maksimal qiymatlarni alohida topamiz.




Minimal va maksimal qiymatlarni master funksiyasi orqali ham topish mumkin. Ammo uskunalar paneli orqali bu ishni qilish qulay.



18.4-rasm. «Квартилларни искази» орқали биринчи квартилни топиш.

Birinchi kvartilni ( $Q_1=1$ ) funktsiya dialog oynasining "chast" yoki "quart" qismiga mediana=2,  $Q_3=3$ , maksimum=4 ni kiritish orqali topamiz.



**18.5-rasm.** Qatorning taqsimot ko'rsatkichlari.

Taqsimlanish kvartillari qiymatlar qatorining teng taqsimlangan ulushlarini aniqlaydi. O'z navbatida mediana, minimal qiymatlar va birinchi, uchinchi kvartillar taqsimlanish ko'rsatkichi sifatida baholanadi.

Taqsimotning simmetrik ekanligini aniqlash uchun, ilgari aytib o'tganimizdek medianadan  $X$  maksimal qiymatgacha bo'lgan masofa  $20-9=11$ ni tashkil etadi. Minimal qiymatdan medianagacha bo'lgan oraliq,  $9-4=5$  ni tashkil etadi. Demak,  $X_{\text{max}}$  dan medianagacha bo'lgan masofa, medianadan  $X_{\text{min}}$  gacha masofadan ancha farq qiladi. Shuningdek,  $Q_3$  dan  $X_{\text{max}}$  gacha  $20-12=8$  bo'lgan masofa;  $Q_1$  dan  $X_{\text{min}}$  gacha  $6-4=2$  bo'lgan masofadan ancha farq qiladi. Demak, taqsimot ijobjiy asimmetrik taqsimlangan. Ya'ni grafik usulda taqsimotning o'ng tomonga qiyshaygan qo'ng'iroqsimon qiyshiq shaklini yaratishimiz mumkin.

## 18.2. Ta'riflar, hisoblash formulalari.

Ma'lumotlarni tahlil qilganda, taqsimlanishning parametrlarini yoki ularga turli statistik xarakteristikalar berish ehtiyoji tug'iladi. Statistikada ma'lumotlarni o'zgartirish yo'li bilan toplash taqsimot deb aytildi. Ms Excel dasturi ularni bu yo'sinda tahlil qilishning bir qator vositalari taklif etiladi. Bu qurilgan statistik funksiyalar, Ma'lumotlarning tarqalishini, ko'lamini aniqlaydi.

Ma'lumotlar taqsimlanishini «Описательная статистика» «Descriptive statistics» va «Гистограмма», «Histogramm» funktsiyalarini amalga oshiradi. Mazkur operatsiyalarni «Пакет анализа» menyusi orqali chaqirishimiz mumkin. Microsoft Excel 16 dasturida «Анализ данных», «Data analyse» ning o'rnatilish tartibini ko'rsatamiz.

Dastlab, «Servis» menyusidan «Надстройка Excel» ochiladi.

«Доступные надстройки» orqali «Пакет анализа» belgisi tanlanib, «OK» tugmasi bosiladi.

Agar «Доступные надстройки» ro'yxatida «Пакет анализа» funktsiyasi bo'lmasa, «Обзор» tugmasini bosib, funktsiya tanlanishi mumkin.

Agar «Надстройка» da «Пакет анализа» funktsiyasi yo'qligi haqida xabar chiqsa, uni o'rnatish uchun «Da» tugmasi bosilib, operatsiya tasdiqlanadi.

Excel dasturidan chiqiladi va u qayta ishlataladi. Endi dasturning «Данные» menyusida «Пакет анализа» funktsiyasi mavjud bo'ladi. Keyingi mavzuda tavsiflovchi statistikaga haqida batafsil yoritib o'tamiz.

Excel dasturida standart vositalardan tashqari ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan bir qator murakkab funktsiyalar to'plami mavjud: LINEYN (LINEST), ТЕНДЕНЦИЯ (TREND), ROST(GROWTH).

Ms Excel dasturida «НОРМ.СТ.ОБР», «НОРМ.С.ДИС» funktsiyasi standart normal taqsimotning teskari qiymatlarini hisoblaydi. Uning sintaksisi bir parametr dan tashkil topgan:

«НОРМ.СТ.ОБР» (ehtimoliylik), bu funktsiyada ham ilgarigi funktsiya singari jadvallar bo'yicha faqat ehtimoliylik emas, balki kvantillar topiladi (buyurilgan ehtimoliylikka mos keladigan x qiymatlari).

«НОРМРАСП» Taqsimot standart og'ishini, o'rtachasini ko'rsatgan holda uning normalligini belgilaydi. Uning sintaksisi quyidagiicha ifodalanadi:

«НОРМРАСП», «NORMDIST» ( $x$ ; o'rtacha, standart og'ish, kumulyatsiyasi).

Formula funktsiyasining ahamiyatini quyida belgilangan:

$x$ : majburiy qiymat kiritilishi kerak bo'lgan qator;

«Srednoe, mean»: majburiy, taqsimotning o'rtacha arifmetik qiymati;

«Standart\_otk», «Standart\_Dev»: majburiy, taqsimotning o'rtacha og'ishi.

«Integral», «kumulative»: majburiy, funktsiya formulasini belgilaydigan mantiqiy qiymat. Agar «Integral», «kumulative» argumenti «ISTINA» qiymatiga ega bo'lsa, «HOPMPACП», “NORMDIST” funktsiyasi taqsimotning integral funktsiyasini chiqaradi. Agar bu argument «ЛОЖЬ» qiymatiga ega bo'lsa, u holda taqsimotning o'lchov funktsiyasini takrorlaydi.

Agar «srednee», «srednoe\_otk» argumenti qiymat bo'lmasa-yu, «HOPMPACП» funktsiyasi «#Value!», «#Znach!» ishorasini belgilaydi.

Agar «средное\_отк» argumenti nolga teng bo'lsa, yoki undan kichik bo'lsa, unda «HOPMPACП» funktsiyasi «#Число!» ishorasini chiqaradi.


Agar o'rtacha=0; std\_og'ish=1; integral= «Истина» bo'lsa, unda «HOPMPACП» funktsiyasi standart normal taqsimotni «HOPMPACП»; “NORMSTDIST” chiqaradi.

Normal taqsimot zichligi tenglamasi (agar, argument «Ложь» bo'lsa) quyidagicha bo'ladi:

$$f(x; \mu, \sigma) = \frac{e^{-\frac{(\mu-x)^2}{2\sigma^2}}}{\sqrt{2\pi\sigma^2}}$$

Bu yerda  $\pi = 3,14$  ga teng.

Agar «интегральная» argumenti «Истина» qiymatiga ega bo'lsa, unda formula «интегральная» ni minus cheksizlikdan gacha bo'ladi.



18.6-rasm. Normal taqsimot funktsiyasining sintaksisi.

Agar «Interpolash» argumenti «Hesimni bo'lsa, unda integral taqsimot qiymati chiqadi,

Agar «Hesimlanish» argumenti «Hesimni bo'lsa, unda yuqorida ta'riflangan taqsimot zehligi ko'rsatiladi.

### 18.3. Taqsimlanishning joylashgan o'rmini aniqlash ko'rsatkichlari.

Taqsimlanishning joylashgan o'rmini aniqlash ko'rsatkichlariga urta arifmetik qiymat, tuzilmaviy o'rtachalar, moda va mediana kiradi. Moda va mediana taqsimot xarakteristikasi bo'lgan o'rtacha *qiymatning to'ldiruvchisi* sifatida baholanadi.

Agar o'rtacha kattalik qiymati moda va medianaga mos tushsa, unda qator simmetrik hisoblanadi. Ammo amaliyotda qat'iy simmetrik qatorlar kam uchraydi. Tadqiqotchi ko'pincha qatorning asimetrik taqsimoti bilan ishlaydi.

Asimetriya xarakteristikasi uchun asimetriya koefitsienti qo'llaniladi. Asimetriyaning eng sodda ko'rsatkichi o'rtacha arifmetik qiymat va modaning ayirmasi bo'la oladi.

Matematik statistikada variatsiya (o'zgaruvchanlik) markaziy o'rnlarni egallaydi. Amaliyotda variatsiya muammosiga kamroq murojaat qilinadi. Ma'lumotlarni elementar tasniflash uchun ko'pincha standart og'ishga kam hollarda medianaga murojaat qilinadi. Ammo jiddiy tadqiqotlarda o'zgaruvchanlik ko'rsatkichini inobatga olish zarur.

Shunday qilib, variatsiya – bu o'zgaruvchanlik degani bo'lib, variativlik ko'rsatkichi o'zgaruvchanlik ko'rsatkichini bildiradi. Statistik tahlilda ommaviy xodisalar statistik ko'rsatkichlar orqali o'zgartiriladi. Bir ko'rsatuvdan ikkinchisiga o'zgarub turuvchi ko'rsatkichlar, variatsiya ko'rsatkichlari deb aytiladi. Misol uchun biron bir jarayonning barcha o'lechovlari bir xil natija beraversa, variatsiya nolga teng bo'ladi. Hech nima o'zgarmaydi va barcha qiymalari bir xil bo'ladi. Agar turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning intellekt darajasi o'rganilsa, u holda ma'lumotlar tahlilida variatsiya mavjud bo'ladi.

Variatsiya ko'rsatkichlari jarayon va xodisalarga juda mo'ljum xarakteristika beradi. Ular jarayonlarning barqarorligini va xodisalarning gomogenligini belgilaydi. O'zgaruvchanlik variatsiya ko'rsatkichi qancha past bo'lsa, jarayon shunchalik barqaroq bo'ladi. Demak, shunchalik u, bashorat qilishga yon beradi. Yana bir mojib ketinadi,

ma'lumotlarning eng maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi tafovut, variatsiya diapozonini belgilaydi.

O'zgaruvchanlik ko'rsatkichi alohida olingen qiymatlarni emas, balki ayrim xodisa va jarayonlarni umumiy baholaydi. Variatsiya va standart og'ish qiymatiga ega bo'lib turib, tadqiqot ma'lumotlari haqida yaxshigina tasavvurga ega bo'lish mumkin.


Variatsiya koeffitsenti – o'rtachaga nisbatan qiymatlarning (o'rtacha qiymatga standart og'ish munosabati) tarqalishi aks etuvchi ko'rsatkichdir. Variatsiya koeffitsenti foizlarda o'lchanadi va vaqtinchalik qatorning bir tipligini aks etadi. Shuningdek, variatsiya koeffitsenti ma'lumotlarni tasodifiy omillardan tozalaydi. Agar variatsiya ko'rsatkichi 33% dan yuqori bolsa, qator bir tipli hisoblanmaydi. Ya'ni o'rtacha qiymatga nisbatan ma'lumotlarning katta hajmda tarqalishini bildiradi.

Excel dasturida variatsiya koefitsientini hisoblashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri formulasi bo‘limganligi uchun, u quyidagi usulda hisoblanadi. = СТАНДАРТ\_ОТКЛ. (qatorga iqtibos) / СЧЁТЕСЛИ(qatorga iqtibos; «> 0»)).

„Bu yerda, СТАНДАРТ\_ОТКЛ. – Excel da standart og'ish qiyamati hisoblash formulasi;

(SUMM(qatorga\_iqtibos)/(qatorga\_iqtibos; « > 0 »)) – о'ртача гиymatni hisoblash formulasi.


Formulani yacheykaga kiritamiz va variatsiya koefitsientini qo'lg'a kiritamiz.



## **18.7-rasm. Ma'lumotlar o'zgaruvchilar ko'rsatkichini aniqlash uchun standart xatoni topish**




18.8-rasm. Ma'lumotlar o'zgaruvchilar ko'rsatkichini aniqlash uchun o'rtacha qiymatni topish




18.9-rasm. Ma'lumotlarning o'zgaruvchanlik ko'rsatkichini aniqlash uchun yacheykani foizli formatda sozlash

Variatsiya ko'rsatkichi foizda hisoblanishi uchun jadvalning kerakli yacheykasini belgilab, sichqonechaning o'ng tomonini bosamiz. Ekranda paydo bo'lgan dialog oynasidan "Формат ячеек" "Format cells" ni tanlaymiz.



18.10-rasm. Variatsiya koefitsientini aniqlash uchun topish formulani qo'llash.



18.11-rasm. Ma'lumotlarning variatsiya koeffitsentini chiqarish.

#### 18.4. Markazga intilish tendentsiyalarini aniqlash statistik ko'rsatkichi.

Markazga intilish tendentsiyasining uchta asosiy meyorlari mavjud:

- ✓ O'rtacha qiymat (mean) taqsimotning miqdoriga bo'lingan barcha qiymatlariga teng.
- ✓ Mediana (mediana) o'zgaruvchilar qiymatlarini teng ikkiga bo'lувчи qiymat.
- ✓ O'zgaruvchilar (moda) qatorida eng ko'p uchragan qiymat.

O'zgaruvchanlik o'chovi ikki kattalikni o'z ichiga oladi. Ular o'zgaruvchanlik yoki taqsimot qiymatlarining o'rtaqchaga nisbatan tarqalishi.

Taqsimot diapozonining (chegaralarining) xarakteristikasini to'rtta asosiy qiymat belgilaydi. Ular: maksimum (**maximum**) – taqsimotning eng katta qiymati; minimum (**minimum**) – taqsimotning eng kichik qiymati; razmax (**range**) – taqsimotning maksimum va minumum ayrimasi; summa (**sum**) – taqsimotning barcha qiymatlari yig'indisi.

#### 18.5. Taqsimlanish ko'rsatkichlari, protsentillar.

Taqsimot shaklini belgilaydigan asimmetriya (skewness) va eksess (kurtosis) ko'rsatkichlarini, shuningdek protsentil ko'rsatkichini tavsiflovchi statistika dialog oynasi orqali hisoblash mumkin.

SPSS dasturida → "Analyse" (Анализ) → "Descriptive Statistics" (Описательная Статистика) → "Frequencies"...


The screenshot shows the SPSS Frequencies dialog box. On the left, there is a table with three columns: 'Emotional\_barqarorlik', 'Samimiylik', and 'Man'. The table contains 12 rows of data. To the right of the table are two panes: 'Variables' (containing 'Emotional\_barqarorlik') and 'Statistics...'. The 'Statistics...' pane is expanded, showing various statistical options like Descriptives, Crosstabs, etc., with 'Descriptives' checked. At the bottom of the dialog are buttons for 'Display frequency tables', 'Reset', 'Paste', 'Cancel', and 'OK'.

	Emotional_barqarorlik	Samimiylik	Man
1	8	12	
2	28	13	
3	22	7	
4	30	19	
5	10	10	
6	22	9	
7	21	10	
8	28	15	
9	22	12	
10	7	7	6
11	16	7	20
12	6	7	8
			30

### 18.12/13-rasm. Statistik tavsifnomalar oynasini ochish.

Ochilgan dialoglar oynasini ishga tushirish uchun «Variables» (O'zgaruvchilar) bo'limgiga Tahlil uchun kerakli o'zgaruvchini o'tkazamiz. «Emotional barqarorlik» o'zgaruvchisini tahlil qilish uchun uni chap tomonidagi oynadan o'ng tomonidagi oynaga o'tkazamiz va "OK" tugmasini bosamiz.

Dialog oynasining o'ng tomonidagi "Statistics" tugmasini bosamiz. Ekranda paydo bo'lgan dialog oynasida taqsimot parametrlari bo'ladi. Mazkur parametrlarni keraklisining oldiga belgi qo'yamiz.



### 18.14-rasm. Statistik parametrlarni belgilash.

Ko'rib turganimizdek, statistik parametrlar alohida guruhlarga bo'lingan.

**"Percentile Values"** bo'limida protsentillarni tahlil qilish imkonibor. Belgilangan «Emotsional barqarorlik» o'zgaruvchisining protsentillarni 10 qadamda belgilash uchun protsentillar shkalasini 10 ta oraliqda 10, 20, 30, 40 va h.k. ga teng taqsimlash kerak.

1. **"Percentile Values"** guruhida «Cut points for» «Protsentili dlya» degan katakka 10 kiritiladi. (SPSS ning 19 nchi avloddan keyingi versiyalarida mazkur katakka 10 soni suket bo'yicha (po umolechaniyu) qo'yildi). "OK" tugmasi bosiladi.

Nihoyat, ixtiyoriy protsentillar to'plamini hisoblash uchun keyingi harakat amalga oshiriladi.

1. Chastota oynasi kerakli tartibda ochiladi. **"Percentile Values"** guruhidan «Cut points for» katagiga 4 raqami qo'yilsa, kvartillarni hisoblaydi. Shuningdek, kvartillarni (25 nchi, 50 nchi va 75 nchi protsentillarni) bitta harakat bilan hisoblash mumkin. Buning uchun **"Percentile Values"** guruhidan Kvartili katakehasiga belgi qo'yish va "OK" tugmasini bosish kifoya. **"Percentile(s)"**, bu yerda tadqiqotchi tomonidan aniqlanadigan protsentil qiymatlari kiritiladi. 0 dan 100 gacha bo'lgan qiymatlар orasidan protsentil qiymati katakka kiritiladi va Add tugmasi bosiladi. Bu harakatni istalgan barcha protsentillarda qo'llash mumkin. Oshib borish tartibidagi qiymatlар ro'yxatda bo'ladi. misol uchun 37 va 83 qiymatlari kiritilishi mumkin. Birinchi holatda

tanlangan o'zgaruvchining 37% kuzatuvdan yuqorida bo'lgan qiymati ko'rsatiladi. Ikkinci holatda esa, 83% kuzatuvdan yuqorida bo'lgan qiymat ko'rsatiladi.

### **18.6. Bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonch ko'rsatkichi uchun ishonch intervalini aniqlash.**

Ms Excel da dispersiya aniq bo'lgan holatda bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonch intervalini aniqlash mumkin. Ishonch intervalini qo'llashning maqsadiga ko'ra, statistik tahlilda noaniqlikdan qochish va statistik xulosani imkonи boricha foydali yo'naltirishdan iborat.

Bosh ko'plik haqida ehtimoliy mulohazalarni keltirib chiqaradigan tanlanmaning ma'lumotlarini umumlashtirish jarayoni statistik xulasa deb yuritiladi (statistical inference).

Ishonch intervalini qurish uchun quyidagi tushunchalar haqidagi bilimlarga ehtiyoj tug'iladi.

- Dispersiya va standart og'ish;
- Statistikaning tanlangan taqsimoti;
- Ahamiyatlilik darajasi/ishonch darajasi;
- Standart normal taqsimot va uning kvantillari;

Ishonch intervali deb, topshirilgan ehtimoliylik bilan baholanayotgan taqsimot parametrining asl qiymatlarini yopib ketadigan tasodifliy kattalikning shunday o'zgarish intervaliga aytildi. Mazkur topshirilgan ehtimoliylik ishonch chegarasi deb yuritiladi (yoki ishonchli ehtimoliylik). Odatda ishonch darajasi qiymatlari 90%, 95%, 99%, 99,9% qo'llaniladi.

Ms Excel funksiyasida ishonch intervali funksiyasi bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonch intervalini chiqaradi. Ishonch intervali qiymatlar diapozonini o'zida aks ettiradi. Tanlangan  $x$  o'rtacha ushbu diapozonning o'rtachasi hisoblanadi. Tabiyki, ishoneh intervali  $x \pm$  ДОВЕРИТ.НОРМ/ CONFIDENCE.NORM sifatida aniqlanadi. Misol uchun  $x$  bu yerda o'quvchilarning intellekt testlarini echiш vaqtining tanlangan o'rtachasi bo'lsa, unda bosh ko'plikning matematik taxminni  $x \pm$  ishonch intervalida joylashgan bo'ladi. Bosh ko'plik matematik taxminining istalgan qiymati uchun, shu intervalda joylashgan  $\mu_0$ , tanlangan o'rtacha  $\mu_0$  dan  $x$  ning «alfa» ahamiyatlilik darajasi qiymatidan oshishidan farq qilishi, ehtimoli bo'lib hisoblanadi. Aytaylik,

tanlangan o'rtacha  $\bar{x}$ , bosh ko'plik standart og'ishida va tanlanma o'lchamida farazni tekshiruvchi «alfa» ahamiyatlilik darajasiga ko'ra matematik taxmin  $\mu_0$  ga teng bo'lganida ikkitalik tanlanma orqali mezon yaratish talabi qo'yildi. Bu vaziyatda  $\mu_0$  ishonch intervaliga tegishli bo'lsa, faraz rad etilmaydi. Agar  $\mu_0$  unga tegishli bo'lmasa, faraz rad etiladi. Ishonch intervali, 1-«alfa» ehtiimoli bilan intellekt testini echish vaqtin ishonch intervali chegarasida bo'lishini taxmin qilishga yo'l qo'ymaydi.

Ishonch intervalining sintaksisi.

**ДОВЕРИТ.НОРМ / CONFIDENCE.NORM** ( $\text{alfa}$ ; «стандартное\_отк»; o'lcham).

Ishonch intervali argumentlari quyida tasniflangan:

**Альфа/Alpha** – majburiy argument, Ishonch intervalini hisoblash uchun qo'llaniladigan qiymat. Ishonch darajasi  $100^*$  (1- $\text{alfa}$ ) foiziga teng yoki, boshqacha qilib aytganda,  $0,05$  ga teng bo'lgan «alfa» argumenti qiymati, 95-foizli ishonch darajasiga teng.

**СТАНДАРТ\_ОТКЛ./standart\_dev** – majburiy argument. Ma'lumotlar diapoizoni uchun bosh ko'plik standart og'ishi qiymati.

**РАЗМЕР/size** – majburiy argument. Tanlanma xajmi.

Agar biron bir argument son ko'rinishida bo'lmasa, funktsiya #**ЗНАЧ!** Yozuvini qaytaradi.

Agar « $\text{alfa} \leq 0$  yoki  $\geq 1$  bo'lsa, **ДОВЕРИТ** funktsiyasi #**ЧИСЛО!** xatolik qiymatini qaytaradi.

Agar «**РАЗМЕР**» argumentida butun son bo'lmasa, funktsiya tahlil qilmaydi.

Agar «**РАЗМЕР**» argumenti qiymati  $< 1$  bo'lsa, **ДОВЕРИТ.НОРМ** funktsiyasi #**ЧИСЛО!** xatolik qiymatini qaytaradi.

Agar  $\text{alfa}=0,05$  ga deb taxmin qilinsa, (1- $\text{alfa}$ ) ga teng bo'lgan standart normal qiyshiq shakl ostidagi sohani hisoblash imkonи bo'ladi. Bu qiymat  $\pm 1,96$  ga teng. Demak, haqli ravishda ishonch intervali quyidagi formula yordamida topiladi<sup>22</sup>.

$$(18.1) \bar{x} \pm 1,96 \left( \frac{\sigma}{\sqrt{n}} \right)$$

<sup>22</sup> I BOB. 4-Mavzuga qaralsin.

	U/I	O'simshaklar
1	1	8,2
2	2	1,0
3	3	3,5
4	4	9,0
5	5	2,0
6	6	1,5
7	7	7
8	8	8
9	9	2,5
10	10	1,0
11	11	3,0
12	12	6
13		
14		
15		
16		
17		


### 18.15-rasm. Ishonch intervalini aniqlash uchun ma'lumotlarni tayyorlash.

Bu jarayondan keyin «Мастер функции» paydo bo'ladi. Tartibga ko'ra, kerakli funktsiyani quyidagi yo'sinda tanlaymiz (jarayon ketma-ketlikda beriladi).




### 18.16-rasm. Formula kiritish oynasini ochish

Ahamiyatlilik darajasi 95% ekanligini belgiladik. Uni belgilash uchun quyidagi operatsiyani bajardik. «Данные» bo'limidan «Анализ данных», «Data analyse» operatsiyasi orqali «Descriptive statistics» «Описательная статистика» funktsiyasi ishga tushiriladi.



**18.17-rasm.** Tavsiflovchi statistikani ishga tushirish.

Dialog oynasidan ro'yxatidan kerakli yozuv chiqqandan keyin "OK" tugmasini bosish orqali keyingi dialog oynasiga o'tamiz.



**18.18-rasm.** Tavsiflovchi statistika funksiyasi orqali ishonch intervalini belgilash.

Rasmidan ko'rinish turganidek, alfa 95% ishonch intervali uchun quyidagi operatsiyani amalga oshiramiz.  $(1-\alpha)/100$ ,  $1-95/100=0.05$ .

Demak, alfa ishonch chegarasi 0,05 ni argumentga kiritamiz. Standart og'ish qiymati 7,55 ga teng bo'lgani uchun ikkinchi argumentga qiymatni kiritamiz.

t/r	Qiymatlar
1	12
2	10
3	15
4	30
5	20
6	11
7	7
8	3
9	23
10	16
11	10
12	8

18.19-rasm. Ishonch intervalining hisoblangan qiymati.

Uchinchi argumentga ishtirokchilar sonini kiritamiz. Olingan natija 4.27 ni tashkil etadi. Lekin ishonch chegarasining o'ng va chap tomonlarini ham topish zarur bo'ladi. Buning uchun qatorning o'rtacha qiymatini topamiz. Demak.

t/r	Qiymatlar	O'rtacha qiymat
1	12	
2	10	
3	15	
4	30	
5	20	
6	11	
7	7	
8	3	
9	23	

18.20-rasm. Funktsiya yordamida qatorning o'rtacha qiymatini hisoblash.

Ikkinci qatorning o'rtacha qiymatini topish uchun funktsianing «СРЗНАЧ», «AVEAGE» operatsiyasiga murojaat qilinadi. Kerakli operatsiyaning dialog oynasining sintaksisida «число 1» qismiga kerakli yacheyska yoki ustun iqtibos keltiriladi. Ma'lum bir tanlangan yacheyska o'rtacha qiymat chiqariladi.

Topilgan o'rtacha qiymatga ishonch chegarasi qiymatini qo'shsak, ishonch intervalining o'ng tomoni kelib chiqadi. «СРЗНАЧ» qiymatidan «ДОВЕРИТ.НОРМ» qiymatini ayirsak, ishonch intervalining chap tomoni topiladi.

	Qiymatlar	O'rtacha qiymat
1	1	12
2	2	10
3	3	15
4	4	30
5	5	20
6	6	11
7	7	7
8	8	3
9	9	23
10	10	16
11	11	10
12	12	8
13		
14		
15		4.22174
16		
17		

18.21-rasm. Ishonch intervalining o'ng tomonini topish uchun o'rtacha qiymatga ishonch chegarasi qiymatini qo'shish

A15+D2 yacheyka qiymatlari yig'indisi 18 ga teng.

	Qiymatlar	O'rtacha qiymat
1	1	12
2	2	10
3	3	15
4	4	30
5	5	20
6	6	11
7	7	7
8	8	3
9	9	23
10	10	16
11	11	10
12	12	8
13		
14		
15		13.75
16		Ishonch intervalining O'ng tomoni
17		Ishonch intervalining chap tomoni
18		18.022
19		
20		

18.22-rasm. Natijalarni chiqarish

Keyingi jarayonda esa, D2-A15. Natija 9,4 ga teng.

	Qiymatlar	O'rtacha qiymat
1	1	12
2	2	10
3	3	15
4	4	30
5	5	20
6	6	11
7	7	7
8	8	3
9	9	23
10	10	16
11	11	10
12	12	8
13		
14		
15		4.22174
16		
17		

18.23-rasm. Natijalarni chiqarish

Shunday qilib, ishonch chegarasining o'ng tomoni «СРЗНАЧ» va «ДОВЕРИТ.НОРМ» ning yig'indisi qiymati bo'sha, chap tomoni «СРЗНАЧ» dan «ДОВЕРИТ.НОРМ» ning ayirmasi hisoblanadi.

### 18.7. Natijalarni grafik usulda taqdim etishning usuli.

Har bir statistik asoslangan ma'lumotlar to'plamini diagrammalarda namoyish etish imkonи mavjud. Grafiklarning afzalligi bu ularning ko'rgazmaliligidir. Har qanday statistik natijalarni grafikda namoyon etish mumkin. Grafiklar va nuqtali grafiklar X va Y o'qlarida qiymatlar kesimini namoyon etadi. Grafikda o'zgarish tendentsiyasini oson aniqlash mumkin. Shuningdek, unda o'zgarish sur'atini ham aniqlash oson. Unda turli jarayonlar, aloqadorliklarni ko'rish mumkin. Grafik quyidagi tabloda turadi:



18.24-rasm. Grafik qurish uchun uskunalar panelidan kerakli menyuni tanlash.

Menyudan «Вставка» orqali rasmdagi qizil chiziq bilan ajratib ko'rsatilgan belgilardan kerakli tanlanadi. Ms Excel rejimida natijalarni grafik usulda taqdim etishning uehta asosiy usuli mavjud. Bular: aylana diagramma, gistogramma (ustunli diagramma) va chastotalar poligoni.


Aylana diagramma va gistogramma bitta tanlanmada belgining uchraydigan chastotalar taqsimotni tahlil qilishda qullaniladi. Ikki yoki undan ortiq tanlanmalarni solishtirishda, bir necha aylana diagrammalarни yoki gistogrammani qo'llash mumkin. Misol uchun shaxsiy bezovtalik darajasini aniqlaydigan metodika orqali quyidagi natijalarni qo'lga kiritdik:

#### 18.1-Jadval.

Yigit va qizlarning bezovtalik darajasini aniqlaydigan metodika natijalari

	Past	O'rta	Yugori
Yigitlar	10	60	30
Qizlar	15	45	40


Natijalarini taqdim etishda grafikning aylana diagramma usulidan foydalanamiz.



18.25-rasm. Aylanali diagramani qo'llash.

Aylana diagrammaning ostida qizil chiziqda belgilangan hudud diagrammaning "Legend position" «Легенда позиции» deb ataladi. Unda aylanadagi turli ranglar bilan ajratilgan guruhlarni nomlash mumkin yoki umuman bu operatsiyani olib tashlash mumkin. Aynan shu jarayonda «Qizlar»ning natijalarini aylana diagrammada namoyon etish orqali ularni solishtirish mumkin.


Ammo bu vazifani gistogramm grafigi orqali bajarsa ham bo'ladi.



18.26-rasm. Natijalarini taqdim etish uchun gistogrammani qo'llash

Shuni qayd etish kerakki, ikki va undan ortiq tanlanma natijalarini taqqoslash uchun, aylanali diagramma grafigiga qaraganda, gistogrammadan foydalanish ancha qulay.

**Chastotalar poligoni.** Chastotalar poligogini qo'llash histogrammanini




18.27-rasm. Natijalarini taqdim etish uchun grafikni qo'llash

Grafik bu o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadigan o'ziga xos usuldir. Misol uchun, grafikning X o'qidagi qiymatlari (sana, yosh, jins, xususiyat va h.k.) Y o'qidagi qiymatlarga (alomatlар, belgi va h.k) bog'liq bo'ladi va bu bog'liqlik qiymatlari kesimida ifodalanadi.

### 18.8. Gistogrammalar.

SPSS dasturida Statistik tavsifnomalar orqali qo'lga kiritilgan statistik parametrlarni gistogrammada yoki uni boshqacha nom bilan atasak, ustunli diogrammalarda taqdim etishning bir necha usullari mavjud. Albatta hamma usullariga to'xtalib o'tmaymiz. Ammo ularning bir nechtasida «qo'llab ko'rish» amaliyotini o'tash mumkin.

1-Usul – “Graphs” (menyusi orqali) → “Chart Builder”... ochiladi. Bu usul keyingi avlod SPSS dasturlarida mavjud funktsiya bo'lib hisoblanadi. Bu funktsiyada ikki o'lchamli gistogramma quriladi. Gistogrammaning horizontil o'qi bo'ylab, nominal o'lchovli o'zgaruvchilarni; vertikal o'qi bo'ylab, tartiblovchi yoki intervalli o'zgaruvchilarni joylashtirish mumkin. Odatdagiday, horizontal Y o'qida chastotalar, vertikal X o'qida dixotomik ma'lumotlar, kategoriylar (past, o'rta, yuqorida) va h.k. joylashtirish mumkin.




**18.28-rasm. Gistogramma qurish.**

“Gallery” bo‘limidan kerakli diagrammaning parametrlarini sozlash orqali qurish mumkin. Gistogramma (Histogram) guruhida ko‘rib turganimizdek, to‘rt xil gistogramma ko‘rinishi bor.

2-usul. “Analyse” (menyusi orqali) → “Descriptive Statistica” → Frequences...

Bu tanish usul orqali tanish bo‘lgan Frequences dialog oynasi ochiladi. Kerakli statistik parametrlar belgilanganidan so‘ng, oynaning o‘ng tomonida “Charts” tugmasi bosiladi. “Chart Type” dialogli oynasi orqali ustunli diagrammalar (Bar charts), aylanali diagrammalar (Pie charts) va Gistogrammalar (Histograms) qurish mumkin.


Kerakli Gistogramma tugmasi bosilgandan so‘ng, «Show normal curve on histogram» katagi belgilanishi mumkin. Bu harakat orqali o‘zgaruvchimiz gistogrammasining «Normal qo‘g‘iroqsimon qiyishiq» shaklga qanchalik yaqin yoki uzoqligini ko‘rish mumkin.



**18.29-rasm. Gistogrammaning normal taqsimatga mosligi.**

Ko'rib turganimizdek, histogramma normal taqsimot shakligiga mos kelmaydi.

Gistogrammani qurishning 3-usuliga ko'ra, "Analyse" (menyusini orqali) → "Descriptive Statistica" → "Explore"...



**18.30-rasm. Gistogramma qurish uchun "Explore" dialog oynasini ochish.**

⇒ **Explore**

Case Processing Summary						
	Cases		Missing		Total	
	N	Percent	N	Percent	N	Percent
Tolerantlik	24	100.0%	0	0.0%	24	100.0%


  

Descriptives			
Tolerantlik	Mean	1.75	.138
	95% Confidence Interval for Mean	Lower Bound	1.46
		Upper Bound	2.04
	Std. Trimmed Mean	1.72	
	Median	2.00	
	Variance	.457	
	Std. Deviation	.676	
	Minimum	1	
	Maximum	3	
	Range	2	
	Interquartile Range	1	
	Skewness	3.46	.472
	Kurtosis	-6.66	.918

**Tolerantlik**

**18.31-rasm. Natijalar oynasi.**


### Tolerantlik



### 18.32-rasm. Gistogramma.

Mazkur «Tolerantlik» gistogrammasiga birkitilgan jadvalda «Tolerantlik» o'zgaruvchisining statistik parametrlarini o'zida ifoda etgan jadval birkitilgan. Gistogramma singari Qutichasimon diagrammalar, Novdasimon va yaproqsimon diagrammalar ko'rinishini ko'rib chiqamiz.


Qutichasimon diagrammalar yoki boksplot haqida 5-mavzuda batafsil ma'lumot berib o'tgan edik. Uning SPSS dasturida qurilishini tahlil qilamiz. Qutichasimon diagrammani ham yasash usullaridan biri **Analyse** (menyusi orqali) → **Descriptive Statistica** → **Explore...** orqali amalga oshadi.



### 18.33-rasm. Qutichasimon diagramma qurish.

«Tolerantlik» va «Jins» o'zgaruvchilarining statistik parametrlarini ifoda etuvchi boksplot tuzish uchun “**Explore**” dialog oynasi orqali “**Explore Plots**” dialog oynasiga o'tiladi. Mazkur bo'limda **Boxplots**

guruhining kerakli katagi belgilanadi. «Jins» o'zgaruvchisini bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi bo'lganligi uchun uni "Factor list" (omil) qatoriga kiritdik. «Tolerantlik» o'zgaruvchisini esa, bog'liq o'zgaruvchi bo'lgani uchun Dependent List qatoriga kiritdik. Ularning o'zaro aloqadorligini quyidagi qutichasimon diagrammada ko'rish mumkin.




**18.34/35-rasm. Qutichasimon diagramma va unga birkitelgan statistik jadval va grafik.**

Quchasimon diagramma grafigiga ko'ra, uning medianasi (yigitlar qatorida) – 2 ga; "Minimum" – 1; "Maksimum" – 3 ga; "Razmax" – 2 ga teng. Mazkur diagramma ikki o'zgaruvchini qiyosiy tahlil qilgani uchun, ikki o'lchovli bo'lib hisoblanadi. Qutichasimon diagramma

grafigiga ko'ra, boshqa o'zgaruvchilar statistik ahamiyatini ham shu yo'sinda sharhlash mumkin.

Boksplot diagrammasi qurishning yana bir usuliga binoan, "Graphs" (menyusi orqali) → "Chart Builder"... ochiladi.




### 18.36-rasm. Qutichasimon diagrammalar tuzish. Novdasimon va yaproqchasimon diagrammalar.

Novdasimon va yaproqchasimon diagrammalar (Steam and leaf) gistogrammaga o'xshab ketadi, chunki qiymatlar intervallarga bo'linib ustunlar ko'rinishida eniga joylashadi. Bu diagramma gistogramma va jadvalning umumlashmasini anglatadi. Ammo «novdasimon» va «yaproqsimon» diagrammalar orqali ma'lum bir qiymatlarning uchrash chastotasini aniqroq ko'rish chetlanishlar mavjudligini payqash mumkin. Ushbu diagrammada har bir sondagi qiymatlar «novda» va «yaproqlar»ga bo'lingan. Va bu qismalarning har biri ustunga mos nomlanish asosida birkitilgan. Misol uchun, 3685 qiymati ikki xil qism ko'rinishida yozilgan bo'lishi mumkin: 3 va 685, 36 va 85 365 va 5. SPSS dasturida har bir guruhdagi o'zgaruvchanlikni hisoblab boruvchi algoritm qo'llanadi. Dastur «novda»larning shunday shkalasi ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladiki, yaproqlarning qo'shilishidan keyin uning ko'rinishi taqsimot shakllariga mos kelsin. Novda sanoqli qiymatlarning o'zgarmas turiga kiradi. Yaproqlar esa, aksineha tanlangan interval chegaralari doirasida o'zgaradi. Shuni qayd etamizki, novda uchun


qadamni SPSS dasturining o‘zi avtomatik tanlaydi (u diagramma hududining oxiridan bitta oldingi qatorida joylashgan). Qiymatning katta miqdorida «novda» ning har bir «shoxi» ikkiga ajraladi. Biri 0 dan 4 gacha bo‘lgan «yaproqlar» uchun; ikkinchisi, 5 dan 9 gacha bo‘lgan «yaproqlar» uchun. Aks holda har bir «shox» ning katta chastotasi diagrammaning ko‘rinishiga ta’sir ko‘rsatadi.

1-ustun, chastotalarni – har bir intervalga tushgan kuzatuvlar miqdorini aks ettiradi. Undagi oxirgi qator ma’lumotlar to‘plamining ekstrimal qiymatlar qatoridir (chetlanish). Ekstrimal qiymatlar – “Explore” buyrug‘i orqali “Outliers” funktsiyasi tanlangan qatordagi maksimal va minimal raqamlarni chetlanish sifatida baholaydi. Misol uchun, yosh o‘zgaruvchisida adashib ketgan 444 raqamini chetlanish deb baholaydi. 2-ustun, diagrammaning o‘zidir: birinchi raqamlarning vertikal to‘plami – o‘zida «shox» larni aks etgan «novda» dir. O‘ngda esa, har bir «shox» dagi «yaproqlar» bo‘lib hisoblanadi. 2 raqamiga mos «shox» ni olsak, unda 200 dan 299 gacha intervalga tushamiz. “Analyse”

→ “Descriptive Statistics” → “Explore”...



18.37-rasm. “Explore” oynasini ochish



18.38-rasm. «Novdasimon va yaproqsimon» diagrammani qurish.

Case Processing Summary								
Tolerantie: digitar dastur	Mean	Cases			Total			
		N	Percent	N	Percent	N	Percent	
Tolerantie: digitar dastur	3.1	100.0%	0	0.0%	3.1	100.0%	0	0.0%

Descriptives								
Mean			Statistic			Std. Error		
Tolerantie:	digitar	Mean	3.1	0.15	0.15	0.15	0.15	0.15
		% 2.50 Deviations below Mean	2.55					
		% 2.50 Deviations above Mean	2.47					
Std. Error Mean								
		Mean	2.60					
		Varience	0.933					
		Std. Deviation	0.931					
		Minimum	2					
		Maximum	3					
		Range	1					
		Standard Deviation Range	2					
		S.E. Mean	0.190	0.053				
		Kurtosis	-3.059	2.719				
Median								
		% 2.50 Deviations below Median	2.55					
		% 2.50 Deviations above Median	2.47					
Std. Error Median								
		Median	2.400					
		Varience	0.916					
		Std. Deviation	0.930					
		Minimum	2					
		Maximum	3					
		Range	1					
		Standard Deviation Range	2					
		S.E. Mean	0.189	0.051				
		Kurtosis	-4.038	1.173				

### 18.39-rasm. «Novdasimon va yaproqsimon» diagrammaga birkitilgan statistik jadvallari.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Taqsimot ko'rsatkichlari deb qaysi parametrlarga aytildi?
2. O'zgaruvchi qanday izohlanadi?
3. Ishonch intervalining o'ng tomoni qanday topiladi?
4. Ishonch intervalini topish uchun qaysi funksiyaga murojaat qilinadi?
5. Funktsiya argumenti nima?
6. (1-alfa) qanday hisoblanadi?
7. O'rtacha og'ish qaysi funksiya orqali hisoblanadi?
8. Ms Excel menyusidagi «PERCENTAGE» nimani ifodalaydi?
9. «CP3HAЧ», «AVERAGE» funksiyasi ma'lumotlarning qaysi parametrini hisoblayli?
10. Variatsiya qiymati qaysi formula yordamida topiladi?
11. Tanlanmalar ma'lumotini qiyoslaganda, Gistogrammaning aylanali diagrammadan afzalligi nimada?

#### Konseptual jadval

Solishtiriladigan belgilari	EXCEL dasturi	SPSS dasturi
Ma'lumotlar parametrini hisoblash		
Diagramma va histogramma qurish		
Tanlanma protsentillarini hisoblash		
Chastotani hisoblash		

## **19-mavzu. EXCEL VA SPSS KOMPYUTER DASTURLARIDA TAQSIMLANISHNING MURAKABROQ PARAMETRLARINI HISOBBLASH.**

**Tayanch tushunchalar:** dispersiyalar geterogenligi, kategorial nometrik o'zgaruvchilar, kvartillararo logarifm, markaziy tendentsiya o'chovlari, «novdasimon va yaproqsimon diagramma», standartlash-tirilgan qiymatlar, taqsimot diapozoni, tasodify sonlar hisoblagichi, ekstrimal qiymatlar, quticasimon diagramma,  $M$ -baholash o'chovi.

### **19.1. Statistik taqsimlanishning asimmetrikligini aniqlash.**

Statistik tavsifnomalar – bu o'zgaruvchi qiymatlarini taqsimotni xarakterlaydigan turli hisoblanadigan ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlarni shartli ravishda bir necha guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruh – atrofida o'rtacha qiymat, moda va mediana kabi ma'lumotlar to'planadigan markaziy tendentsiya meyorlari. Ikkinci guruh – o'zgaruvchining qiymatlarini o'rtachaga nisbatan o'zgaruvchanligini xarakterlaydigan qiymatlar: standart og'ish va dispersiya. O'zgaruvchanlik diapozoni minimum, maksimum va razmax bilan belgilanadi. Asimetriya va eksess esa, taqsimlanish shaklini normal ko'rinishdan og'ish meyorini belgilaydi. Bundan tashqari, ba'zi statistikalarning xatoliklarini baholaydigan o'chovlar: o'rtachaning standart xatosi qiymati, asimetriyaning standart xatosi va eksessning standart xatosidan iborat. Oxirgi ikki ko'rsatkich asimetriya va eksess dasturi bilan birlgilikda hisoblanadi. SPSS dasturida "Descriptive statistics" funktsiyasi orqali barcha statistik qiymatlarni qo'lga kiritish mumkin.

### **19.2. Normal taqsimlanish qonuni. Taqsimlanishning normalligini aniqlash.**

Dispersion tahlilda va boshqa statistik amallarda muqim disper-siyaga ega bo'lgan tanlanmalarning normal taqsimlanganligini taxmin qilish juda muhim.

Biz oldingi mavzularda, normal taqsimotning «qo'ng'iroqsimon qiyishiq» shakli va histogramma diagrammasida; eksess va asimetriya tahlilida tanlanmani normalligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lgan edik.

Normal va normal bo'lmagan taqsimot uchun natijalarni solishutirish maqsadida, qiymatlari normal taqsimotga mos keladigan «norm» o'zgaruvchisini yaratamiz. Buning uchun tasodify sonlar hisoblagichidan

(Датчик случайных чисел) RV.NORMAL (mean, std\_dev) foydalanamiz. Bu funksiyani "Transform" → "Compute Variables"... orqali "Compute Variables" dialog oynasini ochamiz.

"**Target Variable**" deb nomlangan katakka RV harflari va tahlil qilinishi kerak bo'lgan o'zgaruvchining ustuni raqami kiritiladi. Bizning holatimizda, bu - RV1. Shundan so'ng «Function Group» deb nomlangan chap tomondagi oynada berilgan ro'yxatdan «Random Number» bosilib, uning quyidagi oynadan «Functions and Special Variables» «Rv. Normal» yozuvi ustiga ikki marta sichqonchaning chap tagmasi bilan bosiladi. «Numeric Expression» degan oynada RV.NORMAL (??) (ya'ni RV.NORMAL(mean, stddev)) belgisi paydo bo'ladi. Tanlanmaning normal parametrlarini belgilash uchun o'rtachani (mean) 70, standart og'ishni (stddev) 10 qiymatlarini kiritamiz. Natijada o'rtachasi 70, standart og'ish qiymati 10 teng bo'lgan hisoblangan qiymat chiqarildi (normal taqsimot parametrlari). Tasodifiy sonlar generatsiyasi orqali yangi o'zgaruvchilari qatori paydo bo'ladi. unda oldingi qator qiymatlarining normallikka mos bo'lgan qiymatlari paydo bo'ladi.

### 19.3. Taqsimlanishning normalligini aniqlash testi.

Ushbu mavzuda biz, ma'lumotlarning normal taqsimlanganligi farazini Kolmogorova-Smirnova mezonи orqali tekshiramiz. Bilingval va monolingval guruhlarning tolerantligi va pertseptiv qobiliyati o'r甘ilgan edi. Demak, ikkita tanlanma normal taqimotdan farqi to'g'risidagi  $H_0$  va  $H_1$  farazlarni tekshiramiz. SPSS dasturi menyusidan "Data" → "Select Cases"...




19.1-rasm. Tanlanmani normalikka tekshirish uchun tanlanma guruhlarini "Select Cases" oynasida ajratish.


Guruh	Perseptiv qobi liyat	Toletantlik	filter_S
1	1	8	25
2	2	28	85
3	1	22	60
4	2	30	83
5	1	10	22
6	2	22	70
7	2	21	80
8	2	28	90
9	2	22	93
10	1	7	30
11	1	16	43
12	1	6	30
13	2	10	43
14	2	28	80
15	1	14	90

### 19.2-rasm. "Select Cases: If" funktsiyasi orqali ikkita guruhdan birini tahlil uchun belgilash.

Shundan so'ng, "Analyse" → " Nonparametric Tests" → " One Sample"...



### 19.3-rasm. Tanlanma normalligini tekshirish uchun Kolmogorov-Smirnov testi dialog oynasini ochish.



**19.4-rasm. Kolmogorov-Smirnov bir tanlanmali dialog oynasi.**

«Test Distribution» bo‘limida «Normal» funktsiyasini aktivlashiramiz va «OK» tugmasini bosamiz.

```
USE ALL.
COMPUTE filter_$=Guruh = 2.
FILTER BY filter_$.
VARIABLE LABELS filter_ $ 'Guruh = 2'.
FORMAT filter_ $ I1.
EXECUTE.
FILTER BY filter_ $.
REGRUPT.
DATASET ACTIVATE DataSet0.
DATASET CLOSE DataSet0.
EXECUTE.
/TESTIMPAIRS=Toletantlik PERCENTILE=qobiliyat
MISSING=MARSHKIN.
```

One-Sample Kolmogorov-Smirnov Test		
	Kolmogorov-Smirnov Statistic	Significance Level
Toletantlik	0.180	0.14
Perseptiv_qibiliyat	0.242	0.05
Mean (95% CI)	0.000 (0.000, 0.000)	0.000
Std. Deviation	0.000	0.000
Median	0.000	0.000
Minimum	-0.000	0.000
Maximum	0.000	0.000
Total N	2000	0.000
Valid N (listwise)	2000	0.000

Output Information:

- (1) Test distribution is normal.
- (2) Continuous F statistic.
- (3) Adjusted significance level.
- (4) This is a robust procedure for these significance levels.

**19.5-rasm. 2-Guruh o‘zgaruvchilari normallik ko‘rsatkichlari.**

Test Statistic qiymati – tolerantlik uchun 0,180; pertseptiv qobiliyat uchun – 0,242 ni hosil qildi. Bu qiymatning statistik ahamiyatini “Asymp.Sig.” – Tolerantlik o‘zgaruvchisi uchun 0,200; pertseptiv qobiliyat uchun – 0,036 ni hosil qildi. Demak, 0,200 qiymat 0,05 dan katta bo‘lgani uchun tanlanma normal taqsimotdan farq qilmasligi to‘g‘risidagi  $H_0$  farazni qabul qilamiz. Pertseptiv qobiliyat o‘zgaruvchisi 0,05 dan kichkina bo‘lgani uchun tanlanmaning normal taqsimotdan

farq qilishi to'g'risidagi 11 faraz qabul qilinadi. 1- Guruh o'zgaruvchilarining normalligini tekshirish uchun ham oldingi jarayonni amalga oshiramiz.

Guruh	Pertseptiv qobi liyat	Toletantlik	Bitter, %
1	1	8	25
2	2	28	85
3	1	22	60
4	2	30	83
5	1	10	22
6	2	22	70
7	2	21	80
8	2	28	90
9	2	22	93
10	1	7	30
11	1	16	43
12	1	6	30
13	2	10	43
14	2	28	80
15	1	14	90

### 19.6-rasm. "Select Cases: If" funksiyasi orqali ikkita guruhdan birini tahlil uchun belgilash.

"Select Cases: If" funksiyasi orqali bu safar tahlil uchun 1-Guruh qiymatlari tanlanib, 2-guruh qiymatlari o'chirildi.

#### NPar Tests

One-Sample Kolmogorov-Smirnov Test

N	Mean	Tolerantlik	Pertseptiv qobi liyat
		Std. Deviation	S. Sig.
Normal Parameters <sup>a</sup>	63.16	.14.11	
Most Extreme Differences	21.872	.5.992	
Absolute	.163	.120	
Positive	.113	.120	
Negative	-.163	>.127	
Test Statistic	.163	.120	
Asymp. Sig. (2-tailed)	.199 <sup>b</sup>	.200 <sup>c,d</sup>	

a. Test distribution is Normal.

b. Calculated from data.

c. Liebfors Significance Correction.

d. This is a lower bound of the true significance.

### 19.7-rasm. 1-Guruh o'zgaruvchilari normallik ko'rsatkichlari.


Test Statistic qiymati – tolerantlik uchun 0,163; pertseptiv qobiliyat uchun – 0,12 ni hosil qildi. Bu qiymatning statistik ahamiyatini "Asymp.Sig." – Tolerantlik o'zgaruvchisi uchun 0,19; pertseptiv qobiliyat uchun – 0,20 ni hosil qildi. Demak, 0,200 qiymat 0,95 dan katta bo'lgani uchun tanlanma normal taqsimotdan farq qilmasligi

to'g'risidagi  $H_0$  farazni qabul qilamiz. Pertseptiv qobiliyat o'zgaruvchisi ham 0,05 dan katta bo'lgani uchun tanlanmaning normal taqsimotdan farq qilmasligi to'g'risidagi  $H_0$  faraz qabul qilinadi.

#### 19.4. Guruhlar bo'yicha dispersiyalar tengligini o'zaro aniqlash testi.


Dispersiyalar gomogenligi (bir tipligi) turli guruhlarda tadqiq qilinayotgan o'zgaruvchi dispersiyasi o'zgarmasligini anglatadi.

Biz dispersiyalar gomogenligi to'g'risidagi farazni qog'oz qalam usulida tahlil qilish amaliyotini 7-mavzuda ko'rib chiqqan edik. SPSS dasturida esa, bu tahlilni qanday amalga oshirish mumkin. Guruhlar holatida mazkur tahlilda Liven testi qo'llaniladi. Bunda nolinchi faraz – barcha guruhlarda dispersiya tengligini ta'kidlaydi. Demak, agar Levin testi ahamiyatli bo'lsa, bu turli guruhlarda dispersiya farq qilishini bildiradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, katta guruhlarda dispersiyaning kichkina qiymati ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Mazkur holatda dispersiyalar munosabatini hisoblab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar katta dispersiyaning kichik dispersiyaaga munosabati kichik bo'lsa, unda dispersiyani gomogen deb atash mumkin. Liven testi quyidagi buyruq asosida topiladi: "Analyze" → "Compare Means" → "One Way ANOVA" ...



19.8-rasm. Dispersion tahlil dialog oynasi.

"Faktor" (Factor), omil – toifali (kategorial) bog'liq bo'limagan o'zgaruvchi. Dispersion tahlilda qo'llash uchun bog'liq bo'limagan (mustaqil) o'zgaruvchilar nometrik, kategorial bo'lishi kerak.



### 19.9-rasm. Dispersion tahlil dialog oynasining «Options» funktsiyasi orqali tegishli statistik parametrlarni belgilash.

“Descriptive” – tavsifiy malumotlar;

“Homogeneity of variance test” – o‘zgaruvchilarning gomogenligini aniqlash;

“Means plot” – ikki tanlanmaning o‘rtachalar grafigi.

“Exclude cases analysis by analysis” – tahlillarda holatlarni chiqarib tashlash.

Misol sisatida bilingvallik omili bo‘yicha respondentlarning mantiqiy tafakkurini ma’lumotlar massividagi hisoblaymiz.

Oneway								
Descriptives								
Tests of Homogeneity of Variances								
Minimum	N	Mean	Sig. (2-tailed)	Levene Statistic	df	Significance (2-tailed)	Minimum	Maximum
2	10	33,42	0,710	0,433	8	0,99	14,44	47
2	9	33,22	3,467	5,312	8	0,05	13,06	40
Total	19	33,33	0,906	5,254	16	0,59	13,63	47
ANOVA								
Minimum	Sum of Squares	df	Mean Square	f	Sig.			
Women-Girls	223,100	2	111,550	39,341	0,59	(0,59)		
Women-Boys	168,400	1	168,400	25,840				
Total	391,500	3						


### 19.10-rasm. Dispersiyalar gomogenligini chiqarish jadvali.

Liven testida Mantiqiy tafakkur bilingval va monolingval respondentlar uchun dispersiya - ( $Sig = 0,59$ ) statistik ahamiyatlari farq qilmaydi.

ANOVA bo'yicha Mantiqiy tafakkur bilingval va monolingval respondentlar uchun dispersiya - ( $\text{Sig} = 0,004$  ya'ni  $r=0,004$  darajadagi ahamiyatlilik) statistik ahamiyatli farq qiladi. Dispersiyalar gomogenligi Liven mezonining qiymati statistik ahamiyatga ega emasligi ANOVA natijasining to'g'riliгини tasdiqlaydi. Agar Liven mezonida qiymat statistik ahamiyatga ega bo'lganida edi, ANOVA usulining to'g'riliгiga shubha tug'ilari edi.

### 19.5. Normallashtiruvchi o'zgartirishlar.

Dispersion tahlilda Liven mezonini Explor dialog oynasi orqali qo'llash usuli ham mavjud. "Analyse" → "Descriptive Statistics" → "Explore" → "Plots" **○ power estimation** belgilanadi.



19.11-rasm. "Explore Plots" dialog oynasi

"Explore Plots" dialog oynasining Liven testni tahlil qiluvchi bo'limida markaziy qiymatdan qiymatlar tarqalishining bog'liqligi tahlil qilinadi. Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, X o'qida logarifm, mediana joylashsa, Y o'qida kvartillararo kenglik logarifmi joylashadi. Kvartillararo kenglik – bu birinchi va uchinchi kvartillarga tegishli qiymatlarning ayrimasidir.

"Untransformed" funktsiyasi tanlansa, unda Liven testi xomaki ballar ustida tahlil olib boradi.

Agar dispersiyalar gomogen bo'lmasdan geterogen bo'lsa, mazkur bo'limda quyidagi darajalarni tanlash mumkin.

"Transformed" optsiyasi tanlansa, "Natural Log" oynasi ochiladi.  
Unda:

Daraja	O'zgartishlar
3	Kubli
2	Kvadratli
1	Kvadrat ildizli
0	Logarifmik
-1/2	Kvadrat ildizga teskari qiymat
-1	Teskari qiymat

O'zgartirishlarning samarali amalga oshirilganini o'rtacha qiymatga nisbatan tarqalmaning bog'liqligini (Spread vs. Level with Levene Test) yana qayta shakllantirish orqali aniqlash mumkin.

Qiymatlarni normallashtirishda ularni o'zgartirishdan ko'ra normallikka yaqinlashtirish funktsiyalarini bajarish qulay. Chunki ba'zi qiymatlar o'zgarmas bo'ladi. Ammo o'zgartishlar oqibatida barcha kuzatuvlar o'zgarishi mumkin.

✓ Logarifmik o'zgartishlar – log (X), o'ng uzun chegaralarni cho'zadi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, logarifm 0 va manfiy qiymatlar uchun mo'ljallanmagan. Agar tanlanmada 0 va manfiy qiymatlar bo'ssa, unda yoki o'qni siljitim (har bir qiymatga shunday konstanta berish kerakki, oqibatda ular musbatga aylansin) yoki toq ildiz qo'llash kerak.

✓ Kvadrat ildiz.

✓ ( $1/X$ ) Teskari qiymatlari – bu optsiyada ham nol bilan muammo mavjud. Bundan tashqari teskari qiymatlarni olgan vaqtida kichik qiymatlar katta, katta qiymatlar kichikka aylanadi. Ammo bu muammoni, o'zgartishni  $1/(X_{\text{highest}} - x)$  qilib o'zgartishrish orqali hal qilish mumkin.

Bu o'zgartishlarni har birini mansiy kesishgan ma'lumotlarni tuzatish uchun qo'llash mumkin. Ammo qo'llashdan olin barcha qiymatlarni eng katta qiymatdan ayirish kerak.

### Nazorat uchun savollar.

1. Normallashtiruvchi o'zgartishlarga qaysi optsiyalar kiradi?
2. Liven testi qanday tahlillar uchun ko'zlangan?

3. **Explore** funktsiyasi orqali qanday statistik tahlillar qilish mumkin?
4. Bokspolt qanday tuziladi?
5. Novdasimon va yaproqsimon diagramma qanday quriladi?
6. Gistogramma hamda Novdasimon va yaproqsimon diagrammaning farqi nimada?
7. Ikki yoqlama Gistogramma nima?
8. ANOVA nima?
9. Markazga intilish tendentsiyasi qanday aniqlanadi?
10. Faktor o'zgaruvchisi qanday xarakterlanadi?
11. Nometrik o'zgaruvchi va miqdoriy o'zgaruvchi bir-biridan qanday farqlanadi?
12. Gistogrammaning normal shaklga mosligi qanday tekshiriladi?
13. Kvartillararo kenglik nima?
14. Logarifmik o'zgartirishlarning mohiyati nimadan iborat?
15. Uzoqlashuvchi qiymatlarga qanday qiymatlar misol bo'ladi?
16. Normalashtiruvchi operatsiyani bajarganda manfiy qiymatlarni o'zgartirish uchun nima qilinadi?

**“Dispersion” tahlilda Liven mezonini Explor dialog oynasi orqali qo'llash usuli ketma-ketligi qay tartibda belgilanadi?**

“Descriptive Statistics” →	“power estimation” →	“Analyse” →	“Explore” →	“Plots”

## 20-mavzu: EXCEL DASTURIDA STYUDENT-t MEZONINI HISOBBLASH.

**Tayanch tushunchalar:** bosh ko'plik o'rtachasi, bir tanlanma uchun t mezoni, erkinlik bosqichi, standart xatolik, tanlanma o'rtachasi, t mezoni sintaksisi, t-test.

### 20.1. Bir tanlanma uchun t mezoni.

Psixologik tadqiqotlarda bosh ko'plikdan ajratib olingan tanlanma o'rtachasi bosh ko'plik o'rtachasiga mosligi tekshiriladi. Biz 8-mavzuda bog'liq va bog'liq bo'limgan ikki tanlanmaning o'rtachalarini tahlil qilgan edik.

Mazkur mavzuda bosh ko'plikdan ajratib olingan tanlanma va bosh ko'plik o'rtachalari bilan ishlaymiz. Misol uchun, 174 nafar talabaning intellektual testni echish natijalari qayd etildi. Ulardan tanlab olingan 20 nafar psixologiya talabanning ko'sratkichlari o'rtachasi o'r ganiladi. Ya'ni, psixologiya guruhi talabalarining mantiqiy masalalarni echishdagi oлган ballarining o'rtachasi oliygoh talabalarining o'rtachasidan statistik ahamiyatli farq qiladimi? Bu yerda farq mavjudligi to'g'risidagi  $H_1$  farazni tekshiramiz.

Styudent t-mezonining bir tanlanma o'rtachasi uchun mo'ljallangan formulasi quyidagicha:

$$(20.1) \quad t = \frac{\bar{X} - \mu}{SE}$$

Bu yerda,  $\bar{X}$  – tanlanma o'rtachasi;  $\mu$  – bosh ko'plik o'rtachasi;  $SE$  – standart xatolik, uni topish formulasi quyidagicha:

$$(20.2) \quad SE = \frac{Sd}{\sqrt{n}}$$

$Sd$  – standart og'ish bo'lib, quyidagicha topiladi:

$$(20.3) \quad Sd = \sqrt{\frac{\sum(x-\bar{X})}{n-1}}$$

Demak t-mezon qiymatini topish uchun (27.2) va (27.3) formula qiymatlarini topamiz. Excel dasturida t-mezon qiymatining ahamiyatini tekshiruvchi funksiya (T.DIST.) mavjud. Ammo bu funksiya t-mezon qiymatlarini qisman hisoblaydi. Standart og'ish qiymatini an'anaviy Excel da usulda topamiz.

Psixiologiya yo'nalishi talabalarining mantiqiy ko'satichi boshqa talabalar ortachasidan farq qiladimi?		
350	n=	20
258	$\bar{X}=$	264.75
220	$\mu=$	237.00
258	n=	20.00
234	df	19.00
405	Sd	53.79
241	SE	12.03
269		
204		
264		
231		
190		
310		
284		
232		
316		
290		
272		
188		

## 20.1-rasm. 20.1 formulaning kerakli qiymatlarini topish.

$\bar{X}$  – qiymatini topish uchun D8 yacheykaga tenlik belgisini qo'yib turib, "Average" funktsiyasini ochish va A21 usunini ajratib turib, "Enter" tugmasi bosiladi.  $\mu$  – bosh ko'plik o'rtachasi qiymati esa oldindan ma'lum.

df – ya'ni erkinlik bosqichi df=n-1 orqali topiladi.

Standart og'ish qiymatini topish uchun, D12 yacheykasiga "Stdev.S" funktsiyasini kiritib, A21 usunini ajratib turib, "Enter" tugmasi bosiladi.

SE - standart xatoni topish uchun dasturda alohida funktsiya mavjud emasligi uchun biz, D14 yacheykasiga tenglikni ochib turib, quyidagi formulani kiritdik,

= D12/SQRT(D7), ya'ni (20.2) formulasi.

Psixiologiya yo'nalishi talabalarining mantiqiy ko'satichi boshqa talabalar ortachasidan farq qiladimi?		
350	n=	20
258	$\bar{X}=$	264.75
220	$\mu=$	237.00
258	n=	20.00
234	df	19.00
405	Sd	53.79
241	SE	12.03
269		
204		
264		
231		
190		
310		
284		
232		
316		
290		
272		
188		

$$t = \frac{\bar{X} - \mu}{SE}$$

$$\begin{array}{|c|c|} \hline t & 2.31 \\ \hline p & 0.03248 \\ \hline \end{array}$$

## 20.2-rasm. T-mezoni qiymati va uning statistik ahamiyatini topish.

## T va p qiymatlarini hisoblash.


T-mezoni qiymatini topish uchun D16 yacheysida tenglik olib, (20.1. formulasi) D14/D13 formulasini kiritamiz. Hisoblangan qiymatning statistik ahamiyatini topish uchun D17 katagiga tenglik olib, T.DIST.2T funktsiyasini kiritamiz. Uning talabi bo'yicha D16, D11 ni kiritib, "Enter" tugmasini bosamiz va natijaga erishamiz.

n=	20
$\bar{X}$ =	264.75
$\mu$ =	237.00
n=	20.00
df	19.00
Sd	53.79
SE	12.03
$\bar{X} - \mu$	27.75

t	2.31
p	=T.DIST.2T(D16,D11)

T.DIST.2T(t, deg\_freedom)



Result [ ] Done

### 20.3-Rasm. T-mezon funktsiyasi sintaksisi

x – katagiga 20.1 formulasi qiymati, ya'ni t-mezoni qiymati, deg\_freedom katagiga erkinlik bosqichi qiymati kiritiladi. "Done" tugmasi bosiladi. P qiyamat 0,032 ni tashkil etdi.

t	2.31
p	0.03248

Statistik ahamiyatlilik 0,05 dan kichkina bo'lgani uchun farq mavjudligi to'g'risidagi  $H_1$  farazni qabul qilib, nolinchiligi farazni rad etamiz. Ya'ni psixologiya yo'nalishi talabalarining mantiqiy ko'rsatkichi o'rtachasi bosh ko'plik (boshqa talabalar) o'rtachasidan statistik ahamiyatli farq qiladi. Styudent mezonini qo'llaganda, tahlil qilinayotgan ma'lumotlar normal taqsimlangan bo'lishi kerak.

## 20.2. Bog'liq bo'lmagan guruhlarda t-mezonini hisoblash.

7-mavzuda bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun t-mezonini qo'llash amaliyotini ko'rib chiqqan edik (7.1 formula asosida). Ushbu mavzuda t-mezonini Excel dasturida tahlil qilamiz. Misol uchun, o'qishdan tashqari ishlaydigan talabalar va ishlamaydigan talabalarning «Ichki nazorat» darajasi o'rganildi. Tadqiqotchining fikricha, o'qishdan tashqari mehnat qilib, daromad topgan talabalarning ichki nazorati ishlamaydigan talabalarga nisbatan yuqoridaligi statistik ahamiyatga ega. Ushbu dalilni tekshirish uchun 24 ta o'qishdan tashqari ishlaydigan talabalar guruhi ( $X$ ) va 26 ta o'qishdan tashqari ishlamaydigan talabalar guruhi ( $Y$ ) natijalarini o'rtachasini qiyolaymiz. Bu tahtilni, Excel dasturining ma'lumotlar tahlili podmenyusida bajaramiz.

“Data” → “Data Analysis” → “t-Test”: “Two-Sample” “Assuming Unequal Variances”...

Data Analysis

Analysis Tools

Random Number Generation

Rank and Percentile

Regression

Sampling

t-Test: Paired Two Sample for Means


t-Test: Two-Sample Assuming Equal Variances

**t-Test: Two-Sample Assuming Unequal Variances**

z-Test: Two Sample for Means

OK

Cancel



## 20.4-rasm. T-mezon sintaksi.

“Variable1 Range”, “Variable 2 Range” qatoriga X va Y o‘zgaruvchilar, ustuni belgilanadi. Agar sarlavha qo’shib olingan bo’lsa, “Labels” qatoriga belgi qo’yiladi. “Output Range” qatoriga natijalar chiqarilishi kerak bo’lgan yacheyka belgilanadi.

X	Y	t-Test: Two-Sample Assuming Unequal Variances	
		X	Y
31	24		
24	20		
24	30	Mean	24.91666667
26	23	Variance	11.99275362
24	22	Observations	24
25	22	Hypothesized Mean Diff	0
27	26	df	45
24	18	t Stat	2.937493617
29	28	P(T<=t) one-tail	0.002600502
26	24	t Critical one-tail	1.679427393
28	25	P( T <=t) two-tail	0.005201004
28	30	t Critical two-tail	2.014103389
22	16		
24	22		
25	24		
21	18		
25	30		
23	17		
15	18		
31	20		
24	20		
21	20		

## 20.5-rasm. Bog‘liq bo‘limgan tanlanmalar uchun t-mezon natijalari.

“Means”- (o‘rtacha) 24,9 (X); 21,4 (Y)

“Variance”- (dispersiya)- 11,9 (X); 22,9 (Y)

t-Stat (t- mezon empirik qiymati) – 2,93

P( $T \leq t$ ) “one-tail” (t- mezon qiymatining statistik ahamiyati) - 0,002

t "Critical "one-tail" (kritik qiymat) – 1,67

P( $T \leq t$ ) "two-tail" 0,005

t "Critical one-tail" – 2,01.

Olingen natijalarga ko'ra, empirik qiymat kritik qiymatlardan katta bo'lgani uchun va statistik ahamiyatlilik qiymati 0,05 dan ancha kichkina bo'lgani uchun bog'liq bo'limgan tanlanmalar bir-biridan farq qiladi degan xulosaga kelamiz. Ya'ni farq mavjudligini qayd etuvchi  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Demak, o'qishdan tashqari ishlagan talabalarning ichki nazorati ishlamagan talabalarning ichki nazoratidan yuqori ekan.

### 20.3. Takroriy o'Ichovlar uchun t-mezoni. Hisoblash formulalari.


Mazkur mavzuda bir tanlanmada ma'lum fursat oralig'ida biron ta'sir etuvchi usullar qo'llanilgandan so'ng, belgining o'zgarishini qayd etish takroriy o'Ichovlarga kiradi. Ta'sir etuvchi usullarning samaradorligini tekshirish va bu samaradorlikning statistik ahamiyatini belgilash takroriy o'Ichovlarda qo'llaniladi. Aytaylik, respondentlarda aniqlagan antisotsial hulq-atvor ko'rsatkichi psixotrening usullar yordamida korretsiya qilindi. So'nga metodika qayta o'tkazildi. Tadqiqotchi tanlanmaning treningdan oldingi ko'rsatkichi, treningdan keyingi ko'rsatkichini solishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu yerda solishtirish o'rtaqani inobatga olib amalga oshadi.

Tadqiqotda 21 talabaning antisotsial xulq-atvori o'rGANildi. Testdan so'ng talabalar bilan korrektson ishlar olib borildi. Talabalarda ikkinchi marta metod o'tkazilgach, natijalarda farq kuzatildi. Mazkur farqning statistik ahamiyatga ega ekanligi t-mezonda tekshirildi.


Bog'liq bo'limgan tanlanmalarda t-testni qo'llash uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalangan edik. Takroriy tanlanmalar uchun funktsiyalar ustasidan foydalananamiz. Buning uchun  $f_x$  ni bosib, statistik T-Test funktsiyasini topamiz.

Uning sintaksisi quyidagicha tahlil qilinadi. "Array1" qatoriga treningdan oldingi natijalar qatori A2:A22, "Array2" qatoriga treningdan keyin olingen natijalar qatori B2:B22, "tails" qatoriga 2 sonini kiritamiz. Chunki ma'lumotlar 2 yoqlama tahlil qilinadi. "Type" qatoriga 1 sonini kiritamiz. Ya'ni takroriy anlanmalarda=1, bir xil dispersiyalarda =2, bog'liq bo'limgan tanlanmalarda = 3 sonlari kiritiladi. Funktsiya qiymati chiqarilishi uchun "Done" tugmasi bosiladi. Funktsiya sintaksisini bajarishdan oldin E4 yacheyska tanlanib olindi.

T-test qiymati **0,039** ni tashkil etdi. Bu qiyamatni ma'lumotlar tahlilida ham tekshirish imkoniyatimiz mavjud. Ma'lumotlar tahlili quyidagicha bo'limi ochiladi: "Data" → "Data Analysis" → "t-Test": "Paired Two Sample for Mean"...Kerakli oyna ochiganidan so'ng tahlil uchun o'zgaruvchilarini joylashtiramiz.



## 20.6-rasm. Tahlil uchun o'zgaruvchilarini joylashtirish.



## 20.7-rasm. Tahlil natijalarini.

Ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'rtachalar: 10,5 (birinchi o'zgaruvchi uchun), 8,5 (ikkinchi o'zgaruvchi uchun);

Dispersiya: 10,9 (birinchi o'zgaruvchi), 5,5 (ikkinchi o'zgaruvchi);

"t-test" Pirson korrelyatsiyasini ham hisoblab chiqargan. Ammo biz bu qiyamatni tahlil qilmaymiz.

df – erkinlik bosqichi 20,

t-statistika: 3,2 ni tashkil etdi. Mazkur qiyamatning statistik ahamiyatini natijalar jadvalidagi quyidagi qiyamatlar belgilaydi:

1) kritik qiyamatlar

- "t Critical one-tail" – 1,7.

- "t Critical two-tail" 2,1.

Kritik qiymatlar t-statistika qiymatidan kichik bo'lsa, statistik qiymat ahamiyatlari sanaladi. Ya'ni,

$2,1 < 3,2 > 1,7$ .

2) ahamiyatlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi P qiymati. Mazkur qiymat 0,05 dan kichkina bo'lsa, demak t-mezon qiymati statistik ahamiyatga ega sanaladi.

$P(T \leq -t)$  two-tail - 0,039  $< 0,05$ .

Demak har ikkala metod yordamida aniqlangan 0,039 qiymati 0,05 dan kichik bo'lgani uchun t-mezon qiymatini statistik ahamiyatli deb hisoblaymiz. Ya'ni antisotsial hulq korretsiyasi ta'sirida, antisotsial hulq ko'rsatkichlari ahamiyatli darajada pasaygan.

**Nazorat savollari:**

1. Bog'liq va bog'liq bo'limgan tanlanmalar nimasi bilan farq qiladi?

2. t-Testning takroriy tanlanmalardagi sintaksisini izohlang.

3. Bir tanlanmaning o'rtachasi bosh ko'plik o'rtachasi bilan tahlil qilinganda, t-statistik qiymat qanday topiladi?

4. t-testning chiqarish jadvalida  $P(T \leq -t)$  two-tail ifodasi o'zida qanday qiymatni aks ettiradi?

5. Bog'liq bo'limgan tanlanmalarda t-Test qanday hisoblanadi?

6. Erkinlik bosqichi qanday topiladi?

7. Erkinlik bosqichi nima?

8. t-test qiymati kritik hadlardan kichik bo'lgan taqdirda, qiymatning ahamiyatliligi belgilanadimi?

9. Ma'lumotlar t-Styudent mezonida tahlil qilinishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak?

10.  $\mu$  va  $\bar{X}$  qanday belgilar?

**Excel dasturidagi quyidagi natija qaysi mezon hisobi?**

$n =$	20
$\bar{X} =$	264.75
$\mu =$	237.00
$n =$	20.00
$df$	19.00
$Sd$	53.79
$SE$	12.03
$\bar{X} - \mu$	27.75

$t =$	2.31
$p =$	=T.DIST.2T(

## **21-mavzu: SPSS DASTURIDA O'RTACHA QIYMATLARNI HISOBBLASH.**

**Tayanch tushunchalar:** *bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar, bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilar, bir yoqlama ahamiyatlilik, namunaviy qiymat, o'rtachalarni solishtirish, r-daraja qiymati, t-mezon variantlari, ikki yoqlama ahamiyatlilik, o'rtacha qiymatlar amali.*

### **21.1. Bog'liq va bog'liq bo'limgan tanlanmalar.**

SPSS dasturida ham Excel kabi t-mezonni tahlil qilishning uch xil usuli mavjud: bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun t-mezoni, bog'liq bo'lgan tanlanmalar uchun t-mezon, bir tanlanma uchun t-mezon.

T-mezonning birinchi varianti bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun t-mezoni ikki tanlanmaning o'rtachasini solishtirishga qaratilgan. Bunda tahlilning asosiy talabi tanlanmalarning bog'liq bo'lishi hisoblanadi. Bog'liq tanlanmalar oldingi mavzularda ko'rib chiqqanimiz kabi, yigit va qizlarning psixologik, fiziologik (vazn, bo'y va h.k.) ko'rsatkichlari, ikki sinfning intellekt ko'rsatkichlari yoki biron fanni o'zlashtirganlik ko'rsatkichlari, oilali va oilali bo'limgan kishilarda biron bir sifatning namoyon bo'lishini solishtirish mumkin.

T-mezonning ikkinchi varianti bir tanlanmaning ma'lum ta'sirlar natijasida xususiyatlarini oldin va keyingi holatini qayd etishdan iborat. Bunda ham o'rtachalar solishtiriladi. Mezoni qo'llashning talabi, tanlanmaning takroriy o'tkazilishidir.

T-mezonni qo'llashning uchinchi variantida esa, bosh ko'plik tarkibidagi ayrim yuqori ko'rsatkichlarni tanlab olib, o'rtachasini solishtiriladi.

### **21.2. O'rtacha qiyatlarni taqqoslash bo'yicha farazlar va o'rtacha qiyatlarni qo'llashish.**


SPSS dasturida ham t-mezon qiyamatining ikki darajadagi ahamiyati belgilanadi. Ular bir yoqlama va ikki yoqlama ahamiyatlilik. Odadta ikki yoqlama ahamiyatlilik qo'llaniladi. Ikki yoqlama ahamiyatlilikni SPSS dasturi sukul bo'yicha belgilaydi. Ikki turdag'i ahamiyatlilik o'rtasidagi sezilarli farq shundan iboratki, unda p-daraja qiymati bir yoqlamaga nisbatan ikki karra katta bo'ladi. Shuning uchun p-daraja natijasini 2 ga bo'lib, bir yoqlama qiyatni qo'lga kiritish mumkin.

Tanlanmalarning o'rtacha qiymatlari solishtirilganda, qiymatlар о'ртасида farq mavjudligi to'g'risida  $H_1$  faraz va о'rtachalar о'ртасида farq mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  farazlar tekshiriladi. Qiymat ahamiyatini belgilovchi r-daraja qiymati 0,05 darajadan katta bo'lsa, statistik ahamiyatli farq mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  faraz qabul qilinadi.

SPSS dasturida O'rtachalar amali orqali nominal o'zgaruvchilar xususiyatiga mos keluvchi turli guruhchalarning chastotasini solishtirish mumkin. O'rtachalar amali kuzatuvlar guruhining o'rtachasi, medianasi kabi statistik parametrlarni tekshirish mumkin. Ushbu amal yordamida о'rtacha qiymatlarni guruhlar kesimida solishtirish mumkin. Natijalar jadvali birlashtirilgan jadvallar ko'rinishiga ega. Birlashtirilgan jadvallardan farqi shundaki, bu jadvallarda nafaqat chastotalar, balki o'rtachalar ham qiyoslanadi. O'rtachalar amali SPSS dasturidagi eng oddiy va muntazam qo'llaniladigan amallarga kiradi. Tanlangan guruhchalar uchun o'rtachalar amali sukut bo'yicha guruh o'rtachalarini, standart og'ish va chastotalarni hisoblaydi.

"Analyse" (Tahlil) menyusidan → "Compare Means" (O'rtachalarini solishtirish) → "Means" (O'rtachalar)...

Shundan so'ng ekranada O'rtachalar dialog oynasi paydo bo'ladi.



### 21.1-rasm. O'rtachalar dialog oynasi


O'rtachalar dialog oynasida tahlil jarayonida ishtiroy etishi kerak bo'lgan o'zgaruvchilarini joylashtirish kerak bo'ladi. Yuqori ro'yxatda (Dependent List) bog'liq bo'lgan miqdoriy o'zgartiruvchilar kiritiladi. Quyi ro'yxatga bog'liq bo'Imagan o'zgartiruvchilar, ya'ni miqdoriy bo'Imagan o'zgartiruvchilar kiritiladi (Independent List). Bu yerda qiyoslanadigan guruhchalarni nominal o'zgaruvchilar belgilaydi. Bu o'zgaruvchilar asosida birlashtirilgan jadvallar quriladi.

Bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar – miqdoriy shkalalarda baholangan biron bir xususiyatning va belgining ko'rsatkichlaridir.

Bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchilar – nominal shkalalarda baholangan ular orqali tanlanma guruhehalarga ajratiladi.

Agar yuqori ro'yxatga mantiqiy tafsakkur o'zgaruvchilari kiritilsa, pastki ro'yxatga jins o'zgaruvchisi kiritilsa, unda o'rtachalar amali qizlar va yigitlar uchun alohida o'rtacha qiymatlar, standart og'ish va N ishtirokchilar soni kiritilgan jadval paydo bo'ladi.

"Dialog" oynasidagi "Options" tugmasi asimmetriya, ekstsess va boshqa statistik parametrlarni hisoblaydi.



## 21.2-rasm. Ma'lumotlar parametrini belgilash.


"Anova table and eta" katakchasi yoniga belgi qo'yilsa, tahlilning statistik ahamiyati jadvali chiqariladi.

Agar bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchilar ikkita bo'lsa, u holda, o'rtachalar dialog oynasida quyidagi amal bajariladi:

1. Bog'liq o'zgaruvchilar ro'yxati (Dependent List) ga miqdoriy o'zgaruvchilar ishorali chiziqlar orqali o'tkaziladi.

2. Bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchi (Independent List) ro'yxatiga kiritiladi.

Shundan so'ng, "Layer 1 of 1" ostidagi "Next" tugmasi aktivlashadi. "Next" tugmasi bosilsa, (Independent List) ro'yxati bo'shaladi va Layer 1 of 1 ning o'rniiga "Layer 2 of 2" yozuvni paydo bo'ladi. Shunda "Independent List" oynasiga yana ikkinchi bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchini kiritish mumkin.



### 21.3-rasm. Bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilarni O'rtachalar parametri oynasida belgilash.

O'zgaruvchilar kerakli ro'yxatlarda belgilangandan so'ng. Ok tugmasi bosiladi. Natijalar jadvali chiqariladi.

Report					
Bingiqchi	List	PERCENTAGE		NORMATIVE (%)	
		Mean	N	Mean	N
Persepsiya_gobitay	Mean	18.73	10.21	10.00	10.00
	N	8	8	8	8
	Sd. Deviation	5.625	5.125	5.700	
A'zolar	Mean	24.43	12.45	12.00	
	N	7	7	7	
	Sd. Deviation	6.268	6.128	6.742	
Total	Mean	24.07	11.27	10.00	
	N	15	15	15	
	Sd. Deviation	5.723	5.718	6.000	
B'zolar	Mean	21.75	10.80	8.25	
	N	8	8	8	
	Sd. Deviation	5.530	5.000	5.744	
total	Mean	22.40	10.00	10.00	
	N	3	3	3	
	Sd. Deviation	2.791	4.472	2.840	
Total	Mean	22.11	10.22	10.00	
	N	9	9	9	
	Sd. Deviation	2.610	5.887	4.200	
Total	Mean	18.82	10.00	10.00	
	N	10	10	10	
	Sd. Deviation	2.440	6.000	5.500	
A'zolar	Mean	17.75	9.75	10.00	
	N	14	14	14	
	Sd. Deviation	2.721	6.225	6.750	
Total	Mean	17.08	9.84	10.00	
	N	24	24	24	
	Sd. Deviation	2.471	5.000	4.750	

ANOVA Table

		ANOVA Table					
		Sum of Squares		df	Mean Square	F	Sig.
Persepsiya_gobitay at - Bingiqchi	Between Groups	(Combined)	114.011	1	114.011	8.706	.003
	Within Groups	919.822	22	41.537			
	Total	1213.833	23				
Mamony_Tafakkur at - Bingiqchi	Between Groups	(Combined)	221.316	1	271.396	10.014	.004
	Within Groups	948.489	22	43.030			
	Total	1170.805	23				
A'zolar Bingiqchi	Between Groups	(Combined)	3.025	1	3.025	2.735	.095
	Within Groups	282.930	22	13.000			
	Total	285.955	23				

Measures of Association

	Eta	Eta squared
Persepsiya_gobitay at - Bingiqchi	.512	.284
Mamony_Tafakkur at - Bingiqchi	.569	.321
A'zolar Bingiqchi	.107	.011


### 21.4. Rasm. Natijalar jadvali.

Jadvalga ko'ra, o'rtachalar – 17,8, 13,8, 11,21 qiymatga ega bo'ldi. Ularning ahamiyatlilik ko'rsatkichi har uchta holatda ham  $t > 0,05$  bo'lgani uchun ahamiyatsiz deb topildi. Ya'ni ikki guruhnini ajratib turgan holat – ikki tilda so'zlay olish qobiliyatini va gender xususiyatlari, respondentlarning mantiqiy tafakkuri, ichki nazorati va perspektiv qibiliyatiga samarali ta'sir ko'rsatmaydi.

### 21.3. Bir tanlanma uchun t-mezoni.

Ba'zan tadqiqotchi taqsimotning o'rtacha qiymatini, qayd etilgan biron bir namuna bilan solishtiradi. Aytaylik, oliygohga o'ngishga kirishda ma'lum bir namunali tayyorlov maktabi o'quvchilari munizazam ravishda kirish bali sisatida o'rtacha 178 ko'rsatkichni qayd etib kelishmoqda, 25 nasar abiturientdan iborat boshqa bir tayyorlov kursi talabalarining joriy yilda ko'rsatgan natijalarini namunaviy ko'rsatgichga qiyosan tahlil qilamiz. Buning uchun tanlanmaning o'rtachasini hisoblab, normaga qanchalik mos kelishini baholaymiz. Bu singari tahlil SPSS dasturida bir tanlanma uchun t-mezonida hisoblanadi.

Tahlil menyusidan o'rtachalarni qiyoslash amali orqali bir tanlanmali t-mezoni tanlanadi. "Analyse" → "Compare Means" → "One Sample T-Test"...



**21.5-rasm. Bir tanlanmali T-mezon dialog oynasi.**

Bir tanlanma uchun T-mezon amalini hisoblash qanchalik orson bo'lsa, uni dasturda boshqarish ham shunchalik orson kechadi.

"Test Variable" ro'yxtigiga tahlil qilinishi kerak bo'lgan o'zgaruvchi kiritiladi.

"Test Value" katagiga esa, soleshtirilayotgan o'rtacha qiymat (140) kiritiladi. Agar "Test Variable" ro'yxtigiga mavjud barcha o'zgaruv-

chilar kiritilsa, unda “Test Value” katagidagi qiymat barcha o‘zgaruvchilar o‘rtachasi uchun namunaviy qiymat bo‘ladi. Ammo tadqiqotchi har bir o‘zgaruvchi uchun alohida namunaviy qiymatni kiritsa, dastur har bir o‘zgaruvchining namunaviy o‘rtacha qiymatga munosabatini tahlil qiladi. Barcha parametrlar belgilangandan keyin OK tugmasi bosiladi.

T-Test					
One-Sample Statistics					
	N	Mean	Std. Deviation	Std. Error Mean	
Kirish_Bali	24	125,21	33,141	6,765	


One-Sample Test					
Test Value = 140					
	t	df	Sig. (2-tailed)	95% Confidence Interval of the Difference	
				Lower	Upper
Kirish_Bali	-2,187	23	.039	-14,792	-28,79

## 21.6-rasm. Bir tanlanma uchun T-mezon natijasi.

t-mezon qiymati= -2,2 ni tashkil etdi. Tanlanmaning 125,21 o‘rtachasi (Mean=125,21) 140 qiymatidan statistik ahamiyatli farq qiladi. Ahamiyatlilik 0,03 (sig.(2-tailed)=0,039)), ya’ni  $r < 0,05$  ni ko‘rsatdi. Demak, namunali ko‘rsatkich 140 dan tanlanmaning o‘rtachasi ahamiyatli farq qiladi.

## 21.4. Bog‘liq bo‘limgan guruhlar uchun t-mezoni.

Bog‘liq bo‘limgan o‘zgaruvchilar ham “Analyse” → “Compare Means” → “Independent” – “Sample T-Test”...



## 21.7-rasm. Bog‘liq bo‘limgan o‘zgaruvchilar uchun T-mezoni.

Ushbu dialog oynasida T-mezonini bog'liq bo'limgan tanlanmalarda q'llash mumkin.


"Test Variable(s)" bo'limiga tekshirilishi kerak bo'lgan o'zgaruvchilar kiritiladi. Bu ro'yhatga kiritiladigan o'zgaruvchilar turli miqdorda bo'lishi mumkin. Ammo ular miqdoriy shkalalarda o'changan bo'lishi kerak.

"Grouping Variable" bo'limiga nominal shkalada baholangan ahamiyatli, o'zida ikkita bog'liq bo'limgan guruhni aks etgan o'zgaruvchi kiritiladi. Odatda guruhlashtirilayotgan o'zgaruvchi diskret va ikki toifaga ega bo'ladi. Bizning manbamizdagi o'zgaruvchilar orasida bilingvallik va jins o'zgaruvchisi mazkur o'zgaruvchilar toifasiga kiradi.

Guruhlashtirilayotgan o'zgaruvchi ikkitadan ortiq darajalarga ega yoki uzlusiz bo'lishi mumkin. Bunday holatda uzlusiz qiymatlarni guruhlarga ajratish lozim bo'ladi. Biz jins o'zgaruvchilarini 1 va 2 guruhlarga kiritamiz. Dastur 1 va 2 guruh qiymatlarini qiyosiy tahlil qiladi.

Mantiqiy tafakkur o'zgaruvchisini (tadqiqotchining maqsadiga ko'ra, istalgan o'zgaruvchi yoki bareha o'zgaruvchilar kiritilishi mumkin) "Test Variable(s)" oynasiga joylashtirib bo'lgach, Grouping Variable bo'limiga jins o'zgaruvchisini joylashtiramiz. Shunda oynaning ostki qismida Define groups tugmasi faollashadi. Tugma bosilgach, quyidagi 28.8. rasmdagi dialog oynasi chiqadi.

Unga ko'ra, "Group 1" va "Group 2" kataklari qarshisiga mos ravishda 1 va 2 qiymatlari kiritamiz. "Continue" tugmasini bosamiz va birinchi oynaga qaytib borib "OK" tugmasini bosamiz. Chiqariladigan natijalar jadvali asosida yigit va qizlarda mantiqiy tafakkur ko'rsatkichining o'rtahasi orasidagi farq ahamiyatini belgilaymiz.



21.8-rasm. Guruhlarni belgilash dialog oynasi.

Group Statistics						
	N	Mean	S.D.	S.E. Mean		
Mantiq_Tafakkur_yigitlar	12	13,00	5,009	1,232		
F	12	14,75	6,125	1,791		

Independent Samples Test										
	Levene's Test for Equality of Variances				t-test for Equality of Means				95% Confidence Interval of the Difference	
	t	df	t	p	95% CI	Mean Difference	Std. Error Difference	Lower	Upper	
Mantiq_Tafakkur_yigitlar	1,11	242	-0,701	.472	4,91	-1,750	2,498	-6,526	5,426	
F	-0,701	21,970	4,91	.176	2,498	-1,750	2,498	-6,526	5,426	


### 21.9-rasm. Natijalar jadvali.

Tanlanmada 12 nafar yigitlar va 12 nafar qizlar ishtirok etdi. Yigitlarning mantiqiy tafakkuri o'rtacha ko'rsatkichi 13 ni, qizlar mantiqiy tafakkuri o'rtachasi 14,75 ni ko'rsatdi.

F qiymat – (ikki taqsimotning dispersiyasi aloqadorligini belgilaydigan qiymat) 0,11 ni ko'rsatdi. Uning ahamiyati, ahamiyatsizlikni ko'rsatgan holda,  $r=0,74$  ni tashkil etdi. t-mezon qiymati -0,70 ni ko'rsatdi, uning ahamiyati  $r=0,50$  darajada ahamiyatsizlikni qayd etdi. "Mean Defference" (o'rtacha ayirmasi) = -1,75. 95% ishonch intervali t-mezonda ishonch intervali tanlanmalar o'rtachasi ayirmasini anglatadi.

### 21.5. Takroriy mezonlar uchun t-mezoni. Hisoblash formulalari.

Endi esa, takroriy tanlanmalar uchun t-mezonini qo'llash amaliyotini ko'rib chiqamiz. "Analyse" → "Compare Mean" → "Paired Sample T-Test"...



### 21.10-rasm. Takroriy tanlanmalar uchun t-mezoni.

Takroriy bog'liq tanlanmalar uchun t-mezonini qo'llash bog'liq bo'limgan tanlanmalar uchun t-mezonini qo'llagandan ancha qulay. Bunda faqat bitta dialog oynasiga topshiriq berish orqali natijalarini qo'lga kiritish mumkin. Bunda o'zgaruvchini guruhga bo'lish talab

qilinmaydi. Dialog oynasining chap tomontida bize tanish bog'ligan o'zgaruvchilar joy olgan. Ammo bu singari tahlidda nezabatiy holat - o'zgaruvchilar justini ko'rsatish zarurligi hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur amal nomi just tanlanmalar (Paired Sample) deb nomlanadi.

Juft o'zgaruvchilarni belgilash uchun dastlab, birinchi *justini* sichqonchaning chap tugmasi belgilanadi. Keyin esa, ikkinchi *justi* belgilanadi va ishorali belgi yordamida o'ng tomondagi katakchalarga joylashtiriladi. Bizning holatimizda mantiqiy tafakkur o'zgaruvchisini just o'zgaruvchi hisoblanadi. Chunki ma'lum fursat oralig'ida mazkur xususiyatni aniqlaydigan metodika ikki marotaba o'tkazildi. Biz bu holatda mantiqiy tafakkurni oldin va keyingi holatlarini o'rganamiz.

Shuni qayd etish kerakki, tadqiqotchi just o'zgaruvchilar sifatida bir necha o'zgaruvchilarni kiritishi mumkin.

Demak, o'zgaruvchilar qiyamatlari ma'lum fursat oralig'ida o'zgorganining statistik ahamiyatini chiqarilgan natijalar jadvali orqali aniqlaymiz.

Paired Samples Statistics

	Mean	N	Std. Deviation	Std. Error Mean
Pair 1 Marriage_Tafakkur +	13,88	24	6,046	1,234
Marriage_Keyin	16,00	24	4,212	.860

Paired Samples Correlations

	N	Correlation	Sig.
Pair 1 Marriage_Tafakkur + Marriage_Keyin	24	.299	.000

Paired Samples Test

	Paired Differences				95% Confidence Interval for the Difference	<i>t</i>	df	Sig. (2-tailed)			
	Mean	Std. Deviation	Std. Error Mean								
				Lower	Upper						
Pair 1 Marriage_Tafakkur + Marriage_Keyin	-2,12	3,667	.253	-3,682	-1,568	-2,624	23	.000			

## 21.11-rasm. Takroriy tanlanmalar uchun T-mezon natijalarini jadvali.

Jadvalga ko'ra, ikki o'zgaruvchi o'ttasida korrelyatsion bog'liqlig'  $r=0,75$  ya'ni,  $r=0,001$  darajada mavjud, bu tanlanmaning haqiqatidan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Mantiqiy tafakkur o'zgaruvchisining o'rtachasi mean=13,88 mantiqiy tafakkur keyin o'rtachasidan mean=16 kichkinaligi statistik ahamiyatga ega. Bu ahamiyatlilik  $r=0,01$  darajada baholandi.

"Std.Deviation"=3,6, takroriy tanlanmalarda standart og'ish qismi tanlanmalar o'rtachasining ayirmasini anglatadi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. T-mezonni qo'llashda tanlanmalarning qanday xususiyatlari e'tiborga olinadi?
2. Styudent t-mezonining qanday variantlari mavjud?
3. Takroriy tanlanmalar uchun t-mezoni natijalar jadvalida standart og'ish qiymati nimani bildiradi?
4. Bog'liq bo'limgan tanlanmalar dialog oynasida o'zgaruvchilarni guruhlashtirish tartibi qanday kechadi?
5. Bog'liq bo'limgan tanlanmalarda qanday xususiyatga ega bo'lgan o'zgaruvchilar guruhlashtiriladi.
6. Juft baholangan o'zgaruvchilarni haqiqatdan ham bog'liq ekanligini natijalar jadvalining qaysi qiymatlaridan aniqlash mumkin?
7. Bir tanlanma uchun t-mezoni qayday tahlil qilinadi?
8. Agar bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilar ikkita bo'lsa, u holda, o'rtachalar dialog oynasida amallar qay tartibda bajariladi?
  - A. Bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi (*Independent List*) ro'yxatiga kiritiladi.
  - B. Layer 1 of 1 ostidagi Next tugmasi aktivlashadi.
  - C. Bog'liq o'zgaruvchilar ro'yxati (*Dependent List*) ga miqdoriy o'zgaruvchilar ishorali chiziqlar orqali o'tkaziladi.
  - D. Next tugmasi bosilsa, (*Independent List*) ro'yxati bo'shaladi va Layer 1 of 1 ning o'rniغا Layer 2 of 2 yozuvni paydo bo'ladi.
  - E. Independent List oynasiga yana ikkinchi bog'liq bo'limgan o'zgaruvchini kiritish mumkin.

A	B	C	D	E

## **22 mavzu: IKKI TANLANMANING O'XSHASHLIGINI ANIQLASHNING NOPARAMETRIK MEZONLARI.**

**Tayanch tushunchalar:** *Absolyut kattaliklar ranjirovksi, binominal taqsimot, tartiblangan o'zgaruvchilar, U-statistika, U-mezon, Countif funktsiyasi sintaksisi, Sumif funktsiyasi sintaksisi, eskirgan dialog,*

### **22.1. Bog'liq bo'Imagan tanlanmalar uchun Manni-Uitni U mezoni.**

Manni-Uitni mezonini noparametrik mezon ekanligini bilamiz. Ya'ni ma'lumotlarni tahlil qilganda, dispersiya va o'rtacha qiymatlar inobatga olinmaydi. Biz bilamizki, parametrik mezon – bosh ko'plik parametrlariga nisbatan qo'llaniladigan statistik metoddir. Parametrik mezonning qo'llanilish asoslaridan biri bu, o'zgaruvchilarning normal taqsimlanishi bo'lib hisoblanadi. Noparametrik mezon esa, parametrik mezonga qaraganda qo'llash qulay hisoblanadi. Chunki mazkur metod taqsimotning normalligiga qaratilgan biron tahlilni talab qilmaydi. Demak, tadqiqotchida tanlanma normalligi borasida ikkilanish bo'lganda, noparametrik mezonlar qo'l keladi.

- Manni-Uitni mezonida o'zgaruvchilar qiymatlari ranjirlanish orqali tahlil qilinadi.
- Bog'liq bo'Imagan ikki tanlanmani solishtiradi.
- Ikki bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchilar o'tasidagi tafovutlarni tartibli o'zgaruvchilarning ifodalananish darajasiga qarab aniqlashga imkon beradi.

Mezon ikki tanlanmani o'zaro solishtiradi va bir tanlanmaning statistik ko'rsatkichlarini hisoblaydi.

Noparametrik mezonlar ma'lumotlarni ularning taqsimlanish shakllarini inobatga olmagan holda tahlil qilar ekan, ularda turli-tuman qo'shimcha hisoblash imkoniyatlari mavjud. Ular: o'zgaruvchilarni ranjirlash; qiymatlari bir tanlanmadan yuqori bo'lgan tanlanma qiymatlari sonini hisoblash; chastotalarni hisoblash; guruhlarni chastota orqali solishtirish va h.k.

### **22.2. Manni-Uitni U mezonini tanlash uchun asostar.**

Manni-Uitni mezoni yoki U mezon bog'liq bo'Imagan o'zgaruvchilar uchun qo'llaniladigan t-mezonning noparametrik analogidir. Farqi shundaki, t-mezon normal va normallikka yaqin tanlanmalarga

yo'naltirilgan bo'ladi. Manni-Uitni mezoni esa, normallikdan farq qilgan tanlanmalarda qo'llaniladi. Ba'zi hollarda Manni-Uitni mezonini normal taqsimlangan tanlanmalarda ham qo'llasa bo'ladi. Biroq, u tafovtlarga nisbatan kam ta'sirchandir. Ya'ni t-mezonga qaraganda, kuchsizroq sanaladi.

Tanlanmalarni U-mezonda baholash uchun o'zgaruvchilar tartib shkalasida tahlil qilingan bo'lishi (ya'ni ranjirlangan) kerak. Agar tanlanma xajmi 20 tadan oshiq bo'lsa, unda tanlanmaning taqsimoti:

- U-mezonda normallikka yaqinlashadi.

- Shuning uchun statistik paketlarda U-statistika bilan birga z qiymatlar chiqariladi (normal taqsimot uchun va bu qiymat r qiymatlarga mos keladi).

Keyingi misolda biz, yigit va qizlarning (bog'liq bo'lмаган танланмалар) emotsiyonal barqarorligini solishtirganda yigitlarning emotsiyonal barqarorlik ko'rsatkichi rangi qizlarnikiga qaraganda yuqori chiqdi. Mazkur tafavut statistik ahamiyatga egami ( $H_1$ ) yoki ega emasligini ( $H_0$ ) Manni Uitni mezonida tekshiramiz.

### **22.3. Manni-Uitni mezonini Excel dasturida hisoblab topish bo'yicha yo'riqnomasi.**

Tahlil uchun ma'lumotlarni hozirlaymiz. Kerakli qiymatlarni Excel dasturida hisoblaymiz.

Jins	Emotsional barqarorlik	Tartib/Rang
1	10	27
2	10	27
1	8	17
2	17	38
1	8	17
2	11	29
2	12	32
2	12	32
2	8	17
1	8	17
2	12	32
1	4	1
2	9	24
2	19	42,5

	Rang Summasi	Ishnirokchilar soni	U-statistika
yigitlar			
qizlar			
kritik qiymat			

**22.1-rasm. Manni-Uitni U mezonida ma'lumotlarni hisoblash uchun hozirlash.**


Rasmdagi elektron jadval C ustunida biz (Boshqaruvchilar uchun 18 ustuni) ko'rsatkielarini ranjirovka qildik (Excel dasturida qilish tartibi 27 mavzuda berilgan). Ranjirovkaning soni 990 ni ko'rsatdi. Ranjirovka to'g'ri bajarilganini 22 yordamida aniqladik.

Yigitlar va qizlar uchun alohida rang summasini orqali hisoblaymiz. Ishirokehilar sonini “CountIf” topamiz. U-statistika miqdorini 8.1. formulasini ikki urushda o'shasi asosida hisoblaymiz (ya'ni modifikatsiyalangan ko'rinishini). U urush qiyamatni kritik qiyamatlar ilovaning 4-jadvalidan topamiz. Shundan “SumIf” funktsiyasining sintaksinini chiqaramiz. Sintaksis o'shamasining “range”-katagiga jins guruhi o'zgaruvchilar ustunini kiritamiz. Shunda bu guruh 2 yigitlar deb belgilangan.

“Criteria”- katagiga yigitlar ko'rsatkichini rangi miqdorini tug'ilganda o'shamiz. Ustunini kiritamiz.

“Sum\_range”- katagiga C ustuni – ranglar ustunini kiritamiz. “Done” tugmasini bosamiz.

Qizlar emotsiyonal ko'rsatkichining ranglari miqdorini belish uchun ham xuddi shu amalni qo'llaymiz. Faqat “Criteria” katagiga 1 raqamini kiritamiz.



## 22.2-rasm. “CountIf” funktsiyasi sintaksi.

“Range” – katagiga jins o'zgaruvchilari ustuni kiritiladi.

“Criteria”- katagiga qizlar sonini topish uchun 1 raqami kiritiladi.  
“Done” tugmasi bosiladi.

Xuddi shu amalni yigitlar sonini topishda qo'llash kerak. Faqat Criteria katagiga 2 raqami kiritiladi.

Endi esa,  $H_3$  yacheykasiga  $=G3*G4+(G3*(G3+1)/2)-F3$  formulani kiritamiz.

$H_4$  yacheykasiga esa,  $=G3*G4+(G4*(G4+1))/2-F4$  formulasi kiritiladi.

U statistik qiymatimiz 170,5 va 339,5 ni ko'rsatdi. Kritik qiymat esa,  $n_1=21$  va  $n_2=23$  uchun 170 qiymatni ko'rsatdi.

Manni-Uitni mezonida empirik qiymatlar (170,5 va 339,5) kritik qiymatdan (170) katta bo'sha, statistik ahamiyatsizlik qayd etiladi. Ya'ni  $H_1$  rad etiladi.

Demak, qizlar va yigtlarning emotsiyonal barqarorligi o'tasidagi farqni tasodifiy deb hisoblaymiz.

Jins	Moshinchi jadvali		Tartib/Rang
	1	2	
1	10	27	
2	10	27	
1	8	17	
2	17	38	
1	8	37	
2	11	29	
2	12	32	
2	12	32	
2	8	17	
1	8	17	
2	12	32	
1	4	5	
2	4	24	
2	19	42,5	
1	8	17	
2	8	17	
2	8	17	
1	5	35	

Rang Summasi	Ishbirchilar soni	U-statistika
yigtlar	543,5	21
odalar	446,5	23
Kritik qiymat		170

$$U = (n_1 \cdot n_2) + \frac{n_1(n_1 + 1)}{2} - R_1$$

$$U = (n_1 \cdot n_2) + \frac{n_2(n_2 + 1)}{2} - R_2$$


### 21.3-rasm. Natijalar jadvali.

Empirik qiymat natijasi 170 ni tashkil etdi. Mazkur qiymatning to'g'ri hisoblanganligini SPSS dasturida tekshiramiz.


### 22.4. Manni-Uitni U mezonini statistik paketlar dasturi yordamida hisoblab topish.

SPSS dasturida bog'liq bo'limgan o'zgaruvchilarni Manni-Uitni mezonida hisoblash imkonи mavjud. Umuman olganda dasturda bir qancha nonparametrik mezonlar variantlari bor. Manni-Uitni hisoblash mezonida Excel dasturida hisoblangan ma'lumotlarni SPSS dasturida qayta hisoblaymiz.

“Analys” → “Nonparametrik Test” → “Legacy Dialog” → “2 Independent Samples”... “Legacy Dialog” SPSS 17 dan keyingi avlodlarida bo‘ladi.




22.4-rasm. Bog‘liq bo‘ligan tanlanmalar dialog oynasini ochish.



22.5-rasm. Bog‘liq bo‘ligan tanlanmalar dialog oynasi.

“Test Variable List” – ro‘yxatiga miqdoriy o‘zgaruvchilarni kiritamiz.

“Grouping Variable” ro‘yxatiga jinsi o‘zgaruvchisini kiritamiz. Shundan so‘ng, “Define Groups” qatori faollashadi. Uni bosib, guruhlar belgilanadi (29.7. Rasm).



## 22.6-rasm. Bog'liq bo'yigan tanlanmalar dialog oynasi orqali guruhlarni belgilash.

Mann-Whitney U (Manni-Uitni U) testi sukut bo'yicha faol turadi. "Continue" tugmasi bosilsa, "OK" tugmasi faollashadi. Shunda Manni-Uitni U mezoni qiymatiga ega bo'lamiiz.

### MANN-WHITNEY TEST

#### Ranks

	Jinsi	N	Mean Rank	Sum of Ranks
Emotional_barqarorlik	Qizlar	23	19,41	446,50
	Yigitlar	21	25,88	543,50
	Total	44		

#### Test Statistics<sup>a</sup>

	Emotional_barqarorlik
Mann-Whitney U	170,500
Wilcoxon W	446,500
Z	-1,655
Asymp. Sig. (2-tailed)	.092

a. Grouping Variable: Jinsi

## 22.7-rasm. Manni-Uitni U mezoni natijalar jadvali.

Natijalar jadvaliga ko'ra, qizlar guruhi umumiy rangi – 446,5, o'rtacha rangi – 19,41; yigitlar guruhi umumiy rangi 543,5, umumiy rangi – 25,98 ni ko'rsatdi.

Manni-Uitni U mezoni qiymati – 170,5 ni ko'rsatdi. Uning ahamiyatlilik darajasi esa "Z Asymp.Sig." = 0,092 ni ko'rsatdi. Z qiymat normallashtirilgan p=0,092 ga teng hisoblanadi. Ya'ni u, 0,05 darajadan katta bo'lgani uchun H<sub>0</sub> faraz qabul qilinadi.

Demak, Excel dasturida va SPSS dasturlarida mezon deyarli bir xil qiymatni ko'rsadi.

## **22.5. O'zaro bog'liq tanlanmalar uchun Vilkokson mezoni.**

O'zaro bog'liq tanlanmalarni taqqoslash uchun psixolog T-Vilkokson (birinchi bobda W Vilkokson mezoni deb berilgan) juft mezonidan foylanishi mumkin. Mazkur mezon orqali bir tanlanma ishtirokchilarining turli sharoitlarda o'zgarishini o'rganish mumkin. T-Vilkokson mezonining imkoniyatlari va qulayliklari 9-mavzu orqali bizga tanish.

T-Vilkokson mezoni o'zgarishlar yo'nalishini aniqlabgina qolmay, balki uning mohiyatini belgilaydi. Ya'ni ko'rsatkichlarning siljishi bir tomonga qaraganda boshqa tomonga qanchalik intensiv yo'nalganini belgilashga imkon beradi.

T-Vilkokson mezoni, birinchi va ikkinchi tadqiqotda tanlanma qiymati ayirmasi absolyut kattaliklarining ranjirovkasiga asoslangan bo'ladi. Absolyut kattaliklar ranjirovkasi qiymatlarning belgisi inobatga olinmasligidan darak beradi. Ammo keyingi amallarda, ranglarning umumiy summasi topilgach, tipik va notipik siljishlar hisoblanadi.

Tipik siljishlar ayirmaning ko'p uchragan belgili qiymatlari bo'lsa, notipik siljishlar kam uchragan ijobiy yoki manfiy qiymatlaridir. T-Vilkokson mezoni mazkur notipik siljishlar orqali hisoblangan empirik qiymatlarga asoslanadi.

## **22.6. Vilkokson mezonini Excel dasturida hisoblab topish bo'yicha yo'riqnomा.**

Misol orqali Excel dasturida T-Vilkokson mezoni qiymatini hisoblashni ko'rsatamiz. Aytaylik, psixolog o'smirlarning bezovtalik darajasini treningdan oldin va keyin o'rgandi. Psixologning vazifasi, o'smirlarda o'tkazilgan trening natijasida, ularning bezovtaligi pasayish tendentsiyasini aniqlashdan iborat. Ya'ni trening samaradorligi T-Vilkokson mezon qiymatining statistik ahamiyati belgilanishiga bog'liq. Albatta psixologik tadqiqotlarda faqatgina birgina tahlil orqali metod samaradorligi belgilanmaydi. Buning uchun bir necha tahlillar olib borish zarur bo'ladi.

19 nafar respondentning bezovtalik darjasini oldin va keyin ko'rsatkichi, tipik va notipik siljishlar 22.8. rasmida ko'rsatilgan.

T/r	Bezovtalik oldin	Bezovtalik keyin	Siljish (d)	Ayirma (d) absolut qiymati	Absolut qiymat rangi R (d)	Natipik qiymat	Tipik qiymat	n=	
1	25	20	5	5	13	0	13		18
2	20	17	3	3	6	0	6		
3	23	19	4	4	9	0	9		
4	18	12	6	6	16	0	16		
5	22	21	1	1	1	0	1		
6	16	12	4	4	9	0	9		
7	23	20	3	3	6	0	6		
8	25	21	4	4	9	0	9		
9	18	12	6	6	16	0	16		
10	15	10	5	5	13	0	13		
11	13	9	4	4	9	0	9		
12	28	23	5	5	13	0	13		
13	21	10	11	11	18	0	18		
14	20	18	2	2	3	0	3		
15	15	15					0		
16	21	23	2	2	3	3	0		
17	27	25	2	2	3	0	3		
18	19	13	6	6	16	0	16		
19	23	27	-4	4	9	9	0		
Jami:						12	159		

## 22.8-rasm. Vilkokson mezonida natijalar jadvali.

Natijalarni tahlil qilishda quyidagi funktsiyalarni qo'lladik. Trening oldi va keyingi holati ayirmasini ranjirovka qilishda "Rank.AVG." funktsiyasidan foydalanildi. Ammo ayirmalarni ranjirovka qilishdan oldin D17 va D20 yacheykalaridagi manfiy kattaliklarni absolyut kattalikka aylantirish zarurati tug'iladi. Buning uchun Absolyut qiymat rangi R (d) ustuni birinchi yacheykasida "ABC" funktsiyasi qo'llanildi.

### Formula Builder

Show All Functions

### ABS

number = 5

D2:D20

## 22.9-rasm. "ABC" funktsiya sintaksisi.

"Number" – katagiga manfiy qiymatlari ustun kiritildi. Mazkur funktsiya yordamida barcha manfiy qiymatlarning ishrasini yo'qotish mumkin.

16 raqamdagи ishtirokchi, treningdan oldin va keyin bir xil natija ko'rsatganligи sababli uning natijasi ayirmasi nolga teng bo'ldi. Vilkokson mezoni tahlilida nol qiymatlar inobatga olinmasligi uchun nol qiymatlar soni hisoblanmaydi. Buning uchun J2 yacheykada n= qo'yilib, J2 yacheykada "Count" funktsiyasi qo'llanildi. Mazkur funktsiya ustunlarda qiymatlar sonini hisoblaydi. Ya'ni nol qiymati o'chirib tashlangani uchun 19 ishtirokchidan 18 qiymati hisobga olindi. Quyida Count funktsiyasi sintaksisi taqdim etiladi.

#### Formula Builder

Show All Functions

#### COUNT

value1 = {6;3;4;5;3;4;3;4;6;5;4;3;1;2;0;...}

value2 = number

+

Result: 18

Done

#### 22.10-rasm. "Count" funktsiyasi sintaksisi.

"Value1" qatorda, qiymatlari soni hisoblanishi kerak bo'lgan ustun kiritiladi.

"Value2" qatorda hech qanday qiymat kiritilmadi. "Done" tugmasi bosilib, jarayon tugutiladi.

Tipik siljishlar birinchi va ikkinchi tanlanalar ayirmasida eng ko'p uchragan ishorali qiymatlar hisoblanadi. Notipik siljishlar esa, eng kam uchragan ishorali qiymatlar sanaladi. Bizning misolimizda tipik siljishlar musbat qiymatlar hisoblandi. Manfiy iforali qiymatlar atigi ikkita bo'lgani bois, ular notipik siljishlar deb hisoblanadi. Qatordagi musbat yoki mansiy ishorali qiymatlarni ko'rsatish uchun "If" mantiqiy funktsiyasidan foydalandik. Notipik qiymatlar ustuniga =IF(D2<0,F2,0) funktsiyasini kiritdik. Natijada funktsiya ustundagi barcha musbat ishorali qiymatlarni nolga aylantirib, faqat manfiy ishorali qiymatlar rangini (ularni ishorasini qayd etmagan holda) ko'rsatdi. Tipik qiymatlar ustuniga=IF(D2<0,0,F2) funktsiyasini kiritdik. Bunda

funktsiya manfiy qiymatli ishoralarni nolga aylantirib, musbat qiymatli ishoralarni namoyon etdi.

T-Vilkokson mezoni empirik qiymati notipik siljish qiymati sanaladi. Demak,  $T_{\text{emp}}=12$  ga teng. Kritik qiymatlar ilavadan topiladi.

$$T_{\text{kr}}=47 \quad (0,05) \quad T_{\text{kr}}=32 \quad (0,01).$$

T-Vilkokson mezonida empirik qiymat kritik qiymatdan kichik bo‘lgan holatda,  $T_{\text{emp}} < T_{\text{kr}}$  statistik ahamiyatlilik qabul qilinadi.

Demak, 0,01 darajada  $H_1$  farazni qabul qilamiz. Ya’ni o’smirlarning bezovtaligini pasaytirishga qaratilgan trening samaradorligi tasdiqlandi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Manni-Uitni mezoni qanday tanlanmalar asosida tanlanadi?
2. Manni-Uitni mezonini qo‘llaganda nimalarga rioya qilish kerak?
3. Manni-Uitni mezoni t-Styudent mezonidan qanday farq qiladi?
4. Vilkokson mezonida qanday siljishlar notipik sanaladi?
5. Vilkokson mezoni qiymati qanday siljish asosida olinadi?
6. Excel dasturida qiymatlarning ishorasini qaysi funktsiya orqali yo‘qotish mumkin?
7. “CountIf” funktsiyasi qanday amalni bajaradi?
8. “SumIf” funktsiyasi qanday amalni bajaradi?
9. SPSS dasturida Manni-Uitni mezoni uchun “Grouping Variable” ro‘yxatiga qanday o‘zgaruvchilar kiritiladi?
10. SPSS dasturida natijalar jadvalidagi “Z-Asymp.sign.” qiymati nimani anglatadi?
11. Excel dasturida “Count” funktsiyasi nima uchun qo‘llaniladi?

## 23-mavzu: NOMINAL SHKALALARING STATISTIK TAHLILI.

**Tayanch tushunchalar:** asimptotik ahamiyatlilik, bir o'lcovli chastotali jadvallar, birlashtirilgan jadval qavatlari, bog'liqlik o'lcovi, birlashtirilgan jadvallar, kutilgan chastotalar, kuzatilgan chastotalar, tahliliy statistika, toifali o'zgaruvchilar, miqdoriy o'zgaruvchilar, ustunning marginal chastotasi, chiziqli-chiziqli bog'liqlik, qoldiqlar, qatorning marginal chastotasi,

### 23.1. Statistik baholash tushunchasi.

Statistikaning umumiy tushunchasi o'zida ikki xil yirik bo'limni aks ettiradi: tavsiflovchi statistika va tahliliy statistika. Tavsiflovchi statistika metodlari o'z ichiga axborotlar yig'ishni, ma'lumotlarni guruhlashtirishni, statistik jadvallar va grafiklarni qurish, shuningdek, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash kabi operatsiyalarni hisoblaydi.

Tahliliy statistikaga tanlanma, variatsiya, korrelyatsiya, regressiya, dinamika, struktura va indekslar kiradi.

Tahlil qilish bilan bog'liq amalii ishlar, Excel dasturi misolida tavsiflovchi statistikaning axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni taxmin qiladi. Yordam tizimida qo'llaniladigan metodlarning qisqacha izohi beriladi. Dastur imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun umumiy statistik nazariyadan xabardor bo'lish talab etiladi.

Statistik tahlillar «Анализ данных», Excel dasturi funktional modullari yordamida amalga oshiriladi.

Metodik ko'rsatmalar matnida fayllar, dasturlar, tugmalar birikmasi va menuy qismida ularni Times da yozilgan boshqa matnlardan ajratib ko'rsatish uchun "Courier" shriftida beriladi. Misol uchun bu yerda «Сервер→Надстройка» yozuvni «Сервер» menyusidan ochilib turgan «Надстройка» punktidan kursorni olib o'tkazish va sichqonchaning chap tugmasini bosishni bildiradi. «Shift+F12» ifodasi "Shift" ni bosib turgan holda funktional F12 tugmasini baravar bosishni anglatadi.

Statistik baholashda Excel orqali ma'lumotlarni statistik tahlil qilish va natijalarni jadvallar va grafiklar orqali ifoda etish mumkin. Ma'lumotlarni kompyuterda statistik baholashda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- yaratilgan va to'g'ri joylashtirilgan formulalarni qo'llagan holda, jadvallarni shakllantirish va to'ldirish ko'nikmasini mustahkamlashlash;

- ma'lumotlarni guruhlashtirish metodikasini o'zlashtirish va variatsiyaning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash;

- statistik grafiklarni qurish ko'nikmasini shakllantirish.

Empirik taqsimotning shakllarini o'rganish uchun ma'lumotlar guruhlashtiriladi. Guruhlar natijasini grafiklar va jadvallar ko'rinishida taqdim qilinadi.

Ma'lumotlarning tahlili guruhlashtirilishi korrelyatsion aloqadorlikni tahlil qilishga qaratilgandir. Bunday guruhlashtirish ehtimoliy qiymatlar diapozonini intervallarga bo'lishga va har bir guruhning yakuniy miqdorini hisoblashga qaratilgan. Guruhlashtirishning quyidagi imkoniyatlarini qo'llash mumkin:

- intervallar chegarasi to'liq sonlar tariqasida berilishi lozim (100-120, 20-30, 70-80);

- intervallar bir xil kenglikda berilishi lozim (< 100, 100-120, 120-140, 140-160, > 160). Bunda birinchi va oxirgi intervallar kengligi qolganlariga nisbatan teng qabul qilinadi;

- tavsiya qilinadigan intervallar soni tartib bo'yicha tanlanma sonidan kam bo'lishi kerak;

- kamsonli va bo'sh intervallarga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Har bir interval uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblash kerak:

- $n_i$  = chastota (mazkur intervalga tushadigan tanlanma elementlari miqdori);

- $n_i \%, \%$  = nisbiy chastota (tanlanma ko'lamidan mazkur interval elementlari soni ulushi);

- $K_i \%, \%$  = to'plangan chastota (joriy interval va barcha oldingi intervallar chastotalar miqdori).


## 23.2. Tavsiflovchi va tahlili statistika.

Ilgari aytib o'tganimizdek, Excel dasturida tavsiflovchi statistikani amalga oshiradigan «Пакет анализа» vositasida maxsus bo'lim mavjud. U «Описательная статистика» deb nomланади. Bu bo'linda quyidagi ko'rsatkichlar hisobланади: Mediana; Moda; Dispersiya; O'rtacha; Standart og'ish; Standart xato; Asimmetriya va ektsess.

t/r	Qiymatlar
1	12
2	10
3	15
4	30
5	20
6	11
7	7
8	3
9	23
10	16
11	10
12	8

**23.1-rasm.** Tavsiflovchi statistikani hisoblash uchun kerakli uskunaga murojaat qilish.

«Данные» «DATA» menyusi orqali «Анализ данных» «DATA ANALYCIS» ning «Описательная статистика» «DISCRITIVE STATISTICS» bo‘limiga kirladi.



**23.2-rasm.** Tavsiflovchi statistika bo‘limiga kirish.

A	B	C
t/r	Qiymatlar	
1	12	
2	10	
3	15	
4	30	
5	20	
6	11	
7	7	
8	3	
9	23	
10	16	
11	10	
12	8	

**23.3-rasm.** Tavsiflovchi statistika dialogli oynasida buyruq berish

Tavsiflovchi statistikaning “Input range” tugmasini bosgandan soʻng, tahlil qilinishi kerak boʻlgan ustun belgilanganadi. Agar belgilangan ustun sarlavhasi bilan birgalikda belgilansa, “Labels in first row” deb nomlangan tugma bosiladi. Bunda tahlilda ustunning birinchi katakchasi inobatga olinmaydi. Agar ustun ikkinchi qatordan belgilansa, mazkur tugma bosilmaydi. Statistik tahlil yangi faylda yoki yangi varaqda belgilanishi “New Worksheet” (yangi varaq), yoki “New Workbook” (yangi fayl) tadqiqotchi tomonidan tanlanadi. Yoki “Output range” orqali maʼlumotlar joylashgan varaqning oʻzi tanlanadi. “Summary statistic” tugmasi bosilsa, barcha statistik parametrlar hisoblanadi.

The screenshot shows a Microsoft Excel spreadsheet titled "Qiyamatlar". The data consists of 16 rows of statistical measures and their values. The columns are labeled from 1 to 2. The data is as follows:

	Qiyamatlar	
1		
2		
3	Mean	13.75
4	Standard Error	2.181620888
5	Median	11.5
6	Mode	10
7	Standard Deviation	7.55735644
8	Sample Variance	57.11363636
9	Kurtosis	0.584316904
10	Skewness	0.87660691
11	Range	27
12	Minimum	3
13	Maximum	30
14	Sum	165
15	Count	12
16	Confidence Level(95.0)	4.801715198
17		

### 23.4-Rasm. Tavsiflovchi statistik maʼlumotlar.

Bu yerda:

- Oʻrtacha – 13,75;
  - Standart xato – 2,1;
  - Mediana – 11,5
  - Moda – 10;
  - Standart ogʼish – 7,55;
  - Dispersiya – 57,11;
  - Ektsess – 0,5
  - Asimmetriya – 0,8 va h.k.
- Shu tariqa statistik qiyamatlar belgilanadi.

### 23.3. Nominal shkalalar uchun chastotali jadvallar.

Chastotali jadval – tanlanma tarkibi haqidagi axborotni taqdirm etishning asosiy usullaridan biridir. Chastotali jadvallar nomlanishlar shkalalasida biron belgi va xususiyatning uch rash maromini anglatuvchi jadvallar hisoblanadi. Nomlanishlar shkalasida baholangan qiymatlar sifat belgisini bildiradi. Unda jadvallar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

#### 23.1-Jadval.

Bir o‘lchovli chastota jadvaliga misol (N=61).

Belgi	1	2	3	4
Uchrash chastotasi	19	13	19	10

Ya’ni bu yerda 1,2,3,4 belgining qiymatlari shunchaki tartib son emas balki biron bir belgining kodlangan nomlanishi bo‘lishi mumkin. Misol uchun 1,2,3,4 kurs talabalarining «Psixologiya» fanidan a’lo baho olgan talabalari soni va h.k.

Nomlanishlar shkalasida chastotali jadval tuzishga yana bir misol keltiramiz: Kozlov, Fetishkin, Manulov tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning ijtimoiy qadriyatlari ekspress-diagnostikasi» metodikasida qadriyatlar qo‘rinishi quyidagicha berilgan. Professional, Moliyaviy, Oilaviy, Ijtimoiy, Jamoaviy, Ma’naviy, Jismoniy, Intellektual qadriyatlar. Har qanday tadqiqotchi ham, mazkur qadriyatlarni elektron jadvallarda tahlil qila turib, ularni 1 dan 8 gacha bo‘lgan tartibda kodlaydi. Qadriyatlar kodlanganda, ularni qay tartibda joylashishining ahamiyati yo‘q. Misol uchun:

Professional	Moliyaviy	Oilaviy	Ijtimoiy	Jamoaviy	Ma’naviy	Jismoniy	Intellektual
1	2	3	4	5	6	7	8

Qadriyatlar nomlanishi kodlangandan so‘ng, guruhda ularning tanlanish chastotasini chastotali jadvalda ifodalaymiz.

#### 23.2 Jadval.

Bir o‘lchovli chastota jadvaliga misol (N=61).

Qadriyatlar	1	2	3	4	5	6	7	8
Chastotasi	12	10	7	5	9	5	4	9

Shuni aytish kerakki, chastotali jadvallarni tuzish oddiy ishdek ko‘rinsa-da, aslida bu ancha mehnat talab qiladigan jarayon. Bunda birinchi navbatda, tahlil qilinishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarning o‘lchov shkalasi o‘rganiladi. Ammo faqat nominal shkalaga tegishli

ma'lumotlarni chastotali jadvallarda tahlil qila turib, biz boshqa murakkabroq shkalalarni o'rganamiz. Chunki bir o'lchovli chastotali tahlilda boshqa shkalalardan e'tiborni qochira olmaymiz. Buning sabablari bir nechta.

Birinchidan, tegishli qatorlar deyarli barcha tahlil usullarida, jumladan, nominal ma'lumotlarda ham amalda qo'llangan (ba'zan yaqqol bo'lman ko'rinishda).

Ikkinchidan, garchi psixologiyada nominal ma'lumotlar dastlabki, asosiy ma'lumot hisoblansa-da (ma'lumotlarni guruhlashdirish va taqqoslash uchun), aksariyat empirik psixologik masalalarni hal etish uchun boshqa kuchliroq o'lchov shkalalari orqali aniqlangan ma'lumotlar tahlilini qo'llaymiz. Bu holat shu bilan izohlanadiki, respondentning yoshi va uning intellekt darajasi singari psixologiyada muhim hisoblangan xarakteristikalar kuchli shkalalarda hisoblanadi. Shuning uchun ma'lumotlar tahlilini «sanoqli» yoki «chislovoy» o'rganish metodlari orqali tahlil qilinmasligi mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Uchinchidan, psixologiyada «числовые» statistik tahlili metodini tasvirlaydigan ishlar etarli bo'sa-da, biroq barcha holatlarda ham ularning, amaliyotchi psixolog uchun muhim bo'lgan aspektlari etarli-cha izohlanmaydi. Misol uchun, o'zgarishlar diapozonini intervallarga ajratish yoki tushirib qoldirilgan qiymatlar muammosi juda kam holatlarda o'rgatiladi.

#### 23.4. Tartib shkalalari uchun chastotali jadval.

Tartib shkalalarida baholanadigan ma'lumotlar ustida statistik tahlil o'tkaza turib, toifalarning uchrash maromini hisoblash va mos chastotalar jadvalini shakllantirish, modani topishdan tashqari ob'ektning tartibini (rangni) hisoblash mumkin.

Tartib shkalasida jadval qurish xuddi nominal shkala jadvalidek amalga oshadi. Unga quyidagicha misol keltirish mumkin. Aytaylik, «Baxsda faqat bir tomon haq bo'lishi mumkin» degan mulohazaga berilgan javob variantlari quyidagicha toifalanadi: «Butunlay roziman», «Roziman», «Rozi emasman», «Qarshiman», «Umuman qarshiman». Ularni tartib shkalasida quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin:

- 1 - «Butunlay roziman»,
- 2 - «Roziman» , 3 - «Rozi emasman»,
- 4 - «Qarshiman» ,
- 5 - «Umuman qarshiman».

### 23.3.-Jadval.

Bir o'chovli chastota jadvaliga misol (N=35).

Belgining qiyatlari	Chastotalar
1	5
2	7
3	3
4	10
5	10

Nominal shkaladan farqli ravishda tartib shkalasida mulohazalarga berilishi kerak bo'lgan javob variantlari ketma-ket tartibda joylashtilishi kerak. Tartib shkalasida eng yaxshidan eng yomongacha; eng pastdan eng yuqorigacha bo'lgan tartib belgilanadi.

Tartib shkalasining chastotali jadvallarga yana misol keltiramiz. Talabalarning olgan ballarini chastotasini aniqlash uchun oddiy jadvalni chastotali jadvalga aylantiramiz.

### 23.4.-Jadval.

Talabalar olgan ballari (N=15).

Nº Talabalar t/r	Ballar
1.	56
2.	76
3.	80
4.	81
5.	59
6.	87
7.	90
8.	74
9.	78
10.	63
11.	90
12.	77
13.	59
14.	78
15.	75

Endi mazkur ballarni toifalashtirib, ularning chastotasini belgilaymiz.


## 23.5-Jadval.

### Tartib shkalasi chastotali jadvali (N=15).

Ball	Chastota
56-71	4
72-85	8
86-100	3
<b>Jami:</b>	<b>15</b>

Ma'lum ballarni toifalash usuli yordamida talabalar ballari tartiblashtirildi. Mazkur operatsiyani Ms Excel ham formula yordamida bajarish mumkin. Buning uchun «Частота» “Frequencies” operatsiyasiga yuzlanish mumkin.

Mazkur funktsiyaning sintaksisi juda oddiy, birinchi massivda «data array», ikkinchi massivda «bins array» kataklari mavjud. Birinchi katakka “data array” chastotali tahlil qilish kerak bo’lgan qator qiymatlari ajratib olinadi. Ikkinchi qatorga esa, qiymatlarning intervali joylashtiriladi.



### 23.5-rasm. Chastota funktsiyasining sintaksisi

Bizning holatimizda qiymatlar intervali quyidagicha joylashtiriladi: birinchi katakka eng qichkina qiymat kiritiladi, bu - 56.

Ikkinci katakka 72 kiritiladi. Ya'ni 72 sonigacha bo'lgan barcha qiymatlar hisoblanadi.

Uchinchi katakka 86 sonini kiritamiz. Demak, 86 gacha bo'lgan qiymatlar soni avtomatik hisoblanadi.

To'rtinchi katakka 90 sonini kiritamiz. Yoki agar mavjud bo'lsa, ma'lumotlar qatoridagi eng eng katta sonni kiritamiz. Intervallar ustunini ma'lumotlar ustunidan ajratib ko'rsatish uchun boshqa rang berish mumkin.

№ Talabalar /p	Bullar	Interval
1	56	55-59
2	76	59-63
3	80	63-67
4	81	67-71
5	49	71-75
6	56	75-79
7	49	79-83
8	22	83-87
9	75	87-91
10	67	91-95
11	56	95-99
12	77	
13	59	
14	78	
15	94	

**23.6-rasm.** Ma'lumotlarni chastotali tahlil qilish uchun mavjud jadvalga intervalni qo'shish

«ЧАСТОТА» operatsiyasi uchun to'rtinchi D ustunini belgilaymiz.

№ Talabalar /p	Bullar	Interval	CHASTOTA
1	56	55-59	
2	76	59-63	
3	80	63-67	
4	81	67-71	90
5	49	71-75	
6	56	75-79	
7	49	79-83	
8	22	83-87	
9	75	87-91	
10	67	91-95	
11	56	95-99	
12	77		
13	59		
14	78		
15	94		

**23.7-rasm.** Chastotali tahlilini amalga oshirish uchun jadvalga D ustunini qo'shish.

Hamma vaqt **D ustuni** intervallar ustunidan bitta ko'p yacheykani o'z ichiga olishi kerak. Ya'ni interval ustun C2:C5 bo'lsa, chastota qiyamatlari uchun hozirlangan ustun D2:D6 bo'ladi. «=> ishorasi D2:D6 ustunni ajratgan holda bosiladi. Ya'ni avval kerakli ustun ajratilib, keyin funksiya kiritiladi.

A № Talabalar t/p	B Ballar	C Inte	D	E
1	56		=FREQUENCY()	
2	76	72		
3	80	85		
4	81	90		
5	59			
6	86			
7	90			
8	72			
9	78			
10	63			
11	90			
12	77			
13	59			
14	78			
15	75			

23.8-rasm. Chastota funktsiyasiga murojaat qilish.


A № Talabalar t/p	B Ballar	C Interval	D CHASTOTA
1	56	50	1
2	76	72	4
3	80	76	8
4	81	80	2
5	59		0
6	86		
7	90		
8	72		
9	78		
10	63		
11	90		
12	77		
13	59		
14	78		
15	75		

23.9-rasm. Qiymatlarning chastotasi.


### Chastotali jadvallarni grafik usulda talqin etish.

Chastotalar jadvallarda joylashtirilgach, ularni Ms Excel dasturida grafiklar orqali taqdim etish mumkin. Nominal shkala uchun chastotali

jadvallarni grafik usulda namoyish etishda jadval ajratib olinib, kerakli uskunaga murojaat qilinadi.




**23.10-rasm. 23.1-jadvalga asoslangan taqsimot poligonini qurish usuli.**



**23.11-rasm. 23.1-jadvalga asoslangan taqsimot diagrammasini qurish usuli.**

Grafik taqdim etishning yana bir ommaviy usuli bu aylanali diagrammadir. Aylana diagrammasining har bir sektori o'zgaruvechining diskret qatorini namoyish etadi. Sektor kattaligi mavjud tanlanma uchun toifalar chastotasiga proportionaldir. 23.7-rasmda aylana diagrammani

shakllantirish usuli keltirilgan. Unda talabalarning fan yakuniga ko'ra  
olgan ballari taqsimoti berilgan.



### 23.12-rasm. 23.5-jadvalga asoslangan aylanalii diagrammani qurish usuli.

Tadqiqotchining xohishiga ko'ra, grafiklar ranglari, stillari, sarlav-hadagi so'zlar o'zgartirilishi, hoshiyalar chizilishi, grafikka yangi element qo'shilishi mumkin. Agar grafik ustiga sichqoncha o'ng tugmasi ikki marta bosilsa yoki menyudan «Chart Disayn», «Dizayn grafiga» uskunalar panelida grafikka daxldor belgilarning o'zgartirilishi yuzasidan bir necha variantlar beriladi.



**23.13-rasm.** Grafik belgisini o'zgartirish uchun tegishli uskunaga murojaat qilish.

Grafikning tarkibidagi so'zlarni va ularning uslubini o'zgartirish, yangi so'z qo'shish uchun uskunalar panelidan «Format» tugmasi bosiladi va uskunalar panelida va ekran o'ng tomonida paydo bo'lgan dialogli oynaga murojaat qilinadi.

### **23.5. Birlashtirilgan jadvallar.**

Birlashtirilgan jadvallar - ikki bog'liqlikni tadqiq qilishga mo'ljalangan namoyish qilish vositasidir. Bu jadvallarda baholangan ma'lumotlarning bog'liqligini aniqlaysa, guruqlar (ayol, erkak); kurslar (1,2,3,4), tura ruy (shaxslar) javob, «ha», «yo'q»;

Birlashtirilgan jadvallar qatorlari bitta mos keladi. Ustunlar esa, boshqa keladi. Miqdoriy shkalalar oldindan intervalda bo'lishi kerak. Uzluksiz o'zgaruvchilarni birlashtirishda tahlil qilishning imkoniy yo'q. Ammo uzluksiz larda tahlil qilsa bo'ladi. Misol uchun, yosh hajidagi qiymati uzluksiz bo'ladi. ularni intervalda baholash uchun kategoriyalari beriladi: 19-25, 26-32, 33-45 va h.k.

Birlashtirilgan jadvallar, statistik aloqadorlikni universal vosita hisoblanadi. Qatorlar va ustunlarning kengligi yoxda o'zaro aloqadorlikning chastotasi ko'rsatiladi. Ya'ni, x<sub>i</sub> va y<sub>j</sub> o'zgaruvchilarining mos belgilari sanabadi. Ustunlar keluvchi ikki o'zgaruvchi uchun bitta jadval tuziladi. Misol uchun "Rows" Qatorlar katagida ikkita o'zgaruvchi bo'lsa, "Columns" Ustunlar katagida uchta o'zgaruvchi joy olgan bo'lsa, unda bir birlashtirilgan jadvalga ega bo'lamiz.

Qatorning chastotasi summasi - qatorning marginal chastotasi deb nomlanadi; ustunlar chastotasining summasi - ustunning marginal chastotasi deb nomlanadi. Marginal chastotalarning summasi ustunlarning ko'lamiga teng bo'ladi. O'zgaruvchilarning qator va ustunlar beryoz bir maromda taqsimlanishini bildiradi.

Birlashtirilgan qatorlarda absolyut qiymatlar kabi nisbiy chastotalar (ulushlarda yoki foizlarda) uchrashi mumkin. Nisbiy chastotalar quyidagilarga:

- qatorning marginal chastotasiga;
- ustunning marginal chastotasiga;
- tanlanma ko'lamiga nisbatan hisoblanadi.

Birlashtirilgan jadvallar belgilar o'rtaida bog'liqlik mavjudligi to'g'risidagi farazni tekshirish uchun qo'llaniladi (Statistik bog'liqlik, «xi kvadrat» mezoni). Shuningdek, bog'liqlikning zichligini o'lehashda foydalaniлади («fi koefitsient», kontingentsiya koefitsenti, Kramer koefitsenti).

Birlashtirilgan jadvallarni SPSS statistik paketda amalga oshirish mumkin. Ammo ba'zan ma'lumotlarni ofis paket sanalgan Excel da tahlil qilish ham mumkin. Birlashtirilgan jadvallar Excel dasturida umumiy jadvallar orqali massivning o'chanishini ham inobatga olgan holda quriladi.

Birlashtirilgan jadvalni qo'llashga doir misol keltiramiz. 30 nafar ishtirokchilarning (18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan talaba) identivlik darajasi, tolerantligi va noverbal pertseptiv holati o'rganildi. Uchta o'zgaruvchilar qatori shakllantirildi. Endi mazkur qatorlarda birlash-tiruvchi jadval tuzamiz.


SPSS paketida birlashtirilgan jadvallar funktsiyasi “Analyse” → “Descriptive statistic” → “Crosstbles”... orqali ochiladi.

	Perspektiya	Tolerantlik
1	8	25
2	28	85
3	22	60
4	30	83
5	10	22
6	22	70
7	21	80
8	28	90
9	22	93
10	7	30
11	16	43
12	6	30
13	10	43
14	28	80
15	14	90
16	22	77
17	14	65

### 23.14-rasm. Birlashtirilgan jadvallar funktsiyasini ochish.

Birlashtirilgan jadvallar funktsiyasiga oynasi chiqqandan so'ng, “ROWS” ya'ni qatorlar katakhasiga bitta o'zgaruvchi nomini kiritamiz. “COLUMNS” ustun katakhasiga boshqa o'zgaruvchini o'tkazamiz. Biz mustaqil o'zgaruvchilarni (taxminan sabab hisoblangan o'zgaruvchi) qaysi katakka, bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilarni (oqibati sifatida taxmin qilingan o'zgaruvchi) qaysi katakka joylashtirganimizni yodda tutishimiz kerak. Olingan aloqadorlikni to'g'ri tahlil qilish uchun birlash-tirilgan jadval oynasida parametrlarni to'g'ri berish kerak bo'ladi. uning uchun “YACHEYKA CELLS” tugmasi bosiladi.

Shundan so'ng, “CELLS” katakcha tugmasini bosamiz. Mazkur katakcha qizil hoshiya bilan belgilangan. Uning oynasi quyidagi ko'rinishga ega:



### 23.15-rasm. Birlashtirilgan jadval oynasida parametrlarni belgilash

«Observed» katakchasiда belgi qo'yilgan. Bu belgi qayd etilgan kuzatilgan holatlarni belgilaydi. Uning ostidagi «Expected» tugmasi bosilsa, birlashtirilgan jadvalda kutilgan qiymatlarni beriladi. Natijada kuzatilgan va kutilgan qiymatlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati tug'iladi. Ya'ni bunda xi kvadratda hisoblanadigan empirik va teoretik chastotalarning qiyosiy tahlillarini eslatadi. Kuzatilgan natijalar empirik chastotalarga, kutilgan natijalar teoretik natijalarga yaqin.



Misol uchun, 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan talabalar guruhining etnik tolerantligi va noverbal pertseptiv xususiyati o'rGANildi. Mazkur sifatlar talabalarning bilingvaligi bilan aloqadorlikda o'rGANildi. Ona tilidan tashqari yana boshqa tilda so'zlashuvchi talabalar (bilingval) va faqat bir tilda so'zlashuvchi talabalarning (monolingval) noverbal pertseptiv xususiyatlari, tolerantligi o'rtasidagi bog'liqlik birlashtirilgan jadvalda ko'rib chiqildi.

Dastlab metodika bo'yicha olingan natijalar uzluksiz qiymatlarni ko'rinishida elektron jadvalga kiritildi. Ammo biz bilanmizki, birlashtirilgan jadvallarda o'zgaruvchilar ma'lum intervallarda berilishi kerak. Shuning uchun G.Ya. Rozennenning «Noverbal pertseptiv qobiliyatni aniqlash» ga qaratilgan metodikasining sharhida berilgan guruhlar sonlariga ko'ra, qiymatlarni o'zgartirildi.

Bilingvallik o'zgaruvchisi maqsadga muvofiq ravishda, bilingval bolalarga «2», monolingval bolalarga «1» kod qo'yildi.

Tolerantlik indeksini aniqlashga qaratilgan metodika natijalari esa, metodika yo'riqnomasiga ko'ra, yuqorida, o'rta va quyi degan sifatlarga almashitirildi. SPSS dasturining «Data View» (O'zgaruvchilarni ko'rish)

bo'limida har bir intervallarga va belgilangan kodlarga aniqlik kiritish uchun ularning ahamiyati «Values» katagida o'zgartirildi.



23.16-rasm. O'zgaruvchilar belgilarining ahamiyati.

Crosstabs

		Cases			
		Observed	Expected	Marginal	Total
Response	Frequency	O	E	Row%	Col%
		27	17.04	8%	24%

Case Processing Summary

		Marginal - Percentage Marginal						
		0.0%	10.0%	20.0%	30.0%	40.0%	50.0%	Total
Response	Frequency	0.0%	10.0%	20.0%	30.0%	40.0%	50.0%	
		0.0%	10.0%	20.0%	30.0%	40.0%	50.0%	

CROSSTABS

### 23.17-rasm. Birlashtirilgan jadvallar.

Jadvalning qatorida «Bilingvallik» o'zgaruvchisi, ustunda esa «Noverbal-pertseptiv qobiliyatlar» o'zgaruvchisi o'r'in olgan. Ularning har bir kesishgan katakchasidagi qiymatlarga quyidagicha xarakteristika berish mumkin:

- ✓ “Count” – Chastota, mos keladigan intervalda takrorlanishlar soni bo'lib, 23.15 rasmida namoyish etilgan “Crosstable: Cell Display” oynasining “Observed” katakchasiga belgi qo'yilishi natijasida paydo bo'ladigan qiymat. Ishtirokchilarning real kuzatilgan natijalari, ya'ni empirik chastotalar singari tahlil qilinadi;
- ✓ “Expected count” – Taxmin qilingan yoki kutilgan chastotalar, “Cell Display” oynasining “Expected” katakchasiga belgi qo'yilishi natijasida hosil bo'lgan qiymat. Ishtirokchilar ko'rsatishi mumkin bo'lgan teoretik natijalar bo'lib, teoretik chastotalar kabi sharhlanadi;
- ✓ «Residual» – Qoldiq qiymatlar, Ya'ni kuzatilgan chastota va kutilgan chastota ayirmasi bo'lib hisoblanadi.
- ✓ “Total” – Jami, Ustun va qatorlardagi qiymatlarning jamini ko'rsatadi. Ularni marginal chastotalar deb ham aytish mumkin.

Bizning holatimizda, 15 ta monolingval va 9 ta bilingval ishtirokchilar mayjud.

### 23.6. Ikki o'lchovli birlashtirilgan jadvallar.

Biz namoyish etgan birlashtirilgan jadvallar  $2 \times 2$  printsipi asosida shakllantirilgan edi. Ularni nisbatan murakkabroq jadval ko'rinishida izohlash mumkin. Tahlil qilingan o'zgaruvchilar safiga yana bitta o'zgaruvchi qo'shish orqali ikki o'lchovli birlashtirilgan jadvallarni qo'rga kiritish mumkin. Misol uchun bilingvallik va pertseptiv sifatlar bilan birga tolerantlikning mazkur ikkala sifatga aloqadorligini ko'ramiz. Bu yerda bilingvallik (xuddi oldingi misolimizdagiday) bog'liq

bo'Imagan mustaqil o'zgaruvchi sifatida baholanadi. Ya'ni, «Shaxsning ikkita tilda erkin so'zlashishi uning noverbal-pertseptiv qobiliyatini rivojlantiradi» degan taxmin qo'yiladi. Shuningdek tadqiqotchi, «Bilingvallik shaxsning o'zga kishilarga nisbatan tolerantligini shakllantiradi» deb taxmin qilgan holda, uchinchi o'zgaruvchi tolerantlik ko'r-satkichlarini aloqadorlikda o'rganadi.

Mustaqil deb taxmin qilingan o'zgaruvchilar qatorlarda (rows) beriladi. Natijada ikki o'Ichovli birlashtirilgan jadvallarga ega bo'lamiz. Ularning qurilishi va sharhanishi bir o'Ichovli jadval qurilishi kabi amalga oshiriladi. Bu jadvalda ham kutiladigan chastotalar mos bo'lishi kerak, ya'ni ular marginal chastotalarga proporsional bo'ladi. Agar moslikdan biron bir ahamiyatlari og'ish (katakchalaragi chastotalarning marginalligi va proporsionalligi) kuzatilsa, unda jadvaldagagi o'zgaruvchilarning mustaqilligi to'g'risidagi farazni rad etish kerak. Birlashtirilgan jadvalni shakllantirishdan oldin ularni to'g'ri joylashtirish juda muhim. Chunki qatorda (row) joylashtirilgan o'zgaruvchi ustundagi (column) o'zgaruvchilarni alohida-alohida tahlil qiladi.

**23.18-rasm. Ikki o'Ichovli birlashtirilgan jadvallarni qurish uchun o'zgaruvchilarni joylashtirish.**

The image shows three separate tables, each consisting of a header row and several data rows. The first table has a header row with four columns and 10 data rows. The second table has a header row with two columns and 10 data rows. The third table has a header row with two columns and 10 data rows.

O'zgaruvchi			
1. O'zgaruvchi	2. O'zgaruvchi	3. O'zgaruvchi	4. O'zgaruvchi
1.1. O'zgaruvchi	2.1. O'zgaruvchi	3.1. O'zgaruvchi	4.1. O'zgaruvchi
1.2. O'zgaruvchi	2.2. O'zgaruvchi	3.2. O'zgaruvchi	4.2. O'zgaruvchi
1.3. O'zgaruvchi	2.3. O'zgaruvchi	3.3. O'zgaruvchi	4.3. O'zgaruvchi
1.4. O'zgaruvchi	2.4. O'zgaruvchi	3.4. O'zgaruvchi	4.4. O'zgaruvchi
1.5. O'zgaruvchi	2.5. O'zgaruvchi	3.5. O'zgaruvchi	4.5. O'zgaruvchi
1.6. O'zgaruvchi	2.6. O'zgaruvchi	3.6. O'zgaruvchi	4.6. O'zgaruvchi
1.7. O'zgaruvchi	2.7. O'zgaruvchi	3.7. O'zgaruvchi	4.7. O'zgaruvchi
1.8. O'zgaruvchi	2.8. O'zgaruvchi	3.8. O'zgaruvchi	4.8. O'zgaruvchi
1.9. O'zgaruvchi	2.9. O'zgaruvchi	3.9. O'zgaruvchi	4.9. O'zgaruvchi
1.10. O'zgaruvchi	2.10. O'zgaruvchi	3.10. O'zgaruvchi	4.10. O'zgaruvchi

O'zgaruvchi	
1. O'zgaruvchi	2. O'zgaruvchi
1.1. O'zgaruvchi	2.1. O'zgaruvchi
1.2. O'zgaruvchi	2.2. O'zgaruvchi
1.3. O'zgaruvchi	2.3. O'zgaruvchi
1.4. O'zgaruvchi	2.4. O'zgaruvchi
1.5. O'zgaruvchi	2.5. O'zgaruvchi
1.6. O'zgaruvchi	2.6. O'zgaruvchi
1.7. O'zgaruvchi	2.7. O'zgaruvchi
1.8. O'zgaruvchi	2.8. O'zgaruvchi
1.9. O'zgaruvchi	2.9. O'zgaruvchi
1.10. O'zgaruvchi	2.10. O'zgaruvchi

O'zgaruvchi	
1. O'zgaruvchi	2. O'zgaruvchi
1.1. O'zgaruvchi	2.1. O'zgaruvchi
1.2. O'zgaruvchi	2.2. O'zgaruvchi
1.3. O'zgaruvchi	2.3. O'zgaruvchi
1.4. O'zgaruvchi	2.4. O'zgaruvchi
1.5. O'zgaruvchi	2.5. O'zgaruvchi
1.6. O'zgaruvchi	2.6. O'zgaruvchi
1.7. O'zgaruvchi	2.7. O'zgaruvchi
1.8. O'zgaruvchi	2.8. O'zgaruvchi
1.9. O'zgaruvchi	2.9. O'zgaruvchi
1.10. O'zgaruvchi	2.10. O'zgaruvchi

**23.19-rasm. Ikki o'Ichovli birlashtirilgan jadvallar.**

Tahlil jarayoniga yana bir o'zgaruvchi kiritilgani uchun jadvalda uning bilingvallik o'zgaruvchisi bilan o'zaro aloqadorlik tahlilini ko'rsatuvchi jadval paydo bo'ladi.

### 23.7. Birlashtirilgan jadvallar yacheykalarida foizlar.

Jadvaldag'i chastotalarning qatorlar bo'yicha, ustunlar bo'yicha va umumiy foizini aniqlash mumkin.

"Analiz" menyusi yana ochiladi. Undan "Descriptive statistica" orqali "Crosstables" funktsiyasiga o'tiladi.

O'zgaruvchilar kerakli qator va ustunlarga belgilangandan keyin qiymatlarning parametrini belgilash uchun Cells tugmasi bosiladi.

"Cells Display" oynasi ochiladi. "Percenttage" bo'limida "Rows", "Columns", "Total" kataklarini belgilash orqali jadvalning tegishli yacheykalarida foizlar chiqariladi.

		Cells Processing Summary				
		% in Row	% in Column	% in Total		
Category	Subcategory	Cells			%	Label
		N	Percent	N		
Demographic	Gender	178	20.00%	89	24.71	42.71%
Demographic	Age	716	80.00%	337	75.29	57.29%
Demographic	Total	894	100.00%	426	100.00%	100.00%

		Cells Processing Summary													
		Cells			Row %			Column %			Total %				
Category	Subcategory	N	% in Row	% in Column	% in Row	% in Column	% in Total	% in Row	% in Column	% in Total	% in Row	% in Column	% in Total		
Demographic	Gender	178	20.00%	22.0	2.0	4	9.9	1.1	4	22.0	19.8	4	19.8		
Demographic	Age	716	80.00%	78.0	8.0	84.0	84.0	1.0	84.0	78.0	80.0	84.0	80.0		
Demographic	Total	894	100.00%	100.0	100.0	100.0	100.0	1.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0		
Demographic	Gender	178	20.00%	22.0	2.0	4	9.9	1.1	4	22.0	19.8	4	19.8		
Demographic	Age	716	80.00%	78.0	8.0	84.0	84.0	1.0	84.0	78.0	80.0	84.0	80.0		
Demographic	Total	894	100.00%	100.0	100.0	100.0	100.0	1.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0		
Demographic	Gender	178	20.00%	22.0	2.0	4	9.9	1.1	4	22.0	19.8	4	19.8		
Demographic	Age	716	80.00%	78.0	8.0	84.0	84.0	1.0	84.0	78.0	80.0	84.0	80.0		
Demographic	Total	894	100.00%	100.0	100.0	100.0	100.0	1.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0		

23.20-rasm. Qator, ustunlarda foizlar ko'rsatilgan birlashtirilgan jadval.

Agar kichkina dasturga qiymatlarni ko'rsatmaslik buyrug'i berilsa, unda kichkina foizlar ham ko'rinxaydi.

**Birlashtirilgan jadvallarda qoldiqlar.** Odatda nostandard qoldiqlar, kuzatilgan va kutilgan chastotalar o'rtaсидаги farq hisoblanadi. Shuningdek, standart va korrektlangan standart qoldiqlarni ham qo'lga kiritish mumkin.

✓ Nostandard qoldiq, kuzatilgan va kutilgan chastota ayirmsidir. Kutilgan qiymatlar – bu, bog'liq bo'limgan o'zgaruvchi qator yoki ustunidagi kuzatuv qiymatlari. Qoldiqning musbat qiymatlari

yacheykada kuzatuvlar soni, qator yoki ustunning o'zgaruvchilar mustaqil bo'lganidagi sonidan ko'p bo'lgan taqdirda yuzaga keladi.

✓ Standartlashtirilgan qoldiq, o'zining standart og'ish bahosiga bo'lingan qoldiq. Standart qoldiqlar Pirson qoldiqlari deb ham yuritiladi. Ular o'rtacha 0 va standart og'ishning 1 qiymatiga ega.

✓ Korrektlangan standart qoldiq, o'zining standart xatosi bahosiga bo'lingan ba'zi yacheykalardagi qoldiq (kuzatilgan minus kutilgan qiymatlar). Olingen standartlashtirilgan qoldiq standart og'ishning o'rtachadan past yoki baland birliklarda ifodalanadi.

### 23.8. Statistik farazlarni tekshirish, Statistik ahamiyatlilik.

Birlashtirilgan jadvallarda, odatda statistik farazlar o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini tekshirishga qaratilgan bo'ladi. Kuza tilgan bog'liqlik zichligi amaliy nuqtai nazaridan juda muhim. Odatta zichlik statistik ahamiyatga ega bo'lgandan keyingina ahamiyatga ega bo'ladi. Birlashtirilgan jadvallarda,  $H_0$  farazi, «O'zgaruvchilar o'rtasida statistik ahamiyatga ega bo'lgan bog'liqlik yo'q», deb izohlasa,  $H_1$  faraz orqali «O'zgaruvchilar o'rtasida aloqadorlik mavjud» deb ta'kidlanadi. Nolinch farazning tekshirilishi, jadval yacheykasida tahlil qilinayotgan o'zgaruvchi belgisining, agar o'zgaruvchilar orasida bog'liqlik bo'Imaganda kutiladigan taqsimlanish chastotasini hisoblanishi bilan amalga oshiriladi.

Demak, birlashtirilgan jadvallarda farazlarning tekshirilishi birinchi holatda o'zgaruvchilar o'rtasida aloqadorlik mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi holatda bu aloqadorlikning qanchalik zichligi bilan bog'liq. O'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik kategorial ya'ni, toifali o'zgaruvchilar va miqdoriy o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik bilan ifodalanadi. Kategorial o'zgaruvchilar faqat guruuhlar yoki toifalar (baland, past, o'rta; ko'p, kam va h.k.) asosida belgilangan o'rgaruvchilardir. Miqdoriy o'zgaruvchilar esa, belgining xususiyatlari sonlar asosida belgilagan o'zgaruvehilardir. Ammo o'zgaruvchilarning qaysi biri ta'sir etuvchi-yu, qaysi biri oqibatda rivojlangan ekanligini qayd etishda tadqiqotchi ehtimoliy printsiplarga buysunadi.

Birlashtirilgan jadvallarning tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Belgilarning birlashtirilgan jadvalini tuzish (ba'zan ular kesishgan jadvallar deb yuritiladi).

2. O'zgaruvchilarning bog'liq emasligi to'g'risidagi farazlarni tekshirish.

### 23.9. Birlashtirilgan jadvallar uchun statistik farazlar.

Birlashtirilgan jadvallarda o'zgaruvchilarning o'zaro aloqadorligining statistik ahamiyatini belgilash uchun statistik mezonlar mavjud. Pirsonning xi kvadrat mezoni qator va ustunlarning turli miqdoriida qo'llaniladi. Agar jadvaldagi har ikkala o'zgaruvchi miqdoriy bo'ssa, u holda **Xi kvadrat** (chi-square statistic) elementini belgilashda mezonning chiziqli bog'liqligi hisoblanadi.

**Korrelyatsiya.** Tartibli o'zgaruvchilar qatorlari va ustunlari uchun **Korrelyatsiya** belgilanganda, Spirman-ro (faqat miqdoriy ma'lumotlar uchun) korrelyatsiya koefitsenti hisoblanadi. Spirman-ro mezoni tartibli o'zgaruvchilar o'rtaсидаги bog'liqlik o'lchovi sanaladi. Agar jadvaldagi ikkala o'zgaruvchilar (omillar) sanoqli bo'ssa, **Korrelyatsiya** parametri, o'zgaruvchilar o'rtaсидаги chiziqg'-chiziqli bog'liqlikni xarakterlaydigan Pirson r korrelyatsiya koefitsentini hisoblashga imkon beradi.

Nominal ma'lumotlar uchun quyidagi mezonlardan birini tanlash mumkin: aloqadorlik **Fi koefitsenti**, **V Kramer**, **Lyambda** (lyambda ning simmetrik va asimmetrik ahamiyati, Gudman va Kraskalning statistikasi), shuningdek, noaniqlik koefitsenti.

**Aloqadorlik koefitsenti.** Xi kvadratga asoslangan cistematiq bog'liqlik o'lchovi. Bu qiymat 0 dan 1 gacha o'zgaradi. 0 qatorlar va ustunlar o'rtaсида aloqadorlik mavjud emasligini birdrsa, Iga yaqin qiymat esa, o'zgaruvchilar o'rtaсида kuchli aloqadorlikni ko'rsatadi. Qiymatning maksimal ehtimoliy ahamiyati jadvalning qator va ustunlari soniga bog'liq bo'ladi.

**Fi va Kramer V koefitsenti.** Bu mezonda aloqadorlikni xi kvadrat statistikasiga tanlanma ko'lamenti bo'lish va natijani kvadrat ildizdan chiqarish orqali aniqlaymiz. **Kramer V koefitsenti** Xi kvadrat statistikasiga asoslangan bog'liqlik o'lchovidir.

**Lyambda.** Bu mezon bog'liq bo'lмаган o'zgaruvchi qiymatlari bog'liq bo'lган o'zgaruvchi qiymatlarini bashorat qilishda xatolarning nisbiy pasayishini aks ettiradigan bog'liqlik o'lchovidir. 1 qiymati bog'liq bo'lмаган (mustaqil) o'zgaruvchi, bog'liq o'zgaruvchi qiymatini aniq bashorat qilishini bildiradi. 0 qiymati esa, bog'liq bo'lмаган

o'zgaruvchi, bog'liq bo'lgan o'zgaruvchini qiymatini bashorat qilishda mutlaqo foydasiz ekanligini anglatadi.

**Noaniqlik koeffitsenti.** Bir o'zgaruvchi qiymati ikkinchi o'zgaruvchi qiymatini bashorat qilishda xatolarning nisbiy pasayishini ko'rsatadigan bog'liqlik o'lchovidir. Misol uchun 0,83 qiymati, bir o'zgaruvchi qiymati ikkinchi o'zgaruvchi qiymatini bashorat qilishda 83% xatoni pasaytiradi degan ma'noni bildiradi. Noaniqlik koeffitsentining simmetrik bo'lgani kabi nosimmetrik ko'rinishlari mavjud.

Tartibli ma'lumotlar ya'ni, qator va ustunlari tartibli o'zgaruvchilarni qayd etgan jadval uchun **Gamma** (ikki yoqlama jadval uchun va 2 dan 10 gacha o'lchovli jadval uchun), **tay-b Kendall** va **tay-e Kendall**, qatorlar toifasi orqali ustun toifasini bashorat qilish uchun d **Somers mezoni**.

**Gamma.** Qiymatlari -1 dan 1 oralig'ida o'zgaruvchi ikki tartibli o'zgaruvchilarning simmetrik bog'liqlik o'lchovi. 1 absolyut kattalikka yaqin qiymatlar, o'zgaruvchilar orasida kuchli bog'liqlik borligini birdirsa, 0 ga yaqin qiymatlar bog'liqliknинг zaif ekanligini anglatadi. Ikki o'zgaruvchilarning birlashdirilgan jadvali uchun nol tartibli gamma hisoblanadi. Agar o'zgaruvchilar soni ikkitadan ko'p bo'lsa, unda har bir jadvalcha uchun shartli gamma hisoblanadi.

**d Somers mezoni.** Qiymatlari -1 dan 1 oralig'ida o'zgaruvchi ikki tartibli o'zgaruvchilarning bog'liqlik o'lchovi. Unda ham 1-absolyut kattalikka yaqin qiymatlar, o'zgaruvchilar orasida kuchli bog'liqlik borligini birdirsa, 0 ga yaqin qiymatlar bog'liqliknинг zaif ekanligini yoki umuman mavjud emasligini anglatadi. Bu gamma o'lchovining asimetrik kengayishi bo'lib, faqatgina bog'liq bo'lмаган o'zgaruvchilar bo'yicha tasodiflarga (bog'liqlik) ega bo'lмаган juftliklar sonining ishtiropi bilan farq qiladi. Bu statistikaning simmetrik ko'rinishi ham mavjud.

**Tay-b Kendall.** Tasodiflar ya'ni bog'liqliklar bo'lishini taxmin qiladigan tartibli va ranjirlangan o'zgaruvchilar uchun nolparametrik korrelyatsiya o'lchovi. Koeffitsent belgisi bog'liqlik yo'nalishini ko'rsatsa, uning moduli - bog'liqlik kuchini anglatadi. Ya'ni u qanchalik katta bo'lsa, bog'liqlik shunchalik kuchli bo'ladi. Qiymatlar diapozoni +1 dan -1 gacha bo'ladi. Ammo +1 va -1 na faqat kvadratli jadvallarda qo'lga kiritish mumkin.

**Tay-s Kendall.** Tasodiflar ya'ni bog'liqliklar bo'lishini rad qiladigan tartibli va ranjirlangan o'zgaruvchilar uchun nolparametrik

bog'liqlik o'lchovi. Koeffitsent belgisi bog'liqlik yo'nalishini ko'rsatsa, uning moduli - bog'liklik kuchini anglatadi. Ya'ni u qanchalik katta bo'lsa, bog'liqlik shunchalik kuchli bo'ladi. Qiymatlar diapozoni +1 dan -1 gacha bo'ladi. Ammo +1 va -1 na faqat kvadratli jadvallarda qo'llga kiritish mumkin.

Nominal interval, ya'ni bir o'zgaruvchi toifali boshqa o'zgaruvchi miqdoriy ma'lumotlar uchun **Eta** statistikasi belgilanadi. Toifali o'zgaruvchilar qiymatlari sonlar bilan kodlangan bo'lishi kerak.

**Eta.** Qiymatlar 0 dan (bog'liqlik mavjud emasligi) 1 gacha (kuchli bog'liqlik) o'zgaradigan qator va ustun o'zgaruvchilari bog'liqlik o'lchovi. "Eta" indikatori intervallar shkalasida baholangan bog'liq o'zgaruvchilarga va cheklangan toifalar sonini ko'rsatuvchi mustaqil o'zgaruvchilarga («yosh» kabi ko'rsatkichlar) to'g'ri keladi. Eta uchun ikkita qiymat hisoblanadi: birinchi holatda o'zgaruvchilar qatori interval o'zgaruvchisi deb hisoblanadi. Ikkinci holatda, intervallar o'zgaruvchisi – ustun o'zgaruvchisi deb baholaniadi.

**Kappa.** Bir xil ob'ektlarni baholaydigan ikki ekspertning bahosini o'lchaydi. 1 qiymati butunlay muvosiflikni bildiradi. 0 qiymatida esa, muvosiflikni tasodifdan boshqa narsa emas deb baholaydi. Kappa, qqator va ustun qiymatlari bir xil shkalada baholangan kvadrat jadvalga asoslanadi. Bir o'zgaruvchi uchun kuzatilgan qiymatlar mavjud bo'lgan ammo boshqasi uchun kuzatuv bo'lmagan har qanday yacheykaga nol qiymati beriladi. Kappa ma'lumotlar turli xil (matnli va sonli) turda saqlangan bo'lsa, ularni hisoblamaydi. Matnli o'zgaruvchilarda ikki o'zgaruvchi ham bir xil belgilangan uzunlikda bo'lishi kerak.

**Maknemar.** Ikki bog'liq bo'lgan dixotomik o'zgaruvchilar uchun noparametrik o'lchov mezoni. Xi kvadrat taqsimoti yordamida o'zgarishlarni tekshiradi.

**Risk.**  $2 \times 2$  jadvallari uchun bo'lib, omil mavjudligi va xodisa o'rta-sidagi bog'liqliknini aniqlaydigan mezon. Agar bu statistika uchun ishonch intervali 1 ni o'z ichiga olsa, omil bilan xodisa o'rta-sidagi taxmin noto'g'ri hisoblanadi. Agar omil mavjudligi kam uchrasha, unda nisbiy tavakkal bahosi sifatida imkoniyat munosabatini qo'llash mumkin.

**Kokren va Mantel-Xensen mezoni.** Belgilangan kovariatsion tuzilmada dixotomik o'zgaruvchi omilining o'zgaruvchi aksining bog'-liqliagini tekshiradi. Shuni qayd etish kerakki, boshqa statistik mezonlar


qavatlar bo'ylab hisoblansa, Kokren va Mantel-Xensen mezonini bordaniga barcha qavatlar uchun hisoblanadi.

Statistik mezonlarni qo'llash uchun Analyse → Descriptive statistics→ Crosstabs→ Statistics funksiyalari belgilanadi.

The screenshot shows the 'Statistics' dialog box from SPSS. The 'Crosstabs' dialog is open, and the 'Statistics' tab is selected. Under the 'Nominal by Nominal' section, 'Phi and Cramer's V' and 'Lambda' are checked. Under 'Nominal by Interval' (Iba), 'Kappa' is checked. At the bottom, 'Continue' and 'OK' buttons are visible.

	bilingallik	Percentiv	Tolerantlik	VIF	VIF	VIF	VIF	VIF	VIF
1	1.0								
2	2.0								
3	1.0								
4	2.0								
5	1.0								
6	2.0								
7	2.0								
8	2.0								
9	2.0								
10	1.0								
11	1.0								
12	1.0								
13	2.0								
14	2.0								
15	1.0	6	3						

23.21-rasm. Birlashtirilgan jadvallar uchun statistik mezonlar oynasini ochish.



23.22-rasm. Statistik mezonlar oynasi.

**Xi kvadrat mezoni.** Xi kvadrat statistik mezonida o'zgaruv-chilarni tahlil qilish uchun statistik mezonlar oynasidan Xi kvadrat (Chi square) tugmasi belgilanadi.

« Crosstabs »

Case Processing Summary

	Cases			Total
	Valid	Missing	Percent	
N	Percent	Count	%	Percentage
Bilingvallik	Total	24	100.0%	24
		0	0.0%	0

Bilingvallik » Jins Crossstabulation

		Count	Sum		Total
			Actual	Expected	
Bilingvallik	monolingvallik, tild so'zlashuvchi	Count	7	8	15
		Expected Count	6.9	8.1	15.0
		Residual	1	-1	0
Bilingvallik, inkl tilda so'zlashuvchi	Count	4	2	6	9
		Expected Count	4.3	4.5	9.0
		Residual	-1	1	0
Total	Count	11	13	24	
	Expected Count	11.0	13.0	24.0	

Chi-Square Tests

	Value	df	Asymptotic Significance (2-tailed)	Exact Sig. (2-tailed)	Exact Sig. (1-tailed)
Pearson Chi-Square	0.11*	1	.916		
Continuity Correction	0.00	1	1.000		
Likelihood Ratio	0.13	1	.916		
Fisher's Exact Test				1.000	.825
Linear-by-Linear Association	0.11	1	.916		
N of Valid Cases	24				

a. Cells with expected count less than 5. The minimum expected count is 6.13.

b. Computed only for a 2x2 table.

### 23.23-rasm. Xi kvadrat mezonida birlashtirilgan jadval.

Mazkur jadvalda o'g'il va qiz bolalarining (bir o'zgaruvchilar) ikki tilda so'zlashi (ikkinci o'zgaruvchilar) tahlil qilindi.

Empirik qoidaga ko'ra, jadvalda kutiladigan chastota < 5 bo'lgan 20% dan ko'p bo'limgan katakchalar va kutiladigan chastotalar < 1 katakchalar bo'lmasligi kerak.

Agar jadvaldagagi har ikkala o'zgaruvchi ham miqdoriy bo'lsa, u holda Xi kvadrat elementini belgilashda chiziqli-chiziqli bog'liqlilik (linear-by-linear association) mezoni ham hisoblanadi.

Berilgan misol bo'yicha birlashtirilgan birinchi jadvalni shaxblasak (23.24-rasm), «bilingvallik» va «jins» o'zgaruvchilarining o'taro bog'liqligi va mustaqilligi farazini tekshiramiz.

Tadqiqotda N = 24 nafar respondent ishtirot etdi. Tushirish goldirilgan qiymatlar yo'q (Missing-0).

23.24-rasmning ikkinchi jadvaliga ko'ra, monolingval ya'ni faqat bir tilda so'zlashuvchi yigitlar soni – 7 nafar, qizlar soni esa-8 nafarni tashkil etadi. Ularning jami -15 nafar. Ishtirokechilarning monolingvallik bo'yicha umumiy miqdorini, marginal chastota yacheysasida ko'rish mumkin.

Bilingvallik qatorida (ikki tilda erkin so'zlashuvchi) yigitlar soni – 4 nafar, qizlar soni – 5 nafardan iborat. Jami – 9 nafar bilingval respondent.

Ikkinchchi jadvalda kutilgan chastotalarini, qoldiqlarini kerakli yacheykalardan ko'rish mumkin.

Xi kvadrat statistikasi bo'yicha tahlil etilgan o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik va mustaqillik farazlarini tekshiramiz.

### 23.6-Jadval.

#### $\chi^2$ – Statistikasining interpretatsiyasi

Testning ahamiyati	Interpratatsiya
0,05 dan kichik,	faraz rad etiladi.
0,05-0,1	Aytish qiyin
0,1 dan yuqori	Faraz qabul qilinadi.

Pirson xi kvadrat (Pearson chi-square) qiymati – bu qiymat qanchalik katta bo'lsa, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik shunchalik katta bo'ladi. Qiymat 0 ga yaqinlashgan sayin o'zgaruvchilarining bog'liq ekanligi to'g'risidagi farazning ahamiyati pasayadi (Bizning holatimizdagi singari).

Asimptotik ahamiyatlilik (Asymptotic significance) – tasoditliy bog'liqlik ehtimoli. Bu qiymat qanchalik kichik bo'lsa, statistik ahamiyatlilik (ishonchtlilik) shunchalik yuqori bo'ladi.

Aniq ahamiyatlilik (Exact significance) – aniq metod bilan hisoblanadigan ahamiyatlilikning r-darajasi; an'anaviy mezon qo'llanish shartlari buzilgan taqdirda e'tiborga olinadi (birlashtirilgan jadvalarning 25% dan ortiq yacheykalarida 5 dan qichik bo'lgan qiymatlar bo'lsa).

Chiziqli-chiziqli bog'liqlik (linear-by-linear association) – o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatson darajani aniqlaydigan statistik mezon.

Erkinlik bosqichi soni (df) esa, o'zgara oladigan qiymatlar miqdori. Uning qiymatining (I) kelib chiqish usullari bizga, oldingi mavzular orqali tanish.

Uzluksizlikni tuzatib borish (Continuity correction) - fagaqt 2x2 jadvallarida ishtirokchilar soni 40-50 dan kam bo'lgan hollarda hisoblanadi.

Pirsonning xi kvadrat qiymati va uzluksizlikni tuzatib borish qiymati bu -  $\chi^2$ ning ikki xil qiymatidir.

Fi qiymat (Likelyhood Fishet exact test) – 2x2 jadvallari uchun qo'llaniladigan aniq metodika varianti.

Yuqorida berilgan barcha izohlardan kelib chiqib, buning misolimizdagi o'zgaruvchilar (bilingvallik va jins) o'tasida bog'liqiz mavjud emas deb hisoblash mumkin.

### 23.10. Birlashtirilgan jadvallarda qavatlarni belgilash.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tadqiqotchi faqat bitta o'zgaruvchi bilan cheklanib qolmaydi. Birlashtirilgan jadvallarni bir necha o'zgaruvchilar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tadqiqotchi tahlil qilingan ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchi safiga yana bir (yoki undan ortiq) o'zgaruvchi qo'shmaqchi bo'lgan taqdirda, birlashtirilgan jadvallar oynasidan quyidagi operatsiyani bajaradi:

Bilingvallik		Jinsi		Tolerantlik	
		Yangi o'zgaruvchi	Yaqin o'zgaruvchi	Yoshiqar	Qiziqar
1	1	1	1	1	1
2	1	1	1	1	1
3	1	1	1	1	1
4	1	1	1	1	1
5	1	1	1	1	1
6	2	1	1	1	1
7	2	1	1	1	1
8	2	1	1	1	1
9	2	1	1	1	1
10	1	1	1	1	1
11	1	1	1	1	1
12	1	1	1	1	1
13	2	1	1	1	1
14	2	1	1	1	1
15	1	1	1	1	1
16	1	1	1	1	1

23.24-rasm. Birlashtirilgan jadvallarda qavatlarni belgilash.

		Bilingvallik ~ Jinsi ~ Tolerantlik Crosstabulation					
		Count			Total		
		Yangi o'zgaruvchi		Yaqin o'zgaruvchi		Yoshiqar	Qiziqar
Tolerantlik							
22-60 oyning	Bilingvallik	monolingval, bo'r tilda so'zlashtirish bilingshal, ak tilda so'zlashtirish	1	1	1	1	1
	Total			1	1	1	1
61-99 oyning	Bilingvallik	monolingval, bo'r tilda so'zlashtirish bilingshal, ak tilda so'zlashtirish	2	2	2	2	2
	Total			2	2	2	2
100-142 oyning	Bilingvallik	monolingval, bo'r tilda so'zlashtirish bilingshal, ak tilda so'zlashtirish	2	1	1	1	1
	Total			3	3	3	3
Total	Bilingvallik	monolingval, bo'r tilda so'zlashtirish bilingshal, ak tilda so'zlashtirish	2	3	3	3	3
	Total			4	3	3	3

23.25-rasm. Birlashtirilgan jadvallardagi yangi o'zgaruvchilari qavati.

Qo'shilgan o'zgaruvchi ham boshqa o'zgaruvchilar tahlili singari sharhlanadi.

**Nazorat savollari:**

1. Kutilgan chastota nima?
2. Birlashtirilgan jadvallar Xi kvadrat statistikasida o'zgaruvchilar o'rtaсидаги bog'liqliк mavjudligi to'g'risidagi faraz qay holatda rad etiladi.
3. Birlashtirilgan jadvallarni qanday statistik mezonlar yordamida tahlil qilish mumkin.
4. Bir o'lchovli chastotali jadvallar qayday shakllantiriladi?
5. Birlashtirilgan jadvallarda qoldiqlar nimani anglatadi?
6. Excel da chastota funktsiyasi qanday bajariladi?
7. Chastotali jadvallarni grafik usulda taqdim etish uchun Excel ning qaysi menu funktsiyasiga murojaat qilinadi?
8. Tahlili statistika qanday o'lchamlarni hisoblaydi?
9. Birlashtirilgan jadvallarda kuzatilgan chastotalar qaysi katakda joylashgan bo'лади?
10. Birlashtirilgan jadvallarda uzluksiz tuzatib borishlarni hisoblash qaysi holatda amalga oshiriladi?
11. Chiziqli-chiziqli bog'liqlik qanday o'zgaruvchilarda hisoblanadi?
12. Birlashtirilgan jadvallarda o'zgaruvchilar ustunining kesishgan kataklarida o'zgaruvchilar qanday xususiyat asosida belgilanadi. Ta'riflarga mos javobni tanlang.

A. Chastota, mos keladigan intervalda takrorlanishlar soni bo'lib, «Crosstable: Cell Display» oynasining «Observed» katakchasiga belgi qo'yilishi natijasida paydo bo'ladigan qiymat. Ishtirokchilarning real kuzatilgan natijalari, ya'ni empirik chastotalar singari tahlil qilinadi;	1. "Expected count"
B. Qoldiq qiymatlar, Ya'ni kuzatilgan chastota va kutilgan chastota ayirmasi bo'lib hisoblanadi.	2. "Count"

<p><b>C.</b> Taxmin qilingan yoki kutilgan chastotalar, Cell Display oynasining Expected katakchasiga belgi qo'yilishi natijasida hosil bo'lgan qiymat. Ishtirokchilar ko'rsatishi mumkin bo'lgan teoretik natijalar bo'lib, teoretik chastotalar kabi sharhlanadi;</p>	<p>3. "Residual"</p>
<p><b>D.</b> Jami, Ustun va qatorlardagi qiymatlarning jamine ko'rsatadi. Ularni marginal chastotalar deb ham aytish mumkin.</p>	<p>4. "Total"</p>

A	B	C	D

## **24-mavzu: SPSS DASTURIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI.**

**Tayanch tushunchalar:** aglemeratsiya, asosiy komponentlar usuli, Barlett sferik mezoni, dendrogramma, Evklid masofasi, iterarxiya klasterli tahlil, korrelyatsion matritsa, komponent, klasterli tahlil, konfirmatorli faktorli tahlil, eksplorator faktorli tahlil, faktorli tahlil, faktorlarning ortogonal aylanishi, faktorlarning noortogonal aylanishi, faktorli yuk, faktorlar tuzilmasi, iteratsiya, xos qiymatlar

### **24.1. Eksplorator faktorli tahlil.**

Tadqiqotchi bajaradigan vazifalarning xususiyatidan kelib chiqib faktorli tahlilning ikki asosiy ko'rinishini qayd etish mumkin: eksploratorli va konfirmatorli faktorli tahlil.

Eksploratorli faktorli tahlil aniqrog'i tadqiqiy faktorli tahlil murakkab ob'ektning xususiy belgilari ortida turgan umumiy faktorlarni qidirishga qaratilgan. Uning maqsadi quyidagi savolning javobini echishga qaratilgan: «Ob'ektlarning xususiyatlari ortida ularni yanada umumlashtiradigan belgi mavjudmi, yoki bu belgi mavjud emasmi?». Misol uchun, «lider», «betashvish» kabi xarakteristikalar to'plami mavjudmi, singari savolni qo'yish mumkin.

«Quvnoq», «Yumshoq», «Hozirjavob», «Muloqotchan», «Do'stona» va «Samimiy» bu sisatlarni birlashtiruvchi xarakteristika mavjudmi, yoki bular mustaqil, o'zaro bog'liq bo'lмагan xususiyatlarni. Faktorli tahlil natijalarini bu singari xarakteristika mavjudligini ko'rsatdi. Mashhur britaniyalik olim Ayzenk bu xarakteristikani ekstroversiya deb nomladi.

Eksploratorli faktorli tahlil vazifasi – tadqiqotchida mavjud ma'lumotlarni, ular sisatini taysiflaydigan o'zgaruvchilar miqdorini qisqartirish orqali, faktorli tuzilmani qayd etishdan iborat. Bizning misolimizda eksploratorli faktorli tahlil natijasida olti o'zgaruvchini birgina «ekstrovert» o'zgaruvchisiga almashtirish mumkin. Ana shu bittagina umumiy xarakteristika faktor deb nomlanadi. Faktorli tahlilning bu singari ko'pxiligini qo'llaganda, tadqiqotchida oldindan faktorlar tarkibi va ularning ma'lumotlar umumiy dispersiyaga ulushi haqida ma'lum bir tasavvurlar bo'lmaydi.

Eksploratorli faktorli tahlil, faktorli tahlilning nisbatan keng tarqalgan variantini o'zida aks ettiradi. Shuni aytish kerakki, eksplor-

ratorli faktorli tahlil, murakkab bosqichlarida, noma'lum faktorlari aniqlashda.

Konfirmatorli faktorli tahlil esa, tadqiqatning bosqichlarida, faktorlar aniq bo'lganida va bu faktorlar boshqa qayd modelning samaradorligini tekshirishda.

Agar faktorli tahlilning konfirmatorli varianti qotkasi qotchi bunda tadqiq qilinayotgan qomuniyatga tegishli bo'lgan farazlarga ega bo'ladi.

## 24.2. Faktorli tahlilning asosiy g'oyaları, faktorlarning tamoyillari.

Keyingi yillarda faktorli tahlilning psizologik tadqiqatlarida ahamiyat kasb etishi R.Kettelning 16 omilli chiqishi bilan bog'liq. Aynan faktorli tahlil yordamida Kets shaxsnинг 4500 shaxsiy xususiyatlarini 187 savol korlamiga qo'sho oldi. O'z navbatida bu savollar shaxsnинг 16 turli baholashga imkon berdi. Faktorli tahlil ba'zi mayjud o'chovidan kelib chiqib, bevosita o'chammaydigan miqdoriy aniqlashga imkon beradi. Misol uchun, tadbirlarda qatnashadi», «ko'p gapiradi», «har qanday foyda bilan bema'lol suhbatalsha oladi» kabi xususiyatlar siyatlarini belgilashi mumkin. Faktorli tahlil katta boshlang'ich belgilar xususiyatlarni, ushbu belgilar guruhini aloqadorlikning nisbatan ixcham ko'lamini qayd etishga imkon beradi.

Faktorli tahlil – bu mayjud kuzatuvlarga tegishli o'zgaruvchilarning katta miqdorini, faktorlar deb ataluvchi mustaqil to'si suvoda kattaliklarga birlashtirish jarayonidir.

Bitta faktorda o'zaro kuchli korrelyatsiyaga ega bo'lgan o'zgaruvchilar birlashadi.

Turli faktorlar o'zgaruvchilarini o'zaro zaif korrelyatsiyaga kirishishadi.

Faktorli tahlil kuzatuvni tavsiflaydigan o'zgaruvchilarni, belgilarni toifalashtiradi.

Faktor – mayjud o'zgaruvchilar to'plami o'rtaida korrelyatsiyani tushuntirish mumkin bo'lgan latent (yashirin) o'zgaruvchidir.

Faktorli tahlil tamoyili axborotni «siqishdan» iborat.

Faktorli tahlil maqsadi – o'zgaruvchilar o'rtasidagi mavjud tuzilmani aniqlash, toifalashtirish asosida o'zgaruvchilar sonini kamaytirish.

O'zgaruvchilar sonini kamaytirish natijasida, dastlabki o'zgaruvchilar to'plami o'mniga ma'lumotlarni, soni dastlabki o'zgaruvchilar sonidan ahamiyatli kam bo'lgan, ajratilgan faktorlar asosida tahlil qilish imkonи tug'iladi.

Faktorli tahlil jarayoni to'rt bosqichdan iborat:

1. Tahlilda ishtirok etayotgan barcha o'zgaruvchilarning korrelyatsion matritsalarini hisoblash.
2. Faktorlarni chiqarib tashlash.
3. Soddalashtirilgan jarayonni yaratish uchun faktorlarni aylantirish.
4. Faktorlarni sharhlash.


Tahlildagi o'zgaruvchilarning korrelyatsion matritsalarini alohida maxsus hisoblash shart emas. Agar lozim bo'lgan taqdirda, bu jarayonni SPSS dasturining o'zi tahlil qiladi.

Ba'zan esa, dastlabki ma'lumotlar ham kerak bo'lmay qoladi. Korrelyatsion matritsalarning o'zi etarli bo'ladi.


Faktorli tahlil anchayin murakkab hisoblash jarayoni hisoblanadi. Uni amalga oshirishning talablari quyidagicha:

- barcha belgilarni miqdoriy baholangan bo'lishi kerak (ya'ni intervallar va tartib shkalasida).
- nominal baholangan o'zgaruvchilar dixotomik shkalaga o'girilgan bo'lishi kerak.

"Analyse" → "Dimension Reduction" → "Factor" ...



**24.1-rasm. Faktorli tahlil oynasini ochish.**




**24.2-rasm. Faktorli tahlil oynasi.**

Faktorli tahlil dialog oynasi SPSS dasturidagi aksariyat statistik tahlil dialog oynalaridan farq qilmaydi. O'zgaruvchilar ro'yxati chap tomonda joylashgan bo'ladi. Tahlilda ishtirok etadigan o'zgaruvchilar ro'yxati esa markazda joylashgan. tahlil qilinadigan o'zgaruvchilarning statistik tavsisini belgilovchi beshta tugma o'ng tomonda joylashgan

bo'ldi. Faktorli tahlilga tegishli bo'lgan matematik usullari bo'lsa-da, o'zgaruvchilarni tahlil ro'yxatiga o'tkazish, aylanish variantini tanlash va "OK" tugmasini bosish kifoya.

Agar "Selection Variable" ro'yxatiga jins o'zgaruvchisini kiritса va Value katagi orqali paydo bo'ladigan "Value for Selection Variable" katagiga 1 raqami kiritilsa, u holda tahlilda faqat 1 jins o'zgaruvchilari ishtirok etadi.

Oynaning ostki qismida joylashgan tugmalar turli tuman tahlil parametrlarni boshqarishga imkon beradi va bir-biridan farqli ravishda turli tartiblarda qo'llanilishi mumkin. Faol bo'lib turgan "Descriptives" tugmasi Faktorli tahlilning tavsifiy statistikalarini buyurishga imkon beradi.




**24.3-rasm. Faktorli tahlil oynasidan tavsiflovchi statistikani belgilash.**

Bu oynada ikki guruh joylashgan: Statistikalar va Korrelyatsion matritsalar. Statistikalar bo'limining "Univariate descriptives" katakchasi belgilansa o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati, standart og'ishi baholanadi. Initial solutions belgilanishida esa, ma'lumotlarda o'zgaruvchilar nomini, boshlang'ich umumiyliliklarni, har bir faktor uchun umumiyl dispersiyaning umumiyl va kumulyativ foizini aniqlaydi. Korrelyatsion matritsa guruhiiga 7 xil funktsiyalar kiradi. Quyida, ularning eng ko'p qo'llaniladigan 4 tasi haqida aytib o'tiladi:

- “Coefficients” – matritsaga odatda aynan ular uchun yaratiladigan korrelyatsiya koeffitsentini kiritadi.
- “Significance Levels” – alohida jadvalga hisoblangan korrelyatsiya koeffitsentiga mos p-daraja qiymatlarini chiqaradi.
- “Determinant” – ko‘po‘lchovli normallik mezonlarida qo‘llaniladigan korrelyatsion matritsa determinantini hisoblaydi.
- KMO and Bartlett’s test of sphericity – ikki mezon: ko‘pqirrali normallik (Bartletta) va tanlanma adekvatligi (KMO faktorli tahlilning tanlangan o‘zgaruvchilarga qo‘llanilishini aniqlaydi) belgilanadi. Sukut bo‘yicha bu testlar o‘tkazilmaydi, ammo ular muhim boshlang‘ich statistik axborotni ta’minlaydi.

#### **24.3. Asosiy komponentlar usuli. Keyingi tahlillar uchun goldirilgan asosiy komponentlar sonini belgilash.**

Faktorli tahlil oynasining Extraction tugmasi bosilsa, Faktorlarni ajratib olish oynasi ochiladi.



**24.4-rasm. Faktorlarni ajratish dialog oynasi.**

Method katagini ochish orqali mazkur dialog oynasi taqilif etadigan 7 ta metod imkoniyatlari ega bo‘lamiz. Ular:

- “Unweighted least squares”;
- “Generalized least squares”;
- “Maximum likelihood”;
- “Principal axis factoring”;
- “Alpha factoring”;
- “Image factoring”.

Rasman bu qayd etilgan metodlar faktorli tahlilga kiradi. Shunga qaramay, biz sukut bo'yicha belgilanadigan anchayin sodda metod sanalgan, asosiy komponentlar usuli bilan cheklanamiz (APC-analyse principal components). Shuni ham yodda tutish kerakki, faktorli tahlilning APC-asosiy komponentlar usuli yoki tahlili boshqa metodlariga qaraganda o'zaro aloqadorlikning real tuzilmasiga nisbatan keskin yondashadi.

"Korrelyatsion" va "kovariatsion" matritsa joylashgan "Analyse" guruhida tahlilning dastlabki shartlarini tanlash mumkin. "Extract" guruhidagi o'zgartiruvchilar ajratiladigan faktorlarni sonining mezonini belgilaydi: agar "Eigenvalues" grater than katagi belgilangan bo'lsa, unda sukut bo'yicha qayd etilgan, bir xos qiymatini qo'llash mumkin. Yoinki boshqa qiymat kiritish mumkin. "Factors to extract" katagi faollashtirilsa, o'ngdag'i katakhaga kiritilgan raqamga teng faktorlar ajratiladi. "Display" guruhi tarkibida ikki belgi mavjud. "Untreated factor solution" – sukut bo'yicha belgilangan tahlil etilmagan faktorlarni va Scree plot tadqiqotchilar tomonidan tez-tez tahlil qilinadigan R. Kettell mezoni bo'yicha faktorlarni aniqlab, qiymatlarni grafigini chiqarish mumkin. Agar tadqiqotchi faktorli tahlilda etarlicha tajribali bo'lsa, u holda har ikkala funksiyani ham ishlataladi. Nihoyat, "Maximum iteration for convergence" katagida sukut bo'yicha 25 qiymati kiritilgan bo'ladi.


#### 24.4. Faktorlarni aylantirish.

Ayrim istisnoli holatlardan tashqari, tadqiqotchi uchun barcha ajratilgan faktorlar qiziqish tug'dirmaydi. Agar faktorlar dastlabki o'zgaruvchilar miqdoriga teng bo'lsa, faktorli tahlil o'z mohiyatini yo'qotadi. Chunki uning maqsadi, o'zgaruvchilar sonini qisqartirishdan iboratdir.

Shunday qilib, keyingi faktorli tahlilda qanday o'zgaruvehilarni qoldirish masalasini echish kerak bo'ladi. Bu holatda nazariy va mantiqiy sharhlashga buysunadigan faktorlarni qoldirish kerak. Sukut bo'yicha qayd etilgan faktorli tahlilda, barcha qiymatlari 1 dan katta bo'lsa, keyingi tahlillar uchun qoldiriladi. Chunki faktorlar soni o'zgaruvchilar soniga teng ekan, ayrim faktorlarning qiymati 1 dan oshadi. Demak, sukut bo'yicha parametrlari bilan buyruqni bajarish faktorlar sonini keskin kamaytirishga imkon beradi.

Faktorlarni ajratishdan so'ng bajariladigan ish ularni aylantirish jarayonidir. Faktorlar tuzilmasi matematik to'g'ri bo'lsa ham sharh-lashda ancha murakkab hisoblanganligi uchun, ularni aylantirish kerak bo'ladi. Aylantirish maqsadi oddiy tuzilmani qo'lga kiritishdir. Unga ko'ra, har bir o'zgaruvchilar yukining katta qiymati faqat bitta faktorga va kichkina o'zgaruvchilar qiymati qolgan faktorlarga mos keladi. Yuk o'zgaruvchi va faktor o'rtaсидagi aloqadorlikni go'yoki korrelyatsiya koeffitsenti singari aks ettiradi. Yuk qiymati -1 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda yotadi.

Faktorli tahlil dialog oynasining Rotation (aylantirish) tugmasi belgilanishi "Factor Analysis: Rotation dialog" oynasini ochadi.



#### 24.5-rasm. Faktorlarni aylantirish dialog oynasi.

Faktorli tahlilni bajarish jarayonida aylantirish metodining uchtadan birini tanlash mumkin. Ancha mashhur ortogonal metodlar: "Varimax", "Equamax" va "Quartimax", "Promax" va "Direct Oblimin" metodlari esa, faktorlarning noortogonal aylanishini ochishga imkon beradi. Quyidagi Delta va Kappa qiymatlarini sukut bo'yicha belgilangan tarzda qoldirish tavsiya etiladi. Faktorlarni aylantirishning noortogonal usulidan, faktorli tahlil nazariyasidan etarli bilimga ega bo'lmay turib, qo'llanmaslik tavsiya etiladi.


"Display Rotated solutions" belgisi aylantirishning biron metodi tanlangan bo'lsa, saollashadi. U faktorli tahlilning nisbatan muhim qiymatlarini chiqarishga imkon beradi. Agar faktorlarning aylanishini vizuallashtirish kerak bo'lsa, u holda "Loading plots" katagi aktivlashtiriladi.

"Ortogonal" metoddagi faktorlar tasvirlangan koordinatalar o'qi o'zining holatini to'g'ri burchak ostida saqlab qoladi. O'qlar o'rtaсидagi

burchak o'zgarishi noortogonal metodda o'rganiladi. O'qlar o'rtasidagi to'g'ri bo'limgan burchak, ularning bir-biridan butunlay mustaqil emasligini ko'rsatadi.

#### 24.5. Faktor qiymatlari.


Faktor qiymatlarini belgilash uchun faktorli tahlil dialog oynasiga yuzlanamiz. O'ng tomondagi Scores tugmasini bosish orqali o'zgaruvchi sifatida faktorlarning hisoblangan bahosini saqlash imkonini bo'ladi.



#### 24.6-rasm. Faktorlar qiymatini chiqarish oynasi.

Faktorli tahlil chiqaradigan matritsalar ma'lumotlarini tahlil qilish uchun Display factor score coefficient matrix katagi aktivlashtirildi. Save as variable katagini belgilash esa, faktorli baholashda hisoblangan qiymatlarni, yangi o'zgaruvchilar sifatida kuzatish uchun saqlashni amalga oshiradi.

Faktorli tahlil dialog oynasining oxirgi funksiyasi "Options" tugmasi orqali amalga oshiriladi.



#### 24.7-rasm. Faktorli tahlilda parametrlar dialog oynasi.

**“Coefficient Display Format”** guruhida aylanishdan so'ng, faktorli yuklar matritsasini aks ettirishni boshqaradi. “Sorted by size” katagini belgilash, o'zgaruvchilarni ular yukining kattaligiga ko'ra, munosib faktorlar bo'yicha tartiblashda foydali hisoblanadi. Misol uchun, agar 6 o'zgaruvchi 1 faktorni maksimal darajada yuklasa, u holda bu o'zgaruvchilar Faktorl ustunida yukining kamayib borish tartibida joylashadi. Bunga mos ravishda qolgan barcha faktorlar uchun yuklar chiqariladi. “Suppress small coefficient” katagi faollashirilsa, buyurilgan qiymatdan kichik bo'lган barcha yuklamalarni jadvaldan chiqarib tashlaydi. Sharhlashda muhim ahamiyat kasb etmaydigan natijalar istisno qilish uchun qo'llaniladi.

**“Missing values”** guruhi korrelyatsiyani hisoblashda mavjud bo'lмаган qiymatlarni korrelyatsiyani hisoblashda qayta ishslash imkonini beradi. **“Exclude cases listwise”** korrelyatsiyani hisoblaganda, agar qatorda bitta tushirib qoldirilgan qiymat bo'lsa, butun qatorni chiqarib tashlaydi (kuzatuv). **“Exclude cases pairwise”** agar biri tushirib qoldirilgan bo'lsa, faqat just o'zgaruvchilarni chiqarib tashlaydi (ikki o'zgaruvchi uchun). Bu sukat bo'yicha belgilanganidan ko'ra, kamroq yo'qotishlarga olib keladi. Ammo tushirib qoldirilgan qiymatlar ko'п bo'lsa, natijalarni buzib ko'rsatishga olib keladi. **“Replace with mean”** katagini tanlash o'zgaruvchining tushirib qoldirilgan qiymatini uning o'rtacha qiymatiga almashtirish imkonini beradi.

#### 24.6. Natijalarni taqdim etish grafik usulda ifodalash.

Yuqorida aytilgan barcha operatsiyalar bajarilgach, 24.2-rasmda ifodalangan Faktorli tahlil dialog oynasining OK tugmasi bosiladi.

Misol uchun, biz 15 o'zgaruvchidan iborat tadqiqotda faktorli tahlil o'tkazdik. Faktorli tahlilda quyidagi holatlar hisobga olinadi.

- 15 o'zgaruvchi uchun korrelyatsion matritsani hisoblash;
- 15 faktorni asosiy komponent metodi yordamida ajratib olish.
- barcha faktorlar uchun, qiymati 1 dan kam bo'lмаган aylantirish metodini tanlash;
- “Varimax” metodi yordamida faktorlarni aylantirish;
- boshqa natijalarning aylanishidan so'ng, faktorli yuklamalar matritsasini tanlash.

Misolda 15 o'zgaruvchi ishtirokida faktorli tahlil olib borilgan. Shuningdek, bir o' Ichovli tavsiflovchi statistika qiymatlari chiqariladi.

Quyida Faktorli tahlilning tavsiflovchi statistika bo'limida belgilangan KMO and Bartlett's test of sphericity funksiyasining natijasi chiqariladi.

#### KMO and Bartlett's Test

Kaiser-Meyer-Olkin Measure of Sampling Adequacy	.681
Bartlett's Test of Sphericity	528.676
df	105
Sig.	.000

#### 24.8-rasm. KMO va Barlett sferik mezoni.

KMO kattaligi (0,681) faktorli tahlil uchun tanlanmaning mos keladigan adekvatliligini namoyish etadi. Barlett sferiklik mezoni faktorli tahlil uchun qulay statistik ishonchli ( $r < 0,05$ ) ko'rsatadi. Ma'lumotlar faktorli tahlil uchun qulay hisoblanadi. Barlett sferik mezoni - o'zgaruvchilarni taqsimlashda ko'po'lchovli normallik o'lchovidir. Uning yordamida korrelyatsiya 0 dan farq qilishi tekshiriladi.  $p$ -daraja qiymati 0,05 dan kichik bo'lganda ma'lumotlar faktorli tahlil uchun yaroqli hisoblanadi.

#### Communalities

	Initial	Extraction
Savollarga_javob	1.000	.615
Mexanik_xotira	1.000	.557
Harakatchan	1.000	.629
oziga_ishonch	1.000	.506
Tasavvur	1.000	.596
Ishiyorly_Diqqat	1.000	.595
Hozirjavob	1.000	.686
sport_reaksiya	1.000	.544
emotsiya	1.000	.405
Samumiylik	1.000	.513
Mantiqiy	1.000	.485
Bargajorlik	1.000	.407
Mustaqillik	1.000	.443
Nazorat	1.000	.717
Kreativlik	1.000	.355

Extraction Method: Principal Component Analysis.

#### 24.9-rasm. O'zgaruvchilar nomi, faktorlar

Rasmning jadvalida o'zgaruvchilar nomi va faktorlar umumiyligi berilgan.

Component	Total Variance Explained								
	Initial Eigenvalues			Extraction Sums of Squared Loadings			Rotation Sums of Squared Loadings		
	Total	%	Total	%	%	Total	%	%	
1	2.514	.19.420	39.446	.2.814	.19.420	39.426	.2.851	.19.510	.29.910
2	2.272	.17.183	34.698	.2.277	.17.182	34.669	.2.208	.17.011	.33.963
3	1.793	.14.971	46.562	.1.793	.14.971	46.542	.1.798	.14.945	.41.649
4	1.076	.08.772	53.734	.1.076	.08.772	53.714	.1.303	.08.656	.52.724
5	.998	.07.652	40.386						
6	.971	.06.681	66.873						
7	.934	.06.094	72.966						
8	.733	.04.836	77.632						
9	.645	.04.299	82.133						
10	.598	.03.933	66.104						
11	.520	.03.466	88.550						
12	.432	.02.233	32.764						
13	.438	.02.706	93.670						
14	.336	.02.259	92.909						
15	.331	.02.931	16.0.000						

Extraction Method: Principal Component Analysis.

#### 24.10-rasm. O'zgaruvchilar nomi, faktorlar umumiyligi va xarakteristikasi.

Ikkinchı jadval ajratilgan faktorlarning xarakteristikasini: ularning tartib raqamini, yuklar kvadratining miqdorini, faktor bilan asoslangan umumi dispersiya foizi, aylantirishdan oldin va keyingi kumulyativ foiz.

Faktor bilan asoslangan dispersiyaning miqdori qancha katta bo'lsa, berilgan faktor ham shunchalik vaznga ega. Oxirgi faktorda yig'ilgan kumulyativ foiz qanchalik katta bo'lsa, faktorli qaror shunchalik asoslangan bo'ladi. Agar kumulyativ qiymat 50% dan kichik bo'lsa, demak yoki o'zgaruvchilar sonini qisqartirish yoki faktorlar sonini oshirish kerak bo'ladi. Bizning holatimizda dispersiyaning to'plangan foizi qabul qilingan qiymatga mos.

Natijalarni grafik usulda ifodalash ikki koordinatalar oraliq'idagi mos nuqtalarni grafik ko'rinishinidir (24.10-rasm). Ikki koordinatalar oraliq'idagi mos qiymatlari nuqtalar bilan ko'rsatilgan.

Component Transformation Matrix

Component	1	2	3	4
1	.974	.090	.048	.200
2	-.158	.913	.215	.308
3	-.014	.144	-.961	.234
4	-.159	-.370	.166	.900

Extraction Method: Principal Component Analysis.

Rotation Method: Varimax with Kaiser Normalization.

#### 24.11-rasm. Komponentlar o'zgarishi matritsasi.

Agar o'zgarishlar matritsasini dastlabki faktorli yuklarga ko'paytirsak ( $4 \times 15$ ), u holda 30.11 rasmida ifodalangan aylantirishdan so'ng, faktorli yuklar makritsasi jadval qiymati kelib chiqadi. Aynan ana shu

matritsa faktorli tahlilning asosiy xulosasi bo'lib hisoblanadi va uni sharhlash lozimdir.

Shuni qayd etish kerakki, "Factor: Options" dialog oynasidan "Sorted by size" (xajmi bo'yicha tartiblash) katagi faollashtirilsa, faktorli yuk parametrleri quyidagicha tartiblanadi:

- har bir faktor uchun yuklarning eng katta qiymati alohida bloklar da tartiblanadi;

- har bir blok ichidagi faktorli yuklar kamayib borishi bo'yicha tartiblanadi.

Bundan tashqari xuddi shu dialog oynasidagi "Suppress small coefficient" (kichik qiymatli koeffitsentlarni chiqarmaslik) katagi faollashtirilib, sukul bo'yicha turgan 0,10 raqamlari orniga 0,3 kiritilsa (bizning holatimiz singari), faktorli yuklar kattaliklarining faqat interpretatsiya uchun ahamiyatlari chiqariladi.

**Rotated Component Matrix<sup>a</sup>**

	Component			
	1	2	3	4
Savollarga_javob			-.756	
Mexanik_xotira			.655	
Harakatchan	.302		.710	
o'ziga_ishonch	.707			
Tasavvur	.764			
Ixtiyoriy_Diqqat	.764			
Hozirjavob	.827			
sport_reaksiya	.494		.406	.373
emotsiya				.399
Samimiylik		.703		
Mantiqiy		.664		
Barqarorlik		.606		
Mustaqillik		.643		
Nazorat				.607
Kreativlik		.386		.460

Extraction Method: Principal Component Analysis.  
Rotation Method: Varimax with Kaiser Normalization.


a. Rotation converged in 6 iterations.

## 24.12-rasm. Aylantirilgan komponentlar matritsasi.

Ajratib olingan faktor raqami komponent deb yuritiladi. Agar tafsiflovchi tahlilni baholaydigan bo'lsak, u holda Harakatchanlik, O'ziga ishonch, Tasavvur, Ixtiyoriy diqqat, Hozirjavoblik, Sport reaksiyasi bitta Irodaviy sifatlar faktorga kiritildi. Samimiylik, Mantiqiy fikr yuritish, Barqarorlik, Mustaqillik o'zgaruvchilarini Ijtimoiy sifatlar faktoriga kirdi. Ichki nazorat va kreativlik o'zgaruvchilarini to'rtinchiga

faktorda joylashdi. Savollarga javob, mexanik xotira, Harakatchanlik o'zgaruvchilari Hozirjavoblik faktoriga kirdi.

Bu natijalardagi noaniqlik sport reaksiyasining 1,3,4 faktorlar orasida, Kreativlik o'zgaruvchisining 2 va 4 faktorlar orasida bo'lishi bo'lishiga aytildi. Mazkur holatlarda tahlilni qayta o'tkazish, tadqiqotga oydindik kiritish zarur. Ayrim hollarda, bu faktorlarni tahlildan olib tashlash yoki faktorlar sonini ko'paytirish lozim. Mazkur jadvaldagи faktorlar va o'zgaruvchilar kesishgan nuqtada joylashgan qiymat korrelyatsiyani darajasini bildiradi. Misol uchun, Samimiylik o'zgaruvchisi ikkinchi faktor bilan 0,703 o'rtadan yuqori korrelyatsiyani ko'rsatmoqda. Sport reaksiyasi 4 faktor bilan 0,373 o'rtachadan past korrelyatsiyani ifodalagan.



24.13-rasm. Xos qiymatlar grafigi.

Mazkur grafik Faktorli tahlil dialog oynasi orqali ajratib olish (Extraction) dialog oynasiga o'tib, Scree plot katagi faollashtirilgani sababli chiqarildi. Xos qiymatlar bilan faktorlar o'rtasida chizma nuqtalar bilan ikki koordinatalar o'rtasida ifodalangan. Shuni yodda tutish kerakki, nuqtalarning pasayib borishi bilan faktorlar qayd etiladi. To'rtinchi nuqtadan keyin keskin pasayish bo'lgani uchun to'rtta faktor ajratib olinadi.

## **24.7. Klasterli tahlil. Klasterli tahlilning asosiy g'oyalari, tushuncha va tamoyillari.**

**Klasterli tahlil** dastlabki ma'lumotlarni sharhlash mumkin bo'lgan guruhlarga ajratishga mo'ljallanib, unda bir guruhga kiradigan elementlar maksimal darajada o'xhash va turli guruhlar ichidagi elementlar maksimal darajada farqlanishi kerak.

Klasterli tahlil – ob'ektlar va xodisalarning klaster (cluster) deb nomlanadigan gomogen guruhlarga klassifikatsiyalashda qo'llaniladigan metodlar to'plamidir.

Klasterli tahlil ob'ektlarni klassifikatsiyalaydi. Unda har bir ob'ekt (respondent) belgililar maydonidagi nuqta bo'lib hisoblanadi.

Klasterli tahlil vazifasi nuqtalarning zichligini aniqlash, ko'plikni ob'ektlarning gomogen bo'lgan kichik guruhlariga ajratishdir (sigmentatsiya).

Faktorli tahlilda ustunlar guruhlashtiriladi. Ya'ni uning maqsadi – ko'psonli belgilardan umumiyl faktorlarni ajratib olish bo'lsa, klasterli tahlilda qatorlar guruhlashtiriladi. Klasterli tahlilning maqsadi – ko'psonli ob'ektlarni tahlil qilishdir.

Dastlab klasterli tahlil 1939 yilda qo'llanila boshladi. Tahlil algorimtlar klassifikatsiyasining to'plamini o'zida jam etgan. Ko'pgina tadqiqotchilar oldida turgan asosiy muammolardan biri – kuzatilgan ma'lumotlarni ko'rgazmali tuzilmalarda ifoda etishdir. Klasterli tahlil ko'p o'chovli statistik jarayon bo'lib, tanlanma haqida axborotlarni o'zida umumlashtirgan ma'lumotlarni to'plagandan so'ng, ularni qiyosiy birtipli guruhlarda tartibga soladi.

Klasterli tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Klassifikatsiya va tipologiyani ishlab chiqadi;
- Ma'lumotlarni guruhlashda foydag'i kontseptual tuzilmalarni tadqiq qiladi;
  - Tadqiqot ma'lumotlari asosida farazlarni shakllantiradi;
  - U yoki bu usul bilan ajratib olingan guruhlar mavjud ma'lumotlar tarkibida borligini tekshiradi.

SPSS dasturi klasterli tahlilning uchta metodini taklif etadi. Ikki bosqichli klasterli tahlil, K-o'rtachalar klasterizatsiyasi, Ierarxik klaster tahlil.

Ikki bosqichli klasterli tahlil, agar bu guruhlar mavjud bo'lsa, ularni (klasterlarni) berilgan o'zgaruvchilar bo'yicha aniqlashga imkon beradi.

Bunda dastur mavjud guruhlar miqdorini avtomatik tarzda hisoblaydi. Agar klasterlar sonini aniq belgilash imkonи bo'lmasa, barcha ob'ektlar bitta klasterga birikadi.

K - o'rtachalar klasterizatsiyasi berilgan o'zgaruvchilar bo'yicha barcha ob'ektlarni, foydalanuvchi tomonidan buyurilgan, klasterlarga shunday ajratadiki, har bir o'zgaruvchi bo'yicha klasterlar uchun o'rtacha qiymat maksimal darajada farq qiladi.

Ileraxik klasterlash, ko'rilgan metodlar ichida nisbatan ixchamidir. Ob'ektlararo farqlar tuzilmasini tadqiq qiladi va klasterlarning eng optimal miqdorini tanlaydi. Mazkur metod tadqiqotlarda boshqa metodlarga qaraganda ko'p ishlataladi.

Klasterli tahlil, oxirgi natijaga olib keluvchi bir necha bosqichlarda bajariladi. Shuni aytish lozimki, tahlilda ilgari qo'llanilgan ma'lumotlar qo'llanilmaydi. Chunki asosiy e'tibor o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik va ma'noni tahlil qilishga qaratilgan edi. Ob'ektlarning tarkibi (ya'ni sub'ektga ta'lqli bo'lgan axborot) umuman rol o'ynamagan edi.

Klasterli tahlilda ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi misolni keltiramiz. 15 nafar 17 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan respondentlarning xususiyatlari jumladan, yoshi; jismoniy tarbiya fanidan olgan bali va bezovtalik darajasi (Teylor metodikasi) o'rGANildi.

- Birinchi bosqichda, respondentlarning nomi (respondent o'zgaruvchisi), Bezovtalik darajasi (Teylor metodikasi) (B), respondentlarning yoshi (Yosh o'zgaruvchisi) va Jismoniy madaniyat fani bo'yicha ballari (Ball foiz) bo'yicha klasterizatsiya tuziladi.

- Ikkinci bosqichda, klasterlar yoki guruhlar o'rtasidagi masofa aniqlanadi (dastlab, har bir ob'ekt bir klasterga mos keladi eb hisoblanadi). Sukut bo'yicha, Evklid masofasini kvadrati qo'llaniladi. Unga ko'ra, ob'ektlar o'rtasidagi masofa bir nomlanishga ega bo'lgan o'zgaruvchi ob'ektlar qiymatlari ayirmasi kvadratiga tengdir. Aytaylik, ma'lum bir respondentning (1-ob'ekt), yosh va bezovtalik o'zgaruvchilari bo'yicha 26 va 17 bo'lsa, ikkinchi respondentda (2-ob'ektda) yosh va bezovtalik o'zgaruvchilari bo'yicha 20 va 14 ni ko'rsatdi. Shunda bu ikki o'zgaruvchilar (koordinatalar) bo'yicha birinchi va ikkinchi ob'ekt o'rtasidagi masofa quyidagicha hisoblanadi:  $(26-20)^2+(17-14)^2=45$ . Ayirmalar kvadrati tahlilini bajarganda, u amal barcha o'zgaruvchilar uchun qo'llaniladi. Olingan masofa klasterlarni shakllantirish uchun ishlataladi. Evklid masofasidan tashqari, masofani aniqlashning boshqa usullari mavjud. Lozim bo'lganda, SPSS dasturiga

murojaat qilinadi.

Masofani hisoblashga nisbatan quyidagi savol tug'ilishi mumkin: o'zgaruvchilar turli o'lchov shkalalarida baholangan bo'lsa, klaster tahlil natijalari adekvat hisoblanadimi? SPSS dasturida shkalalash-tirishning muammosini hal qilish uchun standartlashtirish usuli qo'lla-niladi. Uning oddiy metodi - o'zgaruvchilarni normallashtirish, ya'ni barcha o'zgaruvchilarni standart z-shkalaga (o'rtacha 0 ga, o'rtacha og'ish 1 ga teng bo'ladi) keltiriladi. Barcha o'zgaruvchilar normal-lashtirilganda, ularning klaster tahlildagi vazni bir xil bo'ladi. Agarda barcha o'zgaruvchilar bir xil shkalada baholansa, yoki o'zgaruvchilar shkalasi mazmuniga ko'ra turli xil shkalada baholanishi kerak bo'lsa, o'zgaruvchilarni standartlashtirish kerak emas.

- Klasterlarni shakllantirish. Klasterlarni shakllantirishning ikki asosiy metodi mavjud: *birlashtirish (agglomerativ) va bo'lish metodi (diviziv)*. Birinchi holatda boshlang'ich klasterlar, o'zida hamma ma'lumotlarni umumlashtirib borgan holda yagona klaster hosil bo'lma-gunga qadar ko'paytirilib boradi. *Bo'lish metodi* teskari jarayonni takrorlaydi. Unda avval barcha ma'lumotlar bir klasterda umumlashadi. So'ngra esa, ma'lumotlar alohida klasterlarga ajralmaguneha bo'lak-larga bo'linib boraveradi. SPSS dasturida *birlashish metodi* sukul bo'yicha bajariladi.

*Birlashish metodida* ob'ektlar birlashuvining bir necha usullari ko'rilgan. Sukut bo'yieha buyurilgan metod, guruhlararo bog'lanish yoki guruhlar ichida o'rtachaning bog'lanishi deb yuritiladi. SPSS guruhning barcha juftliklari o'rtasidagi oraliqning eng kichkina o'rtacha qiymatini hisoblaydi va bir-biriga nisbatan yaqin turgan ikki guruhnini birlashtiradi. Birinchi bosqichda, barcha klasterlar o'zida yakka ob'ektlarni aks ettirganda, mazkur jarayon, ob'ektlar o'rtasidagi masofaning oddiy juft-juft qiyoqlanishiga o'xshatiladi. «O'rtacha qiymatlar» iborasi klasterli tahlilning ikkinchi bosqichida, bitta ob'ektdan ortiq klasterlar shakllanganidan keyin ahamiyat kasb etadi.

#### 24.8. Natijalarni sharhlash. O'lchovlar va o'xshashliklar jadvali.

Faktorli tahlil singari klasterlarning kerakli soni va tahlil natijalaring bahosi tadqiqotning maqsadidan kelib chiqadi.

Ko'pincha klasterli tahlil uchun dastlabki axborot tariqasida, ob'ektlar-o'zgaruvchilar kabi ma'lumotlar emas, balki juft-juft namoyon etiladigan ob'ektlarning o'xshashligi yoki farqlari aks etiladi. Misol

uchun, juft-juft taqdim etiladigan barcha yoki farqlarini baholash mumkin. Yoki barcha juft ob'ektlarni o'zaro uchrash chastotalar ma'lumotlar diagonalga nisbatan simmetrik kvadrat matritsasi mos keladi; SPSS dasturida har bir element – juft ob'ektlarning o'xhashlik matritsasi bir, ikki va uch o'lchovli grafik ko'rinishda taqdim etiladi. Agar tasvirdagi ikki nuqtalar bir-biridan uzoqlig'iga bo'sha xos ob'ektlar o'rtasida ahamiyatli tafovut mavjudlig'i bildiradi; Agar tasvirdagi nuqtalar bir biriga yaqin joylashgan bo'sa, unda ob'ektlar o'rtasida o'xhashlik mavjudligini bildiradi.

#### 24.1-Jadval.

	Ko'p o'lchovli shkalalashtirish	Klasterli tahlil
O'xhashlik	Ob'ektlar orasidagi masofani tahlil qilish	
Farq	Diagramma qurish orqali sifatlari tahlil o'tkazish.	Ob'ektlarni guruhlarga (klasterlarga) bo'lish orqali miqdoriy tahlil o'tkazish.

#### Klasterli tahlilda o'xhashliklar.


O'xhashliklar jadvali ko'p o'lchovli shkalalashtirishda aniqlanadi. Ko'p o'lchovli shkalalashtirishning qulayliklaridan biri ob'ekt tahlillarini namoyish etish imkonining mavjudligidir.

#### Ierarkzik va agglometativ klasterlash usuli.


	Respondent	Bezovalik	Yosh	Ball_foiz
1	Vahiyev	19.00	17.00	57.00
2	Samadov	20.00	20.00	64.00
3	Aldiyeva	18.00	23.00	67.00
4	Abdullayev	14.00	19.00	74.00
5	Saleanova	12.00	18.00	56.00
6	Nodajev	18.00	23.00	70.00
7	Umurov	10.00	20.00	69.00
8	Safarova	10.00	19.00	76.00
9	Tursunov	16.00	22.00	79.00
10	Yaxshieva	19.00	26.00	80.00
11	Rozieva	13.00	24.00	59.00
12	Kamalov	20.00	19.00	79.00
13	Mirzayeva	12.00	21.00	69.00
14	Mannirov	16.00	24.00	81.00
15	Daminova	11.00	23.00	78.00

#### 24.14-rasm. Klasterli tablil uchun tayyorlangan o'zgaruvchilar.

“Analyse” menyusi orqali “Classify” → “Hierarchical Cluster”...




24.15-rasm. Klasterli tahlil uchun dialog oynasini ochish.



24.16-rasm. Ierarxik klaster tahlil dialog oynasi.

Oyna ochilgach, Respondent deb nomlangan o'zgaruvchidan tashqari barcha o'zgaruvchilarni tahlil qilish uchun chap ro'yxatdan o'ng ro'yxatga olib o'tiladi. Tip o'zgaruvchisi jadvalga sonlar bilan emas yozuvlar bilan belgilanganligi uchun uchun uning tasnifiga “Numeric” o'rniغا “String” tanlanadi va mazkur o'zgaruvchi “Label cases by” ro'yxatiga kiritiladi. Agar “Cluster” bo'lmidagi “Cases” va “Variables” kataklaridan “Variables” katagi belgilansa, “Label cases by” ro'yxatiga hech nima kiritishning xojati bo'lmaydi.

O'ng tomonda qo'shimcha bo'yruqlar uchun 4 ta keyingi tugmalar joylashgan. Ular: “Statistics”, “Plots”, “Methods”, “Save” tugmalari. “Statistics” tugmasi bosilganda, monitorda ierarxik klaster tahlilning statistik dialog oynasi paydo bo'ladi.



#### 24.17-rasm. Ierarxik klaster tahlilning statistik dialog yuzasi.

Sukut bo'yicha belgilangan "Agglomerative schedule" klaster tahlil natijalarida chiqarish oynasining standart komponentidemi o'zida mujassam etgan. Bu komponent haqida natijalarni samii qiziq jarayonida to'xtalib o'tamiz. "Proximity Matrix" tugmasi esa, klasterlar va ob'ektlar o'rtaсидаги masosa haqidagi axborotni ko'rsatishga usttilgan. Mazkur buyruqni katta bo'limgan ma'lumotlar uchun qo'shilish qulaydir. Chunki ob'ektlar soni o'sishi bilan matritsa xajmi kerak kattalashadi. Bu esa, uni beso'naqay, anglash uchun mo'qilay qilib qo'yadi. "Cluster Membership" guruhi quyidagi uchta tugmasidan tashkil topgan. Ular:

- ❖ None - chiqariladigan natijalarga barcha klasterlar kiritiladi. Bu tugma sukut bo'yicha belgilanadi.
- ❖ Single solution – aniq klaster natijasini buyurishga qaratilgan.
- ❖ Range of solution – klasterlarning turli sonida bir necha natijalarni chiqarishga imkon beradi. Minimum of number clusters katagiga 3 soni kiritса, Maximum of number clusters katagiga esa, 5 soni kiritilsa unda chiqariladigan natijada 3,4,5 klasterlari kiritiladi.

Kerakli topshiriqlar belgilangandan keyin Continue tugmasi bosiladi.


Ierarxik tahlil dialog oynasining Plots tugmasi bosilishi quyidagi dialog oynasining ochilishiga sabab bo'ladi.



#### 24.18-rasm. Ierarxik klasterli tahlil grafika dialog oynasi.

**“Dendrogram”** tugmasining belgilanishi jarayonning har bir bosqichida ob’ektlar va klasterlar ayirmasining nisbiy kattaligini grafikda ko’rsatib turadi.

Ierarxik klaster tahlil dialog oynasining Methods tugmasining bosilishi 24.19. rasmda ko’rsatilgan dialog oynasining monitorda paydo bo’lishini ta’minlaydi.



#### 24.19-rasm. Ierarxik klaster tahlilning metod dialog oynasi.

Bu oynada bizga “**Measure**” ro’yxatining Interval va Standart funktsiyalarining ahamiyatini bilish muhim. Metod guruhida guruhlararo bog’liqliq tez-tez qo’llanilib turiladi. Metodning mohiyati shundan iboratki, har bir qadamdagи birlashishlar o’zaro bir-biriga yaqin bo’lgan ob’ektlar, klasterlar bilan sodir bo’lishini qayd etadi. Metodning

yanada aniqroq ahamiyatini natijalarni shakhlashi etayotganida ta'kidlaymiz.

Guruhalararo bog'liqlikdan tashqari *Mesod* muziyati keyingi bo'limlarni o'zida aks ettiradi.

❖ "Within group linkage" (Guruh ichidagi bog'liqlik) – klasterlardagi ob'ektlar o'tasidagi masofaning o'ttacha qiymatiga teng bo'lgan oraliq;

❖ "Nearest neighbor" («Eng yaqin qo'shni») – ikki klaster o'tasidagi masofa, just kuzatuqlar oraliq'i sifatida hisoblanadi;

❖ "Further neighbor" («Uzoq qo'shni») – ikki eng uzod joylashgan ob'ektlar orasidagi masofa, bunda ikkala ob'ekt o'z klasteridan olinadi;

❖ "Centroid" clustering (Markaziy klasterlash) – kuzatuvlardagi ikki halatda ham o'zgaruvchisining o'ttacha qiymati hisoblanadi. Shundan so'ng, kki klaster o'tasidagi oraliq, ikki o'ttachaga ega kuzatuqlar orasidagi masofa deb hisoblanadi;

❖ "Median" clustering (Medianali klasterlash) – xuddi markaziy klasterlash metodi kabi, ammo bunda birlashgan klaster markizi bercha ob'ektlarning o'ttachasi sifatida hisoblanadi;

❖ "Ward's method" (Vard metodi) – dastlab, ikkala klaster uchun alohida o'zgaruvchilar o'ttachasi hisoblanadi. So'ng bu har bir klasterning alohida kuzatuvi evklid kvadrati hisoblanadi. Bu omidalar qo'shiladi.

Metodning ochiladigan ro'yxatida sukul bo'yicha Evklid masofani kvadrati berilgan. Bu, tahlilda ishtirok etayotgan ob'ektlar orasidagi masofa mos o'zgaruvchilar ob'ektlarning ayirmasi kvadratini bildiradi. Interval ro'yxatining boshqa bo'limlari quyidagilardan iborat:

❖ "Cosine" (Kosinus) qiymatlar vektorining kosinusiga asoslangan yaqinlikni o'lchash metodi;

❖ "Pearson correlation" (Pirson korrelyatsiyasi) qiymatlar vektorining korrelyatsiyasiga asoslangan yaqinlikni o'lchash metodi;

❖ "Chebyshev" (Chebishev) elementlar ayirmsining maksimum absolyut kattaligi sifatida masofani hisoblash;


❖ "Block" (Blok) shaharning metrikasi bo'yicha masofaning o'lchamini aniqlaydi;

❖ "Minkovski", Minkovskiy masofasi o'lchamini aniqlaydi;

❖ "Customizid" (Sozlangan) foydalanuvchiga masofa o'lchamini buyurishga imkon beradi.

Standartlashtirish jarayoni ochiladigan “Standardize” ro’yxatida amalga oshiriladi. Sukut bo'yicha mazkur ro'yxatda “None” (yo'q) bo'yrug'i faollashtirilgan. Ammo ilgari ayrib o'tganimizdek, turli shkalalarda baholangan o'zgaruvchilar uchun ko'pincha z-qiyatlarni hisoblash uchun standartlashtirish muhim. z-qiyatlarni tanlanganda O'zgaruvchilarni o'zgartirish (Transform Values) bo'limidagi o'zgaruvchilar bo'yicha (by values) amali sukut bo'yicha faollashtirilib qo'yiladi.

O'Ichovni o'zgartirish bo'limida (Transform Values) o'zgaruvchilar qiymatini o'zgartirishga imkon beradigan uchta amal mavjud. Ular: Absolyut qiymatlar (Absolute Values), Belgini o'zgartirish (Change sign), 0-1 ga keltirish (Rescale to 0-1 range).



#### 24.20-rasm. Ierarxik klaster tahlining saqlash dialog oynasi.

Ierarxik klaster tahlil: Saqlash dialog oynasini ko'ramiz. Mazkur oyna yordamida, qiymatlari klasterli tahlilga tegishli bo'lgan yangi o'zgaruvchilarni saqlashga imkon tug'iladi.

Agar Yo'q (None) tugmasi faol turgan bo'lsa, hech qanday saqlash jarayoni bajarilmaydi. Aks holda fayl so'ngida yangi o'zgaruvchilar paydo bo'ladi. Bitta qaror (Single solution) tugmasini faollashtirsak va katakka 3 qiymatini kiritsak, u holda qiymatlari 1, 2 yoki 3 ga teng bo'lgan yangi o'zgaruvchilarga erishamiz. Bu kerakli ob'ektning qaysi klasterga tegishli ekanligiga bog'liq.

Agar qarorlar diapozoni (range of solutions) belgilanib, Minimal qiymatlari katagiga 3 va maksimal qiymatlari katagiga 5 qiymatlari kiritilsa, unda yangi o'zgaruvchilarning birinchisi 1 dan 3 gacha, ikkinchisi 1dan 4 gacha va uchinchisi 1 dan 5 gacha bo'lgan qiymatlarni o'z ichiga oladi.

Ierarxik klasterli dialog oynasi berilgandan *stage*, *CC* tugmasini bosiladi va Aglomeratsiya jadvali va dendrogramma chiqariladi 30.20 va 30.21 rasmlar.

## 24.9. Klasterlararo masofani aniqlash usuli. Klasterlar ustunini aniqlash.

Average Linkage (Between Groups)

Stage	Cluster Combined		Coefficients	Stage Cluster First Appears		New Stage
	Cluster 1	Cluster 2		Cluster 1	Cluster 2	
1	2	13	5.000	0	5	20
2	9	14	5.000	0	6	21
3	3	6	9.000	0	3	22
4	9	10	20.000	2	6	23
5	4	8	20.000	0	4	24
6	4	15	31.000	5	6	25
7	2	3	35.500	0	3	26
8	9	12	40.333	4	6	27
9	5	11	46.000	0	6	28
10	4	7	59.833	6	5	29
11	1	5	70.000	0	3	30
12	4	9	117.150	10	5	31
13	1	2	144.444	11	7	32
14	1	4	250.815	13	12	33

24.21-rasm. Aglomerativ bosqich jadvali.

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, "Stage" (bosqich) ustunining birinchi bosqichida masofasi nisbatan kam bo'lgan juft ob'ektlarning klasterga birlashuvi kuzatilmoqda. Ikkinci bosqichda ham dastur ob'ektlar o'rtaqidagi masofani hisoblaydi va nisbatan yaqin ob'ektlarni bir klasterga birlashtirdi. Birlashish jarayoni, ob'ektlar bitta klasterga joylashmagunicha davom etadi. 1 va 13 bosqichlarda olingan mazkurani tahlil qilamiz.

❖ 1 bosqichda 7 va 10b'ektlarining birlashuvi ro'y beradi. Ushoradagi masofa "Coefficients" ustunida beriladi. Bu masofa 5.0 ni tashkil etadi. Boshqa juft ob'ektlarga qaraganda eng yaqin masofa bo'lgani uchun dastur birinchi boqichda hisobladi. Bu ikkala ob'ekt birinta klasterga ta'lulqi emas. Buni "Cluster 1" va "Cluster 2" ustunlaridagi nol qiymatlardan bilish mumkin. 7 ob'ekti 1 ob'ekti bilan birlashar ekan, birinchi klasterga 7 raqami beriladi. So'ngra, 7 ob'ekti 10 bosqichda 4 ob'ekti bilan birlashadi va klasterga 4 raqami beriladi. "Stage Cluster First Appears" (Klasterning dastlabki paydo bo'lish bosqichi) ustunidan mazkur klaster uchun keyingi paydo bo'lish bosqichi qayd etiladi. Bu ustunda, birlashtirilgan klasterlar shu bosqichiga qadari


qaysi bosqichda uchragani ko'rsatiladi. (Misol uchun, "Cluster 1" usutunida uchragan dastlabki 2 qiymati, 4 bosqichdagi 9 ob'ektni anglatadi. 9 ob'ekti 2 bosqichda birlashgani uchun "Cluster 1" ustunida 2 qiymati qayd etilgan). "Next Stage" (keyingi bosqich) ustunidagi 10 bosqich keyingi bosqich hisoblanadi.

❖ 13 bosqichdagi 1 va 2 ob'ektlarni birlashtirgan klaster hosil bo'lди. Bu bosqichdan tashqari 2-ob'ekt 7 bosqichda ham 3 ob'ekti bilan 35,5 masofada birlashganini kuzatish mumkin. 13 bosqichda 1 va 2 ob'ektlari o'rtasidagi masofa 144,4 ni hosil qildi.

Aglemeratsiya jadvalida klasterlar sonini baholash mumkin. Buning uchun klasterizatsiya bosqichlari bo'yicha masofaning oshib borish dinamikasini kuzatish lozim bo'ladi. Shuningdek, masofaning to'satdan oshgan bosqichini aniqlash kerak. Bizning misolimizda masofaning to'satdan oshganligini 11-bosqichdan 12-bosqichga o'tish jarayonida ko'rish mumkin. Demak, klasterlarning nisbatan optimal miqdorini 11 va 12-bosqichlarida ko'rish mumkin. ob'ektlarning dastlabki sonidan masofaning oshgan bosqichi ayiriladi. Demak,  $15-11=4$ ;  $15-12=3$ . Ya'ni 4 yoki 3 klaster mavjud. Klasterning u yoki bu miqdorini tanlashda tadqiqotchining tajribasiga tayaniladi.

#### 24.10. Klaster tahlil natijasini grafik usulda taqdim etish.

24.18-rasmida ifodalangan Grafikalar dialog oynasi orqali dendrogramma katagini faollashtirish natijasida, klaster tahlilni grafik aniqrog'i, dendrogramma usulida namoyon etish imkoniga egamiz.



24.22-rasm. Dendrogramma usuli.

Dendrogramma klasterlashtirishning istalgan bosqichida istalgan ob'ektga o'tishga imkon berishdan tashqari, klasterlar yoki ob'ektlar o'rtasidagi masofani baholashga zamin yaratadi. 0 dan 25 gacha bo'lgan sonlar bu masofalarning shartli shkalasi hisoblanadi. 0 qiymati birinchi bosqichdagi eng kichik masofa sanalsa, 25 qiymati oxirgi bosqichdagi eng katta masafa hisoblanadi. Dendrogrammadan, dastlabki 4 ta klaster ajralib turibdi. Ular:

- 1) 7, 13, 4, 8, 15.
- 2) 9, 14, 10, 12.
- 3) 3, 6, 2
- 4) 5, 11, 1.

Agar sinchiklab razm solsak, mazkur klasterlar dastlar juft ob'ektlardan tashkil topgan bo'lib, keyinchalik yanada yirik klasterlarga birlashadi. O'z navbatida bu klasterlar yagona ob'ektga birlashuvchi klasterga qo'shilib ketadi. O'zaro masofasining yaqinligi uchun birlashgan ob'ektlar, faktorli tahlilga qiyoslanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Faktorli tahlil nima?
2. Bitta faktorda qanday o'zgaruvchilar birlashadi?
3. Turli faktorlar o'zgaruvchilari qanday korrelyatsiyaga kirishishadi?
5. Faktorli tahlilning xos qiymatlar grafigi qanday sharhlanadi?
6. Dendrogramma nima?
7. Klasterli tahlilda birlashish metodining mohiyati nimadan iborat?
8. Klasterli tahlilda o'zgaruvchilar turli o'lchov shkalalarida baholangan bo'lsa, ular bilan qanday amal bajariladi?
9. Evklid masofasi qanday hisoblanadi?
10. Aglomerativ jadvalda qanday ko'rsatkichlar ifodalangan bo'ladi.
11. Klasterli tahlil nima?
12. Klasterli tahlil grafigida eng kichkina va eng katta masofalar qanday qiymatda ifodalananadi.
13. Aglemeratsiyada qanday qilib klasterlar sonini hisoblash mumkin?

**Klasterli tahlilda quyidagi funksiyalar qanday vazifani bajaradi?  
Mosini toping.**

1. qiymatlar vektorining kosinusiga asoslangan yaqinlikni o'chash metodi;	A. Pearson correlation (Pirson korrelyatsiyasi)
2. Minkovskiy masofasi o'chamini aniqlaydi;	B. Cosine (Kosinus)
3. elementlar ayirmasining maksimum absolyut kattaligi sifatida masofani hisoblash;	C. Block (Blok)
4. foydalanuvchiga masofa o'chamini buyurishga imkon beradi.	D. Chebyshev (Chebishev)
5. qiymatlar vektorining korrelyatsiyasiga asoslangan yaqinlikni o'chash metodi;	E. Minkovski, Minkovskiy
6. shaharning metrikasi bo'yicha masofaning o'chamini aniqlaydi;	F. Customizid (Sozlangan)

A	B	C	D	E	F
				1.	

## **25-Mavzu: EXCEL KOMPYUTER DASTURIDA KORRELYATSION VA REGRESSION TAHLILNI AMALGA OSHIRISH.**

**Tayanch tushunchalar:** korrelyatsion bog'liqlik, kuchli bog'liqlik, zaif bog'liqlik, Pirson korrelyatsiya koeffitsenti, Spirman ranglar koeffitsenti, funktsional bog'liqlik, Cheldok shkalasi.

### **25.1. Spirman ranglar korrelyatsiyasi koeffitsenti.**

Turli o'zgaruvchilar o'rtasida ikki xil bog'liqlik bo'ladi. Ular:

- funktsional bog'liqlik (munosabatning turli atributlari o'rtasidagi munosabatlar);
- korrelyatsion bog'liqlik (o'zaro aloqadorlik).

Korrelyatsion bog'liqliknani aniqlash bir necha muammolarni hal qiladi. Jumladan: tahlil qilinayotgan o'zgaruvchilar bog'liqligini aniqlash; korrelyatsion bog'liqlik aniqlanganda, ma'lum belgilarning namoyon bo'lishiga doir taxminlarni shakllantirish mumkin; bir-biridan mustaqil bo'lgan o'zgaruvchilarning toifalarga ajratilishi.

Korrelyatson bog'liqlikning kuchini Cheldok shkalasi asosida xarakterlash mumkin. Unda har bir miqdoriy korrelyatsiya koeffitsenti sifatli baholanadi. Ijobiy korrelyatsiyada bog'liqliq quyidagicha baholanadi:

- ✓ 0-0,3 – korrelyatsion bog'liqlik juda zaif;
- ✓ 0,3-0,5 – zaif;
- ✓ 0,5-0,7 – o'rtacha;
- ✓ 0,7- 0,9 – yuqorida;
- ✓ 0,9 juda yuqorida.

Shkaladan mansiy korrelyatsiyalarda ham foydalilanadi. U holda, sifatli xarakteristikalar teskari ifodalanadi.

Korrelyatsion bog'liqlianing 3 ta toifasini ko'rsatuvchi, CHeldok shkalasining soddalashtirilgan ko'rinishidan foydalanish ham mumkin:

- ✓ Juda kuchli -  $\pm 0,7 - \pm 1$ ;
- ✓ O'rtacha -  $\pm 0,3 - \pm 0,699$ ;
- ✓ Juda kuchsiz – 0 -  $\pm 0,299$ .

Noparametrik mezon Spirman ranglar korrelyatsiyasi qo'llash tartiblari va shartlari to'g'risida 15 mavzuda aytib o'tilgan edi. Spirman mezonida korrelyatsion bog'liqlik omilli va natijaviy o'zgaruvchilarning ayirmasi asosida tahlil qilishga qaratilgan. Ayirma  $d$  deb belgilanadi.

Spirman ranglar korrelyatsiyasi mezonida dispersiya, standart og'ish va o'rtacha hisobga olinmaganligi uchun qiymatlar ranglar (tartiblar) asosida tahlil qilinadi. Sifatli atributiv belgilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik intensivligini aniqlashga yordam beradi. Ikki belgi asosida klassifikatsiyalangan ikki o'zgaruvchining (X va Y) aloqadorligi ranglar tahlili asosida aniqlanadi.

## 25.2. Spirman ranglar korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash formulasi.

Spirman ranglar korrelyatsiya koeffitsenti  $p$  deb belgilanadi. Korrelyatsiya koeffitsenti 14.1 formula yordamida topiladi.

$$(14.1). \quad p = 1 - \frac{6 \sum(d^2)}{n(n^2-1)}$$

Bu formulani Excel dasturida qo'llashni keyingi misol asosida ko'rib chiqamiz.

Excel dasturida korrelyatsiyasini aniqlashda Data → Data Analyse → Correlation...yoki funktsiyalar ustasi Statistika bo'limida amalga oshiriladi. Ammo mazkur korrelyatsiyani Excel hisoblash imkoniyatlarini qo'llagan holda hisoblaymiz.

Topshiriq: talabalarning xotirjamlik ko'rsatkichlari sessiya jarayonidan oldin va keyin o'rganildi. Natijalarning ranjirovka qilinishi va 15.1 formulasi asosida hisoblanishini Excel dasturida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumotlarni dastlab, "RANK.EQ" funktsiyasida ranjirlaymiz.

## Formula Builder

Show All Functions

### RANK.EQ

number = 12

A2

ref = {12;11;5;8;7;13;14;8;9;5;11;11;7;10;11;...}

A2:A20

order = logical

1

Result: 3

Done

### 25.1-rasm. Ranjirlash funktsiyasining sintaksisi

Number – qatoriga ranjirlash boshlanishi kerak bo‘lgan birinchi yacheyka belgilanadi. Bizda bu A2 (A1 sarlavha uchun ajratilgan).


“ref” – bunda esa, ranjirlanishi kerak bo‘lgan ustun tanlanadi.

“order” – ranjirovkaning oshib borish bo‘yicha belgilanishiga -1; pasayib borish bo‘yicha belgilanishiga – 0 qo‘yiladi.

Ranjirlanish funktsiyasini ustundagi barcha kataklarga tadbiq qilish uchun formula kiritilayotgan qatorga o‘zgartirish kiritiladi. A2:A20 ko‘rinishidagi amalni \$A\$2:\$A\$20 ko‘rinishiga keltiriladi.

Done tugmasi bosiladi. Ammo bunda faqat birinchi A2 katagi uchun ranjirlangan qiymat chiqariladi. Formulani ustundagi barcha yacheykalarga tadbiq etish uchun, birinchi yacheykadan sichqonchaning chap tomoni bosilib tortib kelinadi va Enter bosiladi.

Qiymatlar ranjirovka qilib bo‘lingandan so‘ng, 14.1 formulasidagi d belgining kattaligini (ranjirovka ayirmasi) topamiz.



**25.2-rasm. 14.1. formuladagi d qiymatini topish uchun tegishli funktsiyani buyurish.**

A	B	C	D	E	F
xotirjamlik oldin	R (X)	Xotirjamlik Keyin	R (Y)	d (Rx-Ry)	
1					
2	12	17	14	16	1
3	11	13	15	17	-4
4	5	1	10	7	-6
5	8	5	9	3	2
6	7	3	7	2	1
7	13	18	12	11	7
8	14	19	17	19	0
9	8	5	9	3	-2
10	9	8	10	7	1
11	5	1	6	1	0
12	11	13	12	11	2
13	11	13	16	18	-5
14	7	3	9	3	0
15	10	10	12	11	-1
16	11	13	11	9	4
17	9	8	11	9	-1
18	10	10	13	15	-5
19	10	10	12	11	-1
20	8	5	9	3	2

**25.3-rasm. 14.1. formuladagi d qiymati.**

E2 yachejkasida kerakli qiymat hosil bo'lganidan keyin, uni E2:E20 ustunining barcha yachejkalariga tortib kelish yo'li bilan tadbiq etamiz.

A Xotirjamlik oldin	B	C Xotirjamlik Kevin	D	E	F
R (X)		R (Y)	d (Rx-Ry)		$d^2/d2$
12	17	14	16	1	1
11	13	15	17	-4	16
5	1	10	7	-3	9
8	5	9	3	2	4
7	3	7	2	1	1
13	18	12	11	7	49
14	19	17	19	0	0
8	5	9	3	2	4
9	8	10	7	1	1
5	1	6	1	0	0
11	13	12	11	2	4
11	13	16	18	-5	25
7	3	9	3	0	0
10	10	12	11	-1	1
11	13	11	9	4	16
9	8	11	9	-1	1
10	10	13	15	-5	25
10	10	12	11	-1	1
8	5	9	3	2	4
Jami:					189

#### 25.4-rasm. 14.1 formulasiga kerakli qiymatlarni hisoblash.

Demak, formulaning  $\sum(d^2)=189$  ga,  $n=19$  ga teng. Formulaning barcha qiymatlari topilgach, korrelyatsiya koefitsentini topamiz. Buning uchun kursorni korrelyatsiya koefitsenti uchun D27 yacheykasiga eltamiz va unda quyidagi tenglamani kiritamiz.

$$=1-6*(D23)/(D24*(D24^2-1)).$$

D27 yacheykada 0,91 korrelyatsiya koefitsenti hosil bo'ldi. Demak, bu ancha kuchli korrelyatsion bog'liqlik hisoblanadi. Biz Spirman korrelyatsiya koefitsentiga asoslanib, o'zgaruvchilar o'rtasida aloqadorlik borligini tasdiqlaymiz, ya'ni talabalarning xotirjamlik ko'rsatichiga sessiya jarayonlari ta'sir etgan deb aytish mumkin.

	A	B	C	D	E	F
	xotiri	R (X)	xotiri	R (Y)	d (Rx-Ry)	$d^2/d2$
1		12	17	14	16	1
2		11	13	15	17	-4
3		5	1	10	7	6
4		8	5	9	3	2
5		7	3	7	2	1
6		13	18	12	11	7
7		14	19	17	19	0
8		8	5	9	3	2
9		9	8	10	7	1
10		5	1	6	1	0
11		11	13	12	11	2
12		11	13	16	18	-5
13		7	3	9	3	0
14		10	10	12	11	-1
15		11	13	11	9	4
16		9	8	11	9	-1
17		10	10	13	15	-5
18		10	10	12	11	-1
19		8	5	9	3	2
20	Jami:					189
21						
22						
23				$d^2 =$	88	
24				n =	18	
25				m =	0.91	

### 25.5-rasm. Spirman korrelyatsiya koeffitsenti hisobi.

#### 25.3. Pirson korrelyatsiya koeffitsenti. Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash formulasi.

Spirman ranglar korrelyatsiyasida o'zgaruvchilar tartib shkalasida berilsa, Pirson korrelyatsiya koeffitsentida o'zgaruvchilar intervallar shkalasida baholanadi. Pirson metodi quyidagi holatlarni talab qilgan vaziyatlarda qo'llaniladi: korrelyatsion kuchning aniq bog'liqligini qayd etish; miqdorlari belgilarni qiyoslash.

Pirson chiziqli korrelyatsiya koeffitsentini qo'llashning kamchiliklari: sonli qiymatlarning chetlanishida metod barqaror emas; mazkur metod yordamida faqat chiziqli korrelyatsion bog'liqliknini ko'rish mumkin.

Aloqadorlikning boshqa xil ko'rinishida regression tahlil metodini qo'llash kerak.

## 25.4. Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash formulasi.

Pirson korrelyatsiya koeffitsentini 14-mavzuda ko'rib chiqqan edik. 14.1. formula Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblaydi.

$$(13.1) \quad r_{xy} = \frac{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2 \sum_{j=1}^m (Y_j - \bar{Y})^2}}$$

$X_1 - X$  o'zgaruvchilari qiymatlari;  $Y_1 - Y$  o'zgaruvchilari qiymatlari;  $\bar{X}$  - X o'zgaruvchilari o'rtachasi;  $\bar{Y}$  - Y o'zgaruvchilari o'rtachasi.

Excel paketida  $r$  Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash funktsiyasi mavjud.

**Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash.** Bu jarayonni quyidagi tartibda amalga oshirish mumkin.

**Topshiriq:** 17 yoshdan 35 yoshgacha bo'lган respondentlarning ichki nazorat darajasi o'rganildi. Tadqiqotchining fikricha, o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsion munosabat mavjud. Ya'ni o'zgaruvchilar o'rtasida aloqadorlik bor degan farazni tasdiqlash lozim bo'ldi.

**Bajarilishi:** O'zgaruvchilarni jadvalga kiritamiz,

T/R	Yosh (X)	Ichki nazorat (Y)	$(X_i - \bar{X})$	$(Y_i - \bar{Y})$	$(X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})$	$(X_i - \bar{X})^2$	$(Y_i - \bar{Y})^2$
1	15	6	-2.15	-8.8	18.92	4.6225	77.44
2	22	18	1.85	1.2	2.22	3.4225	1.44
3	19	10	-3.15	-6.8	21.42	9.9225	46.24
4	35	23	14.85	5.2	77.22	220.5225	27.04
5	27	15	-3.15	-6.8	21.42	9.9225	46.24
6	28	20	7.85	3.2	25.12	61.6225	10.24
7	12	23	-8.15	4.2	-34.23	66.4225	17.64
8	18	26	-1.15	3.2	3.68	1.3225	10.24
9	20	22	10.15	5.2	52.28	101.0225	27.04
10	33	29	9.85	12.2	120.17	97.0225	148.84
11	27	5	-3.15	7.8	24.57	9.9225	60.44
12	18	10	-2.15	-6.8	14.62	4.6225	46.24
13	26	12	5.15	-6.8	35.02	26.5225	46.24
14	28	28	7.85	13.2	87.92	61.6225	125.44
15	20	13	-2.15	3.8	4.37	1.3225	14.44
16	21	22	0.85	5.2	4.42	0.7225	27.04
17	18	18	2.15	2.8	6.02	4.6225	7.64
18	22	20	0.15	3.2	0.48	0.0225	10.24
19	23	10	-1.15	-6.8	21.42	9.9225	46.24
20	22	20	1.85	3.2	5.92	3.4225	10.24
O'sha:		2015	168		399.6	700.55	807.2

## 25.6-rasm. 13.1 formula qiymatlarini hisoblash.


Formulaning surat va maxrajidagi qismlarni hisoblab, jadvalda joylatirildi. J44 yacheysiga 13.1 formulasi hisobini kiritamiz. Ya'ni  $=F22/(G22*H22)^{0.5}$ .

$\wedge 0,5$  qiymati 14.1 formulaga ko'ra ildiz ostidan chiqarishni bildiradi. Biz ildiz ostidan chiqaruvchi funktsiya – **SQRT** funktsiyasini faollash-

tirish o'rniغا, 0,5 ga oshirish amalini qo'llaymiz. Natija – 0,531 qiymatiga ega bo'ldik. Mazkur qiymatni to'g'riligini tekshirish uchun funktsiyalar ustasi dialog oynasidan Pirson korrelyatsiya mezonidan foydalapanamiz.

## **25.5. Excel ma'lumotlar tahlilida Pirson korrelyatsiyasini hisoblab topish.**

O'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlikni Pirson korrelyatsiya mezoni orqali topamiz va Pirson mezoni formulasining an'anaviy usulda hisoblab topilgan 0,531 korrelyatsiya qiymatini tasdiqlaymiz. Buning uchun K22 yacheysigiga kursorni keltirib, tenglikni bosamiz funktsiya qiymatlari ko'rindi. Ular orasidan "Statistika" bo'limiga kirib, Pirson funktsiyasini topamiz va uni "**Insert Function**" tugmasini bosish orqali harakatga keltiramiz.



### 25.7-rasm. Pirson funktsiyasi sintaksisi.

Birinchi massivda (array1) X o'zgaruvchilari ya'ni, respondentlarning yoshi kiritiladi. Ikkinchi massivda Y o'zgaruvchilari, respondentlarning ichki nazorat ko'rsatkichlari kiritiladi. Korrelyatsiya koefitsientini qo'lga kiritish uchun Done tugmasi bosiladi. Natija 0,531 qiyamatni ko'rsatdi.

T/R	Yoshi(X)	Yoshi(Y)	Ichki Nazorati(Y)	$(X_1 - \bar{X})(Y_1 - \bar{Y})$	$(X_1 - \bar{X})(Y_1 - \bar{Y})^2$	$(X_1 - \bar{X})^2$	$(Y_1 - \bar{Y})^2$
1	18	8	2.15	-8.8	18.92	4.6225	77.44
2	22	18	1.85	1.2	2.22	3.4225	1.44
3	27	10	3.15	-6.8	21.42	9.9225	46.24
4	35	22	14.85	5.2	77.22	220.5225	27.04
5	37	10	-3.15	-6.8	21.42	9.9225	46.24
6	28	20	7.85	3.2	25.12	61.6225	10.24
7	19	21	8.15	4.2	-34.23	66.4225	17.64
8	19	20	-1.15	3.2	-3.68	1.3225	10.24
9	10	22	-10.15	5.2	-52.78	103.0225	27.04
10	10	23	9.85	12.2	120.17	97.0225	148.84
11	17	8	3.15	-7.8	24.57	9.9225	60.84
12	18	10	2.15	-6.8	14.62	4.6225	46.24
13	15	10	5.15	-6.8	35.02	26.3225	46.24
14	29	21	7.85	11.2	87.92	61.6225	125.44
15	19	13	1.15	-3.8	4.37	1.3225	14.44
16	21	22	0.85	5.2	4.42	0.7225	27.04
17	16	14	-2.15	-2.8	6.02	4.6225	7.84
18	24	10	-0.15	3.2	-0.48	0.0225	10.24
19	17	10	3.15	6.8	21.42	9.9225	46.24
20	22	20	1.85	3.2	5.92	3.4225	10.24
Ortacha:	20.15	16.8			399.6	700.55	807.2

0.531 0.320167

## 25.8-rasm. Pirson korrelyatsiya koefitsientini funksiya yordamida hisoblash topish.

Demak, Cheldok shkalasiga ko'ra, respondentlarning yoshi va ichki nazorati o'rtaida o'rtacha korrelyatsion bog'liqlikni - 0,53, qiymatni ko'rsatdi.

### Nazorat savollari:

1. Spirman korrelyatsiya koefitsentidagi  $d^2$  nimani anglatadi?
2. Nima uchun Pirson korrelyatsiyasini Excel dasturida hisoblashganda  $\sim 0,5$  amali belgilandi?
3. Korrelyatsiya nima?
4. Noldan farqli qanday qiyamatda korrelyatsiya kuchli ekanligina anglaymiz?
5. Zaif korrelyatsiya nima?
6. Cheldok shkali nimani aks etadi?
7. Spirman korrelyatsiyasi uchun qanday statistik amal dastlab bajariladi?
8. Pirson funktsiyasida birinchi va ikkinchi massivda qaysi ma'lumotlar kiritiladi?
9. Ranjirovka funktsiyasi qanday bajariladi?
10. Excel da Spirman korrelyatsiya koefitsientini hisoblash funktsiyasi mavjudmi?

**Quyidagi mulohazalarning to‘g‘ri va noto‘g‘risini belgilang.  
Kerakli mulohaza qarhisiga “Ha” “Yo‘q” so‘zlarini qo‘ying.**

Spirman ranglar korrelyatsiyasida o‘zgaruvchilar tartib shkalasida beriladi.	
Pirson korrelyatsiya koeffitsentida o‘zgaruvchilar intervallar shkalasida baholanadi.	
Pirson metodi korrelyatsion kuchning aniq bog‘liqligini qayd etmaydi;	
Pirson chiziqli korrelyatsiya koeffitsentida sonli qiymatlarning chetlanishida metod barqaror.	

## **26-mavzu: SPSSDA MIQDORIY KO'RSATGICHALAR ORASIDAGI STATISTIK BOG'LIQLIKNI ANIQLASH**

**Tayanch tushunchalar:** *bog'lilik turlari, Kendell rang korrelyatsiya koeffitsenti, manfiy korrelyatsiya, monoton bog'lilik, ikki o'lchovli korrelyatsiya, juft korrelyatsiyalar, regressiya chizig'i, tarqalma grafigi, teskari bog'lilik, qismiy korrelyatsiya koeffitsenti, chiziqli korrelyatsiya.*

### **26.1. Bog'lilik turlarining tasnifi.**

SPSS dasturida korrelyatsion bog'lilikni aniqlash uchun menyudan Analyse buyrug'i orqali Correlate funktsiyasidan foydalaniladi. Unda ham korrelyatsiya -1 dan +1 ga qadar bog'lilikni ko'rsatadi. Dasturda korrelyatsion bog'lilik  $r$  harfi bilan belgilanadi. Korrelyatsiya va ikki o'lchovli korrelyatsiya ko'pincha sinonim sifatida qo'llaniladi. Ikki o'lchovli korrelyatsiya ikki o'zgaruvchilar munosabatlarini o'rganadi va ikki o'lchovli aloqadorlik o'rganilayotganini ta'kidlaydi. Asosiy Pirson  $r$  korrelyatsion bog'liligi taqsimoti normallikka yaqin bo'lgan miqdoriy o'lchovlarda baholangan o'zgaruvchilarning aloqadorligini aniqlaydi. Ammo shunday bo'lisinga qaramay, normal taqsimlanmagan va diskret qatorlarda ham Pirson mezonida natijalar aniq hisoblanadi. O'zgaruvchilavr normal emas deb baholangan holatlarda Spearman va Kendall korrelyatsiya koeffitsentlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tahlil menyusining Korrelyatsiya bo'limida mazkur korrelyatsiya mezonlari mavjud. Ma'lumotlarning turli xil ko'rinishlarida turli hil korrelyatsion tahlil mezonlarini Korrelyatsiya bo'limida topish mumkin.

Manfiy korrelyatsiya – bu, o'zgaruvchilarning o'rtaida aloqadorlik normal bo'limgan holatda aytildi. Bunda bir o'zgaruvchi qiymatlarining oshib borishi, ikkinchi o'zgaruvchi qiymatlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun antisotsial hulq-atvor ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, ichki nazorat ko'rsatkichi shuncha past bo'ladi. Ikki o'zgaruvchi bog'liligi  $-1 < r < 0$  gacha belgilanishi mumkin.

Pirson korrelyatsiya mezonining asosiy xususiyatlaridan biri – bu o'zgaruvchilar o'rtaсидаги  $to'g'ri$  chiziqli bog'lilikni aniqlashдан iboratdir. Ikki o'lchovli tarqalmada grafikdagи nuqtalar bitta  $to'g'ri$  chiziqda yotganda uning qiymatlari maksimumga etadi. Hayotiy tajribalarda o'zgaruvchilar o'rtaсидаги munosabatlar, nafaqat ehtimoliy


balki egri chiziqli, monoton va nomonoton bo'lishi mumkin. Bu holda Spirman yoki Kendell mezonidan foydalanish mumkin.

Ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni aniqlashdan oldin ularning aloqadorlik grafigini yasash tavsiya etiladi. Bu grafik ikki yoqlama tarqalma grafik deb nomlanadi. Agar tarqalma grafigi monoton ko'rinishga ega bo'lganida unda Korrelyatsiya opsiyasidan foydalanish mumkin.

## 26.2. Tarqalish diagrammalari.

Ikki tarqalma bog'liqligining diagrammada ifodalanishi Scatter Plots ya'ni tarqalma grafigi orqali ifodalash mumkin. bunda har bir ob'ekt, koordinatalari ikki o'zgaruvchining qiymatlari asosida belgilangan nuqtani ifodalarydi. Shunday qilib, grafikdagi ko'psonli ob'ektlar, grafikda ko'psonli nuqtalarni namoyon etadi. Nuqtalar ko'pligining shakliga ko'ra, bog'liqlik xarakterini aniqlash mumkin.

"Graphs" → "Legacy Dialog" → "Scatter Plots"...




26.1-rasm. Tarqalish grafigining dialog oynasi.

Mazkur grafikda o'zgaruvchilar aloqadorligini ko'rsatish uchun quyidagi misolga yuzlanamiz. Tadqiqotchi respondentlarning ichki nazorati va jismoniy reaksiyasini o'rgandi. Ushbu natijalarni korrelyat-

siya qilishdan oldin, ularning aloqadorligini tarqalish diagrammasida ko'ramiz.

→ Graph

(DataSet0)




26.2-rasm. O'zgaruvchilarning tarqalish diagrammasida aloqadorligining namoyon bo'lishi.

Mazkur diagrammaga xaraktenistika beradigan bo'lsak, u holda shuni ayta olamizki, o'zgaruvchilar orasida ijobjiy bog'liqlik mavjud. Ya'ni bir o'zgaruvchi qiymatlarining oshishi ikkinchi o'zgaruvchi qiymatlarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Demak, jismoniy tarbiya fanidan olingan ballar, talabaning ichki nazorati ko'rsatkichiga bog'liq bo'ladi.

Tarqalish diagrammasi orqali manfiy (teskari) bog'liqlik, chiziqli bog'liqlik, chiziqli bo'limgan bog'liqliknini ajratish mumkin.

Diagrammadan aniqlangan bog'liqliknini ob'ekt nuqtalarning regresiya chizig'i atrofida qanchalik zinch joylashganiga qarab aniqlash mumkin.

Nuqtalar chiziqqa qanchalik yaqin joylashsa bu, shunchalik bog'liqlik kuchliligidan darak beradi.



a) korrelyatsiya mavjud emas; b) ijobiy korrelyatsiya; c) manfiy (teskari) korrelyatsiya; d) chiziqli bo'lmagan korrelyatsiya.

### 26.3. Pirson korrelyatsiya koefitsenti.

Pirson korrelyatsiya koefitsenti o'zgaruvchilar o'rtaсидаги тоғ'ри чизиqli о'лчовни билдиради. Икки танланмали графикда нуqtalar bitta toғ'ri chiziqda yotsa, uning qiymatlari maksimumga etadi.

Respondentlarning jismoniy tarbiya fanidan olgan ballari va iehki nazorat ko'rsatkichi o'rtaсидаги aloqadorlikni Pirson mezonida tekshiramiz. Buning uchun menyudan quyidagi operatsiyalar bajariladi. "Analyse" → "Correlate" → "Bivariate"...



26.3-rasm. Juft korrelyatsiya dialog oynasi.


Correlations

	Jismoniy_Korsatki ch	Jismoniy_Kor satkich	Ichki_Nazora t
Jismoniy_Korsatki ch	Pearson Correlation	1	.906 **
	Sig. (2-tailed)		.000
	N	20	20
Ichki_Nazorat	Pearson Correlation	.906 **	1
	Sig. (2-tailed)	.000	
	N	20	20

\*\*. Correlation is significant at the 0.01 level (2-tailed).

#### 26.4-rasm. $r$ =Pirson korrelyatsiya koeffitsenti natijalari.

Korrelyatsiya koeffitsentini tahlil qilish uchun, quyidagi sharhga e'tibor beramiz.



Pirson korrelyatsiya qiymati  $r$  o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik darajasini ifodalaydi:

- ❖ 0,75 – 1,00 juda kuchli ijobiy korrelyatsiya;
- ❖ 0,50 – 0,74 yuqori ijobiy korrelyatsiya;
- ❖ 0,25 – 0,49 o'rta ijobiy;
- ❖ 0,00 – 0,24 zaif ijobiy;
- ❖ 0,00 – -0,24 zaif manfiy;
- ❖ 0,25 – -0,49 o'rta manfiy;
- ❖ 0,50 – -0,74 yuqori manfiy korrelyatsiya;
- ❖ 0,75 – -1,00 juda kuchli manfiy korrelyatsiya.

$r$ -Pirson korrelyatsiyasi uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

- Pirson korrelyatsiya koeffitsenti faqat chiziqli bog'liqliknini aniqlaydi. Chiziqli bo'Imagan korrelyatsiya Pirson korrelyatsiya koeffitsenti orqali aniqlanmaydi.

- Pirson korrelyatsiya koeffitsenti chetlanishlarga juda ta'sirchan.
- Korrelyatsiya o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarni mayjudligini hisoblamaydi.
- Pirson korrelyatsiya koeffitsenti va Pirson xi kvadrat mezonini farqlash lozim.

## 26.4. Rang korrelyatsiya koeffitsentlari.

Agar o'zgaruvchilarning biri normal emasligi va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik nomonoton ekanligi aniqlansa o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik ranglar korrelyatsiyasi orqali aniqlanadi. Ranglar korrelyatsiyasiga Spirman va Kendell mezonlarini kiritish mumkin. Dasturda ma'lumotlar korrelyatsiya qilinishidan oldin ranjirovka qilinadi. So'ngra ranjirovka qilingan qiymatlarga nisbatan Pirson formulasi qo'llaniladi. Shunday qilib Spirman mezonni Pirson analogiyasi orqali sharhlanadi.

Ranglar korrelyatsiyasi qiymatlari ranjirlanadigan sifat belgilari o'rtasidagi bog'liqliknini aniqlashga qaratiladi.

Spirman ranglar korrelyatsiyasi metodi ikki o'zgaruvchi yoki ikki ierarxiya o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliknini aniqlaydi.

Spirman korrelyatsiya metodi singari Kendell korrelyatsiya koeffitsenti sifat o'zgaruvchilari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlaydi. Bunda ranjirlash ham Spirman metodi singari yoki oshib borishi yoki kamayib borishi yo'nalishida belgilanadi. Uning koeffitsenti ham -1 dan + 1 gacha o'zgaradi. Spirman va Kendell korrelyatsiya koeffitsentlari o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni emas, balki ranglar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

Kendell korrelyatsiya koeffitsenti  $\tau$  bilan belgilanadi va «tay» deb nomланади.  $\tau$  Kendell mezonini misolda qo'llab ko'ramiz. Aytaylik, respondentlarning yoshi va vazni o'rtasidagi bog'liqlik ranglar asosida baholanmoqda.

Guruhdagi kki istalgan ikki kishining solishtirilishi ikki vaziyatda bo'ladi: o'zgaruvchilarning bir yo'nalishli o'zgarish (moslik), ya'ni bir kishining bo'yisi va vazni ikkinchinisikidan katta bo'lsa; bir kishining bo'yisi ikkinchinikidan katta va vazni ikkichinikidan kichik bo'lsa (inversiya). Respondentlarning ehtimoliy mosligi ( $R$ ) va ehtimoliy inversiyasini ( $Q$ ) belgilash mumkin. Kendell korrelyatsiyasi – bu moslik ehtimolidan inversiyalarning ayirmasidir.

$$\tau=R-Q$$

Kendell korrelyatsiyasi qiymati bo'yicha moslik va inversiya ehtimolini hisoblash mumkin.

$$R=(1+\tau)/2 \quad Q=(1-\tau)/2$$


Kendell korrelyatsiya koeffitsentining muhim jihatidan biri bu – uning qiymatining aniq sharhlanishidir.

## 26.5. Qismiy korrelyatsiya koefitsientlari.

Qismiy korrelyatsiya tushunchasi kovariatsiya bilan bog'liqdir. Qismiy korrelyatsiya dastur Korrelyatsiya topshiriqlarining biri sifatida ko'rildi. Qismiy korrelyatsiyaning mohiyati shundaki, agar ikki o'zgaruvchi bog'liqligi kuzatilsa, unda uchinchi o'zgaruvchining ta'siri mavjud degan taxminni qo'yish mumkin. Bu yerda uchinchi o'zgaruvchi ikkala o'zgaruvchining umumiy o'zgarishiga sababchi sifatida baholanadi. Bu taxminni tekshirish uchun uchinchi o'zgaruvchi ta'sirini chiqarib tashlash kifoya. Ya'ni ikki o'zgaruvchini aloqadorligini uchinchi o'zgaruvchi ta'sirini hisobga olmagan holda (uning qiymatlari qayd etib) aniqlash kerak. Bu usulda hisoblangan korrelyatsiya qismiy korrelyatsiya deb ataladi. Misol uchun emotsiyonal barqarorlik kishining irodaviy sisftalariga bog'liq ekanligi aniqlanadi. Ammo bu bog'liqlik bevosita bog'liqlikmi yoki ular yosh xususiyatlariga asoslanganmi degan savolga qismiy korrelyatsiya orqali javob olish mumkin. Agar yosh o'zgaruvchilarining qayd etilgan qiymatlarida emotsiyonal barqarorlik va irodaviy sisftarning qismiy korrelyatsiyasi nolga yaqin bolsa, unda ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik yosunga asoslangan deb xulosa chiqarish mumkin.

## 26.6. Qismiy korrelyatsiyani hisoblash jarayoni.

Qismiy korrelyatsiya quyidagicha bajariladi.  
“Analyse” → “Correlate” → “Partial Correlate”...



## 26.5-rasm. Qismiy korrelyatsiyada o'zgaruvchilarui joylashtirish.

Ikki bir-biriga bog'liq deb baholangan o'zgaruvchilar Variables bo'limiga, uchinchi ta'sir etuvehi deb taxmin qilingan o'zgaruvchi Controlling for bo'limiga joylashtiriladi va OK tugmasi bosiladi.

Descriptive Statistics

	Mean	Std. Deviation	N
Emotsional_barq_arorlik	72.65	10.927	20
Ichki_Nazorat	14.75	3.932	20
Yosh	20.20	1.936	20

Correlations

Control Variables			Emotsional_barq_arorlik	Ichki_Nazorat
Yosh	Emotsional_barq_arorlik	Correlation	1.000	.905
		Significance (2-tailed)		.000
		df	0	17
Ichki_Nazorat		Correlation	.905	1.000
		Significance (2-tailed)	.000	
		df	17	0

## 26.6-rasm. Qismiy korrelyatsiya natijasi.

Ko'rib turganimizdek, qismiy korrelyatsiya natijasi statistik ahamiyatga yaqin bo'ldi. Demak uchinchi o'zgaruvchi ikkala o'zgaruvchi aloqadorligiga ta'siri mayjud.

## 26.7. Bog'liqlikning ahamiyatlilik darajasi.


Korrelyatsiya bog'liqligini namoyon etgan jadvallar ostida \*\* belgisi korrelyatsiya 0,01 darajada mavjudligini anglatadi. Bitta yulduzcha esa, \* korrelyatsiya 0,01 dan 0,05 ahamiyatli ekanligini anglatadi.

Bu yerda korrelyatsiya qiymatini uning (Pearson Correlation qatoridagi qiymatni) ahamiyati (Sig.2-tailed qatoridagi qiymati)) belgilaydi. Ikki o'zgaruvchi o'rtaсидаги коррелятсиya коэффиценти  $r=0,906$ ; коррелятсиyaning statistik ahamiyati  $r=0,000$  ni ko'rsatdi.

Agar ahamiyatlilik darajasi 0,05 ( $r \leq 0,05$ ) ni ko'rsatsa, unda 5% dan oshmaydigan tasodifiy ehtimoliy korrelyatsiyani bildiradi. Odatda bu korrelyatsiyaning statistik ishonchliliginini bildiradi. Aks holda, ( $r > 0,05$ ) bog'liqlik statistik ahamiyatsiz sanaladi.

Pirson testi ahamiyatlilikning ikki xil: 1 va 2 yoqlama (2-tailed) usulini taqdim etadi. Odatda ikki yoqlama test tanlanadi. Agar tadqiqotchi oldindan korrelyatsiyaning ijobiy yoki mansiy yo'nalishini bilsa va uni faqat bitta yo'nalish natijasi qiziqtirsa, u holda 1 yoqlama usul tanlanadi.

Ahamiyatlilik darajasini sukut bo'yicha belgilash mumkin.



## 26.7-rasm. Korrelyatsiya oynasida ahamiyatlilik belgisini qo'yish.

"Flag significance correlations" katagini belgilash orqali jadval ostida chiqariladigan \* belgisini chiqarilishini ta'minlash mumkin.

### Nazorat savollari:

1. Pirson korrelyatsiya koefitsenti qanday o'zgaruvchilarda qo'llanalidi?
2. Tarqalma grafigi nima uchun qo'llaniladi?
3. Spirman ranglar korrelyatsiya koefitsentida Pirson formulasini qanday asosda qo'llaniladi?
4. Kandell korrelyatsiya koefitsenti qaysi holatda qo'llaniladi?
5. Manfiy bog'lilik deganda qayday bog'lilik tushuniladi?
6. Chiziqli bo'limgan korrelyatsiya qanday ko'rinishga ega?
7. Qismiy korrelyatsiya qachon qo'llaniladi?

## **27-mavzu: MA'LUMOTLAR VA TAHLIL NATIJALARINI GRAFIK HAMDA JADVAL USULIDA TAQDIM ETISH.**

**Tayanch tushunchalar:** *aylantirish maydonchasi, axborotning asosiy elementlari, mobil jadvallar, mobil jadvallarning qoliplari, kategorial o'zgaruvchilar, ustun o'zgaruvchilari, qator o'zgaruvchilari, jadval tanasi, maket paneli, yakuniy statistika.*

### **27.1. Mobil jadvallar tushunchasi.**

SPSS dasturida jadvallar bilan ishslash, ularning matnini tahrir qilish, natijalarni diagrammalarda taqdim etish va ularni tahrirlash kabi bir qancha imkoniyatlar mavjud. Biz 23 mavzuda birlashtirilgan jadvallar haqida ma'lumot bergan edik. Mazkur mavzuda mobil jadvallar mohiyatini o'rganamiz va uning imkoniyatlarini baholaymiz. SPSS dasturida mobil jadvallar Custom tables modulida bajariladi. Mobil jadvallar deb interaktiv rejimda, ustunlari va qatorlari ko'paytirib, tahrir qilinib qo'shib boruvchi jadvallarga aytildi.

Mobil jadvallarni boshqarishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- ❖ qator va ustunlarni o'zgartirish;
- ❖ qator va ustunlarning joyini almashtirish;
- ❖ ko'po'lchovli qavatlarni yaratish;
- ❖ qator va ustunlarni guruhlashtirish va guruhdan chiqarish;
- ❖ ustun va qatorlarning belgilarini o'zgartirish.

Mobil jadvallar uchta qismdan iborat bo'ladi. Qatorlar, ustunlar va qavatlar. Qatorlarda o'zgaruvchilar joylashadi.


### **27.2. Mobil jadvallarning qoliplari.**

Kategorial o'zgaruvchilar uchun Sozlanadigan jadvallar oynasidan jadvalning tashqi ko'rinishi, qiymatlarning buyurilgan belgisiga bog'liq. Sozlovchi dialog oynasida ko'rinvuchchi jadval maketing yoki mobil jadvallar qoliplarining panelidagi o'zgaruvchi bu – qiymatning belgisiadir. Agar o'zgaruvchida buyurilgan qiymat belgisi bo'lmasa, unda jadval maketingda faqat ikki mavhum toifalar ko'rindi. Yaratilayotgan jadvalda toifalar miqdori, ma'lumotlardagi unikal qiymatlarni miqdori bilan aniqlanadi. Jadval maketi toifalar kamida ikkita bo'lishini taxmin qiladi. Jadval qurishning ba'zi imkoniyatlari qiymatlari belgilanmagan kategorial o'zgaruvchilar uchun mo'ljallanmagan.

Maket panelidagi jadvalda o'zgaruvchilarning qiymatlari ko'rinishi maydi. Qiymatlar o'rnida «nnnn» belgilari bo'ladi.

Jadvalning har bil o'lchovi bitta shkalada yoki shkalalar kombinatsiyasida beriladi. Jadvalning chap qismidagi o'zgaruvchilar – qatorlar o'zgaruvchisi deb aytildi. Ular jadvalning satrini hosil qiladi. Jadvalning yuqori qismidagi o'zgaruvchilar ustun o'zgaruvchilari bhdeb yuritiladi. Ular jadval ustunini tashkil qiladi. Jadval tana qismi yacheikalardan tashkil topgan bo'ladi. Mazkur yacheikalarda, jadvalda taqdim etilgan axborotning asosiy elementlari – chastotalar, miqdorlar, o'rtachalar, foizlar va h.k. joylashgan bo'ladi. yacheyka qator va ustunlarning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'ladi.

Jadval mакетини (qолипини) очиш учун “Analyse” → “Custom tables” → “Multiple Response Sets” ... амали бajariladi.




27.1-rasm. Mobil jadval oynasini ochish.



27.2-rasm. Mobil jadvallarni sozlash dialog oynasi.

Oynaning chap tomonidagi vertikal qismda “Rows” (qator) va yuqori gorizontal qismida “Columns” (ustunlar) joylashgan. jadval yaratish uchun, chap tomonda joylashgan istalgan o‘zgaruvchilarni jadvalning istalgan tomoniga tortib joylashtiriladi. Chap oynaning ostidagi “Categories” ro‘yxatida kategorial o‘zgaruvchilar qiymatlar belgisi ko‘rsatiladi. Yosh o‘zgaruvchisini chap oynadan o‘ng oynadagi jadval maketiga joylashtiramiz.



### 27.3-rasm. Qator o‘zgaruvchilarini tanlash.

Maket panelida jadvalning qatorida joylashishi kerak bo‘lgan o‘zgaruvchini joylashtirdik. Maket paneli jadval ko‘rinishi to‘g‘risida tasavvur beradi.

O‘zgaruvchilar ro‘yhatidan jins o‘zgaruvchilarini maket paneliga joylashtiramiz.




### 27.4-rasm. Ustun o‘zgaruvchilarini tanlash.

Jins o‘zgaruvchilarini chap tomonidagi ro‘yxatdan o‘ng tomon ustuniga o’tkazishimish bilan mobil jadvalning ustunida jins ustunlari

paydo bo'ldi. Maket panelida paydo bo'lgan ikki yoqlama birlash-tirilgan jadvalni shakllantirishda davom etamiz.


### 27.3. Aylantirish maydonchalarini yordamida o'zgaruvchilar va statistik ko'rsatgichlarning izchilligini o'zgartirish.

Maket panelini boshqacha qilib, aylantirish maydonchasi deb atash mumkin. Mazkur maydonda yaratilayotgan jadvalning nafaqat ko'rinishini shakllantirish balki, o'zgaruvchilarning statistik parametrlarini buyurish mumkin. Jadvaldagagi yosh ro'yxati ustiga sichqonchaning o'ng tomonini bosishimiz bilan quyida "Define" bo'limidan Summary Statistics (Yakuniy statistika) katagi faollashadi. Mazkur kataknini bosish orqali o'zgaruvchilarning statistik ko'rsatkichlarini buyurish imkoniga ega bo'lamiz.



27.5-rasm. Kategorial o'zgaruvchi uchun yakuniy statistika dialog oynasi.


"Statistics" bo'limidan "Rows N%" tanlanadi. Buyurilgan amalni saqlash va yana aylantirish maydoniga qaytish uchun "Apply to Selection" tugmasi bosiladi. Maket paneli jadvalida qator bo'yicha yangi ustunlar paydo bo'lganini ko'ramiz.



27.6-rasm. Satr bo'yicha chastotalar va foizlarning yangi ustunlarining qo'shilishi.

Dasturda yakuniy statistikta sukut bo'yicha hisoblanmaydi. Amma statistik ko'rsatkichlarni buyurish qiyin emas.

Yosh o'zgaruvchisi ustiga sichqonchaning o'ng tomoni bilan bosiladi va paydo bo'ladigan kontekstli menyudan "Categories and Totals" (Kategoriya va umumiy) yozuvi tanlanadi. Mazkur menu orqali



**27.7-rasm. Kategoriya va yakuniy statistikani belgilash.**



**27.8-rasm. Kategoriya va umumiy dialog oynasi.**

Mazkur dialog oynasi orqali yosh kategoriyasiga qo'shimcha belgi kiritiladi. Buning uchun "Subtotal and Computed Categories" bo'limidan "Add Subtotal" katagi tanlanadi. Buyurilgan qiymat jadvalning yangi paydo bo'lган yacheysasiga joylashadi. Barcha amallar bajarilgach, Maket panelidan "OK" tugmasi bosiladi. Natijalar yangi faylda jadval ko'rinishida chiqariladi.

## ► Custom Tables


[DataSet1] /Users/GULI/Downloads/cross.sav

		Jinsi			
		yigitlar		qizilar	
		Count	Row N %	Count	Row N %
Yoshi	19-24 yosh	3	37.5%	5	62.5%
	25-28 yosh	7	77.8%	2	22.2%
	29 yoshdan kattalar	2	28.6%	5	71.4%

### 27.9-rasm. Mobil jadvallarni chiqarish.


Oddiy birlashtirilgan jadvallarda ikki kategorial o'zgaruvchilar uchun jadval yacheykalarida chastotalar yoki protsentlar chiqarilishi mumkin. Ammo shuningdek, jadvallarda miqdoriy o'zgaruvchilar uchun jami umumiy qiymatlar chiqarilishi mumkin.

Sozlanadigan jadvallar dialog oynasini ochish uchun "Analyse" → "Custom tables"... orqali bajariladi. Oldin berilgan o'zgaruvchilarni o'chirish uchun Reset tugmasi bosiladi. Sichqonchaning chap tugmasini bosib, chap oynadagi miqdoriy o'zgaruvchilarni o'ng oynaga olib o'tamiz va "Rows" katagiga joylashtiramiz. Miqdoriy o'zgaruvchilar tanlanishiga sabab, mazkur o'zgaruvchilar bilan statistik amallarni bajarish mumkin.



### 27.10-rasm. Baholanadigan qatorga miqdoriy o'zgaruvchilarni o'tkazish.

Endi jadvallarda chastotalar o'rniغا о'rtacha qiymatlarni kiritishni buyuramiz. Buning uchun miqdoriy o'zgaruvchi ustida ikki marta sichqoncha tugmasini bosamiz. Monitorda paydo bo'lgan kontekstli menyudan Summary Statistics ni tanlaymiz. "Summary Statistics" for total and subtotals bo'limidan



### 27.11-rasm. Umumiy statistika dialog oynasidan medianani belgilash.

Medianasi belgilangandan so'ng, "Apply to selection" tugmasi bosiladi. Shundan so'ng, natijalar jadvalida biz uchun kerakli qiymatlar chiqariladi.

#### Custom Tables

[DataSet1] /Users/GULI/Downloads/cross.sav


		Bilingvallik	
		monolingval	bilingval
		Count	Count
Yoshi	19-24 yosh	7	1
	25-28 yosh	5	4
	29 yoshidan kattalar	3	4

### 27.12-rasm. Natijalar jadvali.

Jadvalda monolingval va bilingval respondentlarning yosh toifalari bo'yicha chastotalari joylashtirildi. Mazkur jadvalni kengaytirish va statistik ko'rsatkichlarini buyurish mumkin.


## 27.4. Satrlar va ustunlarning o'rnlarni almashtirish.

Mobil jadvallarda satr va ustunlarning o'rnnini almashtirish uchun sozlanadigan dialog oynasida amalga oshiriladi. Buning uchun aylantirish maydonchasida sichqonchani keltirib, uni chap tugmasini bosamiz. Monitorda paydo bo'lgan kontekstli menyuda Swap row and column variable tugmasi bosiladi.



27.13-rasm. Satr va ustunlarning joyini o'zgartirish.

Kerakli buyruq berilgach, aylantirish maydonchasida quyidagi o'zgarish sodir bo'ladi.



27.14-rasm. Satr va qator joyining o'zgarishi.

Maket panelida buyurilgan o'zgarishni natijalar jadvalida ko'rish uchun "OK" tugmasi bosiladi.

BILINGVALLIK BY YOSH105/07/2019

		Yoshi		
		19-24 yosh	25-28 yosh	29 yoshдан канталар
Bilingvallik monolingval bilingval	Count Count	7 1	5 4	3 4

### 27.15-rasm. Satr va qatorlari o'zgargan jadval ko'rinishi.

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, jadvalning satr va qatorlari joyi o'zgargani bilan, uning tarkibidagi natijalar o'zgarishsiz qoldi. Ya'ni 19-24 yoshli monolingval respondentlarning soni 7 nafarni tashkil etadi va h.k.

### 27.5. Ustunlarning kengligini o'zgartirish. Mobil jadvallarda matnni tahrir qilish va shaklga solish.

Tadqiqotchi mobil jadvallarning ustuni juda kengligini bilib qolishi va bu holatni o'zgartirishi mumkin. Bu masalaning echimlaridan biri – bu o'zgaruvchilar qator va ustunlarining joyini o'zgartirishdir. Masa-laning boshqa echimi esa, ustunlarni torroq qilishdir. Chunki ularning ko'rinishi keragidan ortiq keng ko'rinishi mumkin.

"Analyse" → "Custom tables" → "Custom tables"..., orqali ochiladigan sozlanish dialog oynasiga yuzlanamiz.

- Sozlovchi dialog oynasining yuqoridagi qismidan "Options" tugmasi bosiladi.

- "Width for data Columns" bo'limi orqali,
- "Custom" tugmasi bosiladi.

"Width for data Columns" bo'limi orqali "Maximum" va "Minimum" kataklariga kerakli qiymatlar belgilanadi va "OK" tugmasi bosiladi. Natijada chiqariladigan jadvallarda ustunlar kengligi ixcham ko'rinishga ega bo'ladi.


Sozlovchi jadval orqali jalval matnni tahrir qilish va shaklini belgilash mumkin. Quyidagi vaziyatlarda tahrir qilinadi.

- ❖ Yakuniy statistikaning shakli va belgilari;
- ❖ Ustunlarning kengligining maksimal va minimal kengligini belgilash;
- ❖ Bo'sh yacheykada belgilanadigan matn va qiymatlar.

Agar jadvallarda qiymatlar turli o'nliliklarda berilgan bolsa, sozlanadigan dialog oynasi orqali "Summary Statistics" oynasiga o'tiladi. Format katagini "Auto" katagi aktivlashtiriladi va "Decimals" katagini ikkilasiga ham 1 qiymati kiritiladi.



27.16-rasm. Mobil qiymati natijalarini tahrirlash uchun formatni belgilash.




27.17-rasm. Mobil jadvallardagi qiymatlarni bir xil ko'rnishiga keltirish uchun o'nliliklarni belgilash.

"Apply to Selection" tugmasi bosiladi va mакет paneliga qaytib o'tilgach, "OK" tugmasi bosiladi.


Mobil jadvallar orqali har bir yakuniy statistika uchun **boshqarish** boshqarish mumkin.

- ❖ Yana qaytadan "Analyse" → "Custom Tables" → "Custom Tables" orqali sozlovchi dialog oynasi ochiladi. "Reset" tugmasini bosish bilan aylantirish mакetidagi jadval mакeti o'chiriladi.
- ❖ Chap tomondagi o'zgaruvchilar ro'yxatidan Yosh o'zgaruvchisi o'ng tomonga, mакет panelining qator qismiga o'tkaziladi.
- ❖ Chap tomondagi ichki nazorat o'zgaruvchisi o'ng tomondagi ustun qismiga o'tkaziladi.

- ❖ Yosh o'zgaruvchisi ustiga sichqoncha tugmasi bosilib, kontekstli menyudan yakuniy statistika tanlanadi.
- ❖ "Statistika" bo'limidan "Column %" tanlanib, "Display" ro'yxatiga ishora orqali o'tkaziladi.
- ❖ "Display" ro'yxatining "Label" yacheykasidagi "Column" yozuviga ikki marta sichqoncha tugmasi bilan bosiladi va faollashgan kursor yordamida mazkur yozuv o'chirilib, % belgisi qoldiriladi.
- ❖ "Count" yozuvlari ham o'chirilib, N harfi kiritiladi.
- ❖ Format katagidagi nnnn bosiladi va ochiladigan oynadan qiymatning kerakli turi belgilanadi.
- ❖ So'ngra, "Apply to Selection" tugmasi bosiladi va maket paneliga qaytiladi.



27.18-rasm. Jadval matnini tahrir qilish.



27.19-rasm. Jadval maketida matnning yangi tahriri.

Ustunlarda ilgarigi "Count" yozuvini qo'shish mumkin. Ko'rgazmali ishorasini qo'yish orqali, yacheykalarda tajixashchi yozuvini kiritishi mumkinligini ifodalaslik.


## 27.6. Mobil jadvallarida kategoriyalarning tartib o'rnatishini o'zgartirish.

Chiqarish formatlarini quyidagicha shartlari mumkin:

- ❖ nnnn. Oddiy sanoq qiymatlari;
- ❖ nnnn% qiymatlardan keyin qo'yiladigan foiz belgisi;
- ❖ Avto. O'nlik belgilarni qamragan o'zgartiruvchi formatidan beriladigan format.
- ❖ N=nnnn. N= qiymat oldidan N ni chiqarish. Mazkur format chastotalar uchun, valid kuzatuvlar va kuzatuvlarning umumiy soni uchun yakuniy statistika belgilari chiqarilmaganda muhim.
  - ❖ (nnnn). Barcha qiymatlар qavs ichiga olinadi.
  - ❖ (nnnn)(manf. qiymatlari). Barcha qiymatlар qavs ichiga olinadi.
  - ❖ (nnnn%). Barcha qiymatlар qavs ichiga olinadi va qiymatdan so'ng foiz qo'yiladi.
  - ❖ n.nnn.n. qiymatlarda vergul ishlataladi.
  - ❖ n.nnn,n. qiymatlarda nuqta ishlataladi.
  - ❖ \$n.nnn.n. qiymatlар oldidan dollar ishorasi qo'yiladi va butun va kasr sonlarda vergul va nuqta qo'yiladi.
- ❖ CCA, CCB, CCC, CCD, CCE. Foydalanuvchining pul formatlari. Ro'yxatda, har bir 5 variant uchun o'matilgan joriy format aks etadi. Bu formatlar "Edit" → "Currency" → "Option" → "Currency" orqali belgilanadi.

Mobil jadvallarda kategoriyalarning tartib o'rnatilarini o'zgartirish uchun,

- ro'yxatdag'i kategoriyanı tanlash va belgilash,
- kategoriyanı ro'yxat bo'yicha pastga yoki yuqoriga harakatlantirish uchun ishorali tugmani qo'llash, yoki
- Kategoriyaning Values ustunini belgilash va uni qo'lda olib o'tish mumkin.




## 27.20-rasm. Kategoriyalarning tartib o'rinnlarini o'zgartirish.

Mazkur oyna, sozlovchi dialog oynasining "Categories" and "Totals" bo'limiga o'tish orqali ochiladi.

Rasmdan ko'rinish turganidek, kategoriyaning 1 va 3 tartib o'rinnari yuqorida aytilgan usullardan biri orqali o'zgartirilgan.

**Diagrammalar tuzish jarayoni.** Diagrammalarni tahrir etish. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarni jadvallardan tashqari, ularni diagrammalarda ko'rsatish mumkin. SPSS dasturida diagrammalar bir necha usullarda tuziladi. Oldingi mavzularda diagrammalarni tavsiflovchi statistika tarkibida tuzishni ko'rib chиqqan edik. Mazkur mavzuda diagrammani o'zgaruvchilarning xususiyatini namoyon qilish uchun qo'llaymiz. Diagrammani "Graphs" → "Legacy Dialog" → "Pie Chart"... yordamida quramiz.




## 27.21-rasm. Diagramma qurish.




**27.22-rasm.** O'zgaruvchilarni diagramma uchun belgilash.

“Define to slices” by ro‘yxatiga kategorial o‘zgaruvchi, ya’ni yosh o‘zgaruvchisi kiritiladi. “OK” tugmasi bosiladi.




**27.23-rasm.** Diagramma.

Tuzilgan diagrammaning ko‘rinishini boyitish va qo’shimcha ma'lumotlar kiritish uchun diagramma ustiga sichqoneha o’ng tugmasi bilan ikki marta bosiladi. Chiqqan kontekstli panelda “Edit Content” (tahrir) → “in Separate Windows” (Alohiba oynada) belgilanadi.



**27.24-rasm.** Diagrammani tahrirlash uchun kerakli amalni bajarish.

Tahrir operatsiyasini chaqirishimiz bilan, monitor oynasida Diagramma muhariri **Chart Editor** dialog oynasi paydo bo'ldi.



27.25-rasm. Diagrammani tahrirlash dialog oynasi.


Diagrammani tahrirlash oynasi orqali diagramma nomlanishini, shaklini, harflarini belgilash mumkin. “**Properties**” deb nomlangan dialog oynasida:

“**Chart size**” tugmasini bosib, paydo bo’ladigan dialog oynasidan diagramma xajmini belgilash mumkin.

“**Fill&Border**” tugmasi orqali paydo bo’ladigan oynada diagramma ranglari va fonini belgilash mumkin.

“**Categories**” orqali katogoriyalı o’zgaruvchilarning xususiyatlarini buyurish mumkin.

“**Variables**” orqali o’zgaruvchilar xususiyatini belgilanadi.



27.26-rasm. Diagramma xususiyatlarini belgilash.

Diagrammaning keyingi xususiyatlarini belgilash funksiyalari tugmasini bosish orqali ekranda paydo bo'la boshlaydi.

"Text Layout" katagidan diagramma nomianishining gorizontal yoki vertikal holati, maydonning qaysi qismida joylashishi buyuriladi. "Text Style" katagi orqali diagramma stili, yozuvlari beriladi. "Depth and Angle" katagida diagrammaning ichkarisi burchaitari, sovalar tanlanadi. Diagrammaning barcha xususiyatlari belgilanganidan sovalar "Apply" tugmasi bosilib, diagramma tahriri oynasiga qo'shiladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Mobil jadval nima?
2. Maket paneli deganda nimani tushunasiz?
3. Aylantirish maydonchasida qator va ustunlar qanday belgianadi?
4. Diagrammaning xususiyatlarini belgilash uchun Diagramma tahlili oynasini qanday ochamiz?
5. Mobil jadvallarda kategoriya tartib raqami qanday usullar bilan o'zgartiriladi?
6. Mobil jadvallarda satr va ustunlar joyi qanday o'zgartiriladi?
7. Mobil jadvallarida matnni tahrir qilish uchun nima qilish kerak?

Mobil jadvallarda qanday statistikalar bajariladi. Tengri mulohazaga "Ha" "Yo'q" so'zlarini qo'ying.

Statistika bo'limidan Column % tanlanib, Display ro'yxatiga ishora orqali o'tkaziladi.

Display ro'yxatining Label yacheysidagi Column yozuviga ikki marta sichqoncha tugmasi bilan bosiladi va faollashgan cursor yordamida mazkur yozuv o'chirilib, @ belgisi qoldiriladi.

Count yozuvlari ham o'chirilib, F harfi kiritiladi.

Format katagidagi nnnn bosiladi va o'chiladi qo'shildigan oynadan qiyamatning kerakli turi belgilanadi

## GLOSSARIY

### tayanch tushunchalar va terminlar.

**Absolyut qiyamat** - Mutlaq qiyamat yoki x sonining moduli (matematikada) manfiy bo'limgan son bo'lib, uning ta'rifi x sonining turiga bog'liq.

**Aksioma** - (qad. yunon. Ta'kid, holat) biron bir nazariyaning boshlang'ich holati bo'lib, uning qabul qilinishida isbot talab qilinmaydi.

**Asimetriya** - (qadimgi yunoncha aymetria "Disproportion" metrič "Men o'lchayman") - simmetriyaning yo'qligi yoki buzilishi. Ko'pincha bu atama vizual ob'ektlarga nisbatan va tasviriy san'atda qo'llaniladi. Badiiy ijodda assimetriya yoki ko'pincha shakllanishning yoki kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biri bo'lishi mumkin. San'atdagi eng yaqin tushunchalardan biri bu aritmiya.

**Asimptotik ahamiyatlilik** (sig) - bu tasodifiy bog'liqlik ehtimoli. Ushbu qiyamat qanchalik kichik bo'lsa, munosabatlarning statistik ahamiyati (ishonchliligi) shuncha yuqori bo'ladi. Chiziqli korrelation munosabatlari, bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini belgilaydigan statistik mezondir.

**Bosh ko'plik** - barcha ob'ektlarning (birliklarning) umumiyligi, ular haqida muayyan muammoni o'rganayotganda umumiy xulosha qilish. **Bosh ko'plik** tadqiqotchini qiziqtiradigan fazilatlar, xususiyatlarga ega bo'lgan barcha ob'ektlardan iborat. Ba'zida umumiy aholi ma'lum bir mintaqaning butun kattalar aholisidir (masalan, potentsial saylov-chilarning nomzodga munosabati o'rganilganda), ko'pincha tadqiqot ob'ektlarini belgilaydigan bir necha mezon belgilanadi.

**Chastota** - bu fizik kattalik, davriy jarayonning xarakteristikasi, vaqt birligida takrorlanishlar yoki hodisalar (jarayonlar) ning sodir bo'lishiga teng. Bu takrorlanishlar soni yoki hodisalar (jarayonlar) sodir bo'lishining vaqt oraliq'iga nisbati sifatida hisoblanadi. Formulalardagi standart yozuv lotin alifbosidagi "efi" f, F harfi yoki yunon alifbosidagi "nu" (v) harfi bilan belgilanadi.

**Determinatsiya kooeffitsienti** ( $R^2 = R$  kvadrat) bu bog'liq o'zgaruvchi dispersiyasi ulushi, o'lechanayotgan aloqadorlik modeli bilan izohlangan dispersiyaning nisbati, ya'ni izohloevchi o'zgaruvchilar. Aniq-rog'i, bu tushunarsiz dispersiyaning (modelning tasodifiy xatosining dispersiyasi yoki bog'liq o'zgaruvchining omillar bo'yicha

shartli dispersiyasi) bog'liq o'zgaruvchining dispersiyasidagi nisbati bitta minus. U bitta tasodify o'zgaruvchining boshqalarga bog'liqligining universal o'lchovi sifatida qaraladi. Chiziqli aliqadorlik imunosabatlarning maxsus holatida,  $R^2$  - bu bog'liq o'zgartuvchi va argument o'zgaruvchilar o'rtaсидаги ко'п коррелятсиya кoeffitsienti deb ataladigan kvadrat. Xususan, juftlashgan chiziqli regressiya modeli uchun aniqlash koeffitsienti odatdagi korrelyatsiya koeffitsientining y va x orasidagi kvadratiga teng.

**Diskret qiymatlar** - Agar qiymatlar to'plami cheklangan yoki hisoblanadigan bo'lsa, ma'lumotlar diskret deb ataladi. Masalan, xususiyatlar qiymatlari diskret bo'lib, ularning umumiyligi soni cheklangan yoki cheksizdir, lekin ularni birdan cheksizgacha bo'lgan tabiiy sonlar yordamida hisoblash mumkin. Hech qanday arifmetik amallarni diskret ma'lumotlar bilan bajarish mumkin emas yoki ularning ma'nosi yo'q. Diskret ma'lumotlar bu belgi va mantiqiy tipdag'i barcha raqamlari ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

**Diskretlik** - (lotincha discretus - bo'lingan, uzilib qolgan) - uzlusizlikka, uzilishga qarshi xususiyat. Diskret so'zining sinonimlari: kasr, yakuniy, alohida, vaqtı-vaqtı bilan, alohida va boshqalar. Diskretlik materiyaning universal xususiyatidir. Shunday qilib, diskret - bu bir necha xil barqaror holatlar o'rtaсидада o'zgarib turadigan jarayon, masalan, mexanik soatlarda qo'lni harakatlantirish jarayoni. Diskret tizimlar (ob'ektlar) aniq ajratilgan (mantiqiy yoki jismoniy) elementlardan iborat deb hisoblanadi; diskret tizimning uni ko'rib chiqish darajasidagi elementlari ba'zida diskret deb ham ataladi.

**Dixotomiya** - (yunoncha Ditosomía: δίχοι, "ikkitadan" + τομή, "bo'linish") - ikkilamchi, ketma-ket ikki qismga bo'linish, bir-biriga qaraganda ko'proq ichki bog'langan. Bo'linadigan tushunchaning o'zaro bir-birini istisno qiladigan ikkita tushunchaga to'liq bo'linishidan iborat bo'lgan sinfni mantiqiy ravishda subguruhlarga bo'lish usuli. Matematika, falsafa, mantiq va tilshunoslikdagi ikkilamchi bo'linish bitta tushuncha yoki atamaning kichik bo'limlarini shakllantirish usuli bo'lib, elementlarning tasnifini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Eklektika** - (yunon: eklekticos), falsafiy ma'nosi turli xil qarashlarning, printsiplarning, nazariyalarning mexanik ravishda umumlashmasidir.

**Ekstsess** (yunon. excessus - chiqish), 1) biror narsaning haddan tashqari namoyon bo'lishi; ortiqcha murosasizlik 2) biron bir narsaning normal yo'nalishining buzilishi masalan, jamoat tartibi va h.k.

**Empirik ma'lumotlar** - bu mulohazaning to'g'ri yoki yolg'on ekanligi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar. Empiriklik nuqtai nazaridan empirik ma'lumotlarga asoslangan haqiqiy tushuncha mavjud bo'lgan taqdirdagina biron bir narsa to'g'risida g'oya e'lon qilish mumkin.

**Empirik ma'lumotlar** (Empirik qad. yunon. Εμπειρία [empeiría] "tajriba") - sezgi organlari orqali, xususan, kuzatish yoki tajriba orqali olingan ma'lumotlar. Kantdan keyingi falsafada shu tarzda olingan bilimlar odatda "aposterior" deb ataladi. Bu avvalgi tajriba bilan taqqoslanadi, unga faqat mantiqiy fikrlash orqali erishish mumkin.

**Faraz** - (qadimgi yunoncha Τινπόθεσ - taxmin), Faraz (ilm-fan) - etarli dalillarga ega bo'imagan taxmin, ammo u ehtimoldan yiroq emas va rad etilmaydi. Faraz (qonun) - bu normaning kuchga kirgan hayotiy holatlarini ko'rsatadigan huquqiy normaning tarkibiy elementi. Faraz (matematika) - isbotlanmagan yoki inkor etilmagan matematik taxmin. Faraz (psixologiya) - bu sub'ektiv ravishda yetishmayotgan ma'lumotlarning taxminiy qo'shilishi orqali muammoni yechimini izlashini boshqaruvchi fikrlash jarayonining tarkibiy qismidir.

**Ierarxiya** - (qad.yunon. ρατζίχια so'zma-so'z "iyerarxiya", eng pastdan, boshqaruv, davlat.

**Indeks** - (yunon. index - ro'yxat, registr, indeks, shuningdek ko'rsatkich barmog'i) - elementning yig'indisidagi o'rmini ko'rsatuvchi raqam, harflar yoki boshqa kombinatsiya, nominal shkala yoki ma'lum bir tizimning holatini tavsiflovchi, masalan, faoliyat, hosildorlik, rivojlanish, o'zgarishlarning ko'rsatkichini bildiradi.

**Induktiv statistika** - inglizcha. statistika, induktiv; matematik nazariyasiga asoslangan metodika, ehtimollik va bir xil bosh koplikdan olingan tanlov asosida bosh koplik haqida umumiyl o'chovlarni bilish uchun ishlatalidi.

**Intensiv va ekstensiv miqdorlar** - bu ikki fizik kattalikning qarama-qarshi turidir. Miqdor intensiv deb ataladi, agar uning qiymati tizimning o'chamiga bog'liq bo'lmasa - masalan, harorat yoki zichlik. Aksincha, energiya va elektr zaryadi kabi ekstremal kattaliklar odatda qo'shilish xususiyatiga ega (massa yoki hajm bo'yicha), ya'ni butun ob'ektga mos keladigan miqdorning qiymati uning qismlariga mos

keladigan miqdorlar yig'indisiga tengdir. Intensiv kattalikning ikkita qiymati o'rtasida raqamli munosabatlarni o'rnatish ma'nosizdir. Intensiv qiymatni o'lchashni faqat bir tomondan intensiv qiymat o'zgarishi va boshqa tomondan ekstensiv qiymat o'zgarishi o'rtasidagi ob'ektiv bog'liqlikdan foydalanishda ko'rib chiqish mumkin.

**Inversiya** - Inkor (inversiya, lotin. inversio - to'ntarish, mantiqiy "emas") mantiq bo'yicha hukmlar bo'yicha bir xil operatsiya bo'lib, uning natijasi hukmga (ma'lum ma'noda) asliga qarama-qarshi bo'lib chiqadi. U hukmdan oldin yoki yuqoridagi satr  $\neg$  belgisi bilan belgilanadi.

**Kazual aloqadorlik** – sababiy oqibatli bo'liqlik.

**Koeffitsent** - (lotincha co (cum) "birgalikda" + "ishlab chiqaruvchi" efficients) bu so'zma-so'z ifodadagi sonli omilni, noma'lumning u yoki bu darajasi uchun omilni yoki o'zgaruvchiga doimiy omilni bildiruvchi atama.

**Kovariatsiya** - (korrelyatsion moment, kovariatsiya momenti) - ehtiimollar nazariyasida va matematik statistikada ikkita tasodifiy o'zgaruvchining chiziqli bog'liqligi o'lchovi.

**Kumulyatsiya** (kech lotin cumulatio - birikish, lotincha cumulo - to'plash, mustahkamlash) – sonlarning yig'ilib borishi.

**Kvantifikatsiya** - (ingl: quantification), sifat o'zgarishlarini miqdor orqali o'lchovni amalga oshirish ma'nosini bildiradi.

**Korrelyatsiya** - (lot: correlation) bog'liqlik, aloqadorlik yoki korrelyatsion bog'liqlik - ikki yoki undan ortiq tasodifiy o'zgaruvchilarning (yoki ba'zi bir qabul qilinadigan aniqlik darajasi bilan shunday deb hisoblanishi mumkin bo'lgan miqdorlarning) statistik aloqasi. Bunday holda, ushbu miqdorlarning bir yoki bir nechtasining o'zgarishi boshqa yoki boshqa kattaliklarning mutazam o'zgarishi bilan birga keladi.

**Ma'lumotlarni ranjirlash** - elementlat tartibini ularning qiymati bo'yicha belgilaydi. Ma'lumotlar jadvali uchun o'sish va tushish darajasi mavjud. Ranjirlangan qatorlar, ustunlar va butun jadval bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

**Mediana** - Matematik statistikada (unon. mediāna - o'rta) bu tanlanmani tavsiflovchi raqam (masalan, sonlar to'plami). Agar tanlanmadagi barcha elementlar har xil bo'lsa, demak, medianing qiymati, undagi sonlarning yarmi katta, qolgan yarmi kichik bo'lishini bildiradi.

**Model** - (fr. Modèle lot. Modulus "o'lchov, analog, namuna") – boshqa tizim haqida ma'lumot olish vositasi bo'lib xizmat qiladigan tizim. Ba'zi bir haqiqiy jarayon, qurilma yoki kontseptsiyaning namoyishi. Model - bu haqiqatning ba'zi jihatlarini aks ettirish uchun ishlab chiqilgan va o'rganilayotgan savollarga javob olishga imkon beradigan (masalan, matematik, fizik, ramziy, grafik yoki tavsiflovchi) biron bir shaklda mavhum tasvir.

**Nazorat guruhi** - bu ta'sirga barqaror, eksperimentda o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lum bir tajribada (psixologik eksperimentda yoki klinik tadqiqotlarda) ishtirok etadigan odamlar guruhi. Ushbu ta'sirga uchragan eksperimentning qolgan ishtirokchilari eksperimental guruh deb ataladi. Nazorat guruhining mavjudligi eksperiment natijalarini tahlil qilishda eksperimental va nazorat guruhlarini taqqoslash va shu bilan tekshirilayotgan omil ta'sirini tajribaning barcha ishtirokchilari ta'sir qiladigan boshqa ta'sirlar ta'siridan ajratib olish imkonini beradi. Shuning uchun, nazorat guruhni har jihatdan eksperimental guruhga o'xshash bo'lishi muhimdir. Xususan, shu maqsadda eksperiment ishtirokchilari eksperimental va nazorat guruhlariga tasodifiy biriktirilgan deb taxmin qiladigan ikki tomonlama tasodifiy usulidan foydalilanildi, shuning uchun tajriba vaqtida na ishtirokchilar va na tadqiqotchingin o'zi kim qaysi guruhga mansubligini bilmaydi.

**Nolinechi faraz** - bu ikkita kuzatilgan hodisa, hodisalar o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q degan odatiy taxmin. Shunday qilib, null gipoteza aksi isbotlanmaguncha haqiqiy hisoblanadi. Nol farazni rad etish, ya'ni ikki hodisa o'rtasida bog'liqlik bor degan xulosaga kelish zamonaviy fanning asosiy vazifasidir. Statistika fan sifatida nol farazni rad etishning aniq shartlarini taqdim etadi. Ko'pincha, o'rganilgan o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik yoki korrelyatsiya yo'qligi, ikki va yoki undan ortiq namunadagi taqsimotlarda (taqsimot parametrlari) farqlar (bir xillik) yo'qligi haqidagi taxminlar sifatida ishlatiladi.  $H_0$  belgisi ko'pincha bo'sh farazni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Statistik xulosa chiqarayotganda tadqiqotchi nolinechi farazning nomuvofiqligini, mayjud eksperimental ma'lumotlarga mos kelmasligini ko'rsatishga, ya'ni farazni rad etishga urinadi. Bu shuni anglatadiki, bo'sh gipotezanı hisobga olmaganda, boshqa **alternativa** (raqobatdosh) qabul qilinishi kerak. Agar ma'lumotlar, aksincha, bo'sh gipotezanı tasdiqlasa, u holda u rad etilmaydi. Bu **aybsizlik prezumpsiysi printcipiga** o'xshaydi, gumon qilinuvchi aybsiz deb topilsa (nol gipotezanı nazarda tutadi)

aksincha isbotlanmaguncha (nol gipoteza rad etilgunga qadar) asosiy shubhalardan tashqarida bo'ladi (ya'ni, statistik jihatdan sezilarli darajada).

**Noparametrik o'zgarishlar** - Umumiy o'Ichov parametrlariga (dispersiya, o'rtacha qiymat, standart o'g'ish) ega bo'lmanan o'zgarishlar.

**O'rtacha qiymat** - bu raqamlar yoki funktsiyalar to'plamining sonli xarakteristikasi (matematikada); - ularning qiymatlarining eng kichik va eng kattasi orasidagi raqam. Ko'pincha yuqorisida chiziq bilan belgilanadigan x belgisidir.

**O'zgaruvchi** - o'zgaruvchan yoki o'zgarishi mumkin bo'lgan qiymat, o'zgarishdan farqli o'laroq, berilgan qiymatni saqlab qoladi. Misol uchun: Guruhdagi har bir talabaga berilgan belgi o'zgaruvchan qiymat bo'lib, u talabandan talabaga o'zgarib turadi.

**Ob'ekt** - (lot. Objectum - "predmet"), Ob'ekt - bu sub'ektning (kuzatuvchining) amaliy yoki bilim faoliyatini yo'naltirilgan narsani ifoda etadigan falsafiy kategoriya. Bu narsa haqiqatda ham, xayoliy dunyoda ham mavjud bo'lishi mumkin; va sub'ektning o'zi ob'ekt bo'lishi mumkin.

**Persepsiya** - (lot. Perceptio) - bu sub'ektiv ravishda darhol taqdim etilgan hissiy ma'lumotlarning, atrofdagi dunyo ob'ektlarini hissiy bilimlarning talqin qilish tizimi.

**Predikator** - (lot. Praedicatum "aytilgan, eslatilgan, e'lon qilingan) - bu sub'ektga oid ta'kid. Dasturlashda predikat bu mantiqiy natija bilan bir yoki bir nechta qiymatdan foydalanadigan ifodadir.

**Psixogenetika** - (yunoncha psyche - jon va yunoncha genesis - kelib chiqish) - bu psixologiya va genetika tutashgan joyda vujudga kelgan irlsiy va aqliy hamda psixofiziologik xususiyatlarning o'zgaruvchanligi haqidagi fan. G'arb adabiyotida "xulq-atvor genetikasi" atamasi tez-tez ishlataladi.

**Rang** - (nem. Rank-daraja) har qanday ierarxiyadagi toifani, farqlanish darajasini, maxsus darajani, darajani, darajani anglatishi mumkin bo'lgan noaniq atama;

**Rang korrelyatsiyasi** - bu tasodifiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikning o'Ichovi (kuzatilgan xususiyatlar, o'zgaruvchilar), agar bu bog'liqlikni an'anaviy korrelyatsiya koefitsienti yordamida aniqlash mumkin bo'lmasa (qarang Korrelyatsiya), R. tashkil etiladi. o'rganilayotgan ob'ektlarni ba'zi xususiyatlarga nisbatan tartiblashdan

iborat, ya'ni, ularga seriya raqamlari - darajalar beriladi (har biri ikkita kuzatiladigan xususiyatga muvofiq ikkitadan raqamlar, ularning orasidagi bog'liqlik tekshiriladi). Masalan, o'zgarmaydigan uchun eng katta qiymat 1, ikkinchisi kattaroq 2 va h.k. Eng keng tarqalgan R. Koeffitsienti - Sperman koeffitsienti.

**Regressiya** - (lotincha regressio - orqaga qarab harakatlanish, orqaga chekinish) ehtimollar nazariyasida va matematik statistikada tasodifiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi moslikni o'rnatadigan bir tomonlama stoxastik bog'liqlik, ya'ni qaram bo'lgan o'zgaruvchi y va mustaqil o'zgaruvchilar x o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi matematik ifoda, x sharti bilan ushbu ibora statistik jihatdan ahamiyatli bo'ladi.  $Y = f(x)$  sof funktional bog'liqlikdan farqli o'laroq, x mustaqil o'zgaruvchining har bir qiymati y kattalikning bitta aniq qiymatiga to'g'ri kelganda, regressiya munosabati bo'lsa, x ning bitta va bitta qiymati, vaziyatga qarab, y miqdorining turli qiymatlariga mos kelishi mumkin.

**Reprezentativlik** - tanlanganlik xususiyatlarning bosh ko'plik xususiyatlariaga yoki umuman aholi soniga mosligi. Tadqiqotchi, ma'lum bir namunadan foydalanib, tadqiqot natijalarini u to'plangan barcha umumiyligiga umumlashtirishning qanchalik imkonini borligini belgilaydi. Shuningdek, tadqiqot (vakillik) tadqiqot maqsadlari nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan umumiylig bosho'chko'plik parametrlarini ifodalash uchun namunaning xususiyati sifatida aniqlanishi mumkin.

**Reduktsiya**-(yunon: reductio ko'tarish, olib chiqish, keltirish, qayta keltirish ma'nolarini bildirib), ma'nolar sharhlanshiga ko'ra. ko'p qirralidir. R. Matematika va mantiq fanlarida murakkabning soddaga qarab o'zgarishida matematik mantiqiy usuldan soydalanishdir.

**Shkala** (o'lchov o'lchovi) - bu o'lchovning u yoki bu elementini (qiymatini) haqiqiy ob'ektlar, vaziyatlar, hodisalar yoki jarayonlar bilan bog'laydigan o'lchov operatsiyasidir. O'rnatiladigan belgi tizimi. Rasmiy ravishda shkala  $\langle X, \varphi, Y \rangle$  deb nomlanadi, bu yerda X - haqiqiy ob'ektlar, vaziyatlar, hodisalar yoki jarayonlar to'plami,  $\varphi$  - xaritalash, Y - ishora tizimining elementlari (qiymatlari) to'plami. Insonning nazariy va amaliy faoliyatida, fan va texnikada o'lchovlarining turli xil turlari, shu jumladan ko'plab gumanitar ilmiy sohalarda, masalan, iqtisodiyot, psixometriya, sotsiologiya va boshqalarda keng qo'llaniladi. Ob'ektlarni ramziy (rasmiy) tasvirlash uchun, hodisalar, ularning xususiyatlari xususiyatlari va aloqalari o'rganiladi.

**Statistik ahamiyatlilik** - Statistikada, o'zgaruvchining qiymati, bu yoki yuqori qiymatlarning tasodifan paydo bo'lish ehtimoli kichik bo'lса, statistik ahamiyatga ega deb nomlanadi. Bu yerda ekstremal test statistikasining nol gipotezadan chetlanish darajasi sifatida tushuniladi. Agar mavjud ma'lumotlar (yoki undan ham ekstremal ma'lumotlar) ehtimoli yo'q bo'lса, farq yo'qligini hisobga olib, farq statistik jihatdan ahamiyatli deb aytildi; bu ibora farq katta, muhim yoki umumiylar ma'noda ahamiyatli bo'lishi kerak degani emas.

**Statistik faraz** - bu tasodifiy o'zgaruvchining taqsimlanish turi va xossalari haqidagi taxmin, bu namunaviy ma'lumotlarga statistik usullarni qo'llash orqali tasdiqlanishi yoki rad etilishi mumkin.

**Stimul** - (lotincha stimulus - fil haydovchisining tayoqchasi yoki aravachaga bog'lab qo'yilgan buqa haydash uchun ishlataladigan ustundagi o'tkir metall uchi) - kuchli rag'batlantiruvchi moment; reaksiyani, harakatni keltirib chiqaradigan ichki yoki tashqi omil; shuningdek, ekspert baholari terminologiyasida, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatadigan kuzatuv ob'ekti (uni ma'lum bir qaror qabul qilish uchun "rag'batlantirish"). Fiziologiya va psixofiziologiyada bu tushuncha tirlash xususiyati tushunchasi bilan bir xildir.

**Stoxastiklik** - (qadimgi yunoncha сτόχος - maqsad, taxmin) tasodifiylikni anglatadi. Tasodifiy (stoxastik) jarayon bu xulq-atvori deterministik bo'lмаган jarayon bo'lib, bunday tizimning keyingi holati ham taxniin qilish mumkin bo'lган miqdorlar, ham tasodifiy holat bilan tavsiflanadi. Ammo, M. Kats va E. Nelson fikricha, jarayonning vaqt ichida har qanday rivojlanishi (bu muhim emas, deterministik yoki ehtimollik) ehtimollar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda tasodifiy jarayon bo'ladi (boshqacha qilib aytganda, o'z vaqtida rivojlanib boradigan barcha jarayonlar, ehtimolliklar nazariyasining nuqtai nazar, stoxastik).

**Summa** - (lotincha summa - jami, jami) matematikada qiymatlarni qo'shish (sonlar, funktsiyalar, vektorlar, matritsalar va boshqalar) operatsiyasini qo'llash natijasi yoki bir nechta qo'shish (yig'ish) operatsiyalarini ketma-ket bajarish natijasidir. Barcha holatlar uchun umumiy kommutativlik, assotsiativlik xususiyatlaridir.

**Tanlanma** - yoki tanlangan bosh ko'plik - tadqiqot (kuzatish, so'rov) bilan qamrab olingan elementlarning umumiylar tarqalishining bir qismi. Tanlanmaning sifat xususiyatlari - aniq nima tanланади va buning uchun tanlanmaning qanday sifatlari tadqiqotchi

qiziqtiradi. Tanlanmaning miqdoriy xarakteristikalari - qancha holatlar tanlanadi, boshqacha qilib aytganda, tanlanma hajmi.

**Tasodifiy hodisa** – bu, tasodifiy tajriba ko'p marta takrorlanganda, voqealari bo'lishining chastotasi uning ehtimolligini baholash uchun xizmat qiladi. Tasodifiy tajriba natijasida hech qachon ro'y bermaydigan tasodifiy hodisa imkonsiz deb nomlanadi. Har doim tasodifiy tajriba natijasida amalga oshiriladigan tasodifiy hodisa ishonchli deb nomlanadi.

**Tavsifloveli statistika** - empirik ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni tizimlashtirish, grafik va jadvallar ko'rinishida vizual tarzda namoyish etish, shuningdek ularning asosiy statistik ko'rsatkichlari orqali ularning miqdoriy tavsiflari bilan shug'ullanadi. Statistik xulosa, namunaviy ob'ektlarni o'rganishda aniqlangan xususiyatlar umumiyligi bosh ko'plikka xosdir deb taxmin qiladi.

**Testologiya** - (ingлиз tilidan test - test, yunoncha logos - bilim) diagnostika texnikasini yaratish va ularni izohlash haqidagi fan. 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida testologiya fani paydo bo'ldi. Testologiyaning printsiplari va usullari psixologiyadan tashqari tibbiyat, pedagogika, menejment kabi ko'plab fan sohalarida qo'llaniladi. Turli sanoat tarmoqlari testologiyasi asosliligi, samaradorligi, ishonchliligi kabi umumiyligi xususiyatlarga ega va sinov predmetining o'ziga xos xususiyatlari va empirik ma'lumotlarning yig'ilishida farqlanadi. Psixologiyadagi testologiya psixodiagnostikaning etakchi yo'nalishlaridan biridir.

**Vektor** - (lotin vektoridan, "ko'taruvechi") eng oddiy darajadagi kattaligi va yo'nalishi bilan ajralib turadigan matematik ob'ekti. Masalan, geometriya va tabiatshunoslikda vektor - bu Evklid fazosidagi (yoki tekislikda) yo'nalish bo'yicha yo'naltirilgan bo'lagi.

**Validlik** - (lot: validus kuchli, sog'lom, mukammal qo'llash uchun yaroqli) konkret sharoitlarda psixologik metodlarning va ularning natijalarining yaroqliliginini ta'minlanishi degan ma'noni bildiradi.

## ILOVALAR.

1-jadval.

Kolmogorov-Smirnov statistikasining kritik qiymatlari statistik ahamiyatlilik  $P(\lambda > \lambda_\alpha) = \alpha$ , darajalari uchun.

$P(\lambda > \lambda_\alpha) = \alpha = (0,01; 0,05; 0,10)$  statistik darajalar uchun.

$P(\lambda > \lambda_\alpha) = \alpha$			
$\alpha$	0,10	0,05	0,01
$\lambda_\alpha$	1,22	1,36	1,63

$P(\lambda > \lambda_\alpha) = \alpha$  ahamiyatlilik darajasi uchun Kolmogorov-Smirnov statistikasi kritik qiymatlari.

$\lambda$	R	$\lambda$	R	$\lambda$	R
0,30	1,000	0,76	0,610	1,00	0,270
0,37	0,999	0,79	0,561	1,21	0,107
0,40	0,997	0,82	0,512	1,24	0,092
0,43	0,993	0,85	0,465	1,27	0,079
0,46	0,984	0,88	0,421	1,30	0,068
0,49	0,970	0,91	0,379	1,35	0,052
0,52	0,950	0,94	0,400	1,40	0,040
0,55	0,923	0,97	0,304	1,50	0,022
0,58	0,890	1,03	0,239	1,60	0,012
0,61	0,851	1,07	0,202	1,70	0,006
0,64	0,807	0,10	0,178	1,80	0,003
0,67	0,760	1,13	0,156	1,90	0,002
0,70	0,711	1,16	0,136	2,00	0,001
0,73	0,661	1,19	0,118	2,10	0,000

2-jadval.

Turli foiz ulushlari uchun radianalardagi «F<sub>i</sub>» burchak qiymatlari (boshi)

Ulush, %	% butun sondan keyingi oxirgi o'tlik qiymat									
	"f <sub>i</sub> " qiymati									
0	0	0,02	0,028	0,035	0,04	0,045	0,049	0,053	0,057	0,06
0,1	0,063	0,066	0,069	0,072	0,075	0,077	0,08	0,082	0,085	0,087
0,2	0,089	0,092	0,094	0,096	0,098	0,1	0,102	0,104	0,106	0,108
0,3	0,11	0,111	0,113	0,115	0,117	0,118	0,12	0,122	0,123	0,125
0,4	0,127	0,128	0,13	0,131	0,133	0,134	0,136	0,137	0,139	0,14
0,5	0,142	0,143	0,144	0,146	0,147	0,148	0,15	0,151	0,153	0,154
0,6	0,155	0,156	0,158	0,159	0,16	0,161	0,163	0,164	0,165	0,166

0,7	0,168	0,169	0,17	0,171	0,172	0,173	0,175	0,176	0,177	0,178
0,8	0,179	0,18	0,182	0,183	0,184	0,185	0,186	0,187	0,188	0,189
0,9	0,19	0,191	0,192	0,193	0,194	0,195	0,196	0,197	0,198	0,199
1	0,2	0,21	0,22	0,229	0,237	0,246	0,254	0,262	0,269	0,277
2	0,284	0,291	0,298	0,304	0,311	0,318	0,324	0,33	0,336	0,342
3	0,348	0,354	0,36	0,365	0,371	0,376	0,382	0,387	0,392	0,398
4	0,403	0,408	0,413	0,418	0,423	0,428	0,432	0,437	0,442	0,446
5	0,451	0,456	0,46	0,465	0,469	0,473	0,478	0,482	0,486	0,491
6	0,495	0,499	0,503	0,507	0,512	0,516	0,52	0,524	0,528	0,532
7	0,536	0,539	0,543	0,547	0,551	0,555	0,559	0,562	0,566	0,57
8	0,574	0,577	0,581	0,584	0,588	0,592	0,595	0,599	0,602	0,606
9	0,609	0,613	0,616	0,62	0,623	0,627	0,63	0,633	0,637	0,64
10	0,644	0,647	0,65	0,653	0,657	0,66	0,663	0,666	0,67	0,673
11	0,676	0,679	0,682	0,686	0,689	0,692	0,695	0,698	0,701	0,704
12	0,707	0,711	0,714	0,717	0,72	0,723	0,726	0,729	0,732	0,735
13	0,738	0,741	0,744	0,747	0,75	0,752	0,755	0,758	0,761	0,764
14	0,767	0,77	0,773	0,776	0,778	0,781	0,784	0,787	0,79	0,793
15	0,795	0,798	0,801	0,804	0,807	0,809	0,812	0,815	0,818	0,82
16	0,823	0,826	0,828	0,831	0,834	0,837	0,839	0,842	0,845	0,847
17	0,85	0,853	0,855	0,858	0,861	0,863	0,866	0,868	0,871	0,874
18	0,876	0,879	0,881	0,884	0,887	0,889	0,892	0,894	0,897	0,9
19	0,902	0,905	0,907	0,91	0,912	0,915	0,917	0,92	0,922	0,925
20	0,927	0,93	0,932	0,935	0,937	0,94	0,942	0,945	0,947	0,95
21	0,952	0,995	0,957	0,959	0,962	0,964	0,967	0,969	0,972	0,974
22	0,976	0,979	0,981	0,984	0,986	0,988	0,991	0,993	0,966	0,998
23	1	1,003	1,005	1,007	1,01	1,012	1,015	1,017	1,019	1,022
24	1,024	1,026	1,029	1,031	1,033	1,036	1,038	1,04	1,043	1,045
25	1,047	1,05	1,052	1,054	1,056	1,059	1,061	1,063	1,066	1,068
26	1,07	1,072	1,075	1,077	1,079	1,082	1,084	1,089	1,088	1,091
27	1,093	1,095	1,097	1,1	1,102	1,104	1,106	1,109	1,111	1,113
28	1,115	1,117	1,12	1,122	1,124	1,126	1,129	1,131	1,133	1,135
29	1,137	1,14	1,142	1,144	1,146	1,148	1,151	1,153	1,155	1,157
30	1,159	1,161	1,161	1,166	1,168	1,17	1,172	1,174	1,177	1,179

Turli foiz ulushlari uchun radianalardagi «Fi» burchak qiymatlari (davomi)

Ulush, %	% butun sondan keyin oxirgi o'nnlik qiymat									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
"fi" qiymatlari										
31	1,182	1,183	1,185	1,187	1,19	1,192	1,194	1,196	1,198	1,2
32	1,203	1,205	1,207	1,209	1,211	1,213	1,215	1,217	1,22	1,222
33	1,224	1,226	1,228	1,23	1,232	1,234	1,237	1,239	1,241	1,243
34	1,245	1,247	1,249	1,251	1,254	1,256	1,258	1,26	1,262	1,264

35	1,266	1,268	1,27	1,272	1,274	1,277	1,279	1,281	1,283	1,285
36	1,287	1,289	1,291	1,293	1,295	1,297	1,299	1,302	1,304	1,306
37	1,308	1,31	1,312	1,314	1,316	1,318	1,32	1,322	1,324	1,326
38	1,328	1,33	1,333	1,335	1,337	1,339	1,341	1,343	1,345	1,347
39	1,349	1,351	1,353	1,355	1,357	1,359	1,361	1,363	1,365	1,367
40	1,369	1,371	1,374	1,376	1,378	1,38	1,382	1,384	1,386	1,388
41	1,39	1,392	1,394	1,396	1,398	1,4	1,402	1,404	1,406	1,408
42	1,41	1,412	1,414	1,416	1,418	1,42	1,422	1,424	1,426	1,428
43	1,43	1,432	1,434	1,436	1,438	1,44	1,442	1,444	1,446	1,448
44	1,451	1,453	1,455	1,457	1,459	1,461	1,463	1,465	1,467	1,469
45	1,471	1,743	1,475	1,477	1,479	1,481	1,483	1,485	1,487	1,489
46	1,491	1,493	1,495	1,497	1,499	1,501	1,503	1,505	1,507	1,509
47	1,511	1,513	1,515	1,517	1,519	1,521	1,523	1,525	1,527	1,529
48	1,531	1,533	1,535	1,537	1,539	1,541	1,543	1,545	1,547	1,549
49	1,551	1,553	1,555	1,557	1,559	1,561	1,563	1,565	1,567	1,569
50	1,571	1,573	1,575	1,577	1,579	1,581	1,583	1,585	1,587	1,589
51	1,591	1,593	1,595	1,597	1,599	1,601	1,603	1,605	1,607	1,609
52	1,611	1,613	1,615	1,617	1,619	1,621	1,623	1,625	1,627	1,629
53	1,631	1,633	1,635	1,637	1,639	1,641	1,643	1,645	1,647	1,649
54	1,651	1,653	1,655	1,657	1,659	1,661	1,663	1,665	1,667	1,669
55	1,671	1,673	1,675	1,677	1,679	1,681	1,683	1,685	1,687	1,689
56	1,691	1,693	1,695	1,697	1,699	1,701	1,703	1,705	1,707	1,709
57	1,711	1,713	1,715	1,717	1,719	1,721	1,723	1,725	1,727	1,729
58	1,731	1,734	1,736	1,738	1,74	1,742	1,744	1,746	1,748	1,75
59	1,752	1,754	1,756	1,758	1,76	1,762	1,764	1,766	1,768	1,77
60	1,772	1,774	1,776	1,778	1,78	1,782	1,784	1,786	1,789	1,791
61	1,793	1,795	1,797	1,799	1,801	1,803	1,805	1,807	1,809	1,811
62	1,813	1,815	1,817	1,819	1,821	1,823	1,826	1,828	1,83	1,832
63	1,834	1,836	1,838	1,84	1,842	1,844	1,846	1,848	1,85	1,853
64	1,855	1,857	1,859	1,861	1,863	1,865	1,867	1,869	1,871	1,873
65	1,875	1,878	1,88	1,882	1,884	1,886	1,888	1,89	1,892	1,894
66	1,897	1,899	1,901	1,903	1,905	1,907	1,909	1,911	1,913	1,916
67	1,918	1,92	1,922	1,924	1,926	1,928	1,93	1,933	1,935	1,937
68	1,939	1,941	1,943	1,946	1,948	1,95	1,952	1,954	1,956	1,958
69	1,961	1,963	1,965	1,967	1,969	1,971	1,974	1,976	1,978	1,98
70	1,982	1,984	1,987	1,989	1,991	1,993	1,995	1,998	2	2,002

**Turli foiz ulushlari uchun radianalardagi «Fis burchak qiyamatlari (oxiri)**

Ulush, %	%-, butun sondan keyingi oxirgi o'nalik qiyamalari								
	"fi" Qiyamatlari								
71	2,004 2,006 2,009 2,011 2,013 2,015 2,018 2,02 2,022 2,024								

72	2,026	2,029	2,031	2,033	2,035	2,038	2,04	2,042	2,044	2,047
73	2,049	2,051	2,053	2,056	2,058	2,06	2,062	2,065	2,067	2,069
74	2,071	2,074	2,076	2,078	2,081	2,083	2,085	2,087	2,09	2,092
75	2,094	2,097	2,099	2,101	2,104	2,106	2,108	2,111	2,113	2,115
76	2,118	2,12	2,122	2,125	2,127	2,129	2,132	2,134	2,136	2,139
77	2,141	2,144	2,146	2,148	2,151	2,153	2,156	2,158	2,16	2,163
78	2,165	2,168	2,17	2,172	2,175	2,177	2,18	2,182	2,185	2,187
79	2,19	2,192	2,194	2,197	2,199	2,202	2,204	2,207	2,209	2,212
80	2,214	2,217	2,219	2,222	2,224	2,227	2,229	2,231	2,234	2,237
81	2,24	2,242	2,245	2,247	2,25	2,252	2,255	2,258	2,26	2,263
82	2,265	2,268	2,271	2,273	2,276	2,278	2,281	2,284	2,286	2,289
83	2,292	2,294	2,297	2,3	2,302	2,305	2,307	2,31	2,313	2,316
84	2,319	2,321	2,324	2,327	2,33	2,332	2,335	2,338	2,341	2,343
85	2,346	2,35	2,352	2,355	2,357	2,36	2,363	2,366	2,369	2,372
86	2,375	2,377	2,38	2,383	2,386	2,389	2,392	2,395	2,398	2,401
87	2,404	2,407	2,41	2,911	2,416	2,419	2,422	2,425	2,428	2,431
88	2,434	2,437	2,44	2,443	2,447	2,45	2,453	2,456	2,459	2,462
89	2,465	2,469	2,472	2,465	2,478	2,482	2,485	2,488	2,491	2,495
90	2,498	2,501	2,505	2,508	2,512	2,515	2,518	2,522	2,525	2,529
91	2,532	2,536	2,539	2,543	2,546	2,55	2,554	2,557	2,561	2,564
92	2,568	2,572	2,575	2,679	2,583	2,587	2,591	2,594	2,598	2,602
93	2,606	2,61	2,614	2,618	2,622	2,626	2,63	2,634	2,638	2,642
94	2,647	2,651	2,655	2,659	2,664	2,668	2,673	2,677	2,681	2,686
95	2,691	2,295	2,7	2,705	2,709	2,714	2,719	2,724	2,729	2,734
96	2,739	2,744	2,749	2,754	2,76	2,765	2,771	2,776	2,782	2,788
97	2,793	2,799	2,805	2,811	2,818	2,824	2,83	2,837	2,844	2,851
98	2,858	2,865	2,872	2,88	2,888	2,896	2,904	2,913	2,922	2,931
99	2,941	2,942	2,943	2,944	2,945	2,946	2,948	2,949	2,95	2,951
100	3,142									

2(a)-jadval.

Fisher burchakli hosilasi kritik qiymati.

Ahamiyatlilik darajasi Kichik yoki teng	Ahamiyatlilik darajasi kichik yoki teng (oxirgi o'nlid qiymat)									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
0	2,91	2,81	2,7	2,62	2,55	2,49	2,44	2,39	2,35	
0,01	2,31	2,28	2,25	2,22	2,19	2,16	2,14	2,11	2,09	2,07
0,02	2,05	2,03	2,01	1,99	1,97	1,96	1,94	1,92	1,91	1,89

0,03	1,88	1,86	1,85	1,84	1,82	1,81	1,8	1,79	1,77	1,76
0,04	1,75	1,74	1,73	1,72	1,71	1,7	1,68	1,67	1,66	1,65
0,05	1,64	1,64	1,63	1,62	1,61	1,6	1,59	1,58	1,57	1,56
0,06	1,56	1,55	1,54	1,53	1,52	1,52	1,51	1,5	1,49	1,48
0,07	1,48	1,47	1,46	1,46	1,45	1,44	1,43	1,43	1,42	1,41
0,08	1,41	1,4	1,39	1,39	1,38	1,37	1,37	1,36	1,36	1,35
0,09	1,34	1,34	1,33	1,32	1,32	1,31	1,31	1,3	1,3	1,29
0,1	1,29									

3-jadval.

**Styudent kritik qiymatlar jadvali.**

Erkinlik darjasining soni	Statistik ahamiyatlilik darajasi			Erkinlik darjasining soni	Statistik ahamiyatlilik darajasi		
	0,05	0,01	0,001		0,05	0,01	0,001
1	12,71	63,69	636,6	21	2,08	2,83	3,82
2	4,3	9,93	31,6	22	2,07	2,82	3,79
3	3,18	5,84	12,94	23	2,07	2,81	3,77
4	2,78	4,6	8,61	24	2,06	2,78	3,75
5	2,57	4,03	6,87	25	2,06	2,79	3,73
6	2,45	3,71	5,96	26	2,06	2,78	3,71
7	2,37	3,5	5,41	27	2,05	2,77	3,69
8	2,31	3,36	5,04	28	2,05	2,76	3,67
9	2,26	3,25	4,78	29	2,04	2,76	3,66
10	2,23	3,17	4,59	30	2,04	2,75	3,65
11	2,2	3,11	4,44	40	2,02	2,7	3,55
12	2,18	3,06	4,32	50	2,01	2,68	3,5
13	2,16	3,01	4,22	60	2	2,66	3,46
14	2,15	2,98	4,14	80	1,99	2,64	3,42
15	2,13	2,95	4,07	100	1,98	2,63	3,39
16	2,12	2,92	4,02	120	1,98	2,62	3,37
17	2,11	2,9	3,97	200	1,97	2,6	3,34
18	2,1	2,88	3,92	500	1,96	2,59	3,31
19	2,09	2,86	3,88		1,96	2,58	3,29
20	2,09	2,85	3,85				

**4-jadval.**

**Manni Uitni mezonining kritik qiymatlari (boshi)**

		5% xatolik uchun kritik qiymatlar																			
N1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20		
N2	...	0																			
3	...	0																			
4	...	0	1																		
5	0	1	2	4																	
6	0	2	3	5	7																
7	0	2	4	6	8	11															
8	1	3	5	8	10	13	15														
9	1	4	6	9	12	15	18	21													
10	1	4	7	11	14	17	20	24	27												
11	1	5	8	12	16	19	23	27	31	34											
12	2	5	9	13	17	21	26	30	34	38	42										
13	2	6	10	15	19	24	28	33	37	42	47	51									
14	3	7	11	16	21	26	31	36	41	46	51	56	61								
15	3	7	12	18	23	28	33	39	44	50	55	61	66	72							
16	3	8	14	19	25	30	36	42	48	54	60	65	71	77	83						
17	3	9	15	20	26	33	39	45	51	57	64	70	77	83	89	96					
18	4	9	16	22	28	35	41	48	55	61	68	75	82	88	95	102	109				
19	4	10	17	23	30	37	44	51	58	65	72	80	87	94	101	109	116	123			
20	4	11	18	25	32	39	47	54	62	69	77	84	92	100	107	115	123	130	138		

**1% xatolik uchun kritik qiymatlar**

S	...	...	0	1																	
6	...	...	1	2	3																
7	...	0	1	3	4	6															
8	...	0	2	4	6	7	9														
9	...	1	3	5	7	9	11	14													
10	...	1	3	6	8	11	13	16	19												
11	...	1	4	7	9	12	15	18	22	25											
12	...	2	5	8	11	14	17	21	24	28	31										
13	0	2	5	9	12	16	20	23	27	31	35	39									
14	0	2	6	10	13	17	22	26	30	34	38	43	47								
15	0	3	7	11	15	19	24	28	33	37	42	47	51	56							
16	0	3	7	12	16	21	26	31	36	41	46	51	56	61	66						
17	0	4	8	13	18	23	28	33	38	44	49	55	60	66	71	77					
18	0	4	9	14	19	24	30	36	41	47	53	59	65	70	76	82	88				
19	1	4	9	15	20	26	32	38	44	50	56	63	69	75	82	88	94	101			
20	1	5	10	16	22	28	34	40	47	53	60	67	73	80	87	93	100	107	114		

## Manni Uitni mezonining kritik qiymatlari (davomi)

### 5% xatolik uchun kritik qiymatlari

N1	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
N2																		
21	19	26	34	41	49	57	65	73	81	89	97	105	113	121	130	138	146	154
22	20	28	36	44	52	60	69	77	85	94	102	111	119	128	136	145	154	162
23	21	29	37	46	55	63	72	81	90	99	107	116	125	134	143	152	161	170
24	22	31	39	48	57	66	75	85	94	103	113	122	131	141	150	160	169	179
25	23	32	41	50	60	69	79	89	98	108	118	128	137	147	157	167	177	187
26	24	33	43	53	62	72	82	93	103	113	123	133	143	154	164	174	185	195
27	25	35	45	55	65	75	86	96	107	118	128	139	150	160	171	182	193	203
28	26	36	47	57	68	79	89	100	111	122	133	144	156	167	178	189	200	212
29	27	38	48	59	70	82	93	104	116	127	139	150	162	173	185	196	208	220
30	28	39	50	62	73	85	96	108	120	132	144	156	168	180	192	204	216	228
31	29	41	52	64	76	88	100	112	124	137	149	161	174	186	199	211	224	236
32	30	42	54	66	78	91	103	116	129	141	154	167	180	193	206	219	232	245
33	31	43	56	68	81	94	107	120	133	146	159	173	186	199	213	226	239	253
34	32	45	58	71	84	97	110	124	137	151	164	178	192	206	219	233	247	261
35	33	46	59	73	86	100	114	128	142	156	170	184	198	212	226	241	255	269
36	35	48	61	75	89	103	117	132	146	160	175	189	204	219	233	248	263	278
37	36	49	63	77	92	106	121	135	150	165	180	195	210	225	240	255	271	286
38	37	51	65	79	94	109	124	139	155	170	185	201	216	232	247	263	278	294
39	38	52	67	82	97	112	128	143	159	175	190	206	222	238	254	270	286	302
40	39	53	69	84	100	115	131	147	163	179	196	212	228	245	261	278	294	311

### 1% xatolik uchun kritik qiymatlari

21	10	16	22	29	35	42	49	56	63	70	77	84	91	98	105	113	120	127
22	10	17	23	30	37	45	52	59	66	74	81	89	96	104	111	118	127	134
23	11	18	25	32	39	47	55	62	70	78	86	94	102	109	117	125	133	141
24	12	19	26	34	42	49	57	66	74	82	90	98	107	115	123	132	140	148
25	12	20	27	35	44	52	60	69	77	86	95	103	112	121	130	138	147	156
26	13	21	29	37	46	54	63	72	81	90	99	108	117	126	136	145	154	163
27	14	22	30	39	48	57	66	75	85	94	103	113	122	132	142	151	161	170
28	14	23	32	41	50	59	69	78	88	98	108	118	128	138	148	158	168	178
29	15	24	33	42	52	62	72	82	92	102	112	123	133	143	154	164	175	185
30	15	25	34	44	54	64	75	85	95	106	117	127	138	149	160	171	182	192
31	16	26	36	46	56	67	77	88	99	110	121	131	143	155	166	177	188	200
32	17	27	37	47	58	69	80	91	103	114	126	137	149	160	172	184	195	207
33	17	28	38	49	60	72	83	95	106	118	130	142	154	166	178	190	202	214
34	18	29	40	51	62	74	86	98	110	122	134	147	159	172	184	197	209	221
35	19	30	41	53	64	77	89	101	114	126	139	152	164	177	190	203	216	229
36	19	31	42	54	67	79	92	104	117	130	143	156	170	183	196	210	223	236
37	20	32	44	56	69	81	95	108	121	134	148	161	175	189	202	216	230	244

38	21	33	45	58	71	84	97	111	125	138	152	166	180	194	208	223	237	251
39	21	34	46	59	73	86	100	114	128	142	157	171	185	200	214	229	244	258
40	22	35	48	61	75	89	103	117	132	146	161	176	191	206	221	236	251	266

### Manni Uitni mezonining kritik qiymatlari (oxiri)

#### 5% xatolik uchun kritik qiymatlar

N1	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
N2																			
21																			
22	171																		
23	180	189																	
24	188	198	207																
25	197	207	217	227															
26	206	216	226	237	247														
27	214	225	236	247	258	268													
28	223	234	245	257	268	279	291												
29	232	243	255	267	278	290	302	314											
30	240	252	265	277	289	301	313	326	338										
31	249	261	274	287	299	312	325	337	350	363									
32	258	271	284	297	310	323	336	349	362	375	389								
33	266	280	293	307	320	334	347	361	374	388	402	415							
34	275	289	303	317	331	345	359	373	387	401	415	429	443						
35	284	298	312	327	341	356	370	385	399	413	428	442	457	471					
36	292	307	322	337	352	367	381	396	411	426	441	456	471	486	501				
37	301	316	332	347	362	378	393	408	424	439	454	470	485	501	516	531			
38	310	325	341	357	373	388	404	420	436	452	467	483	499	515	531	547	563		
39	318	335	351	367	383	399	416	432	448	464	481	497	513	530	546	562	579	595	
40	327	344	360	377	394	410	427	444	460	477	494	511	527	544	561	578	584	611	628

#### 1% xatolik uchun kritik qiymatlar

21																			
22	142																		
23	150	158																	
24	154	166	174																
25	165	174	183	192															
26	173	182	191	201	210														
27	180	190	200	209	219	229													
28	188	198	208	218	229	239	249												
29	196	206	217	227	238	249	259	270											
30	203	214	225	236	247	258	270	281	292										
31	211	223	234	245	257	268	280	291	303	314									
32	219	231	242	254	266	278	290	302	314	326	338								
33	227	239	251	263	276	288	300	313	325	337	350	362							
34	234	247	260	272	285	298	311	323	336	349	362	375	387						
35	242	255	268	281	294	308	321	334	347	360	374	387	400	413					
36	250	263	277	290	304	318	331	345	358	372	386	399	413	427	440				
37	258	271	285	299	313	327	341	355	370	384	398	412	426	440	454	468			
38	265	280	294	308	323	337	352	366	381	395	410	424	439	453	468	482	497		
39	173	288	303	317	332	347	362	377	392	407	422	437	452	467	482	497	512	527	
40	281	296	311	326	342	357	372	388	403	418	434	449	465	480	495	511	526	542	557

**5-jadval.**

**Vilkokson kritik qiymatlar jadvali.**

N	P 0,05	P 0,01	N	P 0,05	P 0,01
5	0	...	28	130	101
6	2	...	29	140	110
7	3	0	30	151	120
8	5	1	31	163	130
9	8	3	32	175	140
10	10	5	33	187	151
11	13	7	34	200	162
12	17	9	35	213	173
13	21	12	36	227	185
14	25	15	37	241	198
15	30	19	38	256	211
16	35	23	39	271	224
17	41	27	40	286	238
18	47	32	41	302	252
19	53	37	42	319	266
20	60	43	43	336	281
21	67	49	44	353	296
22	75	55	45	371	312
23	83	62	46	389	328
24	91	69	47	407	345
25	100	76	48	426	362
26	110	84	49	446	379
27	119	92	50	466	397

**6-jadval.**

**G mezoni kritik qiymatlar jadvali (boshi).**

n	p=0,05	p=0,01
5	0	—
6	0	—
7	0	0
8	1	0
9	1	0
10	1	0
11	2	1
12	2	1
13	3	1
14	3	2
15	3	2
16	4	2

n	p=0,05	p=0,01
29	9	7
30	10	8
31	10	8
32	10	8
33	11	9
34	11	9
35	12	10
36	12	10
37	13	10
38	13	11
39	13	11
40	14	12

17	4	3
18	5	3
19	5	4
20	5	4
21	6	4
22	6	5
23	7	5
24	7	5
25	7	6
26	8	6
27	8	7
28	8	7
56	21	18
58	22	19
60	23	20
62	24	21
64	24	22
66	25	23
68	26	23
70	27	24
72	28	25
74	29	26
76	30	27
78	31	28
80	32	29
82	33	30
84	33	30
86	34	31
88	35	32
90	36	33
92	37	34
94	38	35
96	39	36
98	40	37
100	41	37
110	45	42

41	14	12
42	15	13
43	15	13
44	16	13
45	16	14
46	16	14
47	17	15
48	17	15
49	18	15
50	18	16
52	19	17
54	20	18
120	50	46
130	55	51
140	59	55
150	64	60
160	69	64
170	73	69
180	78	73
190	83	78
200	87	83
220	97	92
240	106	101
260	116	110
280	125	120
300	135	129

**Xi kvadrat Kritik qiymatlari jadvali.**

df	0,20	0,10	0,05	0,02	0,01	0,001
1	1,642	2,71	3,84	5,41	6,64	10,83
2	3,22	4,60	5,99	7,82	9,21	13,82
3	4,64	6,25	7,82	9,84	11,34	16,27
4	5,99	7,78	9,49	11,67	13,28	18,46
5	7,29	9,24	11,07	13,39	15,09	20,5
6	8,56	10,64	12,59	15,03	16,81	22,5
7	9,80	12,02	14,07	16,62	18,48	24,3
8	11,03	13,36	15,51	18,17	20,1	26,1
9	12,24	14,68	16,92	19,68	21,7	27,9
10	13,44	15,99	18,31	21,2	23,2	29,6
11	14,63	17,28	19,68	22,6	24,7	31,3
12	15,81	18,55	21,0	24,1	26,2	32,9
13	16,98	19,81	22,4	25,5	27,7	34,6
14	18,15	21,1	23,7	26,9	29,1	36,1
15	19,31	22,3	25,0	28,3	30,6	37,7
16	20,5	23,5	26,3	29,6	32,0	39,3
17	21,6	24,8	27,6	31,0	33,4	40,8
18	22,8	26,0	28,9	32,3	34,8	42,3
19	23,9	27,2	30,1	33,7	36,2	43,8
20	25,0	28,4	31,4	35,0	37,6	45,3
21	26,2	29,6	32,7	36,3	38,9	46,8
22	27,3	30,8	33,9	37,7	40,3	48,3
23	28,4	32,0	35,2	39,0	41,6	49,7
24	29,6	33,2	36,4	40,3	43,0	51,2
25	30,7	34,4	37,7	41,7	44,3	52,6
26	31,8	35,6	38,9	42,9	45,6	54,1
27	32,9	36,7	40,1	44,1	47,0	55,5
28	34,0	37,9	41,3	45,4	48,3	56,9
29	35,1	39,1	42,6	46,7	49,6	58,3
30	36,2	40,3	43,8	48,0	50,9	59,7

**8-jadval.**

**Kruskal Uollis kritik qiymatlari jadvali.**

<b>n<sub>1</sub></b>	<b>n<sub>2</sub></b>	<b>n<sub>3</sub></b>	<b>N</b>	<b>p</b>	<b>n<sub>1</sub></b>	<b>n<sub>2</sub></b>	<b>n<sub>3</sub></b>	<b>N</b>	<b>p</b>	<b>n<sub>1</sub></b>	<b>n<sub>2</sub></b>	<b>n<sub>3</sub></b>	<b>N</b>	<b>p</b>
2	1	1	2,70	0,50	4	4	1	6,666	0,01	5	4	1	6,95	0,00
2	2	1	3,60	0,20				6,166	0,22				6,84	0,01
2	2	2	4,57	0,06				4,966	0,04				4,98	0,04
3	1	1	3,20	0,30				4,866	0,05				4,86	0,05
3	2	1	4,28	0,10	4	4	2	4,166	0,08				3,98	0,09
			3,85	0,13				4,066	0,10				3,96	0,10
3	2	2	5,35	0,02				7,036	0,00	5	4	2	7,20	0,01
			4,71	0,04				6,872	0,01				7,11	0,01
			4,50	0,06				5,454	0,04				5,27	0,04
			4,46	0,10				5,236	0,05				5,26	0,05
3	3	1	5,14	0,04				4,554	0,09				4,54	0,09
			2	3				4,445	0,10				4,51	0,10
3	3	1	4,57	0,10						4	4	3		
			1	0										
			4,00	0,12										
			0	9										
3	3	2	6,25	0,01				7,143	0,01				7,44	0,01
			5,36	0,03				7,136	0,01				7,39	0,01
			5,13	0,06				5,598	0,04				5,65	0,04
			4,55	0,10				5,575	0,05				5,63	0,05
			4,25	0,12				4,545	0,09				4,54	0,09
3	3	3	7,20	0,00				4,477	0,10				4,52	0,10
			6,48	0,01										
			5,68	0,02										
			5,60	0,05										
			5,06	0,08										
			4,62	0,10										
4	1	1	3,57	0,20										

								4.050	0,11							
4	2	1	4.82	0,05				5	2	6.533	0,00	5	5	2	7,33	0,01
			4.50	0,07						6.133	0,01				7,26	0,01
			4.01	0,11						5.160	0,03				5,33	0,04
										5.040	0,05				5,24	0,05
										4.373	0,09				4,62	0,09
										4.293	0,12				4,50	0,10
4	2	2	6,00	0,01				5	3	6,400	0,01	5	5	3	7,57	0,01
			5,33	0,03						4.960	0,04				7,54	0,01
			5,12	0,05						4,871	0,05				5,70	0,04
			4,45	0,10						4,017	0,09				5,62	0,05
			4,16	0,10						3,840	0,12				4,54	0,10
															4,53	0,10
4	3	1	5,83	0,02				5	3	6,909	0,00				7,82	0,01
			5,20	0,05						6,821	0,01				7,79	0,01
			5,00	0,05						5,250	0,04				5,66	0,04
			4,05	0,09						5,105	0,05				5,64	0,05
			3,88	0,12						4,650	0,09				4,52	0,09
										4,494	0,10					
4	3	2	6,44	0,00				3	3	7,078	0,00	5	5	5	8,00	0,00
			6,30	0,01						6,981	0,01				7,98	0,01
			5,44	0,04						5,648	0,04				5,78	0,04
			5,40	0,05						5,515	0,05				5,66	0,05
			4,51	0,09						4,533	0,09				4,56	0,10
			4,44	0,10						4,412	0,10					4,50
4	3	3	6,74	0,01												
			6,70	0												
			5,79	0,01												
			5,72	0,04												
			4,70	0,05												
			4,70	0,09												
				0,10												

9-jadval.

Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (boshi).

$df_1$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
$df_2$	$p < 0.05$											
1	161	200	216	225	230	234	237	239	241	242	243	244
2	18,51	19,00	19,16	19,25	19,30	19,33	19,36	19,37	19,38	19,39	19,40	19,41
3	10,13	9,55	9,28	9,12	9,01	8,94	8,88	8,84	8,81	8,78	8,76	8,74
4	7,71	6,94	6,59	6,39	6,26	6,16	6,09	6,04	6,00	5,96	5,93	5,91
5	6,61	5,79	5,41	5,19	5,05	4,95	4,88	4,82	4,78	4,74	4,70	4,68
6	5,99	5,14	4,76	4,53	4,39	4,28	4,21	4,15	4,10	4,06	4,03	4,00
7	5,59	4,74	4,35	4,12	3,97	3,87	3,79	3,73	3,68	3,63	3,60	3,57
8	5,32	4,46	4,07	3,84	3,69	3,58	3,50	3,44	3,39	3,34	3,31	3,28
9	5,12	4,26	3,86	3,63	3,48	3,27	3,29	3,23	3,18	3,13	3,10	3,07
10	4,96	4,10	3,71	3,48	3,33	3,22	3,14	3,07	3,02	2,97	2,94	2,91
11	4,84	3,98	3,59	3,36	3,20	3,09	3,01	2,95	2,90	2,86	2,82	2,79
12	4,75	3,88	3,49	3,26	3,11	3,00	2,92	2,85	2,80	2,76	2,72	2,69
13	4,67	3,80	3,41	3,18	3,02	2,92	2,84	2,77	2,72	2,67	2,63	2,60
14	4,60	3,74	3,34	3,11	2,96	2,85	2,77	2,70	2,65	2,60	2,56	2,53
15	4,54	3,68	3,29	3,06	2,90	2,79	2,70	2,64	2,59	2,55	2,51	2,48
16	4,49	3,63	3,24	3,01	2,85	2,74	2,66	2,59	2,54	2,49	2,45	2,42

	$p < 0.01$											
$df_1$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
$df_2$	$p < 0.01$											
1	4052	4999	5403	5625	5764	5859	5928	5981	6022	6056	6082	6106
2	98,49	99,00	99,17	99,25	99,30	99,33	99,36	99,37	99,39	99,40	99,41	99,42
3	34,12	30,82	29,46	28,71	28,24	27,91	27,67	27,49	27,34	27,23	27,13	27,05
4	21,20	18,00	16,69	15,98	15,52	15,21	14,98	14,80	14,66	14,54	14,45	14,37
5	16,26	13,27	12,06	11,39	10,97	10,67	10,45	10,29	10,15	10,05	9,96	9,89
6	13,74	10,92	9,78	9,15	8,75	8,47	8,26	8,10	7,98	7,87	7,79	7,72
7	12,25	9,55	8,45	7,85	7,46	7,19	7,00	6,84	6,71	6,62	6,54	6,47
8	11,26	8,65	7,59	7,01	6,63	6,37	6,19	6,03	5,91	5,82	5,74	5,67
9	10,56	8,02	6,99	6,42	6,06	5,80	5,62	5,47	5,35	5,26	5,18	5,11
10	10,04	7,56	6,55	5,99	5,64	5,39	5,21	5,06	4,95	4,85	4,78	4,71
11	9,65	7,20	6,22	5,67	5,32	5,07	4,88	4,74	4,63	4,54	4,46	4,40
12	9,33	6,93	5,95	5,41	5,06	4,82	4,65	4,50	4,39	4,30	4,22	4,16
13	9,07	6,70	5,74	5,20	4,86	4,62	4,44	4,30	4,19	4,10	4,02	3,96
14	8,86	6,51	5,56	5,03	4,69	4,46	4,28	4,14	4,03	3,94	3,86	3,80
15	8,68	6,36	5,42	4,89	4,56	4,32	4,14	4,00	3,89	3,80	3,73	3,67
16	8,53	6,23	5,29	4,77	4,44	4,20	4,03	3,89	3,78	3,69	3,61	3,55

Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (davomi).

$df_1$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
$df_2$	$p < 0.05$											
17	4,45	3,59	3,20	2,96	2,81	2,70	2,62	2,55	2,50	2,45	2,41	2,38
18	4,41	3,55	3,16	2,93	2,77	2,66	2,58	2,51	2,46	2,41	2,37	2,34
19	4,38	3,52	3,13	2,90	2,74	2,63	2,55	2,48	2,43	2,38	2,34	2,31
20	4,35	3,49	3,10	2,87	2,71	2,60	2,52	2,45	2,40	2,35	2,31	2,28
21	4,32	3,47	3,07	2,84	2,68	2,57	2,49	2,42	2,37	2,32	2,28	2,25
22	4,30	3,44	3,05	2,82	2,66	2,55	2,47	2,40	2,35	2,30	2,26	2,23
23	4,28	3,42	3,03	2,80	2,64	2,53	2,45	2,38	2,32	2,28	2,24	2,20
24	4,26	3,40	3,01	2,78	2,62	2,51	2,43	2,36	2,30	2,26	2,22	2,18

25	4,24	3,38	2,99	2,76	2,60	2,49	2,41	2,34	2,28	2,24	2,20	2,16
26	4,22	3,37	2,98	2,74	2,59	2,47	2,39	2,32	2,27	2,22	2,18	2,15
27	4,21	3,35	2,96	2,73	2,57	2,46	2,37	2,30	2,25	2,20	2,16	2,13
28	4,20	3,34	2,95	2,71	2,56	2,44	2,36	2,29	2,24	2,19	2,15	2,12
29	4,18	3,33	2,93	2,70	2,54	2,43	2,35	2,28	2,22	2,18	2,14	2,10
30	4,17	3,32	2,92	2,69	2,53	2,42	2,34	2,27	2,21	2,16	2,12	2,09
32	4,15	3,30	2,90	2,67	2,51	2,40	2,32	2,25	2,19	2,14	2,10	2,07
34	4,13	3,28	2,88	2,65	2,49	2,38	2,30	2,23	2,17	2,12	2,08	2,05
n=50,01												
17	8,40	6,11	5,18	4,67	4,34	4,10	3,39	3,79	3,68	3,59	3,52	3,45
18	8,28	6,01	5,09	4,58	4,25	4,01	3,85	3,71	3,60	3,51	3,44	3,37
19	8,18	5,93	5,01	4,50	4,17	3,94	3,77	3,63	3,52	3,43	3,36	3,30
20	8,10	5,85	4,94	4,43	4,10	3,87	3,71	3,56	3,45	3,37	3,30	3,23
21	8,02	5,78	4,87	4,37	4,04	3,81	3,65	3,51	3,40	3,31	3,24	3,17
22	7,94	5,72	4,82	4,31	3,99	3,76	3,59	3,45	3,35	3,26	3,18	3,12
23	7,88	5,66	4,76	4,26	3,94	3,71	3,54	3,41	3,30	3,21	3,14	3,07
24	7,82	5,61	4,72	4,22	3,90	3,67	3,50	3,36	3,25	3,17	3,09	3,03
25	7,77	5,57	4,68	4,18	3,86	3,63	3,46	3,32	3,21	3,13	3,05	2,99
26	7,72	5,53	4,64	4,14	3,82	3,59	3,42	3,29	3,17	3,09	3,02	2,96
27	7,68	5,49	4,60	4,11	3,79	3,56	3,39	3,26	3,14	3,06	2,98	2,93
28	7,64	5,45	4,57	4,07	3,76	3,53	3,36	3,23	3,11	3,03	2,95	2,90
29	7,60	5,42	4,54	4,04	3,73	3,50	3,33	3,20	3,08	3,00	2,92	2,87
30	7,56	5,39	4,51	4,02	3,70	3,47	3,30	3,17	3,06	2,98	2,90	2,84
32	7,50	5,34	4,46	3,97	3,66	3,42	3,25	3,12	3,01	2,94	2,86	2,80
34	7,44	5,29	4,42	3,93	3,61	3,38	3,21	3,08	2,97	2,89	2,82	2,76

### Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (davomi).

df <sub>1</sub>	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
df <sub>2</sub>	n=50,05											
36	4,11	3,26	2,86	2,63	2,48	2,36	2,28	2,21	2,15	2,10	2,06	2,03
38	4,10	3,25	2,85	2,62	2,46	2,35	2,26	2,19	2,14	2,09	2,05	2,02
40	4,08	3,23	2,84	2,61	2,45	2,34	2,25	2,18	2,12	2,07	2,04	2,00
42	4,07	3,22	2,83	2,59	2,44	2,32	2,24	2,17	2,11	2,06	2,02	1,99
44	4,06	3,21	2,82	2,58	2,43	2,31	2,23	2,16	2,10	2,05	2,01	1,98
46	4,05	3,20	2,81	2,57	2,42	2,30	2,22	2,14	2,09	2,04	2,00	1,97
48	4,04	3,19	2,80	2,56	2,41	2,30	2,21	2,14	2,08	2,03	1,99	1,96
50	4,03	3,18	2,79	2,56	2,40	2,29	2,20	2,13	2,07	2,02	1,98	1,95
55	4,02	3,17	2,78	2,54	2,38	2,27	2,18	2,11	2,05	2,00	1,97	1,93
60	4,00	3,15	2,76	2,52	2,37	2,25	2,17	2,10	2,04	1,99	1,95	1,92
65	3,99	3,14	2,75	2,51	2,36	2,24	2,15	2,08	2,02	1,98	1,94	1,90
70	3,98	3,13	2,74	2,50	2,35	2,23	2,14	2,07	2,01	1,97	1,93	1,89
80	3,98	3,11	2,72	2,48	2,33	2,21	2,12	2,05	1,99	1,95	1,91	1,88
100	3,94	3,09	2,70	2,46	2,30	2,19	2,10	2,03	1,97	1,92	1,88	1,85
125	3,92	3,07	2,68	2,44	2,29	2,17	2,08	2,01	1,95	1,90	1,86	1,83
150	3,91	3,06	2,67	2,43	2,27	2,16	2,07	2,00	1,94	1,89	1,85	1,82
200	3,89	3,04	2,65	2,41	2,26	2,14	2,05	1,98	1,92	1,87	1,83	1,80
400	3,86	3,02	2,62	2,39	2,23	2,12	2,03	1,96	1,90	1,85	1,81	1,78
1000	3,85	3,00	2,61	2,38	2,22	2,10	2,02	1,95	1,89	1,84	1,80	1,76
3844	3,84	2,99	2,60	2,37	2,21	2,09	2,01	1,94	1,88	1,83	1,79	1,75

n=50,01

36	7.39	5.25	4.38	3.89	3.58	3.35	3.18	3.04	2.94	2.86	2.78	2.72
38	7.35	5.21	4.34	3.86	3.54	3.32	3.15	3.02	2.91	2.82	2.75	2.69
40	7.31	5.18	4.31	3.83	3.51	3.29	3.12	2.99	2.88	2.8	2.73	2.66
42	7.27	5.15	4.29	3.80	3.49	3.26	3.1	2.96	2.86	2.77	2.7	2.64
44	7.24	5.12	4.26	3.78	3.46	3.24	3.07	2.94	2.84	2.75	2.68	2.62
46	7.21	5.10	4.24	3.76	3.44	3.22	3.05	2.92	2.82	2.73	2.66	2.6
48	7.19	5.08	4.22	3.74	3.42	3.2	3.04	2.9	2.8	2.71	2.64	2.58
50	7.17	5.06	4.20	3.72	3.41	3.18	3.02	2.88	2.78	2.7	2.62	2.56
55	7.12	5.01	4.16	3.68	3.37	3.15	2.98	2.85	2.75	2.66	2.59	2.53
60	7.08	4.98	4.13	3.65	3.34	3.12	2.95	2.82	2.72	2.63	2.56	2.5
65	7.04	4.95	4.10	3.62	3.31	3.09	2.93	2.79	2.7	2.61	2.54	2.47
70	7.01	4.92	4.08	3.60	3.29	3.07	2.91	2.77	2.67	2.59	2.51	2.45
80	6.96	4.88	4.04	3.56	3.25	3.04	2.87	2.74	2.64	2.55	2.48	2.41
100	6.90	4.82	3.98	3.51	3.2	2.99	2.82	2.69	2.59	2.51	2.43	2.36
125	6.84	4.78	3.94	3.47	3.17	2.95	2.79	2.65	2.56	2.47	2.4	2.33
150	6.81	4.75	3.91	3.44	3.14	2.92	2.76	2.62	2.53	2.44	2.37	2.3
200	6.76	4.71	3.88	3.41	3.11	2.9	2.73	2.6	2.5	2.41	2.34	2.28
400	6.70	4.66	3.83	3.36	3.06	2.85	2.69	2.55	2.46	2.37	2.29	2.23
1000	6.66	4.62	3.80	3.34	3.04	2.82	2.66	2.53	2.43	2.34	2.26	2.2
□	6.64	4.60	3.78	3.32	3.02	2.8	2.64	2.51	2.41	2.32	2.24	2.18

### Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (davomi).

df <sub>1</sub>	14	16	20	24	30	40	50	75	100	200	500	□
df <sub>2</sub>	p<0.05											
1	245	246	248	249	250	251	252	253	253	254	254	254
2	19.42	19.43	19.44	19.45	19.46	19.47	19.47	19.48	19.49	19.49	19.50	19.50
3	8.71	8.69	8.66	8.64	8.62	8.60	8.58	8.57	8.56	8.54	8.54	8.53
4	5.87	5.84	5.80	5.77	5.74	5.71	5.70	5.68	5.66	5.65	5.64	5.63
5	4.64	4.60	4.56	4.53	4.50	4.46	5.44	4.42	4.40	4.38	4.37	4.36
6	3.96	3.92	3.87	3.84	3.81	3.77	3.75	3.72	3.71	3.69	3.68	3.67
7	3.52	3.49	3.44	3.41	3.38	3.34	3.32	3.29	3.28	3.25	3.24	3.23
8	3.23	3.20	3.15	3.12	3.08	3.05	3.03	3.00	2.98	2.96	2.94	2.93
9	3.02	2.98	2.93	2.90	2.86	2.82	2.89	2.77	2.76	2.73	2.72	2.71
10	2.86	2.82	2.77	2.74	2.70	2.67	2.64	2.61	2.59	2.56	2.55	2.54
11	2.74	2.70	2.65	2.61	2.57	2.53	2.50	2.47	2.45	2.42	2.41	2.40
12	2.64	2.60	2.54	2.50	2.46	2.42	2.40	2.36	2.35	2.32	2.31	2.30
13	2.55	2.51	2.46	2.42	2.38	2.34	2.32	2.28	2.26	2.24	2.22	2.21
14	2.48	2.44	2.39	2.35	2.31	2.27	2.24	2.21	2.19	2.16	2.14	2.13
15	2.43	2.39	2.33	2.29	2.25	2.21	2.18	2.15	2.12	2.10	2.08	2.07
16	2.37	2.33	2.28	2.24	2.20	2.16	2.13	2.09	2.07	2.04	2.02	2.01
	p<0.01											
1	6142	6169	6208	6234	6261	6286	6302	6323	6334	6352	6361	6366
2	99.43	99.44	99.45	99.46	99.47	99.48	99.48	99.40	99.49	99.49	99.50	99.50
3	26.92	26.83	26.69	26.60	26.50	26.41	26.35	26.27	26.23	26.18	26.14	26.12
4	14.14	14.15	14.02	13.93	13.83	13.74	13.69	13.61	13.57	13.52	13.48	13.46
5	9.77	9.68	9.55	9.47	9.38	9.29	9.24	9.17	9.13	9.07	9.04	9.02
6	7.60	7.52	7.39	7.31	7.23	7.14	7.09	7.02	6.99	6.94	6.90	6.88
7	6.35	6.27	6.15	6.07	5.98	5.90	5.85	5.78	5.75	5.70	5.67	5.65
8	5.56	5.48	5.36	5.28	5.20	5.11	5.06	5.00	4.96	4.91	4.88	4.86
9	5.00	4.92	4.80	4.73	4.64	4.56	4.51	4.45	4.41	4.36	4.33	4.31

10	4,60	4,52	4,41	4,33	4,25	4,17	4,12	4,05	4,01	3,96	3,93	3,91
11	4,29	4,21	4,10	4,02	3,94	3,86	3,80	3,74	3,70	3,66	3,62	3,60
12	4,05	3,98	3,86	3,78	3,70	3,61	3,56	3,49	3,46	3,41	3,38	3,36
13	3,85	3,78	3,67	3,59	3,51	3,42	3,37	3,30	3,27	3,21	3,18	3,16
14	3,70	3,62	3,51	3,43	3,34	3,26	3,21	3,14	3,11	3,06	3,02	3,00
15	3,56	3,48	3,36	3,29	3,20	3,12	3,07	3,00	2,97	2,92	2,89	2,87
16	3,45	3,37	3,25	3,18	3,10	3,02	2,96	2,98	2,86	2,80	2,77	2,75

### Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (davomi).

df <sub>1</sub>	14	16	20	24	30	40	50	75	100	200	500	□
df <sub>2</sub>	p<0.05											
17	2,33	2,29	2,23	2,19	2,15	2,11	2,08	2,04	2,02	1,99	1,97	1,96
18	2,29	2,25	2,19	2,15	2,11	2,07	2,02	2,00	1,98	1,95	1,93	1,92
19	2,26	2,21	2,15	2,11	2,07	2,02	2,00	1,96	1,94	1,91	1,90	1,88
20	2,23	2,18	2,12	2,08	2,04	1,99	1,96	1,92	1,90	1,87	1,85	1,84
21	2,20	2,15	2,09	2,05	2,00	1,96	1,93	1,89	1,87	1,84	1,82	1,81
22	2,18	2,13	2,07	2,03	1,98	1,93	1,91	1,87	1,84	1,81	1,80	1,78
23	2,14	2,10	2,04	2,00	1,96	1,91	1,88	1,84	1,82	1,79	1,77	1,76
24	2,13	2,09	2,02	1,98	1,94	1,89	1,86	1,82	1,80	1,76	1,74	1,73
25	2,11	2,06	2,00	1,96	1,92	1,87	1,84	1,80	1,77	1,74	1,72	1,71
26	2,10	2,05	1,99	1,95	1,90	1,85	1,82	1,78	1,76	1,72	1,70	1,69
27	2,08	2,03	1,97	1,93	1,88	1,84	1,80	1,76	1,74	1,71	1,68	1,67
28	2,06	2,02	1,96	1,91	1,87	1,81	1,78	1,75	1,72	1,69	1,67	1,65
29	2,05	2,00	1,94	1,90	1,85	1,80	1,77	1,73	1,71	1,68	1,65	1,64
30	2,04	1,99	1,93	1,89	1,84	1,79	1,76	1,72	1,69	1,66	1,64	1,62
32	2,02	1,97	1,91	1,86	1,82	1,76	1,74	1,69	1,67	1,64	1,61	1,59
34	2,00	1,95	1,89	1,84	1,80	1,74	1,71	1,67	1,64	1,61	1,59	1,57

df <sub>1</sub>	14	16	20	24	30	40	50	75	100	200	500	□
df <sub>2</sub>	p<0.01											
17	3,35	3,27	3,16	3,08	3,00	2,92	2,86	2,79	2,76	2,70	2,67	2,65
18	3,27	3,19	3,07	3,00	2,91	2,83	2,78	2,71	2,68	2,62	2,59	2,57
19	3,19	3,12	3,00	2,92	2,84	2,76	2,70	2,63	2,60	2,54	2,51	2,49
20	3,13	3,05	2,94	2,86	2,77	2,69	2,63	2,56	2,53	2,47	2,44	2,42
21	3,07	2,99	2,88	2,80	2,72	2,63	2,58	2,51	2,47	2,42	2,38	2,36
22	3,02	2,94	2,83	2,75	2,67	2,58	2,53	2,46	2,42	2,37	2,33	2,31
23	2,97	2,89	2,78	2,70	2,62	2,53	2,48	2,41	2,37	2,32	2,28	2,26
24	2,93	2,85	2,74	2,66	2,58	2,49	2,44	2,36	2,33	2,27	2,23	2,21
25	2,89	2,81	2,70	2,62	2,54	2,45	2,40	2,32	2,29	2,23	2,19	2,17
26	2,86	2,77	2,66	2,58	2,50	2,41	2,36	2,28	2,25	2,19	2,15	2,13
27	2,83	2,74	2,63	2,55	2,47	2,38	2,33	2,25	2,21	2,16	2,12	2,10
28	2,80	2,71	2,60	2,52	2,44	2,35	2,30	2,22	2,18	2,13	2,09	2,06
29	2,77	2,68	2,57	2,49	2,41	2,32	2,27	2,19	2,15	2,10	2,06	2,03
30	2,74	2,66	2,55	2,47	2,38	2,29	2,24	2,16	2,13	2,07	2,03	2,01
32	2,70	2,62	2,51	2,42	2,34	2,25	2,20	2,12	2,08	2,02	1,98	1,96
34	2,66	2,58	2,47	2,38	2,30	2,21	2,15	2,08	2,04	1,98	1,94	1,91

### Fisher F-test mezonining kritik qiymatlari (oxiri).

df <sub>1</sub>	14	16	20	24	30	40	50	75	100	200	500	□
df <sub>2</sub>	p<0.05											
36	1,98	1,93	1,87	1,82	1,78	1,72	1,69	1,65	1,62	1,59	1,56	1,55
38	1,96	1,92	1,85	1,80	1,76	1,71	1,67	1,63	1,60	1,57	1,54	1,53

40	1,95	1,90	1,84	1,79	1,74	1,69	1,66	1,61	1,59	1,55	1,53	1,51
42	1,94	1,89	1,82	1,78	1,73	1,68	1,64	1,60	1,57	1,54	1,51	1,49
44	1,92	1,88	1,81	1,76	1,72	1,66	1,63	1,58	1,56	1,52	1,50	1,48
46	1,91	1,87	1,80	1,75	1,71	1,65	1,62	1,57	1,54	1,51	1,48	1,46
48	1,90	1,86	1,79	1,74	1,70	1,64	1,61	1,56	1,53	1,50	1,47	1,45
50	1,90	1,85	1,78	1,74	1,69	1,63	1,60	1,55	1,52	1,48	1,46	1,44
55	1,88	1,83	1,76	1,72	1,67	1,61	1,58	1,52	1,50	1,46	1,43	1,41
60	1,86	1,81	1,75	1,70	1,65	1,59	1,56	1,50	1,48	1,44	1,41	1,39
65	1,85	1,80	1,73	1,68	1,63	1,57	1,54	1,49	1,46	1,42	1,39	1,37
70	1,84	1,79	1,72	1,67	1,62	1,56	1,53	1,47	1,45	1,40	1,37	1,35
80	1,82	1,77	1,70	1,65	1,60	1,54	1,51	1,45	1,42	1,38	1,35	1,32
100	1,79	1,75	1,68	1,63	1,57	1,51	1,48	1,42	1,39	1,34	1,30	1,28
125	1,77	1,72	1,65	1,60	1,55	1,49	1,45	1,39	1,36	1,31	1,27	1,25
150	1,76	1,71	1,64	1,59	1,54	1,47	1,44	1,37	1,34	1,29	1,25	1,22
200	1,74	1,69	1,62	1,57	1,52	1,45	1,42	1,35	1,32	1,26	1,22	1,19
400	1,72	1,67	1,60	1,54	1,49	1,42	1,38	1,32	1,28	1,22	1,16	1,13
1000	1,70	1,65	1,58	1,53	1,47	1,41	1,36	1,30	1,26	1,19	1,13	1,08
□	1,69	1,64	1,57	1,52	1,46	1,40	1,35	1,28	1,24	1,17	1,11	1,00

p&lt;0,01

36	2,62	2,54	2,43	2,35	2,26	2,17	2,12	2,04	2,00	1,94	1,90	1,87
38	2,59	2,51	2,40	2,32	2,22	2,14	2,08	2,00	1,97	1,90	1,86	1,84
40	2,56	2,49	2,37	2,29	2,20	2,11	2,05	1,97	1,94	1,88	1,84	1,81
42	2,54	2,46	2,35	2,26	2,17	2,08	2,02	1,94	1,91	1,85	1,80	1,78
44	2,52	2,44	2,32	2,24	2,15	2,06	2,00	1,92	1,88	1,82	1,78	1,75
46	2,50	2,42	2,30	2,22	2,13	2,04	1,98	1,90	1,86	1,80	1,76	1,72
48	2,48	2,40	2,28	2,20	2,11	2,02	1,96	1,88	1,84	1,78	1,73	1,70
50	2,46	2,39	2,26	2,18	2,10	2,00	1,94	1,86	1,82	1,76	1,71	1,68
55	2,43	2,35	2,23	2,15	2,06	1,96	1,90	1,82	1,78	1,71	1,66	1,64
60	2,40	2,32	2,20	2,12	2,03	1,93	1,87	1,79	1,74	1,68	1,63	1,60
65	2,37	2,30	2,18	2,09	2,00	1,90	1,84	1,76	1,71	1,64	1,60	1,56
70	2,35	2,28	2,15	2,07	1,98	1,88	1,82	1,74	1,69	1,62	1,56	1,53
80	2,32	2,24	2,11	2,03	1,94	1,84	1,78	1,70	1,65	1,57	1,52	1,49
100	2,26	2,19	2,06	1,98	1,89	1,79	1,73	1,64	1,59	1,51	1,46	1,43
125	2,23	2,15	2,03	1,94	1,85	1,75	1,68	1,59	1,54	1,46	1,40	1,37
150	2,20	2,12	2,00	1,91	1,83	1,72	1,66	1,56	1,51	1,43	1,37	1,33
200	2,17	2,09	1,97	1,88	1,79	1,69	1,62	1,53	1,48	1,39	1,33	1,28
400	2,12	2,04	1,92	1,84	1,74	1,64	1,57	1,47	1,42	1,32	1,24	1,19
1000	2,09	2,01	1,89	1,81	1,71	1,61	1,54	1,44	1,38	1,28	1,19	1,11
□	2,07	1,99	1,87	1,79	1,69	1,59	1,52	1,41	1,36	1,25	1,15	1,00

10-jadval.

Pirson chiziqli korrelyatsiya mezoni kritik qiymatlari jadvali.

n	p<0,05	p<0,01	n	p<0,05	p<0,01
4	0,950	0,990	26	0,588	0,496
5	0,878	0,959	27	0,381	0,487
6	0,811	0,917	28	0,374	0,478
7	0,754	0,874	29	0,367	0,470
8	0,707	0,834	30	0,361	0,463

9	0,666	0,798	35	0,332	0,435
10	0,632	0,765	40	0,310	0,407
11	0,602	0,735	45	0,292	0,384
12	0,576	0,708	50	0,277	0,364
13	0,553	0,684	60	0,253	0,333
14	0,532	0,661	70	0,234	0,308
15	0,514	0,641	80	0,219	0,288
16	0,497	0,623	90	0,206	0,272
17	0,482	0,606	100	0,196	0,258
18	0,468	0,590	125	0,175	0,230
19	0,456	0,575	150	0,160	0,210
20	0,444	0,561	200	0,138	0,182
21	0,433	0,549	250	0,124	0,163
22	0,423	0,537	300	0,113	0,148
23	0,413	0,526	400	0,098	0,128
24	0,404	0,515	500	0,088	0,115
25	0,396	0,505	1000	0,062	0,081

11-jadval.

**Spirman ranglar korrelyatsiyasi kritik qiymatlari.**

N	P		N	P	P	N	P	
	0,05	0,01		0,05	0,01		0,05	0,01
5	0,94	---	17	0,48	0,62	29	0,37	0,48
6	0,85	---	18	0,47	0,6	30	0,36	0,47
7	0,78	0,94	19	0,46	0,58	31	0,36	0,46
8	0,72	0,88	20	0,45	0,57	32	0,36	0,45
9	0,68	0,83	21	0,44	0,56	33	0,34	0,45
10	0,64	0,79	22	0,43	0,54	34	0,34	0,44
11	0,61	0,76	23	0,42	0,53	35	0,33	0,43
12	0,58	0,73	24	0,41	0,52	36	0,33	0,43
13	0,56	0,7	25	0,4	0,51	37	0,33	0,43
14	0,54	0,68	26	0,39	0,5	38	0,32	0,41
15	0,52	0,66	27	0,38	0,49	39	0,32	0,41
16	0,5	0,64	28	0,38	0,48	40	0,31	0,4

Darslikda keltirilgan misollar Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kurs ishlari, bitiruv ishlaridan olingan.

## **ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTI HAMDA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Калинин С. И. Компьютерная обработка данных для психологов. - СПб.: Речь, 2002.- 134 с.
2. Митина О.В. Математические методы в психологии. Практикум. - М.: Аспект Пресс, 2008. - 238 с.
3. Наследов А.Д. Математические методы психологического исследования. Анализ и интерпретация данных. СПб: Речь, (2004г. - 1-е изд.,2011 г. - 4-е изд.). Гриф УМО.
4. Червинская, К.Р. Компьютерная психодиагностика: Учеб. пособие / К.Р.Червинская,- СПб, Речь, 2004,- 336 с.
5. Howitt D., Cramer D. Introduction to SPSS Statistics in Psychology. For version 19 and earlier. 5th edition. Pearson Education Limited. 2011. — 624pp.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

6. Аристова, О.Н. Специфика психологических методов в условиях использования компьютера / О.Н.Аристова, Л.Н.Бабинин, А.Е.Войсунский.- М.: изд-во Моск. ун-та. 1995. - 109 с.
7. Берк К., Кейри П. Анализ данных с помощью Microsoft Excel: Пер. с англ. — М.: Издательский дом "Вильяме", 2005. — 560 с.
8. Болсуновская И.А. Новые практики организации школьной психологической службы в свете информатизации системы образования //www.som.fio.ru.
9. Бюль А., Цёфель П. SPSS: Искусство обработки информации. М., 2002.
10. Вассерман, Л.И. Психологическая диагностика и новые информационные технологии / Л.И.Вассерман, В.А.Дюк, Б.В.Иовлев, К.Р.Червинская. Сиб.: Питер, 1997.- 203с.
11. Гланц С. Медико-биологическая статистика. Пер. с англ. — М., Практика, 1998. — 459 с.
12. Гласс Дж., Стенли Дж. Статистические методы в педагогике и психологии. Пер. с англ. Л. И. Хайрусовой под ред. Ю. П. Адлера. - М.: Прогресс, 1976. 495с.
13. Гусев А.Н. Дисперсионный анализ в экспериментальной психологии.М. 2000.
14. Долгов, Ю. Н. Задачи на применение методов

математической обработки данных в психологии: учебно-метод. пособие / Ю. Н. Долгов. —Балашов : изд-во Фомичев, 2006. — 48 с.

15. Дюк, В.А. Компьютерная психодиагностика / В.А.Дюк.- СПб., изд-во "Братство", 1994.- 364 с.

16. Ермолаев О.Ю. Математическая статистика для психологов. Учебник. Флинта. 2003 – 336 с.

17. Кричевец А. Н., Шикин Е.В., Дьячков А.Г. Математика для психологов: Учебник. М., 2003.

18. Кулаичев А.П. Методы и средства комплексного анализа данных. М.: Форум - Инфра-М. 2006.

19. Методические указания к практическим работам по курсу Применение ПЭВМ в психологии для студентов-психологов / Сост. Я. В. Солнцева. - Владивосток: Мор. гос. ун-т, 2003. - 31 с;

20. Минько А. А. Статистический анализ в Microsoft Office Excel. Профессиональная работа, М.: Диалектика. 2004

21. Олейникова Е.В. В ногу со временем: опыт использования в практике школьного психолога информационных компьютерных технологий. Вторая Всероссийская неделя школьной психологии // [www.tochkapsy.ru](http://www.tochkapsy.ru)

22. Рокицкий П.Ф. Биологическая статистика. Изд. 3-е, испр. Минск, Вышэйш. школа, 1973. 320 стр. с илл.

23. Статистические методы в психологии: учебно-методический комплекс/ сост. Ю.В.Насонова. - Витебск: ВГУ им. П.М.Машерова[], 2010. - 237с.

24. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии. – СПб.: Речь., 2000 (10 с).

25. Тихомиров, О. К. Анализ этапов компьютеризированной психодиагностики (на примере MMPI) // Вопросы психологии.- 1990.- № 2.- С. 136- 143.

26. Тюрин Ю.Н., Макаров А.А. Анализ данных на компьютере. М. 2003.

#### **Internet resurslar:**

27. Использование SPSS в экономике труда. <http://Stat.nsf/usingspsscontent> (Электронная версия учебного пособия: Олегов Ю.Г., Кулапов М.Н., Попов Л.А. Использование SPSS в экономике труда. М.: Изд-во Рос. экон. акад., 2003).

28. Бусыгина Н. П. Методология качественных исследований психологии : учеб. пособие. М.: ИНФРА-М, 2013. С. 25–26.

29. Вероятностные разделы математики / Под ред. Ю. Д. Максимова. — Спб.: «Иван Фёдоров», 2001. — С. 400. — 592 с. — ISBN 5-81940-050-X.
30. Персональный сайт Андрея Хомича. <http://khomich.narod.ru/> (Размещено учебно методическое пособие Основы математической статистики и компьютерная обработка данных в психологии).
31. Statistika. Darslik. i.f.d. prof. X.A. Shodiev tahriri ostida Toshkent Moliya Instituti. 2004 yil.
32. Трухманов В. Б, Трухманова Е. Н. О некоторых методах
33. SPSS для социологов (домашняя страница и рабочее место авторов учебного пособия). <http://host.iatp.ru/~patsiorkovsky/> и <http://www.isespras.ru/labinfra.htm> (Валентина Викторовна и Валерий Валентинович.
34. <http://courses/statstoc.htm> (Лекционные записки к курсу Статистические методы в психологии с использованием учебника Д. Хоувелла (D. Howell)).
35. Кэмбелл Дж. Модели экспериментов в социальной психологии и прикладных исследованиях. – М.: Прогресс, 1980. С.243.
36. Ярашовский М.Г. История Психологии. М.Мысл. 1985.(268 с.).

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>1 MODUL. PSIXOLOGIYADA MIQDORIY TAHLIL METODLARI.....</b>	<b>5</b>
<b>1-mavzu: MATEMATIK STATISTIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI .....</b>	<b>5</b>
1.1. Psixologiyada o'lchov an'analarining tarixi.....	5
1.2. Falsafa va psixologiya fanlarida sifat va miqdor tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. ....	8
1.3. Psixologiya fanida miqdordan sifatga o'zaro o'tish. ....	8
1.4. Hozirgi zamon fanida va psixologiyada o'lchov tushunchasi.....	9
1.5. Matematik statistika .....	12
1.6. Tavsiflovchi statistika va induktiv statistika. ....	14
1.7. Bosh ko'plik tanlanma va reprezentativlik tushinchalari. ....	15
1.8. O'lchov shkalalari, o'zgaruvchilar va ularning turlari. ....	17
<b>2-mavzu: MA'LUMOTLARNI TAVSIFFLASH VA ULARNING ENG SODDA TAHLIL METODLARI.....</b>	<b>24</b>
2.1.Variatszion qator tushunchasi.....	24
2.2. Variatszion qatorni tartiblash.....	25
2.3. Limit, ranjirovka, mediana, moda va kvartillar. ....	27
2.4. Natijalarni grafik usulda taqdim etish.....	34
<b>3-Mavzu: MARKAZGA INTILISH VA MARKAZDAN QOCHISH TENDENTSIYALARINI ANIQLASH .....</b>	<b>39</b>
3.1. Normal taqsimlanish qonuni to'g'risida umumiy tushuncha. ....	39
3.2. Moda, mediana va o'rtacha qiymat orasidagi o'zaro bog'liqlik. ....	42
3.3. Dispersiya va standart og'ish.....	42
3.4. Variativlik koefitsenti va standart xatoni hisoblash. ....	45
<b>4-mavzu: NORMAL TAQSIMLANISH PARAMETRLARINI BAHOLASHNING STATISTIK METODLARI .....</b>	<b>49</b>
4.1. Bokspolt tuzish.....	49
4.2. Taqsimlanish asimmetriyasi va eksessni hisoblash.....	51

<b>5-mavzu. NORMAL TAQSIMLANISH NAZARIYASINING AMALIY JIHATLARI.....</b>	58
5.1. Standart normal taqsimlanish tushunchasi.....	58
5.2. Bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonchlilik chegaralari.....	60
✓ 5.3. Parametrik va noperametrik mezonlar to'g'risida umumiy tushuncha.....	63
5.4. Empirik taqsimlanishning ehtimollar nazariyasi bilan bog'liqligi.....	69
<b>6-mavzu: MA'LUMOTLARNI STATISTIK TAQQOSLASH METODLARINI TANLASHNING ASOSIY MEZONLARI.....</b>	73
✓ 6.1. Variatsion qatorning normal taqsimlanishga mosligini aniqlash. ..	73
✓ 6.2. Kolmogorov-Smirnov mezoni. ....	75
✓ 6.3. Ikki dispersiyaning gomogenligini aniqlash. ....	79
<b>7-mavzu: O'ZARO BOG'LIQ BO'LMAGAN IKKI TANLANMANI TAQQOSLASH UCHUN STYUDENT-T MEZONI. ....</b>	86
✓ 7.1. Parametrik va noperametrik ma'lumotlarni taqqoslash mezonlarni. ....	86
7.2. Styudent t-mezonini qo'llash. ....	87
7.3. Dispersiyalar gomogenligini aniqlaganda, ikki tanlanmaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash. ....	90
7.4. Dispersiyasi har hil ammo tanlanma xajmlari bir xil bo'lgan o'rtacha qiymatlarini taqqoslash. ....	93
<b>8-mavzu: O'ZARO BOG'LIQ BO'LMAGAN IKKI TANLANMA UCHUN MANNI-UITNI MEZONI. ....</b>	95
8.1. O'zaro bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun Manni-Uitni mezoni. ....	95
8.2. Manni-Uitni mezonini qo'llash sohasi. Manni-Uitni mezoninini hisoblash jarayoni va formulasi. ....	96
8.3. Manni Uitni-U mezoni bo'yicha xulosa chiqarish. ....	102
<b>✓ 9-mavzu: TAKRORIY O'LCHOVLARDA IKKI TANLANMANI TAQQOSLASH MEZONLARI. ....</b>	104
9.1. Takroriy o'lchovlar uchun Styudent t- mezonini hisoblash. ....	104

9.2. Juft o'zgaruvchilarni Vilkokson mezonida o'zaro taqqoslash....	106
9.3. Noparametrik takroriy o'Ichovlarni o'zaro taqqoslash uchun ishoratlar G-mezoni.....	110
<b>10-mavzu: NOPARAMETRIK MA'LUMOTLAR UCHUN <math>\chi^2</math></b>	
<b>ASSOTSIATIV MEZONI.....</b>	<b>115</b>
10.1. Xi kvadrat nolparametrik mezonini qo'llash shart-sharoitlari....	115
10.2. Xi kvadrat mezonining turlari.....	116
10.3. Xi kvadrat mezoninin hisoblash jarayoni va formulasi.....	117
10.4. Xi kvadrat nolparametrik mezoni bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.....	127
<b>2 MODUL. PSIXOLOG MA'LUMOTLARNI KOMPYUTERDA QAYTA ISHLASH DASTURLARI.....</b>	<b>134</b>
<b>11 mavzu. BIR OMILLI DISPERSION TAHLIL MEZONI.....</b>	<b>134</b>
11.1. Bir omilli dispersion tahlildan foydalanish tamoyillari.....	134
11.2. Bir omilli dispersion tahlil mezonini hisoblash jarayoni va formulalari.....	135
11.3. Bir omilli dispersion tahlil bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.	142
<b>12-mavzu: KRUSKAL-UOLLIS MEZONI.....</b>	<b>144</b>
12.1. Kruskal-Uollis mezonidan foydalanish tamoyillari.....	144
12.2. Kruskal-Uollis mezonini hisoblash jarayoni va formulasi.	145
12.3. Kruskal-Uollis mezoni bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.	148
<b>13-Mavzu: KORRELATSION TAHLIL MEZONLARI. PIRSON KORRELYATSIYA MEZONI.....</b>	<b>151</b>
13.1. Parametrik va nolparametrik ma'lumotlarning korrelyatsion tahlil metodlari.....	151
13.2. Pirson korrelyatsiya mezonidan foydalanish tamoyillari.	153
13.3. Pirson korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.	156
13.4. Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.	157
<b>14-Mavzu: SPIRMAN KORRELYATSIYASI MEZONI.....</b>	<b>160</b>
14.1. Spirmen korrelyatsiyasi haqida umumiy tushuncha.....	160
14.2. Spirmen korrelyatsiyasi mezonidan foydalanish tamoyillari.	162
14.3. Spirmen korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi.	163
14.4. Spirmen korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari....	165

<b>15-mavzu: REGRESSION TAHLIL MEZONI.....</b>	<b>168</b>
15.1. Regression tahlil mezoni haqida umumiyl tushuncha. ....	168
15.2. Regression tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari. ....	168
<b>16-mavzu: EXCEL VA SPSS DASTURLARIDA</b>	
<b>MA'LUMOTLARNI TAHYLIL QILISH.....</b>	<b>175</b>
16.1. Windows uchun Excel dasturining elektron jadvali.....	175
16.2. Yacheyska.....	176
16.3. Uskunalar paneli.....	178
16.4. Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish: .....	180
16.5. Formula tushunchasi.....	182
16.6. Diagrammalar va grafiklar.....	183
16.7. Ma'lumotlar zahirasini tartiblash.....	184
<b>17-mavzu: SPSS DA MA'LUMOTLARNI TASHKIL QILISH... </b>	<b>187</b>
17.1. O'Ichov shkalalari va ma'lumot turlari.....	187
17.2. Tahlil uchun ma'lumot manbalari.....	190
17.3. Ma'lumotlarni tashkil etish xususiyatlari. ....	192
17.4. Ma'lumotlarni kodlashtirish usullari. ....	196
17.5. Elektron jadvaldan ma'lumotlarni kiritish.....	198
17.6. O'zgaruvchilarining boshqa xususiyatlari. ....	198
<b>18-mavzu: EXCEL DA TAQSIMLANISH</b>	
<b>KO'RSATGICHLARINI HISOBBLASH.....</b>	<b>202</b>
18.1. Taqsimlash ko'rsatgichlari.....	202
18.2. Ta'riflar, hisoblash formulalari.....	206
18.3. Taqsimlanishning joylashgan o'rmini aniqlash ko'ratkichlari. ....	209
18.4. Markazga intilish tendentsiyalarini aniqlash statistik ko'rsatkichi.....	212
18.5. Taqsimlanish ko'rsatkichlari, protsentillar. ....	212
18.6. Bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonch ko'rsatkichi uchun ishonch intervalini aniqlash. ....	215
18.7. Natijalarni grafik usulda taqdim etishning usuli.....	221
18.8. Gistogrammalar.....	223

<b>19-mavzu. EXCEL VA SPSS KOMPYUTER DASTURLARIDA TAQSIMLANISHNING MURAKABROQ PARAMETRLARINI HISOBLASH.</b> .....	231
19.1. Statistik taqsimlanishning asimmetrikligini aniqlash. ....	231
19.2. Normal taqsimlanish qonuni. Taqsimlanishning normalligini aniqlash.....	231
19.3. Taqsimlanishning normalligini aniqlash testi.....	232
19.4. Guruhlar bo'yicha dispersiyalar tengligini o'zaro aniqlash testi. ....	236
19.5. Normallashtiruvchi o'zgartirishlar.....	238
<b>20-mavzu: EXCEL DASTURIDA STYUDENT-t MEZONINI HISOBLASH.</b> .....	241
20.1. Bir tanlanma uchun t mezioni. ....	241
20.2. Bog'liq bo'lmagan guruhlarda t-mezonini hisoblash. ....	244
20.3. Takroriy o'chovlar uchun t- mezoni. Hisoblash formulalari....	246
<b>21-mavzu: SPSS DASTURIDA O'RTACHA QIYMATLARNI HISOBLASH.</b> .....	249
21.1. Bog'liq va bog'liq bo'lmagan tanlanmalar.....	249
21.2. O'rtacha qiymatlarni taqqoslash bo'yicha farazlar va o'rtacha qiymatlarni amali.....	249
21.3. Bir tanlanma uchun t-mezoni.....	253
21.4. Bog'liq bo'lmagan guruhlar uchun t-mezoni. ....	254
21.5. Takroriy mezonlar uchun t-mezoni. Hisoblash formulalari. ....	256
<b>22 mavzu: IKKI TANLANMANING O'XSHASHLIGINI ANIQLASHNING NOPARAMETRIK MEZONLARI.</b> .....	259
22.1. Bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun Manni-Uitni U mezoni. ....	259
22.2. Manni-Uitni U mezonini tanlash uchun asoslar. ....	259
22.3. Manni-Uitni mezonini Excel dasturida hisoblab topish bo'yicha yo'riqnomasi. ....	260
22.4. Manni-Uitni U mezonini statistik paketlar dasturi yordamida hisoblab topish. ....	262
22.5. O'zaro bog'liq tanlanmalar uchun Vilkokson mezoni. ....	265

22.6. Vilkokson mezonini Excel dasturida hisoblab topish bo'yicha yo'riqnomasi.....	265
<b>23-mavzu: NOMINAL SHKALALARING STATISTIK TAHLILI.....</b>	<b>269</b>
23.1. Statistik baholash tushunchasi.....	269
23.2. Tavsiflovchi va tahliliy statistika.....	270
23.3. Nominal shkalalar uchun chastotali jadvallar.....	271
23.4. Tartib shkalalari uchun chastotali jadval.....	274
23.5. Birlashtirilgan jadvallar.....	280
23.6. Ikki o'lchovli birlashtirilgan jadvallar.....	285
23.7. Birlashtirilgan jadvallar yacheykalarida foizlar.....	287
23.8. Statistik farazlarni tekshirish, Statistik ahamiyatlilik.....	288
23.9. Birlashtirilgan jadvallar uchun statistik farazlar.....	289
23.10. Birlashtirilgan jadvallarda qavatlarni belgilash.....	295
<b>24-mavzu: SPSS DASTURIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI.....</b>	<b>298</b>
24.1. Eksplorator faktorli tahlil.....	298
24.2. Faktorli tahlilning asosiy g'oyalari, tushunchalari va tamoyillari.....	299
24.3. Asosiy komponentlar usuli. Keyingi tahlillar uchun qoldirilgan asosiy komponentlar sonini belgilash.....	303
24.4. Faktorlarni aylantirish.....	304
24.5. Faktor qiymatlari.....	306
24.6. Natijalarni taqdim etish grafik usulda ifodalash.....	307
24.7. Klasterli tahlil. Klasterli tahlilning asosiy g'oyalari, tushuncha va tamoyillari.....	312
24.8. Natijalarni sharhlash. O'lchovlar va o'xshashliklar jadvali.....	314
24.9. Klasterlararo masofani aniqlash usuli. Klasterlar sonini aniqlash.....	321
24.10. Klaster tahlil natijasini grafik usulda taqdim etish.....	322
<b>25-Mavzu: EXCEL KOMPYUTER DASTURIDA KORRELYATSION VA REGRESSION TAHLILNI AMALGA OSHIRISH.....</b>	<b>325</b>

25.1. Spirman ranglar korrelyatsiyasi koeffitsenti.....	325
25.2. Spirman ranglar korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash formulasi.....	326
25.3. Pirson korrelyatsiya koeffitsenti. Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash formulasi.....	330
25.4. Pirson korrelyatsiya koeffitsentini hisoblash formulasi. ....	331
25.5. Excel ma'lumotlar tahlilida Pirson korrelyatsiyasini hisoblab topish. ....	332
<b>26-mavzu: SPSSDA MIQDORIY KO'RSATGICHLAR ORASIDAGI STATISTIK BOG'LIQLIKNI ANIQLASH.....</b>	<b>335</b>
26.1. Bog'lilik turlarining tasnifi. ....	335
26.2. Tarqalish diagrammalari. ....	336
26.3. Pirson korrelyatsiya koeffitsenti. ....	338
26.4. Rang korrelyatsiya koeffitsentlari. ....	340
26.5. Qismiy korrelyatsiya koeffitsentlari. ....	341
26.6. Qismiy korrelyatsiyani hisoblash jarayoni. ....	341
26.7. Bog'lilikning ahamiyatlilik darajasi. ....	342
<b>27-mavzu: MA'LUMOTLAR VA TAHLIL NATIJALARINI GRAFIK HAMDA JADVAL USULIDA TAQDIM ETISH.....</b>	<b>344</b>
27.1. Mobil jadvallar tushunchasi.....	344
27.2. Mobil jadvallarning qoliplari.....	344
27.3. Aylantirish maydonchalari yordamida o'zgaruvchilar va statistik ko'rsatgichlarning izchilligini o'zgartirish. ....	347
27.4. Satrlar va ustunlarning o'rinnarini almashtirish. ....	351
27.5. Ustunlarning kengligini o'zgartirish. Mobil jadvallarda matnni tahrir qilish va shaklga solish.....	352
27.6. Mobil jadvallarida kategoriyalarning tartib o'rinnarini o'zgartirish. ....	355
Glossariy.....	360
Ilovalar. ....	369
Asosiy va qo'shimcha adabiyoti hamda o'quv qo'llanmalar ro'yxati .....	388

**Muxamedova Dilbar Gafurjanova,  
Salomova Gul ShShodimurodovna**

## **PSİKOLOGİK TADQIQOTLAR MA'LUMOTLARINI QAYTA İSHLASH METODLARI VA TEXNOLOGİYALARI**

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhib: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 04.04.2022 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Times New Roman"  
garniturasи. Hisob-nashr tabog'i. 20,0.  
Adadi 300 dona. Buyurtma № 60.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha